

# JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

## OUR FIELDS

- Exact Sciences
- Natural sciences
- Medical sciences
- Technical sciences
- Economics
- Philological sciences
- Pedagogical sciences
- Social and humanitarian sciences
- Psychological sciences
- Arts and cultural sciences
- Physical education and sports

RESEARCHBIB IMPACT  
FACTOR: 6.4 / 2023  
SJIF 2023: 3.778



Research Science and  
Innovation House

## OUR INDEXING



ISSN (E): 2181-4570



• <http://universalpublishings.com>



Research Science and  
Innovation House

"RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE" MCHJ

# JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

OCTOBER 31, 2023

VOLUME 1, ISSUE 10







**"Journal of Universal Science Research" scientific-methodical journal:  
31.10.2023.**

In this collection, the articles accepted for the **"Journal of Universal Science Research"**, volume-1, issue-10, 2023, are published.

DOI number was attached to all articles in the journal and indexed in the international scientific bases of **Directory of Research Journals Indexing, Researchbib, Index Copernicus, Zenodo, Open Aire, Google Scholar, Advanced Science Index, J-Base, Cite Factor, International Scientific Indexing, Euarasian Scientific Journal Index, General Impact Factor, Internet Archive.**

Dissertations are officially recognized as articles published in national journals on the list of journals recommended to publish the main scientific results of dissertations by OAK.

**Basis:** Page 3 of the list of scientific publications recommended to publish the main scientific results of dissertations of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent: 2019. - 160 p

The materials of the magazine can be used by professors, teachers, independent researchers, doctoral students, masters, students, lyceum colleges and school teachers, scientific workers and all those interested in science.

Reminder! The authors are personally responsible for the correctness of the numbers, reports, data and the correctness of the quotations in the scientific articles included in the collection of journal materials.



**“RESEARCH SCIENCE AND  
INNOVATION HOUSE” LLC**



**EDITORIAL TEAM**

**Editor-in-chief, [Eshkaraev Sadridin Chorievich](#)** - associate professor of the Department of Analytical Chemistry of Termiz State University, Doctor of Philosophy Chemical Science, Termez, Uzbekistan. esadir\_74@rambler.ru

**Responsible secretary: Boboyorov Sardor Uchqun o'g'li** - student of the Termiz branch of the Tashkent Medical Academy

**Preparer for publication: Eshkoraev Samariddin Sadridin o'g'li** – Master student of Termiz Institute of Engineering and Technology

**Editor of medical sciences Ye Fan Wang Glavin**, Case Western Reserve University, United States / Chinese Academy of Medical Sciences, Peking Union Medical College, China

**Editor-of technical science, [Eshkaraev Ulugbek Chorievich](#)** - Associate Professor of the Department of Primary Education Methodology of Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Candidate of Technical Sciences, Denau, Uzbekistan.

**Editor of medical sciences Carolyn Steele Gray**, Canada Research Chair in Implementing Digital Health Innovation (Tier 2), Canada

**Editor of technical science [Babamuratov Bekzod Ergashevich](#)** - associate professor of the Department of Physical Chemistry of Termiz State University, Doctor of Philosophy Technical Science, Termez, Uzbekistan.

**Editor of medical sciences Donata Kurpas**, Wroclaw Medical University, Poland

**Editor of chemical sciences Mirabbos Hojamberdiev Ikromovich**- associate professor of the Technische Universität Berlin, doctor of chemical science, Berlin, Germany

**Editor of medical sciences Mirella Minkman**, Vilans, Netherlands

**Editor-of Chemical sciences, Eshqurbonov Furqat Bozorovich** - Termiz Institute of Engineering and Technology, Doctor of Chemical Science, Termez, Uzbekistan.

**Editor of medical sciences Roberto Nuño**, Director Investigación y Formación Fundación Gaspar Casal, Spain

**Editor-of Economic, Otamurodov Shavkat Tillayevich** - Vice-rector of Termiz University of Economics and Service Doctor of Economic science, Termez, Uzbekistan.

**Editor of medical sciences David Perkins**, University of Newcastle, Australia


**Editor-of Social and humanities, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich** - Termiz Institute of Engineering and Technology, Doctor of Social and humanity Science, Termez, Uzbekistan.

**Editor of medical sciences Otamurodov Furqat Abdukarimovich**, Director of Termiz Branch of Tashkent Medical Academy, Termez, Uzbekistan Doctor of science in Medical Sciences, Termez, Uzbekistan.

**Editor of medical sciences Robert Henderson**, University of Arizona

**Editor biological sciences Nurova Zamira Annakulovna** Termez branch of Tashkent Medical Academy. Termez, Uzbekistan Doctor of biological science, docent, Termez, Uzbekistan.

**Editor filological sciences Chris Kennedy**, University of Chicago







**Editor of medical sciences Turabayeva Zarina Kenjabekovna** Termez branch of Tashkent Medical Academy, doctor of Philosophy medical sciences, Termez, Uzbekistan.

**Editor of Sociology science Eryigitova Lobar Qodirovna** Termiz Institute of Engineering and Technology, Doctor of Philosophy Sociology Science, Termez, Uzbekistan.

**Editor filological sciences Jurayeva Ramziya Abdurahimovna** Kokand State Pedagogical Institute. Kokand, Uzbekistan Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), senior teacher.

**Editor of physics-mathematics-sciences Bobamuratov Ulugbek Erkinovich** Termiz Institute of Engineering and Technology, Doctor of Philosophy physics-mathematics-sciences, Termez, Uzbekistan.

**Editor of medical sciences Akhmedov Kamoliddin Khakimovich** Dean of the Faculty of Treatment No. 1 of the Termiz branch of the Tashkent Medical Academy, Candidate of medical sciences, associate professor

**Editor of medical sciences Vahidov Alisher Shavkatovich** Termez branch of Tashkent Medical Academy General surgery, children head of the department of surgery and pediatric urology Doctor of medical sciences, professor

**Editor of Humanitarian science Rakhmonov Abdukahhor Abdusattorovich** Vice-Director for Spiritual Education and Youth Affairs, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences

**Editor of technical sciences Hasan Soyibnazarovich Beknazarov** Leading researcher of the Tashkent Research Institute of Chemical Technology, doctor of technical sciences, professor.


**Editor of pedagogical sciences Sultonova O'g'iloy Nabiyevna** Termiz Institute of Engineering and Technology, Doctor of Pedagogical sciences, Termez, Uzbekistan

**Editor of pedagogical sciences Eshkoraev Kakhramon Abduraxmatovich** Chirchik State Pedagogical University Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

**Editor of technical sciences Rakhmankulov E. Jasur** -Tashkent scientific Research Institute of Innovative Chemical Technology Doctor of Philosophy in technical science. e-mail: jasurer87gmail.com

**Editor of agriculture science Jurakhon N Nadjiev** - Council of the Tashkent State Agrarian University Doctor of agriculture science.

**Editor of agriculture science Dilshod T. Jumanov** - Council of the Uzbek Research Institute of Cotton-grawing State Agrarian University Doctor of Philosophy (Ph.D.) in agriculture science.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

**BA'ZI TENGLAMALARNI FUNKSIYANING SODDA  
XOSSALARIDAN FOYDALANIB YECHISH****Xolmuradova Zulfizar Rustam qizi****Termiz davlat pedagogika instituti talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bir qarashda murakkab, qiyin ko'rinadigan ba'zi tenglama va tengsizliklarni ularda qatnashayotgan funksiyalarning sodda xossalari yordamida yechish usullari qaraladi.

Bunday usullar tenglama yoki tengsizlikda ikki xil xarakterdagi funksiyalar qatnashganda juda qo'l keladi.

**Kalit so'zlar:** murakkab masalalar, nostandart tenglamalar, tenglamalar sistemasi.

**1.Aniqlanish sohasidan foydalanish.** Ba'zi hollarda, tenglama yoki tengsizliklarda qatnashayotgan funksiyalarning aniqlanish sohasini bilish tenglama yoki tengsizlikning yechimi mavjud emasligini bilishga yoki yechimini topishga yordam beradi.

Kelgusida tenglama yoki tengsizlikning aniqlanish sohasi deganda unda qatnashayotgan funksiyalar aniqlanish sohasining umumiy qismi tushuniladi.

**1-misol.**  $\sqrt{x-3} = \lg(x-3)$  tenglamani yeching.

**Yechish.** Tenglamaning aniqlanish sohasi  $x-3 \geq 0$  va  $x-3 > 0$  tengsizliklarni bir vaqtda qanoatlantiruvchi sonlar to'plamidan iborat. Tenglamaning aniqlanish sohasi bo'sh to'plam, demak tenglama yechimga ega emas.

**Javob:** ildizi yo'q.


Shunday qilib, tenglamani yechmasdan uning ildizlari yo'qligini aniqladik.

**2-misol.**  $2 - \sqrt{4-x^2} = \sqrt[4]{x^4-16} + x$  tenglamani yeching.

**Yechish.** Tenglamaning aniqlanish sohasi  $4-x^2 \geq 0$  va  $x^4-16 \geq 0$  tengsizliklarni bir vaqtda qanoatlantiruvchi sonlar to'plamidan iborat. Bundan tenglamaning aniqlanish sohasi faqat -2 va 2 sonlardagina iborat ekanligini ko'rish qiyin emas. Bu sonlarni tenglamaga qo'yib tekshiramiz.

$x = -2$  da tenglamaning chap tomoni 2 ga, o'ng tomoni  $-2$  ga teng, demak

$x = -2$  tenglamaning ildizi bo'la olmaydi.







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

$x = 2$  da tenglamaning chap va o'ng tomonlari 2 ga teng, demak  $x = 2$  tenglamaning ildizi bo'ladi. **Javob:**  $x = 2$ .

**2-misol.**  $\sqrt{1-x} + \sqrt{1+x^2} + \sqrt{x-1} = \sqrt{2}$  tenglamani yeching.

**Yechish:** Tenglamaning aniqlanish sohasini topaylik.

$$\begin{cases} 1-x \geq 0 \\ x-1 \geq 0 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x \leq 1 \\ x \geq 1 \end{cases} \Rightarrow x = 1$$

Tenglamaning aniqlanish sohasi faqat bitta  $x = 1$  nuqtadan iborat.  $x = 1$  ni Berilgan tenglamani qanoatlantirishini tekshiramiz.  $x = 1$  bo'lsa,  $\sqrt{1-1} + \sqrt{1+1^2} + \sqrt{1+1} = \sqrt{2}$ ,  $\sqrt{2} = \sqrt{2}$  tenglik to'g'ri. Demak, tenglama faqat  $x = 1$  ildizga ega. **Javob:**  $x = 1$

**2. Funksiyaning chegaralanganligidan foydalanish.** Tenglama va tengsizliklarni yechishda biror to'plamda funksiyaning quyidan yoki yuqoridan chegaralanganligi asosiy rol o'ynaydi. Masalan, M to'plamda  $f(x) > a$ ,  $g(x) < a$  bo'lsa, u holda  $f(x) = g(x)$  tenglama yoki  $f(x) < g(x)$  ( $f(x) > g(x)$ ) tengsizlik yechimga ega bulmaydi. Ko'p hollarda  $a = 0$  bo'ladi, bunda M to'plamda  $f(x)$  va  $g(x)$  funksiyalarning ishoralari haqida gapirish mumkin.

**1-teorema.** Agar haqiqiy sonlarning biror M to'plamida  $f(x) \leq a$ ,  $g(x) \leq b$  tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda  $f(x) + g(x) = a + b$  (1) tenglama M to'plamda

$$\begin{cases} f(x) = a \\ g(x) = b \end{cases} \quad (2) \text{ tenglamalar sistemasiga teng kuchli bo'ladi.}$$

**Isbot.** (2) ning yechimi (1) ning yechimi bo'lishi ravshan. (1) ning yechimi (2) ning yechimi ekanligini ko'rsatamiz. Teskaridan faraz qilamiz.  $x_0$  (1) ning yechimi, lekin (2) ning yechimi bo'lmasin. U holda  $f(x_0) < a$  yoki  $g(x_0) < b$  bo'ladi. Buni hisobga olsak,  $f(x_0) + g(x_0) < a + b$  bo'ladi, ya'ni  $x_0$  (1) ning yechimi emas. Bu ziddiyat tasdiqning o'rinli ekanligini isbotlaydi.



**2-teorema.** Agar haqiqiy sonlarning biror  $M$  to'plamida  $f(x) \geq a, g(x) \leq a$  tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda  $M$  to'plamida  $f(x) = g(x)$  tenglama  $\begin{cases} f(x) = a \\ g(x) = a \end{cases}$  tenglamalar sistemasiga teng kuchli bo'ladi.

**Isbot.** (2) ning yechimi (1) ning yechimi bo'lishi ravshan. (1) ning yechimi (2) ning yechimi ekanligini ko'rsatamiz. Teskaridan faraz qilamiz.  $x_0$ (1) ning yechimi, lekin (2) ning yechimi bo'lmasin. U holda  $f(x_0) < a$  yoki  $g(x_0) > a$  bo'ladi. Buni hisobga olsak,  $f(x_0) < g(x_0)$  bo'ladi, ya'ni  $x_0$ (1) ning yechimi emas. Bu ziddiyat tasdiqning o'rinli ekanligini isbotlaydi.

**3-teorema.** Agar haqiqiy sonlarning biror  $M$  to'plamida  $|f(x)| \geq a, |g(x)| \geq b$  (yoki  $|f(x)| \leq a, |g(x)| \leq b$ ) o'rinli bo'lsa, u holda  $M$  to'plamida  $f(x) \cdot g(x) = a \cdot b$  tenglama tenglamalarning quyidagi sistemasining birlashmasiga

$$\text{teng kuchli: } \begin{cases} \begin{cases} f(x) = a \\ g(x) = b \end{cases} \\ \begin{cases} f(x) = -a \\ g(x) = -b \end{cases} \end{cases}$$

**Isbot.** (2) ning yechimi (1) ning yechimi bo'lishi ravshan. (1) ning yechimi (2) ning yechimi ekanligini ko'rsatamiz. Teskaridan faraz qilamiz.  $x_0$ (1) ning yechimi, lekin (2) ning yechimi bo'lmasin. U holda  $|f(x_0)| < a$  yoki  $|g(x_0)| < a$  ( $|f(x_0)| > a$  yoki  $|g(x_0)| > a$ ) bo'ladi. Buni hisobga olsak,  $f(x_0)g(x_0) < ab$   $f(x_0)g(x_0) > ab$  bo'ladi, ya'ni  $x_0$ (1) ning yechimi emas. Bu ziddiyat tasdiqning o'rinli ekanligini isbotlaydi.

**1-misol.**  $\sin(2x+1) = x^2 + 2x + 3$  tenglamani yeching.





**Yechish:** Ixtiyoriy  $x$  son uchun  $\sin(2x+1) \leq 1$  va  $x^2 + 2x + 3 = (x+1)^2 + 2 \geq 2$  o‘rinli, ya’ni tenglamaning chap tomoni 1 dan katta, o‘ng tomoni 2 dan kichik bo‘la olmaydi. Bundan berilgan tenglamaning ildizi yo‘q ekanligi kelib chiqadi.

**Javob:** ildizi yo‘q.

**2-misol.**  $x^3 - x - \sin \pi x = 0$  tenglamani yeching.

**Yechish:** Ravshanki, 0, -1, 1 sonlari tenglamaning ildizlari bo‘ladi. Uning boshqa ildizlari yo‘qligini ko‘rsatamiz. Buning uchun  $f(x) = x^3 - x - \sin \pi x$  funksiyaning toqligidan foydalanamiz, ya’ni  $x > 0$ ,  $x \neq 1$  sohani tahlil qilish kifoyadir. Bu sohani  $(0;1)$  va  $(1; \infty)$  oraliqlarga ajratamiz.

Berilgan tenglamani  $x^3 - x = \sin \pi x$  ko‘rinishda yozib, uning chap va o‘ng tomonidagi funksiyalarni yuqoridagi oraliqlarda tekshiramiz.  $(0;1)$  oraliqda  $x^3 < x$  bo‘lganligi sababli  $g(x) = x^3 - x$  funksiya faqat manfiy qiymatlar,  $h(x) = \sin \pi x$  funksiya esa faqat musbat qiymatlar qabul qiladi. Demak,  $(0;1)$  oraliqda berilgan tenglama yechimga ega emas.

$x > 1$  bo‘lganda  $g(x)$  funksiya faqat musbat qiymatlar,  $h(x) = \sin \pi x$  funksiya har xil ishorali qiymatlar qabul qiladi. Xususan,  $(1; 2]$  oraliqda  $h(x) \leq 0$ , demak  $(1; 2]$  oraliqda ham berilgan tenglama ildizi mavjud emas.

Agar  $x > 2$  бўлса, u holda  $|\sin \pi x| \leq 1$ ,  $x^3 - x = x(x^2 - 1) > 2 \cdot 3 = 6$  bo‘ladi.


Bundan berilgan tenglamaning  $(2; \infty)$  oraliqda ildizi yo‘q ekanligi kelib chiqadi.

Demak, faqat  $x = 0$ ,  $x = -1$ ,  $x = 1$  sonlar tenglamaning yechimi bo‘ladi.

**Javob:**  $x = 0$ ,  $x = -1$ ,  $x = 1$ .

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Algebra va analiz asoslari: Akad.litseylar uchun darslik/  
A.U.Abduhamidov, H.A.Nasimov, U.M.Nosirov, J.H.Husanov [H.A.Nasimovning umumiy tahriri ostida]; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023


vazirligi, O`rta maxsus kasb-hunar ta`limi markazi. 8-nashr.-T.: “O`qituvchi” NMIU, 2009. Q.I. -400b.

2. Ochildiyev Hasan Bahodir ugli “Improving the Invariant and Variable Components of Molecular Physics in School through Media” International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS) 2021. Page No.: 95-96

3. Ochildiyev Hasan Bahodir ugli, & Mahmudov Yusuf Ganiyevich. (2022). The difference between teaching molecular physics at school in russia and uzbekistan. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 237–241.

4. Ochildiyev H.B., Yusupov M.G. “[Improving the invariant and variable components of molecular physics in school through media](#)” "Экономика и социум" №2(81) 2021

5. Ochildiyev H.B., “Molekulyar fizikaning invariant va variativ komponentlarini takomillashtirishga oid materiallarni takomillashtirish prinsiplari”. *Образование и наука в XXI века. Выпуск №13( том 1) (апрель,2021) 39-44*





## AKSIOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING TARIXIY ASOSLARI

**Xolov Olimjon Chorshamiyevich**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
“Pedagogika” kafedrasida katta o‘qituvchisi,  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aksiologiya tushunchasi, aksiologik tarbiyaning mazmuni hamda tarixiy jarayonlarda G‘arb va Sharq olimlarining qarashlari, qadriyatlarning turlari, milliy qadriyatlarimizga oid qaror va farmonlar shuningdek ilmiy tadqiqot ishlari haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so‘z va tushunchalar.** Aksiologiya, qadriyat, milliy tarbiya, xalq, ta’lim, tarbiya, an’ana, urf-odat.

## ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Холов Олимжон Чоршамиевич**

Термезский университет экономики и сервиса,  
старший преподаватель кафедры  
«Педагогика», доктор философии  
педагогических наук (PhD).

**Аннотация.** В данной статье рассматривается понятие аксиологии, содержание аксиологического образования, взгляды западных и восточных ученых на исторические процессы, виды ценностей, решения и указы, связанные с нашими национальными ценностями, а также научные исследования.

**Ключевые слова и понятия.** Аксиология, ценность, национальное воспитание, народ, воспитание, воспитание, традиция, обычай.

## HISTORICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF AXIOLOGICAL EDUCATION

**Kholov Olimjon Chorshamiyevich**

Termiz University of Economics and Service, senior teacher of the "Pedagogy" department, doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD).

**Annotation.** This article discusses the concept of axiology, the content of axiological education, the views of Western and Eastern scientists in historical processes, types of values, decisions and decrees related to our national values, as well as scientific research.

**Key words and concepts.** Axiology, value, national education, people, education, education, tradition, custom.

**Kirish.** Tarbiya insonning boshqa mavjudodlardan farqlaydigan uning insoniyligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiya har bir shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy va boshqa sifatlarini shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon bo'lib, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlaydigan chora tadbirlar yigindisidir. Tarbiyani yo'lga qo'ymagan jamiyat, jamiyat bo'la olmagan kabi tarbiyasiz inson ham qadr topmaydi. Chunki inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan ko'plab qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan keyingisiga o'tib boradi.

**Asosiy qism.** Haqiqatdan ham dunyo xalqlarining barchasi doimo yosh avlodni tarbiyalashda qadr va qadrlash tushunchalarini har qanday holatda ham singdirib borishga alohida e'tibor qaratib kelgan. Ayniqsa bugungi globallashuv jarayonida yoshlarda aksiologik ongni shakllantirish har doimigidan ko'ra yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Qadriyatlar mavzusining tarixiy ildizlari va insoniyatga hos qadrlash tamoyillari shakllanishi uzoq o'tmishga ega. G'arb olimlari bu borada, asosan, Yevropa madaniy merosi va g'oyalariga tayanadilar, ko'plab allomalarning nomlarini

tilga oladilar. G'arbda qadriyatlar bilan shug'ullanadigan falsafiy soha - Aksiologiya (aksio - qadriyat, logos - ta'limot) fanining shakllangani ham ularning bunday qarashlari uchun muayyan asos bo'ladi.

Shu o'rinda qadriyat tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, qadriyat inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Qadriyat borasida so'z yuritilganda u faqat buyum va narsalarning iqtisodiy qimmatini emas, jamiyat va inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar, talab va tartiblar va boshqalarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladi.

Qadriyatlar ijtimoiy jarayonlar ta'sirida insonlarda qadriyat to'g'risidagi qarashlari o'zgarib goh u qadriyat, goh bu qadriyat insonlar uchun birinchisiga aylanadi. Bu borada misol o'rnida shuni aytish mumkinki, yurtni dushman bosganida – ozodlik qadri, mustabitlikda – istiqloq qadri, urush davrida – tinchlik qadri, tutqunlikda – erkinlik qadri, bemorlikda – sog'likning qadri yuqori bo'ladi.

Qadriyatlar ijtimoiy tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida o'z tarixiy rivojlanish tarixiga ega bo'lib, uning tarixiy ildizlariga nigoh tashlaydigan bo'lsak uzoq o'tmis davrlarga borib taqaladi. Qadriyatlar borasida Sokrat, Platon, Dinarx, Giperid, Gorgiy, Isokrat, Isey, Esxil, Demosfen, TSitseron, Kvintilian kabi namoyondalar katta e'tibor berganlar, darhaqiqat G'arb falsafasida o'z tarixiga ega ekanligiga shubha qilmaymiz. Ammo ushbu mavzu ko'hna va navqiron Sharq hususan O'zbekiston uchun begona emas! Uning eng teran jihatlarini o'zbek xalq og'zaki ijodidagi Spitamen, Muqanna, Alpomish, To'maris, Shiroq hamda "Avesto"da vatanparvarlik, tinchlik va boshqa ko'plab umuminsoniy qadriyatlar ifodalangan. Shuningdek Abu Nasr Forobiy, Imom Al Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarimizning asarlarida aksiologik tarbiyani shakllantirish va qadriyatli dunyoqarashni barqaror rivojlantirishning nazariy-tarixiy asoslari keng bayon qilingan.

Aksiologik tarbiyani shakllantirishning ahamiyati yuqorida qayd etilgan Sharq va G'arb olimlarining davrida ham muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa, XX-XXI-asr olimlari tamonidan ham ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar amalga oshirildi.

Bu borada Respublikamiz faylasuf olimlari A.Begmatov, M.Bekmuradov, M.Qaxxarova, Q.Nazarov, J.Tulenov, E.Yusupov, M.A.Nurmatovalar o'rganilgan



bo'lsa, pedagogik jihatlarini B.Qodirov, B.Adizov, Sh.Mardonov, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, D.Ro'zieva, X.J.Xudoyqulov, B.Xodjaev, M.Bozorova, M.Quronov, Sh.Z.Taylanova, A.D.Aliyarov, D.X.Kosimova, Z.B.Jalilov, G.A.Xolboeva, A.T.Tilegenov, S.U.Kistaubaev, psixolog olimlarimizdan Sh.Barotov, M.Davletshin, V.Karimova, N.Safaev, E.G'oziev, G.Shoumarov, R.Sunnatovalar tadqiqot ishlarini olib borishgan [4,13-b].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan I.Isaev, G.A.Melekesov, N.A.Popovanova, L.V.Vershina, S.I.Rabazanov, O.A.Sidorenko, R.A.Gromov, R.A.Murtazin, Z.Ravkin, N.Rozov, V.Slastenin, I.Surina, L.A.Grigoreva, Ye.Shiyanov, M.Kagan, Ye.A.Osipova xorijlik olimlardan B.Wilson, J.M.Gottman (B.Vilson, J.M.Gottman), J.Kim (J.Kim), V.A.Kanke (V.A.Kanke), T.Parsons (T.Parsons) lar qadriyatli yo'nalishlarining o'ziga xosliklarini o'rganishgan [9,13-b].

Davlatimiz mustaqillikga erishgan dastlabki yillardan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash va uni yoshlar ongiga singdirishga alohida e'tibor qaratdi. Ayniqsa birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning qadriyatlar borasidagi fikrlari o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Ya'ni: "Vatan - eng oliy makon, u menikidir", "eng oliy qadriyat - inson", mulkning eng oliy shakli - intellektual mulk va inson faoliyatining eng oliy turi - intellektual mehnat", vaqt eng oliy boylik, umuminsoniy qadriyatlar, moddiy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, tabiiy qadriyatlar, iqtisodiy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlar, axloqiy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, oilaviy qadriyatlar, demokratik qadriyatlarni ta'kidlab o'tgandilar [3].

Ayni damda barcha sohalarda shiddat bilan rivojlanib borayotgan davlatimiz tamonadan xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor yanada oshirilib borilmoqda. Bu borada umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirilishi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ko'rsatib o'tilgan. Ushbu konsepsiyada - milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish (VI-bob 39-modda tarkibida); milliy qadriyatlar, an'analarga hurmatning namoyon bo'lishi (VI-bob 40-modda tarkibida); o'g'il bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik, halollik, rostgo'ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, vazminlik, yigitlik g'ururi, or-nomus, mehr-oqibatlilik kabi fazilatlar, tadbirkorlik va oilaparvarlik malakalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish (VI-bob 49-modda); qiz

bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat, mehnatsevarlik, jonkuyarlik, oilaparvarlik, ibo, hayo, nafosat, did-farosat, qanoat, vafodorlik, mehribonlik, rahmdillik, kamtarlik, ziyraklik, mehmondo'stlik, bolajonlik, murosaliilik, orastalik, saranjomlik, xushmuomalalik, pazandalik kabi malakalarni shakllantirishga qaratilgan trening dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish (VI-bob 50-modda); vazifalari belgilangan [2].

Shu o'rinda aytish kerakki Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tamonidan 2017-yil 17-noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab quvvatlash chora-tadbirlari" PF-5242-son Farmoni, 2017 yil 17 noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3391-son Qarori, 2019 yil 14 maydagi "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-4320-sonli qarori, 2019 yil 3 oktyabrdagi "Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazib borishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5841-son Farmoni, 2020 yil 4 fevraldagi "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida, PQ-4584-son kabi ko'plab qaror va farmonlar qabul qilindi. Ushbu qaror va farmonlarda aks etayotgan xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor, yoshlarda aksiologik bilimlarni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqorida keltirilgan qaror va farmonlarni qabul qilinishi bejizga emas Prezidentimizning milliy, ma'naviy qadriyatlarimizni asrash va rivojlantirish nima uchun zarur ekanligini quyidagi fikrlarda aytib o'tgan edilar: "Ma'lumki, qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lgan yurtimiz zaminidan o'rta asrlarda minglab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi, butun insoniyatning ma'naviy mulki hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekistonimizning kitob fondlarida ming-mingdan ziyod qo'lyozma asarlar saqlanmoqda. Afsuski, bu nodir kitoblar hali to'liq o'rganilmagan, ular olimlar va o'z o'quvchilarini kutib turibdi. Ushbu noyob asarlardan bugungi davr o'rtaga qo'yayotgan juda ko'p dolzarb muammolarga javob topish mumkin. Xususan, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib beradigan, barcha odamlarni ezgulik, mehr-oqibat va hamjihatlik yo'lida birlashishga da'vat etadigan teran ma'noli fikr va g'oyalar bugun ham o'z qimmatini va ahamiyatini yo'qotgan emas. Lekin, biz ana shunday noyob meros vorislari, shunday boylik egalari bo'la turib, ularni har tomonlama o'qish-

o'rganish, xalqimiz, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizga, jahon hamjamiyatiga yetkazish bo'yicha yetarli ish qilmaganimizni ham ochiq tan olish kerak. Biz diniy jaholatga, zararli oqimlarga qarshi ma'rifat bilan kurashish kerakligi haqida ko'p gapiramiz. Bu to'g'ri, albatta. Lekin ma'rifat, ma'rifiy bilimlar qaerda - avvalo ota-bobolarimiz bizga qoldirib ketgan mana shunday mo'tabar kitoblarda emasmi?" degan edilar [1].

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki yosh avlodda aksiologik tarbiyani shakllantirish bugungi kunda har doimgidanda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aksiologiya borasidagi bilimlarni egallanishi yosh avlodda avvalo inson oliy qadriyat ekanligi, abadiy qadriyat, tabiiy va moddiy qadriyat, ma'naviy-madaniy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, milliy qadriyat, ijtimoiy-siyosiy qadriyat, diniy qadriyat, shaxsiy qadriyat, mehnat qadriyatlari, turmush qadriyati, badiiy qadriyat, iqtisodiy qadriyat, ilmiy qadriyat, huquqiy qadriyat, oilaviy qadriyat, kasbiy va boshqa qadriyatlarni shakllantirish jarayoniga ijobiy ta'sir etadi. Shunday ekan ta'lim-tarbiya jaroyonida aksiologik tarbiya berishga o'rinli va maqsadli yondoshsak, yosh avlodni har tamonlama barkamol shaxs bo'lishida samarali bir vosita bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga qilgan murojaatnomasidagi nutqidan. Toshkent. 2017 yil 22 dekabr.
2. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1059-son qarori. 31.12.2019. *Lex.uz.* elektron sayt.
3. "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida"gi PF-1559-sonli Farmonini qabul qilish jarayonidagi nutqidan. Toshkent. 1996 yil 9 sentyabr.
4. Xolov O.Ch. "Xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongni shakllantirish" mavzusida pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Termiz. 2022. – 174 bet.
5. Xolov O.Ch. "Xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongni shakllantirish" Monografiya. TerDU "IRFON-PRINT" nashriyoti. Termiz. 2023. 129 bet.



## THE IMPORTANCE OF SEMIOTICS IN THE PROCESS OF EDUCATIONAL DESIGN AND ANALYSIS OF SEMIOTIC SYSTEMS

*Abdusamatov Alisher Sobirovich*

*Termiz davlat universiteti*

*“Boshlang’ich ta’lim” kafedراسi o’qituvchisi*

*Termiz (O’zbekiston)*

*E-mail: aabdusamatov912gmail.com*

*Tel: 91-577-62-99*

**Abstract:** In this article, about the fields of semiotics and their limits, as well as their types, the importance of semiotic aspects, its application, the necessary pedagogical conditions, the scientists and their views, the branches, directions of semiotics and its use in our daily life. It is mentioned how we can use it.

**Key words:** Semiotics, primary education, mathematics, semasiology, pragmatics, syntactics.

From the semiotic point of view, it is characteristic to distinguish three levels of research of sign systems corresponding to three aspects of semiotic problems.

Syntax studies the structure of signs and the relationship between them, regardless of what they represent and how they are perceived by the receiver, from the point of view of syntax. Parsing is the processing of text in natural language, the purpose of which is to obtain a syntactic representation of this text, in particular, its syntactic structure.

Semantics studies the relationship between symbols and the objects they denote, regardless of the recipient of the symbols. He studies the general laws of construction of any symbol system considered in syntax. The subject of semantics is defined differently in different semiotic and linguistic concepts. These differences are determined, first of all, by the exact definition of the sign and the idea of the defined reality. Therefore, F. de Saussure understood the sign as a dual essence, which represents the unity of the signifier and the signified (the plane of expression and the

plane of content). Researchers who support this approach see the main task of semantics in studying the relationship between these two sides. There is another idea belonging to Gottlob Frege (1848-1925), according to which it is necessary to distinguish between the objective and semantic meaning of the sign, that is, the signified object and its concept. With such an approach, the main task of semantics is to establish connections between, on the one hand, symbolic expressions, and on the other hand, defined objects and the relationships between them. Semantic analysis is a set of operations that serve to express the meaning of a text in a natural language in the form of writing in some formalized semantic (semantic) language. Semantic analysis models the human process of understanding text.

Pragmatics studies the perception of meaningful expressions of the sign system according to the decision-making ability of the perceiver. Theoretical pragmatics examines hypotheses about the properties and structure of intelligence. Applied pragmatics includes empirical analysis of people's understanding of various linguistic expressions, studies of rhythm and versification, and research devoted to the development of information retrieval systems.


Thus, there are three levels of consideration of any information message. At the pragmatic level, all elements of information exchange are considered to determine the usefulness of information. At the semantic level, abstracting information from the recipient, the ultimate goal of learning is the semantic meaning of the message, its correspondence to the described objects. The narrowest syntactic level is the level of studying only the signs themselves and the relationships between them.

All three levels are important for the application of the semiotic approach in the field of pedagogy and education.

Information around us is often presented in the form of a semiotic system. That is, a set of different types of characters. Its main task is to ensure complete collective and individual communication processes.

So what signs allow him to be like that?

- firstly, any system should be at least integrated.
- secondly, the elements must be systematized according to a certain principle.



- thirdly, new elements can appear only according to a clearly defined principle.

The entire variety of used symbolic tools is a semiotic field. As part of this field, the following main types of signs and sign systems can be distinguished.

- natural;
- functional;
- conditional (conditional);
- iconic;
- oral (natural languages); • signature recording systems.

Natural signs are objects and natural phenomena, if they point to other objects or phenomena and are considered as carriers of information about them. Natural signs

-

These are signs of signs, for example, smoke is a sign of fire. To understand natural signs, you need to know what they are and extract the information from them.

Functional signs are things and events that have a direct pragmatic purpose, they are included in human activity and receive information about it. it becomes signs because it walks. These are also signs of signs, for example, production equipment, because it can be a sign that contains information about the entire technical system, which is any mechanism or part element, for example, the teacher's finger ro walking on the list. the number of students in the journal becomes the symbol of the initial request. Functional symbols often have secondary meanings inherent in them by analogy, which is especially evident in superstitions.

Education, where the communication culture of the teacher is a cultural phenomenon, cannot be carried out without paying attention to the culture of the teacher's personality. In the conditions of humanization, one of the main aspects of personal culture becomes the communicative aspect. Successful communication activities contribute to the effectiveness of the teacher as the basis of effective relationships, mutual understanding, self-improvement and elimination of personal crises.



There are several definitions of a teacher's communicative culture:

- pedagogical culture component [1];
- the system of communicative interaction between the teacher and the surrounding world based on a system of signs and symbols [2];
- the quality of communication characterized by the humanistic vector of development [3];
- a set of skills and abilities in the field of communication tools and the laws of interpersonal interaction that help to effectively solve the problems of mutual understanding and communication [4].

When analyzing all definitions, E.V. Sysoeva [5] believes that the teacher's communicative culture can be defined as a set of cultural norms, knowledge, values, skills and abilities used in the communication process and contributing to its effectiveness. To understand communicative culture as an integrative education, the following are important:

- the ability to coordinate and connect one's actions with management;
- receiving and accepting another, choosing and presenting arguments;
- the ability to put forward alternative explanations;
- discuss the problem;
- understanding and respecting the opinions of others;

Be prepared to be flexible and courteous with others.

The level of development of the teacher's communicative culture is reflected in communicative activity.

Communicative activity is a complex multi-channel system of interaction and relations between subjects of the pedagogical process, including: mutual perception; live information exchange; development of a unified communication strategy, decision-making;

It cannot be denied that communication is one of the most important means of control in modern human life. One of its constant elements is the communicative chain of three links "addressee-message-receiver", which allows the transmission of any information. However, A.V. According to Nazarchuk, communication also includes "media reality formed in the process of communication, that is, communicative reality as a separate dimension of social reality" [5]. Thus, communication takes on a slightly different status. Now it is not a simple means of communication, but the way and goal of human existence in culture.

It is impossible to study communication without referring to the theory of signs, because at present there are changes related to increasing the role of sign structures in communicative interactions. New semiotic formations in the form of a system of signs and symbols are created with the help of television, mobile communication, the Internet, etc. This is the unique function of a sign in the formation of a new communicative reality.

Any thought process is based on a sign, therefore, for Charles Peirce (the founder of semiotics), man is a creature that creates signs through semiosis. The relationship of signs is considered from the following position: a sign is something that represents something else in a certain relationship or quality for the interpreter, that is, a sign is impossible without an interpreter. It is this concept that makes it possible to distinguish the "mark" from the "unmarked". In the process of dynamic interpretation of a sign, it does not work until it is perceived as such - semiosis.

There are two main approaches to defining semiosis.

The first is related to the works of Ferdinand de Saussure, where the sign is understood as a double personality, representing the unity of the signifier and the signified. In the semiotic traditions of those times (developed within the framework of structuralism), semiosis is "by establishing a mutual assumption relationship between the form of expression and the form of content - or between the signifier and the signified" [6]. Saussure In linguistics, the postulate of the arbitrariness of the sign is important, in which the connection of the signifier with the signified does not include the specific properties of these components of the sign. order is the process of operation in a system in which its various parts are exchanged. It is the exchange

process that transforms the elements involved into symbols or messages.

The second approach is related to the work of Charles Sanders Peirce, who defines a sign as an object that represents or replaces something else in human activity. To define the concept of semiosis, Peirce uses the triadic scheme "object-sign-interpretor". And if the first two components are clear, then the "interpretor" requires further explanation. For Peirce, an "interpretor" is the way a person uses a sign or the effect a certain sign has on a person. Semiosis is also characterized by the following features:

- subject;
- includes an interpretor - the producer and interpretor of signs appear only in a group of interpreters who know certain rules of interpretation of signs for mutual understanding. The activity of such a group consists of a clear permanent semiosis;

A sign produced by one subject is interpreted by other subjects and produces an interpretant. It already works as another sign, which can also be interpreted. It was found that the (real) object discussed in the group is not expressed directly, but only within the framework of semiosis.

### References

1. Zaretskaya, I.I. O'qituvchi va rahbarning kommunikativ madaniyati. M.: Sentyabr, 2002. – 160 b.
2. Maksimova, G.P. Universitet o'qituvchisining kommunikativ madaniyati va uning kasbiy faoliyatdagi rivojlanishi: dis. ...kand. ped. Sci. Rostov n/d., 2000. - 179 p.
3. Auxadeyeva, L.A. Universitetga tayyorgarlik jarayonida zamonaviy o'qituvchining kommunikativ madaniyatini shakllantirish: dis. ... Doktor ped. Sci. Qozon, 2008. – 427 b.
4. Sokolova, V.V. Nutq madaniyati va muloqot madaniyati. M. : Ma'rifat, 1995. – 192 b.
5. Nazarchuk, A.V. Muloqot g'oyasi va XX asrning yangi falsafiy tushunchalari asr [Matn] / A.V. Nazarchuk // Nashr. Faylasuf – 2011. – No5. – 157–165-betlar.
6. Greimas A.J., Kurte A. Semiotika. Izohlovchi lug'at // Semiotika. M., 1983. B. 526



**Zamonaviy maktabgacha ta'limda bolalarda milliy va madaniy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy asoslari.**

**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti**

**“Pedagogika” kafedrasida o'qituvchisi**

**Almardanov Jo'rabek Bobonazarovich**

**E-mail: jueabekalmardanov@gmail.com**

**Тел.: +99899 410 78 18**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Zamonaviy maktabgacha ta'limda bolalarda milliy va madaniy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy asoslari fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy qadriyat, madaniy-tarixiy meros, ma'naviy tarbiyalash, vatanparvarlik hissi, milliy qadriyatlar tizimi, o'z o'rnini saqlash, o'tmish va ma'naviy meros, ona yurt tuyg'usi.

Теоретические основы формирования национально-культурных ценностей у детей в современном дошкольном образовании.

Термезский университет экономики и сервиса

Преподаватель кафедры «Педагогика»

Алмарданов Жорабек Бобоназарович

Электронная почта: jueabekalmardanov@gmail.com

Телефон: +99899 410 78 18

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются теоретические основы формирования национально-культурных ценностей у детей в условиях современного дошкольного образования.

**Ключевые слова:** национальная ценность, культурно-историческое наследие, духовное воспитание, чувство патриотизма, система национальных ценностей, сохранение своего места, прошлого и духовного наследия, чувство Родины.

Theoretical foundations for the formation of national and cultural values in children in modern preschool education.

Termez University of Economics and Service

Lecturer at the Department of Pedagogy

Almardanov Zhorabek Bobonazarovich

Email: jueabekalmardanov@gmail.com

Phone: +99899 410 78 18

**Abstract:** This article discusses the theoretical foundations of the formation of national and cultural values in children in the conditions of modern preschool education.

**Key words:** national value, cultural and historical heritage, spiritual education, sense of patriotism, system of national values, preservation of one's place, past and spiritual heritage, sense of the Motherland.

### Kirish

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda to'tgan xolda, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqatida namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda uning mohiyatini tushunib yetish kerak. Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yuq joyda biron narsaning qadr qimmatini haqida so'zlash bema'nilikdir. Shuning uchun ham inson qadr qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Kishining qurshab turgan cheksiz ko'p narsa va hodisalar, shu jumladan, milliy ma'naviyat ichidan ham, muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh, yoki konkret millat, yohud butun insoniyat uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo'lganlari qadriyat deyiladi.

Milliy qadriyatlar deb, muayyan xalqning rasm-rusumi, an'anasi, fazilatlarini, axloq va odobi, yashash tarzi, bayramlari, shu xalqning aksariyat qismi tomonidan e'zozlanishga loyiq bo'lgan inshoatlar, milliy kiyimlar, uy-ro'zg'or buyumlari, ro'zg'or tutishlari aytiladi.

### ADABIYOTLAR TAXLILI

Barchamizga yaxshi ma'lumki, har bir davlatning barqaror taraqqiyoti hamda rivojlanishi inson omiliga, xususan, yosh avlodning ilmiy, ijodiy va ma'naviy salohiyatiga bog'liq. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi muammolari deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiy masaladir. Yoshlar tarbiyasi mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 78-

sessiyasida shunday dedi: "Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan strategik vazifalardan biridir.

Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta’limni kambag‘allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘shishga erishishning eng samarali omili, deb bilamiz.

Mamlakatimiz oxirgi yillarda bu borada katta tajriba to‘pladi – ta’lim tizimi tubdan o‘zgarimoqda. O‘tgan olti yilda maktabgacha ta’limdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga, oliy ta’limda esa 9 foizdan 38 foizga yetdi. 2030 yilga qadar har bir bolaning bog‘chaga qatnashi, maktabni bitirayotgan har ikki o‘quvchining biri esa oliygohda o‘qishi uchun imkoniyat yaratiladi".

#### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola umum qabul qilingan metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

#### TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetentsiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi. Vatanga sadoqat, burch va mas‘uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Darhaqiqat, xalq o‘zining ming yillardan ortiq davrda shakllangan an‘ana va tajribalari, so‘nmas xotirasi va buyuk tuyg‘ulari bilan yashab kelayotgan qudratli

kuch. Xorazmshohlar va temuriylar saltanati davrida xalq shaklida tarix sahnasida paydo bo'lgan o'zbeklar ajoyib siymolari bilangina emas, balki, so'nmas, zo'r tarixiy xotirasi, yuksak ruhiyati tajribasi bilan hamhozirgi zamon sivilizatsiyasini yaratishdagi eng faol, bunyodkor etnoslardan biri desa bo'ladi. Mustaqillik sabab yangilangan davlat qurilishi o'lkamizda nafaqat umuminsoniy qadriyatlar va siyosiy, huquqiy ta'limotlar, balki o'zimizning juda boy o'tmish tajribamiz asosida to'plangan noyob g'oyaviy merosimizga suyangan holda amalga oshirilmog'i lozim.

Eng asosiysi esa milliy ma'naviy merosdan barkamol avlodni tarbiyalashda foydalanishimiz mumkin. Butun dunyoga birdek tahdid solayotgan ommaviy madaniyatdan yoshlarimizni himoyalashda ma'naviy merosimiz muhim rol o'ynaydi. Masalan kiyinish madaniyati, O'rta Osiyo halqlarining kiyim - kechaklari ko'p asrlk tarixga ega. Har bir elat va etnik guruhning o'ziga xos bosh - oyoq kiyimlari bo'lsada, mintaqamizda yashovchi etnoslar umumiy xarakteridagi sarpo, kiyimlari mavjudligidir. Ularni qadimdan bir – biriga yaqin bo'lganligini ko'rsatadi. Bugunda esa milliy kiyimlar ko'proq bayramlarda, ayrim tadbirlarda kiyiladigan kiyimlar qatoriga tushub qolayotgandek. Yevropalashgan kiyimlar ommaviylashib ulgurdi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartining 2-bobi Davlat standartining maqsadi quyidagilarni nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat.

Davlat standartining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Maktabgacha ta'limning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- Milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- O'quv-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;



- Ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'laqonli va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etishga bo'lgan sanitariya-gigienik talablarni belgilash;
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish me'yorlarini tartibga solish;
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'yinlar, o'yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, reabilitatsion vositalar bilan jihozlash;
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yong'in xavfsizligini ta'minlashga qo'yiladigan talablarga muvofiqligini ta'minlash.

43. Araujo M et al. Meta-analysis of the effect of an essential oil-containing mouthrinse on gingivitis and plaque. J Am Dent Assoc. 2015; 146(8): 610-622..

44. По данным внутренних исследований. Внутреннее исследование от 09.07.2010

45. Internal reports for studies by Minoli G., October 3, 2008 Ilg D et al, February 20, 2009).

46. Михальченко Д. В., Маслак Е. Е., Наумова В. Н., Данилина Т. Ф., Бадрак Е. Ю. Взаимосвязь сахарного диабета с заболеваниями полости рта: что знают об этом врачи-стоматологи и их пациенты?. Волгоградский научно-медицинский журнал 2/2013. С.51-53.

47. Бахрамова Н.Н., Абидова Р.М., Эргашов О.И., Боймуродов Б.Т. и Каландарова Ф.С. (2023). Оценка антибактериальной и противогрибковой активности биологически активного вещества, приготовленного из местных растительных экстрактов. *Американский журнал инноваций в сельском хозяйстве и садоводстве*, 3(04), 29-36. <https://doi.org/10.37547/ajahi/Volume03Issue04-06>

## ПРОФЕССИЯ ШКОЛЬНЫХ УЧИТЕЛЕЙ РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ – СОЦИАЛЬНАЯ ПОТРЕБНОСТЬ

Жумаева Гульнара Турсунпулатовна  
Заведующий педагогическим факультетом  
Термезского университета экономики и  
сервиса доктор философских педагогических  
наук PhD в/б доц.

В данной статье анализируются актуальность и теоретические основы проблемы развития профессиональной культуры педагогов, процесс развития профессиональной культуры педагогов школы, самоконтроль, самооценка, рефлексивно-творческое мышление, ценностно-гносеологические и деятельностно-творческие структуры содержимое компонентов подсвечивается. Также в статье представлены психолого-педагогические особенности и компоненты развития профессиональной культуры школьных учителей.

**Ключевые слова и понятия:** профессиональная культура, профессиональная деятельность, рефлексия, самоконтроль, самооценка, психологическая, педагогическая.

**Введение.** В мировой педагогической практике большое внимание уделяется обеспечению проблемы развития профессиональной культуры педагогов адаптивности к изменяющимся требованиям рынка труда, путём развития профессиональной культуры и социальной компетентности специалистов. Эта тенденция послужила причиной увеличения количества научных исследований, посвящённых проблеме «педагогического мировоззрения», международным научным сообществом.

На самом деле тот факт, что политическая, социальная и культурная природа общества постоянно растёт и меняется, требует от современных специалистов, особенно педагогов-педагогов, наличия своих профессиональных ценностей и личных убеждений, не только собственных, но и требует умения принимать другие культуры, постоянно совершенствовать педагогическое мировоззрение и способности в соответствии с социальными потребностями.



**Актуальность темы и цель исследования.** В целях модернизации социально-экономической сферы в нашей стране, повышения качества подготовки высококвалифицированных кадров, развития человеческого капитала исходя из требований рынка труда, внедрения в образовательный процесс цифровых технологий и современных методов обучения, подготовка высококвалифицированных, “творчески мыслящих, самостоятельных лиц, принимающих решения” на основе международных стандартов. В качестве основных стратегических направлений определены подготовка кадров, способных принимать решения, создание необходимых условий для проявления их интеллектуальных способностей и формирования как духовно зрелой личности. задания. Это требует совершенствования механизмов, служащих повышению качества подготовки высокообразованных специалистов<sup>1</sup>.

**Методы исследования.** Педагогико-психологический анализ, сравнение, систематизация, моделирование, анкетирование, анкетирование, проверка результатов наблюдения, литературно-исследовательская работа.

**Литературный анализ.** Профессиональная культура, проблема повышения знаний, профессиональной и нравственной культуры педагогов исследовалась отечественными и рядом зарубежных ученых.

Говоря о развитии профессиональной культуры школьных учителей, прежде всего необходимо уточнить сущность понятия «культура». Понятие культуры трактуется в литературном наследии восточных ученых и педагогов-психологов следующим образом: Слово “культура” очень широко употребляется в современной речи. Слово “культура” происходит от латинского слова “культурный”, что означает “возвышать, растить, развивать, чтить”.

Взгляды на профессиональную культуру нашли отражение в древних рукописях, религиозных и дидактических источниках. Например, в “Авесте” есть поучения, призывающие к уважению к профессии, верности профессии, трудолюбию, вежливости, работая по учению ислама и отдавая закят из найденных за этим богатств, каждый мусульманин может зарабатывать на

---

<sup>1</sup>Указ № ПФ-5847 Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» // Национальная база правовых документов, 08.10.2019.

жизнь с своей профессии халяльным способом, основанным на том, что развитие профессиональной культуры у людей зависит от правил этикета.

Камолиддин Хусейн Вайз аль-Кошифи, мыслитель, живший и творивший в XV веке, говорил об особой роли школы и учителя в воспитании детей, считал, что учителя должны быть мудрыми, знающими, милыми и справедливыми. Учёный предлагает мнение об учителях в своём труде “Этические мухсини”: “Учитель должен соблюдать правила приличия и этикета, давая советы и воспитывая ребенка. Неуместно увещевать ученика в общественных местах, но необходимо увещевать ребенка в уединенном месте. Если тренер знает, что пришла возможность дать совет, он должен подойти к нему вежливо, потому что в наше время желательно быть вежливым и добрым”.

Абдурахман Джамии, один из великих ученых, так описывает деятельность учителя в своих трудах: “учитель должен быть знающим, умным, справедливым и воплощать в себе все самые высокие качества”. “Человек, который ведет себя неадекватно, никогда не сможет передать знания и манеры ученикам”.

“Высокое качество учителя заключается в его уме, знаниях, мыслях, словах, нравах и нравах, - сказал в своем труде “Мудрость Зеленой книги” известный педагог, школьный историк Хикматулла Абдуллаев, - Мимика и слова учителя, пусть ее сердце, внешний вид, поведение и платье будут прекрасными и образцовыми. В частности, его речь должна быть четкой, беглой и впечатляющей. Важно, чтобы он мог показать, что он ювелир слова в общении. Необходимо добиться этого, чтобы люди, особенно родители и ученики, признали его правдивым, честным, чистым, здравомыслящим, сострадательным и добрым, гуманным человеком. Ученый Абу Райхан Беруни, подошедший к вопросам единства образования и этики как зрелый ученый-педагог, высказал свои ценные мнения и воспитательно-дидактические взгляды на педагогику и психологию и сказал ученикам и учителям, стремящимся к знаниям и просвещению: “Когда вступаешь в даргах знания, освобождаешь свое сердце от пороков, соблазняющих человека, от похоти, ослепляющей человека,

и от различных пагубных ситуаций, от различных старых очерстевших традиций, от жадности, конкуренции, от рабства жадности”<sup>2</sup>.

Алишер Навои говорит, что воспитание подрастающего поколения нельзя доверить какому-то случайному тренеру, и предъявляет высокие требования к личности педагога. В своем произведении “Махбуб-уль-Кулуб” Навои упоминает о своих просветительских мыслях и взглядах на личность учителя и его духовность. По словам Навои: “Учитель должен быть не только учителем, но и квалифицированным воспитателем. Учитель должен быть далек от невежества, ханжества и невежества, а настоящим учителем должен быть человек с лучшей “малакской внешностью” среди ученых, то есть чистый доброволец, чистое сердце, честный, доброжелательный, вежливый, верный, лучшее в личности и должно отражать благородные качества”<sup>3</sup>.

Г.Гафуров, Н.Хакимов и Б.Алиев в своей книге «Культура и общество» подчеркивают следующие характеристики понятия «культура»: «Понятие культуры включает в себя материальные и духовные блага и представляет собой духовный мир человека. Таким образом, можно выделить три основных пласта культуры:

- 1) регулярная умственная и физическая активная творческая деятельность человечества;
- 2) развитие, потребление (использование) и сохранение материальных и духовных благ;
- 3) социальные структуры, реализующие ценности, моральные концепции, правовые практики.

Культура – это активная творческая деятельность. “Человек развивается и достигает прогресса благодаря активному творчеству. Творчество расширяет пределы духовной деятельности человека. Человек приобретает статус креативности только через творческие способности, умственный и физический труд”<sup>4</sup>.

<sup>2</sup> Абу Райхан Беруни. 100 слов мудрости. Ташкент: Наука, 1993. - 248 с.

<sup>3</sup> Алишер Навои. Махбуб-уль-Кулуб. Работает. Том 15. – Ташкент: Наука, 2005. – 244 с.

<sup>4</sup> Махкамов Ю.И. Педагогические основы формирования нравственной культуры старшеклассников. пед.науки. врач. ... дисс. - Т.: 1998. -Б. 28.

Ученый-педагог Ойниса Мусурмонова говорила: “Культура – это система, характеризующая уровень развития общества, воплощающаяся в процессе общественно-исторической практики и составляющая социальное и духовное содержание личности. В данном случае под культурой понимаются закономерности взаимодействия человека и его деятельности, в том числе возникновение и развитие культурных отношений человека и общества к бытию, организация его культурной деятельности в соответствии со спросом, интересом, желанием человека., состоит из системы своеобразных черт духовной культуры, совокупности закономерностей духовного развития и формирования духовной культуры личности”<sup>5</sup>.

Из приведенных определений видно, что культура - это не только совокупность материальных и духовных богатств, созданных творческой деятельностью людей, но в то же время она представляет собой и уровень развития общества, т.е. уровень знаний, стандартов и ценности в обществе сумма воплощается в культуре. Системный подход к культуре как общему полю дает возможность представить уникальные характеристики разных культурных полей, влияющих друг на друга не по частям, а в целом. Системный подход дает возможность использовать многие методы исследования. То есть результаты, полученные одними методами, являются основанием для выводов без противопоставления их другим.

Профессиональные знания являются основополагающими в развитии профессиональной культуры педагога. Знания учителя, с одной стороны, ориентированы на предмет, который он преподаёт, а с другой стороны, на учащихся. Содержание профессиональных знаний организовано педагогической наукой и ее методикой преподавания, психологически и педагогически. Она заключается в комплексности и интегративности конкретных аспектов профессионального педагогического знания. На основе профессиональных знаний формируется педагогическое мышление педагога, определяющее действия, привычки, законы и принципы, основанные на его деятельности.

---

<sup>5</sup>Мусурмонова О. Педагогические основы формирования духовной культуры старшеклассников. пед. наука. док. ... дисс. автореф. - Т.: 1993. - С.48.2.



Большое внимание уделяется развитию профессиональной культуры кадров педагогов-специалистов и повышению их адаптивности к требованиям меняющегося рынка труда путем формирования их социокультурной компетентности. Эта тенденция послужила причиной увеличения количества научных исследований, посвященных проблеме “педагогического мировоззрения”, международным научным сообществом. В самом деле, тот факт, что политическая, социальная и культурная природа общества постоянно растет и меняется, требует от современных специалистов, особенно педагогов-педагогов, наличия своих профессиональных ценностей и личных убеждений, причем не только собственных, но и требует умения принимать другие культуры, постоянно совершенствовать педагогическое мировоззрение и способности в соответствии с культурными традициями и социальными потребностями<sup>6</sup>.

Самоопределение профессионально-личностной позиции школьного учителя, самообразование, самосовершенствование, саморазвитие и “саморазвитие”. Особое внимание уделено важности понимания сущности и важности быть “отличным специалистом” овладение различными методами педагогического мастерства. Это первый, но не последний шаг на сложном и сложном пути повышения профессиональной культуры педагогов. Она является основой для самообразования, самосовершенствования и саморазвития педагога.

Специальная педагогика, направленная на развитие профессиональной культуры школьных учителей - в первой из них планируется приобщение учителей к профессиональной профиограмме, а в двух следующих - осуществление развития важных педагогико-психологических качеств и процессов. связаны с содержанием профессиональной культуры. Обучение рекомендуется проводить в малых группах по 12-15 человек.

В развитии профессиональной культуры школьных учителей понятия «профессиональная культура» и «развитие профессиональной культуры» определялись с точки зрения автора следующим образом: “Профессиональная

---

<sup>6</sup>Г. Т. Жумаева. 3/(2022), Совершенствование педагогической системы развития профессиональной культуры школьных учителей. Вестник Хорезмской академии Маъмуна, стр. 378-380.

культура – это профессиональное самоопределение, профессиональная мотивация, профессиональная направленность специалист., определяющий высокоразвитый профессиональный опыт и умения, связанные с самостоятельностью, свободой, творческой активностью, ответственностью за принимаемое решение, уважением к обучающимся и нравственными качествами и качествами, необходимыми для организации эффективной педагогической деятельности”<sup>7</sup>.

Развитие профессиональной культуры - выражающее важную характеристику развития педагогической деятельности, педагогического подхода в образовательном процессе, правильного определения стратегических целей и задач, принятия решений, проектирования образовательного процесса, организации инновационной педагогической деятельности, через эффективное использование методов, методов и принципов управления знаниями и управления для повышения личной активности, расширения возможности самовыражения, овладения навыками активного движения и эффективного общения в соответствии с требованиями общества, приобретенными знаниями, навыками и умением применять навыки на практике.

Процесс развития профессиональной культуры непосредственно связан с мотивами человека, и его сущность выражается в понятии внутренней устойчивости поведения и мотивации человека.

А мотивация — это “динамический процесс психологического и физиологического управления поведением”, который включает в себя инициативу, направление, организацию и поддержку.

В связи с развитием профессиональной культуры школьных учителей мотивации, во-первых, побуждают к профессиональным успехам, во-вторых, помогают выбрать необходимые пути и методы для достижения цели. Учитывая связь с особенностями развития профессиональной культуры, профессиональные мотивы школьных учителей различны в разные возрастные периоды.

---

<sup>7</sup>Жумаева Г.Т. Совершенствование педагогической системы развития профессиональной культуры учителей школ: дис. на соискание ученой степени доктора философских наук. – Термез., 2022. – 30 с.



### Фигура 1. Структура развития профессиональной культуры школьных учителей

Профессиональная культура является основным источником педагогической деятельности и служит повышению возможностей интеллектуального развития педагога.

Развитие профессиональной культуры является мощной силой, воплощающей внутреннюю жизнь и восприятие общества и нации, как основы развития человека и общества, оказывает сильное влияние на формирование и изменение системы экономической и социальной жизни. как основная основа общечеловеческой культуры.

Итак, можно сделать вывод, что профессиональная педагогическая культура школьного учителя является мерой и методом творческого самосознания учителя в различной педагогической деятельности, направленной на овладение, передачу и создание педагогических ценностей и знаний. Все вышеизложенное позволяет отнести понятие профессиональной культуры к категориальной категории: культура педагогической деятельности, культура педагогического общения, культура личности школьного учителя. Профессиональная культура школьного учителя проявляется как обобщенная характеристика различных направлений педагогической деятельности, предполагающая развитие у человека знаний, интересов, ценностных ориентаций и способностей.

#### Список использованной литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» № ПФ-5847 // Национальная база правовых документов, 08.10.2019.
2. Абу Райхан Беруни. 100 слов мудрости. Ташкент: Наука, 1993. - 248 с.
3. Алишер Навои. Махбуб-уль-Кулуб. Работает. Том 15. – Ташкент: Наука, 2005. – 244 с.
4. Махамов Ю.И. Педагогические основы формирования нравственной культуры старшеклассников. пед.науки. врач. ... дисс. - Т.: 1998. -Б. 28 с.
5. Мусурмонова О. Педагогические основы формирования духовной культуры старшеклассников. пед. наука. док. ... дисс. автореф. - Т.: 1993. - С.48.
6. Тейлор Э.Б. "Первобитная культура" - М.: Издательство политической культуры, 1989. -С. 45.
7. Словарь педагогических терминов. Р.Х.Джураев и соавт. Научно-исследовательский институт педагогических наук Узбекистана имени Кори Ниёзи. - Т.: 2008. 136 с.
8. Валиев Б.Н. Хозяйственная культура и факторы ее формирования. Философия, наука, имя. ... дисс.– Т.: 2004. – С.134.
9. Акбаров Н. Педагогические основы формирования профессиональной культуры у студентов технических вузов. Кандидат педагогических наук....дис. - Т.: 2008. - 6 с.



**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023**

10. Жумаева Г.Т. Совершенствование педагогической системы воспитания профессиональной культуры школьных учителей. Вестник Хорезмской академии Маъмуна, 3/(2022), 378-380 с.

11. Жумаева Г.Т. Психолого-педагогические особенности и структурные компоненты развития профессиональной культуры школьных учителей. Образование, наука и инновации. Журнал, № 2, 2022. esijournal.uz. Т.76-80 с.

12. Жумаева Г.Т. Совершенствование педагогической системы развития профессиональной культуры учителей школ: дисс. на соискание ученой степени доктора философских наук. – Т., 2022. – 30 с.

13. Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna. Psychological-pedagogical characteristics and Structural components of the development of Professional culture among school teachers. Web of scientist: international scientific research journal. ISSN: 2776-0979, Volume 4, ISSUE 5, may, 2023. 213-222 P.

<https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3931>.

## BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

“Pedagogika” kafedrasining o‘qituvchisi

Zokirov Javohir G‘aybullo o‘g‘li

Tel: 99 679 62 24 e-mail: [zjavohir6@gmail.com](mailto:zjavohir6@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini har tomonlamma kamol topgan yoshlar sifatida shakllantirishda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritildi.

**Tayanch so‘zlar:** Boshlang‘ich sinf, Alisher Navoiy, “Mahbub-ul qulub”, alloma, tarbiya, ta’lim Xondamir, Muntaxab ul-lug‘at, “Navoiy asarlari lug‘ati”.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini har tomonlamma kamol topgan yoshlar sifatida shakllantirishda Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega. Bu haqida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Alisher Navoiy bobomizning «Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami» degan satrlarida qanchalik chuqur hayotiy hikmat, falsafa bor [1]. Ya’ni, bu dunyoda insonlarning dard–u tashvishlarini o‘ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir, xalqning g‘amidan uzoq bo‘lgan insonni odam qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi, deb ta’kidlamoqda ulug‘ bobomiz. Bu o‘lmas satrlar bizning bugungi hayotimiz bilan, bizning orzu-intilish va amaliy harakatlarimiz bilan naqadar hamohang ekani odamni hayratga soladi. Muhtaram prezidentimizning ushbu fikrlari Alisher Navoiyning hayoti va ijodini maktabda o‘rganishning naqadar muhim ekanligini baralla ko‘rsatib turibdi. Kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni munosib insonlar qilib yetishtirishda Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqidagi materiallar har qadamda bizga katta imkon beradi. Ana shu jihatdan olib qaraganda Boshlang‘ich sinflarda Alisher Navoiy asarlarini o‘qitish va ulardan xulosa chiqarish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Alisher Navoiy ilm ahllarini g‘oyat yuksak qadrlaydi. Mamlakatning gullab yashnashi, xalqning ahvoli yaxshilanishi, insonni har tomonlamma shakllanishi uchun ilm juda katta ahamiyatga ega. Bu xususida Alisher Navoiy: "Kishiga necha kelsa mushkul hol, Hikmatu aql anga erur hallol" - deb aytib o‘tadilar. Navoiyning ilm-fan haqidagi o‘g‘itlari uning ma’rifatparvarlik g‘oyalarining uzviy qismini tashkil etadi. “Mahbub-ul qulub” asarida o‘z zamonasida va undagi ijtimoiy-siyosiy va axloqiy

hodisalarga munosabat bildiradi [2]. “Mahbub-ul qulub” ning 3-qismi asosan axloqiy masalalarga bag‘ishlangan. Unda ham odam va odamiylik haqida chin insoniy fazilatlar to‘g‘risida, Navoiyning uzoq hamda murakkab hayot tajribasining natijalari keltirilgan.

Navoiyning bu pand-nasihatlari tom ma‘noda gumanistik va xalqchilik xarakteriga ega. Ularga rioya etishlik barkamol inson bo‘lishlik demakdir. Navoiy yuksak insoniy fazilat va ezguliklarni madh etish, targ‘ib tashviq etish bilan cheklanmaydi. U ayni zamonda odamlardagi yomon, xunuk, insoniylikka xilof xislatlarni, insonlar uchun zararli xulq-atvor va sifatlarini qoralaydi. Alloma kishilarni ilm olishga chorlaydi, insonning yaxshi fazilat va yomon xislatlarni tahlil etib beradi [3].

Boshlang‘ich sinflarda yozuvchi hayoti va ijodini o‘rganish. O‘zbek xalqining buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy jahon adabiyoti taraqqiyotiga buyuk hissa qo‘shgan, insonlar baxt- saodati, xalq farovonligi, mamlakat obodonligi uchun kurashgan so‘z san‘atkoridir. Alloma tomonidan yaratilgan asarlar mazmunidan anglashiladiki, ularda ilgari surilgan qarashlarning markazida inson va uning kamolotini ta‘minlash g‘oyasi turadi. Bu haqida Navoiyshunos olim V.Zohidov quyidagi fikrni bildiradi. "Navoiy ijodi hamda amaliy faoliyatining eng asosiy markaziy masalasi, yo‘nalish nuqtasi har narsadan oldin inson, uning taqdiri, baxtli, saodati, uning yaxshi yashashi, buning uchun zarur jamiyat masalasidir". Jamiyatning a‘zosi bo‘lgan har bir odam o‘z xalqiga xizmat qilishi, xalq manfaatini o‘z manfaatidan yuqori qo‘ymog‘i - xalq uchun, vatan uchun foyda ekanligi unutmazligi kerak. Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so‘z bilan ham, ko‘ngil bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi. Xalq manfaatlarini o‘ylaydigan, xalqning baxt saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy odam deb biladi [4].

Navoiy ta‘lim-tarbiya haqida fikrlarni bayon qilarkan, u axloqlilikning eng muhim mezoni odob deb biladi. Odobli va axloqli bo‘lish insonga atrofdagi kishilar o‘rtasida muayyan mavqei va hurmatga sazovor bo‘lishga yordam beradi. Navoiy bola tarbiyasi bilan oila hamda maktabda shug‘ullanish, bola tarbiyasini olib borish jarayonida namuna usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligiga alohida e‘tiborini qaratadi [5].

Tarbiya va ta‘lim ishlari o‘qituvchi, ota-ona tomonidan olib borilishi lozim. Navoiy bolalarga jismoniy jazo berishdan saqlanish, aksincha xushmuomalalik bilan

yo'l qo'yilgan xatolarning mohiyatini ularga tushuntirish zarurligini, biroq bu o'rinda me'yorga amal qilish zarurligini aytadi. Yosh bola yaxshi nima-yu, yomon nimaligining farqiga bora olmaydi. Chunki uning tushunish, fikrlash muhokama qilish qobiliyati o'smagan bo'ladi. Shu sababli o'z xususiyatiga ko'ra biroz salbiy ta'sir natijasida yaramas, noto'g'ri yo'lga tushib ketishi mumkin. Demak, bolani juda kichik yoshdan boshlab tarbiyalamoq darkor. Alisher Navoiy tarbiyaning kuchiga e'tibor berish bilan birga, kishining qanday odam bo'lib voyaga yetishiga tasir ko'rsatadigan boshqa omillarni ham unutadi. Navoiyning fikricha jamiyatda, odamlardan ajralib yakkalanib qolgan va ularning ta'siridan tashqarida bo'lgan kishi inson qatoriga kira olmaydi, hunari ham yo'q kabidir [6].

Chunki yolg'iz kishi dunyodan bahra topa olmaydi, hayoti yemiriladi. Alisher Navoiy, odam shaxsi kishilar bilan munosabatda ayniqsa, kishilarning bir-birlariga bo'lgan ruhiy, ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri- tarbiya ekanligini uqtiradi.

Alisher Navoiyning fikricha tarbiyaning maqsadi - yosh avlodni xalqparvar, bilimli eng yaxshi fazilatlarga ega kishi yetishtirishda. Navoiy injiq, yalqov yomon xulqli bolalarni ham tarbiya va o'qitish yo'li bilan tuzatish mumkinligiga ishonch bildiradi. Navoiyning fikricha, odob- odamning oliyjanob fazilatlaridan biridir. Odobli kishi ochiq yuzli, xushmuomala, yoqimli bo'ladi [7].

Bunday kishilar uchun ikki yuzlamachilik, qo'pollik yotdir. Navoiy laganbardorlikni, xushomadgo'ylikni eng yomon xislat deb biladi. Ota-onalarni o'z bolalarini, yosh avlodni chin insonga xos bo'lgan eng yaxshi fazilatlar egasi qilib tarbiyalashga da'vat etadi. Adib yaxshi fazilatdan qanoat haqida shunday deydi. "Kimki qanoatga odatlansa, shoh va gadoy bordi-keldisidan ozod bo'ladi. Qanoat qo'rg'ondir, u yerga kirsang nafs yomonligidan qutilarsan, to'g'riliklardir u yerda chiqsang dushman va do'stga qaramlikdan xalos bo'larsan: tubanlashishdir-natijasi yuksaklik, zo'riqishlikdir- foydasi ehtiyotkorlik urug'ining mevasi farovonlikdir.

Alloma insonlarni bir-birlariga nisbatan saxovat ko'rsatishga da'vat etadi. Hikmatlilik muruvvat, karam kabi xislatlar esa saxovatning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Shu bilan birgalikda yaxshilikning qadriga yetishni, eng yaxshi xislatlarini o'zida tarbiyalash, nafsni tiyishni ulug'laydi [8].

Takabburlik, manmanlik, faqat o'z foydasini ko'zlab ish yuritish, hasad g'iybat, yolg'onchilik, nodonlik, johillik, ikkiyuzlamachilik, tamagirlik, shoshma-shosharlik,



bachkanalik, pala-patishlik, fisqu-fasod, yalqovlik, yarimdan hazar qilmaslik kabi illatlarni qoralab ulardan xalos bo'lishni aytib o'tadi [9].

O'zbek adabiyotining buyuk siymosi Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish juda qadim zamonlardan shoirning o'zi hayotlik davrida boshlangan edi. Uning ijodi haqida ayrim zamondoshlari ham juda ko'plab asarlar yaratdi shoir ijodini o'rganish qancha asrlar o'tsada kuchaysa-kuchaydiki, lekin hech zamonda susaymadi. Shoirning hayot davrida Navoiyshunoslik fani yuzaga keldi [10]. Navoiyshunos olimlar shoir hayoti va ijodiga oid asarlar yozdi. Xondamir "Makorim ul ahloq" kitobini Alisher Navoiyga bag'ishladi. O'sha davrda yashab ijod etgan Mirxond, Husain Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy kabi ko'plab zamondoshlari asarlarida uning hayoti va ijodini yuksak baholadilar. Shoir asarlarini o'rganish uchun maxsus lug'atlar yaratildi. Muhammad Rizo Hokisorning "Muntaxab ul-lug'at" ana shunday lug'atlar hisoblanadi [11]. Ayniqsa XX va XXI asrda uning ijodiga bo'lgan xurmat-e'tibor yanada oshdi [12].

Shu yillarda ulug' Navoiyshunoslar Olim Sharofiddinov, Sadridin Ayniy, Fitrat, Vohid Zohidov, Hamid Sulaymon, Abduqodir Haytmetov, Yobubjon Isoqov, Bahrom Vafojev, Izzat Sulton, Ibrohim Haqqul, Suyuma G'aniyeva va Aziz Qayumovlar kabi atoqli adiblar shoir ijodini har tomonlama tahlil qildilar. Alisher Navoiyning 525 yillik, 550 yillik yubileylarini o'tkazish bilan bog'liq ravishda uning asarlari qayta-qayta nashr qilindi. S. Ibrohimov va Forso Shamsiyevlar tomonidan 1972-yilda nashr etilgan I tomlik "Navoiy asarlari lug'ati" keyinchalik 1983-1984-yillarda Ergash Fozilov Umumiy rahbarligida olimlar guruhi tomonidan "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" shoir ijodini o'rganishga keng yo'l ochdi [13].

Biz yashab turgan hozirgi davrda Alisher Navoiy chinakamiga o'rganilmoqda. Bu borada shoirning hayoti va ijodi yuzasidan yaratilgan "Alisher Navoiy qomusiy lug'ati" Navoiyshunoslar qolaversa butun o'zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligining ulkan yutug'i hisoblanadi [14]. Buyuk mutafakkir xalqimizning qalbidan mustahkam o'rin olgan. Alisher Navoiyning ko'plab asarlarida insonlarning ezgulikka undovchi, yaxshilik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalovchi g'oyalar mujassamlashgan. Alloma o'z hayoti va ijodi bilan mamlakatimiz fuqorolariga ibrat bo'lib kelmoqda[15]. Uning ijodi barcha o'quv maskanlarida: maktabgacha ta'lim muassasalarida ham, boshlang'ich talimda ham o'rganiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, Demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent – "O'zbekiston" - 2016-yil, 18-bet
2. Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub" www.ziyouz.com kutubxonasi. 61-bet
3. Зокиров, Д. (2022). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash yo'llari. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(2), 288-291.
4. Zokirov Javohir G'aybullo O'g'li (2023). ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA KLASSTER METODLARIDAN FOYDALANISH. *Science and innovation*, 2 (Special Issue 4), 76-79. doi: 10.5281/zenodo.7926259
5. Javohir G'aybullo O'g'li Zokirov (2023). ZAMONAVIY ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANINING YANGILANISHI, MAZMUNI VA AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, 5 (NUU conference 3), 90-96.
6. Zokirov Javohir G'aybullo o'g'li, 1-3-Sinf O'Quvchilariga Ona Tili Va O'Qish Savodxonligi Fanidan Beriladigan Mashqlar Turlari, *Journal of Innovation, Creativity and Art: Vol. 2 No. 2 (2023): Journal of Innovation, Creativity and Art*
7. Javohir G'aybullo o'g'li, Z. (2023). 1-3-Sinf O'Quvchilariga Ona Tili Va O'Qish Savodxonligi Fanidan Beriladigan Mashqlar Turlari. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(2), 161-163.
8. Zokirov, J. (2023). SIFATLI TA'LIM BERISHDA ZAMONAVIY ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGINING ROLI. *Interpretation and Researches*, 2(1). извлечено от  
<http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1134>
9. O'G'Li, Z. J. G., & Aliyarovich, T. E. (2022). BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN METODLAR. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 131-142.
10. Zokirov, J., & Matluba, T. (2022). ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O'RGANISHDA MATN USTIDA ISHLASH USULLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(4), 218-223.

11. O'g'li, Z. J. G. (2022). O'QUVCHILARNING DUNYOQARASHI, BILIMINI OSHIRISHDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANINING AHAMIYATI. *PEDAGOGS jurnali*, 10(3), 124-129.
12. Muqimovich, Y. S. Use of Interactive Methods in Teaching Historical Topics in Primary School Reading Lessons. *JournalNX*, 326-329.
13. Yakubov, S., & Zokirov, Z. (2021). ЛЮБОВЬ К РОДИТЕЛЯМ И ПОЧИТАНИЕ ИХ-ОСНОВНОЕ ЗВЕНО ВОСПИТАНИЯ. *Theoretical & Applied Science*, (4), 439-442.
14. Zokirov, J. (2022). THE IMPORTANCE OF STRENGTHENING LESSONS IN STUDENTS'MOTHER TONGUE AND READING LITERACY. *Academic research in modern science*, 1(9), 344-348.
15. Yoqubov, S., & Zokirov, J. (2017). O'QUVCHILARNI SAVOL BERISHGA ORGATISH USULLARI. In *НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ* (pp. 110-112).

## Fan, iqtisod va ta'limda sun'iy intellektning o'rni

*Eshquvvatov O.A.*

*Termiz davlat universiteti talabasi*

*“Erishilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib o'tirish taraqqiyot yo'lidagi eng katta g'ovdir”. Shavkat Mirziyoyev*

**Annotatsiya:** Sun'iy intellekt (AI) ko'plab sanoat va sohalarda inqilob qilish imkoniyatiga ega va ta'lim, iqtisodiyot va fan bundan mustasno emas. Ushbu maqolada biz ushbu uchta sohada AIning rolini o'rganamiz, uning potentsial afzalliklari, qiyinchiliklari va cheklovlarini ta'kidlaymiz.


**Kalit so'zlar:** Mashinani o'rganish algoritmlari, pul-kredit va fiskal siyosat, potentsial firibgarlik, talabalarni baholash, potentsial dori, astronomik tasvirlar.

**Annotation:** Artificial intelligence (AI) has the potential to revolutionize many industries and fields, and education, economics and science are no exception. In this article, we will study the role of AI in these three areas, highlighting its potential advantages, difficulties and limitations.

**Keywords:** machine learning algorithms, monetary and Fiscal Policy, potential fraud, Student Assessment, potential drug, astronomical images.

### Fan

Allaqachon fan sohasiga, xususan, ma'lumotlarni tahlil qilish, gipoteza yaratish va eksperiment o'tkazish sohaslariga katta hissa qo'shgan. Mashinani o'rganish algoritmlari katta ma'lumotlar to'plamini tahlil qilishi, naqshlarni aniqlashi va bashorat qilishlari mumkin, bu esa tadqiqotchilarga o'z ishlarida yordam beradi. Misol uchun, sun'iy intellektga asoslangan tizimlar potentsial dori maqsadlarini aniqlashga, murakkab tizimlarning harakatini bashorat qilishga va eksperimental dizaynlarni optimallashtirishga yordam beradi. AIning fandagi eng istiqbolli qo'llanilishidan biri bu astrofizika sohasidir. Berklidagi Kaliforniya universiteti tadqiqotchilari astronomik tasvirlarning katta ma'lumotlar to'plamini tahlil qila oladigan va inson tahlilchilari aniqlay olmaydigan xususiyatlarni aniqlay oladigan AI tizimini ishlab chiqdilar. Bu tizim koinot va galaktikalarning shakllanishi haqidagi tushunchamizda inqilob qilish imkoniyatiga ega. AI sezilarli ta'sir ko'rsatadigan yana bir soha biologiya sohasidir. Sun'iy intellektga





asoslangan tizimlar katta hajmdagi genomik ma'lumotlarni tahlil qilishi va tadqiqotchilarga kasalliklarning asosiy mexanizmlarini tushunishga yordam beradigan naqshlarni aniqlashi mumkin. Misol uchun, sun'iy intellektga asoslangan tizimlar saraton va boshqa kasalliklar uchun potentsial dori maqsadlarini aniqlashga yordam beradi, bu esa yangi davolash usullarini ishlab chiqishga olib keladi.

### **Iqtisodiyot**

AI iqtisodiyot sohasida ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Mashinani o'rganish algoritmlari iqtisodiy ma'lumotlarning katta ma'lumotlar to'plamini tahlil qilishi va iqtisodchilarga bozorlarning xatti-harakatlari va siyosat aralashuvining ta'sirini tushunishga yordam beradigan naqshlarni aniqlashi mumkin. Misol uchun, sun'iy intellektga asoslangan tizimlar foiz stavkalari o'zgarishining iqtisodiyotga ta'sirini bashorat qilish, iste'molchilar xatti-harakatlaridagi tendentsiyalarni aniqlash va investitsiya strategiyalarini optimallashtirishga yordam beradi. Iqtisodiyotda sun'iy intellektning eng istiqbolli ilovalaridan biri bu bashoratli analitika sohasidir. Los-Anjelesdagi Kaliforniya universiteti tadqiqotchilari bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida retsessiya ehtimolini bashorat qila oladigan sun'iy intellekt tizimini ishlab chiqdi. Ushbu tizim siyosatchilarga pul-kredit va fiskal siyosat bo'yicha ko'proq asosli qarorlar qabul qilishda yordam berish imkoniyatiga ega. AI sezilarli ta'sir ko'rsatadigan yana bir soha moliyaviy tartibga solish sohasidir. Sun'iy intellektga asoslangan tizimlar katta hajmdagi moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilishi va potentsial firibgarlik va boshqa zararli harakatlarni aniqlashi mumkin. Misol uchun, sun'iy intellektga asoslangan tizimlar insayder savdosi, pul yuvish va boshqa moliyaviy jinoyatlarni aniqlashga yordam beradi.

### **Ta'lim**

AI ta'lim sohasida ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Mashinani o'rganish algoritmlari ta'lim ma'lumotlarining katta ma'lumotlar to'plamini tahlil qilishi va o'qituvchilarga o'quvchilar qanday o'rganishi va ta'lim natijalarini qanday yaxshilashni tushunishga yordam beradigan naqshlarni aniqlashi mumkin. Misol uchun, sun'iy intellektga asoslangan tizimlar kurashayotgan talabalarni aniqlashga yordam beradi va shaxsiy fikr-mulohaza va yordam beradi. Aning ta'limdagi eng istiqbolli qo'llanilishidan biri bu adaptiv ta'lim sohasidir. Michigan universiteti tadqiqotchilari individual talabalar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'quv materiallarining mazmuni va qiyinligini moslashtira oladigan AI tizimini

ishlab chiqdilar. Ushbu tizim barcha yoshdagi va har xil yoshdagi talabalar uchun ta'lim natijalarini yaxshilash va ta'lim olish uslubimizni tubdan o'zgartirish imkoniyatiga ega.

AI sezilarli ta'sir ko'rsatadigan yana bir soha talabalarni baholash sohasidir. Sun'iy intellektga asoslangan tizimlar o'quvchilar faoliyatiga oid katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishi va o'quvchilar o'rganishini yanada aniqroq va ishonchli baholashni ta'minlashi mumkin. Misol uchun, sun'iy intellektga asoslangan tizimlar o'quvchilar qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lgan sohalarni aniqlashga yordam beradi va shaxsiy fikr-mulohazalar va ko'rsatmalar beradi.

### **Qiyinchiliklar va cheklovlar**

Sun'iy intellekt fan, iqtisodiyot va ta'limda inqilob qilish salohiyatiga ega bo'lsa-da, uni qabul qilishda qiyinchiliklar va cheklovlar ham mavjud. Eng muhim muammolardan biri bu sun'iy intellekt tizimlarida tarafkashlik ehtimoli. Agar sun'iy intellekt tizimlari noxolis ma'lumotlarga o'rgatilsa, ular xolis natijalarga olib kelishi mumkin, bu esa iqtisodiyot va ta'lim kabi sohalarda jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Yana bir qiyinchilik - AI tizimlarining inson ishchilarini almashtirish potentsiali. Sun'iy intellekt ko'plab muntazam vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin bo'lsa-da, u inson ishchilarining ijodkorligi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini almashtira olmaydi. Shu sababli, sun'iy intellekt tizimlari inson ishchilarini almashtirishdan ko'ra ularni to'ldiradigan tarzda ishlatilishini ta'minlash juda muhimdir. Va nihoyat, ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligi masalasi. AI tizimlari samarali ishlashi uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni talab qiladi, bu esa ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligi bilan bog'liq xavotirlarni keltirib chiqaradi. AI tizimlari maxfiylik va xavfsizlikni hisobga olgan holda ishlab chiqilganligini va nozik ma'lumotlarni himoya qilish uchun tegishli himoya vositalari mavjudligini ta'minlash juda muhimdir.

### **Xulosa**

Sun'iy intellekt yangi tushunchalarni taqdim etish, qaror qabul qilishni takomillashtirish va jarayonlarni optimallashtirish orqali fan, iqtisod va ta'limda inqilob qilish salohiyatiga ega. Biroq, uni qabul qilishda qiyinchiliklar va cheklovlar ham mavjud, jumladan, tarafkashlik potentsiali, inson nazorati zarurati va ma'lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi bilan bog'liq xavotirlar. AI rivojlanishda va etuklikda davom

etar ekan, ushbu muammolarni hal qilish va AI tizimlaridan butun jamiyatga foyda keltiradigan tarzda foydalanishni ta'minlash juda muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Fandagi sun’iy intellekt: yangi kashfiyotlar davri” (2019)
2. "Iqtisodiyotda sun'iy intellekt: adabiyotni o'rganish" (2020)  
"Ta'limda AI: adabiyot sharhi" (2020)
3. Нильсон, Н. (1973). *Искусственный интеллект*. Рипол Классик.
4. Qudratullaevna, A. M., Qaxxorovna, T. G., & Eshbulovich, M. H. (2023). SUN'IY INTELLEKT VA UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(2), 65-69.
5. Zulunov, R. M. (2022). Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(6), 53-56.
6. Ясницкий, Л. Н., & Черепанов, Ф. М. (2012). ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ.
7. Смолин, Д. (2022). *Введение в искусственный интеллект. Конспект лекций*. Litres.
8. Winston, P. H. (1992). *Artificial intelligence*. Addison-Wesley Longman Publishing Co., Inc..
  1. Russell, S. J. (2010). *Artificial intelligence a modern approach*. Pearson Education, Inc..
  2. Jahon iqtisodiy forumi ([www.weforum.org](http://www.weforum.org))
  3. MIT texnologiyasini ko'rib chiqish ([www.technologyreview.com](http://www.technologyreview.com))

## **TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA SOLIQ TIZIMINING TA'SIRI**

**Termiz davlat universitet o'qituvchisi Hojiqulova Feruza Dona qizi**

**3-kurs talabasi Jabborov Abbas G'affor o'g'li**

### **ANNOTATSIYA:**

Maqolada soliq yukining ahamiyati, soliq yukini hisoblashning mexanizmi va soliq yukining tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri ko'rsatilgan. Soliq, soliqqa tortish, soliq yukining muhimligi tushunchalarini farqlash. Tadbirkorlarning soliqqa tortilishini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar ko'rib chiqiladi. Xo'jalik yurituvchi subyekt uchun soliq va soliq yukining ko'rsatkichi muhimligi roli aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlashning turli yondashuvlari va tahliliy jarayonlari ko'rib chiqildi, soliq yukini hisoblashning keltirilgan usullarda afzalliklari va kamchiliklari ko'rsatib o'tildi.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, soliq, soliq yuki, sun'iy intellektning soliq tizimiga ta'siri, soliq islohotlari, soliq integratsiyalashuvi va optimallashtirish.

Kirish. Mamlakatda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda birinchi navbatda soliq siyosatini yanada takomillashtirish, soliqlarning turlari va ularning amal qilish mexanizmini soddalashtirib borish muhim masalalardan hisoblanadi.

2022-yilning 22-dekabrida mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga atroflicha to'xtalib, 2023-yilda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng muhim ustuvor vazifalarini belgilab berdilar. Vaholanki, erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Konstitutsiyada alohida o'rin egallashi lozim ekanligini ta'kidlab o'tdilar. Shuningdek, bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan keskin jarayonlardan barchamiz xabardormiz. Jahonda murakkab geosiyosiy vaziyat, energiya resurslari tanqisligi kuchayib bormoqda, oziq-ovqatga ehtiyoj ortib, moliyaviy resurslar qimmatlashmoqda. Bunday vaziyatda, qanchalik og'ir bo'lmasin, iqtisodiy islohotlarni qat'iy davom ettiramiz, ichki imkoniyatlarni to'liq safarbar qilib, xususiy sektorni yanada qo'llab-quvvatlaymiz. Buning uchun, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini tobora yaxshilash bo'yicha islohotlarni jadallashtiramiz, Birinchi navbatda, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, barcha tuman va shaharlarni bir maromda rivojlantirish bo'yicha yangicha yondashuvlar joriy etilishi, kelgusi yildan boshlab tuman va shaharlar mavjud sharoiti, salohiyati va imkoniyatlaridan



kelib chiqib, 5 ta toifaga ajratilishi. Jumladan, tadbirkorlik uchun har tomonlama rivojlangan 26 ta tuman – 1-toifaga; infratuzilmasi yaxshi bo‘lgan 46 ta tuman – 2-toifaga; sharoiti nisbatan qoniqarli bo‘lgan 76 ta tuman – 3-toifaga; jozibadorligi yetarli bo‘lmagan 40 ta tuman – 4-toifaga; sharoiti og‘ir bo‘lgan 20 ta tuman – 5-toifaga to‘g‘ri kelishi, shuningdek, toifaga qarab, tumanlarning iqtisodiy rivojlanishini belgilanishini, tadbirkorlar uchun subsidiya, kreditlar va kompensatsiyalar toifalardan kelib chiqib ajratilishi, Ular uchun soliq stavkalari har xil bo‘lishi, misol uchun, beshinchi toifaga kiruvchi, sharoiti eng og‘ir bo‘lgan 20 ta tuman uchun aylanmadan olinadigan soliq, foyda solig‘i, ijtimoiy soliq stavkalarini 1 foiz miqdorida belgilanishini, mazkur tumanlardagi tadbirkorlar yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha hisoblangan summaning atigi 1 foizini to‘lashi, yakka tadbirkorlar qat‘iy stavkadagi soliqlarni to‘lashdan ozod etilishi, byudjet xarajatlari, aholi va tadbirkorlar oldidagi majburiyatlarimizni qisqartirmagan holda, biznesga soliq yukini kamaytirish bo‘yicha ishlarni davom ettirishi, jumladan, 1 yanvardan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasini 15 foizdan 12 foizga pasaytirish hisobidan tadbirkorlar ixtiyorida yiliga kamida 14 trillion so‘m mablag‘ qolishi, lekin biznes muhitini yaxshilash uchun faqat soliqni kamaytirishning o‘zi yetarli emasligi, ma‘muriy bosimlarni kamaytirib, tadbirkorlik sohasida javobgarlikni yengillashtirish bo‘yicha boshlagan islohotlarimizni jadal davom ettirishini ta‘kidlab o‘tdilar [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Insoniyat tarixida yirik davlat arboblardan biri, o‘rta asrlarda buyuk saltanat barpo qilgan Amir Temur soliqlarga katta e‘tibor qaratgan. U davlatni idora qilish tizimini yuzaga keltirishda asosan soliqlarga tayangan. Soliqlar qadimgi davrlardan e‘tiboran olingan, ammo u vaqtlarda soliqlar ozod va erkin bo‘lmagan kishining belgisi bo‘lib xizmat qilgan. Adam Smit (shotland faylasufi va iqtisodchisi, 1723-1790) o‘zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor soliq tamoyillarini asoslab berdi, soliqlarning ahamiyatini yoritib, ularni davlatga to‘lash qullik emas, balki erkinlik alomati ekanligini yoritib berdi. N.Turgenev o‘zining «Soliq nazariyasi tajribasi» nomli kitobida (1818yil) shuni ta‘kidlaydiki, «Bilimli bo‘lishning muvaffaqiyatlari ularning xalqlar urf odatlariga foydali ta’siri darajasiga qarab soliqlar tizimining takomillashuviga ham ta’sir etgan», «soliqlar bilimga ega bo‘lish bilan birga paydo bo‘lib, uning belgisi bo‘lib qoldi Soliqlarning tayinlanishi, taqsimlanishi va yig‘ilish usuliga qarab xalq orasida tarqalgan ma‘lumotlar to‘g‘risida; yig‘iladigan soliqlar

miqdoriga qarab uning boyligi haqida fikr yuritish mumkin, bu bilimlilik va ma'rifatni anglatadigan ikkita eng asosiy xususiyatdir» bu so'zlardan yana bir bor amin bo'lish mumkinki, soliqlar qadimiy moliyaviy institutlar hisoblanib, davlatning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Soliqlar davlat organlarini ta'minlash va ular oldida tutgan vazifalarni bajarilishini moddiy ta'minlashning manbasi sifatida xizmat qilgan. Davlatning rivojlanishi bilan uning vazifa va funksiyalari yangicha xususiyatlarga ega bo'ldi. Lekin soliqlarning davlatni va uning organlarini moliyalashtirishda manba sifatidagi roli o'zgarmay qoldi. Shu kabi soliqlarga turli iqtisodchilar tomonidan berilgan turli ta'riflarni keltirib o'tish joizdir. «Soliqlar, - deb yozadi D. Rikardo, - hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan er mahsuloti va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi va oxir oqibatda ular kapital hisobidan yoki mamlakat daromadi hisobidan to'lanadi». Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, D.Rikardo soliqlar mohiyatini yoritib, o'z navbatida A.Smit tomonidan yaratilgan soliqlar nazariyasini ma'lum darajada rivojlantirgan. Keyingi mos ta'rif S.Pepelyaev tomonidan keltirilgan: «Soliq - ommaviy hokimiyat sub'ektlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklarini begonalashtirishning majburiylik, yakka tarzda holisona, qaytarmaslik, davlatning majburlashi bilan ta'minlanganlik asoslarida va jazo yoki kontributsiya xarakteriga ega bo'lmagan qonunda belgilangan yagona shaklidir».

Jumladan, S.H. Gataulin «...soliqlar o'zi nima va ular nimaga kerak», degan savolga quyidagicha javob beradi: «Soliqlar — bu davlat sarf-xarajatlarining asosiy manbasi bo'lib, iqtisodiyotni tartibga soluvchi va daromadlarni barqarorlashtiruvchi vositadir». Shuningdek, professor D.Chernikning fikricha «Soliqlar — davlat tomonidan xo'jalik sub'ektlari va fuqarolardan qonuniy tartibda o'rnatilgan stavkalarda undirib olinadigan majburiy yig'implarni o'zida aks ettiradi».

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada qo'yilgan masala muammosini ko'rib chiqishda sintez va analiz, eksport baholash usuli bo'ldi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatda tadbirkorlik faoliyatining to'sqinliksiz amalga oshirilishini ta'minlash, tadbirkorlik qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va Iqtisodiyotni erkinlashtirish va isloh qilishga qaratilgan maqsad va vazifalarning ijrosini ta'minlash ma'muriy usullar bilan emas, balki haqiqiy bozor mexanizmlarini amaliyotga joriy etish orqali amalga oshirilishi lozimligi zaruriyati hamda ushbu holatda foydalaniladigan iqtisodiy faoliyatlar ichida soliqlar alohida mavqega egaligi


maqbul soliq yuki va soliqlar bo'yicha imtiyozlar berishning maksimal nuqtasi masalalarini nazariy jihatdan tadqiq qilish hamda ular bo'yicha amaliy tavsiyalar berishni bugungi kun mezonining eng dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan muammosiga aylantiradi. Har qanday davlatda soliq yukining maqbul miqdorlarini belgilanishi asosiy makroiqtisodiy masalalar toifasiga kiritiladi. "Soliq yuki" atamasi nisbiy ko'rsatkich hisoblanadi, chunki u soliq summalarini ma'lum moliyaviy ko'rsatkichlar orqali ifodalaydi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, shuningdek texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish korxonalarini mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish xarajatlarini doimiy ravishda kamaytirib borishni taqozo etadi. Iqtisodiy adabiyotlarda soliq yuki darajasi qanchalik miqdorda kam bo'lsa, iqtisodiyot shunchalik har tomonlama barqaror rivojlanishi to'g'risida ko'plab ta'riflar keltirilgan. Demak, soliqlar miqdori qanchalik kam bo'lsa, mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi ko'rsatkichlari shunchalik yuqori bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, kichik korxonalar va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'laguniga qadar foyda (zarar) miqdori sifatida ishlatilishi nazarda tutiladigan bo'lsa, ushbu soha darajasidagi faoliyatini doimiy ravishda o'rganib, tadqiq etib borish maqsadga muvofiqdir. Shu ma'noda ushbu sohada O'zbekiston Respublikasi viloyatlarida amalga oshirilgan ishlar va uning natijalari bo'yicha ko'rsatkichlar jadvalini ko'rib chiqish lozim.

1-jadval.

Hududlar bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar (-)) va sof foydasi (zarar (-)) miqdori, mlrd. so'm

	Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar (-))			farq (+;-) 2020-yil 2020-yilga nisbatan	sof foyda (zarar (-))			farq (+;-) 2020-yil 2020-yilga nisbatan
	2020	2021	2022		2020	2021	2022	
O'zbekiston	15	23	21	5 878.8	11	17	13	2471.6






Respublikasi	963,2	070,0	842,0		419,8	225,1	891,4	
Qoraqolpog'iston Respublikasi	402,6	590,3	498,4	95,8	288,2	407,0	338	99,8
Viloyatlar:								
Andijon	628,7	929,5	1 097	468,3	436,6	686,5	799,2	362,6
Buxoro	810,5	836,6	500,7	-309,3	435,7	547,1	187,8	-247,9
Jizzax	209,8	25,3	457	247,8	112,6	90,9	324,9	212,3
Qashqadaryo	271,9	437,2	666,5	394,6	142,4	280,4	485,9	343,5
Navoiy	201,1	362,0	630,5	429,4	106,2	246,6	477,8	371,6
Namangan	656,2	1027,5	739,9	83,7	464,5	809,1	528,1	63,6
Samarqand	551,9	896,7	992	440,1	285,4	572,7	632,9	347,5
Surxondaryo	252,3	201,3	143,6	108,7	115,6	26,6	18,6	-97
Mamlakatimizda ta'lim sohasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda ilg'or xorijiy tajribalar asosida darslarni tashkil etish, o'quvchilarga zamonaviy axborot tizimi asosida ta'lim berish, shuningdek, axborot madaniyatini rivojlantirish muhim sanaladi. Ta'lim tizimini modernizatsiyalashda ta'limning barcha bo'g'inlarida tobora faol qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalishi o'quvchilarning ma'naviy kuchi, qobiliyatlarini ochish uchun maqbul sharoit yaratib bermoqda. Dars mavzusiga oid multemidiya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi. O'quv mashg'ulotlari davomida pedagogik jarayon o'z navbatida, o'qituvchi darsni zamonaviy tashkil etishi, takomillashtirishi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, axborotlarni to'g'ri va asosli qidirib ularni tahlil qilishi o'quvchilarni fikrlashga va muammoli vaziyatlardan chiqishga, asosiysi, xulosa qilishni o'rgatadi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi. O'quv mashg'ulotlarini mavzu doirasida kompyuter texnologiyalari asosida testlarni yechish to'g'ri javobni tahlil qilishi, o'qituvchining darsni samarali hamda ta'lim sifatini yanada rivojlantirishiga o'quvchilarni zukko va ilmi bo'lishlariga zamin yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda turli fanlarni axborot kommunikatsiya texnologiya-laridan asosli foydalanib dars o'tish o'quvchilarni ta'lim jarayonida ijobiy motivatsiyalar berish, darsda bajariladigan ish hajmini ham 1.5 - 2 baravarga oshirish, bilimni nazorat qilish o'quvchilarning faoliyatida izlanish, ijod qilish samaradorligini oshiradi. O'quv jarayonlarida o'quvchining berilgan vazifasini anglab olish motivini kuchaytiradi. Sinfdagi o'quvchilarning darsga faol qatnashishi ta'minlanadi. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy axborot kommunikatsiyalarining keng joriy etilishi fan sohasida axborotlashtirishni, o'quv faoliyatini intellektual-lashtirishni, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni ta'lim tizimini infratuzil-masi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi. Darsni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil qilish bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir.

Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz.

### **«Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha» metodi**

O'quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- O'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;

- hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan to‘rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo‘lmagan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish;
- o‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mazkur metod o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o‘qituvchi o‘zaro teng nisbatda mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- o‘quvchilar mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo‘lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o‘quvchilar o‘z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o‘quvchilar tomonidan mavzuning puxta o‘zlashtirilishini ta‘minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

1-sinf darsligidagi «**Oshxona jihozlari**», «**Qushlar**», «**Uy hayvonlari va parrandalar**» kabi mavzularini o‘rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo‘llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to‘rtta va taalluqli bo‘lmagan (ortiqcha) bitta so‘z (tushuncha, fikr) beriladi.

O‘quvchilar ana shu so‘zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar.

Masalan, 1-sinf darsligidagi 1-mashqda berilgan topshiriqni bajarishda quyidagicha qo‘llash mumkin. Yozuv ekranda ko‘rsatiladi. O‘quvchilar ortiqcha so‘zni aniqlashadi.

*Uy hayvonlari: sigir, qo‘y, toshbaqa, ot, it.*

So‘ng bu so‘zlar ishtirokida gap tuzish topshirig‘i beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi.

Namuna: *Ot - insonning eng ishonchli do‘sti.*

O'quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar asosida o'quvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uyg'otiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga o'rgatiladi.

### «Videotopishmoq» metodi

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
- o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

Masalan, «Elektr jihozlari» (1-sinf), «Yil fasllari» (2-sinf) kabilar asosida o'quvchilarga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, iqtisodiy munosabatlar haqida tushunchalar beriladi.

**Xulosa.** Ta'lim sohasi har bir millatning kuch-qudratini ko'rsatuvchi ko'zgudir. Ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralmas tushuncha bo'lib, ular bizning o'zbek millatida doim yonma-yon holatda qo'llaniladi. Ta'limda yuksak insoniy marralarni zabt etishda tarbiyaning o'rni beqiyos hisoblanadi. Shu sababli muhtaram yurtboshimiz ham ta'limga bo'lgan e'tiborni davlat siyosati darajasida kuchaytirib bormoqdalar. Jumladan, Mustaqilligimizning 31 yilligiga bag'ishlangan tantanali nutqida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Birinchidan, ta'lim sohasida farzandlarimiz zamonaviy bilim va ko'nikmalarni puxta egallashlari uchun eng qulay sharoitlar yaratishni izchil davom ettiramiz. Buning uchun maktablarning o'quv dasturlari, o'qitish uslubi, darsliklar mazmuni tubdan qayta ko'rib chiqiladi.



Ushbu tizim avval ilg'or xorijiy mutaxassislar tomonidan ekspertizadan o'tkazilib, keyingina hayotga tatbiq etiladi. Natijada Yangi O'zbekiston maktab bitiruvchisi zamonaviy ko'nikmalarni egallagan, axborot texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, dunyoqarashi keng shaxs bo'lib yetishadi. Buning uchun barcha hududlarimizda, ayniqsa qishloq joylarda maktablar qurish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor beramiz" – deb ta'kidlaganlari fikrimizning yaqqol dalilidir. Zero, buyuk ajdodimiz Imom al-Buxoriy bobomiz aytganlaridek, ta'limdan o'zga najot yo'q va bo'lmagay.

### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.

2. K.Abrorxonova, Sh.Bo'riyeva, Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish texnologiyasi. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337

3. Shodiyeva Sh. "Boshlang'ich sinflarda so'z birikmasi va gap ustida ishlash metodikasi" BMI Samarqand-2016.

4. Tojiyev H. Giperмуhit texnologiyalarining boshlang'ich ta'limdagi tutgan o'rni. MUALLIM HAM UZLIKSIZ BILIMLYENDIRI 2023 4/1-son.

5. K.Qosimova va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti 2009.

6. Tojiyev H. O'quvchilarda axborotlarni tizimli tarkiblashtirish texnologiyasi-ning zamonaviy usullari va tamoyillari. International Multidisciplinary Conference Hosted from Manchester, England. 2022.

7. J.G'.Yo'ldoshev va S.A.Usmonovlarning "Pedagogik texnologiya asoslari" (Xalq-ta'limi xodimlari uchun qo'llanma).-T., "O'qituvchi", 2004.

### Internet saytlari:

8. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
9. [www.ZiyoNet.uz](http://www.ZiyoNet.uz)
10. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
11. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
12. [www.uzedu.zu](http://www.uzedu.zu)

**Badalov Kamoliddin Rahmat o`g`li**  
**Termiz Iqtisodiyoy va servis universiteti**  
**O`qituvchisi**

[kamoliddinb24@gmail.com](mailto:kamoliddinb24@gmail.com)

+998996776515

**Bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchisining didaktik-metodik kompetentligi xususiyatlari**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarining didaktik metodik xususiyatlari, ularning kompetentligini rivojlantirish haqidagi fikr mulohazalardan iborat, o`qituvchi.

**Abstract:** This article consists of didactic methodical features of future elementary school teachers, opinions on the development of their competence, teacher.

**Аннотация:** В данной статье изложены дидактически-методические особенности будущих учителей начальной школы, мнения по вопросам развития их компетентности учителя.

**Kalit so`zlar:** boshlang`ich, kognitiv, didaktik-metodik, emotsional, pedagogika, shaxs.

**Key words:** elementary, cognitive, didactic-methodical, emotional, pedagogy, personality.

**Ключевые слова:** элементарный, познавательный, дидактико-методический, эмоциональный, педагогика, личность.

Bo`lajak boshlang`ich ta`lim o`qituvchilarining didaktik-metodik kompetentligini rivojlantirishda kognitiv komponentning ta`limiy jihatlarini shakllantirgan holda didaktik-metodik kompetentlikning barcha tarmoq sohalarida identifikatsiyalash bilan ta`lim sub`ektining ta`lim ob`ekti, guruh, guruh vakiliga o`xshatish yoki tenglashtirishda emotsional-kognitiv anglash jarayonlarini alohida ajratib o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Akademik R.X.Djuraev muallifligi asosida yozilgan pedagogik atamalar lug`atida kognitiv, kognitiv ta`lim, kognitiv uslub, tushunchalari tahliliga quydagicha to`xtalib o`tilgan:

Kognitiv – shaxsning mustaqil fikrlash jarayoni.

Kognitiv ta`lim – alohida iqtidorli bolalarga ta`lim-tarbiya.

Kognitiv uslub – 1) shaxsning bilish jarayoni strategiyasida qo‘llaydigan o‘ziga xos bilish xususiyatlari; 2) maxsus tanlangan testlar to‘plamiga ko‘ra nazorat qilish usuli yoki xususiy bilish ko‘rsatgichlari majmui sifatleri deb ta’riflangan.

Kognitiv (lotinchadan - cognitio) – bilish. Shaxsning kognitiv nazariyasiga Dj.Kelli shunday to‘xtalib o‘tgan, har bir inson turli murakkablik va mazmunga ega bo‘lgan bilishga oid “shaxsiy tuzilishlar” tizimini tuzadi, u orqali tashqi olamga, boshqa insonlarga va o‘ziga baho beradi, inson xulqi uning bilimi bilan, ya’ni xabardorligi bilan belgilanadi deb etirof etgan. Demak, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda kognitiv ta’lim ham asosiy komponent sifatida quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Pedagogikada o‘qituvchi bilimlari tizimining vazifasi – didaktik faoliyatning metodologik asosi sifatida va amaliy xatti-harakatlarning bevosita sifatida ikki tomonlama belgilanishini keltirish zarur (N.V.Kuzmina, I.G.Ogorodnikov, M.N.Skatkin, V.A.Slastenin, S.I.Arhangelskiy, V.V.Kraevskiy va b.q.

Motivatsion komponent motivlar tizimini kiritadi, ular faoliyatga (S.L.Rubinshteyn), jumladan o‘quv faoliyatga ongli undashni, insonning xulqi umuman belgilanadigan barcha psixik jihatlarning majmuini (P.M.Yakobson) ifodalaydi. Har qanday faoliyatda ish xususiyati bilan bog‘liq bo‘lmagan tashqi motivatsiyani hamda mazmunli (M.G.Yaroshevskiy ta’biri boyicha) ichki motivatsiyani ajratish mumkin. Mazkur komponent ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib (A.N.Leontev, V.N.Myasishev, P.M.Yakobson va b.q.), ular o‘qituvchini tayyorlashda uni tizim hosil qiluvchi sifatida qarash lozim.

N.L.Abulxanova-Slavskaya, L.N.Kogan va b.q. pedagog shaxsining qadriyatli komponentini ajratadilar. Mazkur tadqiqot ishi doirasida biz didaktik-metodik kompetentlikning har bir sohalarida motivatsion-qadriyatli komponentni ajratamiz. Motivatsion-qadriyatli komponent, didaktik sohadagi bilimlarni qadriyatli o‘zlashtirish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga yo‘nalganlikni ta’minlab, o‘z ichida motivlarni hamda bo‘lajak o‘qituvchini didaktika bilan bog‘liq qadriyatlarni kiritadi.

A.K.Markova, E.D.Telegina, V.T.Podvoyskiy va b.q. o‘quv va didaktik faoliyatning ijodiy motivatsiyasini ajratadilar. Tadqiqotchilar har bir talaba – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida, shuningdek, amaliyotchi o‘qituvchilarda ustun va boysunuvchi motivlarni ajratish bilan ierarxik tashkil etilgan, tartibga solinadigan motivlarning o‘ziga xos tizimining mavjudligini ta’kidlab o‘tadilar.

Bilishga oid motivlar va didaktik-ijodiy yutuqlar motivlarining ahamiyatli hisoblanadi. Ijtimoiy aniqlash motivlari ota-onalarning, o'quvchilarning, hamkasblar, kursdoshlarning hurmatini qozonishga intilish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shaxsiy-obro'li motivlar didaktik faoliyatda shaxsning o'z-o'zini amalga oshirishi jarayoniga ta'sir ko'rsatadilar. Bilishga oid motivlar o'z bilimlarini doimiy rivojlantirishga intilish, psixologiya va pedagogikadagi murakkab nazariy va metodologik muammolarni o'rganishga, muayyan pedagogik texnologiyalarini egallashga yo'nalganlik ko'rinishida ifodalangan.

Faoliyatning individual uslubi pedagogik texnologiyani kiritish yoki uni idrok etish to'g'risidagi qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Bu o'z navbatida OTMdagi individual uslubni shakllantirish va o'z-o'zi rivojlantirish zarur ekanligini ko'rsatadi.

Individual-ijodiy komponentning shakllanishi jarayonida bo'lajak o'qituvchining o'zini ma'lum ijodiy individuallik sifatida anglashini, kelgusi takomillashtirish va tuzatish kiritishni talab etuvchi didaktik-shaxsiy sifatlarini aniqlashini hamda o'z individualligini ma'lum pedagogik texnologiya bilan bog'lashini nazardada tutadi.

Didaktik-metodik kompetentlikning barcha sohalariga kiradi. Pedagogik refleksiya bag'ishlangan tadqiqotlarga tayanib (V.V.Kraevskiy, A.K.Markova va b.q.), pedagogik refleksiya ostida quyidagilarni tushunamiz: o'qituvchining o'z faoliyati asoslarini anglashi, uning davomida o'z shaxsiy qobiliyatlari, didaktik xatti-harakatlarini baholash va qayta baholash sodir bo'ladi, pedagogik vaziyatlar hisobga olinadi va h.k.

Mazkur komponent quyidagi ko'nikmalardan tashkil topgan: pedagogik faoliyat natijalarini, tahlil uchun namunalar va sxemlarning mavjudligida o'quv-tarbiya jarayoni loyihalashtiradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi – bu bir-ikki aloqador fanlarni emas, balki maktabning mazkur bosqichida barcha o'quv fanlarining asosini o'qitish bilimlari va metodikalarini egallagan umumiy o'rta maktabdagi yagona mutaxassisdir. U har kuni 3-4 fan mutaxassislarning tor rolini bajaradi, shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi alohida fanlar boyicha metodik bilimlarni sintezlashiga to'g'ri keladi. Mazkur qoida boshlang'ich sinf o'qituvchilari didaktik faoliyatlarining metodik sohasini ajratishga asos bo'lib xizmat qildi. A.A.Verbitskiy pedagogning didaktik muhim komponentlari kompleksiga hozirgacha hal etuvchi



ahamiyatli sifatida xizmat qilmagan komponentlarni qo'shadi: o'qituvchining umumiy madaniyatining yuqori darajasi, psixologik-pedagogik va metodik kompetentligi. Didaktik-metodik kompetentlikning tahlili dasturi quyidagi bo'limlardan tashkil topdi:

boshlang'ich sinf o'qituvchisi didaktik faoliyatining o'ziga xosligini aniqlash, uni shakllantirishning sharoitlarini aniqlash;

boshlang'ich sinf o'qituvchilari didaktik-metodik kompetentliklarining funksional va strukturaviy komponentlari mazmunining tahlili va holatini o'rganib chiqish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining didaktik-metodik kompetentligi ostida o'qituvchining didaktik faoliyati uchun zarur bo'lgan va mazkur kompetentlikni didaktik kompetentlikning xususiy ko'rinishi sifatida ajratishga imkon beruvchi pedagogik ob'ektlar bilan ishlash bilim, ko'nikma, malakalari va maqbul metodlari birligi tizimini tushunamiz.

Mazkur tadqiqot vazifalarini hal etishda talabalarida didaktik-metodik kompetentlik shakllanganligi holati ta'kidlovchi tajriba-sinov davomida o'rganib chiqildi. Didaktik-metodik kompetentlikda kognitiv komponentni ajratib, biz o'qituvchining pedagogik jarayonni samarali amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan pedagogda didaktik bilimlar tizimini shakllantirishni nazarda tutamiz. Bizning tadqiqotimizda didaktik-metodik kompetentlik pedagogik jarayonni ko'rish jarayonida mazmunli va operatsional bilimlarning birligini nazarda tutadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida didaktik bilimlar shakllanganligining holatini taxlil qilamiz. O'qituvchilik toifalarini: didaktik kompetentlik, didaktik-metodik kompetentlik, pedagogik texnologiyani o'rganishimizda ma'lumotlarning tahlili ahamiyati katta bo'ldi. So'rov metodlari anketa, intervyu, suhbat yordamida o'tkazilgan tadqiqot natijalarining sifatli tahlili mazkur pedagogik toifalarni anglashda quyidagi yo'nalishlarni ajratishga imkon berdi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalarni yagona tushunish mavjud bo'lmaganligi sababli, o'qituvchilar orasida bu atama mazmuni boyicha turli ma'nolarda qo'llanadi: pedagogik jarayonni amalga oshirish boyicha xatti-harakatlar tizimi sifatida, o'qituvchi va o'quvchilar xatti-harakatlari ketma-ketligi sifatida, pedagogik usullarning ma'lum to'plami sifatida, pedagogik tizim tavsifi va h.k.

«Didaktik-metodik kompetentlik», «didaktik kompetentlik» tushunchalarini ta'riflashda o'qituvchilarning ish stajlaridan qat'iy nazar qiyinchiliklar yuzaga keldi. Bunda ularning bir qismi didaktik-metodik kompetentlikning yuqori darajasini belgilovchi mezon bo'lib, o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish boyicha alohida amaliy usullarning ma'lum miqdorini bilish va egallash deb hisoblaydilar. O'qituvchilarning boshqa qismi maqsad va vazifalar, ma'lum mavzuning mazmuniga eng ko'p mos keluvchi pedagogik ta'sir etish vositalari va usullarini tanlashga ko'maklashuvchi shaxsiy sifatlar va ko'nikmalarining mavjudligiga katta ahamiyat berdilar.

O'z didaktik faoliyatida u yoki bu psixologik-pedagogik g'oyani amalga oshiruvchi o'qituvchi talabalarni ijodiy izlanishga undaganliklari va bu bilan didaktik-metodik kompetentlikni shakllantirishga ta'sir etishlarini ta'kidlash zarur.

Shu tariqa, ma'lum pedagogik amaliyotni kuzatish, tushunish va tahlil qilishdan kelib chiqqan holda biz ta'kidlashimiz mumkinki: pedagog o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda qanday maqsadlar, qadriyatlar, ideallarga asoslansa, boshqarish xususiyati va uning ta'limiy natijalari, shuningdek ma'lum pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi ham shunday bo'ladi hamda bu bilan o'qituvchining didaktik-metodik kompetentligining u yoki bu darajasi belgilanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining didaktik-metodik kompetentligining o'ziga xosligi boshlang'ich ta'limda ta'lim va tarbiyaning maqsadi va vazifalari, bola shaxsini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish; boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yosh xususiyatlari va bilishga oid imkoniyatlari; boshlang'ich sinflarda elementar asoslari o'rganiladigan qator fanlarning mazmuni va mantiqi bilan; quyidagi maktab turlari kiruvchi zamonaviy ta'lim muhitining o'zgarishi bilan belgilanadi: an'anaviy maktab (bilim berishga yo'naltirilgan), bir yoki bir necha fanlarni chuqurlashtirilgan o'rganish bilan maxsus maktablar, gimnaziyalar, litseylar, mualliflik dasturlariga, yangi metodlar, o'qitish vositalaridan foydalanishga asoslangan innovatsion maktablar, rivojlantiruvchi turdagi maktablar (L.V.Zankov boyicha, D.B.Elkonin bo'yicha, V.V.Davidov boyicha o'qitish), bir yoki bir necha ta'lim tizimlariga yo'naltirilgan maktablar.

Didaktik-metodik kompetentlik shakllanganligining ma'lum o'quv-pedagogik vazifalar turlarini yechish ko'nikmalarining rivojlanganligi darajasiga bog'liqligini ta'kidlash lozim. Didaktik-metodik kompetentlikning yuqori darajasiga ega o'qituvchi

didaktik faoliyat natijalari ishonchliligi va barqarorligining yuqori darajasi bilan ajralib turadi, pedagogik vazifalarning turli guruhlarini bir xilda muvaffaqiyatli hal etadi.

Bizning tadqiqotimiz, pedagogik texnologiyalar darajasidagi ish hozirgi vaqtda har bir o'qituvchi uchun ham amalga oshirilishi mumkin bo'lgan hisoblanadi. Didaktik-metodik kompetentlikda mos bilim, ko'nikma va metodlarning mavjudligi pedagogik texnologiyani yanada to'liq egallashga imkon berishini amalga oshirishni nazarda tutadi.

O'qituvchilar, maktab direktori, direktor o'rinbosarlari, OTM o'qituvchilari bilan suhbatlarning natijalari to'liqligigada'vo qilmagan holda, kompetentsiyaviy faoliyatni ta'minlovchi quyidagi sharoitlarni ajratishga imkon beradi:

1) o'rganish predmeti sohasidagi chuqur bilimlar, o'qituvchining u yoki bu o'qitish texnologiyasidagi printsiplar, kontseptual g'oyalarni anglashi;

2) maktabda o'quv-tarbiya jarayonini loyihalash, tashkil etish va boshqarishning alohida metodlari, usullarining keng ko'lamini erkin qo'llay olishi;

3) o'qitish metodlari tizimini qurish, pedagogik texnologiyalar doirasida o'quvchilar faoliyatini tashkil etish mantiqini texnologiyani tanlashning to'g'riligini ta'minlovchi o'quvchilarning haqiqiy shaxsiy tavsiflari bilan bog'lash ko'nikmasining rivojlanganligi;

4) u yoki bu pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish va undagi printsiplar va kontseptual g'oyalar doirasida uni tuzatish davomida refleksiya qobiliyatiga egalik.

Bizning tadqiqotimizda mezon bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z majburiyatlarini ongli bajarishga qanchalik tayyorligi to'g'risida xulosaga kelish mumkin bo'lgan ko'rsatkichni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, mezon – tashhis etiladigan sifat, shaxs xususiyati yoki o'quv-didaktik ko'nikmaning shakllanganligi darajasi ko'rsatkichi.

### Adabiyotlar

1. N. V. Kuzmina. Pedagogik faoliyatni tadqiq qilish usullari.
2. Markova A.K. Professionalizm psixologiyasi / A.K.Markova. – M.: Znanie, 1996 yil
3. Badalov K. R. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning pedagogik shart sharoitlari.. «МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ» № 2/2Нөкис — 202

## USE OF STUDENTS' LOGICAL THINKING ELEMENTS IN TEACHING ZOOLOGY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Termiz State Pedagogical Institute

Hayitov A.E. Aslanova X.G.

**Annotation:** The article provides information on the formation of skills, independent thinking and the ability to apply them in practice by using the elements of logical thinking in teaching zoology in higher educational institutions.

**Keywords:** Categories, on interpretation, first analytics, second analytics, on sophistic refutations, topic, ancient East, intellectual

According to the Law "On Education" adopted in the Republic and the "National Program of Personnel Training", secondary special vocational education students acquire certain knowledge and special vocational skills. formation, the need for learning, independent and creative thinking, seminar, practical, laboratory and work skills, development of organizational skills, development of spiritual and moral qualities based on national and universal values, formation of a conscious attitude to the environment caught. It is also noted the development and implementation of effective forms and methods of spiritual and moral education of students and educational work.

Implementation of the above tasks applies to all subjects taught in higher education institutions.

Increasing students' logical thinking, teaching them topics in an interesting and scientific way, using elements of logical thinking in the course of the lesson will give effective results.

What is logical learning? To learn any subject, it is necessary to form logical thinking skills based on historical evidence. The first terms related to logic appeared in the countries of the Ancient East, in particular, in India and China. However, the Greek philosophers caused the development of the science of logic and its formation as a separate science.

Their formation was greatly influenced by the art of oratory, the development of mathematics, and so on. The reason why this science is called logic is that inner and outer speech is clear and solid

The science of logic is a set of laws that protect the human mind from errors.



The word "logic" is the Arabic translation of the Greek word "logos" in the dictionary. "Logikos" is related to the word "logos", which means "word, reason" and "reasoning", and is a concept that includes the meanings of words and reason

The word logic is derived from the Arabic word "laḡiq" and it also means "to speak", "thought, word" or "mind".

The formation of the science of logic as a separate science is related to its name. He was the first to define the range of issues studied by the science of logic. Aristotle's works entitled "Categories", "On Interpretation", "First Analytics", "Second Analytics", "On Sophistic Refutations", "Topics" are directly devoted to the issues of logic.

Aristotle defines logic as a science that "determines unknown knowledge from known knowledge" and "separates right opinion from wrong opinion".

How can we create a logical situation?

Logical means studying the educational material in such a way that cognitive tasks and problems similar to scientific research appear in the minds of students. In the students' thinking activity, problematic situations arise that encourage the search for and mastering of logically correct, scientific conclusions.

Any education is problematic for the student. Eastern pedagogues have given valuable opinions about creating a problem situation in the student's mind, active thinking activity of the student and thorough assimilation of the educational material. The thinker Abu Rayhan Beruni, in his didactic views, stressed that in the process of teaching and educating students, first of all, they should reflect on various topics, and the student should not get bored or stressed.

In the course of the lesson, presenting students with questions similar to the following logical questions will help children learn to connect topics and increase their logical thinking. As a result, we can increase students' interest in science, encourage them to independently search for additional information:

For example: Live birth is a type of reproduction in animals. In live birth, the embryo develops from the mother's organism, usually directly fed by the placenta, and is born from the mother as a slightly developed child, freed from the eggshell. In live births, the female organism develops in the genital tract, uterus (extended part of the genital tract), or vagina. In most animals, a fur coat (bag) is formed on the surface of the fur. Some gastropods, worms, onychophorans, some arthropods (scorpions),

gnats, molluscs, chordates, most sharks, flatfish, some carp, frogs, turtles, lizards, snakes, common to most mammals (except echidna, proechidna, duckbill) and humans. Some plants also give live birth.

In general, mammals reproduce by live birth, while fish, reptiles, and arthropods reproduce by laying eggs. Most representatives reproduce in the same way. How to explain the live birth reproduction of its exceptional representatives.

Can we say that the live reproduction of mammals and the live reproduction of the above-mentioned exception animals are the same?

While most species of snakes reproduce by laying eggs, some species give birth to their young live. In snakes that give birth to live babies, pregnancy lasts 2.5-4 months. Scorpions are animals that give birth without laying eggs, the young scorpions first come out on the mother's shoulder, but she does not feed the child, after a few days the little ones start to live on their own.

Live birth is when animals emerge from water onto land, the environmental conditions surrounding them, and the embryo developing in an egg, as in birds and reptiles, or in a special organ, as in most mammals, the uterus. In the first case, all the reserves of nutrients for development are in the protein and yolk of the egg, and in the second case, substances obtained from the mother's organism serve as a source of nutrition for the embryo. In this regard, the egg cell of many mammals lost the yolk a second time in the process of evolution and became very small. Development at the expense of the mother's nutrients causes the embryo to establish a strong connection with the mother's organism and give birth to a live birth. However, it should be noted that live birth is also characteristic of some representatives of benthic vertebrates (fish, amphibians, etc.). However, unlike mammals, in which the metabolism of the embryos takes place entirely through the mother's womb, the interaction of the embryo with the mother's body is much simpler in bottom vertebrates. The genital tract of the female is primarily the place where the embryo, which develops mainly due to the egg yolk, is carried out. For this reason, the egg yolk is large.

In conclusion, I can say that teaching young people to learn independently is one of the most urgent tasks of today. The reason for the great attention to personal development in the "National Personnel Training Program" is that only the maturity of the person and his intellectual intelligence can be a factor of the development of the

society. The intellectual intelligence of a person can be awakened, develop and ensure the perfection of a person only in the process of thinking logically about questions.

### References.

1. A.T.G'ofurov va boshqalar. Biologiyani o'qitishning umumiy metodikasi Toshkent. 2005
2. A.T.G'ofurov va boshqalar. Biologiyani o'qitishning umumiy metodikasi Toshkent 2013
3. G.A.Shaxmurova, I.T.Azimov, U.E.Raxmatov. Biologiyadan masala va mashqlar yechish. Bilim 2017
4. Azimov va boshqalar Biologiya (9-sinf) metodik qo'llanma Toshkent, 2002 yil Abu ali ibn sino tibbiyot nashriyoti.
5. J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov Biologiya o'qitish metodikasi (akademik lisey va kasb – hunar kolleji biologiya o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma) Toshkent. Bilim. -2004y
6. J.O.Tolipova va boshqalar Botanika o'qitish metodikasi 5 – sinf Toshkent “O'zbekiston” nashriyoti 2003 yil 128 bet.
7. J.O.Tolipova va boshqalar Botanika o'qitish metodikasi 6 – sinf Toshkent “O'zbekiston” nashriyoti 2003 yil 96 bet.
8. Musa buva o'g S. A. et al. STUDY OF THE INTRODUCTION AND BIOECOLOGY OF BANANA (MUSA) IN KHAZORASP DISTRICT OF KHORAZM REGION //Confrencea. – 2023. – T. 5. – №. 05. – C. 114-115.
9. <http://www.edu.uz>–O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.
10. <http://www.uzedu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.

**ЗАҲРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ҚЎЛ ОСТИДАГИ ЎЛКАЛАР ҚЎЛ  
ОСТИДАГИ ЎЛКАЛАР**

**ТОШКЕНТ ДАВЛАТ СТОМАТОЛОГИЯ ИНСТИТУТИ  
ИЖТИМОЙ ФАНЛАР БИОЭТИКА КУРСИ БИЛАН КАФЕДРАСИ  
ФАЛСАФА ФАНЛАР НОМЗОДИ, ДОЦЕНТИ САТТОРОВА ДИЛДОР  
ҒАППОРОВНА**

**E-mail . dsattorova 1966@gmail com. 940981266**

Саҳовати ва мардлиги, истеъдоди; илм-фан, санъатга муҳаббати, уларга машғуллиги билан Осиёдаги подшоҳлар орасида Бобур ўз салоҳиятига эга давлат арбоби бўлган .иган бирорта ҳукмдор топилмайди.

Халқимиз ўтмишига назар ташласак, кўплаб буюк алломалар, улуғ саркардалар, қалами дунёни титратган шоирлар ва халқимиз хотирасига абадий муҳрланган қаҳрамонларни кўришимиз мумкин. Бу улуғ аждодларимиз орасида шундай бир зод борки, бу галги фикрларимиз шу инсон ҳаёти, фаолияти, унинг амалга оширган ишлари ва энг муҳими унинг халқимиз қалбида абадийлашиши аҳамияти ҳақида бўлади. Бу шахс –Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Заҳириддин Муҳаммад Бобур 1483-йил 14-феврал куни Андижонда, Фарғона улусининг ҳокими Умар Шайх Мирзо оиласида дунёга келди. Бу улғ зот нафақат ўзбек халқининг, балки дунёнинг кўплаб мамлакатлари халқининг, айниқса ҳинд хлқининг қалбида ўчмас из қолдирди, бу халқ ўтмишининг унутилмас саҳифасига айланди. Ўзининг мураккаб, таҳликали ҳаёт йўли давомида боболарининг тупроғини асрашга, ватанининг ҳар қарич ери учун душман билан шиддатли тарзда жанг оилб борган Бобурни тақдир чархпалаги ватанини тарк этишга мажбур қилди. У аввал Афғонистон, сўнгра Ҳиндистонни эгаллаб, буюк Бобирийлар ҳукмронлигига асос солди. Унинг ҳукмронлик йилларида Ҳиндистон гуллаб яшнади, халқ ҳаётида кескин бурилишлар бўлди. Тарихдан маълумки, аксарият ҳукмдорлар ўзга бир юртни эгаллагач ўша юрт халқига ҳурматсизлик билан қараган уларнинг, ўтмиши, урф-одатларини поймол қилишга ҳаракат қилган, уларни ўз қавмидан паст поғонада кўрган. Буюк бобоколонимиз эса ўзидан олдинги ва ўзидан кейин ўтган аксарият подшолардан фарқли ўлароқ, ўз халқининг ўтмиши, маданияти билан бир қатода ўзи ҳукмронлик қилган, бошқарган ҳинд халқининг тарихи, маданияти ва урф одатларининг сақланиб қолишига, уларнинг янада ривожланишига улкан



хисса кўшди. У Ҳиндистонни дунёга чиқишида, танилишида жаҳон аҳамияти молик амалий ишларни амалга оширган. Унинг авлодлари ҳам ушбу сулоласига хос анъана сифатида ҳинд халқига меҳрибонлик кўрсатган.

Давлатчилик тарихига назар ташласак дунёда жуда кўплаб ҳукумдорлар ўтган аммо ҳамма ҳукумдорлар ҳам ўзлари ҳукумларига бўйсунган давлатларга адолатли бўлмаган . Бобур ўз вақтида ҳукмига бўйсунган мамлакатлар Амударёдан тортиб Ҳиндистоннинг Баҳор вилоятигача, Хиндикуш тизмалари бўйлаб Бадахшон, Қундуз ва Балх чегараларигача ястаниб ётарди. Тоғ тизмаларининг жанубида эса Қобул, Ғазна ва Кандаҳор вилоятлари, тоғли ўлкалардан афғон ва аймоқ қабилалари яшайдиган Паронамисан тизмалари, жанубда эса сахро ва қир-адирли воҳалардан иборат бўлиб, Белужистонгача етиб боради. Бу ўлкаларда яшайдиган қабилаларнинг айримлари ўз-ўзини бошқариб яшасалар-да, Бобур ҳокимиятини тан олардилар.Қобул ва Ғазнанинг шарқ томонидаги қуйи ўлкалар, Жалолобод, Пешовар, Кўхдомон ва ҳатто Савод ва Бажур вилоятларигача Бобур ҳукуматига бўйсунар эди. Биз ҳозир Афғонистон деб атайдиган мамлакатнинг оёқ етмайдиган узоқ водийларида яшовчи қайсар қабилалар ўлпон тўлаб туриш билангина чекланардилар. Ҳаттоки кўпгина давлатларда Бобурнинг номи Хутбага кўшиб ўқилар эди, масалан Синд дарёсининг қуйи қисмларидаги вилоятларда тўғридан-тўғри ҳукмдорлик қилмас эди,шунга қарамасдан Бобурнинг номи Хутбага кўшиб ўқилар эди.Бк ерда ҳокимят маҳллий ҳукмдорларга берилган эди.. Ҳар бир вилоят, ҳар бир хонлик, ҳаттоки ҳар бир қишлоқ ўз удуми, ўз анъанасига асосан бошқарилар эди.Бутун салтанат учун қўлланилиши мумкин бўлган қонун чиқариб, унинг ижросини таъминлашнинг имкони йўқ эди. Шунинг учун бутун салтанат миқёсида адлия ишларини назорат қилиб борувчи маъмурий идора йўқ эди. Ҳиндистондаги ўлкаларда катта миқёсдаги бахсли масалалар туғилганда ўша қишлоқ, шаҳар ёки вилоят ҳокимига арз қилинар эди. Мусулмонлар яшайдиган вилоятларда мунозарали масалаларни ҳал этиш учун қози тайинланган бўлса ҳам, қозилар асосан, никоҳ ва ажратиш масалалари, ажралиш жараёнидаги мулк даъволари ва диний масаларни ҳал қилардилар. Ер масалаларини шу қишлоқ оқсоқоли ёки заминорлар ҳал қилардилар. Юқори

мансабдаги ҳокимлар фуқаролар масаласидан ташқари жиноий масалаларни ҳам ҳал этардилар.

Шуниси диққатга сазоворки, Бобур биринчи бўлиб, ҳарбий юришларни ҳам, сайру-саёҳатларни ҳам, ҳатто ов қилишни меёрлаб қўйган бўлиб ва ўша меёрдан ошишга йўл қўймас эди. Аградан Кобулгача бўлган йўл ҳар ўн беш мил масофага олтитадан от ва унга қарайдиган хизматчилар қўйилиб, улар чопарлар учун от алмаштирадиган ва дам оладиган мусофирхоналар вазифасини ўтар эди. Бобурнинг ҳаёт йўлига назар ташлар эканмиз, бобоси Амир Темур каби адолатли бошқарувга асос солган Бобиршоҳ қўл остидаги ўлкалар “АДОЛАТ МЕЗОНЛАРИ” асосида бошқарилган .Унинг барча соҳаларда олиб борган ислохотлари шу ўлка халқларининг қалбида доимий сақланиб қолган .Айниқса ҳиндистондаги давлат бошқарувида эр вафотидан сўнг хотиннинг ҳам қўшиб ёқирилиши бекор қилиниши ҳинд аёллари ва ҳинд халқи учун ҳам унутилмас ҳодисадир. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаётининг кўп қисми ,тақдири, ўз ота-юртидан узоқда, Ҳиндистон ,Афғонистон каби ўлкаларда кечади.Гарчи у ерларда шоҳликда ҳаёт ечирган бўлсада ,ўз диёрига етишни орзу қилади.Унинг ғазалларида ВАТАН соғинчи ҳамма нарсадан устунлиги доимо таъкидлаб келинган. Бобир фақат ўз меросий мулки бўлган Фарғона улусини эмас,балки,бутун Мовароуннаҳр ваХуросонни ҳам шундай ўз Ватани деб билган. Шундай экан бугун ҳар биримиз ёшларга таълим-тарбия берар эканмиз ВАТАН тушунчаси қанчалик муққаслиги,адолат тамойилларига асосланган ҳолда ўз ҳаёт йўлини танлаб олиш кераклигини уқтириш лозим.

Диёри ёрдин Бобур жафоу жавр кўрди,  
Хуш улким ёддин қатъ ёддин айлабон тарки диёр этса.  
Толеъ ўқви жонимға балолиғ бўлди,  
Ҳар ишники айладим ,хатолиғ бўлди.  
Ўз ерни қўйиб Ҳинд сори юзландим,  
Ёраб

### Адабиётлар рўйхати

1. Сатторова Д. Ғ. Янги Ўзбекистон ривожланишида ижтимоий идеал ва миллий ўзликни англаш // Сурхондарё илм ва тафаккур-Тошкент, 2021.- №4-Б86-90..
2. Сатторова Д.Ғ. Маънавий маданиятда миллий идеалнинг ўрни // Фалсафа ва ҳуқуқ-Тошкент, 2021.- №1-Б.24-26.
3. Сатторова Д. Ғ. Янги Ўзбекистонда миллий қадриятларимиз миллий идеаллар тимсолида // Сурхондарё илм ва тафаккур-Тошкент, 2021.- №2-86-90.
4. Д. Ғ. Сатторова. Рихсиева Д.Ф. Inson huquqlari va bioetika bo'yicha umumjahon deklaratsiyasining maqsad va vazifalari Toshkent, 2022.- №2-В. 83-87. [www.tsd.uz](http://www.tsd.uz) [www.tma.uz](http://www.tma.uz). // "AVICENNA" ilmiy tibbiy jurnali - Rossiya, 2020.- №74-В.20-23. [www.vicenna-idp-ru](http://www.vicenna-idp-ru).
5. Сатторова Д. Ғ. БУГУНГИ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАР, ЗИДДИЯТЛАР ВА МУЛОҲАЗАЛАР-2022-165-169-. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2022>.
6. Сатторова Д. Ғ. Ҳаракат стратегиясидан-тараққиёт стратегияси сари асосий ғояси асосида олий тиббий таълимни такомиллаштириш // Медицина ва инновация.- Тошкент, 2022.- Б.205-208.
7. Сатторова Д. Ғ. Ҳаракат стратегиясидан-тараққиёт стратегияси сари тамойили асосида замонавий ўқитишнинг аҳамияти // “Цифровизация в обучении гуманитарных дисциплин в медицинском высшем образовании” Сборник научных трудов -2022.-193-196.
8. Sattorova D.G. Bugungi tibbiyotda bioetika: muammolar, nizolar va mulohazalar. - 2022. - В. 35-38. <https://krsjournal.com>.
9. Abdullaeva G.J., Sattorova D.G. GLOBAL BIOETIKANING AXLOQIY MUAMMOLARI-2022-38-41-. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2022>.

## ГРАФИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА СТУДЕНТОВ В ТЕХНИЧЕСКОМ ВУЗЕ

*Еримбетов И.А. стажёр-преподаватель КГУ*

*Каракалпакский государственный университет имени Бердаха*

**Ключевые слова:** Формы, методы, схемы, чертежи, эскизы.

### Аннотация


Настоящее время количество преподавателей, обучающих геометрическим дисциплинам в вузе не удовлетворяет потребностям современного производства, они не готовы разрабатывать творческие задания, электронные пособия, тесты на высоком уровне используя современные технологии. Средний возраст преподавателей высок, но они обладают глубокими фундаментальными знаниями, большим педагогическим опытом, передаваемым студентам традиционным методом.

На всех этапах деятельности человека истории совершенствованная графических изображений неразрывно связана с развитием техники.

Создание новейших машин и аппаратов требует большой творческой энергии, глубоких знаний, правильного построения и чтения чертежей в цехах и конструкторских бюро заводов и научно-исследовательских институтах и лабораториях. Рассматривается проблема формирования графической культуры студентов технического вуза. Развитие и использование современных технологий в процессе преподавания графических дисциплин. Формы, методы и средства подачи учебного материала.

От современного специалиста на производстве требуется умение оперировать полученными знаниями в профессионально-инженерном аспекте, готовность к анализу и прогнозированию производственного процесса, что невозможно без способности воплощать свои мысли, идеи в графические образы – схемы, чертежи, эскизы. Следовательно, инженер должен быть носителем графической культуры, основы которой закладываются на первом курсе вуза при изучении геометрических дисциплин (начертательной геометрии и инженерной графики).

Исследования показали, что большинство студентов обладают лишь начальным уровнем графической культуры, элементарной графической грамотностью. Они воспринимают, запоминают и воспроизводят элементарные теоретические знания о закономерностях получения изображений, слабо





осознают требования к графической подготовке в вузе [1]. Были выявлены причины неуспеваемости по графическим дисциплинам, главная из которых – отсутствие интереса к предмету. Анализ содержания учебно-методического материала, лекционных и практических занятий показал, что в практике преподавания предмета «Начертательная геометрия и инженерная графика» в техническом вузе отсутствует ориентация на будущую профессиональную деятельность студентов, существует отрыв этого предмета от реальных профессиональных ситуаций. Поэтому большая часть студентов-первокурсников не осознает важность графических знаний создающих, основу для изучения специальных дисциплин.

В среде специалистов, занимающихся геометро-графической подготовкой студентов, существуют диаметрально противоположные взгляды на предмет и методы обучения студентов, о направлениях дальнейшего развития кафедр, об их роли и месте в общей системе инженерного образования [2]. Сегодня в профессиональной практике проектирования специалисты в основном уже не используют традиционные методы вычерчивания карандашом. Но общество, промышленность еще не готовы к полному отказу от чертежа, носителя информации в традиционной форме. В настоящее время существует как бы две методики обучения инженерной графике: традиционное и компьютерное, наблюдается переходный период. Нет сомнения в том, что преподавание графических дисциплин требует совершенствования. Многие что предлагается своевременно и интересно. Практика внедрения инноваций в геометро-графической подготовке свидетельствует о том, что они осуществляются с разной успешностью. Мало исследований, посвященных анализу данной практики и ее результатов. Разработка мультимедийного учебного курса в настоящее время является актуальным направлением в развитии инновационных технологий, направленных на помощь преподавателю и студенту в образовательном процессе. Создание и развитие методической базы, отвечающей учебным планам и рабочим программам дисциплин, представляет собой сложную, трудоемкую задачу. Для ее решения преподаватель инженерной графики должен обладать целым комплексом специфических компетенций: умением использовать специальное программное обеспечение предназначенное для записи видео файлов и их обработки; умением создавать

веб-ресурсы, размещать их в сети и организовывать доступ к ним; умением использовать средства создания презентаций, гипертекстов. Преобразование таких навыков требует значительных временных затрат.

Сегодня значительное количество преподавателей, обучающихся геометра-графическим дисциплинам в вузе не удовлетворяет потребностям современного производства, они не готовы разрабатывать творческие задания, электронные пособия, тесты на высоком уровне используя современные технологии. Средний возраст преподавателей высок, но они обладают глубокими фундаментальными знаниями, большим педагогическим опытом, передаваемым студентам традиционным методом. Понятно, что эти проблемы сложны в реализации, требуют решения ряда не простых научно-методических, организационных и других вопросов. Представляется, что их реализация обеспечит надежное повышение общег рафической подготовки будущих специалистов.

#### Список литературы

1. Брыкова П. В. Формирование графической культуры студентов технического вуза / П. В. Брыкова // Высшее образование сегодня. – 2014. – № 11. – С. 78–83.
2. Зеленовская Н. В. Изменение роли преподавателя графических дисциплин в условиях информатизации информационного процесса / Н. В. Зеленовская , О. В. Ярошевич // Инновационные технологии в инженерной графике. Проблемы и перспективы : мат-лы Междунар . науч. практич. конференции (21 марта 2014 г.). – Брест, 2014. – С. 59–61.
3. Супрун Д.Д, Яковцева О.И. Инновационные технологий в инженерной графике: проблемы и перспективы. Сборник трудов международной научно практической конференций. г. Брест, Республика Беларусь , 2015 г.
4. Розов С.В. Сборник задач по черчению М. 1960 г.

**ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ТУРМУШ ТАРЗИНИНГ СОЦИАДИНАМИК  
ХУСУСИЯТЛАРИ ВА МУАММОЛАРИ  
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ СТОМАТОЛОГИЯ ИНСТИТУТИ  
ИЖТИМОЙ ФАНЛАР БИОЭТИКА КУРСИ БИЛАН КАФЕДРАС  
ФАЛСАФА ФАНЛАР НОМЗОДИ,**

**Доцент Худойбергенова Патма Тошполатовна**

**E-mail .fotima.1964@gmail Тел 90 9718186**

Турмуш тарзининг ички ва ташқи белгиларини, алоқаларини ўрганиш уни қандай йўллар билан шакллантириш, бошқариш, прогнозлаштириш мумкинлигини аниқлаш имконини беради. Турмуш тарзини ўрганишдан келиб чиқадиган бош мақсад ҳам уни оқилона ташкил этиш, ижтимоий, миллий тараққиёт манфаатлари нуктаи назаридан бошқаришдир.

Турмуш тарзининг ижтимоий муносабатлар билан боғлиқлигини ўрганиш икки муҳим масала: биринчиси, турмуш тарзининг ижтимоий муносабатлар тизимидаги ўрнини аниқлашга, иккинчиси, турмуш тарзининг ички белгилари ва ташқи алоқаларини яхлит ҳолда, маълум бир тизим сифатида қарашга, бу борадаги билимларни умумлаштириш, хуллас, турмуш тарзи хусусиятлари ҳақидаги ёндашишларни илмий методологик асосга қуришга ёрдам беради. Объектив шарт-шароитларнинг турмуш тарзига таъсирини шунчаки қайд этиш етарли эмас, энг муҳими ижтимоий муносабатлар шаклидаги ушбу шарт-шароитларнинг турмуш тарзида намоён бўлиш хусусиятлари ва улар орқали турмуш тарзининг социодинамик белгиларини аниқлаш муҳимдир. Чунки рационал бошқариш объектга таъсир этувчи кучлар таъсиринигина эмас, балки унинг ички структурасини, таркибий қисмлари ўртасидаги кечадиган интеграцион жараёнларни, социодинамик ўзгаришларни ҳам ўрганишни тақозо этади.<sup>1</sup>

Дунё халқлари ўртасидаги кенг интеграцион алоқаларга, ҳамкорликка қурилаётган ҳозирги даврда турмуш тарзи глобал муносабатлар таъсиридан чеккада қололмайди. Глобал жараёнлар моҳиятига кўра халқларни яқинлаштириш, уларнинг ҳаёт тарзига умуминсоний манфаатлар нуктаи назардан таъсир этишнинг омилига айланмоқда.<sup>1</sup>

Глобаллашув жараёнлари миллатлар, давлатлар, ижтимоий табакалар турмуш тарзларининг яқинлашишини бениҳоя тезлаштиради ва шу асосда XXI аср давомида умуминсоний турмуш тарзи шаклланиши мумкинлигини инкор этиб бўлмайди. XXI асрни қамраб оладиган ушбу умумбашарий жараёнлар турмуш тарзи билан шуғулланадиган тадқиқотчилардан катта эътиборни талаб қилади. Минг йиллар давомида цивилизация турмуш тарзи ҳар бир халқ ва минтақанинг муайян шарт-шароитлари асосида шаклланган<sup>2</sup> ва ривожланган бўлса, энди бу борада тадқиқотчилар ўз нуқтаи назарлари ва эътиқодларини тубдан ўзгартиришлари лозим бўлади.

XXI аср бошларига келиб дунё мамлакатлари ўртасидаги ўзаро таъсир шу қадар кучайиб кетдики, бу жараёндан тўла четда қолган бирорта ҳам давлат йўқ. Ҳаттоки, халқаро ташкилотлардан узоқроқ туришга интилаётган, уларга аъзо бўлишни истамаётган мамлакатлар ҳам бу **жараёндан мутлақо четда эмас**. Ҳозирги давр глобал муоммалари:

#### **Ижтимоий муоммалар:**

1. Аҳолининг кўпчилик қисми қашшоқлиги. Ер юзи аҳолисинининг 3/2 қисми тўйиб овқат емайди. 3/1 қисми эса бутунлай қашшоқ.
2. Соғлиқни сақлаш соҳосининг кескин етишмаслиги ва бевақт ўлимнинг кўплиги. СПИД XXI аср вабоси.
3. Саводсизликнинг кўламдор мактаби. Кўпчилик кишиларда физик ижтимоий майиший ва маънавий маданиятнинг пастлиги.

#### **Иқтисодий муоммалар.**

- 1.Тартибсиз глобализация жараёни.
2. Мафия, Корупция, Жиноятчилик, Наркомания, Ичкилик, Фохшабозлик,
- 3.Табий бойликларнинг камайиб бориши ва материалларнинг қимматлашиши



### Сиёсий муоммалар.

1. Ишсизлик армиясининг ўсиб бориши. Мафкуравий урашнинг авж олиши, миллатчилик, шовинизм, диний акидапарастлик, терроризм.

2. Қуролланишнинг кучайиб бориши. Дунёда ҳар йили 1000 млрд. Ҳарбий соҳага сарв қилиниши. 400 минг олимлар ҳарбий соҳада тадқиқот олиб борди. Кашфиётнинг 25% ҳарбий соҳага алоқадордир.

### Экологик муоммо.

Gipertoniya chalingan bemorlar haftasiga 3-4 marta anor istemol qilsalar, tez orada qon bosimi meyyorlashadi. Italiyalik va Amerikalik olimlar bu sarxil mevaning irsiyatga ta'sirini o'rganib chiqdilar. Ma'lum bo'lishicha, homilador ayollar bu mevani tanovvul qilsalar, tug'ilajak bola uchrashi mumkun bo'lgan yurak xastaligi, bosh miya nuqsonlarining oldi olinar ekan. Mevasi orasidagi pardani quritib, giyohli choyga qo'shib ishish esa asabni tinchlantiradi, uyqusizlikdan xalos bo'lishga yordam berishi ham isbotlangan.

#### **Yo'talga qarshi shifo bo'ladi.**


Anor po'chog'i 1 osh qoshig'i ustiga 1 stakan qaynoq suv quyib, og'zi yopiq holda qaynatiladi. Kuniga 1 mahal issiq holda 1 stakandan ichiladi.

#### **Yo'g'on ichak yallig'lanishida.**

Anor po'chog'i yoki gulidan 1 choy qoshig'i 1 stakan suvda qaynatiladi va 2 soatga damlab qo'yiladi. Kuniga 3 mahal 1 osh qoshiqdan ichiladi.

#### **Ko'ngil aynishini qoldiradi.**

Anor sharbati bilan yalpiz damlamasidan teng miqdorda olib qultumlab ichilsa ko'ngil aynishiga, qusishga davo bo'ladi.






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

**XULOSA:** Anor suvi organizmdagi moddalar almashinuvini rag'batlantirishga qodir. Agar uni uchga bir nisbatda smetanaga aralashtirib, har kuni krem sifatida qo'llanilsa, u terini oziqlantiradi va yoshartiradi. Ammo esingizda bo'lsin, anor mevasi va po'stlog'idan tayyorlangan damlama va qaynatmalarni ko'p miqdorda iste'mol qilish bosh aylanishiga, umumiy darmonsizlikka, ko'ngil aynishiga, qusishga va hatto tomir tortishishiga olib kelishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Haydarov, Hojimatovlar 1976 „ O'zbekiston o'simliklari”
- 2.Xalmatov, Xarlamovlar 1981 Lechevnie svoystva pishevix rasteniy-T
- 3.Yusupov 1981 „Anor qalamchalaridan ko'paytirish” Maqola
- 4.O'zbekiston milliy ensiklopediya 2000-2005





## XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH VA O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA CHORA- TADBIRLAR.

**Amirova Dilshoda Hasan qizi**

*Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institute 4-bosqich talabasi*


**Annotatsiya:** O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishini belgilab oldi. U iqtisodiyotning rivojlanishi va barqarorligida investitsiyalarning beqiyos o'rin tutishini o'z vaqtida to'g'ri anglab yetganligining natijasida investitsiyalarga, xususan, chet el investitsiyalariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi yuz berdiki, bu esa bugungi kunga kelib mamlakatimizdagi investitsiya faoliyatining rivojlantirilishiga olib keldi.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya, portfel investitsiya, investor, kapital eksporti, ustav kapital, dividend.

Bugungi kunda rivojlangan investitsion faoliyatning yo'lga qo'yilishini hukumatimizning yuritayotgan oqilona investitsiya siyosatining mahsuli ekanligini ta'kidlash lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-son Farmoni bilan tasdiqlangan dasturlar doirasida Investitsiyalarni jalb qilish, xorijiy investitsiyalar bilan hamkorlikni rivojlantirish, yangi ishlab chiqarishlar va ish o'rinlarini yaratish ishlari ustuvor yo'nalishlari belgilab qo'yilgan. Bu ishlarni amalga oshirishda "Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, eksport imkoniyatini kengaytirish sohasida belgilangan yo'nalishlar kuchli investitsiya siyosatini o'tkazish bilangina ro'yobga chiqadi"[1]. Albatta, kuchli investitsiya siyosatini o'tkazish orqaligina biz o'z iqtisodiyotimizni yanada gullab- yashnatishimiz mumkin. Bunda xorijiy investitsiyalarning o'rni katta hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonuni 3-moddasining to'rtinchi qismida xorijiy investorlar uchun belgilangan kafolatlar quyidagi hollarda qo'llanilishi mumkin:

-xorijiy investorlarga to'lanadigan, dividend tarzida olinadigan daromadlarga soliq miqdori (stavkalari) ko'payishi;





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

-xoriy investorning chet elga o'tkaziladigan daromadlari (foydasi)ni o'z mamlakatiga qaytarish tartibotini murakkablashtiruvchi yoki ularning miqdorini kamaytiruvchi qo'shimcha talablar joriy etilishi, bunda davlat xoriy investitsiyalar ishtirokidagi korxonaning to'lovga qobiliyatsizligi va bankrotligi yoki kredit beruvchilarning huquqlarini himoya qilish, xoriy investor


- jismoniy shaxs sodir etgan jinoiy qilmish yoki ma'muriy huquqbuzarlik hollarida yoxud sud yoki hakamlikning qaroriga muvofiq daromad (foyda)ni o'z mamlakatiga qaytarishni to'xtatib turishning boshqa zarurati bo'lganda xoriy investor mablag'larini qonun hujjatlarini kamsitmaydigan tarzda qo'llash shartlari asosida o'z mamlakatiga qaytarilishini to'xtatib turish hollari mustasno;

-investitsiyalarning miqdori bo'yicha investitsiyalash hajmlariga miqdoriy cheklashlar hamda boshqa qo'shimcha talablar, shu jumladan xoriy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda xoriy investitsiyalarning minimal miqdorini ko'paytirish tarzidagi talablar joriy etilishi;

-respublika korxonalarining nizom jamg'armalarida xoriy investorning ulush bilan ishtirok etishi bo'yicha cheklashlar joriy etilishi;

-xoriy investorlarning vizalarini rasmiylashtirish va uzaytirish borasidagi qo'shimcha tartibotlar, shuningdek xoriy investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha boshqa qo'shimcha talablar joriy etilishi.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning muntazam ra vishda kengaytirib borilishi, uzoq muddatli investitsiyaviy qarzlarning va to'g'ridan-to'g'ri xoriy investitsiyalarning jalb etilishi O'zbekistondagi Inqirozga qarshi cho ralar dasturida etakchi o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan 2009 yilning 12 martida tasdiqlangan dastur doirasidagi investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish uchun xalqaro moliyaviy tashkilotlar, ikki tomonlama shartnomalar va etakchi xoriy kompaniyalarning kreditlari va investitsiyalarni jalb etish ko'zda tutilgan edi. Hozirgi kunda umumiy qiymati 19 milliard dollardan ortiqroq bo'lgan 80 dan ziyod loyihalarni investitsiyalash va moliyalash bo'yicha aniq manbalar belgilanib, xoriy sheriklar bilan shartnomalar imzolandi. Uzluksiz makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sishning yuksak sur'atlarini ta'minlash, tuzilmaviy o'zgarishlarni izchil amalga oshirib borish, shuningdek, iqtisodiyotni hamda uning tayanch va ijtimoiy infratuzilmalarini bosqichma-bosqich modernizatsiyalashtirib borishni ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiy strategiyasi xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik








ko'lamining yanada jadal o'sib borishiga zamin yaratadi. Umuman aytganda, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotining muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosida chuqur o'ylangan, O'zbekistonga xos hususiyatlar to'la hisobga olingan iqtisodiy islohotlarning o'ziga xos va o'zimizga mos modeli mujassam. Ushbu dasturning o'tgan 18 yil mobaynida izchil amalga oshirib kelinishi sobiq "Markaz»ga har tomonlama bog'lanib qolgan agrar, past texnologiyali va samarasiz iqtisodiy tuzilmaning diversifikatsiyalashgan, jahon bozoriga raqobatbardosh, keng dara jada xilma-xil tayyor mahsulotlar bilan chiqayotgan, uzluksiz yuqori sur'atlardagi iqtisodiy yuksalishga moyil, jiddiy rasmiy omillar va benuqson kredit tarixiga ega bo'lgan zamonaviy iqtisodiyotga aylanishini ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, inqirozning nafaqat salbiy oqibatlarini yumshatishga, balki O'zbekiston iqtisodiyotini yanada kuchli va bardoshli iqtisodiyotga aylantirishga qaratilgan inqirozga qarshi choralarning keng miqyosli kompleks dasturini ishlab chiqish hamda uni tezroq amalga oshirish imkonini berdi. Bunda esa eng hal qiluvchi vazifa - xorijiy investitsiyalar va uzoq muddatli investitsiyaviy kreditlarni jalb etish evaziga iqtisodiyotning ishlab chiqarish asosini tubdan modernizatsiyalash, uni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashdan iborat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. “Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. 1998 yil 30 aprel. 3-modda.
3. Dictionary of International Trade. Global Marketing Strategies, 2015, p.82





## O'zbekistonda yilqichilikning ahamiyatlari.

**Turopova Shaxnoza Olim qizi**

[turopovashaxnoza168@gmail.com](mailto:turopovashaxnoza168@gmail.com)

**Termiz Agrotexnologiyalar va Innovatsion Rivojlanish Instituti.**

**Anotatsiya:** Yilqichilik — chorvachilik tarmog'i. Otlarni urchitish, ko'paytirish, zotini takomillashtirish, naslchilik ishlari bilan shug'ullanadi. Yilqichilik ishchi hayvon tariqasida arzon, samarali energiya manbai. Yilqichilik xilma-xil qishloq xo'jaligi ishlarida, sanoat korxonalarida, geologlarning razvedkachilik-qidiruv ishlarida, turli xil ilmiy ekspeditsiya tarkibida, chegara qo'shinlari va qo'riqchilik xizmatida noyob otulov vazifasini o'taydi.

**Kalit so'zlari:** "Zarbuloq", "O'zbekiston", "Do'stlik"; Surxondaryoda qimiz "Darband"; Qoraqalpog'istonda "Oqqal'a"; Samarqandda "Pangat".


**Abstract:** Horse breeding is a branch of livestock breeding. He is engaged in raising, breeding, improving the breed of horses. Horse breeding is a cheap, efficient source of energy as a working animal. Horse-breeding is a unique type of horse-breeding in various agricultural works, industrial enterprises, geologists' reconnaissance-research work, as part of various scientific expeditions, border troops and guard service.

**Keywords:** "Zarbuloq", "Uzbekistan", "Friendship"; "Darband" in Surkhandarya; "Aqkala" in Karakalpakstan; "Pangat" in Samarkand.

**Аннотация:** Коневодство – отрасль животноводства. Занимается разведением, разведением, улучшением породы лошадей. Коневодство является дешевым и эффективным источником энергии для рабочего животного. Коневодство — уникальный вид коневодства на различных сельскохозяйственных работах, промышленных предприятиях, разведывательно-исследовательской работе геологов, в составе различных научных экспедиций, пограничных войск и охранной службы.

**Ключевые слова:** «Зарбулок», «Узбекистан», «Дружба»; «Дербанд» в Сурхандарьинской области; «Аккала» в Каракалпакстане; «Пангат» в Самарканде.

Yilqichilik Osiyo va Yevropada mil. av. 4-ming yillikda paydo bo'lgan. Ko'hna Yilqichilik markazlaridan biri, shubhasiz, O'rta Osiyo kengliklari hisoblanadi. Otlar





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

mil. av. 2-ming yillikda O'rta Osiyodan Kichik Osiyoga, undan Afrikaga tarqalgan. Amerikaga otlar yevropaliklar tomonidan 16-asr da, Avstraliyaga 17-asr da keltirilgan. Otlar qo'lga o'rgatilganidan va xonakilashtirilganidan keyin insonning ko'pgina ishlarni bajarishda doimiy yordamchisiga aylandi, armiyada alohida otlar qo'shinlar tuzildi. Ayrim xalqlarda Yilqichilik oziq-ovqat mahsulotlari — go'sht va sut olinadigan xo'jalik tarmog'i bo'lib qoldi.

Qad. davrlardan boshlab inson o'z ehtiyojlariga javob beradigan ot sifatlarini takomillashtirib keldi. Yilqichilik taraqqiyotida salt miniladigan, aravaga qo'shiladigan va yuk ortiladigan asosiy otlar yaratildi.

Mavjud mahalliy ot zotlarini takomillashtirish va davr talabiga mos yangi ot zotlarini yaratish 18- va 19-asrlarda jadal sur'atlar bilan amalga oshirildi. Natijada 21-asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlarida 250 dan ortiq xilmaxil turkum ot zotlari urchitilmoqda. Shular qatoridan odimlab yuruvchi, vazni 800–900 kg yirik, og'ir yuk tortuvchi (16 tonnagacha) yilqi zotlari va bo'yi 30 sm, tugilgandagi vazni 5–6 kg keluvchi mitti falabella (Avstraliya) poni otlari o'rin olgan.

Qad. Sharqning Movarounnahr hududi arg'umoklari o'zining takrorlanmas, xo'jalik uchun foydali biologik xususiyatlari bilan nom taratgan dongdor jonivorlar safidan hakli ravishda tarixda o'z o'rniga ega. O'zbek xalq dostonlari "Alpomish" va "Go'ro'g'li"dagi Boychibor va G'irotlar obrazlari bunga misoldir.

O'zbekiston diyorida Yilqichilik an'analari va madaniyati minglab yillar bilan o'lchanadi. O'zbeklar avlodi qadimdan otdan tushmagan. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Boburlar umri "ot usti"da o'tgan.

20-asr boshida butun dunyoda 125 mln., shu jumladan, O'zbekistonda 590 ming bosh yilqi mavjud bo'lgan. So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini i.ch.da zamonaviy mashina va mexanizmlardan keng ko'lamda foydalanish va avtomobil-yo'l transportining keng rivoji natijasi o'laroq ot kuchiga bo'lgan talab tobora so'nib bordi va oqibatda 20-asr, xususan, 20-asr ning 30-y. laridan so'ng Yilqichilik rivojida salbiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yilqichilik qoloqlikka yuz tutdi, e'tibordan chetda qoldi. 1990-yil ga kelib O'zbekistonda yilqi soni atigi 89 ming boshni tashkil etdi, xolos. 1991— 2001-yil larda respublikada Yilqichilik rivojlandi va 152000 boshga yetdi.

Hozirgi zamon dunyo Yilqichilik 4 ta asosiy yo'nalishda rivojlanmokda: naslchilik yilqichiligi; ishchi otlarni yetishtirish va ishchi otlar yilqichiligi; mahsuldor yilqichilik; milliy ot o'yinlari, ot sporti va ot sayohati yilqichiligi.







Naslchilik yilqichiligi uchun mavjud yilqi zotlarini takomillashtirish, mamlakat ommaviy Yilqichilik uchun qimmatbaho asl va toza zotdor yilqilarni yetishtirib berish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand va b. viloyatlar xo'jaliklarida Yilqichilik jadal rivojlanmoqda. Yangi Yilqichilik xo'jaliklari tashkil etildi. Jizzax viloyatida "Zarbuloq", "O'zbekiston", "Do'stlik"; Surxondaryoda qimiz va ot go'shti yetishtirishga ixtisoslashgan "Darband"; Qoraqalpog'istonda "Oqqal'a"; Samarqandda "Pangat" naslchilik xo'jaligi; Andijonda "Hamza" qimiz va ishchi ot yetishtiruvchi shirkat xo'jaliklari shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasida 3 ot zavodi (Toshkent, Jizzax va Qashqadaryoda — Hisor), 1 naslchilik xo'jaligi, 12 naslchilik fermasi, 4 ferma va b. xo'jaliklar Yilqichilik ni rivojlantirish bo'yicha ishlar olib bormoqda. Naslchilik Yilqichilik ning asosini ot zavodlari va naslchilik Yilqichilik fermalari tashkil etadi. Bu yetakchi xo'jaliklar O'zbekistonda ommaviy tovar Yilqichilik xo'jaligi fermerlarini, "Nasl-xizmat" korxonasini va "Chorvanasl" birlashmasini zot sifatini yaxshilovchi deb tan olingan (sertifikatli) qimmatli nasldor yilqilar bilan uzluksiz ta'minlaydi.

Ot zavodlari va naslchilik ferma yilqilari respublika otchopari kotila ishchanlik qobiliyati bo'yicha sinovdan o'tkaziladi. Sinovda yo'rtoqi, salt miniluvchi va ba'zan og'ir yuk tortuvchi zot yilqilariga mansub toy va g'o'nonlar maxsus dastur asosida mashq mashg'ulotlarini o'taydi, chopqirligi, kuchi va bardoshligi sinaladi.

Ishchi otlarni yetishtirish. Yilqichilik naslchilik yo'nalishi bo'yicha ixtisoslashgan xo'jaliklarning Yilqichilik tovar fermalarida ishchi otlar saqlanadi, urchitiladi. Yilqilardan ishchi hayvon tariqasida foydalanish turi mahalliy sharoitga bog'liq.

Mahsuldor yilqichilik go'sht yilqichiligi va sut yilqichiligi kabi tarmoqlardan iborat. Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekistonning tog' va tog'oldi zonalari, Qoraqalpog'iston va boshqa xududlarda mahsuldor Yilqichilik uyur yilqichiligi ko'rinishida avj olgan. Yil davomida yaylovlardan foydalanish arzon va sifatli yilqi mahsulotlarini (ot go'shti va ot suti) yetishtirishning asosiy garovi. Bitta yaylov biyasidan yiliga 1,5—2 s tirik vaznda ot go'shti olish mumkin. Maxsus boqilgan yilqi va uning go'shtidan shi-rintob, yuqori kaloriyali, milliy tansiq oziq-ovqat mahsulotlari — qazi-qarta tayyorlanadi.

Sut yilqichiligi va u bilan bog'liq bo'lgan qimiz tayyorlash texnika va texnologiyasi go'sht yilqichilik xo'jaligi ichida va go'sht yetishtirish bilan birga amalga







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

oshiriladi. Qimiz yetishtirish tobora avj olmoqda. Hamdo'stlik mamlakatlari ichra 50 dan ortiq qimiz bilan davolash muassasalari aholiga xiz-mat ko'rsatmokda. Jumladan, Qozog'istonda "Borovoye", Qirg'izistonda "Issiqko'l", O'zbekistonda "Chatqol", Boshqirdistonda "Shafronovo" va h.k.

Ot sporti yilqichiligi milliy ot o'yinlari va xalqaro ot sporti hamda olimpiya musobaqalarida qatnashuvchi komanda ishtirokchilari uchun zotdor, chopqir, kuchli va a'lo sifatli salt miniladigan hamda yo'rtoqi sportbop otlarni tayyorlash vazifalariga xizmat qiladi.

Ot sporti taraqqiy etgan chet el mamlakatlari ichida Buyuk Britaniya, Germaniya, Shvetsiya, AQSH alohida o'rin tutadi.

**Xulosa:** Dunyo mamlakatlari qatori O'zbekistonda ham qadimiy milliy ot o'yinlari va klassik ot sporti uchun kuchli zamin tayyorlangan. Ot sporti, ko'pkari, ot poygasi respublika va respublikalararo federatsiyalari va qator ot sport mahorat maktablari, "Oltin taqa" kabi ot sport klubi o'z istiqboli muhim ishlarini Yilqichilik xo'jaliklari faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda rivojlantirmoqda. Respublika ot sporti federatsiyasi, poyga va ko'pkari bo'yicha respublika federatsiyasi tuzildi va faol ish yuritmoqda. Milliy ot o'yinlari bo'yicha Bishkekda tashkil etilgan Xalqaro federatsiyaga O'zbekiston a'zo bo'ldi. Qator ot sport klublari va ot sporti bolalar mahorati maktablari ochildi. Ular respublika va viloyat ot-choparlari bilan Hamkorlikda mashg'ulotlarni boshlab yuborganligi milliy ot o'yinlari va ajoyib ot sporti rivojidan yorqin dalolatdir.

O'zbekiston chorvachilik ilmiy tadqiqot instituti Yilqichilik sohasi bo'yicha ilmiy ishlarni bajaradi, texnologiyalariga oid zamonaviy dolzarb masalalar yuzasidan tarmoqqa ilmiy asosda amaliy yordam ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. A. A. Soliyev —Qishloq xo'jaligi geografiyasi|| Toshkent – 2002
2. Хасанов П. А. —ВОЗНИКНОВЕНИЕ ТЕОРИИ О ВЫСОТНЫХ ОБЛАСТЯХ И ЕЕ СВОЕОБРАЗНОЕ РАЗВИТИЕ|| "Экономика и социум" №11(90) 2021
3. [www.agroinspeksiya.uz](http://www.agroinspeksiya.uz)




**“TEXNOLOGIYA FANIDA ZAMONAVIY DARS JARAYONI”**

**Toshkent viloyati Qibray tumani 39-umumiy o’rta ta’lim maktabning  
"Texnologiya" fani o’qituvchisi.  
To’laganov Dilmurod Mirjalolovich**

**Annotatsiya:** Maqolada texnologiya fani mashg’ulotlarda o’quv ishini to’g’ri tashkil qilish, o’quvchilarning faolligini oshirishda o’quv va ishlab chiqarish faoliyatida ta’limning turli tashkiliy shakllarini tanlashning umumiy masalalari va ta’limda ishlab chiqarish ilg’orlari tajribasidan foydalanish. Texnologiya fani darslarida o’quvchilarning o’quv va ishlab chiqarish faoliyatining turli tashkiliy shaklidan, bundan tashqari o’quv amaliyotxonalaridagi mashg’ulotlarda o’quvchilar tomonidan bajariladigan ish turlariga qarab mashg’ulot usullarini va turlarini tanlash haqida ilmiy farazlar bayon etilgan.

**Kalit so’zlar:** nazariy ta’lim, mashq qilish, aralash dars, instruktiv.

Texnologiya fanidagi ishlab chiqarish ta’limi dastlabki paytlarda maktab o’quv amaliyotxonalarida amalga oshiriladi. O’quv amaliyotxonalarida o’quvchilar tomonidan bajariladigan ish turlariga qarab mashg’ulotlarning quyidagi xillarini ko’rib o’tish mumkin: mashq darslari, o’quv-ishlab chiqarish, buyumlarini mustaqil tayyorlash darslari, aralash darslari, instruktiv va nazorat-tekshirish darslari. Mashq qilish darslaridan amaliy mashg’ulot jarayonida foydalaniladi. Bu yerda yetakchi element - o’quvchilar tomonidan mashqlar ishlab chiqarish jarayonida qayta bajarish hisoblanadi. O’quv-ishlab chiqarish, buyumlarni mustaqil tayyorlash, darsda ishlab chiqarish ta’limining asosiy sharti sifatida o’tiladi. Bunda o’quv ishlarini mustaqil bajarish yakka (individual), guruh va yoppasiga (frontal) bo’lishi mumkin. Bir xil ish quroli va ayni bir asbobni qo’llab, bir xil ishni umumguruh bajarayotganda pedagog guruhga faqat umumiy rahbarlik qilishi bilan har bir o’quvchiga yordam beradi. Mustaqil ish agar o’quvchi guruhda o’zining mustaqil topshirig’ini bajarayotgan bo’lsa, guruh usulida bo’lishi ham mumkin, Aralash dars deb, barcha aytib o’tilgan dars xillariga xos bo’lgan elementlar qo’llaniladigan darsga aytiladi har bir darsning bosh vazifasi va maqsadi o’quvchilar tomonidan dastur materialini ommaviy (frontal) hamda rejali ravishda o’zlashtirilishidir. Instruktiv darslar, garchand instruktaj har bir dars hajmining zaruriy





elementi sanalsada, kam uchraydi. Instruktiv darslardan ekspluatatsiya qilish harakteridagi kasblar bo'yicha ta'lim berishda foydalaniladi. Bunday hollarda, darslarda apparat va mexanizmlar zamonoviy ishlab chiqarishda foydalanilayotgan kichik va katta ish qurollari namoyish qilinadi, ulaming tuzilishi, alohida qism hamda uzellarining vazifasi, o'zaro harakati ish yo'riqnomasi asosida tushuntiriladi. Nazorat-texshirish darslari odatda, o'quv davrining oxirida o'quvchilarning mustaqil ishga bo'lgan qobiliyatini, ularning ishlab chiqarishga ulgirishini baholash, shuningdek o'quv ishlab chiqarishda faqat o'quvchilar emas, balki pedagog faoliyatidagi kamchilik va ijobiy tomonlarini ham hisobga olish maqsadida o'tkaziladi


Texnologiya fani darsi maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik prinsiplarni qo'llasada, uning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O'quvchilar bilish faoliyati bilan emas, balki yaratish faoliyati bilan shug'ullanadilar. Texnologiya fani predmetlari, ish qurollari, jarayonlari oddiy o'rganish obyektini sifatida emas, balki o'quvchilar ishlarini faollashtiruvchi ko'rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta'limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi. Texnologiya fani o'quv fani sifatida ana shu va boshqa xususiyatlarini o'rgatadi.

Texnologiya fanini o'rganish materiallar, ularning xossalari o'rganishdan hamda ushbu materiallarning xususiyatlaridan kelib chiqib ulardan turli buyumlar tayyorlashdan iborat bo'ladi. Ushbu jarayon o'qituvchilardan texnologik bilimlarni qo'llash, kreativ va texnik fikrlash orqali tayyor buyumlarning sifat darajasini ta'hlil etish va o'quvchilarga kasbiy bilimlarni singdirishdan iborat.

O'quvchilarni yoshligidan mehnatga o'rgatish kelajak hayotlaida juda katta samara beradi. Bunda mehnat ko'nikmalari bilan birga o'quvchilarda kreativlik, texnik bilimlar, kollektiv ijodkorlik kabi qobiliyatlarni ham shakllantirish zarur.

### XULOSA

Texnologiya fani bizga ta'lim tizimining yangi sohalariga qadam qo'yishga bo'lgan imkoniyatlar eshigini ochadi. Bunga yana yaqqol misol tariqasida mehnat talimi fani texnologiya faniga o'zgartirilganligidir. Buning asosiy sababi mehnat so'zi keng ma'no va tushunchaga ega bo'lib hozirgi texnika va texnologiyalar rivojlangan zamonamizga to'g'ri kelmaydi. Texnologiya ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish lozim. Lekin bu sohada yuqori darajaga erishish uchun eng avvalo moddiy-texnik baza





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

zamon talablariga javob berishi zarur deb hisoblaymiz. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

-umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan amaldagi texnologiya fani mazmuni, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun yetarli emas;

-texnologiya fanini o'qitishda metapredmet kompetensiyalar va fanlararo bog'liqlikning kamligi;

-texnologiya fani me'yoriy hujjatlarida baholash mezonlarining faqat bitiruvchi kompetensiyasi uchun ishlanganligi va darslik, ishchi daftar va o'qituvchi kitoblari, multimedia ilovalari, didaktik materiallar ish qurollari (qo'l asboblari va elektr asboblari)ning yetishmasligi;

-texnologiya fani mazmuniga mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika, arduino kabi O'zbekiston iqtisodiyoti rivoji uchun zarur bo'ladigan elementlarning kam kiritilmaganligi(bular uchun etarli asbob uskuna va material etishmasligi) bo'lajak maktab bitiruvchisining kasbiy sifatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

-o'quvchilarda ta'lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish uchun o'quvchilarda zamonaviy texnika, mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika sohasidagi taktik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan jihoz va uskunalarning yetishmasligi;

-texnologiya fani moddiy-texnika bazasini eskirganligi, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlanmaganligi hamda byudjetdan mablag' bilan ta'minlash bo'yicha yetarli choralar ko'rish yuzasidan takliflar ishlab chiqilmaganli;

Texnologiya fani darsi o'quvchilarning barcha guruhlarini bir xil sharoitda yagona didaktik vazifaning bajarilishini ta'minlaydigan tashkiliy shaklidir. Texnologiya fanining u yoki bu shaklini tanlashda o'quvchilarni kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish jarayonida ularning mutloq maqsadi va yaqin vazifalari, mazmun hamda metodlari, shuningdek, moddiy sharoitini belgilaydigan asosiy omillarining u yoki bu shakliga bog'liq. O'quvchilar faoliyati va ta'limoti jarayonini, shuningdek amaliy tayyorgarlikning metodlari va didaktik vositalarini to'g'ri tanlash quyidagilarni ta'minlaydi:







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

- buyumlar tayyorlashdagi texnologik jarayonlarning oqilona ko'rinishini tanlashni asoslash uchun nazariy bilimlardan maqsadga muvofiq foydalanish yoki ishlarni bajarish izchilligi,

-o'quvchilarga pedagog tomonidan texnologik jarayonning alohida amaliy usullarini bajarishni, u yoki bu yo'nalish uchun harakterli bo'lgan nazoratini olib borish,

- o'lchov, relalash asboblari va moslamalarini, zamonaviy ish qurollari (qo'l asboblari va eiekr asboblar)ning qo'llash yo'llarini, shuningdek zamonaviy ishlab chiqarish mutaxassislari tajribasini har tomonlama namoyish qilish, kasblarni o'quv dasturlar va rejalariga muvofiq ravishda tizimli va izchillik bilan o'rganish;

- o'quvchilarning ishlab chiqarish ta'limiga tezroq qo'shilishi;

-o'quv ishining turli tashkiliy shakllarida o'quvchilarning pedagog tomonidan berilgan uy vazifalarini mustaqil holda bajarishlari muhimdir

Nazariy ta'limda o'quv ma'ruzalari, tushuntirish, seminarlar, laboratoriya mashg'ulotlari, praktikumlardan foydalaniladi. Ishlab chiqarish ta'limida esa muayyan sharoitlarda o'quv ishining kichik guruh ta'limiga yaqin bo'lgan shakli qo'llaniladi. Texnologiya fani o'qituvchisi o'quv ishini tashkil etishda ko'rsatilgan shakllarning har biridan foydalanishi, zarur bo'lganda ulami uyg'unlashtirishi (o'zaro moslashtirishi yoki birga qo'shib olib borishi) mumkin. Bunda o'quv dasturlarining bajarilishi o'quvchilarni ishlab chiqarishdagi mustaqil ishga tayyorgarligini oshirishni, ular tomonidan yangi texnika, texnologik jarayonlar va mehnatni tashkil etishni o'rganishini ta'minlaydi. Pedagogning ta'limni bu bosqichdagi o'quv tarbiyaviy vazifalari. o'quv materialining mazmunidan kelib chiqib, ishlab chiqarish harakterini hisobga olgan holda garuh ishlab chiqarish ta'limini tashkil etishning eng oqilona shakllarini belgilaydi. Hususan dars, yoppasiga (frontal), guruh shaklida o'quvchilar o'quv materialini bir vaqtda bir xil ishlarni bajargan holda o'rganadilar. Bu shakl o'qitish uchun juda qulay sharoit yaratadi va shuning uchun undan birinchi navbatda foydalanish zarur

Texnologiya fani mashg'ulotlari ishlab chiqarish unumdorligigu zamin yaratish, o'quvchilar o'z ijodiy (kretiv) qobiliyatlarini rivojlantirish va ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini egallashlari uchun imkon berishga da'vat etadi. O'quvchilarni birinchi navbatda to'g'ri mehnat usullari va yo'llariga o'rgatish zarur. Chunki bularsiz kasb egallash mumkin emas, so'ngra mahoratli ishlab chiqarish mutaxassislari juda turdosh bo'lgan ish metodlarini doimo o'zlashtirib borish maqsadga muvofiqdir.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

Bizning nazarimizda, ishning ilg'or metodlariga, hatto juda oddiy operatsiyalar bilan tanishish jarayonida ham o'rgatish zarur. Chunki bu davrda o'quvchilar kelgusida foydalanadigan malaka va ko'nikmalari hosil qiladilar. Ishlab chiqarish ilg'orlari tomonidan qo'llaniladigan ishning eng oqilona usullari o'quvchilarga bu usullarni takomillashtirishga intilish uyg'otadi. O'quvchilarni ishlab chiqarishning aniq shart-sharoitlarida ishlab chiqarish unumdorligini oshirishning yangi imkoniyatlarini topa olishlari uchun muayyan kasbga juda harakterli bo'lgan ishni oqilona olib borish tamoyillarini o'zlashtirishlari muhimdir.

Ishlab chiqarish ilg'orlariga ishlab chiqarish faoliyatining ko'pgina elementlarini ilmiy tashkil etish bilan ilg'orlik metodlariga o'rgatish yagona jarayoni tashkil etadi. O'quvchilarni ishning ilg'or metodlari va unumdor usullariga o'rgatish, yangi texnika, mehnatni tashkil etishning eng maqsadga muvofiq shakli bilan tanishtirish, texnologiya fanida nazariy va ishlab chiqarish ta'limi o'quv dasturlarida ko'zda tutiladi. Ishlab chiqarish ilg'orlarining ish metodlari to'xtovsiz takomillashib boradi. Shuning uchun ularning ish tajribasini goh-goh emas, balki rejali va doimiy ravishda o'rganish hamda umumlashtirish, muayyan kash mutaxassislari tomonidan. qo'llaniladigan asboblari, moslamalar, usul va yo'llarning qiyosiy tahlilini o'tkazish zarur.

Texnologiya fani mashg'ulotlari ishlab chiqarish unumdorligiga zamin yaratish, o'quvchilar o'z ijodiy (kretiv) qobiliyatlarini rivojlantirish va ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini egallashlari uchun imkon berishga da'vat etilgan. O'quvchilarni birinchi navbatda to'g'ri mehnat usullari va yo'llariga o'rgatish zarur. Chunki bularsiz kasb egallash mumkin emas, so'ngra mahoratli ishlab chiqarish mutaxassislari juda turdosh bo'lgan ish metodlarini doimo o'zlashtirib borish maqsadga muvofiqdir. Bizning nazarimizda, ishning ilg'or metodlariga, hatto juda oddiy operatsiyalar bilan tanishish jarayonida ham o'rgatish zarur. Chunki bu davrda o'quvchilar kelgusida foydalanadigan malaka va ko'nikmalari hosil qiladilar. Ishlab chiqarish ilg'orlari tomonidan qo'llaniladigan ishning eng oqilona usullari o'quvchilarga bu usullarni takomillashtirishga intilish uyg'otadi. O'quvchilarni ishlab chiqarishning aniq shart-sharoitlarida ishlab chiqarish unumdorligini oshirishning yangi imkoniyatlarini topa olishlari uchun muayyan kasbga juda harakterli bo'lgan ishni oqilona olib borish tamoyillarini o'zlashtirishlari muhimdir.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.X.Sanaqulov D. Xodiyeva Mehnat o'qitish metodikasi Tafakkur bo'stoni Toshkent -2015 y.

2.N.A. Musulmonov S. Sharipov Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi kasb tanlashga yo'naltirish O'zbekiston faylasuflari milliy-jamiyati nashryoti Toshkent – 2016yil.

3. Mavlonova R.A, Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.P "Me'nat va uni o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma. 2007yil TDPU.

4. X.Sanaqulov, M.Xaydarov "Boshlang'ich sinfiarda qog'ozdan amaliy ishlar" o'quvmetodik qo'llanma 1996 yil. TDPU.

5.Nematov, R. A., & Almanov's, Q. O. (2022). THE ROLE OF HISTORICAL SOURCES IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE TURKISH EMPIRE. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 2(10), 25-31.

6.Iskandar, O. (2023). The Organization of the Khorazm Soviet Republic. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(4), 794-798.

7.Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. *Science and innovation*, 2(B4), 481-484.

8.Omongaldi o'g'li, O. I. (2023). QADIMGI DAVRLARDAGI KO'CHMANCHI SAK, MASSAGET QABILALARI HAQIDA MUSHOHADALAR. *IQRO JURNALI*, 2(2), 597-600.

9.Omongaldi o'g'li, O. I. (2022). QADIMGI XORAZM SIRLI QAL'ALARI. *PEDAGOGS jurnali*, 10(4), 182-185.

10.Iskandar, O. (2022). XIVA TARIXI VA RIVOJLANISHIDA TURIZMNING AHAMIYATI. *PEDAGOG*, 1(3), 327-329.





## ОСОБЕННОСТИ КЛИНИЧЕСКОГО ТЕЧЕНИЯ НЕВРОПАТИИ ЛИЦЕВОГО НЕРВА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ПОЛА И ВОЗРАСТА

**Сатимова Дилноза Махмудовна,**

магистр Ургенчского филиала Ташкентской Медицинской Академии

**Бахтиёрова Азиза Максудбековна,**

студентка Ургенчского филиала Ташкентской Медицинской Академии

**Мирзаева Н.С.**

Научный руководитель: Ph.D, старший преподаватель

### АННОТАЦИЯ

Проведенное исследование показало, что невропатии лицевого нерва имеют особенности клинического течения, проявляются преимущественно правосторонним поражением лицевого нерва у лиц женского пола. Идиопатическая форма невропатии лицевого нерва достоверно превалирует среди лиц молодого возраста, тогда как другие формы, в частности сосудистые невропатии лицевого нерва, имеются преимущественно в пожилом возрасте. Симптоматические формы невропатии лицевого нерва, возникающие при заболеваниях лор-органов, а также сосудистой и воспалительной этиологии, имеют более тяжелые двигательные нарушения и отличаются плохим восстановлением нарушенных функций по сравнению с идиопатической формой невропатии лицевого нерва.

**Ключевые слова:** острая невропатия лицевого нерва, возраст, гендер, клинико-патогенетические особенности

**Введение.** Невропатия лицевого нерва (НЛН) — заболевания, относящиеся к числу самых распространенных краниальных невропатий, частота которых у взрослых составляет 12—26 случаев на 100 тыс. населения или 2—5%, от всех заболеваний периферической нервной системы воспалительного генеза [14,с.289;2,с.51]. Несмотря на большое количество исследований, остаются нерешенными вопросы особенностей клинического течения невропатии лицевого нерва в зависимости от возраста. В настоящее время доказано, что








ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

причинами заболевания могут быть инфекции среднего уха, синуситы, паротит, травмы, новообразования, демиелинизирующие заболевания центральной нервной системы, последствия хирургических вмешательств [7, с.663;1, с.1020;3, с.6999;9, с147;8, с162]. Лицевой нерв – один из самых молодых черепно-мозговых нервов, в связи с чем легко ранимый. Молодой, то есть появившийся в истории развития живых организмов одним из последних. У животных он уже есть, но практически не несет на себе никаких нагрузок. У людей же он выступает в одной из главных ролей [13,с.144;11,с.130;10,с142]. Основная деятельность нерва заключается в иннервации мимической мускулатуры: ему мы обязаны способностями улыбаться и хмуриться, удивленно поднимать брови и морщить нос[12,с.399;6,с.60;5,с.57;].

**Цель исследования:** изучить клинические и патогенетические особенности острой НЛН в зависимости от полового диморфизма и возраста пациентов.

**Материалы и методы.** Исследование проводилось на материале областного многопрофильного медицинского центра г.Ургенч, где за период 2020–2022 гг. были обследованы и получили лечение 50 пациентов с острой НЛН. Из вышеуказанного количества пациентов в 27 (54 %) случаях это были пациенты мужского пола, а в 23 (46 %) — женского, которые по половому признаку были разделены в две группы. Пациенты, включенные в исследование, были набраны по принципу случайного отбора. Кроме изучения жалоб и клиники заболевания всем пациентам сделан общий клинический и неврологический осмотр, нейровизуализация (магнитно-резонансная томография и мультиспиральная компьютерная томография), электронейромиография (ЭНМГ) лабораторное обследование. Острая НЛН в 33 случаях имела правостороннюю, а в 17 случаях — левостороннюю латерализацию. При неврологическом осмотре больных, кроме исследования расстройства двигательных функций ЛН, учитывались дополнительные симптомы, такие как ксерофтальмия, гиперакузия, ксеростомия, гипогевзия.

**Результаты.** В структуре острых поражений ЛН значительно преобладает идиопатическая форма НЛН. При этой форме НЛН чаще страдает правый ЛН, особенно в группе пациентов женского пола. Анамнестические данные, собранные у этой группы пациентов, показали, что у абсолютного количества






пациентов (33 (66%)) провоцирующим фактором заболевания было переохлаждение. Максимальное число пациентов с идиопатической формой НЛН приходится на лиц молодого возраста, тогда как в среднем и особенно в пожилом возрасте эта форма наблюдается реже. Так, в молодом возрасте основное значение в развитии НЛН имеют простудный фактор и воздействие холода, так как пациенты ведут более активный образ жизни. И этой форме было свойственно развитие болезни в прохладные сезоны года. Сосудистые формы поражения лицевого нерва с небольшим перевесом по частоте наблюдались у лиц мужского пола по сравнению с женским. При этой форме НЛН мы не наблюдали явного признака преобладающей латерализации. О роли сосудистых факторов поражения ЛН свидетельствовало наличие в анамнезе гипертонического криза, распространенного атеросклероза сосудов головного мозга и диабетической микро- и макроангиопатии. Пациенты были среднего и пожилого возраста, страдающие гипертонической болезнью, атеросклерозом, сахарным диабетом II типа.

Случаи отогенного поражения ЛН не имели признака преобладающей латерализации и строго совпадали со стороной воспаления. Особенностью неврологической картины отогенной НЛН является развитие признаков поражения ЛН в его барабанном и сосцевидном отделах. У наблюдаемых нами пациентов с сосудистыми формами НЛН в 15 случаях (70 %) пациенты были пожилого возраста, в 8 случаях (24%) — среднего возраста. В 7 случаях острая НЛН развилась на фоне гипертонического криза, в 6 случаях — на фоне сочетания атеросклероза и артериальной гипертензии. У 5 пациентов имела место прогрессирующая диабетическая микро- и макроангиопатия, подтвержденная клинической картиной и инструментальными исследованиями. Таким образом, значение сосудистого фактора НЛН начинает превалировать с возрастом и увеличением системной сосудистой патологии.

**Обсуждение.** Заболевания лор-органов, в частности средний гнойный отит, мастоидит, как причины вторичных НЛН почти равномерно наблюдались во всех возрастных группах, но чаще у лиц женского пола. Обращало на себя внимание, что, несмотря на проведение радикальных операций, проявления НЛН носили грубый и стойкий характер. Так, согласно результатам проведенного исследования, динамика дополнительных симптомов НЛН имеет определенные





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

гендерные различия. Если ксеростомия, гипогевзия, болевой синдром, гиперакузия, слезотечение, ксерофтальмия в остром периоде заболевания по частоте проявления имеют схожую картину среди лиц мужского и женского пола, то в последующих периодах заболевания наблюдаются достоверные различия по многим симптомам. Например, болевой синдром и ксеростомия в ранний период восстановления НЛН у лиц мужского пола имели достоверно лучшее регрессирование в сравнении с пациентами женского пола. Максимально быстрое восстановление слезотечения наблюдается после раннего восстановительного периода, то есть в период позднего восстановления. Наиболее стойким и тяжелым симптомом НЛН является ксерофтальмия, которой свойственно более стойкое проявление у мужчин, но она в два раза чаще наблюдается у пациентов женского пола.

**Выводы.** НЛН имеют гендерные отличия, проявляются преимущественным правосторонним поражением лицевого нерва у лиц женского пола. Идиопатическая форма НЛН достоверно превалирует среди лиц молодого возраста, тогда как другие формы, в частности сосудистые НЛН, наблюдаются преимущественно в пожилом возрасте. Симптоматические формы НЛН, возникающие при заболеваниях лор-органов, а также сосудистой и воспалительной этиологии имеют более тяжелые двигательные нарушения и отличаются плохим восстановлением по сравнению с идиопатической формой НЛН.

### Список литературы

1. Jumaniyazov, Kuvondik Yuldashevich; Bakhtiyarova, Aziza Maksudbekovna; Kurbanova, Nodira Navruzovna; Peculiarities of Distribution of Traffic Accidents in Khorezm Region by Population and Age, American Journal of Medicine and Medical Sciences.<http://article.sapub.org/10.5923.j.ajmms.20231307.37.html>, 13,7,1020-1025. 2023. АМЕРИКА.
2. Khurbanova, N., Omonova, G., Alimova, M., & Komiljanova, S. (2017). The state of antioxidant system of mitochondrial fraction of the hepatocyte in early terms of ischemic stroke in white rats. *Интернаука*, (12-2), 51-53.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

3. Kurbanova N. N. others. Effect of new herbal preparations on some indicators of apoptosis in rats with acute toxic hepatitis //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 08. – С. 6999-7005.
4. Kurbanova N.N. et al. The effect of new plant hepatoprotectors on the level of proinflammatory cytokines in acute toxic liver damage. //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – Vol. 24, Issue 08, 2020. – Page. 8910-8920.
5. Navruzovna K. N. et al. Biochemical changes in hepatocyte subcellular fractions in experimental ischemic stroke //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 7-2 (61). – С. 57-59. ООО «Олимп».
6. Navruzovna K. N. et al. Generation of reactive oxygen species in the mitochondrial fraction of hepatocytes in the early stages of experimental ischemic stroke //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 7-2 (61). – С. 60-62. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/generation-of-reactive-oxygen-species-in-the-mitochondrial-fraction-of-hepatocytes>.
7. Акимов Г.А., Одинак М.М. Дифференциальная диагностика нервных болезней. — М.: Гиппократ, 2000. — 663 с.
8. Каримова, МА; Курбанова, НН; Нарушение нормальной микрофлоры толстой кишки влияния генно-модифицированной сои в эксперименте, "Журнал" Медицина и инновации",3,162-166,2022.
9. Курбанова Н. Н. и др. Ряд особенностей распространения заболеваний органов пищеварительной системы среди студентов Ургенчского филиала ташкентской медицинской академии //Инновационное развитие современной науки: проблемы, закономерности, перспективы. – 2019. – С. 147-149.
10. Курбанова Н. ПЕРВИЧНЫЕ И ВТОРИЧНЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ ПОРАЖЕНИЯ СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКИ РТА //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 142-146.
11. Самандарова Б. С. и др. ПРИЧИНЫ РАЗВИТИЯ СИНДРОМА ПОЛИКИСТОЗНЫХ ЯИЧНИКОВ И РАК МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ У ЖЕНЩИН //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2017. – №. 5-3. – С. 130-136.







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

12. Скоромец А.А. Топическая диагностика заболеваний нервной системы: Руководство для врачей / А.А. Скоромец, Т.А. Скоромец. — СПб.: Политехника, 2002. — 399 с.

13. Скрипченко Н.В., Голяков Д.А. Невропатии лицевого нерва у детей: клинико-терапевтические аспекты: Сб. материалов. Первого балтийского конгресса по детской неврологии. — СПб., 2007. — С. 144-145.

14. Степанченко М.А., Жулев С.Н., Бабанова О.В. Невропатии лицевого нерва: диагностика и лечение: Сборник статей IX Всероссийского съезда неврологов. — Ярославль, 2006. — С. 289.





## ASPIRATSION SINDROMDAN NOBUD BO'LGAN CHAQALOQLAR BUYRAGINING MORFOLOGIK O'ZGARISHLARI

Egamov Bunyodbek Jumanazarovich, Salaeva Zulfiya Shanazarovna  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali, Urganch, O'zbekiston

**Ishning maqsadi** tug'ruqdan keyingi erta hamda kechki neonatal davrda aspiratsion sindromdan vafot etgan chaqaloqlar buyragining postnatal ontogenezdagi rivojlanishining o'ziga xos morfologik o'zgarishlarini kuzatish.

**Tadqiqot ob'ekti va predmeti.** Respublika patologik anatomiya markazida 2020-2023 yillardagi tug'ruqdan keyingi neonatal davrda jami 48 nafar neonatal davrning erta (0-7 kunlik) davrida nobud bo'lgan chaqaloqlar va nobud bo'lgan chaqaloqlarning buyrak to'qimasi materiallari olingan.

**Olingan natijalar.** 7 kungacha bo'lgan davrda aspiratsion sindrom bilan kasallangan chaqaloqlar buyragi gipoksiya sababli, epitelial hujayralar nekrozi odatda arang seziladigan bo'ladi va bazal membranalarning qiyinchilik bilan aniqlanadi. Kanalchalarning distal qismi va yig'uvchi naychalarda oqsil silindrlarni bo'lishi aspiratsion sindromdan dalolat beradi. Nekrozga uchragan va ko'chib tushgan hujayralar kanalchalarning pastki bo'limlariga o'tib boradi va silindrlarni hosil qilganligini kuzatdik. Zararlangan membrana atrofida limfositlar, makrofaglar to'planib qolganligini kuzatish mumkin bo'ladi.

**Xulosa:** Buyrak to'qimasining mikroskopik tekshiruvlari neonatal davrda aspiratsion sindrom tashxisi bilan kasallanib nobud bo'lgan chaqaloqlar avtopsiyasida ajratib olingan buyrak to'qimasini morfologik o'zgarishlarini o'rganishimiz shuni ko'rsatadi. Buyrakda qon aylanishi susaygan paytda ya'ni kislorod yaxshi yetib bormagan vaqtda boshlanadigan nekrotik o'zgarish ishemik kanalchalar nekrozi deb yuritiladi. Bunday holatda kanalchalarning proksimal qismi va Genle qovuzlog'ining pastga tushib boruvchi qismi zararlanganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Kanalchalar nekrozga uchrashi bilan o'tkir buyrak yetishmovchiligi boshlanganligidan dalolat beradi.

**Kalit so'zlar:** chaqaloq, neonatal davr, o'tkir buyrak yetishmovchiligi, gipoksiya, Ishemik nekroz, avtopsiya





**Mavzunihg dolzarbliigi:** Tug'ruqdan keyingi aspiratsiya sindromi neonatologiyada hali ham dolzarb tadqiqot mavzularidan biri bo'lib qolmoqda, klinik ahamiyatiga qaramay ko'pincha, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda va chaqaloqlarda tug'ruqdan keyingi aspiratsiyaga hali ham kamroq e'tibor qaratilganligi kuzatilmoqda. Neonatal davr shartli ravishda ikkita davrni o'z ichiga oladi. Bular erta neonatal davr bunda chaqaloq tug'ilganidan 0-7 kungacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Ikkinchi kechki neonatal davr 8-28 kungacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi. Neonatal davrda aksariyat ichki a'zolarning rivojlanishi xar qanday ta'sirlovchi omillarga javoban tizimli javob reaksiyasi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Erta neonatal davrda chaqaloqlarda yuzaga keladigan aspiratsion sindromda ichki a'zolardan asosan parenximatoz a'zolarning gipoksiyasi kuzatiladi. Quyidagi tadqiqotimizda ushbu patologik o'zgarishlar buyrak to'qimasining posnatal ontogenezida quyidagi morfologik o'zgarishlar bilan rivojlanadi. Ya'ni yangi tug'ilgan chaqaloq buyragi nisbatan katta va yumaloq shaklda bo'ladi. U bo'laklardan iborat bo'lib, po'stloq qavati yaxshi rivojlanmaganligi uchun yuzasi g'adir-budur bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq buyragi o'rtacha uzunligi 4.2 sm, kengligi uchlari sohasida 2.2 sm, darvoza sohasida 1.5 sm, og'irligi esa 12 g. Chap buyrak o'ngiga nisbatan katta. Chaqaloq buyragining po'stloq moddasini qalinligi o'rtacha 2 mm bo'ladi, mag'iz moddasiniki 8 mm bo'lib ularning bir-biriga nisbati 1:4 bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq buyragining yuqori uchi XII ko'krak umurtqasining yuqori qirrasida joylashadi. Pastki uchi esa IV bel umurtqasining pastki qirrasida joylashadi. XII qovurg'a chap buyrakning yuqorigi uchini kesib o'tsa, o'ng buyrakning yuqorigi uchi XII qovurg'aning pastki qirrasiga to'g'ri keladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq buyragi uch qavat g'ilof bilan o'ralgan. Buyrak fassiyasi qorinparda orqa fassiyasini yupqa varag'idan iborat. Buyrakning yog' pardasi yo'q. Buyrakning fibroz g'ilofi yupqa biriktiruvchi to'qimadan iborat bo'lib buyrak parenximasiga yopishib turadi va oson ajraladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqning buyrak jomi keng, ampula shaklida bo'lib, ko'pincha buyrak tashqarisida joylashadi. Buyrak kosachalari homila hayotining oxirida paydo bo'ladi.

**Ishning maqsadi** tug'ruqdan keyingi erta hamda kechki neonatal davrda aspiratsion sindromdan vafot etgan chaqaloqlar buyragining postnatal ontogenezdagi rivojlanishining o'ziga xos morfologik o'zgarishlarini kuzatish.

**Tadqiqot ob'ekti va predmeti.** Respublika patologik anatomiya markazida 2020-2023 yillardagi tug'ruqdan keyingi neonatal davrda jami 48 nafar neonatal






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

davrning erta (0-7 kunlik) davrida nobud bo'lgan chaqaloqlar va nobud bo'lgan chaqaloqlarning buyrak to'qimasi materiallari olingan.

Olingan natijalar. Buyrak to'qimasining mikroskopik tekshiruvlari neonatal davrda aspiratsion sindrom tashxisi bilan kasallanib nobud bo'lgan chaqaloqlar avtopsiyasida ajratib olingan buyrak to'qimasini morfologik o'zgarishlarini o'rganishimiz shuni ko'rsatadi. Buyrakda qon aylanishi susaygan paytda ya'ni kislorod yaxshi yetib bormagan vaqtda boshlanadigan nekrotik o'zgarish ishemik kanalchalar nekrozi deb yuritiladi. Bunday holatda kanalchalarning proksimal qismi va Genle qovuzlog'ining pastga tushib boruvchi qismi zararlanganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Kanalchalar nekrozga uchrashi bilan o'tkir buyrak yetishmovchiligi boshlanganligidan dalolat beradi. Bunga asosan kanalchalarning zararlanishi preglomerular arteriolalarning tortishib, torayib qolishiga olib kelishi kuzatilishi mumkin. Bu esa koptokchalardagi filtrlash tezligi pasayishiga olib kelishini kuzatish mumkin. Ishemik nekrozga uchragan buyrak to'qimasini mikroskop bilan tekshirib ko'rilganda kanalchalar qisqa segmentlarining zaralamganligi topildi. Epitelial hujayralar nekrozi odatda arang seziladigan bo'ladi va bazal membranalarning qiyinchilik bilan aniqlanadi. Kanalchalarning distal qismi va yig'uvchi naychalarda oqsil silindrlarni bo'lishi aspiratsion sindromdan dalolat beradi. Nekrozga uchragan va ko'chib tushgan hujayralar kanalchalarning pastki bo'limlariga o'tib boradi va silindrlarni hosil qilganligini kuzatdik. Zararlangan membrana atrofida limfositlar, makrofaglar to'planib qolganligini kuzatish mumkin bo'ladi.

**Xulosa.** Respublika patologik anatomiya markazida 2020-2023 yillardagi tug'ruqdan keyingi neonatal davrda jami 48 nafar neonatal davrning erta (0-7 kunlik) davrida nobud bo'lgan chaqaloqlar va nobud bo'lgan chaqaloqlarning buyrak to'qimasi materiallari olingan. Buyrak to'qimasining mikroskopik tekshiruvlari neonatal davrda aspiratsion sindrom tashxisi bilan kasallanib nobud bo'lgan chaqaloqlar avtopsiyasida ajratib olingan buyrak to'qimasini morfologik o'zgarishlarini o'rganishimiz davomida kanalchalarning proksimal qismi va Genle qovuzlog'ining pastga tushib boruvchi qismi zararlanganligini ko'rishimiz mumkin bo'ldi. Kanalchalar nekrozga uchrashi bilan o'tkir buyrak yetishmovchiligi boshlanganligidan dalolat berdi.





**Foydanilgan adabiyotlar.**

1. Steinhorn RH. Advances in neonatal pulmonary hypertension. *Neonatology*. 2016;109:334–44.
2. Steurer MA, Jelliffe-Pawlowski LL, Baer RJ, Partridge JC, Rogers EE, Keller RL. Persistent pulmonary hypertension of the newborn in late preterm and term infants in California. *Pediatrics*. 2017;139:e20161165.
3. Nakwan N, Jain S, Kumar K et al. An Asian multicenter retrospective study on persistent pulmonary hypertension of the newborn: incidence, etiology, diagnosis, treatment and outcome. *J Matern Fetal Neonatal Med*. 2020;33:2032–7.
4. Abdel Mohsen AH, Amin AS. Risk factors and outcomes of persistent pulmonary hypertension of the newborn in neonatal intensive care unit of Al-minya university hospital in Egypt. *J Clin Neonatol*. 2013;2:78–82. [CrossRef] [[PMC free article](#)] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
5. Selewski DT, Jordan BK, Askenazi DJ, Dechert RE, Sarkar S. Acute kidney injury in asphyxiated newborns treated with therapeutic hypothermia. *J Pediatr*. 2013;162:725–9. [CrossRef] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
6. Rozmiarek AJ, Qureshi FG, Cassidy L, Ford HR, Hackam DJ. Factors influencing survival in newborns with congenital diaphragmatic hernia: the relative role of timing of surgery. *J Pediatr Surg*. 2004;39:821–4. [CrossRef] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
7. Mortazavi F, Hosseinpour Sakha S, Nejati N. Acute kidney failure in neonatal period. *Iran J Kidney Dis*. 2009;3:136–40. PMID: 19617661. [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
8. Bendapudi P, Rao GG, Greenough A. Diagnosis and management of persistent pulmonary hypertension of the newborn. *Paediatr Respir Rev*. 2015;16:157–61. [CrossRef] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
9. Jetton JG, Boohaker LJ, Sethi SK et al. Incidence and outcomes of neonatal acute kidney injury (AWAKEN): a multicentre, multinational, observational cohort study. *Lancet Child Adolesc Health*. 2017;1:184–94. [CrossRef] [[PMC free article](#)] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
10. Agras PI, Tarcan A, Baskin E, Cengiz N, Gürakan B, Saatci U. Acute renal failure in the neonatal period. *Ren Fail*. 2004;26:305–9. [CrossRef] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]





11. Zwiers AJ, de Wildt SN, Hop WC, Dorresteyn EM, Gischler SJ, Tibboel D, Cransberg K. Acute kidney injury is a frequent complication in critically ill neonates receiving extracorporeal membrane oxygenation: a 14-year cohort study. *Crit Care*. 2013;17:R151. [CrossRef] [[PMC free article](#)] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
12. Sheta MM, Al-Khalafawi AI, Raza SM, Gad SS, Hesham MA. Acute kidney injury in term babies with persistent pulmonary hypertension of the newborn. *Glob J Health Sci*. 2019;11:60–6. [CrossRef] [[Google Scholar](#)]
13. Kamolvisit W, Jaroensri S, Ratchatapananakorn B, Nakwan N. Factors and outcomes of persistent pulmonary hypertension of the newborn associated with acute kidney injury in Thai neonates. *Am J Perinatol*. 2018;35:298–304. [CrossRef] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
14. Rocha G, Baptista MJ, Guimaraes H. Persistent pulmonary hypertension of non cardiac cause in a neonatal intensive care unit. *Pulm Med*. 2012;2012:818971. [CrossRef] [[PMC free article](#)] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
15. Jetton JG, Askenazi DJ. Update on acute kidney injury in the neonate. *Curr Opin Pediatr*. 2012;24:191–6. [CrossRef] [[PMC free article](#)] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
16. Ryan A, Gilhooley M, Patel N, Reynolds BC. Prevalence of acute kidney injury in neonates with congenital diaphragmatic hernia. *Neonatology*. 2020;117:88–94. [CrossRef] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
17. Steurer MA, Baer RJ, Oltman S et al. Morbidity of persistent pulmonary hypertension of the newborn in the first year of life. *J Pediatr*. 2019;213:58–65. [CrossRef] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
18. Mat Bah MN, Tan RYH, Razak H, Sopian MH, Abdullah N, Alias EY. Survival and associated risk factors for mortality among infants with persistent pulmonary hypertension of the newborn in Malaysia. *J Perinatol*. 2021;41:786–93. [CrossRef] [[PMC free article](#)] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
19. Fraisse A, Geva T, Gaudart J, Wessel DL. Doppler echocardiographic predictors of outcome in newborns with persistent pulmonary hypertension. *Cardiol Young*. 2004;14:277–83. [CrossRef] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
20. Wedgwood S, Lakshminrusimha S, Schumacker PT, Steinhorn RH. Hypoxia inducible factor signaling and experimental persistent pulmonary





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

hypertension of the newborn. *Front Pharmacol.* 2015;6:47. [CrossRef] [[PMC free article](#)] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]

21. An Y, Zhang JZ, Han J et al. Hypoxia-inducible factor-1alpha dependent pathways mediate the renoprotective role of acetazolamide against renal ischemia-reperfusion injury. *Cell Physiol Biochem.* 2013;32:1151–66. [CrossRef] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]

22. Afolayan AJ, Eis A, Teng RJ et al. Decreases in manganese superoxide dismutase expression and activity contribute to oxidative stress in persistent pulmonary hypertension of the newborn. *Am J Physiol Lung Cell Mol Physiol.* 2012;303:L870–9. [CrossRef] [[PMC free article](#)] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]

23. Plotnikov EY, Pavlenko TA, Pevzner IB et al. The role of oxidative stress in acute renal injury of newborn rats exposed to hypoxia and endotoxin. *FEBS J.* 2017;284:3069–78. [CrossRef] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]





## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA EKOLOGIK TUSHUNCHALARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH KOMPONENTLARI

*Eshboyeva Surayyo Qaxramon qizi,*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi*

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),*

*Termiz (O'zbekiston). [surayyoeshboyev93@gmail.com](mailto:surayyoeshboyev93@gmail.com)*

*Tel: +99899 643-69-99*


**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda atrof-muhitga munosabatni shakllantirishning mazmuni, ekologik ta'lim-tarbiya unsurlari, kreativ yondashuvni takomillashtirishning komponentlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy bilimlarni o'zlashtirish samaradorligi, ekologik tushunchalarni shakllantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlardan foydalanish, ekologik savodxonlik va madaniyatni oshirish, tabiatni muhofaza qilish jarayonlari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, o'quvchi, kreativ shaxs, ekologiya, tushuncha, kreativlik, pedagogika, shakl, baholash, metod, tarbiya, tabiat, komponent, tabiiy bilimlar, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik savodxonlik.

**Аннотация:** в данной статье рассмотрены содержание формирования отношения к окружающей среде в начальной школе, элементы экологического образования и воспитания, компоненты совершенствования творческого подхода, эффективность овладения учащимися начальных классов естественными знаниями, внеклассная деятельность в формировании экологических концепций описаны процессы использования образования, повышения экологической грамотности и культуры, охраны природы.

**Ключевые слова:** начальная школа, ученик, творческая личность, экология, понимание, творчество, педагогика, форма, оценка, метод, образование, природа, компонент, естественные знания, экологическое образование, экологическая грамотность.

**Abstract:** in this article, the content of forming an attitude to the environment in primary education, elements of environmental education and upbringing, components of improving a creative approach, the effectiveness of primary school students' acquisition of natural knowledge, extracurricular activities in the formation of







environmental concepts The processes of using education, increasing environmental literacy and culture, and protecting nature are described.

**Key words:** elementary school, student, creative person, ecology, understanding, creativity, pedagogy, form, assessment, method, education, nature, component, natural knowledge, ecological education, ecological literacy.


Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirish zaminida o‘quvchilarga atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo‘lishni o‘rgatish ta’lim tizimining dolzarb masalasiga aylandi. Yangi asrning barkamol o‘sayotgan o‘quvchisi o‘zida ekologik ta’lim-tarbiya unsurlarini ham namoyon eta olishi zamon talabidir. Ekologik tushuncha - bu atrof-muhit to‘g‘risida chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg‘usiga ega bo‘lish, o‘simlik va hayvonlarga nisbatan g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, tabiat zaxiralaridan oqilona foydalanish, ularni ko‘paytirish borasida qayg‘urishga qaratilgan amaliy faoliyatning yuksak ko‘rsatkichidir.

Jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirishning metodik tuzilmasini tashkil etuvchi komponentlar (motivatsion-shaxsiy, kognitiv-kreativ, jarayonli-integrativ) asosida natijadorlikni ta’minlashga qaratilgan samarador integratsion-didaktik muhitni yaratishga imkoniyat yaratadi.

Zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotlarda kreativ yondashuvni takomillashtirishning komponentlariga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, ushbu yondashuvlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirishga qaratilgan komponentlar tuzilmasi o‘z aksini topgan (1-jadval).

**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish komponentlari**

Komponentlar	O‘quvchi sifatleri
Motivatsion-shaxsiy	shaxsga yo‘nalganlik, shaxs bilan muloqotga yo‘nalganlik, shaxsiy motivatsiyaga yo‘nalganlik.






Kognitiv - kreativ	o‘z-o‘zini anglash va intellektual rivojlanish, shaxs ijodkorligini takomillashtirishga intilish, ijodiy yondashuvni o‘z zimmasiga olish, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida atrof-dagilar bilan hamfikrlilik.
Jarayonli-integrativ	o‘z faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, o‘zaro bog‘lash, faoliyatda o‘z-o‘zini nazorat qilish.

Xususan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish jarayonida uchta tarkibiy qismni o‘zida aks ettirishga qaratilgan integratsion-didaktik muhitni yaratishning metodik tuzilmasi komponentlari aniqlandi. Unda motivatsion-shaxsiy va kognitiv-kreativ, jarayonli-integrativ komponentlar, shuningdek, ushbu komponentlar bilan bog‘liq holda o‘quvchilarda ekologik ta‘lim-tarbiyani shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirishda motivatsion-shaxsiy komponent avvalo, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiiy bilimlarni o‘zlashtirishda barqaror motivatsiyani tashkil etuvchi ijobiy munosabat, ehtiyojlar va qiziqishlarni rivojlantirishni anglatib, o‘zida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning o‘ziga xosligi, muloqot va motivatsiyaga yo‘nalganligi kabi shaxs sifatlarini ifodalaydi.

Kognitiv-kreativ komponentlar-boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda o‘z-o‘zini anglash va intellektual rivojlanishga intilish, shaxs ijodkorligini takomillashtirishga intilish, ijodiy yondashuvni o‘z zimmasiga olish, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida atrof-dagilar bilan hamfikrlilik kabi shaxs sifatlarini ham o‘zida ifodalaydi. Ushbu sifatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy bilimlarni qurollantirishda zamonaviy bilimlarni egallagan bo‘lishlari, ekologik burch, axloqiy tamoyillar va me‘yorlar haqidagi bilimlar tizimining mavjudligini talab etadi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda kognitiv atamasining ma‘nosi bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni (idrok), atrof-olam haqidagi ilmiy manbalarni o‘rganish, anglash kabi ma‘nolarni anglatadi.





Jarayonli-integrativ komponent quyidagi mezonlar bilan tavsiflanadi: o'z faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, o'zaro bog'lash va faoliyatda o'z-o'zini nazorat qilishni aks ettiradi. Shuningdek, ushbu tarkibiy qism tabiiy bilimlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirishning integrativ bilimlarni o'rganish sohasida o'quv faoliyatga muvofiq axloqiy me'yor va qoidalar, ekologik etika to'g'risidagi bilim, ko'nikma va ma'naviy-axloqiy motiv hamda ehtiyojlarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish dars mashg'ulotlaridan tashqarida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar (seminar-trening, ekskursiya, konferensiya, bahs-munozara kechalari, savol-javob soatlari)ni pedagogik talablarga tayangan holda, ta'lim texnologiyalari, ya'ni, ta'lim shakllari, vositalari va metodlari bilan birgalikda amalga oshirilish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni kichik guruhlarda va jamoaviy guruhlarda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijasiga ko'ra o'tkazilgan mashg'ulotlar asosida o'quvchilarda ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirish hamda shaxs ma'naviy-axloqiy olamiga atrofdagi insonlarning ta'siri, buyuk shaxslarning hayot tarzi, ulardagi komil inson shaxsining shakllanishiga va o'z-o'zini baholashi, mulohaza yuritish, munosabat bildirish, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni takomillashtirishdan iborat [10].

Ana shu xislatlarni o'zida aks ettira olgan insonni ekologik ta'lim-tarbiya egasi deb atash mumkin. Iste'moldan ortiqcha suv jo'mraklardan oqishiga yo'l qo'ymaslik, suv xavzalarini ifloslantirmaslik, axlatni duch kelgan joyga to'kmaslik, turar joylarni ozoda saqlash, ko'chat va gullarni sindirmaslik hamda ularni ekish, hayvonlarga g'amxo'rlik qilish, qushlarni parvarishlash, xonadon va xiyobonlarni gulzorga aylantirish kabi harakatlarni amalga oshirish ekologik madaniyatlilikning eng oddiy ko'rinishlari hisoblanadi.

Ekologik ta'lim-tarbiya - bu insonni tabiatga qadam qo'ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq-odob yuzasidan xalqimizning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko'paytirish, bog'u rog'lar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir [1].





Ekologik tushuncha insonda tabiatga atrof-muhitga mehr uyg'otish, tejamkorlik xususiyatlarini shakllantirishga qaratilgan tabiatni muhofaza qilish, uni avaylab asrash tuyg'ularini inson tafakkurida shakllantirishdan iborat. Shuningdek, ekologik tarbiyalash jarayonida o'quvchilarga tabiat boyliklarini tejab-tergashga, tabiatni muhofaza qilishga da'vat etadi. Ekologik ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi jamiyat kishilarini ekologik jihatdan savodxonligini, madaniyatini oshirish, tabiatni muhofaza qilish, ozoda-toza saqlash, hayvonot olamiga, o'simliklarga mehr uyg'otish orqali tabiat ne'matlarini parvarishlashdan iborat bo'ladi.

Bugungi ekologik ta'lim tizimida dolzarb muammo bu mamlakatda uzluksiz ekologik ta'lim modeliga amal qilish natijasida yagona tabiat va jamiyatdagi o'zaro uyg'unlik, birlik imkoniyatlarini shakllantirishdir. Uzluksiz va xavfsiz ekologik ta'lim tizimi orqali jamiyatni shakllantirishga erishish uchun uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'inida tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan metodlarni ishlab chiqish zarur [11].

Ilmiy izlanishlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni o'qitishda ekologiyaga oid manbalar deyarli atroflicha yo'lga qo'yilmagan. Jumladan, I.I.Malozyomova o'z ma'lumotlarida, ekologik ta'lim usullarini o'rganishda asosiy vazifa o'qituvchining bilimi, mahorati va uning ongida shakllangan ekologik madaniyatning yuksakligiga bog'liq deb ta'kidlaydi [2].

Ekologik manbalarni o'qituvchi dars jarayonida yangi metodlarni qo'llash natijasida va o'z metodlari orqali o'quvchiga ma'lumot yetkazadi deb hisoblaydi S.A.Stepanov [3] va G.A.Yagodin [4].

O'qitish metodi orqali o'qituvchi va o'quvchi harakatlari yordamida ma'lum bir fanni o'rganadi, o'qitish metodlari aynan dars jarayonida qo'llaniladi va zamonaviy o'qitish vositalari bilan uzviy bog'lik bo'ladi. Turli o'qitish metodlaridan foydalanishning asosiy maqsadi bilimni o'quvchilarga yetkazishdan iborat bo'ladi [5].

Shuningdek, bugungi kunda tabiiy fanlarni o'qitishda bir qator zamonaviy o'qitish metodlari mavjud bo'lib, bu metodlarni qo'llash aslida juda murakkab va o'z navbatida, ular oddiy ham bo'lishi mumkin. Chunki tabiiy fanlar boshqa fanlardan farqli o'laroq, o'z metodlarini tabiat jismlari yoki ularni o'rganishda foydalanadi, bu obyektlarni ba'zan qo'l bilan ushlab ko'rish mumkin, ba'zan esa ularga mutlaqo yaqinlashib bo'lmaydi [9].







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirishning shakl, metod va vositalarini ishlab chiqishda quyidagi ish turlarini bajarishni talab etadi:

ekologik ta'lim-tarbiyaga oid tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud ekanligi;

darslarni tashkil qilishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish;

fanlararo integratsiya ekologik ta'lim-tarbiya asosi ekanligi;

muammoli vaziyat yaratish;

test sinovlarini o'tkazish;

ekologik ta'lim-tarbiya mazmunida mashq bajarish va masalalar yechish, test, diktant, insho va bayon yozish;

ekologik tarbiya mazmunida qiziqarli o'yinlar: krossvord, rebus va ijodiy topshiriqlarni bajarish;

darslik bilan ishlash.

Tabiat xilma-xil va go'zal, tabiat va inson bir butun. Tabiat jonli va jonsiz tabiatga ajraladi. Jonli tabiat bu-o'simliklar, hayvonlar, odamlar. Jonsiz tabiatga esa tuproq, suv, havo, foydali qazilma va hokozolar kiradi. Shuningdek, tabiatda barcha narsa, ya'ni jonli va jonsiz tabiat o'zaro bog'langan bir butundir [6].

Tirik mavjudotlarni o'rab olgan narsa atrof-muhit. Ana shu atrof-muhitni toza saqlab, uni muhofaza qilish har bir insonning burchidir. Agar biz tabiat oldidagi burchimizni unutsak, tabiatga ziyon yetkazamiz. Tabiatdan foydalanishda odamlarning yo'l qo'ygan ziyonlari, albatta, o'z javobini qaytaradi. Ya'ni son-sanoqsiz ekologik muammolarni yuzaga keltiradi. Bu muammolar oldida har bir inson o'z javobgarligini his qilgan holda tabiatni asrab-avaylashi lozim [7].

Tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatning buzilishi ekologik muammolarni yuzaga keltirdi. Ya'ni inson tabiatga ziyon yetkazsa, uni muhofaza qilmasa, tabiatda ekologik zanjirlar buzilib ketadi. O'simliklar bilan hayvonlarning birgalikda yashaydigan guruhlari ekologik zanjirni hosil qiladi. Tabiatda bunday ekologik zanjirlar hamma joyda bor. Agar ekologik zanjir buzilsa, tabiat ekologik halokat qurshovida qoladi. Inson ona-tabiatning bir bo'laki bo'lib, jonli va jonsiz tabiatni muhofaza qilishi va ekologik muammolar oldini olishi shart. Ekologik muammolar yechimini birgalikda izlashni unutmaslik kerak.





Hozirgi yoshlarning voyaga yetish vaqtida jamiyat hayoti, butun yer taqdiri uchun javobgarlik va mas'ullik hissini singdirgan holda ta'lim-tarbiyani tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ularda tabiatga muhabbat, barcha tirik mavjudotlarga hurmat, o'zlarining tabiatdagi xulq-atvorining oqibatlarini oldindan ko'ra bilish qobiliyatini shakllantirish juda muhimdir.

Xulq-atvorning ekologik madaniyati bu bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar estetik tarbiya asosida shakllantirilib, o'quvchilarda tirik mavjudotlarga hamdard bo'lishni o'rgatish, tirik mavjudotga zarar yetkazmaslik, o'simlik va hayvonlarni nobud qilmaslik, tabiat yaratgan narsani yo'q qilishga haqqimiz yo'qligini anglatish shart [8].

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish mazmunidagi materiallarni tanlash tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarda ziyraklik, mustaqillik, ijtimoiy foydali va unumli mehnatni sevish kabi sifatlarni shakllantiradi. Bundan tashqari, o'z o'lkasi ekologiyasiga nisbatan hurmat hissi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun eng avvalo qo'shimcha ekologik ta'lim tizimini rivojlanishidagi yetakchi bosqichlarni tahlil qilish va modellashtirishning umumiy yondashuvlarini ko'rib chiqishni talab etadi.


#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Камышникова Ю.С. Глобализм и современные экологические проблемы. Автореф. канд. филос. наук. - Санкт-Петербург, -2006 .
2. Малозёмова И.И. Развитие направлений экологического образования в современном ВУЗе. // Международная научно-практическая конференция «Биологическое и экологическое образование в школе и ВУЗе. Теория, методика, практика». 2017. -С. 127-131.
3. Степанов С. А. Экологическое образование для устойчивого развития как важное направление модернизации высшей школы России. // Автореф. дисс. докт. пед. наук. -М., 2011. -57 с.
4. Ягодин Г.А. Некоторые аспекты экологического образования в школе. Развитие непрерывного экологического образования. // Материалы 1-й Москов. науч.-практ. конф. по ЭО. М. МНЭПУ. 1995.-С. 26-29.





5. Norbo‘tayev X.B. Maktab o‘quvchilarida ekologik tafakkurni tabiiy fanlararo sinxron va asinxron aloqadorlikda rivojlantirish metodikasi (biologiya, kimyo, fizika o‘quv fanlari misolida). Monografiya. -Toshkent: “Yangi nashr”, 2019. - 114 b.
6. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari: diss.ped. fan.dok. - Toshkent, 2006. - 263 b..
7. Saydamatov F.R. Maktab geografiya ta’limida ekologik o‘lkashunoslik vositasida o‘quvchilarning ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish metodikasi: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss... avtoref.- Chirchiq, 2021. - 45 b.
8. Ахмедов Н. Эколого-физиологические основы повышения продуктивности тутового шелкопряда: автореф. дисс. док. с.х.наук. - Ташкент, 1999. - 41 с.
9. Эшбоева С. и др. Бошланғич таълимда экологик таълим-тарбияни шакллантиришда креативликни такомиллаштириш методикаси //E Conference Zone. – 2023. – С. 29-36.
10. Эшбоева, С. (2023, January). Бошланғич таълимда экологик таълим-тарбияни шакллантиришда креативликни такомиллаштириш методикаси. In E Conference Zone (pp. 29-36).
11. Эшбоева С. и др. Бошланғич синф ўқувчиларининг экологияга оид тушунчаларини креатив ёндашув асосида такомиллаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари //E Conference Zone. – 2022. – С. 124-130.
12. Eshboeva S. Creative approach to forming ecological concepts in primary class students. – 2022.
13. Eshboyeva, S. (2022). Didactic possibilities of creative approach in forming ecological concepts in primary class students. Conferencea, 200-205.
14. Eshboyeva S. Didactic possibilities of creative approach in forming ecological concepts in primary class students //Conferencea. – 2022. – С. 200-205.



## KETMA - KET TARJIMA VA UNING PRINSIPLARI

Anjela Kuganova Alimardonovna  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Turizm fakulteti Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi  
[anjelakuganova325@gmail.com](mailto:anjelakuganova325@gmail.com)  
+998950720329

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ketma ket tarjima qilish, uning bir qator temporal, texnik, uslubiy, mazmunli va makansal xususiyatlari uning tarjimashunoslikdagi tutgan o'rnini hamda prinsiplari haqida yoritilgan.

**Keywords:** ketma -ket tarjima, prinsiplari, tarjima xususiyatlari, konseptuallik, semantografiya.

### CONSECUTIVE TRANSLATION AND ITS PRINCIPLES

#### ABSTRACT

This article describes consecutive translation, a number of its temporal, technical, methodological, meaningful and spatial features, its place and principles in translation studies.

**Keywords:** sequential translation, principles, translation features, conceptuality, semantography.

### KIRISH

Hozirgi zamon tilshunosligi nuqtai nazaridan olib qaralganda ketma-ket tarjima alohida fan sifatida tan olingan bo'lsada u bevosita leksikologiya, grammatika, stilistika, fonetika, til tarixi, falsafa fanlari tarixi, mantiq hamda mamlakatshunoslik fanlari bilan aloqadorlikda rivojlanib bormoqda. Ketma-ket tarjima buyuk olimlarning ilmiy izlanishlari, kitoblari bilan munosib bellashib, umumiy tarjima shoxasiga jon baxsh etib kelgan. Bundan tashqari, ketma-ket tarjima va tarjima jarayonida yozuvlar sxemasi va ularning belgilarini aniq tartibda belgilash orqali tarjimonlarga o'rgatilsa va ko'plab manbalar ishlab chiqilsa ko'pina tarjimonlar uchun qulayliklar bo'lar edi.

Og'zaki ketma-ket tarjima qilish vazifasi, boshqa har qanday tarjima faoliyati kabi, aslida mavjud bo'lgan xabarni etkazishdir. (Shuni esda tutish kerakki, bu xabar so'zlashuv muallifi tomonidan qabul qiluvchiga etkazish uchun mo'ljallangan








ma'lumotdir). Ketma-ket tarjimada yozma tarjimadan farqli o'laroq, xabar faqat nutq asarining mazmunidan ajralib turishi mumkin; matnning shakli aloqa bilan bog'liq axborotni olib bormaydi, badiiy matn shakli xabarning bir qismini olib yurishi mumkin. Bu holat juda muhimdir: og'zaki tarjimada dastlabki xabarning shakli yozma ravishda kamroq rol o'ynaganligi sababli, xabar boshqa shaklda o'tkazilishi mumkin, ya'ni tarjima shakli asl nusxadan katta farq qilishi mumkin. Og'zaki aloqa tarkibida quyidagi bosqichlar (bosqichlar, ulanishlar) aniqlanishi mumkin):

- Xabar matnining manbayi;
- Asl xabar tarjimonini qabul qilish va tushunish (dekodlash);
- 1. Qabul qilingan xabarni ro'yxatga olish tizimida kodlash-saqlash qurilmasi;
- Chiqish xabarini ro'yxatdan o'tkazish (kodlash);
- 1. Qabul qiluvchi tomonidan tarjimani qabul qilish.

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bu erda eng muhim narsatarjimonning dastlabki xabarni qabul qilish bosqichi va tarjimonning tarjima matnini ishlab chiqarish bosqichi. Shuni ta'kidlash kerakki, dastlabki xabarni qabul qilish bosqichida tarjimon faoliyatining muvaffaqiyati asosan asl xabarning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Shuning uchun, keling, asl xabarning umumiy xususiyatlarini ko'rib chiqaylik.

Izchil tarjima-bu og'zaki tarjima turlaridan biri bo'lib, unda ma'ruzachi vaqti-vaqti bilan tarjimonga aytilganlarni tarjima qilish uchun zarur bo'lgan nutqda pauza qiladi. Ushbu pauzalar odatda kichikdir, chunki professional tarjimon odatda nutqning ovozi davomida tarjimani shakllantiradi va pauza paytida uni aytadi. Izchil tarjima maxsus va jiddiy ta'lim va tayyorgarlikni talab qiladi. Ketma-ket tarjima-bu tarjimonning og'zaki nutqini tugatib, butun nutqni yoki uning bir qismini tugatgandan so'ng tarjimonni tarjima qilishni boshlaydigan og'zaki tarjima usuli. Nutqning tarjima qilingan segmentining hajmi har xil bo'lishi mumkin: alohida bayonotdan 20-30 va undan ko'p daqiqalarda ma'ruzachi aytgan katta hajmdagi matnga. Tarjima bu turi tarjima boshlanishidan oldin uzoq vaqt davomida original muhim segmentlari mazmunan tarjimon xotirasida saqlab talab qiladi. Agar asl nusxaning hajmi bir nechta so'zlardan oshib ketgan bo'lsa, asl nusxani qabul qilish jarayonida tarjimon kontentning tugun momentlarini yozib oladi, bu unga xotirada saqlangan xabarni





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

tiklashga yordam beradi . Boshqa har qanday tarjima kabi, og‘zaki ketma-ket tarjima —muloqot sodir bo‘ladigan nutq faoliyati bilan belgilanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI


S.Serova ta‘kidlaganidek, og‘zaki ketma-ket tarjima-bu kamida uchta subyektning ishtirokida amalga oshiriladigan va nutq faoliyatining bir necha turlari va shakllarini o‘z ichiga olgan vositachilik nutqi faoliyati: tinglash, fikrlash, yozish, o‘qish va gapirish. Prosessual og‘zaki ketma-ket tarjima quyidagicha ta‘riflanishi mumkin: tarjimon, spikerning yonida bo‘lish, nutqni tinglash, yozishni davom ettirish va pauzada nutqini boshqa tilda takrorlash, uning yozuvlariga asoslangan. Shunday qilib, ketma-ket tarjima bir qator temporal, texnik, uslubiy, mazmunli va mekansal xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ketma-ket tarjimaning temporal xususiyatlariga quyidagi xususiyatlar kiradi:

1. axborotni qabul qilishning yagona va aniqligi;

  - nutq tezligiga bog‘liqlik va spikerni pauza qilish;
  - asl nusxaning juda uzoq ovozi;
  - asl fragmentning asl tili va tarjima tilida ovoz berish vaqtida ajratish;

har xil harakatlarning bir vaqtning o‘zida bajarilishi (tinglash va tuzatish, yozuvni o‘qish va gapirish).

Tarjimonning nutq tezligi juda yuqori: spikerning nutqiga teng, agar u tez gapirsa va tezroq bo‘lsa, asl nutq tezligi sekin bo‘lsa. Texnik jihatdan, ketma-ket tarjima axborotni yodlash va tahlil qilish uchun yordamchi sifatida maxsus yozuv yordamida og‘zaki tarjimaning boshqa turlaridan farq qiladi. Ketma-ket tarjima qilinishi kerak bo‘lgan nutqlarning janriga kelsak, aksariyat hollarda ular yuqori darajadagi rasmiyatchilik (ko‘p sonli nutq klişesi, barqaror inqiloblar), hissiylik (baholash so‘z birikmalarining mavjudligi, taqqoslashlar) va kontseptuallik (semantik to‘yinganlikning katta darajasi) bilan tavsiflanadi. rasmiy uslub va jamoat nutqlariga xosdir. Nutqning to‘liq qismini tinglash qobiliyati tufayli, ketma –ket tarjima mahsuloti, sinxron tarjimadan farqli o‘laroq, bir tomondan, ma‘noga katta kirib borishi va boshqa tomondan, tarjima qismining qisqarishi (taxminan uchdan bir qismi) asl nusxaning takrorlanishini bartaraf etish orqali dastlabki xabarga nisbatan xarakterlanadi.






Tarjimonning tinglovchilarga nisbatan fazoviy joylashuvi nuqtai nazaridan uning ishi (sahnada yoki muzokaralar stolida) va qabul qiluvchilar tarjimaning ogʻzaki va ogʻzaki boʻlmagan qismlarini bir vaqtning oʻzida baholash imkoniyatiga ega. Kommunikatorlar bilan bevosita aloqa qilish, qayta soʻroq qilish va qiyinchiliklar yuzaga kelgan taqdirda maʼruzachi yoki tinglovchilarning yordamiga murojaat qilish imkonini beradi. Dialogik nutqni izchil tarjima qilishda kichik soʻzlar tarjima qilinadi. Monologik nutqning ketma-ket tarjimasini bilan segmentlarning uzunligi ikki dan 7-8 daqiqagacha oʻzgarib turadi, koʻproq vaqt zerikishga olib keladi, diqqatni boʻlsa va vaqtning tejash uchun ishlash baʼzan oldindan tarjima qilinadi.

- qoʻshimcha texnik uskunalar talab qilinmaydi, bu esa tadbirning harakatchanligini oshiradi;
- masalan, sanoat ob'ektlarida ishlayotganda, prezentatsiyalar boʻyicha muzokaralar olib borilganda, delegatsiyalar hamrohligida amalga oshirilishi mumkin;
- ishtirokchilar masalani koʻrib chiqish uchun foydali boʻlishi mumkin boʻlgan qoʻshimcha vaqtga ega (masalan, biznes muzokaralarida);
- koʻp hollarda sinxron tarjimadan farqli oʻlaroq, bitta malakali tarjimonni jalb qilish kabilar;

### **Ketma-ket tarjima qilishning 3 ta asosiy prinsipi mavjud:**

- Anglash
  - Tahlil qilish
1. Qayta ifoda qilish.

Anglash prinsipida soʻzlar emas, fikrlar tarjima qilinishi kerak. Agar tarjimon soʻzlovchining nutqidagi biron bir soʻzning tarjimasini biimasa, u bu soʻzning maʼnosini kontekstdan anglab yetishi zarur. Soʻzlovchining nutqini eʼtibor bilan tinglash juda muhimdir. Maʼnoni eslab qolish uchun asosiy fikrlarni va ular orasidagi bogʻlanishlarni bilish muhimdir. Har qanday nutqda 2 ta asosiy lahza mavjud. Ular nutqning boshlanish va tugashidir. Tarjimon aynan shularga oʻz eʼtiborini qaratishi lozim. Agar u aniq boʻlmasa va oʻtkazib yuborgan boʻlinsa, soʻzlovchiga fikringizni oydinlashtira olasizmi? deb savol bering. Tarjimon soʻzlovchining fikrini oʻzining soʻzlari orqali koʻproq ifoda etsa, tarjimaning sifati yahshiroq boʻladi. Tarjimon koʻproq ijodiy yondoshsa, uning tarjimasini toʻgʻri boʻladi. Daniel Gile—Tarjimadagi taniqli, takroriy qiyinchiliklarni tushuntirish va oʻquvchilarga ularni ingliz uchun berilgan maslahatlarni tushuntirish uchun harakat modellarini ishlab chiqdi. U dastlab ularni





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10


sinxron tarjima qilish uchun ishlab chiqdi, ammo birinchi modelning o'zgartirilgan versiyasini ketma-ket tarjima qilish uchun ham ishlatish mumkin. Uning o'zi ta'kidlaganidek, ular "aslida didaktik bo'lib, talaba tarjimonlari tomonidan darhol anglab etiladigan qilib yaratilgan". Ushbu modelga ko'ra ketma-ket tarjima qilishning ikki bosqichi mavjud, ularni aniq ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi bosqich -tushunish bosqichi (tinglash va yozuvlarni qabul qilish), ikkinchi bosqich -nutqni ishlab chiqarish (yoki isloh qilish). Gilda birinchi bosqichda, tarjimon nutqni tinglashi, uni tahlil qilishi va qaydlar yozishi tushuntirilgan. To'rtta harakatni ajratish mumkin: L -tinglash va tahlil qilish, N-eslatma, M-qisqa muddatli xotira operatsiyalari va C-muvofiqlashtirish. Xotirani qayta ishlash harakati "tinglangan vaqt bilan uni yozib olish paytigacha bo'lgan vaqt" ni anglatadi. Biroq, ketma-ket birinchi bosqichda ishlab chiqarish bo'yicha harakatlar bor va u "notalar ishlab chiqarishga bag'ishlangan". Gilliesda tushuntirilganidek, talabalar tarjimonlari uchun eng ko'p uchraydigan muammo shundaki, aqliy qobiliyatimiz va ko'p sonli jalb qilinganligimiz sababli, tarjimonlar manba nutqini tinglay olmaydilar va shu bilan birga uni yoza olmaydilar, chunki ular o'ylaydilar. Uni qanday qayd qilish haqida juda ko'p narsa bor va diqqat bilan tinglamang. Shuningdek, ko'pincha ular aytilgan gaplarni eshitishmaydi.

Ikkinchi bosqichda uchta harakatni ajratish mumkin: eslab qolish, o'qisheslatmalarni o'qish, ishlab chiqarish. Qabul qilingan qaydlar, shu tariqa birinchi bosqichda yozib olish, izohlashning ikkinchi bosqichida muhim rol o'ynaydi, chunki agar eslatma yaxshi bo'lsa Remning ishlov berish qobiliyati pasayishi mumkin. "Notalar bir necha oddiy tartib qoidalariga binoan olinganida, nutqning mantiqiy tuzilishi to'g'risida xotiraning vizual stimulyatori sifatida ish olib borishini taxmin qilish mumkin". Ketma-ket tarjimada aniq notalar sahna yo'nalishlari bilan taqqoslanadi, chunki ular tarjimonga "qachon to'xtash kerak, qachon urg'u berish kerak va qachon bo'lmasin". Ushbu modelga ko'ra, ketma-ket sharhlash, agar mavjud imkoniyatlar umumiy ishlov berish talablaridan yuqori bo'lsa, muammosiz davom etadi.

Gerver tarjimon vazifasini "og'zaki ma'lumotlarni olish, saqlash, o'zgartirish va uzatishni o'z ichiga olgan inson ma'lumotlarini qayta ishlashning juda murakkab shakli" deb belgilagan. Ilg va Lambertta'kidlaganidek

Lambert tomonidan o'tkazilgan chuqur ishlov berish bo'yicha tadqiqotda ketma-ket izohlash paytida, sinxron tarjima qilish, soylash va tinglash bilan solishtirganda








kiruvchi materialni chuqurroq qayta ishlash sodir bo'lganligi ta'kidlangan. Gilning so'zlariga ko'ra tarjima qilishning birinchi bosqichida tinglash va tahlil qilish qobiliyatiga bo'lgan talab yuqori bo'lganda, tarjimon olingan ma'lumotlarning miqdorini kamaytirish orqali kognitiv yukni kamaytirishi mumkin.

Ma'lumki ketma-ket tarjima jarayonida yozuvlar birikmasi asosiy tarjimonning yordamchisi hisoblanida va unga tarjimaning tinglovchiga tog'ri va aniq yetkasib berishini taminlaydi. Ketma-ket tarjimada yozuvlarni alohida sistemasi sifatida o'rganish ketmaket tarjima, balki sinxron va visual tarjima uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki turli yozuv lug'atlari tuzish jarayonida albatta yozuvlar qisqartmalari sistemasi aniqlanadi hamda unga asoslaniladi. Ketma-ket tarjima o'zining alohida yozuv sohasi yoki sistemasiga ega ekanligi so'nggi yarim asr mobaynida yetuk olimlarimiz tomonidan ta'kidlab o'tildi. Ketma-ket tarjimonning yozish tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega. U o'z birliklarining hosil bo'lishiga ko'ra yozuvlar tizimdan farq qiladi, chunki yozuvlar turli hil qisqartmalardan tashkil topadi, strukturasi ko'ra qisqartmaviy birikma yoki turli hil belgilarga teng bo'ladi. Ketma-ket tarjimadagi yozuvlar turli to'liq va belgilersiz kelishi doimiy tarjima bilan umumiy o'xshashlikdir, lekin ketma-ket tarjimadagi birikmalarning tuzilishiga ko'ra, ba'zilar yozma va badiiy tarjimaga yaqin turadi.

Mittinglar vaxalqaro konfirensiyalarda tarjimonning bilib va tarjimonlik mahorati yorqinroq nomoyon bo'ladi. Tarjima jarayonidagi yozuvlarni sxemasini bilish tarjimonning qanchalik tez va sifatli tarjima qilishdek qobiliyatini xalqaro tarjimonlarga ko'rsata olish imkoni berilardi va bizning til bilish va tarjima qilish sohasidagi obro'-e'tiborimizni oshiradi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, tarjimali kursivning rivojlanish tarixini tahlil qilib, ma'lumotni qayd etishning ushbu usulini yaratuvchilar -Jenevadagi mashhur tarjimonlar maktabining vakillari: J. Herbert va J.F.larning hissasini ta'kidlash kerak. Rosana Zamonaviy olimlar tomonidan yozilgan yozuvning asosiy elementlari: g'oyalarni ajratish, qisqartirishlardan foydalanish, o'q bilan bog'lab qo'yish, ish tashlashni rad etish, "qadam" ning ostiga, vertikal ravishda joylashishini ta'kidlaydigan o'z asarlari asosida (RK Minyar-Beloruhev, D. Seleskovich, E .N. Sladkovskaya) keyingi ishlanmalar bir qator fanlardan: eksperimental psixologiya, neyropsikologiya, qiyosiy tilshunoslik va boshqa fanlardan foydalangan holda olib borildi. Bu universal tarjima





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

kursivini o'rganishni butunlay yangi bosqichga olib chiqish va tarjimonning izchil tarjimada eng qulayligi uchun tarjima semantografiyasini optimallashtirishga imkon beradi.

### REFERENCES

1. Makhmatkulov, K. Gaziyeva, S, & Ashurova ,M .(2020) LANGUAGE INTERFERENCE IN UZBEK AND ENGLISH .
2. Muhammadjonovna , S.D (2020) The development of sociolinguistic competence of future English language teachers through computer technologies . European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.
3. Ismatullayeva N. Translation issues.- Tashkent , 2013.
4. CATFORDJ.C. A Linguistic Theory of Translation. Oxford University Press. –1978
5. Bahriyev Muhammad , Ketma-ket tarjimada yozuvlar tizimi .-Samarqand, 2020.





## INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING YO'LLARI VA TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY MASALALARI.

Jo'raboyev Haliljon Xamidjon o'g'li

[juraboevhaliljon@gmail.com](mailto:juraboevhaliljon@gmail.com)

+998945960594

MBA in Finance Management and Investments at Lincoln University

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalar kirib kelishi hajmini oshirish hamda investitsion muhitni shakllantirishning asosiy yo'llarini muhokama qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *investitsiya, innovatsiya, investitsion muhit, innovatsion usul, erkin iqtisodiy zona, xorijiy investitsiyalar, tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish.*

### KIRISH

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytib o'tganlaridek: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi."<sup>1</sup>. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida investitsiya bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan: "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.





va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish”<sup>2</sup>.

### TAHLIL VA NATIJLAR

2022-yilda korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 41,5 trln. so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 34,1 % ini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,1 % i yoki 11,2 trln. so‘mi o‘zlashtirildi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 16,0 trln. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 1,1 % punktga kamayib, 13,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarzi mablag‘lari hisobidan 11,7 trln. so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,6 % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 1,4 % punktga ko‘paydi), O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 5,2 trln. so‘m (4,2 % va 6,2 % punktga kamaydi), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 26,8 trln. so‘m (22,0 % va 0,2 % punktga kamaydi), Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi 0,4 trln. so‘m (0,4 % va 1,2 % punktga kamaydi), Respublika budjeti 8,1 trln. so‘m (6,6 % va 1,1 % punktga ko‘paygan), Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan 0,9 trln. so‘m (0,8 % va 0,2 % punktga ko‘paydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 57,1 trln. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilgan bo‘lib, jami investitsiyalarning 46,9 % ini tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo‘yicha 55,2 trln. so‘m (jami investitsiyalardagi ulushi 45,3 %) va boshqa xarajatlarga 9,5 trln. so‘m (7,8 %) o‘zlashtirildi. Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasida kuzatildi – 57,7 % yoki 2,4 trln. so‘m. Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo‘yicha eng quyi daraja Sirdaryo viloyatida kuzatilib, 27,2 % ni yoki 1,4 trln. so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, Sirdaryo viloyatida

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi farmoni, PF-4947.







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

mashina, uskunarlar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 63,2 % yoki 3,2 trln. so'mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar ming. so'm<sup>3</sup>**

**2-jadval**

Hududlar	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	69,6	34,6	58	0,3	614
Qoraqalpog'iston Respublikasi	41,1	44,4	36	0,0	371
Andijon	50,3	06,0	15	7,2	304
Buxoro	12,4	29,3	51	5,0	629
Jizzax	93,9	78,9	26	4,7	898
Qashqadaryo	93,4	34,6	51	4,7	621
Navoiy	892,1	855,2	10	04,2	156
Namangan	92,5	44,1	29	9,2	422
Samarqand	78,3	74,9	18	6,0	374
Surxondaryo	48,3	52,8	28	2,2	379

<sup>3</sup> O'zbekiston statistika qo'mitasi [www.stat.uz](http://www.stat.uz)





Sirdaryo	32 80,2	70 02,9	842 5,4	92 57,1
Toshkent	38 98,4	69 70,0	716 9,0	96 44,5
Farg'ona	15 16,8	23 36,2	291 6,0	32 72,3
Xorazm	16 55,6	27 18,4	286 8,2	43 44,3
Toshkent sh.	10 627,8	16 710,5	190 65,6	20 619,8

Investitsiya muhitida investitsiya salohiyatining o'zni. Investitsiya muhitini shakllantirishda huquqiy-me'yoriy tizim Investitsiya muhitini yaxshilashdan maqsad investitsiya salohiyatini oshirish uchun zarur va maqbul shart- sharoitlarni yaratishdan iborat. Investitsiya salohiyati deganda iqtisodiy faoliyatda ishlatiladigan (foydalaniladigan) ishlab chiqarish zaxiralari, quvvatlari, kuchlari, imkoniyatlari kabilardan iborat resurslar yig'indisi tushuniladi. Investitsiya salohiyati foyda olish yoki ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan aktivlarga mablag' kiritish (qo'yish) imkoniyatlari darajasini xarakterlaydi. Investitsiya salohiyati – mamlakatda asrlar davomida shakllangan bir qancha omillar yig'indisini tavsiflaydi. Bu omillar ishlab chiqarish omillari, tabiiy resurs omillari, mehnat omillari, innovatsiya va iste'mol omillari hamda mamlakatning moliyaviy salohiyati kabilarni qamrab oladi.


2018 yil 1 sentyabrdan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdori 30 foizdan 15 foizga kamaytirildi hamda shu turdagi korxonalar ustav fondining eng kam miqdori 600 mln. soʻmdan 400 mln. soʻmgacha kamaytirildi<sup>4</sup>. Bunday holat mamlakatda qoʻshma

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora- tadbirlari to'g'risida"gi PF-5495-sonli Farmoni.Stat.uz sayti malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

korxonalar sonining ko'payishiga imkon yaratdi. Biroq, ushbu davrgacha xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdori 30 foiz qilib belgilanganligi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko'lamiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.



1-rasm Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar tarkibi, % da <sup>5</sup>

2021- yil 104457,3 mlrd. so'm (dollar ekvivalentida 9,8 mlrd. AQSH doll.) yoki 2020- yilga nisbatan 105,2 foiz asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 42,7 foiz ni tashkil etdi. Xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 39879,4 mlrd. so'mni va mos ravishda xorijiy kreditlar 64577,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 87139,1 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 17318,2 mlrd. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.

Investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan investitsion siyosat yo'nalishlari ichida quyidagilarni alohida ko'rsatish lozim:

<sup>5</sup> O'zbekiston Statistika Qo'mitasi [www.stat.uz](http://www.stat.uz)



- mamlakat va chet el investorlari uchun qulay mexanizm yaratish;
- kapital mablag'lar samaradorligini oshirish;
- investitsion faoliyat bilan shug'ullanishdagi risk darajasini minimallashtirish.

Investitsion siyosat oxir-oqibatda mamalakatni barqaror ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi hamda aholi turmush darjasini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Darhaqiqat, xorijiy investorning keyingi qiziqishlari qo'yilgan kapitalning qoplanish muddati, investitsiyalarning kapitallashuv jarayonlari, tomonlar ulushlari va foydaning bo'linishi, shuningdek, mamlakatdagi bozor iqtisodiyotimunosabatlarining kechishi va bunga xalqaro tashkilotlarning munosabatlari masalalariga e'tibor qaratiladi.

Investitsiya salohiyatini ifodalovchi ushbu omillarning mavjudligi xorijiy tadbirkorlarning aynan o'sha mamlakatga investitsiya qilishining asosiy sabablaridan bo'lishi mumkin. Biroq, investitsiya salohiyatining mavjudligi xorijiy investitsiyalarning uzoq muddat davomida barqaror kirib kelishini kafolatlay olmaydi. Mamlakatdagi qulay investitsiya shart-sharoitlarisiz investitsiya salohiyati hali "hazm qilinmagan" bo'yluk hisoblanadi. Investitsiya muhitini baholash, aynan, investitsiya shart-sharoitlariga asoslanadi.

Investitsiya shart-sharoitlariga quyidagi omillar kiradi:

- umumiy iqtisodiy shart-sharoitlar

YaIMning o'sish sur'atlari, inflyatsiya darajasi, ishsizlik darajasi, foiz stavkasi, ishlab chiqarish hajmi va tarkibi, to'lov balansi, monopoliizm darajasi, valyuta konvertatsiyasi, tashqi qarz, investitsiyalar hajmi va moliyalashtirish manbalari, davlat byudjeti defitsiti va boshq.;


- siyosiy shart-sharoitlar

mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, investitsiya faoliyatini tartiblovchi va investorlarning huquqlarini va ularga yaratilgan kafolatlarni ta'minlovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mavjudligi va amal qilishi, jinoyatchilik va korrupsiya holati va boshq.;

- bozor mexanizmi shart-sharoitlari

bozor infratuzilmasining rivojlanganligi: bank, sug'urta, fond bozori, transport va aloqa, raqobat va narx shakllanishi va boshq.;

- axborot ta'minoti shart-sharoitlari







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

axborot va telekommunikatsiyalarning rivojlanganligi, raqobatchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni tezkorlik bilan olish imkoniyatlari, mahalliy hamkorlar to'g'risidagi ma'lumotlarning shaffofligi va boshq.;

– ekologik shart-sharoitlar

mamlakatdagi ekologik holat, mamlakatda va qo'shni davlatlarda ekologik xavfli hududlarning mavjudligi, xalqaro qonunchilikdagi ekologik me'yorlarga amal qilish holati va boshq.;

– ijtimoiy madaniy va etnografik shart-sharoitlar

mahalliy aholining mentaliteti va madaniyati, aholining hayot tarzi va turmush holati, jamiyatning xorijiy investitsiyalarga bo'lgan munosabati va boshqalar.

### XULOSA

Bugungi kunda O'zbekistonda qulay investitsiya muhitini muntazam ravishda yaxshilab borishni ta'minlash ustuvor vazifadir. Bunda davlatning asosiy vazifasi kapital jalb qilish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish bilan izohlanadi. Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi ko'p miqdorda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega: kafolat va imtiyozlarni o'zida aks ettiruvchi qonun hujjatlari; iqtisodiyotda xususiy sektor va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi ortib borayotganligi, xususiy mulkning davlat tomonidan himoyalaniishi va raqobat muhitining mavjudligi; zarur investitsiya infratuzilmasining yaratilganligi va rivojlanayotganligi; siyosiy barqarorligi; geografik joylashuvining o'rtacha darajadali; boy tabiiy mineral xom ashyoga egaligi; qishloq xo'jaligi sohasining rivojlanganligi; arzon va malakali mehnat resurslarining mavjudligi va boshqalar.

Fikrimizcha, respublikada yaratilgan qulay investitsiya muhitini rivojlantirish uchun rag'batlantirish omillarini yanada kuchaytirish talab etiladi. Shu munosabat bilan ishlab chiqarishga investitsiyalarni rag'batlantirish uchun tadbirkorlik tuzilmalariga jadallashgan amortizatsiya usullarini qo'llashda to'la erkinlik berish kerak. Bozor iqtisodiyoti sharoitida amortizatsiya korxonalarining investitsiya faoliyatini rag'batlantiruvchi bosh omillardan hisoblanadi. Shu sababli rivojlangan davlatlarda amortizatsiya me'yori, soliqlar stavkasini tasdiqlash bilan bir vaqtda aniqlanadi. Bunday holatda yetakchi tarmoqlarga investitsiyalarni qo'yishni rag'batlantirish maqsadida yuqori amortizatsiya me'yorlari belgilanadi. Bu tajribani O'zbekistonda qo'llash muhimdir, chunki mashina va uskunalarga o'rtacha amortizatsiya me'yori bizda 15% ni tashkiletsa, AQShda bu 20-33 %ni, Angliyada 25 % ni tashkil etadi.






Qulay investitsiya muhitini rivojlantirishda soliqlarning rag‘batlantiruvchi rolini kuchaytirish beqiyos ahamiyatga ega. Soliqlarning rag‘batlantiruvchi rolini to‘rt jihatdan olib qarash mumkin, ular: soliq to‘lashdan vaqtinchalik ozod qilish; soliq stavkasini kamaytirish; soliqqa tortiladigan bazani toraytirish; soliq majburiyatini bajarishni kechiktirish (soliq krediti). Qayd qilingan rag‘batlar u yoki bu darajada xorij investitsiyalar ishtirokidagi keng doiradagi korxonalar uchun tatbiq etiladi. Rag‘batlantiruvchi soliq imtiyozlarining amal qilishini, shuningdek, investitsiyalarni inson kapitaliga, texnologik o‘rish va texnika bilimlari sohalarini rivojlantirishga, kengaytirishga ham joriy qilish kerak. Bularning barchasi O‘zbekistonda investitsiya muhitini modellashtirish masalasini kun tartibiga qo‘yadi. Bu model xorijiy investorga ta’sir ko‘rsatadigan omillar to‘g‘risida mukammal ma’lumot to‘plash, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni yaqqol baholash hamda xorijlik sheriklar harakatlari motivatsiyasini anglash, xorij investitsiyalarini tartibga solishning asosiy vositalarini isloh qilish imkoniyatlarini yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Botirjon o‘g‘li, M. B., & Hasanboy o‘g‘li, S. D. (2022). ORGANIZATION AND INCREASE OF ACTIVITY OF SMALL INDUSTRIAL ZONES.
2. Botirjon o‘g‘li, M. B., & Hasanboy o‘g‘li, S. D. (2022). ORGANIZATION AND INCREASE OF ACTIVITY OF SMALL INDUSTRIAL ZONES.
3. Adashaliyevich, B. M., & O‘g‘li, I. M. (2022). Promoting sustainable development of small business. *Asian Journal of Research in Business Economics and Management*, 12(4), 5-9.
4. Мухитдинов, Ш. З. (2021). ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИДА ХАТАРЛАРНИ БОШҚАРИШНИНГ НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ. *Scientific progress*, 1(6), 939-943.
5. Rashidov, R. A., Hasanboeva, N. H., & o‘gli Otakhonov, S. M. (2021). ISSUES OF USING BANK CREDITS IN DEVELOPMENT OF FAMILY ENTREPRENEURSHIP. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 148-159.





## РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ

Арзиева Рано Аманбаевна

*Каракалпакский Государственный университет*

**Ключевые слова:** *Образования, профессиональная, знаний, умений*


**Аннотация** *Проблем возникает необходимость создания условий для педагогического сопровождения развития творческих умений и навыков студентов и их творческого саморазвития на основе использования эффекта творческих конкурсов и олимпиад, когда при решении проблемных творческих задач студент выявляет новые проблемы в изучаемой предметной области.*

Одним из исследований по повышению качества подготовки кадров профессионального образования можно считать совершенствование системы методического обеспечения образовательного процесса учебных заведений, развитие на основе современных технологий, сочетающих традиционные и современные методы организации учебного процесса, воплощенные в прогрессивных идеях на основе научно-технических достижений.

С учетом современных концепций и инновационных технологий, проявляющихся во всех сферах человеческих жизни, возросли требования к уровню профессиональной подготовки выпускников вузов, к самообразованию, умению самостоятельно мыслить, оптимизировать свою деятельность, принимать нетривиальные решение.

Образование является основным приоритетным направлением и основным индикатором развития во всех цивилизованных странах мира. Получение высшего образования всегда было, остается и будет одной из важных всех в жизни человека, особенно в условиях современного мира с его жесткой конкуренцией на рынке труда.

Высшее образование, как обозначение уровня образования, означает верхний уровень профессионального образования в трехуровневой системе (после среднего общего или профессионального образования) и включает в себя совокупность систематизированных знаний, умений и практических навыков,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

которые позволяют решать теоретические и практические задачи по профессиональному профилю.

Процессы модернизации республиканской системы высшего образования предъявляют новые требования к содержанию образовательной деятельности вуза и обуславливают необходимость подготовки специалистов с инновационно-ориентированным профессиональным мышлением, активно участвующих в развитии отечественного производства.

В связи с этим содержание и технологии вузовского образования ориентируются на определение и формирование совокупности специальных знаний, умений и навыков будущих специалистов, связанных с успешной реализацией профессиональных функций. Именно эти знания и умения являются основной профессиональной деятельности, направленной на создание высокотехнологичной продукции, что определяет рост качества жизни населения.

Несмотря на то, что педагогической наукой накоплен обширный материал для формирования творческих умений и навыков студентов в процессе дизайн-проектирования, названная проблема является недостаточно разработанной.

Существующие недостатки в профессиональной подготовке специалистов дизайна выявляют следующие противоречия:

- между потребностью общества в инновационном развитии современного отечественного дизайн-проектирования и традиционными подходами к профессиональной подготовке специалистов в области дизайна;
- между необходимостью реализации современной специальной подготовки, обеспечивающей компетентность, творческую активность будущих дизайнеров и устоявшимся подходами к профессиональному обучению;
- между высокими требованиями рынка образовательных услуг к качеству и содержанию подготовки специалистов и отсутствием научно-обоснованной системы формирования творческих умений студентов.

Указанные противоречия позволили сформулировать проблему исследования, которая состоит в научно-теоретическом обосновании системы формирования творческих умений студентов в процессе дизайн-проектирования в условиях профессиональной деятельности, обеспечивающей повышение качества профессиональной подготовки, развитие инновационно-







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

ориентированного профессионального мышления, необходимых для будущей трудовой деятельности в области дизайна.

Для формирования творческих умений и навыков студентов в процессе дизайн- проектировании требуется разработка практико- ориентированные, художественно- развивающие и компетентностные подходы к подготовке будущих специалистов в области дизайна.[ 1 ]

Формирование творческих умений и навыков студентов будет эффективным если республикам методическую систему, ориентированную на формированиетворческих умений, а также творческих качеств личности: обучение укрупненными блоками- модулями; применять задания, формирующие профессиональное мышление и направленных на освоение инновационной деятельности в области дизайна; усилить интеграции дисциплин в процессе обучения; управлять совместной поисковой деятельностью, осуществляя в рамках субъектно- субъектных отношений.

Исследование целового направления в психологии творчества, известного под названием креативность, проводили следующие ученые: Дж.Гилфорд, В.Смит, Н.Г.Фролов, Э.Г.Юдина и другие. Дж.Гилфорд считает, что креативность и творческий потенциал могут быть определены как совокупность способностей и других черт, которые содействуют успешному творческому мышлению.

Также большую теоретическую и практическую работу по развитию творчества обучающихся выполняют такие педагоги как: Г.А.Хусаинова, Л.К.Топоркова.

Приоритетной потребностью студента (обусловленной как внутренне- стремлением к творчеству, так и внешне- заказом рынка труда на специалиста, готового к инновационной деятельности) является потребность развития своих творческих умений и навыков, креативности, особенно в плане профессионального творчества.

Рассматривая доминирующие в современном высшем образовании методологические подходы, выявлены составляющие, которые тормозят модернизацию системы высшего профессионального образования.

Во- первых, это отсутствие в структуре болшенства рабочих учебных планов самостоятельной дисциплины, которая дала бы студенту необходимые





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

знания о природе творчества, истоках проявления творческой активности, способах активизации творческого мышления. В рамках многих дисциплин учебного плана преподаватели дают студентам знания об основных организации творческой деятельности, методах и приемах творческого поиска, формируют у студентов необходимые навыки. Но это происходит не системно.

Во- вторых отсутствие системной организации учебно- творческой деятельности во время всего периода профессионального становления специалиста в вузе, которое бы отвечало требованиям к развитию креативности личности, а именно- отсутствию жестких ограничений по времени и степени участия, профессиональной ориентированности творческого процесса, наличию соответствующего микроклимата.

Но фоне вышеперечисленных проблем возникает необходимость создания условий для педагогического сопровождения развития творческих умений и навыков студентов и их творческого саморазвития на основе использования эффекта творческих конкурсов и олимпиад, когда при решении проблемных творческих задач студент выявляет новые проблемы в изучаемой предметной области. То есть, деятельность студента в творческом освоении учебной дисциплины после конкурса или олимпиады не прекращается, а приобретает внутренне мотивационный характер, который позволяет ему приобрести необходимые творческие умения и навыки.[3]

Конкурсы и олимпиады позволяют выявить студентов, нацеленных на творчество, организовать в дальнейшем их коллективную деятельность в рамках конкурсных микрогрупп под руководством преподавателя, а также определить уровень развития творческих умений и навыков студентов.

Корректирующие мероприятия организации самостоятельной работы определяют успешность сохранения проявленного показателя творческой активности после конкурса или олимпиады, такие как:

- Проведение консультаций по решению нестандартных творческих задач, в том числе в интерактивном режиме с использованием информационных технологий;
- Обеспечение методическими материалами, содержащими творческие задачи по учебной дисциплине с различным уровнем креативности,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

предполагающие возможность выхода студентов в процессе их обсуждения за рамками, очерченные в условии;

- Решение студентами творческих конкурсных задач в дистанционном режиме с использованием информационных технологий.

С целью формирования творческих умений и навыков студентов на практических занятиях следует предусмотреть знакомство студентов с основными подходами по решению не стандартных задач по изучаемой дисциплине; выполнение заданий проектного характера, мозговой штурм, деловые игры, другие виды занятий, требующие умения и навыки творческой деятельности.

Проведение конкурсов и олимпиад по окончании изучения дисциплины являются дополнительной внешней мотивацией творческой деятельности, а также формируют способности творчески применять полученные знания в стрессовых ситуациях.

Вышеуказанные методологические аспекты подготовки студентов к творческому развитию обладают рядом несомненных достоинств, среди которых можно отметить следующие возможности:

1. Моделировать систему проблемных ситуаций, направленных на формирование творческих умений и навыков специалиста по дизайну, ориентирующегося инновационных проектов;

2. Готовить студента к реальной творческой деятельности конкретной борьбы;

3. Знакомить студента с наиболее эффективными методами организации собственной творческой деятельности в условиях коллектива и использовать эти методы с учетом закономерностей профессионального становления специалиста;

4. Формировать творческие умения и навыки одновременно значительного количества студентов за счет распространения знаний о профессиональном творчестве и умений творческого разрешения проблемных на весь студенческий коллектив в процессе совместной деятельности в традиционных формах обучения.





### Литература:

1. Адонаяев Д.Ю. Формирование специальных знаний и умений студентов в процессе дизайн- проектирования: Автореферат. Москва: Изд-во ГОУ ВПО «МПГУ», 2010.
2. Попов А.И. Теоретические основы формирования кластера профессионально важных творческих компетенций в вузе посредством олимпиадного движения: Монография.Томбов: Изд-во ГОУ ВПО ТГТУ, 2001.
3. Накипбекова А.Н. Интеграция образования и науки: вызовы современного мира, сборник материалов II-ой Международной научно-практической конференции, Актюбе- 2015.







## YUKSAK AXLOQIY KADRLARNI TAYYORLASHDA MEDIA KOMPETENLIKKA QO`YILGAN TALABLAR

**Alimov Zokir Chori o`g`li**

Termiz davlat universiteti Musiqa ta`limi kafedrası o`qituvchisi.

E-mail: [alimovterdu@gmail.com](mailto:alimovterdu@gmail.com)


**Annatsiya.** Mazkur maqolada mediata`limning dolzarb ilmiy-amaliy jihatları yoritilgan. Talabalarning media savodxonligini rivojlantirish borasida olib borilayotgan tadqiqotlar tahlili yuzasidan nazariy xulosalar, metodik tavsiyalar ilgari surilgan. Qolaversa, raqamli asrda texnologiya rivojlanishi davom etar ekan, professional ta`limda media kompetensiyasini rivojlantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada kasbiy ta`limda talabalar o`rtasida media kompetensiyasini rivojlantirishni o`rganish, uning ahamiyati, muammolari va potensial yechimlarini o`rganish, talabalarning rivojlanayotgan media landshaftida rivojlanish uchun zarur ko`nikmalari o`rganilgan.

**Kalit so`zlar:** media ta`lim, media savodxonlik, media kompetentlik, media mahsulot, axborot texnologiyasi, axborot kommunikatsiya vositalari.

**Аннотация:** В данной статье описаны современные научные и практические аспекты медиаобразования. На основе анализа исследований, проведенных по вопросам развития медиаграмотности студентов, сформулированы теоретические выводы и методические рекомендации. Кроме того, поскольку технологии продолжают развиваться в эпоху цифровых технологий, развитие медиакомпетентности в профессиональном образовании становится все более важным. В данной статье рассматривается развитие медиакомпетентности у студентов профессионального образования, ее важность, проблемы и потенциальные решения, а также навыки, необходимые студентам для развития в развивающемся медиаландшафте.

**Ключевые слова:** медиаобразования, медиаграмотность, медиакомпетентность, медиапродукт, информационные технологии, информационно-коммуникационные технологии.

**Annotation.** This article describes the current scientific and practical aspects of media education. Based on the analysis of the studies conducted on the development of





media literacy of students, theoretical conclusions and methodological recommendations were put forward. In addition, as technology continues to develop in the digital age, the development of media competence in professional education is becoming increasingly important. This article examines the development of media competence among students in professional education, its importance, problems and potential solutions, and the skills necessary for students to develop in the developing media landscape.

**Key words:** media education, media literacy, media competence, media product, information technology, information and communication technology.


**Kirish.** Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni o'ziga xos murakkab tuzilma. Ta'lim natijadorligi pedagog va talaba-o'quvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik, media mahsulotlar mukammalligiga, jamiyatda ilmiy, chuqur tafakkurli shaxslarga bo'lgan ehtiyojga va yana boshqa bir qancha omillarga bog'liq. Xususan, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari ham ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita sanaladi.

Ta'lim texnologiyalari doimo axborotlarga asoslangan bo'lib, ular xilma-xil axborotlarni saqlash, uzatish, foydalanuvchilarga yetkazish bilan chambarchas bog'liq. Kompyuter texnikasi va kommunikatsiya vositalari paydo bo'lishi bilan o'qitish texnologiyalari tubdan o'zgarganini kuzatamiz. Telekommunikatsiya tizimlari yangi pedagogik va axborot hamda turli sohalardagi kasbiy bilimlarni eng qisqa vaqtda uzatish imkoniyatini beradi.

**Asosiy qism.** Axborot texnologiyalari rivoji talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishni ham taqozo etadi. Media (ommaviy axborot vositalari) mahsulotlardan foydalanish talaba yoshlarning mustaqil ishlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishning muhim qismi hisoblanadi. Shu bois mediata'limning yoshlar bilan ishlash jarayoniga integratsiyalashuvi tabiiy holdir.

Media insonlar hayoti va ta'lim jarayonida yildan yilga muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bu holat mediata'limning jadal rivojlanishi masalasining muhimligidan dalolat beradi.

Media ta'limning asosiy vazifalari: zamonaviy axborot sharoitida yosh avlodni hayotga tayyorlash, turli axborotlarni idrok qilish, uni tushunishga, uning inson ruhiyatiga ta'siri oqibatlarini anglashga, texnika vositalari yordamida muloqotning





noverbal shakllarini qo‘llay olish usullarini o‘zlashtirishga o‘rgatishdan iboratdir. Albatta, bunda “o‘quv jarayoni ishtirokchilarini teng huquqli” ekanligini unutmazlik kerak.

**Eng mashhur media pedagog va media nazariyotchilaridan biri L.Masterman zamonaviy dunyoda media ta’limning dolzarbligi va ustuvorligining yettita sababini asoslab bergan:**

- ✓ Mediadan foydalanishning eng yuqori darajasi va zamonaviy jamiyatning ommaviy axborot vositalariga to‘liqligi.
- ✓ Medianing ideologik muhimligi, uning auditoriya ongiga ta’sir etuvchi sanoat sohasi ekanligi.
- ✓ Media axborotlar ko‘lamining tez sur’atlar bilan oshishi, ularni boshqarish va tarqatish mexanizmlarining kuchayishi.
- ✓ Medianing asosiy demokratik jarayonlar ichiga kirib borish jadalligi.
- ✓ Vizual kommunikatsiya va barcha sohalardagi axborotlar ahamiyatining ortishi.
- ✓ Kelajak talablariga mos holda o‘quvchi talabalarga ta’lim berish.
- ✓ Axborotlarni privatizatsiyalash (xususiylashtirish) milliy va xalqaro jarayonlarining ortib borishi.

Talabalarining media kompetentligini rivojlantirish masalalari bo‘yicha muhim tadqiqotlar olib borayotgan S.Babadjanov talqinicha, media ta’lim - asosiy qonunlarni tushunishga yordam beradigan, oddiy yo‘nalishlardagi media axborot tilini o‘rganishga ko‘maklashadigan, talabalar badiiy salohiyatining o‘sishiga va rivojlanishiga hissa qo‘shadigan, media matnlarni qabul qilish, o‘rganish va malakali tahlil etish ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonidir. Media ta’lim natijasida media kompetentlik paydo bo‘ladi.

Media kompetentlik (*media competence*) ta’limga kirib kelayotgan yangi atama hisoblanib, u media ma’lumotlarni turli ko‘rinishda uzatish va baholash, o‘rganish, yetkaza bilish kabi ma’nolarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, mediakompetentlik tushunchasi ostida yotadigan bir necha atamalar, jumladan, media madaniyat, media targ‘ibot, media ta’lim, media axborot, axborot madaniyati, media savodxonlik kabi atamalarga e’tiborliroq bo‘lish barkamol avlodni voyaga yetkazishda alohida o‘rin egallaydi.





Mediata'limning natijasi auditoriyaning mediasavodxonlik darajasining ko'tarilishi bilan belgilanadi.

Media savodxonlik mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash bo'yicha ko'nikmalar va malakalar majmuini bildiradi. **Manbalarda mediasavodxonlikning quyidagi tarkibi ko'rsatiladi:**

1. Demokratik jamiyatda medianing roli va funksiyalarini tushunish.
2. Media o'z funksiyalarini amalga oshirishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlarni tushunish.
3. Media kontentini uning funksiyalari nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda tanqidiy baholash.
4. Media vositasida o'z fikrini bayon etish va demokratik jarayonlarda ishtirok etish uchun o'zaro hamkorlik qilish.
5. Foydalanuvchi kontentini yaratish uchun kerak bo'ladigan ko'nikmalar (shu jumladan, AKT bilan ishlash ko'nikmalari)ni faollashtirish.

Media savodxonlik media funksiyalarini tushunish, mazkur funksiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o'z-o'zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan ratsional hamkorlikka kirishishga urg'u beradi. Media savodxonlik ko'pqirrali va u bilimlarning rivojlanganlik tuzilmasiga asoslangan keng istiqbolni taqozo etadi. Media savodxonlik darajasini butun insonning hayoti davomida bilishga oid, hissiy, estetik va etik media axborotlarni idrok qilish, sharhlash va tahlil qilish jarayonida ko'tarish mumkin.

“Media savodxonlikning yuqori darajasiga ega auditoriya media olamini tushunish, boshqarish va baholashning yuqori darajasiga ega bo'ladi”. Media savodxonlik insonga “uning idroki va tushunishiga mos bo'lgan tarixiy cheklangan mazmunlarga javob berish”ga yordam beradi. Bu mediamatnlarni o'qish va qayta tushunishni, “Buni ko'rgach, men kim bo'lib shakllanaman?” savolga javob berishni ta'minlovchi savodxonlikdir.

**Mediata'lim nazariyasi atrofidagi tadqiqotlar tahlilidan kelib chiqib, mediasavodxonlikning rivojlanish ko'rsatkichlarini quyidagicha belgilash mumkin:**

1. Motivatsion (janrli, tematik, emotsional, gnoseologik, gedonistik, psixologik, axloqiy, intellektual, estetik, terapevtik va boshqa media matnlar bilan kontaktda bo'lish motivlari);







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

2. Kontaktli (muloqot tezligi media madaniyat asarlari va media matnlar bilan aloqa o'rnatish);
3. Informatsion (terminologiyani, media madaniyat nazariyasi va tarixi, ommaviy kommunikatsiya jarayonini bilish);
4. Perseptiv (media matnlarni idrok qilish qobiliyati);
5. Interpretatsion baholovchi (media idrok, tanqidiy mustaqillikning muayyan darajasi asosida media matnlarni sharhlash, tahlil qilish ko'nikmasi);
6. Amaliy operatsion (o'zining media matnlarini yaratish va tarqatish);
7. Kreativ (medianing faoliyat turli jihatlarining ijodiy boshlanishi perseptiv, o'yin, badiiy, tadqiqotchilik va boshqalar).

**Mediata'limiy faoliyatda pedagoglar uchun muhim bo'lgan kasbiy bilim va ko'nikmalarning rivojlanish ko'rsatkichlari esa quyidagicha belgilanadi:**

- 1) Motivatsion (media ta'limiy faoliyat motivlari: emotsional, gnoseologik, axloqiy, estetik va boshqalar);
- 2) Informatsion (xabardorlik darajasi, mediata'lim sohasidagi nazariy-pedagogik bilimlar);
- 3) Uslubiy (media ta'lim sohasidagi uslubiy ko'nikmalar, pedagogik artistizm darajasi);
- 4) Faoliyatli (turli tipdagi o'quv mashg'ulotlari davomidagi mediata'limiy faoliyat sifati);
- 5) Kreativ (mediata'limiy faoliyatdagi boshlang'ich ijodiy daraja).

Ushbu model Yu.N.Usov tomonidan ishlab chiqilgan optimallik (qulaylik) ko'rsatkichiga mos keladi (media madaniyat haqidagi tizimli bilimlarning rivojlanishi, media matnlarni tahlil qilish ko'nikmasi, ta'lim, rivojlanish, tarbiyaning dialektik birligi, auditoriya kommunikativligini kengaytirish imkoniyatlari, o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'nalganlik).

Talabalar mediasavodxonligi rivojlanishi bir necha komponent (tarkibiy qismlar)ga asoslanadi.

**Birinchi komponent** - tajriba. Qanchalik bizda media va real borliq bilan aloqa o'rnatish tajribasi ko'p bo'lsa, shunchalik media savodxonlikning yuqori darajada rivojlanishi uchun ko'proq imkoniyatga ega bo'linadi.

**Ikkinchi komponent** – media sohasiga ko'nikmalarni faol jalb etish.

**Uchinchi komponent** – yetilish mustaqil ta'lim olishga tayyorlik.






Dj.Potter tomonidan ilgari surilgan auditoriya mediasavodxonligi rivojlanishi ko'rsatkichlarining yuqori va quyi darajalari bu boradagi muhim ma'lumotlardan bo'lib, ulardan kasbiy pedagogik jarayonda ham keng foydalanish yuqori samara beradi:

**Media savodxonlik rivojlanishining yuqori darajasi tavsifi:**

- Mediamatnning bosh g'oyasini ajratish;
- Analiz: mediamatnning asosiy elementlarini aniqlash;
- Taqqoslash: mediamatnning o'xshash va noyob fragment-lavhalarini topish;
- Mediamatn yoki uning lavhasi qiymatini baholash: muayyan mezonlar asosida taqqoslash orqali xulosa chiqarish;
- Referatlash: mediamatni qisqa, aniq va tushunarli qilib tavsiflash;
- Umumlashtirish;
- Deduksiya: alohida ma'lumotlarni tushuntirish uchun umumiy tamoyillardan foydalanish;
- Induksiya: alohida ma'lumotlarni kuzatish orqali umumiy tamoyillarni keltirib chiqarish;
- Sintez: alohida elementlarni qaytadan yangi tuzilmaga yig'ish.

**Mediasavodxonlik rivojlanishining quyi darajasi tavsifi:**

- "Kuchsiz intellekt" (muammoni yechish va ijodiy qobiliyatlarning nisbatida), "hamma narsa o'z vaqtida bo'lishini" afzal ko'rish; eng muhim bo'lgan faktlarnigina eslab qolishga asoslanadigan kuchsiz xotira (masalan, imtihondan oldingi kun kechqurun);
- Tematik qaramlik, xabardagi eng muhim jihatlarni tushuna olmaslik, maslahatchiga, yordamchiga, qo'llanmaga, o'rganish bo'yicha yo'riqnomaga ehtiyoj;
- Mediamatnlardagi ko'p ma'nolikka past darajada sabrlik, ishonchsizlik;
- Xabarlar uchun uncha ko'p bo'lmagan kategoriyalar mavjud bo'lganda kuchsiz konseptual ixtisoslashuv, odatiy kategoriyalarga mos bo'lmagan yangi xabarlarga salbiy munosabat, yoki mediamatni osonrog'iga almashtirish;
- Qaror qabul qilishda kerak bo'lgan paytlardagi impulsivlik, aniqlikni boy berish. Media nazariyotchilari va mediapedagoglar ishlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, mediata'lim konsepsiyalarida ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanishning tarbiyaviy, ta'limiy va kreativ yondashuvlari muhim ahamiyatga ega. Media ta'limiy yondashuvlarni amalga oshirishning asosiy komponentlarini





quyidagicha ajratish mumkin:

- Medianing tarixi, tarkibi, tili va nazariyalari haqida bilimlar olish;
  - Mediamatnlarni idrok qilishni rivojlantirish, uning tilini “o‘qish”, xayolni, ko‘rish xotirasini faollashtirish, tafakkurning (tanqidiy, mantiqiy, ijodiy, obrazli, intuitiv) turlarini rivojlantirish, g‘oyalarni anglangan tushunishning (axloqiy, falsafiy, demokratik gumanistik) tamoyillariga asoslanib ko‘nikmalarni shakllantirish;
  - Media materiallari asosida kreativ amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish.
- Har bir pedagog qaysi mediata’limiy nazariyaga asoslanishiga qarab aniq bir modelni tanlashi va uning tayanch komponentlarini turlicha amalga oshirishi mumkin.

So‘nggi paytlarda media tadqiqotchilar va pedagoglarning diqqat e‘tibori media ta’limning axloqiy-demokratik jihatlariga qaratilgan. Masalan, zamonaviy media ta’lim harakatining yetakchilaridan biri B.Mak Maxonning yozishicha, terrorizm va urushlar davri bo‘lgan XXI asrda yoshlarning media ta’limi demokratik jamiyatning eng muhim talabiga aylandi. Xorijiy tadqiqotlarda keltirilgan konsepsiyalar tahlili bizga g‘arbning asosiy konsepsiyalarini zamonaviy moslashtirishning muhim yo‘nalishlari haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Shubhasiz, birorta ham pedagogik konsepsiya boshqa mamlakatning shakllangan an’anaviy ta’lim turiga moslashtirilmagan holda foydalanilishi mumkin emas. Bu g‘arb mediata’limi konsepsiyasi mazmunini o‘zlashtirish jarayoniga ham aloqador.


Bugungi shiddatkor axborot almashinuvi, texnika taraqqiyoti media mahsulotlar shakli va mazmunini rang-baranglashtirish, jozibadorlashtirish imkonini kengaytiradi. Shu bois talaba va yoshlarda multimedia va axborot kommunikatsiyalari taqdim etayotgan mahsulotlarni tanlash, saralash, qabul qilish, o‘zlashtirish, foydalanish kompetentligini takomillashtirish dolzarb masalaga aylanib qolmoqda. Bu borada pedagog tadqiqotchilardan yanada tezkorlik, talabchanlik, mas’ullik talab qilinadi.

Tadqiqotlar bo‘yicha xulosa shuni ko‘rsatdiki, media-kontent bo‘yicha farzandlari bilan faol shug‘ullanadigan va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan ota-onalar media savodxonligi yuqori bo‘lgan bolalarga ega bo‘lish ehtimoli ko‘proq.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Babadjanov S. Pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining mediakomretentligini rivojlantirish texnologiyasi. Avtoreferat. – T., 2018.
2. Mamatova Ya., Sulaymonova S. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida. –T.: "Extremum-ress", 2015.
3. Mediaobrazovaniye. Rossiyskaya pedagogicheskaya ensiklorediya. – M., 1993.
4. Fedorov A.V. Razvitiye mediakomretentnosti i kriticheskogo myshleniya studentov pedagogicheskogo vuza. M.: Informatsiya dlya vsekh, 2007.
5. Rotter W.J. Media Literacy. Thousand Oaks. London: Sage Rublication, 2001
6. Genri Jenkins. "Ishtirokchilik madaniyati muammolariga qarshi turish". 21-asr uchun media ta'limi, MIT Press, 6/5/2009
7. Funk, Stiven S.. "Media savodxonligi orqali global kompetensiyalarni targ'ib qilish" Yildiz, Melda N., IGI Global, 30.11.2017.







## O'ZBEK QIZLARINI OILAVIY XAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK JIHATLARI

Shodiyeva Nodira Nrmamatovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Pedagogika" kafedrası  
o'qituvchisi Telefon: +998978071007 [nodirashodiyeva168@gmail.com](mailto:nodirashodiyeva168@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek oilalarida qizlarga xunar o'rgatish, qiz bolani har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ilm egallashiga ko'mak berish, buyuk muhaddis allomalarning oilaviy tarbiya xususida bildirgan fikrlari va o'zbek oilalarida juftiklar o'rtasida kuzatiladigan salbiy-axloqiy xususiyatlar

**Kalit so'zlar:** madaniy boylik, oila, ruhan barkamol, axloq, ilm egallash, kasb-xunar.


**Аннотация:** В этой статье мы поговорим об обучении девочек в узбекских семьях, воспитании девочки до совершенства во всех аспектах, помощи ей в приобретении знаний, мнениях великих учёных-мухадди о семейном воспитании, а также о негативных моральных характеристиках, наблюдающихся между парами в узбекских семьях.

**Ключевые слова:** культурное богатство, семья, духовная зрелость, нравственность, учёность, профессия.

**Abstract:** In this article, we discuss the importance of teaching girls in Uzbek families, raising a girl child to perfection in all aspects, helping her acquire knowledge, the opinions of great muhaddi scholars about family education, and the negative moral characteristics observed between couples in Uzbek families.

**Keywords:** cultural wealth, family, spiritual maturity, morals, learning, profession.

Oila masalasi qadimdan oq, insonlarni qiziqtirib kelgan, chunki insonhayotini oiladan ayri tasavvur etib bo'lmaydi. Oila jamiyatning kichik bo'g'ini bo'lib bugunga qadar turli davrlarni bosib o'tdi[1]. Jamiyat rivojlanib borgan sari bu muammoning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Oila jamiyatning mustahkam poydevori, davlatning harakatlanishi kuchidir. Shunga ko'ra oila mavqei va munosabatlar masalasi doimiy davlat e'tiborida bo'lib kelgan. Barkamol inson haqida uning mehnati va turmushi, ma'naviy taraqqiyoti haqida g'amho'rlik mamlakatimizning asosiy maqsadidir. Kishi





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

xislatlari uning mehnatiga ma'naviy, g'oyaviy psixologik va madaniy boyliklarga munosabatining asoslari oilada shakllanadi. Jamiyat mustahkam, ma'naviy va psixologik axloqiy jihatdan sog'lom oila bo'lishidan manfaatdordir.

Oilada qizlarga xunar o'rgatish, o'kitib bilim berish qathiy yo'lga qo'yilgan. Zeroki, o'qimishli, xunarmand qiz o'z kasbi, bilimi bilan dastlab ota - ona xonadonini obod, saranjom qilib yursa, jufti xalolinikiga borganda, oilani boshqarish bilan birga kelajak avlod ta'lim va tarbiyasi bilan jiddiy shugullanishiga to'g'ri kelgan. Oilaga tayyorligiga o'z ishonchini baholashdan qiyin ish bo'lmasa kerak degan savolga ba'zi qizlarimiz "Ovqat tayyorlashni, pishiriqlar pishirishni, kir yuvish, dazmol qilish, uylarni tozalash, mehmon kutish bilsam bo'ldi, uyog'i bir gap bo'lar", deb o'ylasalar adashadilar. Qiz bola avvalom bor oilaga ruhan tayyor bo'lsa yuqoridagi beka sifatidagi vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishi qiyin kechmaydi.

Har bir xonadonda qiz bola farzand dunyoga kelsa, beshikdan to balog'at yoshiga yetishi uni to'g'ri tarbiyalash, har bir ota - onaning fikrini "qiz bola - boshqa xonadoning" fayzi", - degan xayol uning voyaga yetgunicha va uni turmushga bergunga qadar tark etmaydi. Buning uchun hozirgi kunda turmushga chiqayotgan yosh qizlarning zimmasiga katta ma'suliyat yuklanadi. Ushbu ma'suliyatlardan biri bu ma'naviy boylik, saramjon - sarishtalik, fahm - farosat va albatta gigiyenik ozodalikdir. Xalqimizda ushbu xususiyatlar "Har bir qiz bolada mujassam bo'lishi kerak", - degan fikr yuradi. Qiz bolani har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, unga hamisha g'amxo'rlik qilishning ahamiyati yuksak, oqibati xayrlidir. Oysha roziallohu anhodan rivoyat qilinadi: "Bir kuni mening huzurimga ikkita qizini yetaklab bir ayol tilanchilik qilib kirib keldi. Mening huzurimda bitta xurmodan boshqa narsa yo'q edi. Men xurmoni bersam, ayol uni ikkiga ajratdida, ikki qiziga berdi. Rasululloh sallollohu alayhi vasallam kirganlarida bu haqda xabar bersam, u zot: "Kim mana shu kabi qiz farzand bilan imtihon qilinsa, qizlarini chiroyli parvarish etsa, uning uchun jahannamdan parda bo'ladi" dedilar.

Qiz bola tarbiyasi shunchalar muhimki, inson farzandlari uchun sovg'a olib kelgan bo'sa uni tarqatishni avvalo qizlaridan boshlashi haqida ko'rsatmalar bor. Qiz bolaning ko'ngli nozik bo'lganligi sababli, ularga alohida mehr ko'rsatiladi, va ularga har tomonlama ta'lim tarbiya berishga chaqiriladi. Bu haqida Muhammad sallollohu alayhi vasallam shunday deganlar: "Farzandlaringizga ta'lim bering, chunki ular sizniki bo'lmagan vaqt uchun tug'ilganlar". Demak har bir ota-ona bolaning o'z zamonasining





ilm-fanini egallashiga befarq qaramasligi kerak. Oilada qiz bola tarbiyasi ayolga, onaga ishonib topshiriladi. Qizlar oila saboqlarini bobo-buvisidan, ota - onasidan, aka - opalaridan, qo'ni - qo'shnilaridan, jamiyki mahalladoshlaridan oladi. Tarbiyada eng mas'uliyatli vazifa onaga topshirilgan ekan, onajonlarimiz bu jarayonlarga yanada ehtiborli bo'lib qizlarining sog'lom unib o'sishi, ilmu hunar egallab, odob-axloq, ibo hayoda ham boshqalarga o'rnak namunasini ko'rsatadigan qiz bo'lib kamolga yetishiga ahamiyat qaratadilar. Xususan, qiz bolaga ilm o'rgatishdan tashqari, kasbu hunar egallashiga ko'mak berish, pishirish, tikish-bichish, bola parvarishlash, qo'yingki, kundalik turmushda zarur bo'lgan bilimlar bilan doimiy tanishtirib borish lozim.

Tarbiya jarayonidagi eng muhim vosita bu - mehr va shirin so'zlikdir. Bu ikki vosita nozik qalb sohibasi bo'lgan qiz bolaning ko'ngliga yo'l topish, uni avaylab parvarishlash uchundir. Turmushga chiqayotgan qiz bola avvalom bor irodasini tarbiyalay olishi kerak bo'ladi. Xalqimiz tili bilan aytadigan bo'lsak, oilaviy hayotda suv kelsa simirib, tosh kelsa kemiriladi. Oila sirini tashqariga chiqarmaslik oila mustahkamligining saqlashga harakat qilishda irodani axamiyati beqiyosdir desak xato bo'lmaydi.


Oilalardagi hayot tarzi va undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari bo'lmish Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Xoja Ahror Vale tariqatlarida, oilaviy turmush qoidalari, undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand tarbiyasiga e'tibor, erkak bilan ayol munosabatining o'ziga xosligi, insoniy fazilatlarining shakllanish me'yorlari haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqining og'zaki ijodida (Alpomish, Kuntug'mish, Go'ro'g'li, Oysuluv, Layli va Majnun, Yusuf va Zulayho kabi qator o'zbek xalq dostonlari) atroflicha bayon qilinganligi asoslangan. O'zbek oilalarida juftiklar o'rtasida kuzatiladigan salbiy-axloqiy xususiyatlar o'rganilganda, er yoki xotinda uchraydigan besabrlik, o'zgani tushunmaslik, e'tiborsizlik, qizg'anchilik, jizakilik, uquvsizlik, bilimsizlik, beparvolik, loqaydlik, qo'pol muomala sababli yuzaga kelishini, ba'zi oilalarda betakalluflik, didsizlik, uyatsizlik, munofiqlik tufayli namoyon bo'lishini e'tirof etdilar. Afsuski, real hayotda salbiy sifatleri (illatleri) orttirgan yoshlar ham barcha fuqarolar qatorida oila quradilar. Yigit yoki qizdagi avvaldan orttirilgan salbiy-axloqiy illatlar oila barqarorligining o'zgarishiga, unda ziddiyatlar, kelishmovchiliklar yuz berishiga va







hatto oilalarning buzilib ketishiga olib kelishi kuzatildi. Shaxslarda shakllangan salbiy-axloqiy sifatlarni ijtimoiy-psixologik asoslarini o'rganish, ularni kelib chiqish sabablarini aniqlash, rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish oilada yuzaga keladigan kelishmovchiliklar va ziddiyatlarning oldini olishga, oilani buzilishlardan saqlab qolib, uni barqarorligini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Qizalarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilaviy muammolarni o'rganish maqsadida olib borilgan tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, oilaviy muammolar o'zaro munosabatlardagi kelishmovchilik, o'zini tuta olmaslik, yoshlarda muomala madaniyatini shakllanmaganligi, turmush o'rtog'idan mamnun bo'lmaslik, zerikarli hayot, oilaviy burchlarning taqsimlanishi, janjalkashlik, o'ta manmanlik, xulq-atvordagi nomukamallik, moddiy qiyinchiliklar, jizzakilik kabi oila a'zolariga xos xatti-harakatlar va xarakter xususiyatlaridan kelib chiqar ekan. Yana shu narsaga amin bo'ldikki inson o'zi ideal insonni izlarkan. Ko'p holatlarda er-xotinlarning bir-biridan qoniqmaslik (ish vazifalaridan norozilik), gumonsirash, tanqid, tanbeh kabilar ham ko'pgina muammolarni keltirib chiqarishini bildik. Oila a'zolari oilada bir-birini o'zaro tushunmaslik, xarakter xususiyatlarining bir-biriga to'g'ri kelmasligida deb bilsalar, ayrimlarida ayol kishi noroziligi, tanbehlari erkakdan o'zini ustun qo'yishi deb bildilar. Bundan shu narsa ma'lum bo'ldiki, oilaviy muammolarning asl sababi oilalarda pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligidadir. Buning uchun mahallalarda bu borada keng qamrovli ishlarni olib borish, mahalla yig'inlarini oilalar bilan hamkorlikda amalga oshirish, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash uchun avvalo ularni onalarini psixologik savodxonligini oshirish, psixolog va pedagoglarga bo'lgan ishonchini oshirish masalalarini hal etish lozim. Qizlarimizni oilaviy hayotga tayyorlashda ularga oilaviy hayotning chiroyli taraflari bilan bir qatorda hayotning past-balandliklari ham mavjud ekanligini, turlixil murakkab vaziyatlardan shirin so'z-chiroyli muomala bilan yechim topish mumkinligi borasida bilimlarni ham berib borish lozim. Misol uchun ko'pgina oilalarda uchrab turadigan muammolar bilan ham tanishtirib borilsa, o'zlari katta hayotga qadam qo'yganda qiyinchiliklarga duch kelishganda dovdirab qolishmaydi, oqilona yo'lini tanlab bu vaziyatdan chiqa olishlari mumkin bo'ladi.





**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNALS SCIENCE SHINE Issue 8. 31. 07. 2023
2. M. Muhamedova Qizlar iffati – baxt suvrati. Toshkent -1997 y.
3. D. Turdiyeva Adashgan — nozik hilqat Toshkent Mavraunnahr- 2016 y
4. A. Muxtorov Globallashuv sharoitida ma’naviy tahdidlarni bartaraf etish omillari Toshkent Ma’naviyat -2015 y
5. O‘zbekistonda amaliy psixolog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to‘plami. 236 b.
6. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=X6ETm88AAAAJ&citation\\_for\\_view=X6ETm88AAAAJ:W7OEmFM1HYC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=X6ETm88AAAAJ&citation_for_view=X6ETm88AAAAJ:W7OEmFM1HYC)
7. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=X6ETm88AAAAJ&citation\\_for\\_view=X6ETm88AAAAJ:YsMSGLb1cyi4C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=X6ETm88AAAAJ&citation_for_view=X6ETm88AAAAJ:YsMSGLb1cyi4C)



## JADIDLARNING TARIXIY MISSIYASI

Yakubov Azizbek

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jadidlarning tarixiy missiyasi o'rganilgan. Unda jadidlarning millat, xalq kelajagi yo'lida amalga oshirilgan ezgu xizmatlari xolis baholangan, Maqolada ilgari surilgan fikr-mulohazalar muxtasar xolda umumlashtirilgan. .

**Tayanch so'zlar:** Tarixiy missiya, jadid, milliy uyg'otish, ma'rifatparvarlik, ja'xolat, vatanparvarlik.

### ИСТОРИЧЕСКАЯ МИССИЯ ДЖАДИДОВ

**Аннотация:** В данной статье рассматривается историческая миссия джадидов. В ней объективно отсцениваются заслуги джадидов перед будущим нации и народа, а также кратко обобщаются мнения, изложенные в статье.

**Ключевые слова:** Историческая миссия, современность, национальное пробуждение, просвещение, невежество, патриотизм.

### HISTORICAL JADID MISSION

**Abstract:** This article examines the historical mission of the Jadids. It objectively evaluates the services of the Jadids to the future of the nation and people, and also briefly summarizes the opinions expressed in the article.

**Keywords:** Historical mission, modernity, national awakening, enlightenment, ignorance, patriotism.

XX asr boshiga kelib millatni halokatdan saqlab qolish va istiqloлга olib chiqish uchun ma'rifat, madaniy-ma'rifiy tarbiya asosiy omil darajasiga ko'tarildi. Buni esa jadidlar Vatan va millat hurligi yo'lidagi kurashning asosi deb bildilar. Ular millatni uyg'otish uchun ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surdilar. Jadidlar Shariat qoidalari, "Qur'oni karim"ni yaxshi bilganlari uchun ham "Taraqqiyot islomga zid" degan aqida va tushunchalarga qarshi kurashdilar. Jadidchilikning paydo bo'lishiga taraqqiyparvarlik va ilm-fan, shariat amallarining o'rni katta bo'ldi.

Jadidchilik ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida yuzaga kelishining asosiy sababi bevosita Turkiston ichki muhitining fenomeni bo'ldi. U Rossiya imperiyasining XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'rta Osiyoni istilo qilishi va

buning natijasida vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatning mahsuli edi. Jadidchilik harakati vujudga kelishining obyektiv va subyektiv sabablarini yoritishimizda Ahmad Donishning “Navodir al-vaqoe” (“Nodir voqealar”) hamda “Risolai tarixi amiron mang‘it” (“Mang‘it amirlari tarixi haqida risola”) asarlarida, tarixchi Mirza Muhammad Abdulazim Somiy Bo‘stoniyning “Tarixi salotini mang‘itiya dor us-saltanai Buxoroi sharif” (“Buxoro sharif saltanatidagi mang‘it hukmdorlari tarixi”), tarixchi Mirzo Salimbek ibn Muhammad Rahimning “Tarixiy Salimiy” asarlari muhim o‘rin tutadi.

Mirzo Salimbek ibn Muhammad Rahimning “Tarixiy Salimiy” XX asrning 20-yillarida yozilgan bo‘lib, uning bosh qismi, Chingizxondan to [amir Muzaffar](#) davrigacha bo‘lgan tarixni umumlashtiruvchi xarakterga ega. Asarning 1860-1920-yillar voqealarini o‘z ichiga olgan katta qismi yangi bo‘lib, muallifning o‘zi bu voqealarning guvohi bo‘lgan. Asarda amir Muzaffar davrida Hisor, Ko‘lob, Baljuan, Qorategin va Darvozda bo‘lib o‘tgan isyonlar, Buxoro-Qo‘qon va [Buxoro-Rossiya](#) munosabatlari, [shuningdek](#), Buxoro amirligining XIX [asrning ikkinchi](#) yarmidagi umumiy ahvoli va ma‘muriy tuzilishi haqida qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Abdurauf Fitratning “Munozara” va “Bayonati sayyohi hindi” asarlari ham asos manbalardan biridir [6. 46-98].

Fitratning «Munozara» va «Sayyohi hindi» asarlarida ko‘tarilgan milliy qoloqlik, diniy fanatizm mavzusi XX asrning 20-yillar uchun ham dolzarb ahamiyatga ega edi. Fitrat bu hikoyalarida diniy syujetlardan jaholat ta‘siriga qarshi kurashda foydalangan edi. Jumladan, “Munozara” asarida farangi Buxoroning mudarrisi – ziyolilari yetakchisi bilan munozara qiladi. Munozara “usuli jadid” va “usuli qadim” ustida ketsa-da, asar Buxoro amirligining iqtisodiy, ma‘naviy, ta‘limiy, siyosiy manzarasini ham to‘la namoyon qiladi. Bu munozarada ilgari surilgan g‘oya ko‘proq Farangi savollariga mudarrisning javoblarida keng ko‘lamda ochiladi.

Dunyoviy va diniy bilimlar sohibi, dunyo ko‘rgan, hatto musulmon dini ahkomlaridan xabardor Farangi mudarrisning ilmsizligidan, johilligidan, musulmon farzandlarining qismati shunday mutaassiblar qo‘liga topshirib qo‘yilganidan afsus chekadi. Ko‘p hollarda mudarrisning javoblaridagi mantiqsizlik, fikriy doirasi nihoyatda torligini, dunyoviy bilimlardan butunlay xabarsizligini namoyish qiladi [6. 46-98].

Anglashiladiki, yuqorida sanalgan mualliflarning asarlari o'sha davrning noyob manbalari hisoblanadi [4]. Bu bejiz bo'lmay, ular jadid va jadidchilikka xayrxoh bo'lgan ma'rifatparvar kishilar edi. Masalan «Tarixi salotini mang'itiya» (1906-1907) tarixiy asari ikkinchi kitobida **Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniy** Buxoro amirligining [mang'itlar](#) hukmronlik qilgan davrini tanqidiy nuqtai nazardan baholaydi. U o'zi [guvoh](#) bo'lgan va eshitgan hodisalarga tayanib, amirlik [idora](#) uslubidagi illatlar, Rossiya bilan Buxoro qo'shinlari o'rtasidagi janglar, amir [qo'shin](#) boshliqlarining layoqatsizligi va mas'uliyatsizligi oqibatida mamlakatning katta qismi bosqinchilar tomonidan bosib olinganligi va [valiahd Abdulmalik](#) (Katta [To'ra](#)) ning ba'zi muvaffaqiyatli janglarini tasvirlaydi.

Ko'rinadiki Turkiston mustamlakachilari mahalliy xalqlarni o'ta qoloqlikda ushlashni o'zlariga shior qilib olgan edi. Ularning ko'rsatmasi bilan xalqqa mumkin qadar ko'proq paxta ektirish, ularni tinimsiz ishlashga majbur etish, toki bu xalq boshqa narsalarni o'ylashga, siyosiy voqealarni anglab yetishga bir zum ham vaqti, xohishi qolmasligini nazarda tutib kelgan. Chor Rossiyasi Turkistonni mustamlakaga aylantirish va ruslashtirish jarayonida mahalliy xalqlarga nisbatan kamsituvchilik siyosatini olib borgan hamda o'zbek va boshqa tub aholiga siyosiy va insoniy huquqlar berishni xayoliga keltirmagan. Bu g'oya ma'murlarning O'rta Osiyodagi strategik rejalari asosini tashkil qilgan. Bundan ko'zlangan maqsad o'lkada mavjud bo'lgan ijtimoiy hayot qonunlari va an'analarini izdan chiqarish, mahalliy jamiyatning diniy-ma'naviy negizini barbod qilishdan iborat edi. Milliy madaniyat va ta'limni obro'sizlantirish natijasida "yangi, rus Turkistoni"ni barpo etish maqsadi ko'zda tutilgan edi. Buning natijasida Turkiston zaminida mustamlakachilik va ulug' millatchilikka asoslangan siyosiy-ma'muriy tizim hukm surdi. Mustaqillikka dahl qilinishi, siyosiy haqsizlik va adolatsizlikning haddan oshishi butun jamiyatni chor Rossiyasi davlatining shovinistik harakatlariga qarshi kuchli muholifatga aylantirdi.

Xalqning noroziligi va xalq ichidan yetishib chiqqan ziyolilarning mustabid tuzum siyosatining asl mohiyatini anglab yetishi va kuchli nafрати XIX asrning 80-yillariga qadar shakllanib va kuchayib borganligini ko'rsatadi. Bu harakatning vujudga kelishida xorijiy mamlakatlardagi turli xil ilg'or ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, diniy oqimlarning ma'lum darajadagi ta'siri bo'lsa-da, ammo bu milliy va ilmiy uyg'onish harakati yuzaga kelishini ta'minlovchi asosiy omil, zamin va sharoit o'lkamizning o'zida yetilib pishgan edi.



Jadidchilik harakati ayrim g'oyaviy muholiflarimiz yaqin kunlargacha ta'kidlashganidek, faqat ma'rifatchilik harakatigina emas. Zotan g'oyaviy muholiflarning maqsadi jadidchilik doirasini toraytirish, keng xalq ongini qamrab olishiga yo'l qo'ymaslik edi.

Aslida esa jadidchilik:

**Birinchidan**, jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qildi.

**Ikkinchidan**, mustaqillik uchun kurash olib borish jadidlarning g'ayrat va tashabbusi bilan vujudga keldi. Turkiston muxtoriyati bu yo'ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi;

**Uchinchidan**, jadidlar maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslashtirdilar.

Shunday ulkan islohotlarni amalga oshirishga bel bog'lagan jadidlarning ilg'or qismi mahalliy aholini jahonning taraqqiy etgan davlatlarida bo'layotgan o'zgarishlar va yangilanishlardan xabardor qilib borish lozimligini yaxshi anglaganlar. Professor B.Qosimov haqli ta'kidlaganidek: "Jadidchilik ham ijtimoiy, ham siyosiy, ham madaniy harakatdir.

Shuning uchun ijtimoiyki, u jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi, milliy uyg'onish ideologiyasi bo'lib xizmat qildi.

Shuning uchun siyosiyki, u mustaqillik uchun kurash olib bordi...

21. Абдураманов Х.Х. Ўзбекистон Республикасида иқтисодий хавфсизликка демографик таҳдидларнинг прогноз параметрлари. Ўзбекистонда оила масалаларини илмий-амалий тадқиқ этиш: муаммо ва ечимлар. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент, 2020. 22-26 б. Available from: <https://www.researchgate.net>
22. Abduramanov H.H. (2022). CHANGES OF REPRODUCTIVE BEHAVIOR OF WOMEN OF FERTILE AGE IN UZBEKISTAN AND FACTORS OF MODERN FERTILITY INCREASE. Russian Journal of Agricultural and Socio-Economic Sciences. №12 (132). P.3-7. DOI:10.18551/rjoas.2022-12.01
23. Abduramanov K. K., Ibragimov L. Z. Regional characteristics of demographic development in the republic of uzbekistan //SEA: Practical Application of Science. – 2015. – Т. 3. – №. 1.
24. Abduramanov K., Dekhkanov S. Experience of foreign countries in the prevention of early marriage and early childbirth //InterConf. – 2021.
25. Abduramanov X.X., Sodiqova Sh.M., Abdusamatov X.U. Erta turmush – barchaga tashvish. Yoshlar uchun qo‘llanma: uslubiy qo‘llanma. - Toshkent: “Mahalla va oila nashriyoti”, 2022. – 32 b.
26. Абдураманов Х. Ўзбекистон республикасида демографик ривожланишнинг кўп омилли таҳлили ва истиқбол кўрсаткичлари //Иқтисодиёт ва таълим. –2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 137-142.
27. Ibragimov, L. Z., Davranova, M.A. *The influence of demographic factors to labor market in Samarkand region.* Международного научно-исследовательского конкурса. Петрозаводск, 2019. pp.148-155. Available from: <https://www.researchgate.net/>
28. Ибрагимов Л.З. и др. *Ўзбекистоннинг бандлик ва меҳнат бозорига демография омиллигини таъсирини баҳолашнинг баъзи жиҳатлари* //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 367-376.
29. Ибрагимов Л.З. (2021). *Жануби-ғарбий Ўзбекистоннинг меҳнат бозоридagi вазият.* Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 60-жилд. Тошкент. 56-63 б. Available from: <https://www.researchgate.net/>
30. Khamid, A. (2019). Кексаларни ижтимоий ҳимоя қилишни ривожлантиришнинг мақсадли кўрсаткичлари мониторинги. Архив научных исследований.
31. Khamid, A. (2019). Демографик жараёнларни давлат томонидан тартибга солиш механизмлари. Архив научных исследований.
32. Khamid, A. (2019). АҲОЛИНИНГ КЕКСАЙИШ ЖАРАЁНИНИ СТАТИСТИК БАҲОЛАШ, МОНИТОРИНГ ҚИЛИШ ВА БОШҚАРИШ МУАММОЛАРИ. Архив научных исследований.
33. Khamid, A. (2019). Ўзбекистонда яшил иш билан бандлик сиёсатини амалга ошириш имкониятлари. Архив научных исследований.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

34. Khamid, A. (2019). ҚИШЛОҚ АҲОЛИСИНИНГ ТАШҚИ ВА ИЧКИ МЕҲНАТ МИГРАЦИЯЛАРИНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ. Архив научных исследований.
35. Абдураманов, Х. Х., & Бакиева, И. А. ФАРҶОНА ВИЛОЯТИДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ХУСУСИЯТЛАРИ.
36. Абдураманов, Х. Х. СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ГОСУДАРСТВ ЕВРАЗИИ И ДРУГИХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН.
37. Нурмухаммадов, Х. Х., Умаров, Ф. У., Шадиева, Д. Х., Абдураманов, Х. Х., Ташпулатов, А., Амиркулов, А. З., ... & Муминова, Э. А. Инвестициялар ва инвестицион фаолият.
38. Абдураманов, Х. (2013). Особенности формирования новой демографической ситуации в Республике Узбекистан. Экономика и инновационные технологии, (3), 22-31.
39. Абдураманов, Х. (2015). Критерии и показатели оценки эффективности системы социальной защиты пожилых людей. Экономика и инновационные технологии, (3), 181-194.
40. Абдураманов, Х. (2016). Проблемы статистической оценки, мониторинга и управления процессом старения населения. Экономика и инновационные технологии, (1), 107-115.
41. Абдураманов, Х. (2011). Ўзбекистонда аҳолининг демографик ривожланиши: ҳозирги ҳолати ва истикболлари. Экономика и инновационные технологии, (2), 169-178.



## STUDYING THE EFFECTS OF RADIATION DAMAGE USING X-RAY DIFFRACTION TECHNIQUES

*Bo'riyev Maqsudjon Mehmon o'g'li*

*Institute of Nuclear Physics of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*

*Trainee researcher*

### ANNOTATION

X-ray crystallography is an empirical scientific method used to elucidate the arrangement of atoms and molecules within a crystal. When an incident beam of X-rays encounters a crystal, its crystalline structure causes the X-rays to diffract into specific directions. By measuring the angles and intensities of these diffracted beams, a crystallographer can generate a three-dimensional representation of the electron density within the crystal. From this electron density map, valuable information can be derived, including the average positions of atoms within the crystal, their chemical bonds, the degree of disorder in the crystal lattice, and various other structural characteristics. X-ray crystallography serves as a powerful tool for understanding the internal structure and properties of crystalline materials.

**Key words:** *crystal, biological molecule, atomic-scale, mineral, X-ray crystallography;*

Since many materials can form crystals—such as salts, metal, mineral, semiconductors, as well as various inorganic, organic, and biological molecules—X-ray crystallography has been fundamental in the development of many scientific fields. In its first decades of use, this method determined the size of atoms, the lengths and types of chemical bonds, and the atomic-scale differences among various materials, especially minerals and alloys. The method also revealed the structure and function of many biological molecules, including vitamins, drugs, proteins and nucleic acids such as DNA. X-ray crystallography is still the primary method for characterizing the atomic structure of new materials and in discerning materials that appear similar by other experiments. X-ray crystal structures can also account for unusual electronic or elastic properties of a material, shed light on chemical interactions and processes, or serve as the basis for designing pharmaceuticals against diseases.

X-ray crystallography is related to several other methods for determining atomic structures. Similar diffraction patterns can be produced by scattering electrons or neutrons, and neutron scattering can be similarly interpreted by Fourier transformation. If single crystals of sufficient size cannot be obtained, various other X-ray methods can be applied to obtain less detailed information; such methods include fiber diffraction, powder diffraction and (if the sample is not crystallized) small-angle X-ray scattering (SAXS). If the material under investigation is only available in the form of nanocrystalline powders or suffers from poor crystallinity, the methods of electron diffraction, transmission electron microscopy and electron crystallography can be applied for determining the atomic structure.

Wilhelm Röntgen discovered X-rays in 1895. Physicists were uncertain of the nature of X-rays, but soon suspected that they were waves of electromagnetic radiation. The Maxwell theory of electromagnetic radiation was well accepted, and experiments by Charles Glover Barkla showed that X-rays exhibited phenomena associated with electromagnetic waves, including transverse polarization and spectral lines akin to those observed in the visible wavelengths. Barkla created the x-ray notation, as well, noting in 1909 two separate types of diffraction beams, at first, naming them "A" and "B" and then supposing that there may be lines prior to "A", he started an alphabet numbering beginning with "K." Single-slit experiments in the laboratory of Arnold Sommerfeld suggested that X-rays had a wavelength of about 1 angstrom.

X-rays are not only waves but are also photons, and have particle properties causing Sommerfeld to coin the name, Bremsstrahlung, for this wavelike type of diffraction. Albert Einstein introduced the photon concept in 1905, but it was not broadly accepted until 1922, when Arthur Compton confirmed it by the scattering of X-rays from electrons. The particle-like properties of X-rays, such as their ionization of gases, had prompted William Henry Bragg to argue in 1907 that X-rays were not electromagnetic radiation. Bragg's view proved unpopular and the observation of X-ray diffraction by Max von Laue in 1912. confirmed for most scientists that X-rays are a form of electromagnetic radiation.

Crystals are regular arrays of atoms, and X-rays can be considered waves of electromagnetic radiation. Atoms scatter X-ray waves, primarily through the atoms' electrons. Just as an ocean wave striking a lighthouse produces secondary circular waves emanating from the lighthouse, so an X-ray striking an electron produces secondary spherical waves emanating from the electron. This phenomenon is known as elastic scattering, and the electron (or lighthouse) is known as the scatterer.

X-rays are used to produce the diffraction pattern because their wavelength  $\lambda$  is typically the same order of magnitude (1–100 angstroms) as the spacing  $d$  between planes in the crystal. In principle, any wave impinging on a regular array of scatterers produces diffraction, as predicted first by Francesco Maria Grimaldi in 1665. To produce significant diffraction, the spacing between the scatterers and the wavelength of the impinging wave should be similar in size. For illustration, the diffraction of sunlight through a bird's feather was first reported by James Gregory in the later 17th century. The first artificial diffraction gratings for visible light were constructed by David Rittenhouse in 1787, and Joseph von Fraunhofer in 1821. However, visible light has too long a wavelength (typically, 5500 angstroms) to observe diffraction from crystals. Prior to the first X-ray diffraction experiments, the spacings between lattice planes in a crystal were not known with certainty.

## REFERENCES

1. Free radical mediated x-ray damage of model membranes. - PMC - NCBI <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC1225196/>
2. Radiation damage studies in cardiac muscle cells and tissue using ... <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31274419/>





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

3. Investigating X-ray damage to small molecular crystals  
<https://www.diamond.ac.uk/Science/Research/Highlights/2021/investigating-damage-small-molecular-crystals.html>
4. Radiation Damage in Biological Samples [https://photon-science.desy.de/research/research\\_teams/x\\_ray\\_crystallography\\_and\\_imaging/research\\_areas/radiation\\_damage/index\\_eng.html](https://photon-science.desy.de/research/research_teams/x_ray_crystallography_and_imaging/research_areas/radiation_damage/index_eng.html)



## The effect of the Internet in learning a language

*Hamroqulova Maftuna*

*student of the philology faculty of the Uzbekistan state world language university*

*Email:hamroqulovamaftuna75@gmail.com*

### Abstract

This article deals with the importance and opportunities of the Internet in a language learning process. It is given that the utilization of the Internet, including networking sites, online platforms for communicating with foreigners provides learners with a good source of manual materials, video lessons and good language learning environment. The benefits and aspects of the information-communicative technologies in educational system is in detail shown. There is no doubt that learning a language with using such kind of technologies is hopefully best way.

**Keywords.** Effective learning, information-communicative technologies, video and audio lessons, language skills

### 1. Introduction

These days world is developing day-by-day. The importance of the Internet in every field is significantly increasing, especially in the education system. Students, pupils, all learners, apply to the Internet to find more information, to get knowledge and expand imagination about the thing which is learned.

As for learning a foreign language, by help of the Internet is effective to improve the language skills. On the Internet, there is given online courses, video lessons and the most important thing is that there is a chance to communicate with native speakers to increase the level of speech. Also, the convenience of the Internet is that there is no need to go anywhere for people who are learning online. In addition to this, online lessons are more effective than offline. Learners save their time and money.

All in all, all the benefits of the Internet while studying a foreign language are given in the following groups:

- 1) Learners, who are learning a language by listening to audio or seeing video lessons can rewatch them if they do not understand somewhere.
- 2) The chance of checking knowledge through various tests and determine the level, learn the mistakes which are done.



3) Other video games which help to improve skills and give energy. Learners are never bored with such kind of games. They have fun with them, also useful information about the topic. One of the most popular game for this is Duo lingo.

4) Daily conversations with native speakers or online foreign friends. This allows people to adapt the language environment and speak freely.

## **2. Researchers' thoughts about the role of the Internet in learning a language.**

With the prevalence of life, attention to the Internet is completely changing. Everybody who has a desire to acquire information about language often considers about information-communication technologies to give more chance to study. In this reason, a lot of researchers in every field have thoroughly studied the advantage sides of online lessons.

The idea of introducing Internet technologies in the course of theoretical and practical classes in a foreign language, according to E. Y. Sokolova, has been widely spread among teachers, methodologists around the world. The didactic aspects of computerization of education have been developed by well-known scientists and educators E. G. Azimov, V. P. Bepalko, B. S. Gershunsky, I. O. Loginov, E. I. Mashbitz, R. P. Mil-rud, E. S. Polat, N. F. Talizina, I. V. Robert, A. V. Khutorskoy and others [10].


The famous American scholar David Crystal in his publication "Language and the Internet" identifies several reasons for the advisability of using the Internet in foreign language teaching [3]. He argues that one reason is that the linguistic nature of online communication is necessary to improve language learning. Another reason for the effectiveness of using the Internet in foreign language teaching, according to the scholar, is that web-based resources create beneficial conditions for writing instruction because online resources provide an audience for written communication. The next reason put forward by David Crystal is that communicating online increases students' motivation to learn a live language several times, and there is a positive effect of the large amount of time students spend online [3].

## **Conclusion**

In conclusion, Internet should be used more in the educational system. This provides us with a great supply of materials which is useful for effective learning. It gives opportunity to have a place in life that after learning a language by using the Internet people can create some sites with their own experiences to be useful for others. It is beneficial for others, also oneself for financial independence.

## **References:**


1. Andrei, E. (2017). Technology in teaching English language learners: The case of three middle school teachers. *TESOL Journal*, 8(2), 409-431. <https://doi.org/10.1002/tesj.280>





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

2. Malinina, I. (2013). Application of blended learning technologies in studying foreign language in higher school. *Modern scientific researches and innovations*, 10. Retrieved August 28, 2014, from <http://web.snauka.ru/issues/2013/10/27936>
3. Crystal, D. (2002). Language and the Internet. *IEEE Transactions on Professional Communication*, 45(2), 142-144. <https://doi.org/10.1109/TPC.2002.1003702>
4. vatsionnye pedagogicheskie tekhnologii: materialy Mezhdunar. nauch. konf. (g. Kazan', oktyabr' 2014 g.). Kazan', 325-327.
5. A. Relan, and B. B. Gillani, "Web-based instruction and the traditional classroom: Similarities and differences", In B. H. Khan. (Ed.), *Webbased instruction*, 1997, pp. 41-46. Englewood Cliffs, NJ: Educational Technology Publications.





## ФУҚАРОЛАРНИ КОРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШДА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

*Турсунов Бехруз Нормурод ўгли*

*Термиз давлат университети, Юридик факултети ўқитувчиси*

*Хасанов Шахрам Аъзам ўгли*

*Термиз давлат университети, Юридик факултети талабаси*

### Аннотация

Коррупция — шахсининг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан фойдаланиши, худди шунингдек бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этишдир, дейилган. коррупцияга қарши курашишда аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантириш, давлат органлари ва бошқа ташкилотлар ходимларининг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш, таълим муассасаларида коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги ҳуқуқий таълим ва тарбия масалалари Қонуннинг 16, 17, 18-моддаларида ўз ифодасини топган. Чунки ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданияти юксак ва етук бўлган инсонлар салбий иллат бўлмиш коррупцияга йўл қўймайдилар.

**Калит сўзлар:** Ўзбекистон, давлат, Жамият, қонун, ҳужжат, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, сиёсат, коррупция, мансабдор шахс, талон – тарож, ўзлаштириш, жиноят, жазо.

“Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисида “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курашимиз” мавзусида сўзлаган нутқида “Жамиятимизда коррупция, турли жиноятларни содир этиш ва бошқа ҳуқуқбузарлик ҳолатларига қарши курашиш, уларга йўл қўймаслик, жиноятга жазо, албатта, муқаррар экани тўғрисидаги қонун талабларини амалда таъминлаш бўйича қатъий чоралар кўришимиз зарур”, деб бежиз таъкидламаган.

Коррупция бу давлат ва жамиятнинг ичидан емиришга ривожланишига тусқинлик қилувчи салбий иллат ҳисобланади. Янги Ўзбекистонни ривожланишида коррупцияга пораҳўрликка давлат мулкани талон тарож этишга қарши курашда барчани ҳуқуқий онги ва саводхонлик маданияти юқори бўлиши лозим. Зеро жамият келажаги ёшлар қўлида деб бизга бежизга га ишонч билдирилмаган.

Коррупция — бу жамиятни турли йўллар билан исканжага оладиган даҳшатли иллатдир. Мазкур иллат демократия ва ҳуқуқ устуворлиги асосларига путур етказди, инсон ҳуқуқлари бузилишига олиб келади, бозорлар фаолиятига тўсқинлик қилади, ҳаёт сифатини





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

ёмонлаштиради ва одамлар хавфсизлигига таҳдид соладиган уюшган жинойтчилик, терроризм ва бошқа ҳодисалар илдиз отиб, гуллаши учун шароит яратиб беради. Коррупцияга қарши курашиш Ўзбекистонда давлат сиёсатининг энг устувор йўналишига айланиб улгурди. Буни сўнгги йилларда соҳага оид қабул қилинган концептуал аҳамиятга эга норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, коррупцияни олдини олишга қаратилган маъмурий ислоҳотлар мисолида ҳам кўриш мумкин. Жумладан, коррупцияга қарши курашиш самарадорлигини оширишда Ўзбекистон ислоҳотларининг асосий ҳужжати ҳисобланган. Ўзбекистон Республикаси Президенти ташаббуси билан қабул қилинган 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг аҳамияти катта ҳисобланади”. Мамлакат тараққиётининг энг муҳим йўналишлари белгиланган Ҳаракатлар стратегиясининг Қонун устуворлигини таъминлаш ва суд-ҳуқуқ тизимини янада ислоҳ қилишнинг устувор йўналишида бевосита коррупцияга қарши курашишнинг ташкилий-ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш ва коррупцияга қарши курашиш тадбирларининг самарадорлигини ошириш муҳим вазифалардан бири сифатида белгиланган.

“1{2 боб} Коррупцияга қарши курашиш Ўзбекистонда давлат сиёсатининг энг устувор йўналишига айланиб улгурди. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонунининг 3-моддасида асосий тушунчалар берилган бўлиб, унга кўра, коррупция — шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий манфаатларини ёхуд ўзга шахсларнинг манфаатларини кўзлаб моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда фойдаланиши, худди шунингдек бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этишдир”, дейилган.

2{5 б} қисқа вақт ичида коррупцияга қарши курашишнинг ҳуқуқий механизмларини такомиллаштиришга оид бешта норматив-ҳуқуқий ҳужжат, шу жумладан, “Ҳуқуқий ахборотни тарқатиш ва ундан фойдаланишни таъминлаш тўғрисида”ги, “Маъмурий тартиб-таомиллар тўғрисида”ги, “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги, “Давлат харидлари тўғрисида”ги қонунлар қабул қилинди. 2008 йилда Коррупцияга қарши конвенцияга, 2010 йилда Иқтисодий ҳамкорлик ва ривожланиш ташкилоти доирасида қабул қилинган Коррупцияга қарши курашнинг Истанбул режасига кўшилганлигини, Олий Мажлис томонидан 2011 йилда Жиноий даромадларни легаллаштиришга ва терроризмни молиялаштиришга қарши курашиш бўйича Евроосиё гуруҳи тўғрисидаги битимни ратификация қилинганлигини кўрсатиб ўтиш лозим. Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонунининг қабул қилиниши, шунингдек, Коррупцияга қарши курашиш бўйича Республика идоралараро комиссиясининг ташкил этилиши ва коррупцияга қарши курашиш бўйича Давлат дастурларининг қабул қилинганлиги юртимизда коррупция билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга қаратилган қатор чора-тадбирлар самарадорлигини оширишга хизмат қилиб келмоқда. Ўзбекистон





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида Коррупцияга Қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора–тадбирлари тўғрисида” 2019 йил 27 майдаги ПФ-5729-сон Фармони бу борадаги изчил саъй-ҳаракатларнинг мантикий давоми бўлиб, бундан кўзланган асосий мақсад юртимизда коррупцияга қарши курашиш тизими самарадорлигини янада ошириш, энг юқори даражадаги қулай инвестициявий ва ишбилармонлик муҳитини яратиш, мамлакатнинг халқаро майдондаги ижобий имижини ошириш ва мустаҳкамлашга қаратилган.

3 {6 Б} Афсуски, юртимизда бу борада етарлича норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинишига қарамасдан жамиятимизда коррупция илллати ўзининг турли кўринишлари билан тараққиётимизга ғов бўлмоқда. Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг жорий йилнинг 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси ҳам “Коррупция жамиятимиз ривожига ғов бўлаётган энг катта иллат эканлигини баён этиб, қуйидаги сўзларни жумладан, “Коррупцияга қарши курашишда аҳолининг барча қатламлари, энг яхши мутахассислар жалб қилинмас экан, жамиятимизнинг барча аъзолари, таъбир жоиз бўлса, “ҳалоллик вакцинаси” билан эмланмас экан, ўз олдимизга қўйган юксак марраларга эриша олмаймиз”.

4 {3 б} Биз коррупциянинг оқибатлари билан курашишдан унинг барвақт олдини олишга ўтишимиз керак” – деб таъкидладилар. Хулоса ўрнида шуни айтиш керакки, коррупция ва порахўрлик жамият барқарорлигининг муҳим асоси бўлган адолатнинг йўқолишига олиб келади. Мамлакатимиз мустаҳкамлиги, халқимиз фаровонлиги, юртнинг ривожини ва гуллаб яшнашини, обод бўлишини истаган ҳар бир фуқаро пора олиш ва бериш иллатидан халос бўлиши, бир сўз билан айтганда “ҳалоллик вакцинаси” билан эмланиши керакдир. Коррупцияга қарши кураш барчамизнинг бурчимиз лоқайдлик бепарволик давлат келажиги учун инқироздир. Ҳар бир фуқаро онгли равишда янги Ўзбекистон тараққиётига ўз ҳиссасини қўшиши лозим.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси.
2. улгурди Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонун.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида Коррупцияга Қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора–тадбирлари тўғрисида” 2019 йил 27 майдаги ПФ-5729-сон Фармон.
4. Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг жорий йилнинг 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

## ILK O'RGANUVCHILARDA (MAKTABGACHA VA 1-4-SINFLAR)DA INGILZ TILINI TEZ VA OSON O'RGANISH MEDODIKASI USULLARINI KO'RIB CHIQISH

*Abdunabiyeva Nozima*

*Termiz davlat universiteti fилология tillarni o'qitish: ingliz tili fakulteti 2-bosqich talabasi*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada ilk o'rganuvchilarda ingliz tilini o'rganuvchilar uchun medodikaviy sullari.

**KALIT SO'ZLAR:** Medodikalar , topishmoqlar, maqollar, turli xil qo'shiqlar , o'yinlar , ko'rgazmali qurollar.

### **KIRISH**

Bilamizki, bolalar qiziquvchan, shu sababli kichik yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda asosan o'yin , rasmlar , qo'shiq va she'rlardan , multfillardan foydalanish samarali usul hisoblanadi . Chunki ulardagi asosiy tushuncha miyasida rasmi holda tasvirlanadi . Bu esa o'z navbatida bizdan barcha o'rgatiladigan narsalarni shunga ko'ra tasvirlashni talab etadi . Maktabgacha ta'limda hamda boshlang'ich sinflarda ta'lim olayotgan bolalarning psixikasi qizqish va yoqtirish kategoriyasiga asoslangan . Yosh bolalar tabiatan yorqin va chiroyli narsalarga juda ham qiziqishadi va ko'p e'tibor berishadi. Shuning uchun ustoz va murabbiylar ko'proq o'yin metodlaridan foydalanishi samarali usul hisoblanadi. Biz yashayotgan hozirgi zamonaviy hayotimizda nafaqat maktab, litsey, kollej o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalariga, balki maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va turli sohada ishlovchi xodimlarga ham chet tilini, xususan, ingliz tilini o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Sababi iqtisodiy, fan va madaniy jihatdan rivojlangan davlatlarning tillarini o'rganish jahon ilm- fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omilidir.

### **CHET TILLARNI O'RGANISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORATADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Qayd etib o'tilsinki, mamlakatda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi.

Mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillar o'qituvchilari tayyorlandi, umumta'lim maktablarining 5 — 9 sinflari uchun ingliz, nemis va fransuz tillari bo'yicha multimedia darsliklari, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rganish bo'yicha elektron resurslar tayyorlandi, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5 mingdan ko'proq lingafon kabinetlari jihazlandi.







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

Shu bilan birga, chet tillarni o'rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg'or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to'liq javob bermayapti. Ta'lim asosan an'anaviy uslublarda olib borilmoqda. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash yanada takomillashtirilishini taqozo etadi.

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida:

1. Belgilab qo'yilsinki, 2013/2014 o'quv yilidan boshlab:

respublikaning barcha hududida chet tillarni, asosan, ingliz tilini o'rganish umumta'lim maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanadi; Ingliz tilini keng miqyosda o'rganish tobora jadallashib borilayotganini yuqoridagi qaror orqali ham ko'rishimiz mumkin.

Chet tillar o'qitish metodikasining atoqli namoyandalaridan Garvard universiteti professori Uilga M. Rivers fikricha, savodli bo'lish — o'qish va yozuvni bilish, degan ma'noni anglatadi.[1 Wilga M. Rivers. Teaching Foreign-Language Skills. 2nd ed. — Chicago and London: The University of Chicago Press, 1981, p]. Til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liqdir. Olimlar va psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6–7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik mavzulani o'rganishdan boshlamalik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki bosqichdayoq qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin. Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatli vazifa hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin: - harakatlar, amaliy mashg'ulotlar masalan: turli xil oziq-ovqatlarni va mevalarni tatib ko'rish, hidlab ko'rish. Bu o'yin orqali bolajonlardan inglizcha ma'lumotlar berishini so'rash lozim. Murabbiylar banan mevasini tatib ko'rish jarayonida uning rangi sariq (yellow), ta'mi shirin (tasty), shakli uzunchoq (oblong) hidi xushbo'y (fragrant) kabi ma'lumotlarni so'raydi hamda bu usul esda qolish uchun samarali usul hisoblanadi.

Ilk tilni o'rganyotganlarga biz quyidagilar o'rqali tilni yanada soddaroq tushuntira olishimiz mumkin:

- qo'g'irchoq teatri sahnalari;

- tasvirlar; doskadagi chizmalari;





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

- ko'rgazmali qurollar, plakatlar, kitoblar orqali;
- imo-ishoralalar, yuz ifodalari orqali;
- multfilmlar tomosha qilish ;

Bolalar inglizcha multfilmlarni to'liq tushunmasliklari mumkin. Ammo qiziqarli multfilm qahramonlari nomlari, ular ishlatadigan jumlar tezda yodida qoladi. Chunki bolalar qiziquvchan va taqlidga moyil bo'lishadi;

- topishmoqlar; Bolalar topishmoqlarning javobini topishga qiziqishadi. Shuning uchun o'qituvchi topishmoqni ingliz yoki o'zbek tilida aytada, uning javobini bolalardan ingliz tilida aytishini talab qilishi lozim. Shunda bolalar so'zlarni tez o'rganishadi;
- ob'ektlarga ishora qilish; Bu jarayonda o'qituvchi xonadagi buyumlardan foydalangan holda savollar beriladi. What is it? (Bu nima?) This is a apple ( Bu olma), This is a table (Bu stol) doskaga qarang(look at the blackboard) kabi gaplarda imo- ishoralardan foydalansa bolaga tushunarli bo'ladi ;
- ko'zga ko'rinadigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish.

Masalan:eshik(door), kitob(book), stol(table), doska(blackboard), oyna(window) va shu kabilarga yozish. Bunday narsa-buyumlar doimo ko'zga tushib turishi va amliyotda ko'p qo'llanishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi Til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6–7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur.

Tez yodda qolish uchun qo'shiq, she'rlar, rol ijro etish amalda o'yinlar orqali o'rgatish.

- qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.
- aqliy va jismoniy harakatlar bilan bo'g'liq bo'lgan o'yinlar;
- rol ijro etish(role play) o'qituvchi biror ma'lumotni, masalan, hayvon yoki qushlarning nomlarini o'rgatayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirishi lozim. Misol uchun: bir o'quvchi itning vovillashi, mushukning miyovlashini ko'rsatib bersa, boshqa bir o'quvchi bu tovushlar qaysi hayvon ekanligini ko'rsatish mumkin.



- mavzuga oid muhit; O'qituvchi mavzusiga qarab o'sha muhitni yaratib bera olsa, bolalar tilni yaxshi o'rganishadi. Masalan: traveling, birthday, in the kitchen va boshqalar. Traveling (sayohat) mavzusida o'qituvchi sayohat uyushtirishi, sayohatga qanday vositalar orqali (foot, bicycle, automobile, train, boat, airplane) borish mumkinligi, qayerlarga sayohat qilish (Tashkent, Samarkand, Bukhara, England, USA) muhimligi haqida ma'lumot beradi. Bu hol o'quvchilarning so'z boyligini, til imkoniyatlarini kuchaytiradi, dunyoqarashini o'stiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 - yil 30 - sentabrdagi " Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida " gi PQ - 3955 - sonli qarori .
  2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil 8 - maydagi " O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'riida " gi PQ - 4312 - sonli qarori
  3. John Adams | Analysis of retirement age in different countries of the world.London 2017.
  - 4 —Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora –tadbirlari to'g'risida (PQ-1875-son)|Xalq so'zi gazetasi. 2012yil. 12-dekabr.
  5. J. Jalolov . —ingliz tilini o'qitish metodlari| —O'qituvchi| nashiryoti Toshkent
- To'xtasinova, N. R. Q., & Soibjonova, M. T. O. Q. (2022). TAGMA'NO VA PRESUPPOZITSIYA HODISASINING PRAGMATIK TADQIQI (Abdulla Qahhor asarlari misolida). Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(4), 141-146



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

## “ZAMONAVIY DUNYO TARTIBOTI KONSEPSIYALARINING MARKAZIY OSIYO VA O‘ZBEKISTONGA TA’SIRI”

*Aliyev Jahongir Erkinjon o‘g‘li*

*TDSHU Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi mutaxassisi*

*Email: aliyevjahongir2330@gmail.com*

*Tel: +998990042330*


### ANOTATSIYA

Zamonaviy dunyo tartiboti ikkinchi jahon urushidan so‘ng to hozirgi davrga qadar, dunyoning geosiyosiy jarayonlarini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etib keldi. Covid 19 pandemiyasidan so‘ng bu tartib o‘rnida asta-sekin yangi tartiboti shakllana boshladi. Bu jarayonni esa bir qancha geosiyosiy voqeeliklar yanada tezlashtirib yubordi. Rossiya-Ukraina harbiy mojarosi, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi keskinliklar, Yaqin Sharqdagi yangi urush o‘choqlarning vujudga kelish xavfning yanada ortib bo‘rishi, Xitoyning “Yagona Xitoy” konsepsiyasi bo‘yicha Tayvanga da‘volari, Uzoq Sharqdagi keskinliklar va boshqa qaynoq geosiyosiy nuqtalar global dunyo tartibining o‘zgarishga olib kelishi mumkin. Ushbu jarayonlarda zamonaviy dunyo tartibotining Markaziy Osiyoga davlatlariga ta’sirini o‘rganish kun tartibidagi masalalardan biri hisoblanadi

**Kalit so‘zlar:** Markaziy Osiyo, Dunyo tartibi, BMT, AQSH, NATO, “Yagona Xitoy”, Uzoq Sharq, Yaqin Sharq, yadro urushi, Rossiya, “Yangi buyuk o‘yin”

### KIRISH

Markaziy Osiyoning geosiyosiy mintaqasi Yevrosiyoning markaziy qismida joylashgan, okeanlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoni bo‘lmagan ulkan hududdir. Chegaralarning aniq ta’riflari yo‘qligiga qaramay, umume’tirof etilgan nuqtai nazarga ko‘ra, bu mintaqa zamonaviy O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston va Qozog‘iston davlatlaridan iborat. Tarix davomida Markaziy Osiyo Buyuk Ipak yo‘li tufayli Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog‘lovchi, bu orqali ham moddiy, ham nomoddiy qadriyatlarni, xususan, tajriba, yutuqlarni o‘zaro almashishga hissa qo‘shadigan hudud sifatida tanilgan. Markaziy Osiyoning geosiyosat va geostrategiyasi, xususan, undagi katta neft va gaz zahiralarning mavjudligi, tranzit va kommunikatsiya yo‘llarining joylashuvi, Kaspiy dengizining strategik va geoiqtisodiy ahamiyati, resurslarni qazib olish jarayonlari va mintaqadan o‘tuvchi energiya yo‘nalishlarini nazorat qilish, ichki inqirozlarga ta’sir o‘tkazish imkoniyati, shuningdek, Markaziy Osiy davlatlari o‘rtasida umumiy madaniy, tarixiy va iqtisodiy manfaatlarining mavjudligi bilan etirof yetiladi. Qo‘shni davlatlar zamonaviy sharoitda SSSR parchalanganidan keyin Markaziy Osiyoda asosiy rolga da’vogar bo‘lgan mintaqaviy va







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

transmintaqaviy kuchlar o'rtasidagi raqobatning kuchayishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Bu ushbu mintaqaning zamonaviy dunyoda muhim geosiyosiy ahamiyat kasb yetadi .


## ASOSIY QISM

Sovet Ittifoqidan keyingi o'zgarishlarga turli xil milliy va xalqaro omillar ta'sir ko'rsatdi. Markaziy Osiyo voqealarini tahlil qilish uchun xalqaro munosabatlarning bir qancha nazariy asoslari mavjud: neoliberalizm, neorealizm, konstruktivizm va boshqa nazariyalar. Markaziy Osiyodagi voqealarga neoliberal yondashuv ayniqsa SSSR parchalanganidan keyingi dastlabki davrda ommalashdi. Biroq, 2000 yildan boshlab kuchaygan siyosiy va iqtisodiy qarama-qarshiliklar butun dunyo bo'ylab olimlarni mintaqadagi notinch o'zgarishlarni tushunish uchun neorealizmga murojaat qilishga undadi. Ushbu an'anaviy maktablarga qo'shimcha ravishda, konstruktivizm – mintaqaviy integratsiyaning aspektlarini aniqlovchi va milliy o'zlikni shakllantirish bilan bog'liq primordializm postsovet davridagi nazariy munozaralarda tobora kuchayib bormoqda .

Shuningdek “Yangi buyuk o‘yin” sarlavhasida global siyosatning zamonaviy sohasida eng ko‘p muhokama qilinadigan mavzuga aylandi. Yevrosiyo qit'asining yuragi Markaziy Osiyo mintaqasi allaqachon Rossiya va Britaniya o'rtasidagi mustamlakachilik jangiga guvoh bo'lgan. Geosiyosiy mavqei mojaroni yanada kuchaytirdi. Buyuk o'yin butun Markaziy Osiyo mintaqasiga noxush ta'sir ko'rsatdi. Rossiyaning O'rta Osiyo mintaqasidagi bir asrlik hukmronligi 1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalanishi bilan yakunlandi. Lekin bu muqarrar ravishda Markaziy Osiyo davlatlari Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonga katta ta'sir ko'rsatadi .

1991 yilgacha yuqoridagi davlatlarning Sovet Ittifoqi tarkibiga kirishi munosabati bilan geosiyosatga oid mavjud klassik nazariyalarning aksariyati Markaziy Osiyoni Heartlend nazariyasiga asoslangan holda ko'rib chiqqanligini ta'kidlash lozim. Eng so'nggi nazariyalarga ko'ra, Markaziy Osiyo to'rtta yadroviy davlat – Rossiya, Xitoy, Hindiston va Pokistonni o'ziga xos tarzda bog'laydigan dunyodagi yagona nuqtadir. Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishgach, ikki xil – ichki va mintaqaviy geosiyosiy o'zgarishlarga duch keldilar. Sovet davridan meros bo'lib qolgan siyosiy, etnik, hududiy va boshqa muammolar ushbu mintaqada mamlakatlarda jiddiy geosiyosiy muammolarni vujudga kelishig imkon berdi. Bunga jug'rofiy yoki etnik nizolar, ba'zan esa ham birinchi, ham ikkinchi omillar ta'sirida yuzaga kelgan bir qancha inqirozlarni misol qilib keltirish mumkin.

Markaziy Osiyoda yangi geosiyosiy makonning shakllanishiga ko'proq Sovuq urush davri tugaganidan keyingi asosiy o'zgarishlar natijasi sifatida qarash kerak . Markaziy Osiyoning postsovet davridagi, xususan, 11-sentabr voqealaridan keyin eng muhim geosiyosiy xususiyati uning mintaqaviy va transmintaqaviy miqyosdagi hokimiyat uchun kurashlar maydoniga aylanishidir. Demak, Markaziy Osiyoning beshta davlati – O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Turkmaniston respublikalaridan tashqari beshta mintaqaviy (Rossiya, Eron, Turkiya, Hindiston va Pokiston) va uchta transmintaqaviy (AQSh, Yevropa Ittifoqi va Xitoy) davlat bu mintaqadagi manfaatlarini qondirish uchun kurashmoqda.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

Qo'shma Shtatlar jahon gegemoni sifatida harakat qilib, Markaziy Osiyoda bir qator o'ziga xos manfaatlarni ko'zlaydi, bular, birinchi navbatda, o'z energiya resurslarini nazorat qilish, Eron manfaatlari va ta'sirining oldini olish, shuningdek, Eronning qayta tiklanish ta'sirining oldini olishdir .

Rossiyaning Markaziy Osiyodagi manfaatlariga ta'sir qiluvchi yana bir muhim omil – bu mintaqada biron bir xorijiy kuch hukmronlik qilgan taqdirda Rossiyaning hududiy yaxlitligining masalasidir .

Demak, Markaziy Osiyo davlatlarining ichki o'ziga xosligi va geografik xususiyatlaridan tashqari, hozirgi bosqichda unga dunyoning eng muhim siyosiy mintaqalaridan biri sifatida e'tibor qaratishning asosiy sababi mintaqaviy va transmintaqaviy kuchlarning jiddiy raqobati bo'ldi. Bu zamonaviy geosiyosat nazariyalarida Markaziy Osiyo mintaqasiga alohida e'tibor berilishini tushuntiradi .

1904 yilda Heartlend nazariyasini ishlab chiqqan Xelford Makkinderning fikriga ko'ra , Yevroosiyo qit'asining yuk tashish maqsadlarida foydalanilmaydigan markaziy hududi quruqlikdagi muhim qal'adir. Mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo davlatlari, nazariyotchilarning Makkinder fikriga qaytadan e'tibor qaratilishi davrida Sovet Ittifoqining bo'g'inlaridan biri edi. Ushbu mintaqaning strategik ahamiyatini talqin qilgan holda, Makkinder izdoshlari unga kirish butun dunyo quruqlik ustidan nazoratni ta'minlashi mumkinligiga amin edilar. Aynan shuning uchun ham ular SSSRni “jahon qudratiga nomzod” deb hisoblashgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Nikolas Speakman tomonidan ishlab chiqilgan chegara nazariyasi yoki Rimlend deb nomlanuvchi yana bir nazariya, asosan, dengiz kuchlarining asosiy ahamiyatini ta'kidlaydi, shu bilan dengiz va quruqlik kuchlari Markaziy Osiy mintaqasids birlashishiligi imkoniyati tufayli geosiyosiy ahamiyatini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Sikorskiyning nazariyasiga ko'ra , keng ko'lamli jahon urushi bo'lgan taqdirda, uning taqdirini faqat “qaror qabul qiluvchi mintaqa” belgilashi mumkin, bu nazariyotchining fikriga ko'ra, aynan bu hudud Markaziy Osiyodir .

Samuel Xantington tomonidan ishlab chiqilgan sivilizatsiyalar to'qnashuvi va dunyo tartibini tiklash nazariyasi, sivilizatsiya va madaniy o'ziga xoslik, insoniyat yutuqlarini ifodalash, uning tasnifining eng yuqori darajasidir. Sivilizatsiyalar to'qnashuvi, uzilishlar darajasida, uning jahon siyosatidagi hukmron mavqeini shakllantirishga ham, yangi ming yillik mojarolari rivojlanishining so'nggi bosqichiga ham yordam beradi. O'rta Osiyo mintaqasining shimoliy, shimoli-g'arbiy va sharqiy chegaralari Xantington nazariyasida sivilizatsiya tafovutining yo'nalishlaridan biri bo'lib, shimol-g'arbda pravoslav nasroniy sivilizatsiya guruhlarini, sharqda buddist va janubi-sharqda konfusiyni ifodalaydi. Shunday qilib, islom olamining chekka hududlaridagi boshqa sivilizatsiyalar bilan o'zaro aloqadorlik nuqtai nazaridan Markaziy Osiyo o'ziga xos va betakror mintaqadir.

Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng, Jeffri Kemp ellipsining strategik pozitsiyasi geoiqtisodiy (neft va gaz) muammolarining dolzarbligi bilan bog'liq bo'lgan jahon siyosiy adabiyotida alohida e'tibor






topdi. Kamp ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi tasdiqlangan neft zaxiralarining 70% ga yaqini, shuningdek, tabiiy gaz resurslarining 40% dan ortig'i Rossiya va Qozog'iston janubidan Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklarigacha cho'zilgan elliptik mintaqada joylashgan. Aslida, "ellips" energetika strategiyasi, jumladan, Fors ko'rfazining qattiq neft va gaz resurslari, xususan – dunyodagi eng yirik tabiiy gaz koni (Janubiy Pars va Shimoliy Gunbad) jami jahon gazining 19% ni tashkil qiladi. Fors ko'rfazi va Sibir mintaqalaridan keyin dunyodagi eng muhim energiya manbalaridan biri hisoblanadigan Kaspiy dengizigacha cho'zilgan. Keyinchalik "ellips" Markaziy Osiyoning g'arbiy chegaralarini, shuningdek, mintaqaning uchta davlati – Turkmaniston, O'zbekiston va Qozog'iston hududini o'z ichiga oladi. Yuqoridagi nazariyaning ahamiyati, geoiqtisodiy manfaatlardan kelib chiqib, Yevrosiyaning markaziy qismida joylashgan energiya resurslari sharqiy va g'arbiy mamlakatlar uchun qimmatli xom ashyo manbalari ekanligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ushbu resurslarning mavjudligi energiya importining kengayishiga yordam berishi kerak, unga bo'lgan talab so'nggi davrda nafaqat kamaygan, balki kapital to'planishi va iste'molning o'sishini hisobga olgan holda ushbu talabning oshishiga olib kelishi kerak, bu muqarrar ravishda ta'minotning ko'payishiga olib keldi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida neft zaxiralarining umumiy hajmi 15-31 milliard barrelga, tabiiy gaz zaxiralarining umumiy hajmi esa 230-360 trillion kub metr ga etadi, bu esa jahon neft resurslarining qariyb 7,2 va 7% gaz resurslari foizini tashkil etadi. Boshqa tomondan, jahon iqtisodiyotining dinamik o'sishini hisobga olgan holda uglevodorod energiya manbalariga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Jahon statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2003 yilda 95 milliard kub metr ga etgan tabiiy gaz iste'moli 2030 yilga kelib 182 milliard kub metr ga etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kuzatilayotgan iqtisodiy o'sishning kuchayishi tendensiyasi va ularning energiya resurslariga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda, Markaziy Osiyo mintaqasi va uning energetika salohiyati energetika muammosini hal etishda asosiy yordam nuqtalaridan biri sifatida baholanishi kerak.

Katta Markaziy Osiyo deb atalmishni yaratish g'oyasining e'lon qilinishi bilan mintaqadagi vaziyat Qo'shma Shtatlarning ushbu yangi kontseptual va strategik burilishlari tufayli "siqilib ketdi". Bu aslida Markaziy Osiyoning beshta davlati va ularning janubiy qo'shnilari o'rtasidagi to'siqni olib tashlashga qaratilgan. AQShning Afg'onistondagi aksilterror kampaniyasi boshlanishi bilan Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston uchun xalqaro hamkorlik va dunyoga chiqish uchun muqobil maydon paydo bo'ldi. Agar Afg'onistonda haqiqatdan ham tinchlik o'rnatilsa va oldinga ijobiy harakat boshlansa, mintaqa davlatlari uchun Janubiy Osiyoga yo'l ochiq bo'ladi. Bu esa, ayniqsa, energiya eksport qiluvchi davlatlar uchun yangi integratsiya imkoniyatlari va savdo-iqtisodiy hamkorlikning yangi salohiyati paydo bo'lishini anglatadi. Albatta, bu yaqin kelajak haqida emas: bu yo'lda juda ko'p muammolar bor. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bunday istiqbol Markaziy Osiyoning vositachilik rolini sezilarli darajada kengaytiradi va bu mintaqa mamlakatlari uchun katta dividendlar keltirishi mumkin.








Rossiyaning Markaziy Osiyo va Kavkazning strategik maydonida ishtirok etishi masalasiga kelsak, shuni ta'kidlash kerakki, Rossiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosati ushbu davlatning mintaqaviy barqarorlikni saqlash va mamlakatga xorijiy ta'sirning oldini olishga qaratilgan sa'y-harakatlari doirasida juda tushunarli. Rossiyaning Eron, Turkiya va Xitoy bilan munosabatlari Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin normal tus oldi. Bu mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarning mohiyatini belgilab beruvchi avvalgi mafkuraviy tasnif yo'qoldi. Rossiyaning Eron va Turkiya bilan umumiy chegaralari qolmasligi, Xitoy bilan chegaralarining qisqarganligi munosabatlarning normallashtirishiga xizmat qildi. Bir paytlar mintaqaviy gegemon bo'lgan Rossiya endi asosan siyosiy va madaniy ta'sir bilan chegaralanib qolgan. Rossiya mintaqa bilan integratsiyani saqlab qolish uchun Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (ODKB) va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YeOI) kabi institutlardan foydalanadi, biroq Markaziy Osiyo davlatlari Xitoy institutlari tomonidan Rossiya orbitasidan uzoqlashtirilmoqda. Energetika sohasida ham Rossiya tarixiy ustunlikka ega edi, ammo endi neft va gaz yetkazib berish va qazib olishda Xitoy bilan raqobatlashishi kerak. Rossiya hamon mintaqaviy gegemon bo'lib qolmoqda, ammo uning qo'lga olishi tezda kuchini yo'qotmoqda. Rossiyaning siyosiy va madaniy ta'siri o'z o'rnini yo'qotishda davom etsa-da, u hali ham ma'lum imtiyozlarga ega. Masalan, jamoatchilik fikri hamon Rossiyani do'stona buyuk davlat, o'qish joyi va madaniyat markazi sifatida ma'qullaydi. Xitoy esa, aksincha, Markaziy Osiyo xalqlari orasida ijobiy jamoatchilik imidjini shakllantirishda qiynalmoqda. Rossiyaning mintaqaviy ta'siri odatda pasaymoqda, ammo u mintaqaviy yangi kelgan AQShga qaraganda ko'proq afzalliklarga ega. Ushbu mintaqani o'z ta'sir zonasi sifatida saqlab qolish Rossiyaga, birinchidan, o'z xavfsizligini ta'minlash, ikkinchidan, siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish, uchinchidan, energiya resurslarini o'zlashtirish va kerak bo'lganda ularga monopoliyani saqlab qolish imkonini beradi, bu imkoniyatlardan G'arb kuchlariga qarshi kurashda alohida dastak sifatida foydalanish mumkin.

Eron tashqi siyosatida Markaziy Osiyo alohida o'rin tutadi, bu Eron va Markaziy Osiyo o'rtasida mavjud bo'lgan tarixiy, madaniy va diniy umumiylik bilan izohlanadi. Ulkan neft va gaz salohiyatining mavjudligi, aholining ko'pligi, Eron tovarlari bozorini ta'minlash imkoniyati, eng muhimi, Markaziy Osiyo mintaqasining quruqlikda joylashishi, mintaqa davlatlariga makon va hududdan foydalanish imkonini beradi. Eronning eng foydali va eng maqbul yo'l bo'lishi Eronning ushbu mintaqa bilan aloqalarini chuqurlashtirish va kengaytirish uchun potensial imkoniyatlarni ochib berdi.

Xitoy Markaziy Osiyoda hukmron iqtisodiy ishtirokchi bo'lib, o'z milliy manfaatlarini ilgari surish uchun bu vositadan foydalanadi. 2018-yilda Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi savdo hajmi qariyb 40 milliard dollarga yetdi va Xitoy energetika, sanoat va infratuzilma kabi sohalardagi eng muhim xorijiy investor hisoblanadi. Xitoyda mablag'lar taqchil bo'lgan mintaqaga sarmoya kiritish uchun ko'p kapital bor va uning kreditlari AQShdagi kabi islohot shartlarisiz keladi. Albatta, Xitoy sarmoyasi nafaqat tijorat maqsadlarida, balki Markaziy Osiyo Xitoyning Yevroosiyoni rivojlantirish strategiyasi bo'lgan "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi uchun kalit hisoblanadi, chunki muvaffaqiyatli








investisiyalar Xitoyning AQShga zaif dengiz yo'llariga qaramligini kamaytiradi. Bundan tashqari, mintaqadagi uglevodorodlar va boshqa tabiiy resurslar Xitoyning iqtisodiy o'sishining kalitidir. Xitoy o'zining iqtisodiy hukmronligidan dunyoning boshqa mintaqalarida bo'lgani kabi Markaziy Osiyoda ham o'zining geosiyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun foydalanadi. Xitoyning Markaziy Osiyoga munosabati, asosan, mintaqada xavfsizlikni himoya qilish xususiyatiga ega, ammo shunga qaramay, asosiy manfaatdorlik mamlakatning energetika resurslariga kirishdadir. Umuman olganda, mintaqada eng yirik da'vogar bo'lgan Rossiya bilan, shuningdek, AQSh va Yevropa Ittifoqi kabi transmintaqaviy da'vogarlar bilan taqqoslaganda, Xitoy mintaqada bir qator afzalliklarga ega. Misol uchun, Markaziy Osiyo davlatlari Xitoy bilan qo'shnilikni o'z mahsulotlarini eksport qilish uchun kuchli salohiyat deb biladi, ikkinchi tomondan, Pekin hech qachon zaif moliyaviy ahvolga tushib qolgani yo'q. Shu bilan birga, Pekin Markaziy Osiyo davlatlarining ichki siyosatiga hamisha o'zgacha sodiqlik bilan munosabatda bo'lib kelgan, bu esa, shubhasiz, Xitoy bilan munosabatlarini yaxshilashga yordam beradi .

Xitoy o'z iqtisodiy qudratining o'sishini hisobga olib, mintaqadagi iqtisodiy tuzilmalarga ta'sir ko'rsatadigan barqaror mavqega erishdi. Kaspiy mintaqasida katta neft va gaz zaxiralarining mavjudligi, bu kelajakda Xitoy neftining Yaqin Sharqning energiya resurslariga qaramligini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi. Xitoy ishlab chiqaruvchisi tovarlarini iste'mol qiladigan ulkan va hali ham tegmagan keng ko'lamlı bozor, shuningdek, mintaqada davlatlarining Xitoy kompaniyalarining sanoatni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan investisiyalariga qiziqishi, boshqa tomondan, bozorni ochib beradi.

Markaziy Osiyoda ham raqobatdosh kuchlardan biri bo'lgan Turkiya hozirgi bosqichda nisbatan qulay iqtisodiy sharoit asosida olib borilgan madaniyat sohasidagi faol ishtiroki tufayli mintaqada ishonchli o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldi. Turkiyaning mintaqada mavjudligi faqat o'z manfaatlarini himoya qilish bilan izohlanadi, bunda asosiy nuqta mintaqada hukmron ta'sirga ega bo'lgan davlatning pozitsiyasi edi. Bu davlat o'z geosiyosatini mohirona boshqarish tufayli o'z hududini ham mintaqada davlatlarining o'zlari, ham G'arb davlatlari uchun Kavkaz va Markaziy Osiyo mintaqalariga darvoza sifatida muvaffaqiyatli ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi .

Asosiy transmintaqaviy kuchlardan biri bo'lgan Yevropa Ittifoqi o'zining iqtisodiy bazasi tufayli Markaziy Osiyoda muvaffaqiyatli va faol ishtirok etmoqda. Yevropaning mintaqaga nisbatan, asosan, tijorat manfaatlariga asoslangan pozitsiyasi, ayniqsa, geosiyosiy pozitsiyani qo'lga kiritishga intilmaydi. Yevropa demokratik institutlarni rivojlantirish va mintaqada barqarorlikni mustahkamlashga e'tibor qaratadi, pirovardida energiya resurslarining yangi manbalariga kirish imkoniyatidan foydalanishga intiladi va shu tariqa Yaqin Sharq mamlakatlari va Rossiyaga energiya qaramligini kamaytiradi. Hozirgi bosqichda Yevropaning yirik sarmoyaviy kompaniyalari mintaqaning iqtisodiy bozorini o'zlashtirib, kuchsiz mamlakatlarni unga sarmoya kiritish uchun son-sanoqsiz imkoniyatlardan mahrum qilmoqda. Aloqa koridorini yaratish bo'yicha Yevropa tashabbusi mintaqaga Yevropa bilan aloqalarni ochishga imkon beradi, bir tomondan, Yevropa uchun mintaqaga






yo'l beradi, ikkinchi tomondan, Yevropaning geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlariga ta'sir qiladi va qo'llab-quvvatlaydi. Ulardan eng muhimi va muvaffaqiyatli Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo va Kavkazning tranzit pozitsiyalariga ega davlatlarga, xususan, Eron va Xitoyga qaramlik darajasini kamaytirishga qaratilgan dasturlarini ilgari surishdir. Boshqa tomondan, Yevropa Ittifoqi Rossiyaning Markaziy Osiyodagi energetika resurslari monopoliyasini yo'qotish yo'llarini shiddat bilan izlamoqda. Markaziy Osiyo neft va gaz Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga Rossiya Federatsiyasi hududi orqali tranzit yo'li orqali kiradi, bu esa Yening Rossiyaga haddan tashqari energiya qaramligidan kelib chiqqan xavotirini tushuntiradi.

Markaziy Osiyoning asosiy transmintaqaviy kuchi bo'lgan Amerika Qo'shma Shtatlari optimal iqtisodiy va geostrategik maqsadlarni izlab, o'zining kompozision strategiyasini ishlab chiqish orqali mintaqaviy jarayonlarni nazorat qilishga intilmoqda. Qo'shma Shtatlar mintaqadagi eng qudratli bo'lmagan aktyor va o'z manfaatlarini ta'minlash uchun Markaziy Osiyo davlatlari bilan diplomatik aloqadan foydalanishi kerak. Davlat suvereniteti va mustaqilligini himoya qilishning birinchi ustuvor yo'nalishi, xususan, Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyo davlatlarini birlashtirishga urinishlariga qarshi turishdir. Markaziy Osiyo davlatlariga Amerikaning mintaqaviy raqobatchilari bilan muomala qilishda kattaroq savdolashish imkoniyatini beradi. Buyuk davlatlar uchun buzg'unchi va mahalliy aholi uchun kuch beruvchi kuch sifatida Qo'shma Shtatlar Markaziy Osiyoda muhim majburiyatlarsiz nozik ta'sir o'tkazishi mumkin. XXI asr davlatlarning energiya resurslariga kirish uchun kurashiga muqarrar guvoh bo'lishini ta'kidlagan Qo'shma Shtatlar Fors ko'rfazi va Kaspiy dengizi energiya resurslarini nazorat qilishda ustun mavqega erishish uchun keng ko'lamli sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. Shunday qilib, Kaspiy mintaqasining neft resurslariga kirish AQSh milliy xavfsizlik strategiyasida alohida muhim mezon bo'lib, u davlatning hayotiy manfaatlarini belgilaydi va uning siyosat, iqtisodiyot va xavfsizlik sohalarida ko'p tomonlama strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi.

Yuqorida sanab o'tilgan strategiya Yevroosiy halqasini to'ldiruvchi omil bo'lib xizmat qiluvchi, shuningdek, mintaqada xavfsizlik kafilining dominant rolini ta'minlovchi "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturini amalga oshirish doirasida NATOni Sharqqa kengaytirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, ushbu strategiya Qo'shma Shtatlarga Rossiya ustidan nazoratni amalga oshirish bilan bir qatorda Eronni bostirishni ta'minlashga imkon beradi, bu esa amalda mintaqada ularning asosiy "Eronsiz hudud" siyosatini amalga oshirishga hissa qo'shadi. Shu bilan birga, eng muhim jihat shundaki, AQSh mintaqadagi siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik sohalarida o'z ishtirokini kengaytirishni rejalashtirmoqda, bu esa asta-sekin hukmronlik mavqeiga erishish uchun zamin yaratadi. Ushbu reja mintaqaviy bazalarni yaratish va mustahkamlash va ularning G'arb institutlari bilan hamkorligi orqali amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilish mumkinki, "Yangi buyuk o'yin" iqtisodiy, siyosiy va diplomatik raqobat maydoni bo'ladi, chunki Markaziy Osiyo Xitoy, Rossiya va Qo'shma Shtatlar uchun tobora muhim hududga aylanib bormoqda. Xitoy Yaqin Sharq va Yevropaga quruqlikdagi yo'llarni o'rnatishga harakat qiladi.



ekan, Rossiyaning an'anaviy gegemoniga kirib boradi. Qo'shma Shtatlar yangi kelgan davlat sifatida ikkallasiga qarshi muvozanatni saqlash uchun diplomatik kuchini ishga solishga harakat qiladi.

## XULOSA

Xulosa qilish mumkinki, zamonaviy xalqaro munosabat tizimida yangi tendensiyalar paydo bo'lib bormoqda bular:

1. Zamonaviy dunyo tartibotining shakllanish jarayonida Sharq mamlakatlarining ta'siri ham ortib bormoqda. Bu voqelik dunyodagi katta geosiyosiy jarayonlarda ham o'z tasdig'ini topmoqda. Bu jarayonlarda Xitoy va Hindistonning nuqtai nazarlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xitoy iqtisodiy jihatdan dunyodagi ikki eng qudratli davlatdan biri va uchinchi eng kuchli harbiy kuch sifatida dunyo yetakchiligiga davo qilmoqda. Uning xalqaro munosabatlar tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi "One road, one belt" tashabbusi va "tiyanxia" konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek tez orada dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biriga aylanishi kutilayotgan Hindiston ham o'zining xalqaro munosabatlarga alohida geostrategiyalarini tatbiq etib bormoqda. Demak zamonaviy dunyo tartibotida bir qutbli shaklidan ko'p qutbli shakliga o'tish jarayoni davom etmoqda.

2. Markaziy Osiyo doim zamonaviy geosiyosiy jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etadigan hudud sifatida qayt etiladi. Markaziy Osiyo davlatlari Sobiq ittifoq parchalanib, mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng xalqaro munosabatlar tizimida o'ziga xos tendensiyalarni boshdan kechirdi. Bu jarayon asosan Markaziy Osiyoning tabiiy resurslarga boyligi, H.Makkinder nazariyasiga ko'ra Yevrosiyo qit'asining yadrosida joylashganligi bilan mintaqaviy va transmintaqaviy kuchlar raqobat maydoniga aylanganligi bilan belgilanadi.


## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alimov.M.A. Globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari. Toshkent: TDSHI. 2016. – 235.b.
2. Bo'ronov S. Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni o'rnatish jarayonlarida O'zbekiston geosiyosati. – T.: "EFFECT-D". 2021. – 141 b.
3. Madaminova D.I. Xalqaro tashkilotlar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: TDSHI. 2020. – 255.b.
4. Muxammadsidiqov M.M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O'quv qo'llanma, – Toshkent.:TDSHI, 2013.– 136 b.
5. Nye J. Transformational Leadership and US Grand Strategy // Foreign Affairs. 2006. July-August. (<http://www.foreignaffairs.com/articles/61740/ioseph-s-nve-ir/transformational-leadership-and-us-grand-strategy>).
6. Gates R. A Balanced Strategy. Reprogramming the Pentagon for a New Age // Foreign Affairs. 2009. January-February, (<http://www.foreignaffairs.com/articles/63717/robert-m-gates/a-balanced-strategy>).



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

7. Lee, A. Civic ties help shape China's soft power / A. Lee // China Daily. – 2015 [Электронный ресурс]. – (дата обращения: 16.05.2017) URL: [http://chinadaily.com.cn/kindle/2012-02/10/content\\_14578454.html](http://chinadaily.com.cn/kindle/2012-02/10/content_14578454.html).
8. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций / Пер. С англ. Т. Велимеева, Ю. Новикова. М.: ООО «Издательство АСТ», 2003. - 603 с





## **Britaniya mustamlakachiligi davrida Hindistonda zamonaviy Yevropa tibbiyotning paydo bo'lishi, g'arb tibbiyoti va hind tabobatining qiyosiy taxlili.**

*Maxmudov Temirxon Toxirjon o'g'li*

*Toshkent viloyati pedagoglarini yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi  
Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi. [Temirxontarix@mail.ru](mailto:Temirxontarix@mail.ru).*

### **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada Hindistonda Britaniya mustamlakachiligi davrida zamonaviy tibbiyotning paydo bo'lishi va shakillanishi, Zamonaviy hind tibbiyotida Britaniya tomonidan olib borilgan jamoat sog'likni saqlash siyosatining o'rni va bu borada mustamlaka hukumatining olib borgan ishlari . Hindistonda muntazam takrorlanib turadigan epidemiyalarni bartaraf etishda emlash siyosatining joriy etilishi. Hindiston milliy tibbiyotining inglizlar olib kirgan zamonaviy tibbiyot bilan tafovutlari o'rganilgan.

### **Annotation**

In This article described the emergence and formation of modern medicine in India during the British colonial period, the role of the British public health policy in modern Indian medicine, and the work of the colonial government in this regard. Imposition of Vaccination Policy to Control Recurring Epidemics in India. Differences between Indian national medicine and modern medicine introduced by the British empire.

**Kalit so'zlar:** mobil shifoxona, emlash, Chechak, vabo, ommaviy epidemiya, pandit, Ayyurveda, tropik kasalliklar, Bengaliya, bakteriologiya .yopiq kasalxonalar, fuqarolik va harbiy shifohonalar, Qirollik Profilaktik Tibbiyot Instituti

**Key words:** mobile hospital, vaccination, smallpox, cholera, mass epidemic, pandit, Ayurveda, tropical diseases, Bengal, bacteriology. closed hospitals, civil and military hospitals, Royal Institute of Preventive Medicine .

**Kirish.** Hindiston qadimdan dunyo madaniyatining markazlaridan biri hisoblanadi. Ushbu hududda qadimdan hind olimlari aniq va tabiiy fanlar bilan shug'ullanib kelishgan, jumladan hind tibbiyoti ham qadimdan mavjud edi. Lekin ushbu tibbiyot ibtidoiy elementlarga ega bo'lib aniq nazariy va amaliy asoslarga ega emas edi. Mahalliy tabiblar "pandit" deb nomlanib ular ma'lum bir hujjatga yoki rasman tibbiy bilimlarga ega emas edilar. Tibbiyot an'anaviy xalq tabobatiga asoslangan bo'lib ushbu kasb avoldan avlodga o'tib kelar yoki ustoz shogird an'anasiga asoslangan edi. Tabiblar

asosasn ish jarayonida malakaga ega bo'lar va mahalliy shifoxonalarga kelgan bemorlarning aksariyati kasallikdan tuzalmas edi. Ayrim hollarda bemorlar axvoli og'irlashgan holatda uyiga qaytar yoki shifoxonada vafot etar edi. Ushbu holat XIX – XX asrlargacha, yani Hindistonga Yevropaliklar keng miqyosda kirib kelgungacha davom etdi. Lekin zamonaviy tibbiyotning keng tarqalishiga yana yuzlab yillar kerak bo'ldi. Ushbu voqealar haqida yevropalik sayyoxlar, harbiylar va shifokorlar o'z esdaliklarida yozib qoldirishgan.

Masalan 1656 yilda Dehliga kelgan Nikkolao Manuchchining aytishicha hind tabiblari tibbiyotdan hech qanday ma'lumotga ega emasligini aytgan va ular toshma, falaj, apopleksiya (epilepsiya), tomchilar, kamqonlik, malign isitma yoki boshqa qiyin shikoyatlarni davolay olmaganlar va hind shifokorlari faqatgina yengil kasalliklarni davolashgan<sup>1</sup>.

Yevropaliklar Hindistonga kelgach tropik iqlim, issiq va nam havo natijasida askarlar, sayyoxlar, savdogarlar va amaldorlar noma'lum tropik kasalliklar bilan kasallangan. Ushbu holatda yevropaliklar hind tabiblariga murojaat qilgan va xech qanday davo topa oilishmagan. Shundan so'ng Hindistonga yevropa oliy tibbiyot maktab va kollejarini tugatgan malakali shifokorlar kela boshlaydi. Aynan ushbu shifokorlar hindistonga zamonaviy tibbiyotni olib keldilar. Italiyalik olim Nikkolao Manuchchi 1671-78- yillarda Lahorda tibbiyot bilan shug'ullangan, 1678-82- yillarda Avranzebning to'ng'ich o'g'li Shoh olamga shifokor bo'lib xizmat qilgan. Shundan so'ng u 1686-yilda Madrasga keldi va 1716- yilda vafotigacha, ya'ni keyingi 30 yil davomida Hindistonda qolib zamonaviy tibbiyot bilan shug'ullandi. O'z esdaliklarida u Hindistondagi yana bir qancha yevropalik jarrohlarni eslatib o'tadi. Sikanderbeg deb atalgan bir arman, 1679-yilda Avrangobodagi Shoh Alam saroyida xizmat qilgan venetsiyalik jarroh Anjelo Legrenzi, fransuz shifokori Fransua de la Palis, 1673 yilda Hindistonga kelgan ingliz shifokori Frayer va boshqalar. Ular dengiz qirg'oqlari yaqinidagi turli joylarni ziyorat qilgan va mahalliy tibbiy amaliyotlar haqida yozgan.

Ushbu shifokorlar hind tibbiyotini kuzatgan va ushbu kamchiliklarni yozib qoldirgan. Bu davrda Hindistonda epidemiya va ommaviy kasalliklar avj olgan edi. Shunday holatda aholi zamonaviy yevropa tibbiyotidan foydalanishga qo'rqqanlar va hindlarning diniy urf odatlari ham bunga yo'l qo'ymagan. Chunki hind milliy tibbiyoti bo'lgan "Ayurveda" diniy asoslar ustiga qurilgan va tibbiyot elementlari din nuqtai nazariga ko'ra o'rganilgan edi.

Kuzatishlarda hind shifokorlari na pulsni tushunib, na boshqa kasalliklarni davolaganliklarini ta'kidladilar, hind jarrohligi ham "yomon ahvolda" edi. Shuningdek "Bu yerda hozirda tibbiyot avvalgidek barcha da'vogarlar uchun ochiqdir, bu erda hech qanday hokimiyat idoralari yoki rasmiy

---

<sup>1</sup> Crawford, D. G. (1901). "Notes on History of Bengal Medical Service". *The Indian Medical Gazette*. **36** (2): 41–48. [ISSN 0019-5863](#). [PMC 5164019](#). [PMID 29004070](#).

bitiruv, imtihon yoki ularning malakasini tasdiqlovchi hujjat yo'q, lekin hamma tashabbus ko'rsatadi va natijada barcha bemorlar azob chekadi"<sup>2</sup>.

Ingliz shifokori Kareri tomonidan shunga o'xshash sharhlar mavjud u o'z hikoyasida hind shifokorining kichik mahoratga ega ekanligini va ro'za tutish orqali bir qancha kasalliklarni davolagashga harakat qilganliklarini eslatib o'tadi. Boburiylar saroyida xizmat qilgan malakali fransuz shifokori Bernier an'anaviy hind tibbiyoti haqida shunday yozadi "G'ayri yahudiylar (hindlar) anatomiyadan hech narsani tushunmaydilar. Ular hech qachon odamning ham, hayvonning ham tanasini ochmaydilar. Lekin bu mavzuni chuqur bilmaganliklariga qaramay, ular inson tanasidagi tomirlar soni besh mingta ekanligini tasdiqlaydilar. Xuddi ular ularni sinchiklab hisoblagandek". Boshqa bir frantsuz tabibi Delon ham hind tibbiyoti bilimi va uning amaliyotchilari haqida shunday fikr bildiradi: "Majusiy (ya'ni Hindlar) shifokorlar, ularni pandit deb atashadi, anatomiyani o'rganmagan yoki hech qanday bilim yoki tushunchaga ega bo'lmagan odamlardir. Ularning barcha mahorati tor doiradagi bilim bilan chegaralangan bo'lib, ular bemorlarning yoshi, jinsi, yoki kuch-quvvati haqida hech qanday fikr yuritmasdan, ularni o'zboshimchalik bilan taxminan davolaydilar. Ushbu tabiblar davolagan bemorlarning aksariyati halok bo'lishiga olib keladi<sup>3</sup>. Shuning uchun Hindistonga kelgan inglizlar birinchi navbatda zamonaviy tibbiyotni olib kelish uchun juda ko'p xarakter qildilar.

Hindistonda "Yevropa uslubidagi" tibbiyotni o'qitish 1835 yil fevral oyida hukumat qarori qabul qilingan paytdan boshlanadi. Kalkutta tibbiyot kollejining ochilishi bilan an'anaviy tibbiyot tugatildi, ingliz tili qabul qilindi va Yevropa modeliga asoslangan ta'lim berila boshlandi. Bengaliyada g'arb tibbiyot ta'limi boshqa hududlarga qaraganda tezroq tarqaldi. Ushbu ta'lim muassalarida mahalliy aholi, shu jumladan ayollar ham o'qishga kirishga qiziqish bildirishdi. Keyingi yillarda Madras (1835), Lahor (1860), Nagpur (1867) va Patnada (1874) tibbiyot maktablari tashkil etildi. Hisobotlar nomzodlarni sanitariya inspektorlari, shifoxona yordamchilari, armiya tibbiy xizmati bo'ysunuvchilari va mustaqil shifokorlar sifatida tayyorlash orqali qanday diversifikatsiya qilinganligini ko'rsatadi. Harbiy va fuqarolik ehtiyojlari uchun mahalliy shifokorlarni tayyorlash xalq uchun foydali deb hisoblangan, ular ommaviy emlash dasturlari bilan shug'ullangan va yevropaliklarga qaraganda kamroq ish xaqi olar edi<sup>4</sup>.

Tropik kasalliklarga qarshi kurashish uchun bakteriologik tadqiqotlar markazlari ochildi. Ushbu markazlardagi tadqiqotlar natijasida ko'plab vaksina ishlab chiqarish korxonalarini ochildi. 1892-1907 yillarda Agra, Kasauli, Bombay, Guindi va Kunarda bakteriologiya va parazitologiyaning

<sup>2</sup> Garrison, Fielding H. (1914). "The Anglo-Indian Surgeons". *Edinburgh Medical Journal*. **12** (5): 425–432. ISSN 0367-1038. PMC 5271284.

<sup>3</sup> John Fryer, *A New Account of East India and Persia in Eight letter being Nine years Travel began 1672 and Finished 1681*, Delhi, 1985. Pp.114-115. Ibid., p.11

<sup>4</sup> "Medicine - Disease - Medical History of British India - National Library of Scotland". *digital.nls.uk*. Retrieved 2020-08-25



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

yangi davri shakllangan laboratoriyalar ochildi. Hindiston hukumatining Bakteriologiya bo'limi 1905 yilda tashkil etilgan bo'lib, Ushbu tibbiyot hodimlari asosan Hindiston tibbiyot xizmati xodimlaridan iborat edi. Emlash dasturlari, o'quv kasalxonalari, dispanserlar va dala guruhlari sog'liqni saqlash bo'yicha aholiga birinchi yordam ko'rsatish bilan birga tibbiy bilimlarni shakillantirgan.


19-asr o'rtalarida "ilmiy" yoki "kasalxona" tibbiyotining yuksalishi Yevropa va Hindiston tibbiyoti va dori vositalarining tanani butunlay boshqacha tushunishlariga asoslanishini anglatar edi. G'arb tibbiyoti ustun mavqega ega bo'ldi va inglizlar kasallikning sabablarini ilmiy tushunishlari bilan faxrlanib, Yevropacha bo'lmagan tibbiyot shakllariga qarshi kompaniya boshladilar. Ingliz tili Hindistonning rasmiy tiliga aylanganligi sababli g'arb va sharq tibbiyoti o'rtasidagi farq yanada kengaydi. Qrim urushidan keyin hukumat armiya sog'ligi bilan tobora ko'proq shug'ullana boshladi va qo'shindagi kasalliklar soni 1857 yildagi qo'zg'olonga qadar keskin kamayib ketdi. Qirollik sanitariya komissiyasining 1863 yildagi hisobotida qo'shinlar to'rtta asosiy kasallikdan - isitma, dizenteriya, diareya, vabo va jigar kasalliklaridan nobud bo'lganligi aniqlandi. Bu epidemiyalar ko'p odamlarning hayotiga zomin bo'ldi. 1861- yilgi vabo epidemiyasida har 10 askardan birini vafot etdi<sup>5</sup>.

Bir vaqtning o'zida ishchi kuchini himoya qilish va undan foydalanish orqali harbiylarning kasalliklarni nazorat qilishda ishtirok etishi Hindistonda g'arbiy tibbiyotning o'rnatilishida muhim omil bo'ldi. Hindiston Tibbiyot xizmati fuqarolik burchini o'z zimmasiga olgan va harbiy asosda ishlaydigan shifokorlardan iborat edi. XVIII asrda tashkil topgan xizmatning asosiy vazifasi urush paytida armiyani tibbiyot xodimlari bilan ta'minlash edi. O'z xodimlarini targ'ib qilishda va yangi tibbiy yo'nalishlarga amal qilishda sustlikda ayblanganiga qaramay, XX asr boshlariga kelib IMS mahalliy aholida vabo, moxov, chechak va bezgakning oldini olish va davolashda muvaffaqiyatlarga erishdi. Ingliz olimlaridan Ronald Ross, SR Kristofers, D D Kanningem va Leonard Rojerslarning "LidanMS" da xizmat qilish paytidagi tadqiqotlari ayniqsa muhim bo'ldi<sup>6</sup>.

Inglizlar Hindiston tibbiyotida erishgan eng kata yutg'i bu aholini ommaviy emlash bo'ldi. Yuqoridagi tadqiqotlardan kelib chiqib ommaviy epidemiyalarni oldini olish uchun vaksinalar yaratildi va aholini ommaviy emlash boshlandi. Avvallari epidemiyalar tarqalganida bemorlar aholi ichida yoki oilada davolangan. Inglizlar esa epidemiyani oldini olish uchun birinchi marta yopiq kasalxonalar qura boshladilar. Yopiq kasalxonalari venerik va epidemik kasalliklarni davolash uchun yaratilgan maxsus muassasalar edi. Ushbu shifoxonalar Hindistonda 1864- va 1868-yillardagi yuqumli kasalliklar to'g'risidagi qonunlar kiritilgandan so'ng qurila boshlangan. Bu payitda ikki turdagi yopiq kasalxonalar mavjud edi: fuqarolik va harbiy shifoxonalar. Ushbu shifoxonalar

<sup>5</sup> "Drugs - Medical History of British India - National Library of Scotland". *digital.nls.uk*. Retrieved 2020-08-26

<sup>6</sup> Background to the Collection - Medical History of British India - National Library of Scotland". *digital.nls.uk*. Retrieved 2020-08-24







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

ommaviy epidemiyalarni to'xtatish uchun vaktsinatsiyadan foydalana boshlagan va bu ommalashtirilgan. Dastlab Hindistonda chechakka qarshi emlash 1800-yillarning o'rtalaridan 1900-yillarning o'rtalariga qadar amalga oshirilgan. Tarixchilarning ta'kidlashicha, chechak Hindistonda ming yillar oldin paydo bo'lgan bo'lishi mumkin, Jennerian emlashning paydo bo'lishi Britaniya imperiyasini chechakka qarshi emlash imkoniyatini berdi, 1867-yil uchun Santhal Pergunrahda emlash operatsiyalari to'g'risida hisobotda aytilishicha chechak ikki yil ichida Kalkuttada urushlarda o'lgan odamlardan ko'ra kata talofatlarga sabab bo'lgan. Bengaliyada esa aholini ommaviy emlash 1802 yilda lord Robert Klivga topshirildi<sup>7</sup>.

Britaniya aholini emlash jarayonini tashkil etishda Hindistonda Madras, Bengaliya, Birma va Panjob kabi hududlar o'z qo'mondonlik tuzilmalari bilan ajratilgan alohida mintaqalarga bo'lingan. Sanitariya komissari boshchiligidagi sanitariya guruhiga inspektorlar va emlashlar xodimlari yordam berdi. Panjobda emlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar qo'llanilgan, ular orasida dispanserlar va mobil emlash guruhlari mavjud edi. 1905 yilda Madrasda vaktsinatsiya va profilaktika uchun Qirollik Profilaktik Tibbiyot Instituti tashkil etildi. Ushbu tashkilot ko'plab tibbiyot hodimlarini yetishtirib berdi va ommaviy emlashga kata xissa qo'shdi. Ommaviy emlash tez orada o'z natijalarini berib Bengaliya, Madras va Panjob kabi hududlarda ommaviy epidemiyalar to'xtatildi.

20-asrning o'rtalariga kelib Hindistonning barcha hududlarida emlashlarning muvaffaqiyat darajasi 95% dan oshdi. Lekin shunday bo'lsada aholi emlashdan bosh tortar va buning natijasida ko'plab nizoli holatlar yuzaga keldi. Qarshilikning ko'p shakllari mavjud bo'lgan bular: emlash pulini to'lamaslik va oddiy rad etishdan tortib, zo'ravonlik hattoki jismoniy tajovuzlarga qadar yetib borgan. 1922 -yilda Madras shahrida vaktsinatorni o'ldirishga urinish holti yuzaga kelgan. Bundan tashqari aholi emlanganlik uchun to'lanadigan pulga qarshi chiqdi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun Bengaliyada bepul emlash joriy etildi. Bengaliyada 1880-yildagi Emlash to'g'risidagi qonun qabul qilindi va bu qonun bolalar uchun emlashni tobora majburiy qilib qo'ydi<sup>8</sup>. Shundan so'ng butun Hindiston bo'ylab shunday qonunlar boshqa mintaqalariga ham tarqaldi.

Hindistonda zamonaviy tibbiyot shifoxonalari paydo bo'la boshlagach, hind milliy tabobati va mahalliy tabiblar faoliyati cheklana boshladi. Buning uchun mahalliy tabiblarga malaka oshirish va tibbiy ma'lumotga ega bo'lish talab etildi. Hukumat olib borgan siyosatga qaramay mahalliy tabiblar ham o'z faoliyatini davom ettirdi. Sababi Hindistondagi aholi soniga zamonaviy shifokorlar mutanosib emas edi. Ular butun mamlakatni qamrab ola olmadilar. Mahalliy aholi yangi tibbiyotni qabul qilishdan bosh tortdi chunki bunga hinduiylik va buddaviylik dini yo'l bermas edi. Hindiston mustaqil bo'lganidan so'ng ham ushbu jarayon to'xtamadi. Inglizlardan qolgan tibbiyot

<sup>7</sup> Dysert, Anna. "Spotlight on: Medical History of British India | De re medica". Retrieved 2020-08-25.

<sup>8</sup> "Medicine - Disease - Medical History of British India - National Library of Scotland". *digital.nls.uk*. Retrieved 2020-08-25





merosidan foydalanib, Hindiston o'zining zamonaviy tibbiyotini yaratishga kirishdi. Lekin aholi mahalliy tibbiyotni afzal ko'rdilar. 2008 - va 2018 - yillardagi statistika ko'rsatkichlarida Hindistondagi odamlarning 80 foizi faqat Ayurvedadan yoki an'anaviy G'arb tibbiyoti bilan birgalikda foydalanganligi ko'rsatib o'tilgan. 1970 yilda Hindiston parlamenti Ayurveda amaliyotchilarining malakasini standartlashtirish, uni o'rganish va tadqiq qilish uchun akkreditatsiyadan o'tgan muassasalarni taqdim etishga qaratilgan Hindiston Tibbiyot Markaziy Kengashi qonunini qabul qildi. 1971 yilda Hindistondagi Ayurveda oliy ta'limni nazorat qilish uchun Ayurveda, Yoga va Naturopatiya, Unani, Siddha tibbiyoti va Gomeopatiya (AYUSH), Sog'liqni saqlash va Oila farovonligi vazirligi qoshida Hind Tibbiyotining Markaziy Kengashi (CCIM) tashkil etildi<sup>9</sup>. Shundan so'ng hukumat milliy tibbiyotni o'z ananalarini yo'qotmagan holatda zamonaviylashtirishga qaror qildi. 2013 yil holatiga ko'ra, Hindistonda an'anaviy Ayurveda tibbiyoti bo'yicha darajalarni taklif qiluvchi 180 dan ortiq o'quv markazlari mavjud<sup>10</sup>. Ushbu milliy tibbiyotni shakillanishi va tartibga solinishi uchun, uni zamonaviy tibbiyot bilan uyg'unlashtirish uchun tashlangan qadamni mustaxkamlash uchun kutubxonalar va milliy markazlarda taxsil olgan tabiblarga litsenziya berish tartibi joriy etildi. Ushbu yo'nalishda tadqiqot va o'qitish natijasida milliy tibbiyot bo'yicha mutaxassislar (PHD) darajasiga qadar o'qishadi. Shuningdek sertifikat olgan bitiruvchilar milliy shifoxonalarga ishga joylashadi. 2014 yil 9-noyabrda Hindiston AYUSH vazirligini tuzdi<sup>11</sup>.

**Xulosa.** Ushbu maqoladan xulosa o'rnida XIX-XX asrlar mobaynida Britaniya mustamlakachiligi davrida Hindistonda zamonaviy meditsina paydo bo'ldi va shakillandi. Hind tibbiyotiga ma'lum bo'lmagan emlash, yopiq kasalxonalar va tropik kasalliklarni davolash uchun bakteriologiya fani shakillandi. Ushbu jarayonlar bevosita bugungi Hindiston tibbiyotiga asos bo'ldi.


#### Foydalailgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Crawford, D. G. (1901) "Notes on History of Bengal Medical Service". *The Indian Medical Gazette*. **36** (2):41–48. ISSN 0019-5863. PMC 5164019. PMID 29004070.
2. Garrison, Fielding H. (1914). "The Anglo-Indian Surgeons". *Edinburgh Medical Journal*. **12** (5): 425–432. ISSN 0367-1038. PMC 5271284.
3. John Fryer, *A New Account of East India and Persia in Eight letter being Nine years Travel began 1672 and Finished 1681*, Delhi, 1985. Pp.114-115. Ibid., p.11
4. "Medicine-Disease-Medical History of British India-National Library of Scotland". *digital.nls.uk*. Retrieved 2020-08-25

<sup>9</sup> Bansal, Samarth (18 July 2016). "WHO report sounds alarm on 'doctors' in India". *The Hindu*. ISSN 0971-751X. Archived from the original on 6 February 2022. Retrieved 6 February 2022.

<sup>10</sup> "Introduction to Central Council of Indian Medicine". Central Council of Indian Medicine (CCIM). Archived from the original on 18 December 2014.


<sup>11</sup> "National Ayurveda Day – Vikaspedia". *vikaspedia.in*. Archived from the original on 20 December 2018. Retrieved 20 December 2018





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

5. "Drugs - Medical History of British India - National Library of Scotland". *digital.nls.uk*. Retrieved 2020-08-26
6. Background to the Collection - Medical History of British India - National Library of Scotland". *digital.nls.uk*. Retrieved 2020-08-24
7. Dysert, Anna. "Spotlight on: Medical History of British India | De re medica". Retrieved 2020-08-25.
8. "Medicine - Disease - Medical History of British India - National Library of Scotland". *digital.nls.uk*. Retrieved 2020-08-25
9. Bansal, Samarth (18 July 2016). "WHO report sounds alarm on 'doctors' in India". *The Hindu*. ISSN 0971-751X. Archived from the original on 6 February 2022. Retrieved 6 February 2022.
10. Abidova, D., Mukhamedova, M. G., Uzokov, J. K., & Abdullaeva, G. J. (2023). Predictors for arterial hypertension in middle aged adults. *European Journal of Cardiovascular Nursing*, 22(Supplement\_1), zvad064-107.
11. Арнопольская, Д. И., & Мухамедова, М. Г. (2019). Опыт применения ривароксабана у онкологических больных. *Research'n Practical Medicine Journal*, 6(Спецвыпуск), 48-48.
12. Mukhamedova, M. G., & Nasirova, G. A. (2019). Pharmacological Treatment Strategies In Metabolic Syndrome. *British Journal of Medical & Health Sciences (BJMHS)*, 1(3).
13. "Introduction to Central Council of Indian Medicine". Central Council of Indian Medicine (CCIM). Archived from the original on 18 December 2014.
14. "National Ayurveda Day – Vikaspedia". *vikaspedia.in*. Archived from the original on 20 December 2018. Retrieved 20 December 2018



## O‘ZBEKISTONDA JINOYAT QONUNCHILIGI TARIXI (XIX ASR O‘RTALARI VA XX ASRNING 90-YILLARI)

*Pulatov Bekzod Adilbaevich*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining*

*Toshkent viloyati Xalq qabulxonasi bosh mutaxassisi*

**Annotatsiya.** Jinoiy sud sohasi O‘zbekiston mustaqillikka erishishi munosabati bilan hamda demokratik, huquqiy, dunyoviy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan yo‘lning tanlanishi, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tilishi, xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan shaxsning huquq va erkinliklari tan olinishi munosabati bilan tubdan qayta isloh etilayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Bu shu bilan izohlanadiki, yangi, mustaqil, demokratik sud-huquq tizimisiz mamlakatda to‘laqonli ijtimoiy, iqtisodiy va ma‘naviy hayotni tasavvur etish mumkin emas. Bu, ayniqsa, ma‘muriy-buyruqbozlik boshqaruv tizimidan voz kechish hamda rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega, qonun ustuvorligi, shaxs, oila, jamiyat, davlat huquq va manfaatlarining ta‘minlanishi, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, qonunga itoatkor fuqarolarni tarbiyalash, ushbu davlatning eng muhim maqsadi va vositasi hisoblanadigan chin ma‘noda demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish haqida qaror qabul qilganidan so‘ng katta ahamiyat kasb eta boshladi. Mustaqil O‘zbekistonning jinoiy qonunchiligini isloh etish bir masalaga oydinlik kiritishni talab qilar edi: yangi qonunchilikni yaratish yoxud amaldagi qonunlarni takomillashtirish. Ushbu masala bejizga ko‘tarilmagan edi. Zamonaviy huquqiy negizni yaratish (eng asosiysi, insonlar ongidan eski totalitar tuzumning stereotiplarini chiqarib tashlash) orqali yangi davlatchilikni barpo etishga qaratilgan siyosiy irodani amalga oshirish zarur bo‘lgan o‘tish jarayoni sharoitlarida, qonunchilikni takomillashtirish nisbatan afzal edi, zero bu yangi sharoitlarda ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi hamda ularning jinoyathuquqiy muhofaza qilish zaruriyatini prognozlashtirishda xatolarning oldini olishga imkon berar edi.

**Kalit so‘zlar:** Jinoiyat qonunchiligi tarixi, jamiyat, jinoiyat kodeksi, jinoiy javobgarlik.

### **KIRISH**

Rossiya tomonidan Markaziy Osiyo bosib olungunga qadar mazkur mintaqada uchta mustaqil davlat shakllangan bo‘lib, Buxoro amirligi, Qo‘qon xamda Xiva xonliklarida shariat qonunlariga amal qilingan. Rossiya istilosi tufayli Qo‘qon xonligi tamoman tugatilib, harbiy idora qilishga asoslangan Turkiston General-gubernatorligi tuzildi<sup>1</sup>. Qo‘qon xonligining hududi Rossiya imperiyasining

<sup>1</sup> Bakirov X Chor Turkistonida sud, shariat va odat. -T.: «Fan», 1967, 3-bet.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

gubernasi sifatida Rossiyaga qo‘shib olindi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi o‘z mustaqilligini yo‘qotgan bo‘lsada, ular rasmiy jihatdan saqlab qolindi va Rossiya koloniyasiga aylantirildi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Markaziy Osiyoni bosib olganidan keyin, chorizm jahon kolonial siyosatining tajribalaridan kelib chiqib hamda mahalliy xalqning qaxrini kuchayishidan cho‘chib, amalda bo‘lgan ba’zi qonunlarni xamda sud sifatida faoliyat olib borayotgan qozilarni saqlab qoldi. Qozilar shariat qonunlari asosida ishlarni ko‘rib borsada biroq, ularning faoliyati cheklangan bo‘lib, asosan fuqarolik ishlarini ko‘rar, jinoyat ishlaridan esa jamiyat uchun deyarli xavf tug‘dirmaydigan mayda jinoyatlarni masalan, mayda o‘g‘rilik, haqorat qilish, badanga yengil shikast yetkazish kabi jinoyatlarni ko‘rganlar. 1865 yilda «Turkiston viloyatini idora qilish haqida vaqtincha Nizom» qabul qilinib, unga asosan, Turkistondagi barcha ma‘muriy idoralar va sud Turkiston harbiy gubernatoriga bo‘ysundirildi. Mayda jinoyatlardan boshqa barcha jinoyatlar Chor xukumatining sudlari yoki harbiy sudlarda ko‘rib, Chor Rossiyasi jinoyat qonunlari asosida hal qilish boshlandi.

Chor Rossiyasi Markaziy Osiyoda ma‘lum darajada shariat qonunlarini saqlab qolish yo‘li bilan, shariat bo‘yicha kolonial hokimiyat va idoralarga xalqni bo‘ysundirish uchun foydalangan. Ayniqsa, davlat soliqlarini undirish masalasida shariat qonunlaridan keng foydalanib kelishgan.

Turkistonni qozoq va qirg‘iz millatiga mansub aholisi yashaydigan joylarda joriy etilgan yangi Nizomga binoan, biylar sudi tashkil etildi. Biylarning jinoyat ishlarini kurish huquqi chegaralangan bo‘lib, ular o‘z ishlarini odat huquqiga asosan olib borganlar. Biy sudlari tomonidan shaxsga qarshi, mulkka qarshi (talonchilik va boskinchilikdan tashqari oilaviy mojarolardan kelib chiqadigan jinoyatlar, musulmon diniga qarshi sodir qilingan jinoyatlarnigina ko‘rganlar. Boshqa barcha jinoyatlar Rossiya imperiyasi jinoyat qonunlari asosida xal qilingan.

Odat huquqi qonun tariqasida e‘lon qilinmay, og‘zaki, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan tartiblardan iborat bo‘lgan.

1917 yil Oktabr to‘ntarishidan keyin xam qozi va biy sudlari vaqtincha saqlab qolindi.

Buxoro amirligi va Xorazm xonligi Sovetlar bosqini tufayli 1920 yili tugatildi va Sovet davlati tarkibiga kiruvchi Buxoro Xalq Respublikasi va Xorazm Xalq Respublikasi tashkil qilindi, Bu davlatlarda shariat qonunlariga amal qilish to‘xtalib, to‘lasincha sovet qonunlari joriy qilindi.

1922-yil 24-mayda RSFSRning Jinoyat kodeksi qabul kilindi va bu Kodeksning Turkiston Respublikasida ham amal qilinishi to‘g‘risida 1922-yil-21 iyulda Turkiston Markaziy Ijroiya qo‘mitasi tomonidan qapop qabul qilindi. Bu kodeks Buxoro va Xorazm Xalq Rsspublikalari hududiga xam joriy kilindi<sup>2</sup>.

1924-yil SSSR tashkil etilib, O‘zbekiston ittifoqdosh respublika sifatida SSSR tarkibiga kirdi. SSSR tashkil etilganidan keyin 1924-yil 31-oktabr “SSR Ittifoqi va Ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunlari Asosiy qoidalari” qabul qilinib, unda jinoyat huquqi Umumiy qismining muhim qoidalari

---

<sup>2</sup> Сулаймонопа Х.С. История советского государства и право Узбекистана. II жилд. - Тошкент: Ўз ССР ФА, 1960. 405-406 ст.






bayon qilindi. Asosiy qoidalar Umumittifoq qonuni bo'lib, barcha ittifoqdosh respublikalar hududida birday amal qilish boshlandi.

1926-yil 16-iyunda O'zbekiston SSRning birinchi Jinoyat kodeksi qabul qilinib, 1926-yil 1-iyuldan amalga kiritildi. (Bu Kodeks o'sha davrda Tojikiston ASSR da ham amal qilar edi). Ushbu Jinoyat kodeksi Umumiy va Maxsus qismlardan iborat bo'lib, Umumiy qismi to'rt bo'limdan, Maxsus qismi o'n bobdan iborat edi.

Ushbu kodeks umumittifoq qonuni hisoblangan, 1924-yil 31-oktabrda Qabul qilingan «SSR Ittifoqi va Ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunlari Asosiy qoidalar»ga muvofiq ravishda qabul qilingan. MUHOKAMA

O'zbekistonning bu jinoyat kodeksi 1960-yil 1-yanvargacha amalda bo'ldi. Ushbu jinoyat kodeksi asosan davlatni, shu davrda mavjud bulgan davlat tuzumini himoya qilishga, usha zamon nuqtai nazaridan aytganda sinfiy dushmanlarga qarshi qaratilgan. 1950 yillarning oxiriga kelib, Sovet davlati o'zining yangi rivojlanish bosqichiga kirgan, usha davr nuqtai nazardan aytganda tepuatorlar (mulkdorlar) sinf sifatida tamoman tugatilgan, jamiyat a'zolari ishchi-dehqon, ziyolilardan, ya'ni mexnatkashlardan iborat edi. Shunga ko'ra qonunlarni, shu jumladan jinoyat qonunlarini qayta ko'rib chiqish zarurati kelib chiqib, 1958-yil 25-dskabrda Umumittifoq jinoyat qonuni hisoblangan uchta qonun qabul qilindi.

«SSR Ittifoqi va Ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunlari Asoslari» jinoyat huquqining Umumiy qismidan iborat bo'lib, barcha Ittifoqdosh respublikalar o'zlarining Jinoyat kodekslarini shunga muvofiq ravishda ishlab chiqishlari va qabul qilishlari kerak edi. Davlatga qarshi va harbiy jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilovchi Umumittifoq, qonunlari hech qanday o'zgarishsiz Ittifoqdosh Respublikalar Jinoyat kodeksiga kiritilishi shart bo'lgan. Bu qonunga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritishga Ittifoqdosh respublika haqli emas edi. Bulardan tashqari, UmumIttifoq qonuni sifatida SSR Ittifoqi manfaatlariga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilovchi SSSR Oliy Sovet Prezidumining farmonlari chiqarilib, bular ham UmumIttifoq akti hisoblanib, ittifoqdosh respublikalar hududida bir vaqtda va bir xilda amal qilar edi. Bularga, masalan, «Zurlab nomusga tekkanlik uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi 1962 yil 20 fevral farmoni, «Poraxurlik uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish tug'risida»gi 1962 yil 20 fevral farmoni, «Bezorilik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi 1966 yil 26 iyul farmoni va boshqalar. Agar Ittifoqdosh respublikaning Jinoyat kodeksining moddasi o'sha farmonga muvofiqlashtirilsa, JKning o'sha moddasini faqat umumittifoq akti asosidagina o'zgartirish mumkin bo'lgan. Yuqorida aytganlardan ko'rinib turibdiki, sobiq SSSR rasmiy jihatdan federativ davlat hisoblangan bo'lsada, aslida unitar davlat sifatida boshqarilar edi. Har bir sovet fuqarosi, masalan, Kareliyada yashovchi fin yoki Moskvada yashovchi rus, Chukotkada yashovchi chukcha yoki Turkmaniston cho'lida yashovchi turkman, O'zbekistonda yashovchi o'zbek yoki Belorusiyada yashovchi belorus bo'lishidan qat'iy nazar, ularning tili, dini, urf-odatlar, ana'analari, tarixiy xususiyatlari taraqqiyot darajasi va hokazo xususiyatlaridan qat'iy nazar, kommunizm quruvchisining axloq kodeksida belgilangan xususiyatlarga ega bo'lishi kerak edi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023


Umumittifoq qonunlari hisoblangan yukorida aytilgan qonunlar asosida 1959 yil 21-mayda O'zbekistonning yangi Jinoyat kodeksi qabul qilinib, 1960-yil 1-yanvardan amalga kiritildi. Bu JKning umumiy qismi to'rt bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limida jinoyat qonuniinng umumiy qoidalari, ikkinchi bo'limi jinoyat tug'risida, uchinchi bo'lim jazo xaqida, to'rtinchi bulm jazo tayinlash va jazodan ozod qilish to'g'risidagi normalardan iborat bo'lgan. Ushbu JK 1995-yil 1 aprelgacha amalda bo'ldi. Agar O'zbekistanning 1926 yili qabul qilingan JKda analogiyadan foydalanilgan bo'lsa, 1959-yil 21-mayda qabul qilingan JKda analogiyadan tamoman voz kechildi. Jinoyatchilikning sabablari tugrisidagi sobiq sovetlar davrida marksizm nazariyasiga asoslangan insoniyatning qarama-qarshi sinflarga bo'linishidan kelib chiqilar edi.

#### NATIJA

Sotsializmda sotsialistik ijtimoiy munosabatlar rivojlanib borgan sari, jamiyat a'zolar barkamol bo'lib boradi va natijada jinoyatchilik borgan sari kamayib boradi degan nazariya hukmron edi. 1959-yili qabul qilingan JK da shu nuqtai nazardan ishlab chiqilgan. Aslida esa sobiq Sovet itgifoqida sotsialistik ijtimoiy munosabatlar shakllanmay jamiyatda ma'muriy buyruqbozlik tizimi xukmron bo'lgan. Bunday sharoitda jinoyatchilik kamaymadi, sotsialistik ijtimoiy munosabatlar rivojlanmadi. Jamiyatning inqirozi chuqurlashib bordi. Agar hozirgi bozor iqtisodiyoti tizimida mulkdorlar sinfini shakllaitirish ochiiqdan-ochiq e'lon qilingan va jamiyatda qonuniy hodisa hisoblangan sari u davrda bunday holat yashirin bo'lib, o'z-o'zidan jinoyatni tug'dirib turar edi. Hatto insonlar o'rtasida asrlar osha bo'lib turgan iqtisodiy munosabatlar - shaxslarning xususiy savdo (chaykovchilik) bilan shug'ullanishi, xususiy shaxslarning mug'ombirlik faoliyati bilan shug'ullanishini qonun yo'li bilan taqiqlab qo'yilganliginnng o'zi o'z-o'zidan jinoyatchilikni tug'dirib turaverar edi U'sha davrdagi boshqaruv va xo'jalik yuritish tizimi o'z o'zidan mansabdorlik jinoyatlarining xo'jalik jinoyatlarining ko'payib ketishiga sabab bo'lgan. Yirik rus kriminolog olimi V.V. Luneevning keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, XX asrning 60-yillarida sobiq Sovet davlatida g'araz maqsadlarda sodir etiladigan jinoyatlar 40-45 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1989 yil bu kursatkich 70 foizga ko'tarildi<sup>3</sup>. O'sha davrdagi mavjud boshkaruv tizimi jinoyatchilikning o'sishini to'xtatishga qodir bo'lmay qoldi. Natijada jinoyat qonuni orqali jinoyatchilikning o'sishini to'xtatishga harakat qilindi. 1961-1991 yillar mobaynida O'zbekiston JKga 350 dan ortik qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritildi. Ammo jamiyatning inqirozi borgan sari chuqurlashib, Sovet davlati 1991 yilga kelib o'z hayotini tugatdi, sobiq; sovet Ittifoqi tarkibiga kiruvchi Ittifoqdosh respublikalar ichida birinchilardan bo'lib O'zbekiston o'z mustakilligini e'lon qildi. O'zbekiston bozor iqtisodiyoti tizimiga asoslangan huquqiy demokratik jamiyat qurish yo'liga o'tdi.

#### XULOSA

<sup>3</sup> Лунеев В.В. Преступность в СССР. Основные тенденции и закономерность. // Советское государство и право, 1991, -№8,—С.,94.






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

Mustaqil O‘zbekistonning yangi qonunlarini ishlab chiqish va qabul qilish boshlandi. 1992 yil 8 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi barcha soxa, shu jumladan yangi JKni ishlab chiqish va qabul qilish uchun tula sharoit yaratib berdi. 1994 yil 22 sentabrda mustaqil O‘zbekistonning birinchi JK qabul qilinib, 1995-yil 1-apreldan amalga kiritildi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak 127 yil qaramlikdan keyin birinchi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksi qabul qilindi.

#### REFERENCES

1. Bakirov X Chor Turkisgonida sud, shariat va odat.-T.: «Fan», 1967,3-bet.
2. Rasulov O. X. Sovet jinoyat huquqi. Umumiy qism. - Toshkent: O‘qituvchi. 1969, -B.26.
3. Сулаймонопа Х.С. История советского государства и право Узбекистана. III жилд. - Тошкент: Ўз ССР ФА, И960. 405-406 ст.
4. Лунеев В.В. Преступност в СССР. Основные тенденции и закономерност. // Советское государство и право, 1991, -№8,—С.,94.





## КОНСТИТУЦИЯ КАК ГАРАНТ СОБЛЮДЕНИЯ ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕКА

*Бекзад Адилович Пулатов*

*Ведущий специалист Народной приёмной Президента  
Республики Узбекистан по Ташкентской области,  
самостоятельный соискатель Академии государственного  
управления при Президенте Республики Узбекистан по  
специальности «Конституционное право, административное  
право, финансовое и таможенное право».*

*E-mail: [viloyatqabulxonasi@mail.ru](mailto:viloyatqabulxonasi@mail.ru)*

**Аннотация.** Конституция Республики Узбекистан, гарантии соблюдения прав и свобод человека. Глубокая продуманная, стратегия государство в рассмотрении обращении граждан, связанный с реализацией и защитой комплекса основных прав и свобод человека и гражданина. Обеспечение субъективного права граждан на обращение в органы государственной власти и местного самоуправления одна из гарантий народного суверенитета и связующее звено между народом и его представителями.

**Ключевые слова:** Конституционно-правовой институт, обращения граждан, Народные приёмные, власт народа, обращения физических и юридических лиц.

**Annotation.** The Constitution of the Republic of Uzbekistan - guarantees of observance of human rights and freedoms. A deeply thought-out strategy of the state in considering the appeal of citizens, associated with the implementation and protection of a complex of fundamental rights and freedoms of man and citizen. Ensuring the subjective right of citizens to apply to state and local government bodies is one of the guarantees of people's sovereignty and a link between the people and their representatives.

**Keywords.** Constitutional and legal institution, citizens' appeals, People's receptions, power of the people, appeals of individuals and legal entities.

Конституция Республики Узбекистан, принятая 8 декабря 1992 года, стала поистине правовой и законодательной базой построения независимого, суверенного демократического государства, формирования в стране гражданского общества, где высшей ценностью становятся интересы, права и свободы человека, обеспечивается верховенство закона. Права граждан на обращения в органы государственной власти закреплены в Основном Законе нашей страны, как и во многих конституциях стран мира, идет процесс их обеспечения нормами международного права. При этом обращается основное внимание на создание реальной возможности обжалования действий и решений органов государственной власти и их должностных лиц, нарушающих права граждан, как на национальном, так и на



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

межгосударственном уровне. Принципы и положения, долгосрочные цели и задачи, заложенные в Конституции, а также глубоко продуманная стратегия развития явились надежным и решающим фактором, определившим коренные реформы во всех сферах, достижениях Узбекистаном рубежей, которыми страна может по праву гордиться. Актуальность рассмотрения этих проблем накануне Дня принятия нашей Конституции и формирования конституционного права на обращения состоит и в том, чтобы проанализировать накопленный опыт, раскрыть через обращения граждан становление новых правоотношений личности и государства, учитывающих произошедшие изменения в системе ценностей в современном обществе. Важно с позиций конституционного и других отраслей права совершенствовать конституционно-правовой институт, связанный с реализацией и защитой всего комплекса основных прав и свобод человека и гражданина. Сегодня, реализуя конституционное право на обращение в органы государственной власти, граждане вступают в устойчивую политико-правовую связь с государством, состоящую из их взаимных прав и обязанностей.

В нашем законодательстве основным законом, регулирующим правоотношения в сфере реализации права граждан на обращения в органы государственной власти и местного самоуправления, а также порядок их рассмотрения, является Закон «Об обращениях физических и юридических лиц», положения которого соответствуют международным стандартам в этой сфере, и прежде всего Модельному закону СНГ «Об обращениях граждан и юридических лиц». Он развивает положения статей 32, 33, 43 и 44 Конституции, закрепляющей право граждан на обращения в качестве субъективного личного и политического права, позволяющего как защитить нарушенные права человека, так и участвовать в управлении делами государства. Кроме законодательных актов, регулирующих отдельные вопросы рассмотрения обращений граждан, таких как запрос информации и заявление о предоставлении государственных услуг, приняты и другие законы, регламентирующие условия и порядок рассмотрения обращений граждан в различных органах государственной власти в зависимости от их функций и компетенции. К примеру, закон об Уполномоченном по правам человека содержит положение, согласно которому гражданам, иностранным гражданам и лицам без гражданства предоставляется возможность обращения к Уполномоченному по правам человека с жалобами на решения или действия (бездействия) государственных органов, органов местного самоуправления, должностных лиц, государственных служащих, в случае если заявитель ранее обжаловал эти решения или действия в административном или судебном порядке, но не согласился с решениями, принятыми по жалобам. Таким образом, конституционно-правовое регулирование права на обращение граждан в органы государственной власти осуществляется на двух уровнях: международном, национальном и региональном. Всю систему законодательства об





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

обращениях граждан можно разделить на четыре большие группы и представить в следующем виде:

- Конституция Республики Узбекистан;

- специальные конституционные законы об органах государственной власти в зависимости от особенностей их деятельности, подзаконные акты развивающие, конкретизирующие их положения;

- Закон «Об обращениях физических и юридических лиц» и развивающие, конкретизирующие его положения подзаконные акты органов государственной власти и управления в зависимости от их полномочий и функций;

- специальные законы, регламентирующие порядок рассмотрения отдельных обращений граждан (запросов информации и заявлений о предоставлении государственных услуг);

- нормативно-правовые акты, устанавливающие дополнительные гарантии права на обращение.

Анализ национального законодательства показывает его соответствие международным стандартам в сфере обращений граждан, а также то, что законодатель рассматривает данное право как гарантию прав и свобод человека и как институт прямой демократии, позволяющий гражданам участвовать в управлении делами государства в соответствии со статьёй 32 Конституции. В определении ориентаций деятельности органов государственной власти с обращениями граждан ведущую роль играет принцип разделения властей, закреплённый в статье 11 Основного Закона, конкретные полномочия и функции каждого из них. Анализ деятельности органов государственной власти по данному вопросу позволяет выделить две группы направлений: 1. Общие, присущие всем органам государственной власти: предоставление информации о своей деятельности; мониторинг мнения населения по наиболее значимым государственным вопросам; сбор и анализ информации по совершенствованию деятельности органов государственной власти; содействие реализации и защите прав и свобод человека и гражданина. 2. Специальные направления, зависящие от компетенции и функций органов государственной власти: законодательные органы: информационно-аналитическая работа по совершенствованию законодательства; исполнительные органы: работа с обращениями по предоставлению государственных услуг; помощь в реализации прав и свобод физических и юридических лиц; защита и восстановление прав и свобод граждан; - судебные органы: помощь в реализации, защите и восстановлении прав и свобод человека и гражданина. Рассматривая право граждан на обращение, которому корреспондирует обязанность органов государственной власти принять обращение к рассмотрению, необходимо определить основные принципы, конституционные начала, на которых строится работа государственных органов с ними. Следует отметить, что на этот процесс распространяются все те принципы, которые содержатся во II главе Конституции «Народовластие» и согласно статьи 7 «народ является единственным источником власти» и означает, что вся власть в нашем государстве





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

принадлежит народу, который её осуществляет как непосредственно, так и через своих представителей. В данном случае обращения граждан и организаций можно рассматривать в двух аспектах. Во-первых, в демократическом государстве, избирая своих представителей в органы государственной власти, народ передает им часть своих полномочий на осуществление власти в государстве. Предполагается, что представители должны действовать не только от имени народа, но и в его интересах. При этом обращения граждан играют роль общественного контроля за деятельностью этих органов. Во-вторых, непосредственная демократия, одним из институтов которой является право на обращения, выступает важным средством реализации самоуправления народа, создающим условия для участия граждан в обсуждении и принятии законов государства и проведении их в жизнь.

Один из принципов правового государства получил своё непосредственное закрепление в статье 13 Конституции, в которой говорится о том, что «высшей ценностью является человек, его жизнь, свобода, честь, достоинство и другие неотъемлемые права» и оно обязано не только признавать и соблюдать их, но и защищать. Таким образом, у государства в лице органов государственной власти и должностных лиц возникает триединая обязанность по признанию, соблюдению и защите прав. В этой связи важно отграничить схожие по смыслу, но не тождественные понятия «признание прав и свобод человека», «соблюдение прав и свобод человека» и «защита прав и свобод человека». Проблема отграничения одного понятия от другого заключается в том, что современное законодательство не приводит дефиниций данных правовых категорий, попеременно используя при описании обязанности государства по предупреждению нарушения прав и свобод человека слова «признание», «соблюдение», «защита», «охрана» и «обеспечение». Конституция указывает, что признание, соблюдение и защита прав и свобод человека и гражданина – обязанность государства. По нашему мнению, в совокупности признание, соблюдение, охрана и защита прав и свобод образуют правовую категорию обеспечения прав и свобод человека и гражданина. При этом на первый план должно выступать именно соблюдение прав и свобод государством, поскольку признание прав и свобод человека выразилось в их конституционном закреплении, а защита прав и свобод человека и гражданина – это крайняя форма обеспечения прав и свобод человека и гражданина, поскольку применяется она для ограничения нарушений при их соблюдении.

Основными задачами Народных и Виртуальной приёмных определены:

- создание условий для безусловного осуществления конституционных прав граждан на обращение к Президенту, в Парламент, Администрацию Президента, Правительство, органы государственной власти и управления, судебные, правоохранительные и контролирующие органы, местные органы самоуправления, в другие государственные, общественные организации и органы хозяйственного управления;







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

- организация полного, объективного и своевременного рассмотрения поступающих в Народные и Виртуальную приёмные обращений в строгом соответствии с Законом «Об обращениях физических и юридических лиц»;
- организация прямого диалога с населением, обеспечение деятельности качественно новой и эффективной системы работы с обращениями физических и юридических лиц, направленной на полнокровную защиту их прав и свобод, законных интересов;
- осуществление систематического мониторинга и контроля за рассмотрением обращений по принадлежности органам государственного и хозяйственного управления;
- проведение приёма представителей физических и юридических лиц с участием должностных лиц органов государственной власти и управления, в том числе посредством выездных приёмных и видеоконференцсвязи;
- широкое использование современных информационных и коммуникационных технологий путём внедрения и ведения единой электронной информационно-аналитической системы за регистрацией, обобщением, систематизацией, рассмотрением и контролем поступающих в Народные и Виртуальную приёмные обращений.

Обеспечение субъективного права граждан на обращение в органы государственной власти и местного самоуправления одна из гарантий народного суверенитета и связующее звено между народом и его представителями. Обращения выполняют важную функцию обратной связи между народом и государством, позволяющую доносить мнение первого по актуальным вопросам до органов государственной власти. Кроме того, информация о наиболее насущных проблемах, недостатках, содержащихся в обращениях, способствует принятию своевременных мер по их устранению и недопущению в будущем.

Обращение должны рассматриваться как средство осуществления и охраны прав личности. В них граждане могут охватить широкий круг вопросов, связанных с интересами и правами, как всего общества, так и отдельного гражданина. В связи с быстрой эволюцией общества в различных направлениях деятельности все больше обращений в правоохранительные органы, агентства по оказанию услуг населению, в которых специалисты должны профессионально вести работу с гражданами, используя для этого актуальные нормативные документы и современные информационные технологии. Обращения приносят пользу не только для граждан, органа власти, но и для субъекта в целом, указывая на «узкие места» в организации работы, и, тем самым, позволяя найти пути её совершенствования. Высокая скорость и качество разрешения проблем, содержащихся в обращениях, в значительной мере способствует удовлетворению нужд и запросов граждан, снятию напряженности в обществе, повышению авторитета органов власти, а также укреплению их связи с населением. Дальнейшая модернизация института обращений граждан должна проходить в два этапа на первом - надлежит добиться более эффективного контроля за рассмотрением обращений, пересмотра правил делопроизводства, унификации нормативной базы, на втором - добиваться





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

прозрачности всей системы работы с обращениями с использованием современных информационных технологий. Каждый должен чувствовать свою сопричастность судьбе государства, но добиться этого можно только тогда, когда механизмы реального участия граждан в процессе принятия политических решений станут функционировать регулярно и эффективно, когда граждане смогут постоянно пользоваться коммуникационными каналами, одним из которых (и весьма значимым) являются обращения граждан. Каждый сайт органа государственной власти обязан предоставлять гражданину возможность через «интернет-приёмную» направить свое обращение в электронном виде и получить ответ в установленные законодательством сроки. В целях совершенствования организации работы с обращениями граждан в органы государственной власти необходимо повышать уровень информационной открытости данной работы, идти по пути минимизирования бюрократических подходов, поддерживать нормативно-правовую и методическую базу в актуальном состоянии, активно внедрять в деятельность органов государственной власти современные информационные технологии, а также на постоянной основе осуществлять переподготовку и повышение квалификации государственных гражданских служащих, повышать их ответственность за работу с обращениями граждан.

#### References

1. Мирзиёв Ш.М. Конференция, посвящённая вопросам социальной стабильности, сохранения истинных сути и содержания ислама. Ташкент, МИД, 16 июня 2017г.
2. Мирзиёв Ш.М. Согласие нашего народа – высшая оценка нашей деятельности.- Т.: Узбекистан, 2018-С.52
3. СПС «Консультант Плюс». Версия от 12.05.2016.
4. Информационный бюллетень. Межпарламентская Ассамблея государств-участников Содружества Независимых Государств. 2005. - N 35 (часть 1). - С. 242 - 262.
5. Мирзиёв Ш.М. Мы решительно продолжим наш путь национального развития и поднимем его на новый этап - Т.: Узбекистан, 2017-С.57.
6. Конституция Республики Узбекистан. – Ташкент, 2017.
7. Закон Республики Узбекистан от 11 сентября 2017 г, «Об обращениях физических и юридических лиц» [Электронный ресурс] UR





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT HUQUQINING RIVOJLANISH TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI ISTIQBOLLARI

*Pulatov Bekzod Adilbaevich*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining*

*Toshkent viloyati Xalq qabulxonasi bosh mutaxassisi*

**Annotatsiya.** Jinoyat qonunchiligidagi o‘zgarishlarni keng ommaga tushuntirish, eng avvalo, huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlariga amaldagi va yangi qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyatini sharhlash, shuningdek bo‘lajak huquqshunoslarning jinoyat huquqidan bilim va ko‘nikmalarini davr talablariga mos holda shakllantirish dolzarb vazifalar hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** jinoyat huquqi, jinoyatchilik dinamikasi, jinoiy repressiya, konkretlashtirish, kriminallashtirish va dekriminallashtirish asoslari.

**Аннотация.** Разъяснение изменений в уголовном законодательстве широкой общественности, в первую очередь, разъяснение сущности действующих и вновь принимаемых законов сотрудникам правоохранительных органов, а также знание уголовного законодательства будущими юристами и формирование навыков в соответствии с требованиями времени считаются неотложными задачами.


**Ключевые слова:** уголовное право, динамика преступности, уголовная репрессия, конкретизация, основы криминализации и декриминализации.

**Abstract.** Explaining changes in criminal law to the general public, first of all, explaining the essence of existing and newly adopted laws to law enforcement officers, as well as knowledge of criminal law by future lawyers and the formation of skills in accordance with the requirements of the time, are considered urgent tasks.

**Keywords:** criminal law, crime dynamics, criminal repression, concretization, bases of criminalization and decriminalization.

### KIRISH

Sud-huquq sohasi O‘zbekiston mustaqillikka erishishi munosabati bilan hamda demokratik, huquqiy, dunyoviy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan yo‘lining tanlanishi, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tilishi, xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan shaxsning huquq va erkinliklari tan olinishi munosabati bilan tubdan qayta isloh etilayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Bu shu bilan izohlanadiki, yangi, mustaqil, demokratik sud-huquq tizimisiz mamlakatda to‘laqonli ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotni tasavvur etish mumkin emas. Bu, ayniqsa, ma’muriy-buyruqbozlik boshqaruv tizimidan voz kechish hamda rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega, qonun ustuvorligi, shaxs, oila, jamiyat, davlat huquq va manfaatlarining ta’minlanishi, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

qonunga itoatkor fuqarolarni tarbiyalash, ushbu davlatning eng muhim maqsadi va vositasi hisoblanadigan chin ma'noda demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish haqida qaror qabul qilganidan so'ng katta ahamiyat kasb eta boshladi.

### **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Mustaqil O'zbekistonning jinoyat qonunchiligini isloh etish bir masalaga oydinlik kiritishni talab qilardi: yangi qonunchilikni yaratish yoxud amaldagi qonunlarni takomillashtirish. Ushbu masala bejizga ko'tarilmagan edi. Zamonaviy huquqiy negizni yaratish (eng asosiysi, insonlar ongidan eski totalitar tuzumning stereotiplarini chiqarib tashlash) orqali yangi davlatchilikni barpo etishga qaratilgan siyosiy irodani amalga oshirish zarur bo'lgan o'tish jarayoni sharoitlarida, qonunchilikni takomillashtirish nisbatan afzal edi, zero bu yangi sharoitlarda ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi hamda ularning jinoyat-huquqiy muhofaza qilish zaruriyatini prognozlashtirishda xatolarning oldini olishga imkon berardi. Shu bilan birga, bunday yondashuv «sotsialistik» davrda o'ta darajada obro'sizlanib qolgan edi, chunki jinoyat qonuniga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar, odatda, kon'yunktura tusiga ega edi. Jinoyat kodeksi hokimiyat partiya tuzilmalari va idoralari tomonidan nisbatan utilitar, siyosiy boshliqlarning jinoyatchilik bilan kurashni namoyish etish maqsadida beriladigan har qanday ko'rsatma va so'zlariga darhol munosabat bildiradigan narsa deb ko'rilgan, vaholanki, bu kurash amalda yuzaki bo'lgan. Bundan tashqari, bu o'zgarishlar ularni qabul qilish vaqtida hukmron bo'lgan turfa xil nazariy konsepsiyalarni aks ettirgan, shu sababli, Jinoyat kodeksining ayrim moddalarini mazmuni ko'p marotaba, ba'zan mutlaqo qarama-qarshi o'zgarishlarga duch kelganiga ajablanmasa ham bo'ladi. Shu va boshqa holatlar mazkur yondashuvdan voz kechishni taqozo etdi.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Jinoyat-huquqiy islohotlar jarayonida hal etilishi zarur bo'lgan ustuvor vazifalar sirasiga, xususan, quyidagilar kiradi: O'zbekiston Konstitutsiyasi va xalqaro huquqda mustahkamlangan normalar tizimining aks ettirilishi; davlatda shakllangan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy, konfessional va ma'naviy-ma'rifiy ahvol maqbul ravishda aks etishi; davlatchilik va ijtimoiy munosabatlar taraqqiyoti istiqbollari, ularning jinoyat-huquqiy muhofaza etilishi maqsadga muvofiqligi inobatga olinishi; yuridik shaxslar va fuqarolar faoliyati hamda turmushiga jinoyathuquqiy «aralashuv»ning maqbul chegarasi; ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda to'plangan tajriba hisobga olinishi hamda avvalgi jinoyat qonunchiligi va uni qo'llash amaliyoti afzalliklarining meros qilib olinishi; jinoyatchilik dinamikasi va tuzilishidagi asosiy tendensiyalar, shuningdek zamonaviy jinoyat siyosatidagi demokratik va iqtisodiy o'zgarishlarning muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan eng muhim asoslardagi ijobiy o'zgarishlar aks ettirilishi; ijtimoiy fikr, huquqiy ong va qonunga itoatkorlik darajasi, huquqiy madaniyat ahvolining inobatga olinishi; ilmiynazariy ishlanmalar va tavsiyalar imkon qadar to'liq shakl-da qabul qilinishi; xalqaro qonun ijodkorligi tajribasi va xalqaro huquqda umumiy tan olingan jinoyat-huquqiy normalar hisobga olinishi; jinoiy repressiyaning haqiqiy ijtimoiy-regulyativ imkoniyatlari inobatga olinishi; jinoyat qonunchiligining haqiqatda







amalga oshirilishi mumkin vazifalari belgilanishi; maksimal darajada rasmiylashuv; jinoyat huquqi prinsiplarining aniq belgilanishi.

Maqsad va vazifalar ro'yobga chiqishi va to'laqonli amalga oshirilishi ko'p jihatdan mustaqil O'zbekistonning jinoyat qonunchiligi umumiy xarakteri haqidagi masalani to'g'ri hal etishiga bog'liq edi, chunki bu yerda ikkita yondashuv mavjud bo'lgan. Shu bilan birga, bu borada bir masalaga yechim topish zarur edi, ya'ni nisbatan yuqori ijtimoiy xavfli bo'lgan xulq-atvor uchun jinoiy javobgarlikni belgilash va shunga mos ravishda o'ta qattiq ta'sir choralari nazarda tutadigan kichikroq jazo tizimi bilan cheklanib, «kompakt» qonunni loyihalashtirish yoki «nisbatan kam» ahamiyatga ega ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladigan xulq-atvor ustidan davlat va jamiyat nazoratini amalga oshirishga imkon beradigan kodeksni ishlab chiqish. Bu masalani hal etishda, birinchi yondashuvning ma'lum darajada ijobiylikiga qaramasdan, uning afzalliklarini «yo'qqa chiqaradigan» bir qator salbiy jihatlar ham inobatga olingan. Uning asosiy kamchiligi o'ta radikaligidan edi, zero, «kichik», biroq o'ta qattiq kodeksning loyihalashtirilishi, uzoq yillar davomida shakllangan jinoyat huquqining bir qator asosiy qoidalarini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etar edi. Bu, o'z navbatida, huquqni muhofaza qiluvchi organlardan jinoyatchilik bilan kurashning ancha shakllangan va aprotatsiyadan o'tgan shakl va uslublarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha jiddiy harakatlarini talab etar edi, chunki mos ravishda boshqa huquq sohalari – jinoyat-protsessual, ma'muriy, tezkor-qidiruv, jinoyat-ijroiya huquqi va boshqalarning huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etar edi. Bundan tashqari, kriminalashtirilayotgan qilmishlar doirasi masalasini hal qilishda kriminalizatsiya huquqiy prinsiplarining barchasini, ayniqsa, tizimli-huquqiy guruhni inobatga olishning imkoni bo'lmas edi, bu esa, samaradorligi past yoki ijtimoiy jihatdan nomaqbul qonun qabul qilinishi xavfini oshirishi mumkin edi. Bu, shuningdek, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar bilan kurashish samaradorligini pasaytirishi ham mumkin edi, ushbu jinoyatlar turkumiga nafaqat an'anaviy tarzda umumiy jinoyatlar sifatida tan olinadigan qilmishlar, balki barcha ehtiyotsizlik orqasidan sodir etilgan deliktlar kiritilar edi. Ularning barchasi yoki katta qismi muqarrar tarzda ma'muriy adliya sohasiga kiritilar edi, vaholanki mazkur huquqiy choralarning samarasi zamonaviy bosqichda jinoyat-huquqiy tuzdagi choralarga nisbatan ancha past. Ayni damda har qanday radikalizm, shu jumladan, qonunchilik jarayonida ham, bu – inqilobdir.

### MUHOKAMA

Mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, eng avvalo, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklarini ta'minlash, milliy qadriyatlarimizga asoslangan demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan davlatimizda olib borilayotgan islohotlar davlat va jamiyat hayotida yangi huquqiy negizni shakllantirish, fuqarolar huquq va erkinliklari hamda qonunchilikka izchil rioya qilish zaruratini yuzaga keltirdi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar qatorida jinoyat qonunchiligi ham isloh qilindi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari orasida birinchi bo'lib,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994 yil 22 sentyabrdagi 16-sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi qabul qilinishi, u 1995 yil 1 apreldan qonuniy kuchga kirdi.

Shu bilan bir qatorda sud-huquq sohasini isloh qilish, shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, mamlakat jinoyat qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish sohalarida ilgari qadam bosildi. Jumladan, 2001 yil 29 avgustda qabul qilingan «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyatprotsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun liberallashtirish siyosatining muhim tarkibiy jarayonlarini boshlab berdi. Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan Jinoyat kodeksining aksariyat jinoyat tarkiblari bo'yicha sanksiyalar yengillashtirildi, ularning 26 tasidan qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo choralari chiqarib tashlandi, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar toifasi 86 tadan 196 taga ko'paydi, shuningdek ushbu Qonun bilan amaldagi Jinoyat kodeksining 105 ta moddasiga jinoiy jazolarning liberallashtirilishi yuzasidan o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.


Xususan, Jinoyat kodeksida belgilangan jinoyatlar tasnifi tubdan o'zgardi. Og'ir va o'ta og'ir toifadagi jinoyatlarning 75 foizga yaqini ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi, jinoiy jazo tizimidan ayrim jazo turlari (mol-mulkni musodara qilish) chiqarilib, jazo tizimi yanada liberallashtirildi.

Bundan tashqari, ushbu qonun bilan jinoyat qonunchiligida yarashuv institutining joriy etilishi xalqimizga xos bo'lgan kechirimlilik, insonparvarlik, bag'rikenglik kabi azaliy qadriyatlarimizni jinoyat qonunchiligidagi ifodasini yanada mustahkamladi. Mazkur institutning jinoyat qonunchiligiga kiritilgan davrdan boshlab bugungi kunga qadar takomillashtirilib borilishi natijasida bugunga kelib yarashuv institutni qo'llash imkoniyati 26 ta modda (32 ta jinoyat tarkibi) dan 44 ta modda (60 ta jinoyat tarkibi)ga ko'paygani hamda o'tgan davr mobaynida 160 mingdan ortiq shaxslar yarashganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinganligi jinoyat qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish sohacida ulkan qadam tashlanganligini bildiradi.

Jinoiy-huquqiy sohada amalga oshirilgan islohotlar orasida O'zbekiston Respublikasining «O'lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 2007 yil 11 iyul qonuni muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda jinoiy jazolar tizimini liberallashtirish borasida tub burilish yasadi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunonchi, 2008 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidan o'lim jazosini chiqarilishi bilan nufuzli xorijiy ekspertlarning ta'kidlashicha, mamlakatimizda dunyodagi eng liberal jinoiy jazo tizimlaridan biriga asos solindi.

#### XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, o'tgan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga jamiyat taraqqiyoti, fan-texnika rivojlanishi va boshqa zamonaviy o'zgarishlar






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

inobatga olinib, o'zgartishlar, jumladan, inson huquq va manfaatlarining himoyasi, insonparvarlik va demokratizm prinsiplarining amalda ijrosini ta'minlovchi yangi normalar kiritildi.

“Agar hamma birdek jon kuydirib, oilalar muammolaridan to‘liq xabardor bo‘lib, ularni hal etishga ko‘maklashgan, jinoyatchilikning barvaqt oldini olganda edi, bugun natijalar umuman boshqacha bo‘lardi. Afsuski, jinoyatchilikka qarshi kurashishda haligacha eskicha ishlash tizimidan voz kecha olmayapmiz. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bu faoliyatga ko‘rsatkichlarni oldingi davr bilan taqqoslash orqali baho berib kelmoqda. Aslida bitta bo‘lsa ham jinoyat bo‘lgani hammamizni tashvishga solishi kerak” - deydi O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev.

#### REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. – 1995. – № 1. – 1-m; 5. <https://kun.uz/17729101>.
2. <http://old.adolatnashr.uz/page/uzbekiston-zhinoiyat-konunchiligi-yaratilishi-tarihi-bugungikuni-rivozhlanishi-istikbollari>;
3. Юсупова Ф. статья 40 конституции республики Узбекистан как гарантия репродуктивных прав граждан //Ревью оф лав ссиенсес. – 2020. – Т. 3. – №. Спесвыпуск. – С. 60-65.
4. Телемедицинских, история развития и. применении, анд технологий в. Республики Узбекистан. "господарка и
5. Bakirov X Chor Turkisgonida sud, shariat va odat.-T.: «Fan», 1967,3-bet.
6. 2.Rasulov O. X. Sovet jinoyat huquqi. Umumiy qism. - Tos'hkent: O`qituvchi. 1969, -B.26.
7. Сулаймонопа Х.С. История советского государства и право Узбекистана. ИИ жилд. - Тошкент: Ўз ССР ФА, И960. 405-406 ст.
8. Лунеев В.В. Преступност в СССР. Основные тенденции и закономерност. // Советское государство и право, 1991, -№8,—С.,94.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

## **Мис бойитиш фабрикаси чиқиндисининг минерал-геологик хусусиятларини концентратцион столда бойитиш**

*Абдусамиева Лобархон Номонжон қизи*

*Тошкент давлат техника университети Олмалиқ филиали “Кончилик иши” кафедраси ассистиенти*

*Аширматова Ирода Мамасаид қизи*

*Тошкент давлат техника университети Олмалиқ филиали талабаси*

Техноген чиқиндиларнинг моддий таркиби анъанавий ва замонавий минералогик-геокимёвий тадқиқот усулларини қўллаб ўрганилди.

Чиқиндиларнинг моддий таркибини ўрганиш учун ажратиб олинган намуналар концентратцион столда ювилди, олинган маҳсулотлар бўйича минералогик таҳлил ўтказилди. Бойитиш маҳсулотларининг минерал таркиби бинокуляр остида ўрганилди. Дастлабки чиқиндидан сунъий шлифлар тайёрланди, гравитация бойитиш бойитмаларидан эса ўтувчи ва қайтарувчи нурда минерал таркибни аниқлаш учун аншлифлар тайёрланди.


Тайёрланган намуналар ва улар бойитмаларининг кимёвий таркиби алоҳида компонентларга кимёвий таҳлил ўтказиш орқали аниқланди. Чиқиндилар ва гравитация бойитиш маҳсулотларининг элемент таркиби яримспектрал ва масс-спектрал таҳлиллар орқали аниқланди.

Кимёвий таркиби бўйича мис бойитиш фабрикаси чиқиндиларида кремнеземнинг ўртача миқдори 66,93%. Ундан кейинги миқдори кўп компонент темир ва алюминий оксидлари ҳисобланиб,  $(\text{FeO}+\text{Fe}_2\text{O}_3)$  нингумумий миқдори 18,5% ва алюминий оксидлари – 6,89% ни ташкил қилади.

Олтингугурт оксидларининг ўртача миқдори ( $\text{SO}_{3\text{ум}}$ ) 6,15%, улардаги олтингугурт сульфиди - 2,3%. Бундан ташқари магний, кальций, калий, натрий, титан оксидлари ҳам иштирок этади.

Олмалиқ мис бойитиш фабрикасида Қалмоқир, Саричеку ва бошқа Олмалиқ кон-руда райони мис-порфирли рудалари бойитилади. Шунинг учун чиқиндилар таркибида шу конларнинг минераллари учрайди. Мис бойитиш фабрикаси чиқиндиларида норуда минераллардан кварц ва дала шпати кўпроқ учрайди. Дала шпатининг асосан калийли тури, камроқ миқдорда плагиоклаз ҳолида иштирок этади.

АГМК МОФ чиқиндиларининг 6 кг ли 2 та намунаси концентратцион столда бойитиш мақсадида 0,5 мм гача янчилди. Концентратцион столнинг ишлш тартиби қуйидагича: тебранишлар частотаси - 105 марта/мин; тебранишлар амплитудси - 9-10 мм; деканинг кўндаланг қиялиги - 20 мм; юувчи сувнинг сарфи ~4,6 л/мин. Бойитиш натижасида намуна







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

бойитма, оралик маҳсулот, енгил фракция ва шламга ажралди. Маҳсулотлар қуритилгандан кейин тортилди ва ҳар қайси маҳсулотнинг чиқиши фоизларда аниқланди. Олинган натижалар 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал

Гравитацион бойитишда фракцияларнинг чиқиши

Намуна-нинг №	Намуна-нинг оғирлиги, (г)	Бойитиш маҳсулотларининг чиқиши,%							
		Оғир фракция		Оралик маҳсулот		Енгил фракция		Шлам	
		г	%	г	%	г	%	г	%
№1	6000	474,0	7,90	972,4	16,21	3640,0	60,67	913,6	15,23
№2	6000	378,0	6,30	1225,4	20,42	4127,4	68,79	269,2	4,49

Бойитма, оралик маҳсулотлар ва енгил фракциялар бинокуляр ёрдамида кўрилди ва уларнинг минерал таркиби аниқланди. МОФ чиқиндилардан олинган бойитмаларнинг таркиби бир-биридан фарқ қилади. МОФ чиқиндиларидан сульфидли бойитмалар олинди.

Кўлда магнитли сепарациялашда дастлабки бойитмалардан 70-80% магнитли фракция ажратиб олинди. МОФ чиқиндиларини гравитацион бойитиш натижасида бойитманинг миқдори 6,3-7,9% ни ташкил қилди.

АГМК МОФ чиқиндиларини гравитацион бойитиш фракциялари қуйидаги маҳсулотлар билан ифодаланган:


- чиқиндиларнинг оғир фракцияси асосан сульфидлардан ташкил топган. Бойитма таркибида пирит кўпроқ учрайди ва унга эргашган ҳолда халькопирит, темир оксидлари ва молибденит кузатилади. Шунингдек, онда-сонда сфалерит ва галенит учрайди. Темир оксидлари магнетит ва гематит шаклида қатнашади. Бойитмада норуда минераллардан кварц сульфидлар билан боғланган ҳолда ёки алоҳида, дала шпати, биотит учрайди. МОФ чиқиндилари учун бойитманинг чиқиши 6,3-7,9% ни ташкил қилади.

### Адабиётлар

1. Абдусамиева Л. МИС БОЙИТИШ ФАБРИКАЛАРИ ЧИҚИНДИЛАРИДАН ҚИММАТБАХО КОМПОНЕНТЛАРНИ ГРАВИТАЦИЯ УСУЛИДА АЖРАТИБ ОЛИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ // Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 464-470.

2. Abdusamiyeva L., Jo`rakulova S. COPPER MINING METHODS, SCHEMES AND REAGENT PROCEDURES // International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 233-238.

3. Abdusamiyeva L.N, Abdusamatov S.G., Xaqberdiyev S.B. Man-Made Waste Using Gravitation Methods Study Enrichment Processes. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND*





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

*SUSTAINABLE EDUCATION*, 2(2), 93–95. Retrieved from <http://inter-publishing.com/index.php/IJISE/article/view/1071>

4. [Abdusamiyeva Lobarxon No'monjon qizi, Ortiqboyev Asilbek Oybek o'g'li. \(2023\). DISPOSAL OF MINING INDUSTRY WASTE \(USE\). INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY, 3\(5\), 576–580. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7947224>](#)

5. Abdusamiyeva Lobarxon No'monjon qizi, Tashkenbaeva Madina Raxmatulla qizi, Xamidov Shavkat Mavlitjon o'g'li

<https://researchcitations.com/index.php/ibast/article/download/2180/1556>ASTE BY GRAVITY METHOD. MINERAL-GEOLOGICAL CHARACTERISTICS OF WASTE PRODUCTS <https://doi.org/10.5281/zenodo.8084691>





## Surxondaryo viloyati qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi holatining tahlili

*Nasriddinov Qobilbek Qurbonbekovich*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti stajyor o'qituvchisi*

*[qobilspeaker@gmail.com](mailto:qobilspeaker@gmail.com)*

*Pirimova Feruza Abubakirovna*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi:*

*[abubakirovnaferuza005@gmail.com](mailto:abubakirovnaferuza005@gmail.com)*


**Annotatsiya:** So'nggi bir necha o'n yilliklarda Surxondaryo viloyati aholisining soni jadal suratlarda oshib bormoqda va bugungi kunda butun Respublika miqyosida tug'ilish darajasi bo'yicha Statistika Qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra tug'ilish darajasi bo'yicha 2022-yil 1-yanvaridan 1-apreligacha bo'lgan davrda 18,421 ta tug'ilish holati bilan 5- o'rinni egallayapti. Aholi sonining oshishi munosabati bilan butun Surxondaryo viloyati miqyosida aholini uy-joy bilan ta'minlash maqsadida jadal sur'atlarda uy-joylar qurilmoqda. Birgina 2016-2020 yillar oralig'ida Surxondaryo viloyati miqyosida uy-joylar qurilishi 1,6 barobarga ortdi, ya'ni 2020-yilda Surxondaryo viloyatida uy-joylar soni 475 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda uy-joylar soni 301,083 ta bo'lgan.

**Kalit so'z:** Yer, Yer samaradorligi, hududlar kesimi, maydon

Ushbu uy-joylarning ko'pi ekin ekib yaxshigina hosil olinishi mumkin bo'lgan maydonlar hisobiga ham qurilayotganligi sababli Surxondaryo viloyatining ekin maydoni 2004-yildagi 284.3 ming gektardan 2021-yilga kelib 231,428 ga<sup>1</sup> gacha qisqargani hozirgi aholi soni oshayotgan hamda global iqlim isishi xavf solayotgan bir paytda, qishloq xo'jaligi yerlarini ko'paytirish butun Respublikamiz oldidagi dolzarb masala bo'lmoqda. Shuning uchun viloyatning ekin ekish maydonlarini kengaytirish

---

<sup>1</sup> <https://www.agro.uz/>





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-apreldagi PQ-5742 sonli "Surxondaryo viloyatda 2019-yildan 2030-yilga qadar bosqichma bosqich foydalanishdan chiqib ketgan yer maydonlarini o'zlashtirilishi to'g'risida"<sup>2</sup> qaroriga asosan butun viloyat bo'yicha 66,680 gektar yer maydoni qishloq xo'jaligi maqsadida qayta ishga tushirilishi rejalashtirilgan va shundan ushbu yerlarning tumanlar bo'yicha taqsimlanishi (2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval

**Viloyat bo'yicha 66,680 gektar yer maydoni qishloq xo'jaligi maqsadida qayta ishga tushirilishi rejalashtirilgan va shundan ushbu yerlarning tumanlar bo'yicha taqsimlanishi.**

№	Tumanlar nomi	2019-2030 yillar davomida o'zlashtiriladigan yerlar miqdori, ga	№	Tumanlar nomi	2019-2030 yillar davomida o'zlashtiriladigan yerlar miqdori, ga
1	Angor	756	8	Muzrabot	1330
2	Bandixon	2007	9	Oltinsoy	3089
3	Boysun	24101	10	Sariosiyo	9678
4	Denov	2859	11	Termiz	706
5	Jarqo'rg'on	1328	12	Uzun	7743
6	Qiziriq	1160	13	Sherobad	9188
7	Qumqo'rg'on	1857	14	Sho'rchi	878

2.2.1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra eng ko'p o'zlashtirilishi rejalashtirilgan yer maydoni Boysun tumaniga to'g'ri keladi va barcha qishloq xo'jaligi maqsadida o'zlashtirilishi rejalashtirilgan

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-apreldagi PQ-5742 sonli qarori







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

yer maydonining 36.1 foizini tashkil etadi. Eng kam miqdor Termiz tumaniga to'g'ri kelishi bilan atigi 1 foizni tashkil etadi.


## 2.2.2-jadval

**2020-yilda yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan o'zlashtirilib bo'lingan yer maydonlari miqdori keltirilgan<sup>3</sup>.**

№	Tumanlar nomi	O'zlashtirilgan maydon, ga	№	Tumanlar nomi	O'zlashtirilgan maydon, ga
1	Angor	702	8	Muzrabot	1409
2	Bandixon	570	9	Oltinsoy	129
3	Boysun	176	10	Sariosiyo	–
4	Denov	–	11	Termiz	997
5	Jarqo'rg'on	558	12	Uzun	371
6	Qiziriq	1619	13	Sherobad	710
7	Qumqo'rg'on	832	14	Sho'rchi	81
Jami:		8155			

2.2.2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra eng ko'p o'zlashtirilgan yer maydoni Qiziriq tumaniga to'g'ri keladi va barcha o'zlashtirilgan maydon (8155 gektar) ning 19.8 foizini tashkil etgan bo'lsa boshqa tomondan Denov va Sariosiyo tumanlarida haligacha hech qanday miqdor qayd etilmagan. Umumiy hisobda ikki yil ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-apreldagi PQ-5742 sonli "Surxondaryo viloyatda 2019-yildan 2030-yilga qadar bosqichma bosqich foydalanishdan

<sup>3</sup> Surxondaryo viloyati Qishloq Xo'jaligi Boshqarmasi ma'lumotlari asosida olingan





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

chiqib ketgan yer maydonlarini o'zlashtirilishi to'g'risida" farmoniga asosan butun viloyat bo'yicha 66,680 gektar yer maydonining 12.2 foizini o'zlashtirilishi amalga oshirilgan.

### 2.2.3-jadval

**Surxondaryo viloyati miqyosida 2021-yilda o'zlashtirilgan yer maydonlari miqdori quyida keltirilgan<sup>4</sup>.**

№	Tumanlar nomi	O'zlashtirilgan maydon, ga	№	Tumanlar nomi	O'zlashtirilgan maydon, ga
1	Angor	1426	8	Muzrabot	4100
2	Bandixon	2007	9	Oltinsoy	423
3	Boysun	1562	10	Sariosiyo	936
4	Denov	1170	11	Termiz	1044
5	Jarqo'rg'on	1500	12	Uzun	1597
6	Qiziriq	2112	13	Sherabod	1447
7	Qumqo'rg'on	1624	14	Sho'rchi	1522
Jami:		22 470			

Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra 2021-yilda o'zlashtirilgan yer maydoni "Surxondaryo viloyatida 2019-yildan 2030-yilga qadar bosqichma bosqich foydalanishdan chiqib ketgan yer maydonlarini o'zlashtirilishi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga asosan butun viloyat bo'yicha 66,680 gektar yer maydonining 33.69 foizini tashkil etishi, viloyat miqyosida qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yer kapitali o'zlashtirilishining jadal suratlarda olib borilayotganidan dalolat beradi. 2021-yil uchun qishloq xo'jaligi maqsadlariga o'zlashtirilgan lozim bo'lgan yer

<sup>4</sup> Surxondaryo viloyati Qishloq Xo'jaligi Boshqarmasi ma'lumotlari asosida olingan





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

kapitali eng ko'p miqdor Muzrabot tumaniga to'g'ri kelib 4,100 gektar yer maydonini tashkil etib 2021-yilda butun viloyat miqyosida o'zlashtiriladigan yerlarning 18.24 foizini tashkil etadi. Shuningdek, eng kam miqdor Oltinsoy tumanidagi yerlarni o'zlashtirish bo'lib, butun tuman bo'yicha 423 gektar yer maydonini o'zlashtirish ko'zda tutilgan va butun viloyat miqyosida 2021-yilda o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan yerlarning atigi 1.88 foizini tashkil etadi (2.2.3-jadval).

Surxondaryo viloyati O'zbekistonning aholi soni jadal suratlarda oshayotgan viloyatlaridan biri bo'lib, ularni bir tomondan uy-joy bilan ta'minlash bir dolzarb masala bo'layotgan bo'lsa, boshqa tomondan ularning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash ikkinchi dolzarb masala bo'layotgani sir emas. Aholini uy-joy bilan ta'minlashda 2016-2020 yillar oralig'ida 1,6 barobar ko'p uy-joylar qurildi, ya'ni 2016-yilda jami uy-joylar soni 301,083 tani tashkil etgan bo'lsa 2020-yilga kelib bu ko'rsatgich 479,000 taga yetdi. Uy-joylar qurilishida bilasizki eng asosiy kapital - bu yer kapitalidir. Quyida uy-joylar qurilishi qancha miqdorda yer kapitali evaziga amalga oshirilganini yillar kesimida ko'rish mumkin<sup>5</sup>.

2.2.4-jadval

**Uy-joylar qurilishi qancha miqdorda yer kapitali evaziga amalga oshirilganini yillar kesimida.**

Yillar	Mavjud uy-joylar, dona	Umumiy maydon, m <sup>2</sup>
<b>2016</b>	301 083	22 609 828
<b>2017</b>	323 340	24 281 217
<b>2018</b>	366 294	27 506 848
<b>2019</b>	424 048	31 843 885
<b>2020</b>	479 000	35 824 765

<sup>5</sup> Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot Boshqarmasi ma'lumotlari asosida olingan






**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023**

Ushbu keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra uy-joylar qurilishi yiliga o'rtacha 12.23 foizga oshgan bo'lib bu ko'rsatgich 2016-2020 yillarda uy-joy qurilishi jadal suratlarda amalga oshirilganidan dalolat beradi. Berilgan vaqt davomida Surxondaryo viloyatida qancha miqdorda yer kapitali evaziga uy-joylar qurilishi amalga oshirilganligiga e'tibor beradigan bo'lsak, ko'rsatgich boshida 22,609,828 m<sup>2</sup> (2,260.98 gektar) ni tashkil etgan bo'lsa 2020-yilga borib 13,214,937 m<sup>2</sup> (1,321.49 gektar) yer maydoni uy-joy qurilishi maqsadiga yo'naltirildi. Yer kapitalidan 2016-2020 yillar oralig'ida uy-joylar qurilishida yiliga o'rtacha hisobda 3,303,734.25 m<sup>2</sup> (330.37 gektar) dan qo'shib borilgan bo'lib yerdan uy-joylar qurilishida foydalanish yiliga o'rtacha hisobda 12.23 foizdan ortib borgan. Qurilgan uy-joylar ham yakka tartibdagi uy-joylar va ham ko'p qavatli uy-joylar shaklida qurilgan bo'lib ularning butun viloyat bo'ylab 2016-2020 yillar opalig'idagi soni quyidagi jadvalda keltirilgan (2.2.5-jadval)<sup>6</sup>.

2.2.5-jadval

**2016-2020 yillar opalig'idagi qurilgan yakka tartibdagi uy-joylar va ham ko'p qavatli uy-joylar soni.**

<b>Yillar</b>	<b>Yakka tartibdagi uy-joylar soni</b>	<b>Umumiy maydon, m<sup>2</sup></b>	<b>Ko'p qavatli uy-joylar soni</b>	<b>Umumiy maydon, m<sup>2</sup></b>
<b>2016</b>	280 007	21 840 561	21 076	769 267
<b>2017</b>	300 706	23 455 084	22 634	826 134
<b>2018</b>	340 653	26 570 967	25 641	935 881
<b>2019</b>	394 365	30 760 442	29 683	1 083 443
<b>2020</b>	443 937	34 522 561	35 063	1 302 204








**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023**

Ushbu berilgan ma'lumotlarga ko'ra yakka tartibdagi uy-joylar va ko'p qavatli uy-joylar soni sezilarli darajada oshib brogan, hattoki uy-joylar qurilishi oshish foizi ham yildan yilga oshganini ko'rishingiz mumkin. 2016-2020 yillar davomida yakka tartibdagi uy-joylarning har biri o'rtacha hisobda 78 m<sup>2</sup> dan to'g'ri kelsa ko'p qavatli uy-joylarning har biri 36.6 m<sup>2</sup> dan to'g'ri keladi. Berilgan miqdorga ko'ra yakka tatibdagi uy-joylarni har birining yer maydoniga ikki va undan ortiq ko'p qavatli uy-joylar qurilishi mumkin. 2016-2020 yillar orasida mavjud bo'lgan ko'p qavatli uy-joylarning ko'pi 3-4 qavatli binolar bo'lib, agar ular 6-8 qavatli uylar bo'lganida yer resursidan yakka tartibdagi uy-joylarga nisbatan 4-5 barobar kamroq foydalanilgan bo'lar edi. 2016-2020 yillar davomida mavjud bo'lgan yakka tartibdagi uy-joylar o'rniga o'rtacha hisobda 3-4 qavatli uy-joylar bo'lganida yakka tartibda qurilgan uy-joy yer kapitalining 53 foizi (1,831.14 gektar yer maydoni), 6-8 qavatli uy-joylar bo'lgan taqdirda esa yakka tartibda qurilgan uy-joy yer kapitalining 77 foizi (2,662.28 gektar yer maydoni) iqtisod qilingan bo'lar edi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, uy-joy qurilishi 2016-2020 yillardagi kabi o'sadigan bo'lsa yaqin kelajakda uy-joylar soni va uning uchun kerak bo'ladigan yer kapitali quyidagicha miqdorda bo'lishini prognoz qilishimiz mumkin:

2.2.4-jadval

**Kelajakda uy-joylar soni va uning uchun kerak bo'ladigan yer kapitali.**

<b>Yillar</b>	<b>Uy-joylar soni</b>	<b>Uy-joy uchun maydon, m<sup>2</sup></b>
<b>2021</b>	537 581.7	40 206 133.7
<b>2022</b>	603 327.9	45 123 343.9
<b>2023</b>	677 114.9	50 641 928.8
<b>2024</b>	759 926.1	56 835 436.7
<b>2025</b>	852 865	63 786 410.6
<b>2026</b>	957 170.4	71 587 488.7






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

<b>2027</b>	1 074 232.4	80 342 638.5
<b>2028</b>	1 205 611	90 168 543.3
<b>2029</b>	1 353 057.2	101 196 156.1
<b>2030</b>	1 518 536.1	113 572 446

2.2.4-jadvaldan ko'rinib turibdiki agar qurilish ishlari 2016-2020 yillardagi me'yorda davom etadigan bo'lsa 2020-yilgacha bo'lgan vaqtdagi yer maydonidan 3.17 barobar ziyod yer maydoni kerak bo'ladi va natijada 2030-yilga borib uy-joy qurilishida 11,357.24 gektar yer band qilingan bo'ladi. Agar ushbu uy-joylarning barchasi o'rtacha hisobda 3-4 qavatli binolar bo'ladigan bo'lsa, 3,937 gektar yer maydoni iqtisod qilingan bo'ladi, uy-joylar 6-8 qavatli binolar bo'ladigan bo'lsa 5,872.34 gektar, 12-16 qavatli binolar qad ko'taradigan bo'lsa 6,823.52 gektar yer maydoni uy-joy qurilishiga ortiqcha sarflanmasdan iqtisod qilingan bo'ladi. Shu o'rinda aytish joizki, agar kelgusida quriladigan uy-joylarning hammasi 12-16 qavatli bo'ladigan bo'lsa 2016-2020 yillar oralig'idagi qurilish me'yoridan 87.76 foizga yer kapitali iqtisod qilinadi.

Bundan xulosa qilish mumkinki ko'p qavatli uy-joylar qancha ko'p bo'lsa, hamda qancha uning qavati ko'p bo'lsa shuncha yer kapitalidan kamroq foydalaniladi va hozirgi aholi soni jadal suratlarda oshayotgan, hamda iqlim o'zgarishi sezilarli darajada bo'lishi kutilayotgan bir paytda yerdan qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanib Surxondaryo voha aholisining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, qurilayotgan uy-joylarning ko'pi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ekib yaxshigina hosil olish mumkin bo'lgan yer kapitali hisoblanadi. Shuning uchun, aholi uchun uy-joylarni boniteti past bo'lgan yerlarda qurilishi maqsadga muvofiq ham bo'lardi. Agar ushbu taklifning ham iqtisodiy va ham ijtimoiy kamchiliklari ko'p bo'ladigan taqdirda bundan buyon yakka tartibdagi uy-joylar sonini keskin kamaytirilishi, hamda ko'p qavatli binolarni jahon standartlaridan kelib chiqqan holda puxta qurilish rejaları asosida osmono'par binolar qurilishi chora-tadbirlarini mutasaddi tashkilotlar yaxshilab o'rganib chiqib uni amaliyotga tadbir etishlari zarur hisoblanadi. Ushbu yo'l orqali viloyat miqyosidagi yer kapitalini ham hozirgi va ham





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

kelasi avlod uchun uy-joy qurilishida kamroq sarflangan bo'ladi va qancha ekin maydonlari ko'p bo'lsa kelgusida shuncha viloyat aholisining oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlangan va iqtisodiyot tarmog'i uchun samarali istiqbol bo'lishi muqarrar.

Surxondaryo viloyatida yer osti suvlaridan foydalanish oxirgi yillarda ko'proq tashkil etilib sug'orilishi qiyin bo'lgan yer maydonlariga suv chiqarilib sug'oriladigan ekin maydonlari kengaymoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 430-son 27.06.2017- yil " Yer osti suvlaridan foydalanish sohasidagi faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>7</sup>gi qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida quyida Surxondaryo viloyatida suv ta'minoti og'ir hududlardagi aholi tomorqalari va qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan yer maydonlarini sug'orish uchun 2021-yildagi vertikal sug'orish quduqlarini burg'ulash haqida ma'lumot ( 2.2.7-jadval)da berilgan<sup>8</sup>:


2.2.7-jadval

**2021-yildagi vertikal sug'orish quduqlarini burg'ulash haqida ma'lumot.**

<b>№</b>	<b>Tumanlar</b>	<b>Loyiha ishtirokchilari ning soni</b>	<b>Qazilgan quduqlar</b>	<b>Sarflangan mablag' (mln.so'm)</b>	<b>Sug'orilishi mumkin bo'lgan maydon, ga</b>
<b>1</b>	Angor	282	10	1 000	26,7
<b>2</b>	Boysun	379	12	1 320	64,2
<b>3</b>	Denov	877	8	960	75
<b>4</b>	Jarqo'rg'on	300	6	720	141
<b>5</b>	Qumqo'rg'on	1780	20	2 400	204,08

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 430-son qarori, 27.06.2017- yil

<sup>8</sup>Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot Boshqarmasi ma'lumotlari asosida olingan.






6	Muzrabot	312	8	960	82,3
7	Oltinsoy	2075	10	1 200	127,1
8	Sariosiyo	1194	31	3 720	194,5
9	Termiz	296	5	600	24
10	Uzun	313	9	1 080	50,7
11	Sherobad	665	18	2 160	142,8
12	Sho'rchi	2286	34	3 600	726,6
<b>Jami viloyat bo'yicha</b>		10759	171	19 720	1 858,7

Ushbu 2.2.7-jadvalda berilganidek, Sho'rchi va Qumqo'rg'on tumanlaridagi aholi tomorqalari va qishloq xo'jaliklarini ko'proq suvga bo'lgan talablarini qondirish hamda bo'sh yer maydonlarida sug'orish ishlarini amalga oshirish maqsadida birgina 2021-yilning o'zida ikkita tumanning jami 347.6 gektar yer maydoniga yetadigan 54 ta vertikal sug'orish quduqlarini qazish 6 milliard so'm mablag' evaziga amalga oshirilgan bo'lib butun viloyat miqyosida esa 1 858.7 gektar yer maydonini sug'orish uchun jami 19.72 milliard so'm mablag' evaziga 171 ta quduqlar qazilgan. Garchi ushbu quduqlar qazilishi 19.72 milliard so'm evaziga amalga oshirilgan bo'lsada 2021-yilgi suv resursining oldingi yillarga nisbatan 25-30 foizga kam bo'lishiga qaramasdan aholini yetarlicha suv bilan ta'minlashda alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Sug'orish maydoniga aylantirilgan 1 858.7 gektar yer maydonida eng so'nggi yomg'irlatib sug'orish va mexanizatsiyalashtirish tizimini joriy etish orqali "Agrover" agrosanoat kartoshkachilik klasteri<sup>9</sup> faoliyati namunasi asosida kartoshka ekiladigan bo'lsa har bir gektar maydondan 50 tonnagacha hosil olish mumkin bo'ladi va natijada 1 858.7 gektar maydondan 92 935 tonna kartochka hosili olish

<sup>9</sup> <https://yuz.uz/>







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

mumkin bo'lad. 2021-yilda Statistika Qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra<sup>10</sup> O'zbekiston kartoshka importi hajmi 516,2 ming tonnani tashkil etgan. 1 858.7 gektardan hosil bo'lishi mumkin bo'lgan 92 935 tonna kartoshka yetishtirish orqali O'zbekistonning kartoshka importini 18 foizga kamaytirish hamda butun Surxondaryo viloyati aholisi (2,7 mln nafar)<sup>11</sup> ning 38.24 foiz kartoshkaga bo'lgan talabini qondirish mumkin bo'ladi ("East fruit" kompaniyasi tahlilicha 2000-yildan 2020-yilga qadar aholi jon boshiga kartoshka yetishtirishning yillik hajmi 29,5 kilogrammdan 91 kilogrammgacha, ya'ni 3 baravardan ko'proq o'sgan). Statistika qo'mitasining 2022-yil aprel oyidagi ma'lumotlariga ko'ra kartoshkaning bozordagi minimal narxi 2500 bo'lib 92 935 tonna kartoshkadan Surxondaryo viloyatining 2020-yilgi YaHMning qarib 1 foizga teng daromad olish mumkin bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, har bir gektar yerdan 50 tonna hosil olish uchun barcha eng so'nggi yomg'irlatib sug'orish texnologiyalaridan hamda biologik va ham kimyoviy o'g'itlardan oqilona foydalanish talab etiladi.

Butun jahon miqyosidagi kundan kunga sodir bo'lishi muqarrarligi o'z isbotini topayotgan isish barchani xavotirga solmoqda. Shuning uchun oziq-ovqat xavfsizligi masalasi eng ko'p xavotirlarga sabab bo'lmoqda. Chunki iqlim isigani sayin butun jahonda 690 million kishi to'yib ovqatlanmayotgan bir paytda muammo ustiga muammo bo'lishi muqarrar. Havo harorati isigani sayin suv resurlari kamayadi, hamda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan suvlarning bug'lanish jarayoni ancha tezlashadi va natijada suvga bo'lgan talab miqdori sezilarli darajada oshadi. Birgina 2021-yilning o'zida O'zbekiston hududiga suv manbayi 25-30 foizga kamaygani kuzatildi. Garchi 2022-yilda respublika suv omborlarida jami 9.46 milliard<sup>3</sup> suv yig'ilgan bo'lib 2021-yil bilan solishtiradigan bo'lsak 663 million<sup>3</sup> ga ko'p bo'lsada o'rtacha uch yillikka nisbatan 520 million<sup>3</sup> ga kam. "O'zgidromet" ma'lumotlariga ko'ra , Amudaryo havzasida suv sezilarli darajada kam bo'ladi, Surxondaryoda 65-70 foiz, Qashqadaryoda 55-65 foiz bo'lishi bashorat qilinyapti<sup>12</sup>. Shuning uchun hozirgi suv resurslaridagi holat hamda kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni hisobga olgan holda suvdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi oshirish yo'llarini hayotga tadbiiq etish zarur hisoblanadi. Hozirgi suvdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi to'g'ri

<sup>10</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

<sup>11</sup> <https://www.gazeta.uz>

<sup>12</sup> Respublika Suv-xo'jaligi-vazirligi ma'lumotlari asosida olingan.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

idrok etilib bir qator qarorlar qabul qilindi. Ulardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.10.2019 yildagi PQ-4499-son “Qishloq xo‘jaligida suv tejavchi texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>13</sup> gi qarori bo‘lib unga ko‘ra mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanish mexanizmlarini tubdan isloh qilish, ulardan oqilona va samarali foydalanishni ta‘minlash, iqtisodiyot tarmoqlarida suv tejavchi texnologiyalarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, shuningdek, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda<sup>14</sup>. Surxondaryo viloyatida 2019-2020 yillarda bog‘, sabzavot, paxta maydonlarida tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etilishi buning yaqqol misoli bo‘lishi mumkin (2.2.8-jadval).

2.2.8-jadval

4. Frey, Carl Benedikt, and Osborne, Michael A. "The Future of Employment: How Susceptible Are Jobs to Computerization?" *Technological Forecasting and Social Change*, vol. 114, 2017, pp. 254-280.
5. McKinsey Global Institute. "Jobs Lost, Jobs Gained: Workforce Transitions in a Time of Automation." McKinsey & Company, December 2017.
6. World Economic Forum. "The Future of Jobs Report 2022." World Economic Forum, January 2022.
7. Arntz, Melanie, Gregory, Terry, and Zierahn, Ulrich. "The Risk of Automation for Jobs in OECD Countries: A Comparative Analysis." *OECD Social, Employment and Migration Working Papers*, no. 189, OECD Publishing, Paris, 2016.
8. Brynjolfsson, Erik, and McAfee, Andrew. "Race Against the Machine: How the Digital Revolution is Accelerating Innovation, Driving Productivity, and Irreversibly Transforming Employment and the Economy." Digital Frontier Press, 2012.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

**«Seleksiya uchun kalta poyali yumshoq bug'doyning yotib qolishga chidamli nav namunalarini ўrganish.»**

**Қаршиева Умида Шукуровна/Қишлоқ хўжалиги фанлари доктори (DSc),  
доцент.Жумаев Достон магистр.**

**Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti.**

**Mavzuning dolzarbligi.** Дунё бўйича буғдой (*Triticum aestivum* L.) асосий озиқ-овқат экини ҳисобланиб, унга бўлган талаб ва ишлаб чиқариш паралелл равишда ўсиб бормоқда. «БМТ халқаро ташкилотининг маълумотига кўра жаҳонда умумий дон етиштириш 2 млрд 450 минг тонна атрофида бўлиб, шундан 2 млрд 194 минг тоннаси донли экинлар (буғдой, жавдар, арпа, сули, тритикале, шоли, маккажўхори, жўхори, тарик, маржумак), 256 млн тоннаси дуккакли дон экинлари улушига тўғри келади»<sup>1</sup>. Юмшоқ буғдойнинг калта пояликни назорат қилувчи генларидан фойдаланиб серхосил, дон сифати юқори, касаллик ва зараркунандаларга, ётиб қолишга, муҳитнинг ноқулай омилларига чидамли навларини яратишга йўналтирилган илмий-тадқиқот ишларини ўрганиш муҳим илмий-амалий аҳамиятга эга ҳисобланади.

Буғдой жаҳоннинг 130 га яқин мамлакатларида етиштирилади. Кўплаб буғдой экиладиган АҚШ, Россия, Украина, Франция, Италия, Испания, Польша, Хитой, Сурия, Японияда буғдойнинг калта поялиликни назорат қилувчи генидан фойдаланиб генетик қонуниятлардан ҳамда селекциянинг илғор технологияларидан самарали фойдаланиб потенциал имкониятлари юқори навларини яратиш борасида катта илмий-тадқиқотлар олиб борилмоқда.

**Tadqiqot obyekti** sifatida xalqaro ilmiy markazlar ICARDA (International Center for Agricultural Research in the Dry Areas), International Maize and Wheat Improvement Center (CIMMYT, Meksika), navlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat: geografik kelib chiqishi turlicha bo'lgan yumshoq bug'doy jahon, kolleksiyalari nav namunalari orasidan morfologik, biologik va qimmatli-xo'jalik belgi va xususiyatlari bo'yicha namunalarni tanlashdan iborat.

**Калта пояли юмшоқ буғдойнинг ўсимлик бўйи ва ётиб қолишга чидамли нав намуналарини танлаш**

<sup>1</sup> Wheat genomics: present status and future prospects. Int. J. Plant Genomics, 2008; Article ID 896451.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

Ўсимлик бўйининг калта бўлиши суғориладиган дехқончилик худудлари учун кузги буғдой навларини яратишда бирмунча мураккаб ҳисобланади. Маълумки, суғориладиган худудларда екиладиган кўпгина навлар ётиб қолади, натижада ҳосилдорлик камайиб дон сифати ёмонлашади .

Ётиб қолиш нафақат ҳосилдорликни пасайтиради, балки ғаллани ўриб олишни қийинлаштиради, дон кўп бўлиб сифати пасайиб кетади. 1000 та дон вазни, дон натураси камайиб кетади.

Кўп йиллик тадқиқот натижаларини тахлили шуни кўрсатадики ётиб қолиш ўсимликнинг физиологик кўриниш бўлиб ташқи омиллар билан белгиланади. А) Ўсимлик поясидаги микроклим, нам ва юқори ҳарорат; Б) ёруғлик етишмаслиги; В) тупроқнинг хаддан ташқари намланиши; Г) замбуруғ ва бактериал касалликлар ва бошқалар.

Ётиб қолиш уч хил кўринишда бўлади: Илдиз, поя ва умумий (илдиз ва поя бир вақтда келганда). Ётиб қолиш натижасида дон пайдо бўлмайди ва бошоқда дон сони камайишига олиб келади. 1000 дона дон вазни камаяди сабаби эндосперм тўлиқ ҳолда тўлишмайди. Ётиб қолиш доннинг сифат кўрсаткичларига ҳам таъсир этиши мумкин.

Ётиб қолиш ўсимликларда эртароқ гуллаш даврида намоён бўлганда 19,8-30,9 % гача, мум пишиш даврида эса 9,9-17,6 % ҳосил йўқотилиши мумкин. 1000 дона дон вазни ва дон хажми камаяди, аммо хўл клейковина миқдори ва оқсил купаяди.

Жами ўрганилган юмшоқ буғдой 200 та нав намуналари орасидан 40 та ўсимлик поясининг баландлиги 60-41 смни, 40 та ўсимлик поясининг баландлиги 61-85 смни , 80 тасида 86-105 см, 40 та ўсимликда поянинг баландлиги 106-120 смни ташкил этди.

Ўсимлик баландлиги нав намуналарида 41 ва 60 см бўлганда 1м<sup>2</sup> дан олинган ҳосил 265 ва 300 граммни, ўсимлик баландлиги 61-85 см бўлганда ҳосилдорлик 1м<sup>2</sup> 453 ва 467 граммни ташкил етган бўлса, ўсимлик бўйининг баландлиги 86-105 см бўлганда ҳосилдорлиги 895 граммни, 120-106 см бўлганда 425 граммни ташкил этди.

### **1 жадвал**

**Ўсимлик пояси баландлиги бўйича нав ва намуналарнинг тақсимланиши.**







Ўсимлик поясининг баландлиги. см	Наму налар сони	Ўтиб қолишга чидамлилиқ балл			
Суперпакана (41смдан паст),					
Пакана (60-41 см):	40	9	0		
Ярим пакана (61-85 см),	40	4	0		
Калта пояли (105-86 см),	80	3	4	2	
Ўрта бўйли (120-106),	40		9		
Жами	200	6	3	6	8

Ўсимликнинг ўтиб қолишга чидамлилигини биз 1-9 балли шкала бўйича аниқладик, яъни: 1 балл- ўсимликлар ўриб олишга умуман ярамайди, барча ўсимликлар ўтиб қолган бўлади; 3 балл- ўсимликлар ўтиб қолади, унда механик ўрим жуда қийин кечади; 5- балл ўсимликлар ўртача ўтиб қолади; 7 балл – ўсимлик ўтиб қолади, лекин туриб кетиш қобилиятига эга бўлади; 9 балл- ўсимлик умуман ўтмайди.

Тажриба ўтказилган йиллар ўсимликларни ўтиб қолишга чидамлилиқ бўйича баҳолаш учун анча мақбул йиллар бўлди. Май ойининг бошларида бошоқлаш даврида ёмғир ёғиши, кучли шамол бўлиши бунга асосий омил бўлди. Калта пояли шаклларни одатдаги навларга нисбатан бошқа устунлиқларини ҳам кўрсатиб ўтиш мумкин. уларнинг юқори экологик пластиклиги, фотопериодик жихатдан бетарафлиги, серхосиллигини таъкидлайдилар

Бизнинг тажрибаларимизда калта пояли намуналар асосан Мексика ,Қозоғистон, Чили, Хитой, Канада, Украина ,Вэнгрия, Мексика, Аргентина ва Франция нав намуналар умумий ўрганилаётган намуналарнинг 45% ташкил





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

этди. Ўсимлик бўйи 100 см бўлганда ҳам ётиб қолишга чидамли ва юқори хосилга эга бўлган нав намуналари борлиги аниқланди..


Ўсимликнинг бўйи ва унинг ётиб қолишга чидамлилиги. Ўтказилган тадқиқотлар давомида ўрганилган нав намуналари орасида ўсимликнинг бўйининг баландлиги 89 смдан 105 смгача бўлиб, К-2786(Мексика), К-2468(Канада), К-4834(Украина), ICW-87460(Suriya), 92 L 196(AQSh) намуналарининг бўйи бошқа намуналарига нисбатан калтапояли булганлиги аниқланди.

Буғдойнинг ётиб қолишга чидамлилиги ўрганилган намуналарда 7 баллдан 9 баллгача бахоланди. К-4834 (Чили) , К-2786(Мексика), К-6918 Полукарлик(Қозогистон), К-2468(Канада), К-4834 (Украина) нав намуналари ётиб қолишга чидамли эканлиги кузатилди, ҳамда танлаб олинган нав намуналаридан келгуси селекция жараёнида фойдаланиш учун селекционерларга тавсия этилди .

### 3.5.- жадвал.

#### Юмшоқ буғдой намуналарининг ўсимлик бўйи ва ётиб қолишга чидамлилигини баҳолаш.

№	Нав намуналарнинг номи	Келиб чиқиши	Ўсимлик бўйи, см $M \pm m$	Ётиб қолишга чидамлилиги (балл)
1.	Замин 1(andoza)	O'zbekiston	$103 \pm 2,9$	7
2.	К-6918.Polukarlik	Qozogiston	$97 \pm 1,8$	9
3.	Murakkab duragay	Meksika	$89 \pm 2,4$	9
4.	Agre	Meksika	$95 \pm 2,5$	9
5	К-2786.	Meksika	$90 \pm 1,9$	9
6	К-4834 .	Chili	$93 \pm 2,3$	9
7	К-2468.	Kanada	$92 \pm 2,2$	9
9.	К-4834.	Ukraina	$89 \pm 2,4$	9





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

10	K-8389	Argentina	$94 \pm 2,9$	9
11	Suasan	Fransiya	$94 \pm 2,4$	9
12	K-60097	Vengriya	$98 \pm 2,2$	9
13	ICW-87460	Suriya	$89 \pm 2,4$	9
14	MVMA Tamara	Vengriya	$103 \pm 2,9$	7
15	92 L 196	AQSh	$97 \pm 1,8$	9
16	VDME-9	Turkiya	$98 \pm 2,2$	7
17	K-52029	Avstraliya	$101 \pm 2,4$	7
18	K-5 8643	Norvegiya	$105 \pm 1,9$	7
19	NPN-5-454	Germaniya	$94 \pm 2,9$	7
20	FRL-2004	Turkiya	$105 \pm 2,9$	7

Шуни такидлаш лозимки, калта пояга эга бўлган буғдой навлари маҳсулдор ва ўртача маҳсулдор бўлиши билан бирга ётиб қолишга чидамли бўлиши ҳам кузатилди. Юқори маҳсулдор, ётиб қолишга чидамли навлар поянинг юқори анатомик элементлари билан характерланади, бу ўртача маҳсулдорликка эга бўлган намуналарда эса ўртача бўлди. Шунинг учун кузги буғдойда ётиб қолишга қарши курашда асосий эътибор калта пояли, пояси ва илдиз тизими бакувват бўлган шаклларга берилади. Агар ўсимлик бўйи 61 смдан паст бўлганда хосилдорлик пасайишини ва 1000 дон дон вазнининг пасайиши бизнинг тадқиқотларимизда кузатилди.





### Фойдаланилган адабиётлар

1. Atabaeva.X.N.-Donli ekinlarning biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi, ToShDAU, 2009, 140.
2. Аманов О, О.Амиркулов, М.Қурбонназаров, М.Вафоева. “Ғаллани барг орқали озиклантиришнинг самараси”. Ўзбекистон қишлоқ хўжалик журнали. №2. 2016-йил. 33-бет.
3. Abdukarimov.D.Donli ekinlar seleksiyasi va urugchiligi.Darslik.2010.T
4. Mirzayev O. va boshqalar. Xorijiy va maxalliy bug'doy navlarini sinovini natijalari. Agrar Fani yutuklari va istikbollari. Ilmiy Amaliy konf. Ma'ruzalar tuplami. 1-2 may 2002 Toshkent, 33-34 bet.
5. Жўраев Д, А.Амонов, Ш.Дилмуродов, А.Мелиев. “Ташқи муҳит омилларининг юмшоқ буғдой нав ва намуналар ҳосилдорлиги ва сифат кўрсаткичларига таъсири” Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. №1. 2015-йил. 31-32-бетлар.





## TA'LIM TARAQQIYOTIDA XALQARO HAMKORLIKNING AHAMIYATI DJAVOTOVA OXISTA DJAMOL QIZI ANNOTASIYA

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida integratsiya omilining amal qilishi va ahamiyati ochib beriladi. Bugun mamlakatlar taraqqiyoti, rivoji, yuksalishi ta'lim taraqqiyoti bilan belgilanmoqda. Bu jarayonda integratsiya omili juda muhim o'rin tutadi. Integratsiya ta'limda xalqaro tajriba almashinuvida, fanlarning o'zaro birlashuvi natijasida yangicha metodologiyalar shakllanishida, yechimi murakkab muammolar yechimini hamkorlikda yechilishida samarali hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, integratsiya, sinergetika, metodologiya, zamonaviy ta'lim, milliy ta'lim.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрывается применение и значение интеграционного фактора в образовательном процессе. Сегодня прогресс, развитие и рост стран определяется прогрессом образования. Фактор интеграции играет очень важную роль в этом процессе. Интеграция эффективна при обмене международным опытом в образовании, формировании новых методологий в результате взаимной интеграции наук, совместном решении сложных задач.

Ключевые слова: образование, интеграция, синергетика, методология, современное образование, национальное образование.

### ANNOTATION

This article reveals the application and importance of the integration factor in the educational process. Today, the progress, development and growth of countries is determined by the progress of education. The integration factor plays a very important role in this process. Integration is effective in the exchange of international experience in education, the formation of new methodologies as a result of the mutual integration of sciences, and the collaborative solution of complex problems.

**Key words:** education, integration, synergetics, methodology, modern education, national education.

Ta'lim jarayonining murakkab tizim sifatida integratsion, ya'ni hamkorlikda rivojlanishi bugungi zamon talablaridan biridir. Bugun mamlakatlar taraqqiyoti, rivoji, yuksalishi ta'lim taraqqiyoti bilan belgilanmoqda. Bu jarayonda integratsiya omili juda muhim o'rin tutadi. Integratsiya ta'limda xalqaro tajriba almashinuvida,

fanlarning o‘zaro birlashuvi natijasida yangicha metodologiyalar shakllanishida, yechimi murakkab muammolar yechimini hamkorlikda yechilishida samarali hisoblanadi. Ta’lim tizimi rivoji integratsion jarayonlar orqali tezlashadi, yana-da mukammallashadi. Bugungi kunda butun jahonda integratsion ta’lim jarayoni jadal rivojlanayotgani buning yorqin namunasidir. Bizga ma’lumki, integratsion jarayonda turli rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimlari bir-biri bilan uyg‘unlashadi, birgalikda, hamkorlikda ta’lim rivoji uchun harakatlar amalga oshiriladi. Bu jarayonda, o‘z milliy ta’lim tizimiga uyg‘unlashtirish masalasida har bir mamlakat, jumladan, O‘zbekiston davlati ham juda oqilona yondashuvda bo‘lishi lozim. Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy kabi mamlakatlar ta’lim taraqqiyoti bugungi darajasiga aynan xorij ta’limini o‘z milliy ta’lim tizimiga uyg‘unlashtira olganligi uchun ham shu darajaga yetib kelganligidan xabardormiz. Shuning uchun ham integratsion jarayonlar faqatgina milliy ta’lim tizimi bilan uyg‘unlikda amalga oshirilsagina samarali natijalar berishi hamda ta’lim rivojini ta’minlashi mumkin deb hisoblaymiz.

Bugun mamlakatimiz ta’limini taraqqiy etishida integratsion omil juda zarur. Bu sohada jahonda ta’lim juda ilgarilab ketdi. Rivojlanayotgan mamlakat sifatida ta’lim islohotlarini tezlashtirish uchun jahondagi rivojlangan ta’lim tizimlari bilan hamkorlik, ya’ni integratsiyalashuv milliy ta’lim tizimimiz rivojiga faqat foyda beradi deb o‘ylaymiz. Hech bir tizim yakkalikda taraqqiy etishi juda mushkul. Hamkorlik, integratsiya tizim rivojining asosiy atributiv xususiyatidir.

Ta’lim jarayoniga integratsion yondashuv deganda, shuni tushunishimiz lozimki, bunda tizimda fanlararo, sohalararo, faoliyatlararo uyg‘unlashuv, birlashuv jarayoni kechadi. Integratsiya yechimini kutayotgan muammolar yechimida samarali mexanizmdir. Murakkab masalalar yechimida faqat hamkorlikdagi faoliyat orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Faylasuf olim V.P.Branskiy ta’biri bilan aytganda, raqobat turli sohalarda, ba’zan qarama-qarshi yo‘nalishdagi faoliyatni anglatga, kooperatsiya bir yo‘nalishdagi faoliyatni bildiradi. Qadimgi yunon tilida harakat, faoliyat tushunchalari “energiya”, birgalikdagi faoliyat esa “sinergiya” deb yuritilgan. Shu sababdan xam sinergetika avvalambor, birgalikdagi faoliyat, hamkorlikni anglatadi. Shu fikrdan kelib chiqib, ta’lim jarayonida, xususan, milliy ta’lim tizimining rivojida integratsiya omilining o‘rni muhim deb hisoblaymiz.

Shuni ham inobatga olmog‘imiz lozimki, hamkorlik masalasi azal-azaldan insonlarning diqqat-markazida bo‘lgan. Olimlar bu tushunchaga azaldan

individuallikka nisbatan ijobiy munosabatta yondashishgan. Shu sababdan azaldan ham buyuk olimlar hamkorlikda turli xil akademiyalar tashkil etib turli muammolar yechimiga bosh qotirishgan va muhim ilmiy kashfiyotlarni amalga oshirishgan. V.Budanov fikricha, sinergetik tushunchalar va tamoyillarning turli sohalarida keng tadbqiq qilinishi tufayli, matematikaga o'xshab universal xarakterga ega bo'lib bormoqda [2]. Vaholanki, sinergetik (hamkorlikda) yondashuv murakkab tuzilishga ega bo'lgan har qanday tizimning rivojlanish qonuniyatlarini, ayniqsa, bir-biridan farq qiluvchi uslub va qoidalarini birlashtirib, umumlashtiradi. Shu jihatidan qaraganda, integratsion yondashuvni sinergetikaning ta'lim jarayonini rivojini ta'minlash uchun qo'llash mumkin bo'lgan asosiy qirralaridan biri deb hisoblaymiz. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida O'zbekistonda milliy ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish uchun ta'limga integratsiya tamoyili orqali yondashuv muhim hisoblanadi.

Nafaqat oliy ta'limda, balki ta'limning barcha bo'g'inlarida integratsion omil birdek zarur.

Bugungi kunda butun dunyoda STEAM ta'limi tushunchasi qo'llanilmoqdaki, buning asl mohiyatida aynan integratsion ta'lim nazarda tutiladi. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika.

Demak, STEAM ta'limi bir qancha ta'lim sohalarini, bir qancha fanlarni, nazariya va amaliyotni birlashtira olgan integratsion rivojlanish usulidir. Vaholanki, bugungi zamon bir qancha sohalar uyg'unligidagina taraqqiy etadi.

Demak, milliy ta'lim tizimida *integratsion rivojlanish tamoyilining* amal qilishi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 4 moddasida ta'kidlangan ta'limning quyidagi asosiy prinsiplarini amalga oshirishga xizmat qiladi:

- ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;
- ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilishi;
- ta'lim va tarbiyaning demokratik xususiyati;
- ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;



- ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash [1].

Bizningcha, yuqorida keltirilgan, qonunchiligimizda mustahkamlab qo'yilgan mazkur ta'lim prinsiplarini amalga oshirish, sinergetik metodologiya imkoniyatlaridan keng foydalanishni talab etadi.

Ayniqsa, milliy ta'lim tizimini taraqqiy etishida integratsion omilning muhimligi shundaki, u fanlararo, sohalararo, mamlakatlararo hamkorlikni, ta'limdagi uyg'unlashuvni ta'minlaydi.

Zamonaviy ilm-fanda tabiiy va gumanitar fanlarning integratsiyalashuv tendensiyasi aniqlangan. Sinergetik paradigmaning rivojlanishi ikki soha – tabiatshunoslik va gumanitar yo'nalishning o'zaro ta'sirida ko'plab muammolarini hal qilishga yordam beradi. Bu tabiatshunoslik va ijtimoiy-gumanitar bilimlarni birlashtirish uchun yangi yo'nalishni taqdim etadi va shu bilan birga o'zi ham ushbu integratsiyaning natijasidir. Demak, tabiiy fanlar va ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarni bir-biridan ajratmagan holda, balki ilm-fan taraqqiyotida ularning integratsion faoliyatidan foydalanish ta'lim samaradorligi uchun muhim ahamiyatga egadir.

#### Xulosa:

**Birinchi**dan, integratsion omil O'zbekistonda zamonaviy ta'limni milliy ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirishda zaruriy ehtiyoj sanaladi. Integratsiya milliy ta'lim tizimini isloh etilishida, o'quv rejalari, o'quv dasturlari, o'quv adabiyotlari zamon talabiga moslashishiga zamin yaratadi.

**Ikkinchi**dan, integratsion rivojlanish natijasida, yangicha ta'lim paradigmalari kirib keladi hamda zamonaviy ta'lim tizimi milliy ta'lim tizimini butunlay yangi ko'rinishga olib chiqadi.

**Uchinchi**dan, Ta'lim tizimidagi sohalararo, faoliyatlararo, mamlakatlararo hamkorlik sohadagi muammolarning yechimida tezkor takliflar ishlab chiqilishida hamda ta'lim tizimi taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ги Қонуни. ЎРҚ-637-сон 23.09.2020.
2. Буданов В.П. Методология синергетики в постнеклассической науке: принципы и перспективы //http: //www intelros.ru/intelros/reiting/reytihg 09/material sofiy/5242-matodologiya-sinergetiki -v- postnoklassicheskoy –houkc-principyu -i- perspentivy.html.
3. Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: инновация ва истикболлар. Халқаро илмий конференция материаллари. 27 апрель, 2018 йил. – Тошкент.:Тошкент Давлат педагогика университети, 2018. – Б. 8.
4. Моисеев Н.Н. Современный рационализм. – М.: “МПЗП, КОКС”, 1995. – С. 364.
5. Мукушев. Б.А. Синергетика в системе образования. Образование и наука. 2008. № 3 (51) – С.105-122.
6. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

**Тошева Муштарий Равшан кизи**

**Научная статья на тему:**

**Особенности договоров дистрибуции и договоров эксклюзива: анализ и сравнение**

**Аннотация:** В данной статье производится исследование особенностей договоров дистрибуции и договоров эксклюзива. Разбираются понятия и характеристики данных типов соглашений, а также анализируются основные различия и сходства между ними. В конце статьи предоставляются практические советы и рекомендации по выбору наиболее подходящего типа контракта для различных ситуаций.

**Ключевые слова:** договор дистрибуции, договор эксклюзива, поставка, особенности договора.

Традиционная классификация договоров, предлагаемая современными исследователями-цивилистами и уходящая корнями в римское право, основана на принципе дихотомии (по различным основаниям) и выделяет соответственно: односторонние и двусторонние, возмездные и безвозмездные, реальные и консенсуальные договоры<sup>1</sup>. Также по принципу дихотомии договоры разделяются на основные и дополнительные, заключенные в пользу контрагентов и в пользу третьих лиц, основные и предварительные, вещные и обязательственные, меновые и алеаторные. Признавая, что «в настоящее время на практике применяется бесчисленное количество разновидностей договоров, многие из которых построены по моделям, не упомянутым в Гражданском Кодексе, тем не менее можно прийти к выводу о том, что выделенные в Гражданском кодексе модели «являются достаточно представительными». Между тем виды отношений между коммерсантами—участниками товарного рынка чрезвычайно разнообразны. Производители продвигают свои товары через систему коммерческих посредников (дистрибьюторов, дилеров, оптовиков и ритейлеров), и существующие между ними отношения не всегда удается втиснуть в предусмотренные договоры Гражданским Кодексом. Организовывая сбыт своих товаров через дистрибьютора, производитель заботится не только о

---

<sup>1</sup> Маслова, Варвара Алексеевна. Дистрибьюторский договор как правовой инструмент организации сбыта товаров : диссертация ... кандидата юридических наук : 12.00.03 / Маслова Варвара Алексеевна; - Москва, 2011. С. 195. : ил. РГБ ОД, 61 12-12/1982



реализации товаров как таковой, но и о том, как и кому его товары будут реализовываться в дальнейшем, выстраивая путь движения товаров до конечного потребителя.

Определение и сущность договоров дистрибуции.

По дистрибьюторскому договору одна сторона (дистрибьютор) в рамках осуществления предпринимательской деятельности обязуется приобретать товары у другой стороны (поставщика) и осуществлять его продвижение или реализацию на строго определенной территории, а поставщик обязуется не поставлять товар для реализации на этой территории самостоятельно или при участии третьих лиц, в том числе не продавать товар третьим лицам для распространения на этой территории. Следовательно, дистрибьюторский договор можно отнести к договорам смешанного характера, сочетающего в себе признаки договоров купли-продажи, поставки, перевозки, агентского договора, коммерческой концессии и иных обязательств. Данное обстоятельство объясняется тем фактом, что в дистрибьюторском договоре присутствуют две разновидности правоотношений: поставка продукции и её распространение, то есть присутствуют имущественное условие о поставке и организационное условие (организация системы сбыта).<sup>2</sup> Основным обязательством дистрибьютора в рамках рассматриваемого договора является организация сбыта, продвижения и распространения товаров, производимых поставщиком. Дистрибьютор может осуществлять продажу продукции крупным торговым сетям, несетевым розничным магазинам, оптовым организациям и т. д. Торговая практика показывает, что дистрибьюторские договоры, как правило, заключаются на длительный срок: на 1 год и более. Следовательно, он является долгосрочным.

Дистрибьюторский договор не предполагает совершение разовых сделок, как в случае с договором поставки. Изначально дистрибьюторский договор регламентировал международную торговлю, впоследствии данный тип соглашений стал активно применяться между местными предприятиями. Возник вопрос о правильном применении терминов. Так, по мнению Б.И.

---

<sup>2</sup> Статья К.А., Возисов К.Ю., Рубец, "Правовое регулирование дистрибьюторских отношений в РФ"// ЗАО «Юридическая фирма «Инмар». 2013. С. 1-18

Пугинского, в случае заключения дистрибьюторского договора между местными предприятиями дистрибьютор на самом деле является дилером.

Таким образом, вместо дистрибьюторского договора должен подписываться контракт на исключительную продажу товара<sup>3</sup>. Однако с этим нельзя согласиться. Дилер не имеет права продавать продукцию других производителей, в то время как дистрибьютор может иметь на это право.

Преимущества и риски при заключении договоров дистрибуции.

Одно из центральных мест в дистрибьюторском договоре принадлежит механизму ценообразования. Цена последующей партии товаров определяется результатом деятельности дистрибьютора: за достижение им определённого уровня продаж или улучшение сбыта назначается определённое вознаграждение в виде скидки на последующую партию товаров либо в виде премии (бонуса). Действия дистрибьютора по продвижению продукции - это заинтересованность самого дистрибьютора, так как он является собственником и продавцом товаров. При этом выгоду и пользу от указанных действий получает не только дистрибьютор, но и производитель, а также другие участники канала сбыта продукции. Особенностью договора дистрибуции является то, что услуги оплачивает производитель, а не покупатель продукции.

Существует разновидность дистрибуции, которая носит название эксклюзивного договора. Суть эксклюзивного права заключается в том, что сторона договора, которая его предоставляет, должна воздерживаться от заключения аналогичных договоров с другими лицами. При этом эксклюзивное право может быть предоставлено любой из сторон соответствующего договора. В договоре поставки, например, поставщик или покупатель могут взять на себя обязательство не заключать аналогичных договоров с третьими лицами. Стороны договора могут, кроме того, взять на себя данное обязательство одновременно. Контрагент стороны, принявшей на себя такую обязанность, вправе требовать от нее ее надлежащего исполнения. Только сторона, которой предоставлено эксклюзивное право, может осуществлять действия для контрагента, предусмотренные в договоре. Стороны могут предусмотреть неустойку за нарушение эксклюзивного права,

---

3 Борисова А.Б. Дистрибьюторский договор// Журнал российского права. М.: Норма, 2005, № 3. С. 56-64.



вправе прекратить его отступным или новацией. Нарушение условия об эксклюзивности, к примеру, поставщиком не дает оснований для оспаривания договоров, которые он заключил в нарушение такого условия, поскольку закон такой возможности не предусматривает. Однако это не освобождает недобросовестного поставщика от ответственности перед пострадавшим дистрибьютором, эксклюзивное право которого было нарушено. Принятое в результате предоставления эксклюзивного права обязательство не заключать аналогичные договоры с третьими лицами не может рассматриваться как ограничение правоспособности коммерсанта. Автономия его воли в этом случае не нарушается, поскольку обязательство он принимает на себя добровольно. Само же ограничение носит временный характер — оно действует в пределах срока соответствующего договора. Эксклюзивное условие можно включить и в дистрибьюторский договор, предоставив дистрибьютору исключительное право продажи товара поставщика на определенных условиях (согласованные срок и территория).

При выборе между договором дистрибуции или эксклюзивной сделкой, следующие факторы могут оказывать влияние на принятие решения:

1. Контроль и гибкость: Дистрибьюторский договор предоставляет большую гибкость и контроль над продуктом или услугой, поскольку человек может работать с несколькими дистрибьюторами на различных рынках. Эксклюзивный договор, с другой стороны, обеспечивает больший контроль над рынком и лучший доступ к потребителям.

2. Рыночная позиция и область покрытия: Если продукт является уникальным и требует особого внимания, эксклюзивный договор может быть предпочтительным выбором. Это позволит иметь больший контроль и лучшую видимость на рынке. С другой стороны, если продукт имеет большой спрос и масштабные возможности, дистрибуционный договор может быть более подходящим, так как он позволяет расширить географическую область покрытия через нескольких дистрибьюторов.

3. Финансовые условия: В зависимости от финансовых возможностей и политики компании, дистрибуционный договор может потребовать более низких вложений, поскольку дистрибьюторы могут покрыть расходы на

маркетинг и продвижение. В случае эксклюзивного договора, возможно, нужно будет вносить больше вложений и ресурсов на развитие рынка.

4. Длительность договора: Дистрибуционный договор обычно заключается на краткосрочный срок, который может быть продлен в зависимости от успеха сотрудничества. Эксклюзивный договор может быть более длительным и может быть заключен на несколько лет.

В каждом индивидуальном случае компания должна исходить из своих возможностей, но как было выше указано, и договор дистрибуции и договор эксклюзива имеют свои преимущества. В связи с тем, что данные термины не прописаны в законодательстве Республики Узбекистан, учитывая развитие рынка и спроса на данные виды договоров, следует пересмотреть действующее законодательства с внесением необходимых правок.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Статья К.А., Возисов К.Ю., Рубец, "Правовое регулирование дистрибуторских отношений в РФ"// ЗАО «Юридическая фирма «Инмар». 2013. С. 1-18
2. 1 Борисова А.Б. Дистрибуторский договор// Журнал российского права. М.: Норма, 2005, № 3. С. 56-64.
3. Маслова, Варвара Алексеевна. Дистрибуторский договор как правовой инструмент организации сбыта товаров : диссертация ... кандидата юридических наук : 12.00.03 / Маслова Варвара Алексеевна; - Москва, 2011. С. 195 .: ил. РГБ ОД, 61 12-12/1982.

## XITOIY XALQ RESPUBLIKASINING JSTGA A'ZO BO'LISHI VA UNING XIZMATLAR SOHASI RIVOJIGA TA'SIRI

*Davlatyarova Nilufar Toxirovna*

### **Annotatsiya:**

2001 yilda Xitoyning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishi jahon iqtisodiyotida muhim burilish yasadi. Ushbu maqola Xitoyning JSTga a'zo bo'lishi uning xizmatlar sohasi rivojlanishiga chuqur ta'sirini o'rganadi. Biz Xitoyning JST majburiyatlari natijasida boshlangan siyosat va islohotlarni ko'rib chiqamiz va xizmatlar sohasi evolyutsiyasini baholaymiz. Ushbu maqola paydo bo'lgan qiyinchiliklar va imkoniyatlarni tahlil qilib, Xitoyning xizmat ko'rsatish sanoatining xalqaro savdo doirasidagi o'zgarishi haqida tushuncha beradi.

Kalit so'zlar:

Xitoy, Jahon savdo tashkiloti, xizmatlar sohasi, iqtisodiy rivojlanish, savdoni erkinlashtirish, JST majburiyatlari.

1978-yilda Xitoy o'z iqtisodiyotini ochish va isloh qilishni boshlaganidan beri YaIM o'sishi yiliga o'rtacha 9% dan oshdi va 800 milliondan ortiq kishi qashshoqlikdan qutuldi. Xuddi shu davrda sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa xizmatlardan foydalanish borasida ham sezilarli yaxshilanishlar kuzatildi. Xitoy hozirda yuqori o'rta daromadli mamlakatdir. 2022-yil holatiga ko'ra Xitoy YaIMining 7,3%ida qishloq xo'jaligi, 39,9 % ida qishloq xo'jaligi va 52,8% ida xizmatlar sohasi yotadi. YaIMining umumiy qiymati esa 18 trillion AQSH dollariga teng bo'lgan, jon boshiga YaIM esa 12 814 AQSH dollaridan to'g'ri keladi. Ma'lumot uchun, AQShning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iqtisodiy mahsuloti 2022 yilda Xitoyga qaraganda deyarli olti baravar ko'p edi. Shu sababdan, Xitoy hanuzgacha rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida hisoblanadi.

Xitoy 1947-yildagi Tariflar va Savdo bo'yicha Bosh Bitimning (GATT) dastlabki shartnoma tarafdorlaridan biri bo'lgan. 1949-yildagi inqilob va Tayvandagi siyosiy vaziyat tufayli u a'zo bo'lishdan chetlatiladi. 1986-yilda Xitoy GATTga shartnoma tuzuvchisi sifatidagi maqomini tiklash uchun ariza topshirdi va muzokaralar boshlandi . 15 yildan ortiq davom etgan muzokaralardan so'ng, Xitoy yana Jahon Savdo Tashkilotiga (JST)a'zo bo'ldi va uning 2001- yilning dekabr oyida 143-a'zosiga aylandi va aynan shu bosqichga yetib kelguncha Xitoyda ushbu ishlar amalga oshirildi :

15 yillik muzokaralar;  
 Ishchi guruhning 38 ta uchrashuvi;  
 44 ta ikki tomonlama bozorga kirish kelishuvi;  
 Xitoyning JST majburiyatlari uchun 750 sahifali huquqiy hujjat;  
 1,3 milliard dan ortiq ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida ko'p tomonlama savdo tizimiga kirishdi.

2.2.1-jadval.

**Xitoy va Tayvanning JSTga a'zo bo'lish bosqichlari<sup>1</sup>**

	Xitoy	Tayvan
1947-yil 30-oktabr		Xitoy Respublikasi GATTning yaratilishining so'nggi Jeneva aktini imzolaydi
1948-yil 21-may		GATTning asoschi a'zolaridan biri bo'ladi
1949-yil 1-oktabr	XXR tiklanadi	
1958-yil		GATTdan chiqib ketadi
1965-yil 16-mart		Kuzatuvchisi bo'ladi
1971-yil 25-oktabr	BMTni Xitoyni tan olish rezolyutsiyasini qabul qiladi	
1971-yil 19-noyabr		Kuzatuvchi maqomini yo'qotadi
1986-yil	Qo'shilish uchun ariza beradi	
1990-yil		Qayta a'zolik uchun ariza beradi
1992-yil, sentabr		Yana kuzatuvchi bo'ladi
1995-yil, 1-yanvar	GATT JST ga aylanadi	
1995-yil 11-iyul	Kuzatuvchi	
2001-yil, 10-noyabr	Kirish ma'qullandi	
2001-yil, 11-noyabr		Kirish ma'qullandi


<sup>1</sup> [https://www.researchgate.net/figure/Timeline-of-Chinas-and-Taiwans-accession-to-the-WTO\\_tbl1\\_30049994](https://www.researchgate.net/figure/Timeline-of-Chinas-and-Taiwans-accession-to-the-WTO_tbl1_30049994)





2001-yil, 11-dekabr	qo'shilish yakunlandi
2002-yil, 1-yanvar	qo'shilish yakunlandi

Graham Boden o'zining “Xitoyning JSTga kirishi: iqtisodiy yutuqlar” maqolasida quyidagi fikrlarni ilgari surgan, “Xitoyning JSTga a'zo bo'lishi Xitoyliklar uchun ham jahon iqtisodiyoti uchun ham katta turtki bo'ldi. JSTga a'zolik eksport hajmining hayratlanarli darajada o'sishi, Xitoy importiga tariflarning kamayishiga olib keldi. O'sib borayotgan eksport bozori hamda investitsiyaga to'siqlarning kamayishi Xitoy kapitali ortishini ta'minlab berdi. A'zolik talablari Xitoy xalqiga buyuk savdo liberalizatsiyasini, davlat aralashuvi passiv bo'lgan tadbirkorlikni hamda xususiy sektorga katta kuch olib kirdi. Bundan tashqari, Xitoy hukumati JSTga a'zo bo'lishni Xitoy iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi uchun noyob imkoniyat deb hisobladi. ” JST kelishuvlarining MFN bandi boshqa JST mamlakatlarida Xitoy eksportiga nisbatan kamsitishning oldini olishga yordam beradi . Tashqi bozorga kirishning kengayishi Xitoy mahsulotlari eksportining o'sishiga olib keldi. 2000-yildan 2005- yilgacha Xitoyda sof eksporti yalpi ichki mahsulotdagi ulushi sifatida 20,83% dan 33,68% gacha o'sdi .




### 2.2.1-rasm. Xitoy eksportining yillar davomida YaImdagi ulushi %da.<sup>2</sup>

Xitoyning JSTga a'zo bo'lishi deyarli barcha JST a'zolariga butun dunyo bo'ylab potentsial iste'molchilarning deyarli 20%ini tashkil etadigan 1.3 milliarddan ortiq kishilik ulkan bozorga kirish imkoniyatini berdi. JSTning o'zi uchun Xitoyning a'zo bo'lishi juda ko'p oqibatlar va xavflarni keltirib chiqardi va bunday gigantning qo'shilishi bilan muvaffaqiyatli kurashish qobiliyatini xavf ostiga qo'ydi. Muvaffaqiyatli bo'lishiga qaramay, JSTga a'zo bo'lishning uzoq davom etgan jarayoni oson va silliq kechmadi. Xitoyning ham rivojlanayotgan, ham rivojlangan davlat ekanligi muzokaralarga to'sqinlik qildi. Xitoy hukumati muzokaralar davomida Xitoyning rivojlanayotgan davlat maqomini doimiy ravishda ta'kidlagan bo'lsa-da, G'arb davlatlari Xitoyga iqtisodiy kuch sifatida qarashdi va uning qo'shilishi o'z iqtisodiyotlariga jiddiy zarar yetkazishidan qo'rqishdi. Bu Xitoyni nihoyat 2001-yilda JSTga to'liq kirish evaziga misli ko'rilmagan shartlar va majburiyatlarni qabul qilishga olib keldi.


Xitoy JSTga a'zo bo'lganidan so'ng tez sur'atlar bilan savdo o'sishiga erishdi. Qisman tariflarni pasaytirish tufayli Xitoyning tovarlar savdosi 2001-yildagi 516,4 milliard dollardan 2017-yilda 4,1 trillion dollarga ko'tarildi. 1992-yilda Xitoyning o'rtacha 32,2% lik tarif stavkasi jahon bo'yicha o'rtacha 7,2 %dan ancha oshib ketdi. 2002-yilga kelib bu ko'rsatkich 7,7 %ga kamaydi. Biroq, o'shandan beri Xitoy tariflari deyarli o'zgarmadi va 2003- va 2017- yillar orasida o'rtacha 4,8% tashkil etdi (2.7-rasm).

<sup>2</sup> <https://www.statista.com/statistics/256591/share-of-chinas-exports-in-gross-domestic-product/#:~:text=China's%20share%20of%20exports%20in,24%20trillion%20yuan%20that%20year.>



2.2.2- rasm. Xitoyda umumiy tovar va xizmatlarga tarif darajasi.

2010-yilga kelib, Xitoyning joriy hisob balansi 305 mlrd. AQSH dollari tashkil etdi (Google public ma'lumotlari, IMF). Xitoyda arzon ishchi kuchining ko'pligi tufayli Xitoyning eksporti asosan mehnat ko'p talab qiladigan ishlab chiqarish mahsulotlari bo'lgan. Ko'p mehnat talab qiladigan ishlab chiqarishga e'tibor ishchilarni birlamchi sektordan ikkilamchi sektorga o'tkazdi. Qishloq xo'jaligida band bo'lgan ishchilar ulushi 2001-yildagi 50% dan 2010 yilda 11,2% gacha kamaydi (Jahon banki, 2011). Bundan tashqari, YaIMning birlamchi sektorga to'g'ri keladigan foizi 1994-yildagi 23,5% dan 2006-yilda 11,7% gacha kamaydi. Ko'proq mehnat talab qiladigan mahsulotlar ishlab chiqarilsa, ishlab chiqarishni davom ettirish uchun ishchi kuchiga talab katta bo'ladi. Ushbu yuqori talab Xitoyda sanoat bo'yicha real ish haqining oshishiga olib keldi. 2001-yildan 2006-yilgacha sanoat bo'yicha real yillik ish haqi 2007-yildagi yuqoriga nisbatan o'rtacha 12 000 yuandandan 24 000 yuanguacha ikki baravar ko'paydi. Haqiqiy ish haqining bu o'sishi Xitoyning yuqori sinfiga




ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

tegishli emas edi. Bu, odatda, ishlab chiqarish va chakana savdo kabi past maoshli tarmoqlarni o'z ichiga oladi.

Agar Xitoy YAIMini sohalar bo'yicha ulushiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1980-yillardagi qishloq xo'jaligi va sanoat o'rnini bosgan holda, xizmatlar Xitoyning eng yirik sektoriga aylandi va 2020-yilda mamlakat YaIMining 53% ini tashkil etdi. Xitoyning xizmat ko'rsatish sohasi ko'plab tarmoqlarni, jumladan, omborxon va transport xizmatlari, axborot xizmatlari, qimmatli qog'ozlar va boshqa investitsiya xizmatlarini o'z ichiga oladi (2.2.3 - rasm)

Xitoy a'zo bo'lgan kundan boshlab 7 yillik muddat ichida xizmatlar savdosini to'liq liberallashtirishni qabul qildi. JSTga qo'shilish Xitoyni xorij firmalari uchun hozirgacha juda yopiq xizmatlar bozorini deyarli to'liq ochishga majbur qildi. Aslida, Xitoy tomonidan ushbu sohada qabul qilingan majburiyatlar JSTga a'zo bo'lgan boshqa davlatlar tomonidan xizmatlarning erkin savdosi bo'yicha qabul qilingan majburiyatlardan yuqori ekanligi aytiladi, bu esa yaqin tarixdagi "liberallashtirishning eng dramatik epizodlaridan biriga" olib keldi .



### 2.2.3 - rasm . 40 yil ichida Xitoy YaIMidagi sohalar ulushi o'zgarishi.<sup>3</sup>

JST qoidalariga muvofiq, Xitoyda deyarli barcha xizmat turlari liberallashtirishga o'tildi: professional xizmatlar, kompyuter xizmatlari, telekommunikatsiya, qurilish va muhandislik xizmatlari, yetkazish xizmatlari, ta'lim xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, sug'urta xizmatlari yoki transport xizmatlarining barchasi Protokolda ko'rsatib o'tilgan.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

Xitoyning xizmatlar savdosi juda tez rivojlanmoqda va butun dunyo bo'ylab tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. JST statistik ma'lumotlariga ko'ra, Xitoyning xizmat ko'rsatish savdosi 2006-yilda 190 mlrd. AQSh dollaridan oshdi, bu 2001 yildagi hajmidan 2,7 baravar ko'p .(Jadval). Sektor eksporti 91,4 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, xalqaro tijorat xizmatlari eksportining 3,3% ini tashkil etdi va JST a'zolari orasida 8-o'rinni egalladi. Uning importi 100,3 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi, bu butun dunyo bo'ylab importning 3,8% ini tashkil etdi va JST a'zolari orasida 7-o'rinni egalladi.

2.2.2-jadval.

**2001-, 2003- va 2006- yillarda Xitoyning JST a'zolari orasida xizmatlar savdosi eksportchisi va importchisi sifatidagi o'rni. "Yillik foiz o'zgarishi" o'tgan yilga nisbatan o'zgarishni bildiradi.**

Yil	Eksport				Import			
	Reyting	Qiymat (mlrd.AQSH dollari)	Jahonda gi ulushi	Yillik % o'zgarishi	Reyting	Qiymat (mlrd.AQSH dollari)	Jahonda gi ulushi	Yillik % o'zgarishi
2001	12	32,9	2.2	3.1	10	39.0	2.6	8.9
2003	9	46,4	2.5	18.0	8	54.9	3.1	19.0
2006	8	91,5	3.3	23.7	7	100.3	3.8	20.6

Xitoy JST ga a'zo bo'lganidan keyin quyidagilarni amalga oshirishga kelishadi:

Telekommunikatsiya sohasida Telekommunikatsiyalar bo'yicha Asosiy Kelishuvga qo'shiladi, xizmatlarga nisbatan barcha geografik cheklovlarni 5 yil ichida bekor qilishni belgilaydi va qo'shilgandan keyin 3 yil ichida barcha telekommunikatsiya xizmatlarida 49% xorijiy mulkka ruxsat berish;

Sug'urta sohasida 2 yildan 5 yilgacha geografik va xizmat ko'rsatish cheklovlarni bosqichma-bosqich bekor qilish, qo'shilish paytida hayotni sug'urtalash bo'yicha 50% va hayotdan tashqari sug'urta bo'yicha 51% iga egalik qilish (2 yil

ichida ikkinchisi 100% ga ko'tariladi) va qayta sug'urtalash uchun va yirik -ko'lamli tijorat risklari, qo'shilgan kundan boshlab 5 yil ichida bozorlarning to'liq ochiqqligini ta'minlash;

Bank sohasida xorijiy banklarga 2 yildan so'ng Xitoy korxonalarini bilan milliy valyutada, 5 yildan so'ng esa chakana savdoni amalga oshirishga ruxsat berish va bankdan tashqari kompaniyalarga qo'shilishda avtomobil moliyalashtirishni taklif qilishiga ruxsat berish;

Qimmatli qog'ozlar biznesida xorijiy firmalarga qimmatli qog'ozlar fondlarida minimal ulushlarga ega bo'lishlariga ruxsat berish, maksimal ulushlar dastlab 33% dan 3 yildan keyin 49% gacha ko'tariladi.

Tarqatish va sotishda mavjud mahalliy investitsiyalari bo'lgan xorijiy kompaniyalarga qo'shilish bo'yicha xitoylik hamkor bilan ulgurji biznesni amalga oshirishga ruxsat berish, 2003-yil yanvarigacha barcha miqdoriy va geografik cheklovlar olib tashlangan holda yirik shaharlarda xorijiy investitsiyalar chakana biznesiga kirishga ruxsat berish va xorijiy firmalarga qo'shilganidan keyin 3 yil o'tgach, import va eksport huquqlaridan to'liq foydalanish imkonini beradi.

Boshqa xizmatlarda xorijiy ko'pchilik nazorati ostida bo'lgan xorijiy firmalarga keng ko'lamli professional xizmatlarni, jumladan, buxgalteriya hisobi, soliqqa tortish va boshqaruv bo'yicha maslahatlarni ko'rsatishga ruxsat berish; xorijiy kinokompaniyalarga video va ovoz yozuvlarini tarqatish bo'yicha qo'shma korxonalar tashkil etishga ruxsat berish; va 3 yil ichida mehmonxonalariga 100% xorijiy egalik qilishga ruxsat berish.

JST a'zo davlatlar bank sektoriga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Xitoyxorijiy banklar uchun juda jozibali bozor hisoblanadi. Uning katta aholisi va barqaror iqtisodiy o'sishi Xitoy moliya sektorining tez kengayishiga olib keladi. Xorijiy banklar Xitoyda mavjud bo'lgan har qanday bankka kirish va ularni boshqarishga intilishadi. Bundan farqli o'laroq, Xitoy hukumati mahalliy bank faoliyatini himoya qilishni maqsad qilgan holda, Xitoyda xorijiy banklarning faqat cheklangan aralashuvini qabul qiladi. Xitoy hukumati Xitoy faqat ma'lum xorijiy institutlarga Xitoy-xorijiy qo'shma korxonalar banklarini tashkil etishga ruxsat berish, lekin Xitoy banklarini sotib olishni cheklash majburiyatini olganligini tasdiqlaydi. Shuningdek, Xitoyning xorijiy kapital ishtirokidagi mahalliy banklarida transchegaraviy qo'shilish jarayonlari so'roq ostida qolmoqda.

Eng mashhur JST bahslaridan birida Xitoy o'z bozorini Mastercard va Visa kabi xorijiy elektron to'lov xizmatlariga yetarli darajada ochmagani aniqlandi. Jahon Savdo Tashkiloti Xitoyning China Union Payni yuandagi to'lov kartalari tranzaksiyalarini kliring uchun monopolist yetkazib beruvchi qilib, JST qoidalarini buzganligini aniqladi. Qarorga muvofiq, Xitoy Davlat kengashi 2014-yilda o'z bozorlarini xorijiy to'lov xizmatlari uchun ochishini e'lon qildi, biroq Mastercard, American Express va boshqa kompaniyalar 2020-yil boshida Xitoy Xalq banki tomonidan Xitoyda bank kartalari bilan operatsiyalar tashkil etilishiga ruxsat berilgan edi.

Xulosa o'rnida, JSTga a'zo bo'lganidan so'ng mamlakat markaziy hukumat darajasida 2300 ta qonun, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va idoraviy hujjatlarni hamda mintaqaviy hukumatlar darajasida 190 000 ta yo'riqnoma va me'yoriy hujjatlarni ko'rib chiqdi va qayta ko'rib chiqdi. Ushbu qonunlar savdo, investitsiyalar va intellektual mulk huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq edi.

JSTga qo'shilganidan beri Xitoy ko'p tomonlama savdo tizimi doirasida o'z va'dalari va majburiyatlarini faol ravishda bajarib, mas'uliyatli va ishonchli kuch va rivojlanayotgan yirik iqtisodiy sub'ekt sifatida harakat qilmoqda. Tovarlar savdosida ochiqlikni kengaytirish maqsadida Xitoy import bojxona to'lovlarini sezilarli darajada kamaytirdi, notarif to'siqlarni kamaytirish va bozorga kirish va tashqi savdoning to'liq erkinligini maqsad qilib qo'ydi. Bojxona tariflarining umumiy darajasi 2001 yildagi 15,3% dan 9,8% gacha kamaydi. 2021-yil oxirida xorijiy kapital ishtirokidagi xususiy korxonalar va korporatsiyalar mamlakatning umumiy eksport va import hajmining 83,7%ini 2001-yildagi 57,5% ni tashkil etdi. Xizmatlar savdosidagi ochiqlik haqida gapirganda, Xitoy tashqi dunyoga o'z bozorini ochdi va o'z bozorlarini ko'tardi. 2010-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasi birinchi marta ishlab chiqarish sanoatini ortda qoldirdi va 2021-yilda u barcha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining 73% ini tashkil etdi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ma, L. (2016). China's Services Trade in the World: Trends and Policy Challenges. *Asian Economic Policy Review*, 11(2), 225-242.
2. Yu, M., & Chen, S. (2019). The Impact of China's WTO Accession on the World Economy. *Journal of Economic Perspectives*, 33(2), 29-52.
3. US-China Business Council. (2021). *US-China Economic and Trade Relations: An Overview of 2020 and Outlook for 2021*. US-China Business Council.
4. Naughton, B. (2018). *The Chinese Economy: Adaptation and Growth*. MIT Press.
5. WTO. (2021). *Trade Policy Review: China*. Retrieved from <https://www.wto.org>.





## BALIQLAR OZUQASINI MIKROORGANIZMLAR BILAN BOYITISH

Negboyeva Maftuna Izzatillo qizi

*Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada baliqlar ozuqasini mikroorganizmlar bilan boyitish haqida hamda ularni qo'llash texnikasi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** intensiv akvakultura, baliqchilik, oziqlantirish

Baliq va baliq mahsulotlariga bo'lgan talab yildan yilga ortmoqda. Shu bois, mamlakatimizda baliqchilikni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi mavjud baliqchilik texnologiyalari baliq yetishtirishning takomillashtirish masalalari va yangi jadal texnologiyalarni joriy etish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. O'zbekiston baliqchiligida tuproq hovuzlarida (50-100ga) baliq yetishtirish usullari yo'lga qo'yilgan. Bu ekstensiv baliq yetishtirish usuli katta miqdorda suv mineral va organik o'g'it omuxta yem talab qiladi. Bunday usulda baliq yetishtirishda omuxta yemning sarfi 8-10 ozuqa koeffitsiyentiga to'g'ri kelishi baliqchilik xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib keladi. Bunday hovuzlarda baliq mahsuldorligi o'rtacha 7-10 s/ga ni tashkil etmoqda. Rivojlangan va suv resurslari jadal bo'lgan mamlakatlarda har bir m<sup>3</sup> suv hajmidan 50 kg dan kam bo'lmagan baliq yetishtirishyo'lga qo'yilgan. Yuqori miqdordagi natijalarga erishish uchun biz ham baliq yetishtirishda ekstensiv usuldan intensiv usulga o'tishimiz talab etiladi. Buning uchun biz intensiv akvakulturada baliqlar uchun beriladigan sun'iy ozuqa maxsulotlari va ularning qo'llanish me'yorlarini bilishimiz talab etiladi. Quyidagi maqolamizda baliqlar uchun qo'shimcha ozuqa va ozuqa sifati qanday bo'lishligi haqida bir qator tavsiyalarni berib o'tganmiz.

Tabiiy ozuqa bazasidan tashqari qo'shimcha ravishda sun'iy oziqlantirishni qo'llashning bir qancha sabablari bor:

-Tabiiy ozuqa sifati etarli bo'lmasa, baliqni oziqlantirish, ya'ni bu oziq-ovqat bazasi baliqlarning yaxshi o'sishini ta'minlamaydi;

-Baliq ishlab chiqarishni sezilarli darajada oshirmoqchi bo'lganingizda, ya'ni bir xil hovuzdan ko'proq sotiladigan baliqlarni etishtirish yoki tezroq baliq o'sishiga erishish. Bunday holda siz keng tizimdan yarim intensiv tizimga o'tasiz. Bunda siz qanday qo'shimcha ozuqani tanlashni bilishingiz talab etiladi. Tanlashda quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'lgan ozuqalarga ustunlik bering. Tarkibida yuqori miqdorda oqsil, uglevodlar va kam miqdordagi tolali birikmalar saqllovchi qo'shimcha ozuqalarni





tanlash samarali natija beradi, shuningdek yuqoridagilar baliq tomonidan yaxshi iste'mol qilinadi. Tanlagan qo'shimcha ozuqangiz arzonroq, ayni vaqtda mavjud, tashish, qayta ishlash uchun minimal qo'shimcha narxga ega, ishlov berish va saqlash uchun qulay bo'lishi talab etiladi. Kichik fermerlarga tavsiyamiz agar iloji bo'lsa, hamkorlik qiling va birgalikda ozuqa sotib oling, shunda transport, qayta ishlash va boshqalar uchun ortiqcha xarajatlar kamayadi.

Qo'shimcha ozuqa sifatida turli xil mahsulotlar ishlatiladi: quruqlikdagi o'simliklar: yashil qismi, dukkaklilar va boshqa mevalar, barglar, dukkakli va boshqa o'tloq o'simliklari urug'lari, butalar, daraxtlar, shu jumladan meva va sabzavot ekinlari; suv o'simliklari: suv zamboli, o'rdak, pitsian va boshqalar; kichik quruqlikdagi umurtqasizlar: tuproq qurtlari, hasharotlar, mollyuskalar, suvda yashovchi hayvonlar: qurtlar, begona o't baliqlari, tadpolilar; • guruch: somon, kepak, qobiq; yormalar: kepak, urug' va un, ayniqsa past nav; makkajo'xori: yashil qism, kepak, un va boshqalar; turli madaniyatlarga mansub pirojnoe va taom; oshxona chiqindilari; pivo zavodlaridan chiqindilar; ipak qurti lichinkasi va boshqalar.

### **Hovuz baliqchilik xo'jaligida ishlatiladigan baliq ozuqasi 3 turga bo'linadi:**

**1. Tabiiy ozuqa.** Hovuzdagi tabiiy ozuqa resurslari: fitoplankton, zooplankton - mikroskopik suv o'tlari, yuksak suv o'simliklari, tuban va yuksak qisqichbaqasimonlar, bakteriyalar, detrit, zoobentos, nektobentos, hasharotlar va boshqa suv jonivorlarini o'z ichiga oladi. Tabiiy ozuqa resurslari miqdori, asosan suv sifatiga bog'liq. Suvdagi gidrobiontlarni ko'paytirish ham tabiiy ozuqa resurslarini boyitadi. Ularning ozuqa koeffitsiyenti 8 — 10 ga tengdir.

**2. Qo'shimcha ozuqa.** Qo'l bilan hovuzga kiritiladi. Ozuqaning bu turi mahalliy bozorda bor. Chorva chiqindilari, o'simlik hosili, va oshxona chiqindilarini ham qo'shimcha ozuqalar qatoriga kiritish mumkin. Bunday ozuqa koeffitsiyenta 5-6 ga teng. Hozirgi kunda tayyorlanadigan omixta yem sifatsiz, u kepakdan yoki syellyulozadan iborat. Qo'shimcha ozuqa sanoat tarzida tayyorlanadigan sun'iy omuxta yem hisoblanadi. U maxsus sanoat usulida tayyorlanadi.

**3. Balanslashgan ozuqa.** Bu ham baliqshunos tomonidan qo'l bilan baliqlarga beriladi. Ammo ozuqa nihoyatda to'yimli, maxsus zavodlarda tayyorlanadi. Ozuqa koeffitsiyenta 1,5—2,0 ga teng bo'lib, baliq mahsuldorligi yuqori, ammo nihoyatda qimmatdir. Bunday ozuqa bilan asosan oddiy laqqa, kanal laqqasi, xonbaliq (forel) va karp kabi baliq turlari boqiladi.





Respublika miqyosida akvakultura yoki sun'iy hovuz baliqchiligi uch yo'nalishda tashkil qilingan. Bular quyidagilar:

1. Yerda qazib tayyorlangan sun'iy hovuz baliqchilik xo'jaliklari.
2. Tabiiy suv havzalari hududida sadoq (to'r hovuzlar) baliqchilik xo'jaliklari.
3. Basseyn hovuz baliqchilik xo'jaliklari tashkil qilingan (yopiq va ochiq basseyn). Hozirgi kunda sun'iy hovuz xo'jaligida baliq boqish va baliqlarni oziqlantirish haqida juda ko'p adabiyotlar mavjud. Ammo tabiiy suv havzalarida baliqlarni oziqlantirish haqida zarur uslubiy qo'llanmalar kam. Ayniqsa, baliqlarni ozuqaga bo'lgan talabi, aniq ozuqa muhitida ozuqa bilan ta'minlash, baliqlarning ozuqa organizmlarni jadal iste'mol qilishi hamda ozuqa ob'yektining baliqlar populyasiyasi tomonidan samarali foydalanishi, qo'shimcha baliq mahsuloti olish to'g'risida ma'lumotlar yo'q. Fitoplankton, zooplankton, mikroskopik suv o'tlari. Mikroskopik suv o'tlari suvda erkin "suzuvchi" deb ataladi. Bunday holatda yashash uchun evolyutsion jarayonda ular hujayralarning nisbiy zichligining pasayishiga (gazpufakchalarining shakllanishi, qo'shimchalarning to'planishi) hamda ularning ishqalanishining (jarayonlar) oshishiga yordam beradigan bir qator moslashuvlarni ishlab chiqdilar. turli shakllar, o'simtalar). Chuchuk suv fitoplanktonlari asosan ko'k-yashil, yashil, diatomlar, oltin, pirofitlar va evglena suv o'tlari bilan ifodalanadi. Fitoplankton jamoalarining rivojlanishi ma'lum chastotada sodir bo'ladi va turli omillarga bog'liq. Masalan, mikroalglar biomassasining ma'lum bir nuqtaga yetgunga qadar o'sishi so'rilgan yorug'lik miqdoriga mutanosib ravishda sodir bo'ladi. Ko'k-yashil va yashil suv o'tlari kechayu kunduz yorug'lik bilan, diatomlar- qisqaroq fotoperiod bilan eng intensiv ko'payadi. Mart-aprel oylarida fitoplankton o'simliklarining o'sish jarayonining boshlanishi ko'p jihatdan suv haroratining oshishi bilan bog'liq. Diatomlar past haroratga optimalligi bilan ajralib turadi, ko'k-yashil va yashillar esa yuqoriroqdir. Shu sababli ham, bahor va kuzda, 4 dan 15 gacha bo'lgan suv haroratida, suv omborlarida diatomlar hukmronlik qiladi. Mineral suspenziyalardan kelib chiqqan suv loyqaligining oshishi fitoplankton rivojlanishining intensivlik darajasini pasaytiradi, ayniqsa ko'k yashil. Diatomlar va protokok suv o'tlari suvning loyqaligiga nisbatan sezgirliги yuqori emas. Fosfatlar, nitratlar va silikatlariga boy suvda asosan diatomlar yaxshi rivojlanadi, ko'k-yashil va yashillar esa bu biogen elementlarning tarkibiga kamroq talabchan. Fitoplanktonning tarkibi va ko'pligiga suv o'tlarining chiqindilari ham bevosita ta'sir qiladi, shuning uchun ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, ularning ba'zilar orasida antagonistik munosabatlar mavjud. Turli xil chuchuk suv fitoplankton turlaridan diatomlar, ko'k-yashil va yashil suv o'tlari eng ko'p va oziq-ovqat jihatidan qimmatlidir. Diatomlarning hujayralari kremniyning ikki pallali qobig'i bilan qoplangan. Ularning xarakteri, sarg'ish-jigarrang rang bilan ajralib







turadi. Bu mikro elementlar zooplankton ratsionida muhim rol o'ynayapti, lekin organik moddalarning past miqdori tufayli ular ozuqaviy qiymati masalan, protokok suv o'tlarida bo'lgani kabi muhim emas. Yashil yosunlarning o'ziga xos xususiyati esa doimiy yashil rangdir. Ularning yadro va xromatoforni o'zida jamlagan hujayralari turli shakllarda bo'lib, ko'pincha tikanli to'plamlar bilan qoplangan. Ba'zilarining ko'zlari qizil (stigma) rangga ega. Ushbu bo'lim vakillaridan protokok suvo'tlar ommaviy yetishtirish ob'ektlari (xlorella, scenedesmus, ankistrodesmus). Ularning hujayralari mikroskopik hajmga ega va suvda yashovchi organizmlarni filtrlash uchun oson hisoblanadi. Ushbularning quruq moddasi kaloriya tarkibi 7 kkal/g ga yaqinlashadi. Ularda yetarli darajada yog'lar, uglevodlar, vitaminlar mavjud. Ko'kyashil suvo'tlarining hujayralari xromatoforlar va yadrolarga ega emas, bir xil ko'k-yashil rangga ega. Ayrim hollarda ularning rangi binafsha, pushti va boshqa soyalarni olishi ham mumkin. Quruq moddalarning kaloriya miqdori 5,4 kkal/g ga etadi. Protein tarkibida to'liq aminokislotalar, ammo past eruvchanligi tufayli u baliq uchun mavjud emas. Suv omborlarining tabiiy oziq-ovqat bazasini yaratishda fitoplankton asosiy rolni bajaradi. Mikrofitlar asosiy ishlab chiqaruvchilar sifatida noorganik birikmalarni o'zlashtirib, zooplankton (asosiy iste'molchi) va baliq (ikkilamchi iste'molchi) tomonidan ishlatiladigan organik moddalarni sintez qiladi. Zooplanktonning tuzilishi ko'p jihatdan fitoplanktondagi katta va kichik shakllarning nisbatiga bog'liq. Mikrofitlarning rivojlanishini cheklovchi omillardan biri suvda eruvchan azot (asosan ammoniy) va fosfor miqdoridir. Hovuzlar uchun 2 mg N / l va 0,5 mg R/l optimal norma hisoblanadi. Fitoplankton biomassasining ko'payishiga mavsumda 1 ts/ga azot-fosfor va organik o'g'itlarning fraksional qo'llanilishi yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Камиллов Б. Г., Каримов Б. К. “Кормление рыб в рыбоводстве”- Ташкент, 2008. С- 24-27 .
2. S.Q.Husenov, D.S.Niyazov “Baliqchilik” – Toshkent, 2013. 233-234 b.
3. Dickson, M.W. 1987. The supply of vitamins in feeds for intensive farming in Zambia. Aquacult. Fish. Manage. 18: 221-230.
4. Н.В.Ильмаст “Введение в ихтиологию” Петрозаводск 2005- С. 81-82







## **BOSH MIYA O'SMASI OPERATSIYASIDAN KEYINGI ERTA DAVRDAGI QON KETISHLARNI ANIQLASHDA ERTA DAVRDAGI KOMPYUTER TOMOGRAFIYASINI RO'LI**

**Oxunjonov Zuxriddin Bahodir o'g'li**  
**Maksudov Muzaffar Fatxullayevich t.f.d**

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

### **Kirish**

Operatsiyadan keyingi intrakranial gematoma (OKIG) bosh miya jarrohligidan keyin paydo bo'ladigan keng tarqalgan asoratdir. Bu uzoq vaqt kasalxonaga yotqizish, ko'plab tibbiy xarajatlar va hatto og'ir nevrologik disfunktsiya va o'linga olib kelishi mumkin. OKIG oqibatlarini o'zgartirishning yagona yo'li erta aniqlash va to'g'ri davo choralarini ko'rishdir. Neyroxirurgik jarrohlikdan so'ng klinik va nevrologik monitoring OKIGni aniqlashning asosiy usuli hisoblanadi [1]. Odatda, ikkinchi jarrohlik amaliyoti zarur bo'lgan yakuniy OKIG tashxisi kompyuter tomografiyasi (KT) yordamida amalga oshiriladi [2, 3]. Biroq, OKIGni aniqlashda muntazam, o'z vaqtida operatsiyadan keyingi kompyuter tomografiyasining (intrakranial gematomaning klinik jihatdan namoyon bo'lishidan oldin amalga oshirilishi mumkin) o'rni hali ham bahsli bo'lib qolmoqda [1].

### **Materiallar va usullar**

Biz 2021-2022 yillar davomida Respublika Neyroxirurgiya ilmiy markazida bosh miya o'smasi bo'lgan, kraniotomiya qilingan 110 ta bemorlarning tibbiy ma'lumotlarini retrospektiv tarzda ko'rib chiqdik. Materiallar mexanik usulda tanlab olindi.

OKIG holatlarini aniqlash uchun 2021-2022 yillar davomida Respublika Neyroxirurgiya ilmiy markazida bosh miya o'smasi bo'lgan, kraniotomiya qilingan 110 ta bemorlarning bosh miya KTsi xulosalarini va kasallik tarixlarini taxlil qilib chiqdik. Ushbu tadqiqotga kiritilgan kraniotomiya muolajalari bosh miya o'smasi tashxisi quyilgan barcha yosh guruhidagi bemorlarni qamrab oladi.

Ilmiy markazda kraniotomiyadan keyingi dastlabki 24 soat davomida va 24 soatdan 36 soatgacha bo'lgan vaqtda bosh miya kompyuter tomografiyasi tekshiruvini o'tkazilgan bemorlar KT tasvirlari qayta tahlil qilindi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

OKIG holatlari quyidagi ikki yo'l bilan aniqlandi: (1) intrakranial gematoma bilan bog'liq hech qanday klinik ko'rinishsiz o'tkazilgan kompyuter tomografiyasi;

(2) operatsiyadan keyingi odatiy KT tekshiruvi o'tkazilgunga qadar bemorda intrakranial gematoma bilan bog'liq klinik belgilar bor va OKIG KT tekshiruvida aniqlandi. Bunday klinik ko'rinishlar umumiy behushlikdan etarli darajada uyg'onmaslik, ongli holatning yomonlashishi (Glazgo koma shkalasining pasayishi > 1), yangi fokal nevrologik belgilar, epilepsiya xuruji, noodatiy kuchli bosh og'rig'i va neyrojarroxlarni shubha qilishga olib keladigan boshqa alomatlar yoki belgilarni o'z ichiga oladi.

OKIG aniqlash vaqti ikki yo'l bilan belgilandi: (1) operatsiyadan boshlab intrakranial gematomani ko'rsatadigan KT tekshiruvigacha bo'lgan vaqt; (2) jarrohlikdan klinik ko'rinishgacha bo'lgan vaqt.

Hammasi bo'lib, ushbu tadqiqotga bosh miya o'smasi bilan operatsiya qilingan 110 ta bemor kiritilgan; 74 erkak, 36 ayol va bemorning o'rtacha yoshi  $50,5 \pm 5,21$  yil (diapazon, 15-86 yosh). Operatsiya o'tkazilgan bemorlarda o'smalar joylashishi haqidagi ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan. Ularning ko'pchiligi supratentorial joylashgan (84.7%).

1-jadval.

O'smalarni joylashishi	intrakranial	Soni/%
Supratentorial		93/84.7%
Infratentorial		15/13.5%
Transtentorial		2/1.8%

### Operatsiyadan keyingi intrakranial gematomani vaqtga bog'liqligi.

OKIG mos ravishda 3 va 7 bemorda kraniotomiyadan keyingi dastlabki 3 soat ichida va 4-6 soat ichida sodir bo'ldi. Yana 4 bemorda operatsiyadan keyin 24 soat ichida OKIGni rivojlandi, 2 bemorda esa 24 soatdan keyin OKIG rivojlandi. Ushbu





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10


seriyadagi OKIG larning aksariyati (10/16, 62.5%) birinchi kraniotomiyadan keyingi dastlabki 6 soat ichida sodir bo'lgan; Bemorlarning faqat kichik bir qismida (2/16, 12.5%) 24 soatdan keyin OKIG holatini aniqladi. Kiritilgan OKIG vaqt oralig'i taqsimoti 1-diagrammada ko'rsatilga. OKIG 24 soatdan keyin paydo bo'lgan 2 bemorning barchasida yaxshi natijalarga kuzatildi.

Ushbu tadqiqotga kiritilgan 110 nafar bemorlarning barchasida KT tekshiruvi o'tkazildi. Kompyuter tomografiyasi 75 bemorda operatsiyadan keyin 6 soat ichida, 18 bemorda operatsiyadan keyin 24 soat ichida va 17 bemorda operatsiyadan keyin 24 soatdan keyin, lekin 36 soat ichida amalga oshirildi.

Kraniotomiyadan keyingi kompyuter tomografiyasi jami 16 ta OKIG holatini aniqladi. Operatsiyadan keyingi dastlabki 6 soat ichida o'tkazilgan kompyuter tomografiyasining OKIGni aniqlash darajasi 13.3% (10/75) ni, 7-24 soat ichida o'tkazilgan KT tekshiruvi 22.2% (4/18) ni, 24 soatdan keyin o'tkazilgan KT tekshruvi 11.7% (2/17) ni tashkil etdi.

110 bemorning 80 nafari OKIG bilan bog'liq hech qanday klinik ko'rinishlarsiz KT tekshiruvdan o'tkazilgan. Bunda kompyuter tomografiyasining OKIGni aniqlash darajasi 2.5% ni tashkil etdi (2/80).

OKIG rivojlangan 16 nafar bemorning 14 nafarida dastlab intrakranial qon ketish (1-rasm) bilan bog'liq klinik belgilar namoyon bo'ldi, qon ketishi va OKIG keyinchalik KT tekshiruvidan keyin tasdiqlandi. Yuqorida aytib o'tilganidek, OKIG faqat 2 bemorda biron bir klinik ko'rinish paydo bo'lishidan oldin KT tekshiruvi orqali aniqlangan. Ushbu ikki turdagi OKIG larning vaqt oralig'i taqsimoti 1-diagrammada ko'rsatilgan.






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

1-rasm. a) 40 yoshli ayol, qadoqsimon tana o'smasi operatsiyasidan keyingi 24 soat ichida rivojlangan qon ketish. b) 50 yoshli erkak, operatsiyadan 24 soatdan keyin rivojlangan qon ketish.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, biz kraniotomiyadan so'ng qisqavaqt oralig'ida o'tkazilgan KT tekshiruvining OKIGni aniqlashga ta'sirini tahlil qildik. Tekshiruvga bosh miya o'smasi bilan kraniotomiya qilingan jami 110 bemor kiritilgan va ularning hammasida bosh miya kompyuter tomografiyasi o'tkazilgan. Ulardan 14 tasida (12.7%) jarrohlik davosi zarur bo'lgan OKIG rivojlandi.

Kompyuter tomografiyasi 16 ta OKIG holatini aniqlagan bo'lsa-da, ushbu bemorlarning katta qismi (14 ta) skanerlashdan oldin shubhali klinik ko'rinishlarni ko'rsatdi. Bundan tashqari, odatiy o'tkaziladigan KT tekshiruvining OKIG ijobiy darajasi hech qanday klinik ko'rinishga ega bo'lmagan bemorlarda atigi 2.5% (2/80) ni tashkil etdi. Shunday qilib, kraniotomiya qilingan barcha bemorlarda OKIGni aniqlash uchun o'tkaziladigan odatiy erta kompyuter tomografiyasi samarasiz bo'lishi mumkin. Retrospektiv tadqiqotlarning cheklanganligi, ayniqsa ushbu tadqiqotda operatsiyadan keyingi doimiy kompyuter tomografiyasining uzoq vaqt qo'llanilishi tufayli natijalar aniq emas. OKIGni aniqlashda kraniotomiyadan so'ng doimiy KT tekshiruvlarining qiymatini yanada baholash uchun yaxshi ishlab chiqilgan istiqbolli tadqiqot kerak.








ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

1-diagramma. OKIG aniqlash vaqti. OKIG 1 - bu tadqiqotda aniqlangan umumiy OKIG (n = 16), OKIG 2 - klinik ko'rinishlar bilan aniqlangan OKIG (n = 14), OKIG 3 har qanday klinik ko'rinishlardan oldin muntazam KT tekshiruvi orqali aniqlangan OKIG (n = 2).

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Seifman MA, Lewis PM, Rosenfeld JV, Hwang PY (2011) Postoperative intracranial haemorrhage: a review. *Neurosurg Rev* 34:393–407.
2. Idris Z, Muzaimi M, Hussin S, Mahmood WH, Abdullah WZ (2012) Association of perioperative factor XIII activity levels and other haemostatic markers with the risk of postoperative intracranial haematoma in a selected cohort of neurosurgical patients. *Acta Neurochir (Wien)* 154:887–894.
3. Taylor WA, Thomas NW, Wellings JA, Bell BA (1995) Timing of postoperative intracranial hematoma development and implications for the best use of neurosurgical intensive care. *J Neurosurg* 82:48–50





## SHAXMAT SPORTINI YOSHLARNI TARBIYALASHDAGI ROLI

**Ochilov F.A.**

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi katta o‘qituvchisi, dotsent


**Annotatsiya:** Tariximizda juda katta iz qoldirdingiz va o‘zbek millati nimalarga qodir ekanligini yana bir bor namoyon etdingizlar. Men juda xursandman, kayfiyatimga kayfiyat qo‘shildi. Butun xalqimiz sizlarni olqishlamoqda. O‘zbekistonda bugun katta bayram”

**Kalit so‘zlar:** arablar, yevropa, Amir temur,

**Shavkat Mirziyoev**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining  
44-Butunjahon shaxmat olimpiadasi  
g‘oliblariga yo‘llagan tabrigidan

Shaxmat tarixi bir yarim ming yillik tarixga ega. Farazlarga ko‘ra shaxmat hindlarning “chaturanga” o‘yini bo‘lib bu forslar tomonidan o‘zlashtirilib o‘zgartirishlar kiritilib shatranj deb atalgan. VII-asrda arablar Eronni egallagandan so‘ng, shatranj Arab xalifaligiga tarqaladi. Arablar esa shatranjni Yevropaga tarqatishdi. XII-asr oxirlarigacha shaxmatdagi “farzin” va “fil”ning o‘yindagi harakatlari cheklangan edi, shu paytdan boshlab esa zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘ldi. O‘yin sezilarli darajada o‘zgardi, tezlashdi, oqlar o‘yinni boshlab bergani uchun o‘yinning ilk bosqichi (debyuti)da hujumda va joylarni egallashda ustunlikga ega bo‘lishdi. O‘sha davrlardan boshlab shaxmat butun dunyoga asta-sekin tarqalib butun jahonni qamrab oldi. Bizning ajdodlarimiz ham o‘z vaqtida shatranjda katta yutuqlarga erishgan. Buyuk jahongir bobomiz Amir Temur ham shatranjni juda yaxshi o‘ynagan va muntazam ravishda o‘z saroyida shatranj bo‘yicha musobaqalar o‘tkazib turgan. Mamalakatimiz mustaqillikka erishgandan beri shaxmat maktabgacha ta‘lim muassasalarida, umumta‘lim maktablar, kasb xunar kollejlari, akademik litseylar, oliy o‘quv yurtlaridagi sport musobaqalariga kirib bordi. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi islohatlar, yangi sport inshootlari barpo etish, ta‘lim tarbiya jarayonlariga yangi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta‘lim uslublari bilan birga shaxmat mashg‘ulotlarini joriy etish ko‘zda tutilmoqda. Shaxmatni yosh avlodni tarbiyalashdagi





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

roli, umuman shaxmatni bola tarbiyasidagi ijobiy roli bo'yicha dunyoda yangi ilmiy tadqiqot ishlari, izlanishlar olib borilmoqda. Shaxmatni mamlakatimizda yanada ommalashtirish borasida yurtboshimiz tomonidan bir qancha farmon va qarorlar imzolandi. Shaxmat sport turi bo'yicha zamonaviy uslubiy o'quv qo'llanmalar va darsliklar yaratilmoqda. Respublikamizda sportning ko'plab turlarini rivojlantirish natijasida keyingi yillarda ajoyib yutuqlarga erishilmoqda. Mamlakatimizni dunyoga tanitishda ham sportni o'rni juda katta ahamiyatga egadir. Hurmatli marhum birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning o'z vaqtida quyidagi aytgan gaplari bejiz emas. "Hech bir narsa mamlakatni sport kabi dunyoga tez mashhur qila olmaydi". Jamiyatni jismoniy tarbiyalash, ularni sport bilan shug'ullantirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish tufayli sog'lom avlod vujudga keladi va mamlakat shuxrati jaxonga tarqaladi. Shundan ko'rinib turibdiki yurtboshimizni O'zbekistonda sportni, ayniqsa shaxmatni rivojlantirishga bo'lgan e'tibori juda ham salmoqlidir. O'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom va barkamol, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga katta e'tibor berilayotganligi sababli bugungi kunda yoshlarimiz, masalan O'zbekiston shaxmat bo'yicha erkaklar terma jamoasi 2022 yilning avgust oyida Hindistonning Chennai shahrida bo'lib o'tgan 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasida eng yosh terma jamoa bo'lishiga qaramasdan musobaqaning favorit jamoalari bo'lgan AQSh, Hindiston va Armaniston jamoalarini ortda qoldirishib tarixiy g'alabaga erishdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning maqsadi, vazifalari va uzoq muddatli rivojlanishining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi, jumladan:

2025 yilga kelib mamlakat aholisining salomatlik darajasini yaxshilashga erishish;

bolalar-o'smirlar sport maktablari sonini va sport ta'limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularni moliyaviy ta'minlashning samaradorligini oshirish;

jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning, o'quvchi va talabalarning umumiy sonini oshirish;





davlat organlari, korxonalar va tashkilotlar xodimlari hamda aholi o'rtasida turli ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish orqali aholining haftalik harakat faoliyatini oshirishga erishish;

O'zbekiston sport terma jamoalarining Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari, xalqaro sport musobaqalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;

sport ta'limi muassasalarida trener va mutaxassislarining sifat tarkibini, xususan oliy ma'lumotli xodimlar sonini bosqichma-bosqich oshirish;

yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda «ta'lim muassasalari — sport maktabi — oliy sport» tamoyilida uzviylik tizimini hamda mashg'ulot va iqtidorli sportchi-yoshlarni saralash jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish;

sport sohasida boshqa zamonaviy usullar va yo'nalishlarni joriy etish;

davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga jismoniy tarbiya va sport tizimida raqobat muhitini yaratish;


sport turi bilan muntazam ravishda shug'ullanib kelayotgan va sport musobaqalarida doimiy ravishda ishtirok etuvchi sportchilar yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida sport pasportini joriy etish va muntazam ravishda yuritib borish tizimini qo'llash;

yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat ko'rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida sport ta'limi muassasalari mutaxassis va xodimlarining mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga binoan yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish, mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishda qator tizimli muammolar va kamchiliklarning mavjudligi ushbu sohada davlat siyosatini samarali olib borishga va mamlakatning mavjud sport salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Xususan: birinchidan, ayniqsa, joylarda jismoniy tarbiya va sport







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

boshqaruvining samarali yaxlit tizimi mavjud emasligi ushbu sohada davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini lozim darajada muvofiqlashtirishni, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish va targ'ib qilishni ta'minlamayapti;

ikkinchidan, mamlakatimizda ham ommaviy sport, ham oliy sport yutuqlari sohasida aniq vazifalar va maqsadli ko'rsatkichlarni belgilagan holda, o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilmagan;

uchinchidan, davlat-xususiy sheriklik shartlarida sportning zamonaviy moddiy-texnika bazasi va infratuzilmasini yaratish bo'yicha nodavlat sektor bilan o'zaro munosabatlarning past darajada ekanligi ushbu sohada mavjud muammolarni samarali hal etishga imkon bermayapti;

to'rtinchidan, joylarda yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya)ning samarali va shaffof tizimi mavjud emasligi terma jamoalar tarkibini sifatli to'ldirish uchun sport zaxirasini shakllantirish va yuqori malakali sportchilarni tayyorlashni ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda;

beshinchidan, sport kadrlarini, ayniqsa, boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimi jismoniy tarbiya va sport boshqaruvi sohasida malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni qondirish imkonini bermayapti;

oltinchidan, jismoniy tarbiya va sport sohasini qo'llab-quvvatlashning faqat alohida sport turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan, nooqilona tizimi boshqa ommaviy olimpiya sport turlarini, eng avvalo, sport o'yinlari va qishki sport turlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilmasligiga olib kelgan;

yettinchidan, sportchilarni tayyorlash va ular tibbiy ta'minotining innovatsion tadqiqotlari va uslubiy ishlanmalari, zamonaviy talablarga javob beradigan standartlarining mavjud emasligi sifatli o'quv-mashq jarayonining yo'lga qo'yilishini ta'minlamayapti;

sakkizinchidan, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga yo'naltirilgan moliyaviy mablag'lar sarflanishining asosliligi va haqqoniyligi ustidan nazoratning, eng avvalo, ichki nazoratning moliyaviy mablag'lardan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan va ushbu sohada suiiste'molchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan samarali mexanizmi shakllantirilmagan;





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

to'qqizinchidan, xalqaro standartlarga javob beradigan sifatli mahalliy sport asbob-uskunalari va inventarlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmagan, shuningdek, bunday ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashning ta'sirchan mexanizmi nazarda tutilmagan.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish uchun yuqoridagi rahbariy hujjatlarda ko'zda tutilgan barcha chora-tadbirlarni o'z vaqtida sifatli o'tkazilishi shaxmat sport turini boshqarish tizimida innovatsion usullardan foydalanishni talab etadi.

Shaxmat sport turi sifatida – XV asrlik tarixga ega. Farazlarga ko'ra shaxmat hindlarning "chaturanga" o'yinidan kelib chiqib, forslar tomonidan o'zlashtirilgan va o'ziga xos o'zgartirishlar kiritilib "shatranj" deb nom berilgan. VII asrga kelib arablar Eronni egallagandan so'ng shatranjni Yevropaga tarqalishiga sabab bo'lishdi. XV asrgacha "shatranj" o'yinidagi "Farzin" va "Fil"ning harakatlari cheklangan edi, shu davrdan boshlab hozirgi ko'rinishdagi shaxmat o'yini shakllana boshladi, o'yin tezlashdi. Oqlar o'yinni boshlab berganligi sababli ular hujumga o'tish va shaxmat taxtasida eng muhim kataklarni egallash bo'yicha ustunlikka ega bo'ldilar.

Shaxmat o'zining zamonaviy ko'rinishiga taxminan 1475 yilga borib taqaladigan qoidalarga kiritilgan ikkita o'zgarishlar tufayli keldi, bu o'zgarishlar farzinni shaxmat taxtasining istalgan katagiga xoxlagan yo'nalishda yura olishi bo'lib bu o'zgarish shaxmat taxtasida farzinni eng kuchli shaxmat donasiga aylantirdi. Shu bilan birga fil ham shaxmat taxtasida diagonal yo'nalishda istalgan katakka harakatlanishi mumkin bo'ldi. Ushbu o'zgartirishlar shaxmat o'yinini tubdan o'zgartirib uni jozibadorligini oshirdi.

XIX asr o'rtalariga kelib shahar va davlatlarning eng kuchli shaxmatchilari o'rtasida, asrning ikkinchi yarmiga kelib esa, xalqaro turnirlar ko'rinishida musobaqalar paydo bo'ldi. 1886 yili avstriyalik shaxmatchi Vilgelm Steynis nemis shaxmatchisi Iogann sukertortni mag'lub etib shaxmat bo'yicha birinchi jahon chempioni deb e'lon qilindi. Shu davrdan boshlab jahon birinchiliklari tarixi boshlandi, 1924 yilga kelib Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) tashkil etildi. 1946 yil to'rtinchi jahon chempioni Aleksandr Alyoxin vafotidan keyin jahon chempionatlari Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) ta'sis etgan qoida va tartiblarga ko'ra o'tkazila boshlandi. XX asr oxirida shaxmatda bo'linish yuz berdi. Jahoning o'n uchinchi chempioni Garri





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

Kasparov va uning raqibi shaxmat tojiga davogar angliyalik shaxmatchi Naydjel Short Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) tasnifiga kiritilmagan musobaqa o'tkazishdi va 1993-2006 yillargacha shaxmatda ikkita chempion biri Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) tomonidan tasdiqlangan qoidalar bo'yicha o'tkazilgan jahon birinchiligi g'oliblari va professional yo'nalishdagi jahon chempioni. Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) Prezidenti Kirsan Ilyumjinov tomonidan 2006 yilda bu ikkala yo'nalish birlashtirildi va shu davrdan boshlab shaxmat tarixida faqat bitta yagona jahon chempioni shaxmatning klassik yo'nalishida yuritila boshlandi. Shu bilan birga 2008 yildan boshlab shaxmatning rapid va 2012 yildan boshlab blis yo'nalishlari bo'yicha ham jahon birinchiliklari o'tkazila boshlandi. Shuningdek, o'n birinchi jahon chempioni amerikalik shaxmatchi Robert Fisher tomonidan kashf etilgan va uni nomi bilan Fisher shaxmati deb ataluvchi yo'nalishda ham 2016 yildan boshlab jahon birinchiligi o'tkazila boshlandi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib dunyoda kompyuter shaxmati ham rivojlana boshladi, 1979 yilda kompyuter shaxmat dasturlari juda zaif bo'lgan bo'lsa, 1997 yilga kelib IBM tomonidan ishlab chiqilgan "Deep Blue" kompyuteri o'sha davrning amaldagi jahon chempioni Garri Kasparovni mag'lub etdi. XXI asr boshlariga kelib insoniyat tomonidan kompyuter shaxmat dasturlarining kuchliligi tan olina boshlandi. 2020 yildagi "Covid 19" koronavirusi pandemiyasi davrida butun dunyoda onlayn shaxmati bo'yicha musobaqalarni o'tkazilishi shaxmatni butun dunyoda yanada keng ommalashishiga sabab bo'ldi.

Shu bilan birga Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) tomonidan ayollar o'rtasida ham jahon birinchiligi bahslari o'tkazila boshlandi va shu paytgacha bu yo'nalishda sobiq SSSR, Xitoy, Rossiya, Vengriya, Gruziya va Ukraina shaxmatchi ayollari yetakchilik qilishmoqda.

20-asrning 90-yillaridan O'zbekiston shaxmatida yuksalish boshlandi. erkaklar terma jamoasi jahon shaxmat olimpiadasida 2-o'rinni egalladi (1992), Osiyo chempionatida g'alaba qozondi (1999). Ibrohim Hamroqulov o'smirlar o'rtasida jahon birinchiligida g'olib chiqdi (1998). Rustam Qosimjonov Osiyoning birinchi (1998), jahonning 17-chempioni (2004) bo'ldi.

XX asrning 20-yillaridan O'zbekistonda shaxmatning zamonaviy qoidalarini keng targ'ib qilinishi mamlakatimizda shaxmatni sport turi sifatida rivojlanishiga turtki berdi. Toshkent, Samarqand, Qo'qon va boshqa yirik shaharlarda shaxmat to'garaklari







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

ochildi va ayniqsa yoshlar o'rtasida tez ommalasha boshladi. Mamlakatimiz mutaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab O'zbekistonda shaxmat sport turida katta yuksalish kuzatildi. 1992 yili O'zbekiston erkaklar terma jamoasi Filipinning Manila shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon shaxmat olimpiadasida ikkinchi o'rinni egalladi, shuningdek 1996 yili Samarqandlik Ibrohim Hamraqulov 1996 yili 16 yoshgacha o'smirlar o'rtasida jahon chempioni bo'lgan bo'lsa, 2004 yili FIDEning nokaut tizimi bo'yicha Liviyaning Tripoli shahrida o'tkazilgan jahon chempionatida ham yurtimiz Rustam Qosimjonov g'alaba qozonib O'zbekistonda shaxmatni yoshlarimiz o'rtasida juda keng ommalashishiga sababchi bo'ldi. 2018 yil O'zbekiston shaxmat terma jamoasining Turkiyaning Konya shahrida 16 yoshgacha o'smirlar o'rtasida bo'lib o'tgan shaxmat olimpiadasida g'alaba qozonishi, 2021 yilning 25-30 dekabr kunlari Polshaning Varshava shahrida bo'lib o'tgan rapid va blis bo'yicha jahon chempionatida 17 yoshli xalqaro grossmeyster Nodirbek Abdusattarovning tezkor shaxmat (rapid) yo'nalishida jahon chempionligini qo'lga kiritishi va nihoyat 2022 yilning avgust oyida Hindistonning Chennai shahrida o'tkazilgan 44 – Butunjahon shaxmat olimpiadasida O'zbekiston erkaklar terma jamoasining biror marotaba mag'lubiyatga uchramasdan g'alaba qozonishi nafaqat yoshlarimiz, balki butun o'zbek xalqida shaxmat sport turiga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ldi.

Yoshlarni sportga, ayniqsa shaxmat sport turiga qiziqishini yanada oshirish maqsadida hududlarda “Yoshlar haftaligi” va “Ta'lim muassasalari haftaligi” doirasida sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari, shu jumladan shaxmat bo'yicha viloyat, respublika va xalqaro musobaqalar muntazam ravishda o'tkazilmoqda. Oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli va maroqli o'tkazish maqsadida ularni shaxmat to'garaklariga jalb etish, aholi o'rtasida shaxmatni keng ko'lamda targ'ib etish, ularni sog'lom shaxs sifatida tarbiyalash uchun quyidagi mexanizmlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

**birinchidan,** barcha oliy o'quv yurtlarida shaxmat sport turining ommaviylikini ta'minlash uchun shaxmat bo'yicha ichki chempionatlarning doimiy o'tkazilishini yo'lga qo'yish (rektor kubogi, oilaviy spartakiadalar –shaxmat sport aksiyalarini tashkil etish;







**ikkinchidan,** oliy ta'lim o'quv muassasalari bilan viloyat shaxmat federatsiyalari, shaxmat maktablari, to'garaklari, shuningdek, O'zbekiston Xalqaro Shaxmat akademiyasi o'rtasida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish. Har bir sport muassasalarini hududiy birliklarda oliy ta'lim muassasalariga birlashtirgan holda o'quv yurtlarida shaxmat to'garaklari, musobaqalartashkil etish;

**uchinchidan,** oliy o'quv yurtlaridagi shaxmatchilarni, shu jumladan yoshlarni va shaxmat jamoalari umumiy bazasini shakllantirish;

**to'rtinchi,** oliy o'quv yurtlaridagi mavjud shaxmat to'garaklari inshootlarini to'liq xatlovdan o'tkazib, shaxmat inshootlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;

**beshinchidan,** mavjud shaxmat inshootlarida tashkil etish imkoniyati bo'lgan to'garaklar soni o'rganilib, shaxmat bo'yicha murabbiylarga va qo'shimcha shaxmat anjomlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;

**oltinchidan,** yoshlar uchun tuman (shahar)larda yoshlarning shaxmat sport turiga bo'lgan talablaridan kelib chiqqan holda shaxmat to'garagi va maktablari inshootlarini xususiy tadbirkorlar va homiylar ko'magida barpo etilishini monitoring qilish. Bunda, mahalliy tashabbuskor tadbirkorlar bilan muzokaralar olib borib, ulardan kelib tushgan takliflarga asosan

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki mutassaddi rahbar xodimlarining tavsiyalariga muvofiq alohida sport liniyasi orqali ularga imtiyozli kreditlar ajratilishi hisobiga yangi shaxmat maktablari va to'garaklari inshootlarini bunyod etish bo'yicha asoslangan takliflarni tayyorlash. Mazkur vazifa o'z vaqtida sifatli bajarilsa, 30-35 % yoshlarni shaxmat to'garak va maktablariga jalb etishga erishish mumkin bo'ladi.

Shaxmat bo'yicha xalqaro musobaqalar soni oshirildi, shu jumladan onlayn tarzda tkziladigan musobaqalar ham tashkilashtirildi. Bu ayniqsa butun jahonda Covid-19 ronavirusi tarqalib pandemiya darajasiga yetgan davrda ham shaxmat bo'yicha xalqaro musobaqalar internet orqali onlayn ravishda muntazam o'tkazib kelindi. Bu jriba kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Shu kunlarda shaxmat bo'yicha musobaqalardan tashqari shaxmat darslari, dunyoning yetakchi top murabbiylari bilan umumiy shaxmat mashg'ulotlari o'tkazish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Shu bilan birga





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

irakatlanish imkoniyati cheklangan nogiron shaxmatchilar uchun ham onlayn usobaqalar tashkil qilinmoqda. Bu esa o'z navbatida shaxmatni yoshlar, qolaversa ioli o'rtasida keng ommalashishiga xizmat qilmoqda. Shaxmat sport turini boshqaruvi m internet orqali mamlakatimizni chekka-chekka hudulariga ham yetib bormoqda. atijada yoshlarimiz orasidan ko'plab chempionlar yetishib chiqib Vatanimiz bayrog'ini ulqaro musobaqalarda baland ko'tarishmoqda. Shaxmat sport turini boshqaruvini mon talablariga mos ravishda takomillashtirish mamlakatimizda 2026 yilda tkazilishi rejalashtirilgan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasini tashkiliy va a'naviy-madaniy jihatdan har tomonlama havas qiladigan darajada o'tkazilishiga min yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyot va manbalar

1. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun. 2015 yil 4 sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni nada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 3 iyunda PQ-3031-sonli arori.
3. Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy srort-sog'lomlashtirish hlarini samarali boshqarish. Toshkent.
4. Yarashev K.D. O'z-o'zini boshqaruv tashkilotlarida jismoniy madaniyatni shkil etish. Toshkent.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shaxmatni yanada rivojlantirish va nmaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-dbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 9 avgustdagi PQ-3906-sonli Qarori.



## STUDYING OF THE USE OF BASALT MINERALS AS A POLYETHYLENE FILLER AND ITS PHYSICO-CHEMICAL PROPERTIES

Eshkuvatova D.Sh.

*Termiz District School No. 36*

*Corresponding author: [dildoraeshquvvatova50@gmail.com](mailto:dildoraeshquvvatova50@gmail.com)*

**Abstract.** In this article, a study of the use of basalt minerals as a polyethylene filler was conducted. According to the obtained results, basalt fibers and basalt fabrics were extracted from basalt minerals and applied to basalt in the amount of 30%. The composition of the composite was studied and analyzed using IR spectra.

**Keywords:** basalt mineral, polyethylene, filler, basalt fiber, IR spectrum.

### 1. Introduction.

Basalt (Latin, Hebrew for iron). It is a stony rock. Basalt is a dark dense igneous rock. Previously, it was studied by adding it to other groups of superficially similar rocks[1]. The rocks of this group are trapps, which are later divided into dollerite, anamesite and basalt. By chemical composition. Basalt-based, low silicic acid, belongs to new rocks with a content of 42-55%. Basalt rocks are used in the production of basalt fibers. The mineral structure is porphyry glassy or solid crystalline aphid[2]. The first type of rocks is distinguished by the presence of small inclusions of black pyroxene prisms and isometric crystals of yellow swamp-colored olivine. Such spikes can occupy four parts of the entire mass. In addition, hornblende and orthopyroxene can be found in basalt[3]. Apatite is one of the most common minerals. Basalt fibers are used in residential and commercial buildings, and in heat and sound insulation and fire protection in residential and commercial buildings, bathrooms, saunas, household services and other facilities, thermal insulation in large-diameter pipes in energy units, thermal insulation in household gas and electric stoves, cooking cabinets, etc., external and internal in building restoration heating of the side, heating of flat roofs, insulation of oxygen columns, insulation in the production of low-temperature equipment and the use of nitrogen, in triple-layer construction panels in enterprise refrigerators and freezers in household refrigerators[4]. The concept of polymer "nanocomposites" is a newly emerging concept, while retaining the meaning of "polymer composite", only




composites containing organic and inorganic nanofillers as a dispersed phase (nanocomposites of various geometric shapes and sizes - from 1 to 100 nm) are considered. The improved properties of nanocomposites embody the common properties of the components and are significantly different from the properties of traditional composites. The authors proposed a ball mill method for using carbon nanotubes as a filler in PE (up to 10 wt.%), and this method has several advantages, such as not using solvents, ultrasonic stirrers, modification of nanotubes, and high temperature[5]. Using this method, it was possible to evaluate the morphology and physiology of the products obtained. Using this method, a high level of filler dispersion and high mechanical indicators of composites are achieved. This work demonstrates the use of calcium carbonate as a filler for low density PE, linear PE, high density PE and PP polymers. The main technological stages and mechanical properties of obtaining polymer composite materials based on calcium carbonate and polyolefins were discussed[6]. Basalt's unique properties have made it one of the most essential materials. Basalt is non-flammable and can withstand temperatures up to 9000C-15000C, is resistant to strong and mechanical effects, has high sound and thermal insulation properties, biological resistance and chemical neutrality, is resistant to the effects of corrosive acid and alkaline environments, and is a filler that does not accumulate radiation. Basalt is an environmentally friendly material, harmless to humans and animals. Basalt is one of the volcanic rocks with high strength and high density, as well as high chemical properties, fire resistance, strength, sound and thermal insulation properties[7].

**Materials.** Obtaining basalt fiber based on basalt minerals and making fabric from it. Application of the resulting basalt fiber P-Y 342 -  $(\text{CH}_2\text{—CH}_2\text{—})_n$  is a product of high molecular weight polymerization of ethylene, a thermoplastic polymer with a density of 940-944 kg/cm<sup>3</sup> and a melting point of 125-135 °C.

**Methods.** The fluidity index of the thermoplastic fluid of the obtained product is the flow rate (liquefaction index) and its properties are studied using methods such as differential scanning calorimetry.

## 2. Experimental part

The production technology of basalt fibers is based on four main stages: basalt gravel pre-treatment (grinding washing drying), melting of basalt in blast furnaces to obtain continuous fiber in the form of a complex yarn, continuous fiber formation,







weaving cloth or preparing other forms of finished products from fiber.

The fluidity index of composite materials determines their processing conditions, specific temperature and pressure of fluidization. Studying them helps to develop methods of polymer processing. According to the obtained results, the fluidity index does not change significantly until the amount of fillers in the compositions reaches 30%, and it increases when it reaches 40%. The variation of SOC does not depend on the type of compound. Therefore, the optimal concentration of fillers for YuZPE and QZPE is 30% [8].

**Table 1**  
**Effect of modifier (TEAS) on flow rate of composites based on high (YuZPE) and low (QZPE) density polyethylene**

The contain of the composition	The amount of modifier obtained in relation to the amount of filler in the composition (wt.%) TEAS				
	0	0,5	1,0	1,5	2,0
QZPE/BT	1,6	1,5	1,2	1,2	1,2
QZPE/PEMA/BT	1,0	0,8	0,5	0,5	0,5
YUZPE/BT	0,5	0,4	0,3	0,3	0,3
YUZPE/PEMA/BT	0,4	0,3	0,2	0,2	0,2

It can be seen from Table 1 that the inclusion of maleated polyethylene and TEAS in the composition of the composite has a significant effect on the decrease of the flow index of the composites. It was found that with the increase in the exfoliated part of aluminosilicate particles in the polymer, its flow index decreases.

A comparative analysis of the physico-chemical properties of the composites made by adding modified fillers to YuZPE is presented. From the table, it can be seen that the composite based on YuZPE/PEMA/TEAS/BT has higher impact resistance and tensile strength properties than composites with other components.

It can be seen that when the modifier TEAS was added in the amount of 1.0 wt.%, the impact resistance of the composite increased compared to the composite without the modifier (from 50 kDj/m<sup>2</sup> to 71 kDj/m<sup>2</sup>) [9,10].

**Table 2**  
**Comparative analysis of physical and mechanical properties of composites based**





on YuZPE

The contain of the composition	Impact resistanc, kDj/m2	$\sigma$ bending strength, mPa	$\sigma$ breaking strength, mPa	Relative elongati on, %	Relative elongati on, %
	GOCT 4647-80	GOCT 4648-80	GOCT 14236-81	GOCT 14236-81	GOCT 18599-21
YUZPE	50	24	21	750	3
YUZPE/BT	47	37	38	178	2,6
YUZPE/TEAS/BT	62	38	42	164	2,8
YUZPE/PEMA/TEAS/BT	71	40	53	156	2,3

As a result of addition of modifier TEAS with maleated polyethylene in the amount of 1.0 wt.% to YuZPE, the impact resistance increased by 30 wt. % is more observed in compositions based on basalt. It can be seen that the impact resistance property has increased from 50 kDj/m2 compared to the original YuZPE, to 62 kDj/m2 and 71 kDj/m2 in YuZPE/TEAS/BT and YuZPE/PEMA/TEAS/BT composites, respectively. Modifiers are important in improving the physical and mechanical properties of composites. plays a role. This may occur as a result of their interaction with the polymer base.

### 3. Results and its discussion

In order to determine the interaction between polyethylene and fillers, as well as the reason for the improvement of the properties of composite materials, the analysis of the IR-spectra of polymer composite materials was carried out. Absorption frequencies of 2850-1470  $\text{cm}^{-1}$  belonging to the  $-\text{CH}_2$  group are observed in the IR-spectra of PKMs. In the IR-spectrum, absorption frequencies belonging to the  $=\text{CH}-$  group in the 2987  $\text{cm}^{-1}$  region, and to the  $=\text{CH}_2-$  group in the 2892  $\text{cm}^{-1}$  region are observed. In the areas of 2000 and 2800  $\text{cm}^{-1}$  there are areas belonging to the  $-\text{NH}$  groups. The presence of Si-O- groups in the 1000-1100  $\text{cm}^{-1}$  areas and -O-O- groups in the 880-870  $\text{cm}^{-1}$  areas is observed. In addition, in the 400-700  $\text{cm}^{-1}$  range of the IR





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

spectrum, short low-intensity lines belonging to compounds containing halogens are formed[11,12].





Figure 1. IR spectrum results of YuZPE/PEMA/TEAS/BT composition.

It was noted that the  $35953\text{ cm}^{-1}$  areas belong to the valence vibration frequencies of hydroxyl groups. Accordingly, as a result of the participation of the polar oxygen-containing parts of the fillers in the adsorption interaction with the polymer base, some properties of polyethylene-based nanocomposites are improved. Therefore, in the IR field, the composition based on tetraethylammonium stearate and polyethylene does not have absorption spectra higher than  $3100\text{ cm}^{-1}$ , which belong to the fillers. As a result of the uniform distribution of the fillers on the polymer base, high absorption frequencies are observed due to the interaction of the groups on the surface of the fillers and the breaking of hydrogen bonds[13].

#### 4. Conclusion.

As a result of the conducted scientific and research works, it was shown the possibility of creating composite materials with improved complex technological and operational properties based on fillers of different shapes and quantities. Adding 30% of dispersion and fibrous basalt to the polyethylene composition, an increase in the heat resistance of the compositions was achieved. It was recommended to use basalt fibers as effective fillers in obtaining heat-resistant polymer compounds in local production.





### References.

1. Liu Tao; Yu Fengmei; Yu Xuejian; Zhao Xiuli; Li Ai; Wang Jianhua Basalt fiber reinforced and elastomer toughened polylactide composites: Mechanical properties, rheology, crystallization, and morphology // J. Appl. Polym. Sci., 2012, № 2; С. 1292-1301.
2. Zhang Yihe; Yu Chunxiao; Chu Paul K.; Lv Fengzhu; Zhang Changan; Ji Junhui; Zhang Rui; Wang Heli Mechanical and thermal properties of basalt fiber reinforced poly (butylene succinate) composites // Mater. Chem. and Phys., 2012, С. 845-849
3. Петропавловский Г.А. Гидрофильные частично замещенные эфиры целлюлозы и их модификация путём химического сшиваниуа. – Л.: Наука. 1988. – 295 с.
4. Xie Jianfei; Yao Lan; Xu Fujun; Li Yishuang; Shan Zhongde; Hui David; Qiu Yiping Fabrication and characterization of three-dimensional PMR polyimide composites reinforced with woven basalt fabric // Composites. B, 2014, С. 268-275.
5. Егорова О. В.; Кадыкова Ю. А.; Артеменко С. Е. Направленное регулирование структуры и свойств полиэтилена, наполненного дисперсными наполнителями //Пласт. Массы., 2012 , С. 57-59
6. J.S.Pal. Singh Sunder, Dutt Dharm, Gupta.Gutd /Исследование щелочной сульфитной варки целлюлозы на основе растений/.Indian J., Med, Sei 1991-45,№ 8, с.173.
7. Зимин Д. Е. Исследование поверхностных уавлений на границе раздела фаз волокно-связующее // Доклады 10 Всероссийской научно-практической конференции, Бийск, 26-28 мая, 2010 С. 159-161
8. Ying Shuni; Zhou Xiaodong Изучение композитов на основе полипропилена и базальтового волокна, модифицированных блоксополимерными агентом сочетания // Plast. Sci. and Technol., 2012, № 5, С. 39-43
9. Кахраманов Н. Т., Кахраманлы Ю. Н., Фараджев Г. М. Свойства наполненных кристаллических полимеров// Азерб. хим. ж. N 2, 2007, С.135-141
10. Курбанов А.А. Разработка рациональной технологии переработки разнотипных базальтов Узбекистана // автореферат докторской диссертации по







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

спец. 04.00.14–Обогащение полезных ископаемых (технические науки), Навои, -2016. С.29.

11. Kim M. T.; Rhee K. Y.; Park S. J.; Hui D. Effects of silane-modified carbon nanotubes on flexural and fracture behaviors of carbon nanotube-modified epoxy/basalt composites // Composites. B, 2012, № 5, С. 2298-2302

12. Кадыкова Ю. А.; Егорова О. В.; Улегин С. В.; Бредихин П. А.; Фархутдинова Э. Г.; Сотник В. А. Влияние базальта на показатели горючести и физико-механические свойства полимерматричных композитов на его основе // Приволж. науч. вестн.; 2013, № 1, С. 7-9

13. Kurniawan D.; Kim B. S.; Lee H. Y.; Lim J. Y. Effect of silane treatment on mechanical properties of basalt fiber/polylactic acid ecofriendly composites // Polym.-Plast. Technol. and Eng. , 2013, № 1 , с. 97-100





## Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida nutqning ahamiyati

*G.R. Karimberganova*

*UrDPI Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Bugungi kunda nutq nafaqat kattalarning, balki bolalarning rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u samarali muloqot va til ko'nikmalariga asos bo'ladi. Bolalarning nutqini rivojlantirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash ularning umumiy o'sishi va hayotning turli jabhalarida muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur hisoblanadi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning hayotida nutqning ahamiyati va uni muhimligining bir necha sabablari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** nutq, muloqot, kognitiv, til, qobiliyat, monolog, diolog, tovush, ijtimoiylashuv, grammatik, semantik.

Nutq bolaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Gap faqat muloqot haqida emas, bu ularning umumiy o'sishining asosiy jihati hisoblanadi. Nutqning bola rivojlanishida muhimligining bir necha sabablari quyidagilarni tashkil qiladi:

1. Tilni o'zlashtirish: nutq bolalarning tilni o'rganishi va o'zlashtirishi uchun asosiy vositadir. Bu ularga o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini va ehtiyojlarini tushunishga va ifoda etishga yordam beradi. Nutq orqali bolalar lug'at boyligi, grammatika va tushunish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.
2. Kognitiv rivojlanish: Bolalar gapirganda miyasini turli kognitiv jarayonlarga jalb qiladilar. Shuningdek, o'z fikrlarini tartibga solishni, muammolarni hal qilishni va turli tushunchalar o'rtasida aloqa o'rnatishni o'rganadilar. Nutq ularning fikrlash qobiliyatini rag'batlantiradi va umumiy kognitiv rivojlanishini kuchaytiradi.
3. Ijtimoiy aloqa: nutq bolalarga boshqalar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi. Bu ularga munosabatlarni o'rnatishga, hamdardlik bildirishga va ijtimoiy signallarni tushunishga yordam beradi. Suhbatlar orqali bolalar navbatni qabul qilish, faol tinglash va boshqalarning nuqtai nazarini tushunish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradilar.
4. Emosional ifoda: Nutq bolalarga his-tuyg'ularini ifoda etish va hissiy aqlni rivojlantirish imkonini beradi. O'zlarining his-tuyg'ularini og'zaki ifodalash orqali ular hissiyotlarni aniqlash va tartibga solishni o'rganadilar, bu ularning aqliy va hissiy farovonligi uchun juda muhim sanaladi. Shuningdek, nutq bolalarga kerak bo'lganda boshqalardan yordam va tasalli izlashga yordam beradi.
5. O'ziga ishonch: Agar bolalar o'z fikrlari va g'oyalarini samarali ifoda eta olsalar, bu ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Nutq bolalarga o'z fikrlarini bildirish va turli sharoitlarda faol ishtirok





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023


etish imkonini beradi. Bu ishonch bolalikdan ortib boradi va ularning kelajakdagi shaxsiy va professional hayotiga ijobiy ta'sir qiladi.

Nutq - bu psixik hodisa, kishilarning shaxslararo o'zaro muayyan hamkorligi sharoitida rivojlanadigan, individual xususiyatlarga ega bo'lgan shaxsning mulkidir. U tildan farqli o'laroq ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda rivojlanadigan xalqning ijtimoiy mulki va hodisasi hisoblanadi. Nutqni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyati atrofida bolaning atmosferasi va uning atrofida odamlarning munosabati bilan bog'liqdir. U doimiy e'tiborni talab qiladi, hatto u sizga biror narsa aytolmasa ham, u hali ham sizning aloqangizga juda muhtoj boladi. Agar biron sababga ko'ra, onaning bolaga aloqasi bo'lmasa, u o'z-o'zidan yopilishi mumkin. Shuning uchun ular doimiy e'tiborga moyilligini bildirishadi. Ular o'zlarini xavfsiz his qilishlari va ishonchni rivojlantirishlari uchun o'z g'amxo'rlarining mavjudligi va sezgirligiga tayanadilar. Ko'z bilan aloqa qilish, teginish va faol tinglash orqali bola bilan muloqot qilish ijobiy munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi va ularning muloqot qilishga urinishlarini rag'batlantiradi.

Hozirgi kunda maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rejali tarzda rivojlantirish uchun nafaqat tevarak-atrofni o'rganish, ob'ektlarni asosli ravishda tanlash, balki ayni paytda eng ahamiyatli so'zlarni ularning mavzu jihatdan xilma-xilligi (sifat tarkibi, ma'nosi) bo'yicha o'rganishni ta'minlash ham dolzarb masalalardan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishga oid vazifalarni hal etishga qaratilgan quyidagicha yondashuv zaruriyatlari aniqlandi;

- tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish (bolada avvalo nutq eshitish shakllanadi, talaffuzni u keyinroq egallaydi);
- aniq talaffuz hosil qilish (so'z va so'z birikmalarini dona-dona hamda aniq talaffuz qilish);
- so'zni talaffuz qilganda urg'uni to'g'ri qo'yish ustida ishlash;
- nutqning orfoepik jihatdan to'g'riligi ustida ishlash (bu namunaviy adabiy talaffuz qoidalarining jami);
- nutq sur'atini rivojlantirish;
- nutqning ifodaliligini shakllantirish (nutqning tabiiy, erkin, ya'ni ongli ifodalanishi);
- nutqiy aloqa ko'nikmalarini tarbiyalash;
- nutqiy eshitish ko'nikmalarini shakllantirish;
- nutqiy nafas olishni shakllantirish;
- o'z fikrini erkin va izchil bayon etish malakasini shakllantirish;





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

Bolaning ijtimoiy va shaxs sifatida shakllanishida monologik nutqning ahamiyati benihoyat kattadir. Bolalarga monologik nutqni muntazam o'rgatish taxminan besh yoshdan boshlanadi. Monologik nutqni qiyinligi shundaki, u diqqat-e'tiborni o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan voqea yoki badiiy asarga qaratgan boladan bir vaqtning o'zida nafaqat narsalar, hodisalarni payqash, balki ular o'rtasidagi bog'liqlikni ham sezishni talab qiladi. Maktabgacha ta'limda Turli yosh bosqichlarida bolalarni monologik nutqqa o'rgatishning mazmuni va vazifalarini o'zlashtirish darkor. Turli yosh bosqichlarida monologik nutqqa o'rgatishning bir qancha vazifalari va uni o'ziga xos mazmuni ham mavjud.


Monolog nutq dialog nutqqa nisbatan ancha murakkab bo'lib, bu bitta odam tomonidan amalga oshiriladigan nutq hisoblanadi. Monolog nutq (hikoya qilishda)da bitta kishi gapiradi, qolganlar esa tinglaydilar. Monolog nutq ko'pchilikka qarata aytiladigan nutq bo'lgani uchun, u har doim mantiqiy jihatdan izchil, grammatik jihatdan shakllangan, hammaga tushunarli va ravon bo'lishi kerak.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, nutqning grammatik tizimini rivojlantirish jarayonida sintaktik birliklar bilan amallar bajarish ko'nikmasi shakllanadi, muayyan muloqot sharoitida va ravon monologik fikrlarni tuzish jarayonida til vositalarini ongli ravishda tanlash vujudga keladi. Bola tilning grammatik tizimini shakllantirishi natijasida uning nutqida umumiy oqim ro'y berishi kuzatiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish joizki, har bir tarbiyachi-pedagog pedagogik rahbarlik shakllarini hamda metodlarini umumiy nutqiy rivojlanishning bosqichma-bosqich xususiyatga egaligini, va eng muhimi dialog va monologni, so'zgacha bo'lgan mazmunli-semantik tizimdan vaziyatga oid ixtiyoriy iborali nutqqa o'tish, bolalarning nutqiy havaskorligi sohasi sifatida tengdoshlar bilan muloqotining dialogik shakllarini o'zlashtirishni hisobga olishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-361 sonli qarori-T: 2018-yil 9- sentyabr.
- 2.Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika" Fan va texnologiya. T.2017-yil.
- 3.Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari.-T.:Manaviyat, 2003.
- 4.Xalilova D.F. "Bolajak tarbiyachilrning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv."PEDAGOGS Jurnal, 7(1),172-175.Retrieved from <http://www.pedagoglar.uz/index.php> ped article/view/46







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

## ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ГЕННОЙ ТЕРАПИИ ДЛЯ СТИМУЛЯЦИИ РЕГЕНЕРАЦИИ КОСТНОЙ ТКАНИ

**Курбонов Хуршед Рахматуллоевич**

**Окбаев Мехрилла Бахридинович**

*Ассистенты кафедры гистологии, цитологии и эмбриологии*

**Хусанов Темурбек Бобуржонович**

*Студент 407 группы, лечебного факультета*

*Самаркандский государственный медицинский университет, Республика*

*Узбекистан, г. Самарканд*


**Аннотация.** В статье рассматриваются новаторские стратегии применения генной терапии с целью усиления и стимуляции процессов регенерации костной ткани. Анализируются современные подходы к генной терапии, ориентированные на активацию остеогенеза и повышение эффективности ремоделирования костей, также генные механизмы, влияющие на регенерацию костной ткани, и представляются новейшие методы доставки генов в целевые клетки и ткани. Результаты данного исследования способствуют более глубокому пониманию молекулярных механизмов, лежащих в основе регенерации костей, и открывают перспективы для разработки новых методов лечения и регенерации костной ткани.

**Ключевые слова:** генная терапия, регенерация костной ткани, остеогенез, генные механизмы, генные трансферы, генные векторы

**Abstract.** The article discusses innovative strategies for using gene therapy to enhance and stimulate bone tissue regeneration processes. Modern approaches to gene therapy, aimed at activating osteogenesis and increasing the efficiency of bone remodeling, as well as gene mechanisms affecting bone tissue regeneration are analyzed, and the latest methods of gene delivery to target cells and tissues are presented. The results of this study contribute to a better understanding of the molecular mechanisms underlying bone regeneration and open prospects for the development of new treatments and bone regeneration.

**Key words:** gene therapy, bone tissue regeneration, osteogenesis, gene mechanisms, gene transfers, gene vectors

### Введение





Генные трансферы представляют собой важное исследовательское направление в области молекулярной биологии и генетики, которое оказало глубокое воздействие на разнообразные аспекты современной биологии и медицины [4]. Понятие генных трансферов обозначает процесс передачи генетической информации или отдельных генов из одной клетки или организма в другой.

Основополагающие исследования в области генных трансферов были проведены в середине XX века. Один из первых важных шагов в этом направлении было открытие структуры ДНК Джеймсом Уотсоном и Френсисом Криком в 1953 году, что предоставило ученым ключ к пониманию молекулярных механизмов наследственности. Это открытие послужило основой для дальнейших исследований, направленных на понимание, как гены кодируют биологические функции организмов [11].

Следующим важным этапом в развитии генных трансферов стало открытие ферментов рестрикции и возможности использования их для разрезания и клонирования ДНК в 1970-х годах. Это открытие, сделанное рядом ученых, позволило манипулировать генетическим материалом и внедрять его в другие организмы, начиная с бактерий [16].

В середине 1970-х годов была разработана методика рекомбинантной ДНК (рекомбинантная ДНК - это ДНК, созданная путем объединения фрагментов ДНК из разных источников), что открыло двери для генной инженерии и создания ГМО (генетически модифицированных организмов). Это стало возможным благодаря разработке методов, позволяющих внедрять и экспрессировать чужеродные гены в различных организмах [24].

С течением времени, генные трансферы стали неотъемлемой частью биомедицинских исследований. Они применяются для создания новых терапевтических методов, лечения генетических заболеваний и изучения молекулярных механизмов биологических процессов. В настоящее время генные трансферы продолжают эволюционировать и имеют широкий спектр потенциальных применений в биологии, медицине и биотехнологии.

### **Материалы**

Векторы для генных трансферов представляют собой молекулярные сущности, которые выполняют функцию доставки генетической информации





внутри клеток организма. Эти векторы имеют важное значение для достижения желаемых молекулярных и генетических изменений как в научных исследованиях, так и в клинической практике при процессах восстановления костной ткани.

Вирусные векторы – это модифицированные вирусы, не способные вызвать заболевание, но эффективно доставляющие генетический материал в целевые клетки. Примерами таких векторов являются аденовирусные векторы, векторы на основе аденовирус-ассоциированных вирусов (AAV) и лентивирусные векторы. Вирусные векторы характеризуются высокой эффективностью доставки генов, что делает их неотъемлемым инструментом в исследованиях и лечении костных расстройств [8].


Плазмиды представляют собой кольцевые молекулы ДНК, которые могут быть легко модифицированы и манипулированы в лаборатории. Они широко используются для создания конструкций с желаемыми генами, которые затем внедряются в клетки костной ткани. Плазмиды являются важным инструментом в генной инженерии и исследованиях в области регенерации костей [13].

РНК-векторы включают молекулярные компоненты рибонуклеиновой кислоты (РНК), которые способны доставлять генетическую информацию. Они могут быть использованы для временного воздействия на экспрессию генов в клетках костной ткани [8,13].

Современные исследования также исследуют применение наночастиц и наноносителей для доставки генетических материалов в клетки костной ткани. Эти наноносители могут быть функционализированы для увеличения эффективности генных трансферов и контроля экспрессии генов.

Выбор наиболее подходящего типа вектора зависит от конкретных целей исследований или лечения. Например, вирусные векторы могут быть предпочтительными для доставки генов в стволовые клетки костной ткани, в то время как плазмиды могут быть более подходящими для исследований в клетках-предшественниках. Эффективный выбор вектора играет важную роль в обеспечении успешного генного трансфера и, следовательно, достижения желаемых результатов в области регенерации костной ткани.

Техники трансфекции представляют собой методы, с помощью которых генетический материал (гены или нуклеиновые кислоты) вводятся в клетки





организма или культурные клетки с целью доставки и экспрессии желаемых генов [7].

Электропорация основана на временном создании микроскопических пор в клеточных мембранах с использованием электрических импульсов. Это позволяет генетическим материалам проникать внутрь клетки. Электропорация может быть применена как для живых организмов, так и для культурных клеток [21]. Липофекция включает в себя использование липосом или липидных носителей для доставки генетического материала в клетки. Липидные носители образуют комплексы с нуклеиновыми кислотами и способствуют их поглощению клетками [3]. Вирусная трансфекция включает в себя использование модифицированных вирусов (например, аденовирусов или AAV) в качестве носителей генов. Модифицированные вирусы лишены способности вызывать заболевания и могут эффективно доставлять генетический материал в клетки костной ткани [6].

Техника кальциевого осаждения предполагает использование кальциевых ионов для стимуляции поглощения генов клетками. Кальций способствует образованию комплексов с нуклеиновыми кислотами и их внедрению в клетки [13]. Лазерная трансфекция основана на использовании лазерного излучения для создания временных отверстий в клеточных мембранах, позволяя генетическому материалу войти в клетки [9].

Сочетание различных методов и технологий может быть использовано для максимальной успешности генных трансферов и достижения желаемых результатов в области регенерации костной ткани.

Генная модификация представляет собой процесс изменения генетической информации организма, включая добавление, замену или удаление генов, с целью внесения специфических изменений в его свойства и функции. В контексте регенерации костной ткани, генная модификация играет ключевую роль в исследованиях и разработке новых методов лечения, направленных на улучшение регенерационных процессов костей.

CRISPR-Cas9 представляет собой инновационную методику генетической модификации, способную проводить точные изменения в генах генома. Система CRISPR-Cas9 использует специализированные RNA-молекулы для направления Cas9, эндонуклеазу, к определенному участку ДНК, где может произойти








разрезание или замена генетической последовательности. Эта технология предоставляет исследователям возможность точно модифицировать гены, связанные с регенерацией костной ткани, с высокой точностью и эффективностью [27].

TALLEN (Transcription Activator-Like Effector Nucleases) и ZFN (Zinc Finger Nucleases) -это альтернативные методы генной модификации, основанные на использовании специальных молекулярных инструментов для создания разрывов в молекуле ДНК и внесения последующих генетических изменений. Эти технологии также позволяют исследователям изменять геном с высокой точностью [25].

Медицинская практика, нацеленная на лечение генетических нарушений или на стимуляцию процессов восстановления тканей, сосредотачивает свое внимание на регенерации костной ткани. В этом контексте генная терапия может быть использована для введения генетических изменений в организм, включая доставку генов, способствующих росту костей или преобразованию структуры ткани. Методы генной модификации, такие как клонирование и трансгенез, нацелены на внедрение генов из одного организма в другой, их применение может оказать влияние на область исследований, связанных с регенерацией костной ткани.

Генная модификация является мощным инструментом для исследований и разработки новых методов лечения костных нарушений. Она предоставляет возможность точно манипулировать генами, связанными с регенерацией костной ткани, и открывает перспективы для улучшения процессов регенерации и лечения костных заболеваний.

Методы доставки генов представляют собой стратегии и технологии, которые позволяют эффективно доставлять генетический материал (гены или нуклеиновые кислоты) в целевые клетки организма. В контексте регенерации костной ткани, эти методы играют важную роль в разработке терапевтических стратегий и исследованиях. Кроме того, применение (например, кремов или гелей, содержащих генетический материал) может быть использовано для целевой передачи генов на кожу или слизистые оболочки. Использование биоматериалов, таких как гидрогели или наночастицы, может облегчить доставку генов в целевые ткани. Генетический материал может быть включен в






биоматериалы, которые затем внедряются в организм, обеспечивая постепенное высвобождение генов на месте назначения [1, 18].

Электропорация, как упомянуто ранее, включает создание микроскопических пор в клеточных мембранах с помощью электрических импульсов. Это позволяет генам проникать в клетки. Вирусные векторы, такие как аденовирусы или AAV, могут быть использованы для доставки генов в клетки костной ткани. Эти векторы обеспечивают высокую эффективность доставки и длительное выражение генов. Липидные носители, такие как липосомы, могут образовывать комплексы с генами и помогать их поглощению клетками [12].

Оценка результатов в исследованиях и практике генных трансферов в регенерации костной ткани является важной частью процесса исследования и лечения. Эффективная оценка позволяет определить, насколько успешно были достигнуты цели исследования или лечения. Использование биомаркеров, таких как биохимические маркеры (например, уровень кальция или коллагена в костной ткани), может помочь в оценке активности регенерационных процессов и заживления костей [10]. Медицинские методы изображения, такие как рентгеновские снимки, компьютерная томография (КТ) и магнитно-резонансная томография (МРТ), позволяют визуализировать структуру и плотность костей. Эти методы могут использоваться для оценки объема и качества восстановленной костной ткани [14]. Проведение функциональных тестов может помочь оценить восстановление функциональности костных структур. Например, в случае восстановления суставов, функциональные тесты могут включать в себя измерение диапазона движения и силы [23].

Биохимические анализы могут включать в себя изучение уровня маркеров воспаления, костного обмена и ростовых факторов в ткани. Эти анализы могут дать представление о биологических процессах, происходящих в области регенерации. Исследования тканей под микроскопом и гистологические анализы могут предоставить информацию о структурных изменениях в костной ткани, таких как образование новой кости, ремоделирование и присутствие клеток, участвующих в регенерации. Молекулярные методы, такие как ПЦР и анализ экспрессии генов, могут быть использованы для изучения уровня экспрессии конкретных генов, связанных с регенерацией костной ткани. В зависимости от конкретных целей исследования, могут проводиться функциональные оценки,





такие как оценка боли, подвижности или качества жизни пациентов после лечения.

Оценка результатов должна быть комплексной и многоаспектной, чтобы обеспечить полное понимание эффективности генных трансферов в регенерации костной ткани. Эти методы оценки обеспечивают количественные и качественные данные, которые позволяют ученым и врачам принимать информированные решения о дальнейших шагах в исследованиях или лечении.


В исследованиях по генным трансферам и регенерации костной ткани используются различные экспериментальные модели, которые имитируют процессы регенерации и позволяют исследователям изучать воздействие генных терапий и других методов на костные ткани. Эти модели могут быть разделены на *in vitro* (вне организма) и *in vivo* (в организме) эксперименты.

Выбор конкретной экспериментальной модели зависит от целей исследования и этапа исследовательской работы. Комбинирование различных моделей может обогатить научное понимание молекулярных и физиологических механизмов, лежащих в основе регенерации костной ткани и генных трансферов.

Регенерация костной ткани - это сложный процесс, который включает в себя множество генетических механизмов, контролирующих рост, дифференцировку и ремоделирование костей. Гены, регулирующие дифференцировку и активность остеобластов (клеток, формирующих новую кость) и остеокластов (клеток, разрушающих старую кость), имеют критическое значение для нормального остеогенеза. Ген *RUNX2* и белки семейства BMP (костные морфогенные белки) регулируют дифференцировку мезенхимальных стволовых клеток в остеобласты и их способность к формированию новой кости. *RANKL* (рецептор активации NF-κB лиганд), регулируют ремоделирование костей, участвуя в разрушении старой кости [17,26].

Ген *OPG*, регулируя активность остеокластов, сдерживает избыточное разрушение костной ткани. В то время как факторы роста, такие как FGF и IGF, инициируют генетические механизмы, способствующие росту и увеличению длины костей, особенно у детей и подростков [28].

Гены, управляющие апоптозом, имеют потенциал повлиять на выживаемость остеобластов и остеокластов, что, в свою очередь, оказывает воздействие на процессы ремоделирования костей [15]. Следует отметить, что





гены, связанные с иммунными реакциями и воспалением, могут оказывать воздействие на способность костной ткани к регенерации. Например, активация молекулы NF-κB может способствовать воспалительным процессам и привести к разрушению костей [19]. Генетическая терапия предоставляет возможность внедрения конкретных генов, способствующих регенерации костной ткани, в поврежденные области. Кроме того, некоторые микроРНК способны регулировать экспрессию генов, связанных с регенерацией костной ткани, путем взаимодействия с мРНК-мишенями и блокирования их трансляции [5].

Понимание этих генных механизмов является ключевым для разработки генных терапий и методов стимуляции регенерации костной ткани. Исследования в этой области имеют большое значение для разработки новых подходов к лечению костных нарушений и улучшения регенерации после повреждений.

Перенос генетической информации внутрь клеток, с целью изменения их функций или активации конкретных генов, представляет собой генные трансферы. В сфере регенерации костной ткани эта технология играет ключевую роль в разработке инновационных методов лечения и усовершенствовании процессов восстановления.

Для стимуляции роста костей, генные трансферы могут быть применены для доставки генов, которые регулируют выражение белков, таких как BMPs (костные морфогенные белки). Это способствует активации процессов остеогенеза, то есть образования новой кости. Мезенхимальные стволовые клетки (МСК), играющие важную роль в регенерации костной ткани, могут также стать объектом воздействия генных трансферов, с целью активации их способности к дифференциации в остеобласты [20].

Генные трансферы предоставляют средство для регулирования уровня биохимических маркеров, связанных с процессами регенерации костной ткани, таких как кальций и коллаген. Используя технику генной терапии, можно точно регулировать эти маркеры в костной ткани [23]. Они также могут применяться в целях лечения генетических костных нарушений, таких как болезнь Лобштейна — Вролика и фиброзная дисплазия. В таких случаях осуществляется введение генов, ответственных за нормальное формирование костей, с целью исправления дефектов. Одним из преимуществ их является их способность доставлять гены








точно в целевые клетки или ткани, минимизируя воздействие на соседние структуры [2].

Регенерация костной ткани остается актуальной и многообещающей областью исследований и медицинской практики. Генные трансферы, в качестве передовой технологии, предоставляют уникальные возможности для улучшения процессов заживления костей и лечения костных нарушений.

Важно отметить, что генные трансферы позволяют точно манипулировать генами, связанными с регенерацией костей, что открывает перспективы для индивидуальных и персонализированных подходов к лечению. Генные терапии могут быть применены как для стимуляции роста костей, так и для коррекции генетических костных нарушений.

#### Литература:

1. Апарцин Е. К., Кнауэр Н. Ю. Методы доставки генетического материала в клетки и возможности их применения в генной терапии //Гены и клетки. – 2016. – Т. 11. – №. 2. – С. 32-41.
2. Балычевцева И. В., Гадецкая С. Г. Случай несовершенного остеогенеза (клиническое наблюдение) //Журнал «Здоровье ребенка. – 2008. – Т. 4. – С. 13.
3. Божокин М. С. и др. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТРАНСФЕКЦИИ МЕЗЕНХИМНЫХ МУЛЬТИПОТЕНТНЫХ СТРОМАЛЬНЫХ КЛЕТОК (ММСК) В КАЧЕСТВЕ СИСТЕМЫ МОДИФИКАЦИИ КУЛЬТУРЫ КЛЕТОК ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИ ЗАМЕЩЕНИИ ДЕФЕКТОВ ГИАЛИНОВОГО ХРЯЩА //Современные проблемы науки и образования. – 2021. – №. 4. – С. 90-90.
4. Бозо И. Я. и др. НЕВИРУСНЫЙ ГЕННЫЙ ТРАНСФЕР В ГИДРОГЕЛЕВЫХ МАТРИКСАХ С МИКРОГРАНУЛАМИ ОКТАКАЛЬЦИЕВОГО ФОСФАТА В ОПТИМИЗАЦИИ РЕПАРАТИВНОГО ОСТЕОГЕНЕЗА //Гены и клетки. – 2021. – Т. 16. – №. 3. – С. 91-96.
5. Галицына Е. В. и др. МикроРНК в регуляции остеогенеза in vitro и in vivo: от фундаментальных механизмов к патогенезу заболеваний костной ткани //Гены и клетки. – 2019. – Т. 14. – №. 1. – С. 41-48.





6. Гольдштейн Д. В. и др. Композиция для восстановления дефектов костной ткани на основе аденовирусных конструкций, несущих кДНК ВМР-2, фибринового геля и синтетического  $\beta$ -трикальцийфосфата и способ ее получения. – 2017.
7. Екимова И. В. и др. Роль индуцибельного белка Hsp70 в модуляции нейродегенеративной патологии nigростриатной системы, характерной для болезни Паркинсона //Журнал эволюционной биохимии и физиологии. – 2016. – Т. 52. – №. 1. – С. 73-75.
8. Елифанова Е. А. и др. Вирусные векторы для доставки генетического материала в клетку и их использование в нейробиологии (обзор) //Современные технологии в медицине. – 2017. – Т. 9. – №. 1. – С. 162-174.
9. Ильина И. В. и др. Бесконтактная микрохирургия клеточных мембран с помощью фемтосекундных лазерных импульсов для оптоинъекции в клетки заданных веществ //Квантовая электроника. – 2013. – Т. 43. – №. 4. – С. 365-369.
10. Кирпичников М. П., Шайтан К. В. О развитии нанобиотехнологии //Инновации. – 2007. – №. 12. – С. 55-61.
11. Королёв А. С., Литвинов А. В. «Спираль жизни»(к 50-летию присуждения Нобелевской премии Фрэнсису Крику, Джеймсу Уотсону и Морису Уилкинсу «За открытия, касающиеся молекулярной структуры нуклеиновых кислот и их значения для передачи информации в живых системах») //Вестник Смоленской государственной медицинской академии. – 2012. – Т. 11. – №. 3. – С. 93-98.
12. Метлева А. С. СРАВНЕНИЕ МЕТОДОВ ЛИПИДНОЙ ТРАНСФЕКЦИИ И ЭЛЕКТРОПОРАЦИИ СПЕРМИЕВ КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА //Вестник Курганской ГСХА. – 2023. – №. 1 (45). – С. 33-39.
13. Недорубова И. А. и др. Невирусная доставка гена ВМР2 для регенерации костной ткани //Гены и клетки. – 2020. – Т. 15. – №. 4. – С. 33-39.
14. Педаченко Е. Г., Горбатюк К. И. Генетические аспекты и возможности генной терапии дегенеративных заболеваний межпозвонковых дисков //Ukrainian Neurosurgical Journal. – 2008. – №. 2. – С. 4-9.





15. Пикалюк В. С., Мостовой С. О. Современные представления о биологии и функции костной ткани //Таврический медико-биологический вестник. – 2006. – Т. 9. – №. 3. – С. 186-194.
16. Плескова С. Н. Основные принципы генной инженерии. – 2011.
17. Подлужный П. С. и др. РЕПАРАТИВНАЯ РЕГЕНЕРАЦИЯ ГИСТОГЕНЕТИЧЕСКИ РАЗЛИЧНЫХ КОСТЕЙ //Гены и клетки. – 2021. – Т. 16. – №. 4. – С. 63-67.
18. Ризванов А. А. Вирусные и невирусные методы введения в организм рекомбинантных нуклеиновых кислот. – 2010.
19. Сметник В. П., Сметник А. А. Эстрогены и костная ткань //Фарматека. – 2013. – Т. 12. – №. 256. – С. 17-21.
20. Спивак Н. Я. и др. Генноинженерные технологии и стволовые клетки. – 2008.
21. Улащик В. С. Электропорация: характеристика и лечебное использование метода (обзор) //Вопросы курортологии, физиотерапии и лечебной физической культуры. – 2016. – Т. 93. – №. 4. – С. 66-73.
22. Федорова А. В. и др. Фиброзная дисплазия //Саркомы костей, мягких тканей и опухоли кожи. – 2022. – №. 3-4. – С. 3-11.
23. Чаусская И. Ю. и др. БИОТРАНСПЛАНТАТ ДЛЯ ВОССТАНОВЛЕНИЯ ОБЪЕМА КОСТНОЙ ТКАНИ ПРИ ДЕГЕНЕРАТИВНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ И ТРАВМАТИЧЕСКИХ ПВОРЕЖДЕНИЯХ КОСТЕЙ И СПОСОБ ЕГО ПОЛУЧЕНИЯ. – 2014.
24. Чиркин А. А. Основы генной инженерии: методы рекомбинантных ДНК. – 2005.
25. Beumer K. J. et al. Comparing zinc finger nucleases and transcription activator-like effector nucleases for gene targeting in Drosophila //G3: Genes, Genomes, Genetics. – 2013. – Т. 3. – №. 10. – С. 1717-1725.
26. Dimitriou R. et al. Bone regeneration: current concepts and future directions //BMC medicine. – 2011. – Т. 9. – №. 1. – С. 1-10.
27. Jiang F., Doudna J. A. CRISPR–Cas9 structures and mechanisms //Annual review of biophysics. – 2017. – Т. 46. – С. 505-529.
28. Khosla S. Minireview: The opg/rankl/rank system //Endocrinology. – 2001. – Т. 142. – №. 12. – С. 5050-5055.





## **Qaraqalpog‘iston sharoitida yeryong‘oq o‘simligining jahon kolleksiyasini namunalarni o‘rganish**

**Jumaboyeva Ozodaxon Muratboyevna**

*O‘simchunoslik (Ekinlar guruhi bo‘yicha)*


*2-kurs magistr*

*Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti*

**Annotatsiya:** Dukkakdoshlar orasida qisman yarim buta, buta va ko‘p yillik uchraydi. Bu oila vakillarining ildizi oq ildiz va ildiz meva. Ildizida tugunaklar deb nomlanadigan o‘simtalar hosil bo‘ladi. Tugunaklar shu o‘simliklar ildizida yashaydigan va havodagi erkin azotni o‘zlashtiradigan bakteriyalarning faoliyati natijasida hosil bo‘ladi. Poyalari tik o‘sovchi, ilashuvchi, o‘raluvchi yoki yotib o‘sovchi bo‘ladi. Barglari kopincha murakkab (uch bargchali, patsimon yoki panjasimon) ba‘zan oddiy yoki yonbargli, poyada ketma-ket ornashgan.

**Ka‘lit so‘zlar:** Barg, murakkab, o‘sovchi, poya, namuna


Dukkakdoshlar oilasi yer sharining deyarli barcha qismida tarqalgan 400 turkumga oid 12000ga yaqin tur o‘simlik kiradi. Respublikamizda Dukkakdoshlarga oid 57 turkumga mansub 470 dan ortiq tur o‘simlik o‘sadi. Bu oila vakillarining ko‘pchiligi bir, eki va ko‘p yillik o‘tlardan iborat. Dukkakdoshlar orasida qisman yarim buta, buta va daraxat uchraydi. Bu oila vakillarining ildizi oqildiz va ildizmeva. Ildizida tugunaklar deb nomlanadigan o‘simtalar hosil bo‘ladi. Tugunaklar shu o‘simliklar ildizida yashaydigan va havodagi erkin azotni o‘zlashtiradigan bakteriyalarning faoliyati natijasida hosil bo‘ladi. Poyalari tik o‘sovchi, ilashuvchi, o‘raluvchi, yoki yotib o‘sovchi bo‘ladi. Barglari kopincha murakkab (uch yaproqchali, pasimon yoki panjasimon) ba‘zan oddiy, hamisha yonbargli, poyada ketma-ket ornashgan. Gullari yondosh-bargchali, qiyshiq va eki jinisli bo‘lib, shingil, kallakcha yoki boshqoq xilidagi to‘pgulga joylashgan, bazan guli yakka-yakka holda barglarning qo‘ltig‘ida o‘rnashadi. Gullari hashorat yordamida changlanadi. Gulqorg‘oni murakkab. Kosachasi yarmigacha bir-biri bilan qo‘shilgan 5 ta kosacha bargdan tashkil topgan. Toji kapalak shaklida bo‘lib, 5ta uch xil shakldagi toj bargdan hosil bo‘lgan. Ulardan eng ustungisi boshqalariga nisbatan ancha yirik. U yelkan yoki bayroqcha deb ataladi; ikki yoniga joylashgan bir xil shakldagi ikki toj barg qanotcha yoki eshak deyiladi. Bir-biri bilan qo‘shilgan bir juft oski toj barg va qayiqcha deyiladi. Changchilari 10 dona, ulardan 9 tasining iplari bir-biri bilan qo‘shilib ketgan, o‘ninchisi esa erkin, urug‘chisi bitta, bitta urug‘chi bargdan hosil bo‘lgan. Mevasi dukkak, bitta urug‘chi bargdan hosil bo‘lgan: bir uyli,







ko'p urug'li, ko'pincha qorin va orqa choklaridan pallaga bo'linib ochiladi: ba'zan ochilmasdan bo'laklarga bo'linadi yoki bo'linmaydigan bir urug'li, yong'oqsimon, moyli yoki quruq meva.(1) Dukkakdoshlarga mansub, Respublikamizdagi o'simliklardan biri yer yong'oq (*Arachis hypogaeae* L.)dir.Yeryong'oq (*Arachis hypogaea* L.) Fabaceae oilasiga mansub bo'lib, bu oila o'z navbatida 70 dan ortiq turlarni o'z ichiga oladi. Shundan faqat bitta turi *Arachis hypogaea* L. madaniylashtirilgan bo'lib, xalq xo'jaligida keng foydalaniladi. Madaniy yeryong'oqning ikkita (*Hypogaea* va *Fastigiata* kenja turlari bo'lib, ular o'z navbatida *Hypogaea* (*hypogaea hirsuta*), *fastigiata* (*fastigiata, vulgaris, peruviana, aequatoriana*) botanik nav guruhlariga bo'linadi.Yeryong'oq issiqsevar, namsevar, yorug'sevar va qisqa kun o'simligi [6]. Yeryong'oqning ildizi o'q ildiz,tuproqqa chuqur kirib boradi, azot to'plovchi tugunaklar hosil qiladi. (2, 5) Poyasi o'tsimon, balandligi 50-60sm, shoxlangan,tik,yon shoxlari yer bag'irlab o'sadi. Ba'zi turlarida (asosan tik o'suvchanelarda) antotsian (siyohrang) rang beruvchi moddasi bor.Antotsianli bo'lganlarning poyalari boshqalarnikiga nisbatan yog'ochsimon. Bu o'simliklarda turlarga ko'ra yon poyalar yoyiq, qiya vatic shaklda o'sishi mumkin. Yeryong'oq poyalari endi o'sayotgan paytida burchakliva yassidir, rivojlanganida esa poyalar yumaloqlashadi. Poya rangi, yashil va to'q yashil orasida o'zgarib turadi, ammo ba'zi turlarida tuk mavjud. Bargi murakkab, juft patsimon,yoki teskari tuxumsimon shaklda har bir barg qo'ltig'ida gul to'plam(shingil) joylashgan. Barglar, yorug'likka va qurg'oqchilikka qarshi chidamli hisoblanib, kechqurunlari va qurg'oqchilik paytida qarama-qarshi shaklda yopiladi. Barglarning shakllari uzun-ovalsimon. Barg ranglari poyalari kabi turiga bog'liq bo'lib, och yashil rangdan to'q yashil rangga o'zgaradi. Urug'ida moy miqdori ko'p bo'lib, o'simlik moyi olish uchun parvarishlangan turlarga mansub navlarda barglar yirik va och yashil rangda bo'lishi bilan urug'idan oziq-ovqat sanoatida foydalaniladigan navlardan farqlanadi. Gullari ikki jinsli,rangi sariq, zarg'aldoq.Yertagidagi gullari ochilmaydi, o'zidan changlanadi.Yer ustidagi gullari esa chetdan changlanadi. Guli changlangandan keyin tugunchasi avval tik, so'ng pastga qarab o'sadi, 8-10 sm chuqurlikda tuproqqa kirib boradi va meva (dukkak) tugadi [2]. Ginafor, yeryong'oqqa xos bo'lib, tuproq ichida dukkak hosil qiluvchi yosh o'simtalardir.Uning guli boshqa o'simliklardan ajratadigan o'ziga xos qismi hisoblanadi. Gullar urug'langandan so'ng gultoj barglari to'kiladi va harbir gulning urug'lanishidan 10-12 kundan so'ng, tuxumdonning ostidagi to'qima tezda ko'payadi va vaqti bilan tuxumdonni o'ra bolgan to'qima bilan birlashib kengaytma hosil qiladi va bu kengaytmaga ginafor deyiladi. Yer yong'oq, begona o'tlardan toza, ma'lum miqdorda mineral o'g'it solingan dalalarga ekilsa yaxshi rivojlanadi. Toza shudgorga ekish ham yaxshi natija beradi. Ammo yeryong'oqni o'zidan keyin takror






ekish uning kasalliklari va hashorotlarning ko'payishiga olib keladi. Yeryong'oq ekiladigan yerlarni chuqur shudgor qilish tuproqning fizik-kimyoviy xossalarning yaxshilanishiga, tuproqdagi azotli moddalarning faol xarakteriga olib keladi. Natijada o'simlikning baqavvat rivojlanib, yuqori hosil berishga olib keladi. Yeryong'oq ekiladigan maydonlar kuzda 29-30 sm chuqurlikda shudgor qilinadi. Shudgor paytida har gektar maydonga imkoni bor qadar 10-15 t dan go'ng solish zarur. Solinadigan go'ng yaxshi chirigan 2-3 yillik bo'lishi shart. Yangi chirimagan go'ngda begona o'tlar urug'i ko'p bo'lib dalani ifloslantirib yuboradi. Erta bahorda yeryong'oq ekiladigan yerlarga borona va mola bosiladi, 1-2 marta kultivatsiya qilinadi. Natijada yerni o'sib kelayotgan begona o'tlardan tozalab, namni saqlab qolishga yordam beradi. Gullash fazasiga 1-2 marta azot va fosforli o'g'itlarni qator orasini ishlaganda berish lozim. Bo'z tuproqlarda mineral o'g'itlarning samarasi tez seziladi. Beriladigan o'g'it normasi gektariga 60-90 kg azot, 15-16 kg fosfor. Bu norma tuproqning kimyoviy tarkibiga qarab o'g'itni juda ko'p berish ham yaramaydi, chunki azotli o'g'itlarning ko'p bo'lishi tuganak bakteriyalarning xarakterini susaytiradi. Bahorda tuproqni yaxshilab ishlab, begona o'tlardan tozalanadi, yerning namligi va g'ovakligining saqlab bekishga kirishiladi. Tuproq xarorati 14-16°C bo'lgandan keyin ekishga kirishiladi. O'tqazilgan qator tajribalar shuni ko'rsatadiki, ekiladigan urug'ning unuvchanligi 97% va 1000 dona urug'ining og'irligi 270 g bo'lganda hosildorlik yuqori bo'larkan. Yeryong'oq dukkaklarini butunlay ekilsa, u holda siyrak ekish kerak aks holda o'simlik oralari zich bo'ladi. Urug'larni bo'lakka ajratib ham ekish mumkin. Urug' po'stini avval maxsus tozalanadi. Po'sti archilgan urug'larini uzoq vaqt saqlab bo'lmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.N.Atabaeva, J.B. Xudoyqulov O'simlikshunoslik Toshkent (2018 yil)
2. X.Atabaeva, O.Qodirxo'jaev O'simlikshunoslik (T.Yangi asr avlodi). (2006-yil)
3. Zakirov, D. Madaminova. 2020-yil. Biologiya va ekologiya bilimini rivojlantirish.






## TA'LIM JARAYONIDA O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH Botabaev Quandik Isataevich

**Annotasiya :** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos usullari haqida gap ketadi. Shuning bilan birga o'yin texnologiyalaridan foydalanish jarayonida amalga oshiriladigan amaliy va ijodiy ishlar bo'yicha ham ma'lumotlar keltirilgan. Hamda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishda o'yin texnologiyalarilarining ahamiyati haqida ham fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** *o'yin texnologiyalari, bilim, malaka, ko'nikma, kommunikativ kompetensiya, bog'lanishli nutq, fikriy hujum, yalpi fikriy hujum, fikrlarning shiddatli hujumi.*

XXI asr fan va texnika asridir. Bu asr o'quvchisi fan va texnikaning eng oxirgi yutuqlariga tayangan holda o'z bilim va iqtidorini oshirib borishi lozim, jumladan, eng so'ngi axborot texnologiyalari: kompyuter, undagi internet tizimi bilan bemalol ishlasha oladigan bo'lmog'i kerak. Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi islohatlarning asosini pedagogika sohasidagi islohotlar tashkil qiladi. Chunki, ma'naviy qadriyatlarni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari yanada boyitadi. Pedagoglarning ma'naviy-ma'rifiy islohatlarning ijtimoiy mohiyatini chuqur anglashi ularning kasbiy burch, vazifalarini yanada oydinlashtiradi, pedagogik faoliyatning jamiyatdagi rolini oshiradi.

Adabiy ta'lim tizimida yosh avlodni yuksalayotgan demokratik jamiyat talablariga mos tarzda milliy va huquqiy ongini, madaniyatini tarkib toptirish har bir fan o'qituvchisining kasbiy faoliyatida insoniy munosabatlarni qaror topishida ustivor yo'nalish bo'lmog'i lozim. Har jihatdan muhim ahamiyatga molik bo'lgan global masalalarni hal etishda adabiy ta'limda innovatsion texnologiyalardan o'rinli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'limni tashxis etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.







Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv hususiyatga ega, ya'ni, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta'lim–tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart – sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustivorligiga erishishini kafolatlashi zarur.

Pedagogika texnologiyalardan majburan foydalanish emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan bolani ijodiy rivojlantirish maqsadida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim–tarbiya jarayonining samaradorligini kafolotlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plagan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar *interfoal* metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Quyidagi ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan interfoal metod va usullardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritimiz.

**“Fikriy hujum”** metodi. A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va shartli mashg'ulot (bahs)ning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bunday ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvafaqqiyatli foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi. “Fikriy







hujum” metodidan foydalanish chogʻida oʻquvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.


**“Yalpi fikriy hujum” metodi.** Ushbu metod. J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan boʻlib, uni bir necha oʻn (20-60) nafar oʻquvchilardan iborat sinflarda qoʻllash mumkin.

Metod oʻquvchilar tomonidan yangi gʻoyalarning oʻrtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar oʻquvchilarni oʻz ichiga olgan guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim boʻlgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar berilgan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh aʼzolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) oʻqituvchi va boshqa guruhlar aʼzolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashgʻulot yakunida oʻqituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va oʻziga xos deb topilgan javoblarni eʼlon qiladi. Mashgʻulot jarayonida guruh aʼzolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga koʻra baholab boriladi.

**“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi.** Soʻz yuritilayotgan metod Ye.A.Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya.Bush tomonidan qayta ishlangan. Metodning mohiyati quyidagichadir: jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir oʻquvchining shaxsiy imkoniyatlarini roʻyobga chiqarishga koʻmaklashish; oʻquvchilarda maʼlum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga qarshi gʻoyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iboratdir.

Yuqorida mohiyati bayon etilgan “Fikrlarning shiddatli hujumi” metodining ijtimoiy, gumanitar va tabiiy yoʻnalishlardagi fanlar yuzasidan tashkil etiladigan mashgʻulotlar jarayonida birdek muvaffaqiyatli qoʻllash mumkin.





**6x6x6 metodi.** Ushbu metod yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. "6x6x6" metodi asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlari har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rta tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlari guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.


Eng muhimi, mashg'ulot ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu metodni 5, 6, 7 va hatto 8 nafar o'quvchidan iborat bo'lgan bir necha guruhlar shaklida ham o'tkazish mumkin. Biroq yirik guruhlar o'rtasida "6x6x6" metodi qo'llanilganda vaqtni ko'paytirishga to'g'ri keladi. Chunki bunday mashg'ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun ham birmuncha ko'p vaqt talab etiladi. So'z yuritilayotgan metod qo'llanilayotgan mashg'ulotlarda guruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzu (muammo)ni muhokama qilish imkoniyati mavjud.

"6x6x6" metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo'lishni talab etadi. Guruhlarning to'g'ri shakllantirmasligi topshiriq yoki vazifalarning to'g'ri hal etilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. "6x6x6" metodi yordamida mashg'ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stol qo'yib chiqadi.

2. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo'linadilar. O'quvchilarni guruhlarga bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan obyekt (masalan kema, to'lqin, baliq, delfin, kit, akula) surati chizilgan lavhani qo'yib chiqadi. Mashg'ulot ishtirokchilariga kema, to'lqin, baliq, delfin, kit hamda akula surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqlardan birini olish taklif etiladi. Har





bir o'quvchi o'zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo'yilgan stuldan joy egallaydi.

3. O'quvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi hamda guruhlariga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.

4. O'qituvchi guruhlarining faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinlarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to'g'ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so'ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so'raydi.

5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarini qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'z o'rinlarini almashtirib olganlaridan so'ng belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriq yechimlari)ni muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar.

**“Juftini bilasizmi?” usuli** ham o'quvchini tez fikrlashga, topqirlikka undaydi. O'yinni amalga oshirish uchun o'quvchilarga biror bir til sathida oid birliklarning ma'lum qismi beriladi. O'quvchilar esa uni to'plashi lozim bo'ladi. Mazkur o'yindan tilning barcha sathlarida foydalanish mumkin. “To'g'ri talaffuz”, leksika va morfologiya bo'limlarida o'quvchilar tovush, so'z haqida muayyan bilimga ega bo'ladilar. Ma'lumki, so'z turkumlari va so'zning ma'nolarini bilishning ahamiyati katta. Chunki bu o'quvchi savodxonligining asoslaridan biridir. O'qituvchi o'quvchilarga ma'nodosh so'zlarga oid bilimlar hosil bo'lgan shu o'yinni o'tkazishi mumkin.

O'yin musobaqa tarzida ikki o'quvchi orasida yoki guruhlar o'rtasida o'tkazilishi mumkin. Ta'limda mazkur metod va usullar mashg'ulotlar jarayonidagi faollikni ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.






Yuqoridagilardan tashqari didaktik o‘yin va ilg‘or pedagogik texnologiyalarning juda ko‘p usullari mavjud. Bu usullardan o‘quvchining yoshi, psixologik xususiyati, bilim darajasiga qarab foydalanish lozim bo‘ladi. 5-6-7 sinflarda «Aqliy hujum», «Kichik guruhlarda ishlash», «Sinkvoyn», «B,B,B usuli» (Bilar edim, bilishni xohlayman» bilib oldim), «Menga oxirgi so‘zni bering», «Test» usullaridan foydalanish yuqori samara beradi. Yuqori sinflarda ushbu usullar bilan birga «Tanqidiy tafakkur», «Debatlar» (yozma va og‘zaki) «Nuqtai nazaring bo‘lsin», «Har kimga har kim o‘rgatadi», «Kubiklar», «Insert» usullaridan o‘rinli foydalanish dars sifatining yuqori bo‘lishi bilan birga, o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishda, har qanday sharoitda ham o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lgan erkin fikrlovchi inson bo‘lishida katta yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** stereometriya, o'rta ta'lim, zamonaviy texnologiyalar, virtual haqiqat, stem ta'limi, uch o'lchovli geometriya, immersiv ta'lim, pedagogik innovatsiyalar, talabalarning faolligi, geometrik tushunchalar.

### KIRISH

Ta'limning jadal rivojlanayotgan sharoitida zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi o'qitish va ta'lim jarayonlarini qayta belgilashda harakatlantiruvchi kuchga aylandi. O'rta ta'lim, o'quvchining akademik sayohatidagi muhim bosqich, murakkab matematik tushunchalarni, xususan, uch o'lchovli geometriyaga asoslangan tushunchalarni etkazishda o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. Stereometriya, uch o'lchovli shakllar, hajmlar va fazoviy munosabatlarni o'rganishga bag'ishlangan matematik intizom o'zining mavhum tabiati va murakkab tuzilmalarni aniq tasavvur qilish uchun kurashi tufayli ko'pincha o'qituvchilar va o'quvchilar uchun katta to'siq bo'lib kelgan.






So'nggi yillarda an'anaviy o'qitish usullarini, xususan, STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ta'lim sohasida kengaytirish uchun virtual haqiqat (VR) potentsialidan foydalanish yo'lida sezilarli siljish kuzatildi. VR texnologiyasining immersiv tabiati mavhum tushunchalarni moddiy qilish orqali pedagogik landshaftni o'zgartirish qudratiga ega, o'quvchilarga uch o'lchovli makonda matematik konstruktsiyalar bilan o'zaro aloqada bo'lish imkonini beradi va ularning murakkab geometrik tamoyillar haqidagi tushunchalarini kuchaytiradi.

Ushbu maqola o'rta ta'limda stereometriyani o'qitish kontekstida virtual haqiqatga alohida e'tibor qaratgan holda zamonaviy texnologiyalarning transformatsion salohiyatini o'rganadi. U stereometriya tushunchalarini chuqurroq tushunishga yordam berish uchun VR texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari va muammolarini o'rganadi. Keys tadqiqotlari, empirik tadqiqotlar va pedagogik mulohazalarni o'rganish orqali ushbu maqola stereometriyani o'qitishni inqilob qilish vositasi sifatida VRning istiqbolli istiqbollarni yoritishga qaratilgan bo'lib, uni yanada qiziqarli va tajribali qiladi.

O'qituvchilar va muassasalar o'quvchilarni tobora texnologiyaga asoslangan dunyoga tayyorlash talablari bilan kurashar ekan, o'rta ta'limda VR kabi zamonaviy texnologiyalarning rolini tushunish juda muhim. Ushbu maqola texnologiyaning ta'limga integratsiyalashuvi bilan bog'liq davom etayotgan nutqqa hissa qo'shishga va VR-dan stereometriyani o'rgatish uchun o'zgaruvchan vosita sifatida foydalanish bo'yicha qimmatli tushunchalarni berishga intiladi, bu an'anaviy tarzda samarali etkazish qiyin bo'lgan mavzu.

### ASOSIY QISM

Ta'lim tajribasini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar tobora ko'proq foydalanilmoqda, xususan, mavhum va murakkab tushunchalarni o'quvchilar tushunishi qiyin bo'lishi mumkin bo'lgan STEM ta'limi sohasida. Stereometriya, uch o'lchovli geometriyani o'rganishga kirishadigan matematikaning bir tarmog'i ham bundan mustasno emas. Murakkab fazoviy munosabatlarni, hajmlarni va geometrik tuzilmalarni tasavvur qilish va tushunish o'rta ta'lim o'quvchilari uchun qo'rqinchli bo'lishi mumkin. An'anaviy o'qitish usullari ko'pincha talabalar uchun ushbu mavhum tushunchalarni o'rganish uchun immersiv va jozibador muhit yaratishda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Virtual haqiqat (VR) texnologiyasi o'zining immersiv





va interaktiv imkoniyatlari bilan ushbu ta'lim bo'shlig'ini bartaraf etish uchun istiqbolli echimni taklif qiladi.

#### Ishtirok etish va tushunishni kuchaytirish

VR texnologiyasini stereometriyani o'qitishga kiritish o'quvchilarning matematik tushunchalarni idrok etish va o'zaro munosabatini o'zgartirish imkoniyatiga ega. VR o'quvchilarga geometrik shakllar va tuzilmalarni xuddi jismonan mavjud bo'lgandek o'rganishga imkon beruvchi uch o'lchovli muhitni ta'minlaydi. Bu mavjudlik va interaktivlik hissi talabalarning mavzuga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirishi mumkin, bu esa uni yanada yaqinroq va aniqroq qiladi. Talabalar virtual makonda uch o'lchamli shakllarni manipulyatsiya qilish, ajratish va tasavvur qilish imkoniga ega bo'lsa, mavhum geometrik tamoyillar aniq va tushunarli bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday interfaol va immersiv o'rganish tajribasi murakkab matematik tushunchalarni chuqurroq tushunishga va yaxshi saqlanishiga olib kelishi mumkin (Milani va boshq., 2019).

#### Motivatsiya va amaliy ilovalar

Bundan tashqari, stereometriyani o'qitishda VR dan foydalanish talabalarda motivatsiya va fanga qiziqish uyg'otishi mumkin. VR texnologiyasidan foydalanishning yangiligi va hayajonliligi talabalarning qiziqishini uyg'otishi, ularni geometrik printsiplar va ilovalar haqida ko'proq o'rganish va o'rganishga undashi mumkin. Masalan, talabalar deyarli tuzilmalarni qurishlari, hajmlarni hisoblashlari yoki fazoviy munosabatlarni tahlil qilishlari mumkin, bu esa o'rganish tajribasini yanada jozibador va haqiqiy dunyo ilovalariga moslashtiradi.

#### Pedagogik mulohazalar va muammolar

VRni stereometriya yo'riqnomasiga integratsiyalash pedagogik mulohazalar va qiyinchiliklar bilan birga keladi. Bu texnologiyani o'quv dasturiga samarali kiritish uchun o'qituvchilar o'z ta'lim usullarini moslashtirishlari kerak. O'qituvchilar uchun to'g'ri tayyorgarlik va resurslar sinfda VR texnologiyasidan maksimal darajada foydalanishlarini ta'minlash uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, VR uskunalari va dasturiy ta'minotiga kirish potentsial to'siq bo'lishi mumkin va maktablar va ta'lim muassasalari VR-ga asoslangan ta'limni samarali amalga oshirish uchun ushbu resurslarga sarmoya kiritishlari kerak (Clark va boshq., 2016).

Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa virtual reallik, o'rta ta'limda stereometriyani o'qitishda inqilob qilishda ulkan salohiyatga ega. VR texnologiyasi immersiv, interaktiv



va jozibador o'quv muhitini ta'minlash orqali o'quvchilarga uch o'lchamli geometriyani chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, u talabalarni rag'batlantirish va stereometriyani yanada dolzarb va qiziqarli qilish qobiliyatiga ega. Pedagogik mulohazalar va qiyinchiliklar mavjud bo'lsa-da, VRni stereometriya yo'riqnomasiga integratsiyalashuvi STEM ta'limini yaxshilash va talabalarni tobora ko'proq texnologiyaga asoslangan dunyoga tayyorlash uchun texnologiyadan foydalanishda oldinga qadamdir.

### XULOSA

O'rta ta'limda stereometriyani o'rgatishda virtual haqiqatga (VR) alohida e'tibor qaratilgan zamonaviy texnologiyalarning integratsiyalashuvi ta'lim tajribasini oshirishda sezilarli sakrashni anglatadi. An'anaviy ravishda mavhum tushunchalar va murakkab fazoviy munosabatlar bilan ajralib turadigan matematikaning murakkab sohasi bo'lgan Stereometriyaga VRning immersiv va interaktiv imkoniyatlari orqali yangi hayot berildi.

VR texnologiyasidan foydalangan holda, talabalarga an'anaviy ikki o'lchovli tasvirlar chegarasidan tashqariga chiqish va uch o'lchovli geometrik tuzilmalar bilan intuitiv va tajribaviy tarzda shug'ullanish uchun noyob imkoniyat taqdim etiladi. Ular murakkab geometrik shakllar va fazoviy konfiguratsiyalarni manipulyatsiya qilish, tasavvur qilish va kashf qilishlari mumkin bo'lgan virtual olamga qadam qo'yganlarida, stereometriya kamroq qo'rqinchli va qulayroq bo'ladi. Bu mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi va o'quvchilarga matematik muammolarni ishonch bilan hal qilish imkoniyatini beradi.

Sinfdagi motivatsiya VR tomonidan kengaytirilgan stereometriya yo'riqnomasining yana bir muhim foydasidir. Virtual haqiqat texnologiyasining jozibasi talabalarda qiziqish va ishtiyoqni uyg'otadi, mavzuni yanada qiziqarli qiladi va uning amaliy qo'llanilishini o'rganishga chinakam qiziqish uyg'otadi. Talabalar stereometriyaning arxitekturadan tortib muhandislikgacha va undan tashqarida real stsenariylarga qanchalik mos kelishini ko'rishlari mumkin, bu ularning martaba intilishlari va akademik yutuqlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Biroq shuni tan olish kerakki, VR texnologiyasini ta'limga tatbiq etish o'zining qiyinchiliklaridan holi emas. O'qituvchilarning ushbu texnologiyaning to'liq imkoniyatlaridan foydalanish uchun etarli darajada tayyorlanishini ta'minlash va ta'lim muassasalari o'rtasidagi kirish va resurslarning nomutanosibligini bartaraf etish






muvaffaqiyatli qabul qilishning muhim qadamidir. Shunga qaramay, texnologiya yanada qulayroq va arzonroq bo'lib, bu qiyinchiliklarni engib o'tish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'rta ta'limda stereometriyani o'rgatishda zamonaviy texnologiyalarning, xususan virtual haqiqatning o'rni o'quv tajribasini oshirish va o'quvchilarni texnologiyaga asoslangan dunyo talablariga tayyorlash uchun istiqbolli yo'lni taklif etadi. U stereometriyani qo'rqinchli mavzudan immersiv, qiziqarli va amaliy o'rganish sohasiga aylantiradi. STEM ta'limini rivojlantirishning innovatsion usullarini o'rganishda davom etar ekanmiz, VR 21-asrda matematika ta'limiga yanada interaktiv, qulayroq va tajribaviy yondashuv sari yo'lni yoritib, va'da beruvchi mayoq bo'lib turibdi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Clark, D. B., Nelson, B. C., Chang, H. Y., Martinez-Garza, M., Slack, K., Besterfield-Sacre, M., & Eddy, S. (2016). Tarqatiladigan ommaviy axborot vositalarini o'rganish va virtual haqiqatda ta'lim texnologiyasining kelajagi. *Educational Media International*, 53(3), 169-183.
2. Milani Alfredo, Novotna Jarmila, Prokop Pavol va Lai, C. H. (2019). Matematika ta'limida vizualizatsiya va virtual haqiqat: rivojlanayotgan tendentsiyalar. *Vizualizatsiya va virtual haqiqatda* (89-104-betlar). Springer.
3. Milliy tadqiqot kengashi. (2012). Hayot va mehnat uchun ta'lim: 21-asrda o'tkaziladigan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish. Milliy Akademiyalar matbuoti.
4. Milani Alfredo, Novotna Jarmila, Prokop Pavol va Lai, C. H. (2019). Matematika ta'limida vizualizatsiya va virtual haqiqat: rivojlanayotgan tendentsiyalar. *Vizualizatsiya va virtual haqiqatda* (89-104-betlar). Springer.
5. Clark, D. B., Nelson, B. C., Chang, H. Y., Martinez-Garza, M., Slack, K., Besterfield-Sacre, M., & Eddy, S. (2016). Tarqatiladigan ommaviy axborot vositalarini o'rganish va virtual haqiqatda ta'lim texnologiyasining kelajagi. *Educational Media International*, 53(3), 169-183.



## NOORGANIK-ORGANIK QOPLAMA HOSIL QILUVCHI GIBRID BIRIKMALARNING OLINISHI XOSSALARI VA TEXNOLOGIYASI

**Mansurov Bexruz Akbarovich, Buranov Nuriddin G'afforovich**

Buxoro Neft va gaz sanoati kolleji o'qituvchi

**Salomatov Bexruz To'ymurodovich**

Buxoro Neft va gaz sanoati kolleji o'qituvchi

**Shodiyev Sobir Vaxobjonovich**

Buxoro Muhandislik texnologiyasi instituti NMKT kafedrası stajyor-o'qituvchisi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada noorganik-organik qoplama gibrid birikmalarining ishlab chiqarish xususiyatlari va texnologiyasi haqida umumiy ma'lumot berilgan. Ushbu innovatsion materiallar noorganik va organik qoplamalarning afzalliklarini birlashtirib, mustahkamlik, korroziyaga chidamlilik va ko'p qirralilikni ta'minlaydi. Maqolada gibrid birikmalarning rivojlanishi o'rganiladi, sohadagi asosiy tadqiqotlar ko'rib chiqiladi, ishlab chiqarish jarayonlari tavsiflanadi va potensial ilovalar va kelajak istiqbollari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar.** Qoplash texnologiyasi, noorganik qoplamalar, organik qoplamalar, gibrid birikmalar, korroziyaga chidamlilik.

### Abstract

This article provides an overview of the production properties and technology of inorganic-organic coating hybrid compounds. These innovative materials combine the benefits of both inorganic and organic coatings, offering enhanced durability, corrosion resistance, and versatility. The article explores the development of hybrid compounds,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

reviews key research in the field, outlines the manufacturing processes, and discusses potential applications and future prospects.

**Keywords.** Coating technology, inorganic coatings, organic coatings, hybrid compounds, corrosion resistance.

### KIRISH

Himoya qoplamalari va sirt ishlov berish sohasida noorganik va organik qoplamalar uzoq vaqtdan beri o'ziga xos afzalliklarga va cheklolarga ega. Noorganik qoplamalar mukammal korroziyaga chidamlilikni ta'minlaydi, ammo moslashuvchanlikka ega bo'lmasligi mumkin, organik qoplamalar ko'p qirrali bo'lishi mumkin, ammo chidamlilikni buzishi mumkin. Noorganik-organik qoplama gibrid birikmalarining paydo bo'lishi ikkala yondashuvning kuchli tomonlarini birlashtirgan istiqbolli yechimni ifodalaydi. Ushbu maqola ushbu innovatsion birikmalarning ishlab chiqarish xususiyatlari va texnologiyasini o'rganadi, ularning turli sohalarga potensial ta'sirini o'rganadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

So'nggi yillarda noorganik-organik qoplama gibridlarini ishlab chiqishga katta e'tibor berildi. Tadqiqotchilar kerakli xususiyatlarga erishish uchun epoksi-kremniy gibridlari, sol-gel qoplamalari va organik-noorganik nanokompozitlar kabi turli kombinatsiyalarni o'rgandilar. Nanozarrachalar yoki metall oksidlari kabi noorganik komponentlarning organik matritsalariga integratsiyalashuvi asosiy e'tibor bo'ldi, chunki u qoplamalarga chidamlilik va kimyoviy qarshilikni oshiradi.

Ushbu gibrid birikmalar bir nechta asosiy afzalliklarga ega:

1. Yuqori chidamlilik: Noorganik-organik duragaylar ajoyib chidamlilik va ishqalanishga qarshilikni taklif qiladi, bu ularni og'ir muhitlar va talabchan ilovalar uchun ideal qiladi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

2. Kengaytirilgan korroziyaga chidamlilik: noorganik komponent agressiv sharoitlarda ham korroziyaga qarshi yuqori himoyani ta'minlaydi.

3. Yaxshilangan yopishqoqlik: Bu birikmalar ko'pincha turli substratlarga mukammal yopishish xususiyatlarini namoyish etadi va uzoq muddatli ishlashni ta'minlaydi.

4. Moslashtirilgan xususiyatlar: tadqiqotchilar ultrabinafsha nurlanishiga chidamlilik, issiqlik barqarorligi va elektr o'tkazuvchanligi kabi o'ziga xos xususiyatlarga erishish uchun kompozitsiyani nozik sozlashlari mumkin.

Noorganik-organik qoplama gibril birikmalarini ishlab chiqarish odatda ikki bosqichli jarayonni o'z ichiga oladi. Birinchidan, silika nanozarralari yoki metall oksidlari kabi noorganik komponent sol-gel texnikasi yoki kimyoviy cho'ktirish usullari yordamida sintezlanadi. Keyinchalik, bu noorganik material turli xil aralashtirish va davolash usullaridan foydalangan holda organik polimerlar, qatronlar yoki qoplamalar bilan birlashtiriladi. Olingan gibril birikma buzadigan amallar qoplamasi, dip qoplamasi yoki elektrodepozitsiya kabi usullar orqali sirtlarga qo'llanilishi mumkin.

## NATIJALAR

Noorganik-organik qoplama gibril birikmalari sanoatning keng doiralarida qo'llanilishi aniqlangan. Ular samolyotlarni atrof-muhitga zarar yetkazish, korroziya va ultrabinafsha nurlanishidan himoya qilish uchun aerokosmik sektorda keng qo'llaniladi. Avtomobil sanoatida bu qoplamalar avtomobil qoplamalarining chidamliligi va tiralishga chidamliligini oshiradi. Bundan tashqari, ular infratuzilmani himoya qilish, dengiz qoplamalari va elektronkada qo'llanilgan va ularning ko'p qirraliligini ta'kidlangan.

Noorganik-organik qoplama gibril birikmalarga tegishli ba'zi kimyoviy formulalar va ko'rinishlar:





1. Silikat nanozarralari:

- Kimyoviy formula:  $\text{SiO}_2$
- Tuzilishi: Si-O-Si

2. Epoksi qatroni:

- Umumiy kimyoviy tuzilish:
  - $\text{R}-(\text{-O-CH}_2\text{-CH}_2\text{-})_n\text{-O-}$
  - R epoksi magistralga biriktirilgan turli xil organik guruhlarni ifodalaydi.

3. Organik-noorganik gibril birikma:

- Umumiy kimyoviy tuzilish:
  - [Noorganik komponent] -  $[\text{-O-CH}_2\text{-CH}_2\text{-}]_n$  - [Noorganik komponent]
  - Noorganik komponent kremniy oksidi, metall oksidi yoki boshqa materiallar

bo'lishi mumkin.

4. Sol-Gel jarayoni (soddalashtirilgan):

- Hidroliz:  $\text{M}(\text{OR})_4 + 4\text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{MO}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O} + 4\text{ROH}$
- Kondensatsiya:  $\text{MO}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{M-O-M} + n\text{H}_2\text{O}$


5. Qoplama jarayoni:

- Muayyan kimyoviy formula yo'q, lekin bu jarayon substratni gibril birikma eritmasiga botirib, so'ngra qoplamani hosil qilish uchun qattiqlashni o'z ichiga oladi.

6. Elektrodepozitsiya:

- Elektrodepozitsiyada gibril birikmani o'z ichiga olgan elektrolit eritmasi qoplamani o'tkazuvchan substratga joylashtirish uchun ishlatiladi. Jarayon elektrokimyoviy xarakterga ega bo'lib, ionlar va elektronlarning harakatini o'z ichiga oladi, lekin bitta kimyoviy formulaga ega emas.

Ushbu formulalar va tasvirlar soddalashtirilgan va noorganik-organik qoplama gibril birikmalarini ishlab chiqarishda ishtirok etadigan asosiy komponentlar va





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

jarayonlarni ko'rsatishga xizmat qiladi. Muayyan kimyoviy tuzilmalar noorganik komponentga va ma'lum bir gibrid materialda ishlatiladigan organik matritsaga qarab farq qilishi mumkin.

### XULOSA

Noorganik-organik qoplama gibrid birikmalari himoya qoplamalar texnologiyasida sezilarli yutuqlarni anglatadi. Noorganik qoplamalarning chidamliligi va korroziyaga chidamliligini organik qoplamalarning ko'p qirraliligi bilan birlashtirib, bu aralashmalar turli sohalarda keng qo'llanilishini taklif qiladi. Tadqiqotlar davom etar ekan, biz himoya qoplamalari va sirtini qayta ishlash uchun yangi imkoniyatlarni ochib, muayyan muammolarni hal qilish uchun yanada moslashtirilgan yechimlarni kutishimiz mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dey, A., & Shin, K. (2018). Inorganic-organic hybrid coatings: A review. *Journal of Coatings Technology and Research*, 15(4), 913-936.
2. Liu, J., & De With, G. (2014). Organic-inorganic hybrid coatings for corrosion protection: A review. *Journal of Materials Chemistry A*, 2(4), 926-936.
3. Li, H., et al. (2019). Recent advances in the development of inorganic-organic hybrid coatings with enhanced durability and corrosion resistance. *Progress in Organic Coatings*, 135, 99-113.
4. Shirvani, M., et al. (2015). Advanced hybrid organic-inorganic coatings: Recent advances and future prospects. *Progress in Organic Coatings*, 85, 66-74.
5. Zhang, J., et al. (2016). Sol-gel-based hybrid coatings for corrosion protection. *Progress in Organic Coatings*, 91, 25-50.





## MULTIPLE CHRONIC KIDNEY DISEASES

**Choriyeva Zulfiya Yusupovna**

choriyevaz69@gmail.com

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Anatomiya va klinik anatomiya kafedrasi katta o'qituvchisi

**Alimova Feruza Shokirovna**

feruzaalimova038@gmail.com

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

**Jumayeva Karomat Rustam qizi**

jumayevakaromat80@gmail.com

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

**Xodjamqulova Subhida Nizom qizi**

subhidam112233y@gmail.com

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

**Ahmedova Saltanatxon Bahromjon qizi**

doctormobile551@gmail.com

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

**Abstract:** Kidneys perform a very important function in the body. One liter of blood passes through them in a minute, it is constantly cleaned of toxins and harmful substances. It produces biologically active substances, in particular, renin, which regulates blood pressure, and erythropoietin, which regulates the rate of formation of erythrocytes. It helps to control the water balance and the concentration of minerals such as sodium, potassium, and phosphorus in the blood. This article provides information about common kidney diseases and their treatment methods.

**Key words:** Kidney diseases, Bright's disease, nephrology, urology, glomerulonephritis.

Kidney diseases are different. Richard Bright began systematic study of this disease in 1872, he determined that swelling in the body, excretion of protein along with urine, is due to primary disease of the kidneys. A group of kidney diseases characterized by a number of symptoms in the form of albuminuria, hematuria and cardiac hypertrophy later became known as Bright's disease. The expansion of knowledge in the field of etiology and pathogenesis of kidney diseases, the application of methods of modern physiology, nephrology, biochemistry,

immunology, urology, and pathological anatomy led to the revision of several basic rules and concepts of Bright's nephrology. Moreover, there have been changes in the structure of kidney diseases since Bright's time (nosomorphosis). Cases of acute nephritis have decreased significantly, but pyelonephritis, immune-related kidney diseases, and metabolic nephropathies have increased. Kidney diseases related to heredity, as well as due to the effects of drugs, have also increased to some extent.

Kidney diseases in men and women include various pathologies that prevent the normal functioning of these organs of the urinary system. Each of the kidney diseases has its own characteristics, different clinical manifestations and treatment methods. In fact, many kidney diseases are asymptomatic, that is, without symptoms, and patients do not know about existing problems with their health. Therefore, it is important to understand what the main diseases of the kidney are, to know their symptoms and treatment. Often, the patient accidentally finds out that he has a missed stage of kidney disease, he came to the doctor complaining of a completely different problem. Doctors even call the kidneys "dumb organs" among themselves, because the first symptoms of the disease appear only when the kidneys fail in some cases.

Of course, doctors can suspect the presence of the disease during a blood analysis, but for this, this analysis must be in the hands of a nephrologist, which happens very rarely. In most cases, patients first find out about this type of doctor when they are admitted to the hospital with a diagnosis of myocardial infarction. The kidneys perform various functions: 1) they help to remove metabolic products from the blood; 2) participates in exchange processes; 3) manages blood plasma stability and alkaline balance; 4) participates in the management of arterial pressure. Endothelial cells of the glomeruli, visceral epithelial cells with a basement membrane, Shumlyansky-Bowman capsule participate in the filtration process that takes place in the glomeruli and leads to the formation of primary urine. The total filtering surface of the ball is 1 m<sup>2</sup>. About 200 l of tissue fluid is filtered during one night. Because the pores in the membrane of the ball are very small, high-molecular substances cannot pass through the filtration site. Mesangium is also important, it traps and breaks down immune complexes.

Glomerulonephritis is the primary kidney disease that is the most important problem in nephrology because it eventually leads to chronic kidney failure. In addition, this disease is of great importance as a medical and social problem. Because

people with this disease get sick more often during their prime and most of them die before reaching 40 years of age. Currently, glomerulonephritis can be considered as a disease that passes with the onset of mainly immunological damage of vascular balls and subsequent bacterial inflammation (that is, inflammation due to immunity in nature).

Nephrotic syndrome is characterized by the onset of severe proteinuria as a result of increased glomerular filtration, followed by hypoalbuminemia, hyperlipidemia, and diffuse swelling of the body. Nephrotic syndrome is caused by damage to the basement membrane of the glomeruli, which is a barrier that does not allow protein to pass from tissue fluid to urine. In most cases, the basement membrane is thickened and stained with SHIK-reactive, and remains clearly visible when viewed with a simple optical microscope (membranous glomerulonephritis). Its thickening is mainly caused by immune complexes coming to it from the visceral epithelium. At the same time, there may be no inflammatory reaction. Sometimes, when the nephrotic syndrome is significant, no structural changes can be found in the basal membranes even when examined with an electron microscope. In such cases, it is believed that the increase in permeability of the basal membrane depends on the physico-chemical alteration of this membrane. However, at the onset of nephrotic syndrome, podocyte peduncle growths are destroyed in all cases, which leads to a decrease in the number of perforations, especially in the peripheral loops of capillaries. The nephritic syndrome is characterized by the onset of hematuria, decreased glomerular filtration rate, various degrees of oliguria, azotemia, and hypertension. Nephritic syndrome begins at the site of pathological processes that occur with the beginning of a proliferative inflammatory reaction in the glomeruli. At the same time, proliferation is observed in various cell elements in balls: endothelial, mesangial and epithelial cells. Such proliferative inflammation can continue with the infiltration of capillaries, Shumlyansky-Bowman's capsule space, and sometimes perglomerular interstitium with neutrophils in some cases. Chronic glomerulonephritis is associated with uremia, which can lead to many disasters. The predominant morphological sign of such glomerulonephritis is hyalinization of the glomerulus. Such hyalinization is due to the accumulation of homogenous eosinophilic substance, which resembles the basement membrane and mesangial

matrix, between the loops of the capillary and in the membrane itself. In the process of hyalinization, the path of the capillary narrows or becomes closed.

The etiology of most types of glomerulonephritis has not been determined. At the same time, a consistent theory based on the pathogenesis of glomerulonephritis, especially immune mechanisms, has been developed. Two main types of immunological damage of the balls have been identified: 1) damage of the balls as a result of accumulation of soluble antigen-antibody complexes circulating in the blood (immunocomplex disease); 2) damage to the glomerulus from antibodies (autoimmune antibody glomerulonephritis), these antibodies can affect the glomeruli in two ways: a) in situ with antigens that are insoluble, settled, including those settled on the glomerular basement membrane reacting or b) reacting with antigens circulating in the blood, in which the resulting immune complexes are then deposited on the wall of the kidney filter. Determining the nature of the antigen is difficult and a matter of great interest, but there is also the fact that the nature of the characteristic antigen for some types of glomerulonephritis is still unknown. It is now assumed that there are two main types of antigens: endogenous and exogenous antigens. The first of these include antigens found in lupus-nephritis or G immunoglobulins found in rheumatoid arthritis, renal tubule antigens, tumor antigens. Exogenous antigens are divided into viral antigens, bacterial, parasitic, fungal antigens, and iatrogenic ("drug-related") antigens. Among them, beta-hemolytic streptococcal antigen, Coxsackie virus, hepatitis V virus, treponema, malaria plasmodium, and worm antigen are the most common. Antigens related to drugs, levamisole, rifampin, and antigens related to the effect of analgesics should be mentioned.

#### References:

1. Abdullakhodjaeva M. S., Akbarova M. G. Pathological anatomy of the dental system and organs of the central nervous system. — Tashkent: Medicine, 1983.
2. Abdullakhodjaeva M. S., Giyasov 3., Kuznetsova T. A. Social aspects of sudden infant death syndrome. - Second regional Congress of pediatrics of Central Asia and Turkey with international participation, Tashkent, 1994, p. 133.
3. Abdullakhodjaeva M. S., Babanov B. X, Eletskaia N. V. Gestozy i ix oslojneniya v strukture materinskoy smertnosti. - "Medical journal Uzbekistana" No. 2, 2002, p. 11-13.





УДК: 633.11+631.51+631.55

**Қаттиқ буғдой навлари ҳосилдорлиги ва сифатининг экиш муддатларига  
боғлиқлиги****Иzzатуллаев Л.А., Кузибоев Ж.Б., Абдуллаев М.Б***Термиз агротехнологиялар ва инновацион ривожланисҳ институти*

Буғдой етиштиришни кўпайтириш ва сифатини яхшилаш мамлакатимиз кишлоқ хўжалигидаги энг долзарб муаммолардан биридир. Бу муаммони ҳал этишда навлар ва уларнинг илмий асосланган технологиясини ишлаб чиқиш муҳим аҳамиятга эга.

Мамлакатимизда ривожланиб бораётган макарон-кондитер саноатининг муҳим хомашёси бўлган қаттиқ буғдой донига бўлган талаби тора ошмоқда, аммо республикамизда унинг экилаётган майдони жуда кам ва донига бўлган талабни қондира олмайди. Ваҳоланки, уни етарли миқдорда етиштиришнинг илмий ва амалий имкониятлари мавжуд.

Республикамизнинг давлат нав синаш участкалари, станциялари ва кўпгина фермер хўжаликларида ўтказилган тажрибалар қаттиқ буғдой ҳам суғориладиган ерларда илмий асосланган технологияси бўйича ўстирилганда ҳосилдорлик бўйича юмшоқ буғдойдан қолишмаслигини гектардан 55-65 ц кам бўлмаган қимматбаҳо дон олишини кўрсатди.

Республикамиз суғориладиган ерларида экиш учун қаттиқ буғдойнинг Истиклол, Макуз-3, Александровка, Леукурум-21, Карлик-85, Неодур ва Тетрадур навлари давлат реестрига киритилган. Бу навларнинг ҳаммаси биологик баҳори ва дуварак қишга чидамлилиги кузги буғдойникидан пастроқ бўлсада, қурғоқчиликка, касалликларга чидамлилиги юмшоқ буғдойникидан юқори, пишганда донлари тўкилиб кетмайди.

Буғдой етиштириш технологиясининг энг муҳим технологик усуллари экиш муддатларига амал қилиш мўл ва сифатли ҳосил олишнинг асосий омилдир. Экиш муддатларини белгилашда навларнинг биологик хусусиятлари, тупроқ-иқлим шароити, нам билан таъминланганлик даражаси ва бошқа омилларни ҳисобга олиш лозим.

Қаттиқ буғдой навлари потенциал имкониятларидан тўла фойдаланиш учун уларнинг энг қулай илмий асосланган экиш муддатларини ўрганиш ушбу





технологик элементнинг буғдой дон ҳосили ва сифатига таъсирини аниқлаш муҳимдир.

Шулардан келиб чиқиб, тажрибаларни Самарқанд вилоятининг тоғ олди худуди шароитида (2005-2007 йй.) қаттиқ буғдойнинг Александровка, Макуз-3, Карлик-85 ва Истиқлол навларининг экиш муддатларини ўргандик. Дала тажрибалари 4-қайтариқли, ҳисобга олинадиган майдончаларнинг катталиги 50 м<sup>2</sup> га тенг бўлиб, икки ярусли қилиб жойлаштирилди. Буғдойнинг ўтмишдош экини маккажўхори ўстирилган майдонлар танлаб олинди.

Тажрибаларда гектарига Р<sub>150</sub> К<sub>70</sub> ва N<sub>210</sub> кг дан (азотли ўғитлар экишдан олдин 30 кг, қолган меъёри эрта баҳорда ва найчалаш фазаларида) солинди. Экишдан олдин нам тўплаш мақсадида гектарига 1200 м<sup>3</sup> сув берилди ва 3-мартга атмосфера ёғинлари ҳисобга олиниб, ўсув даврида суғоришлар ўтказилди.

Буғдой навлари сентябрнинг 25-куни октябрнинг 5, 15, 25 кунлари ва 5 ноябрда гектарига 4.0 млн унувчан уруғ ҳисобида экилди.

Тажрибада ўсимлик парвариши мазкур минтақа учун қабул қилинган технологик жараёнлар асосида бажарилди.

Тажриба натижалари В.А.Доспехов (1985) услуби бўйича математик таҳлил қилинди.

Тажрибаларимиз натижаларига кўра, Самарқанд вилоятининг тоғ олди худудида қаттиқ буғдой навлари энг мақбул экиш муддати октябрнинг 15 кунлиги эканлиги аниқланди. Октябрнинг 15 кунда экилган пайкалчаларнинг ҳар гектари ҳисобига Александровка, Макуз-3, Карлик-85 ва Истиқлол навларидан мувофиқ ҳолда 51,6; 57,2; 54,3 ва 56,5 центнер ёки 25 сентябрга нисбатан 10,8 ; 11,2; 11,0; 10,3 центнер кўп дон ҳосили олинди. Экиш ноябрнинг 5 кунда ўтказилганда эса қаттиқ буғдой навлари дон ҳосили гектарига мувофиқ ҳолда 9,0; 10,1; 10,4; 9,9 центнерга камайди. Ушбу буғдой навлари эрта (25 сентябрда )экилганда қиш тушгунча меъёридан ортиқ ўсиб кетди ва қишда совуқдан зарарланди, ўсимликнинг бир қисми нобуд бўлди, кеч экилганда пайкалчаларда қиш тушгунча ўсимликлар тўла тупланишга улгура олмади ва уларнинг қишга чидамлилиги пасайди.

Тажрибаларимизда экиш муддатлари қаттиқ буғдойнинг сифат кўрсаткичларига сезиларли таъсир кўрсатди. Эрта (25 сентябр) ва кеч (5 октябр) муддатларда экилганда барча навларда 1000 та дон массасининг камайиши






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

кузатилди. Қаттиқ буғдой навларининг эрта муддатларда экилганда 1000 та дон массасининг камайишининг сабаби тупланишнинг юқори бўлиши ва иккиламчи ҳамда навбатдаги бошоқдаги донлар майда бўлиб вазни камайишидир. Кеч муддатларда экилганда эса, донлар пишишининг жуда иссиқ даврларга келиши сабабидир. Дон таркибидаги энг кам оқсил ва келейковина миқдори эрта муддатларда экилган буғдойларда кузатилди. Экишнинг кечикиши билан дон таркибидаги оқсил ва клейковина миқдорининг ошиб бориш қонунияти кузатилди.

Кеч экилган буғдой донидаги оқсилнинг ошиши ўсув даврининг иккинчи ярми ҳамда доннинг тўлишиш даври қисқариши билан боғлиқ, чунки, мақбул муддатдан 15-20 кун кеч экилганда буғдой донининг пишишдаги фарқи 1-3 га тенг. Бу эса ўз навбатида дондаги оқсил ва углеводлар нисбати таъсир кўрсатади, натижада бир гектаридан олинган оқсил миқдори ошмаслиги, баъзан камайишини кузатиш мумкин.

Демак, қаттиқ буғдой етиштириш технологиясида экиш муддатларига қатъий риоя қилиш улардан мўл ва сифатли ҳосил етиштириш омилларидан бири бўлиб ҳисобланади.



**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Суғориладиган ва лалми ерларда кузги бошоқли дон экинларини парвариш қилиш технологияси / И.Қобулов, А.О.Омонов ва б.: -Андижон: Ҳаёт, 2000. -66 б.
2. Бобомирзаев П.Х. Влияние сроков и нормы посева на урожаи качества зерна пшеницы на орошаемых типичных сероземах Кашкадарьинской области: Автореф. на соис. уч. степ. канд. с.-х. наук. Самарканд: СамСХИ, 1998. -21 б.
3. Келдиёрова Х.Х. Зарафшон водийсида кузги буғдойнинг қишга чидамлилиги ва ҳосилдорлигига экиш муддатларининг таъсири: қ.-х. ф.н.канд. дис. автореферати. –Самарқанд: СамҚХИ, 2004. -21 б.
4. Халилов Н.Х. Нучные основы возделывания пшеницы осеннего посева на орошаемых землях Узбекистана: Автореф. дис на соис. уч. степ. док. с.-х. наук. –Самарканд: СамСХИ, 1994. -41 б.
5. Бахрамов Б. Кузги буғдой ва ҳосилдорлик //Ж. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. -1999. -№ 6. –Б. 31-32.
6. Халилов Н.Х., Бобомирзаев П.Х. Кузги буғдой етиштириш технологиясини такомиллаштириш шартлари //Ж. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. -1998. -№ 5-6. –Б. 35-37.
7. Халилов Н.Х., Ходжаниёзова Ф. Влияние норм и способов посева на урожайность озимой пшеницы //Ж. Сельское хозяйство Узбекистана. -2002. -№ 6. –Б. 10-11.







УДК:633:11+631:1+631+55

**Лалми майдонларда экиш меъёрларининг қаттиқ буғдой навлари дон  
ҳосили ва сифатига таъсири****Иззатуллаев Л.А., Кузибоев Ж.Б., Чориев С.Ф***Термиз агротехнологиялар ва инновацион ривожланисҳ институти*

Республикамиздаги лалмикор ерларда етиштирилган бошоқли дон экинлари ҳосили азалдан ички эҳтиёжни қондиришда муҳим аҳамиятга эга бўлган. Ҳозирда мамлакатимизнинг донга бўлган эҳтиёжи асосан суғориладиган ерларда етиштириладиган ҳосил ҳисобига қондирилмоқда. Лалмикорликда буғдой, айниқса қаттиқ буғдой етиштириш, ҳосилдорликни, дон сифатини ошириш ғаллачиликдаги долзарб муаммолардан бири бўлиб ҳисобланади. Жорий йилда республикамизда 200 минг гектардан ортиқ лалмикор майдонларга буғдой уруғлари, шу жумладан қаттиқ буғдой ҳам экилди.

Халқ ҳўжалигида қаттиқ буғдой жуда катта иқтисодий аҳамиятга эга. Қаттиқ буғдой дони бир қатор технологик хусусиятларга эга бўлиб, унинг ундан тайёрланган маҳсулотлар тўйимли ва жуда ҳушбуйдир, ундан юқори сифатли ёрма, макарон, вермишел ва бир қанча қандолат (печенье, тортлар, пряник ва бошқалар) маҳсулотларини ишлаб чиқаришда тенгсиз хомашё ҳисобланади.

Республикамиз лалмикор майдонларида ҳозирги пайтда экиш учун Давлат реестрига қаттиқ буғдойнинг Марварид ва Леукурум-3 навлари критилган. Бу навлар юмшоқ буғдой навларига нисбатан иссиққа, қирғоқчиликка, қоракуя ва занг касалликларига чидамли бўлиб, донлари пишганда тўкилиб кетмайди, лалмикор шароитда барқарор ва сифатли ҳосил беради.

Ўзбекистоннинг табиий-иқлим шароити лалмикор минтақаларда қаттиқ буғдой ўстиришга жуда қўлайдир. Республикамизнинг лалмикор майдонларида экиш учун қаттиқ буғдойнинг бир неча навлари яратилган бўлишига қарамай бу навларнинг экин майдонлари жуда кам ва республикамизда ривожланиб бораётган макарон-кондитер саноатининг қаттиқ буғдой донига бўлган талабини қондира олмайди. Ваҳоланки, республикамизда қаттиқ буғдойни етарли миқдорда етиштиришнинг илмий ва амалий имкониятлари мавжуд. Аммо, кейинги йилларда лалмикорликдан фойдаланиш кескин даражада камайди. Айрим йиллари об-ҳавонинг қирғоқчил келиши, деҳқончилик маданиятининг, ерлар унумдорлигининг пасайиши, навларнинг биологик хусусиятлари ҳамда





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

тувроқ-иқлим шароитларини ҳисобга олган ҳолда экиш меъёрларининг ўрганилмаганлиги бунинг асосий сабабларидан бири ҳисобланади.

Буғдой ўстиришнинг энг муҳим технологик усул-экиш меъёри бўлиб, уни оптимал меъёрдан ошириш ёки камайтириш ҳосилдорликни ҳамда буғдой етиштириш самарадорлигини пасайишига олиб келади.

Юқорида қайд этилганлардан келиб чиқиб, биз Жиззах вилоятининг Ғаллаорол туманида лалмикорликнинг нам билан ярим таъминланган қир-адирлик минтақасида жойлашган “Суғориладиган ерларда ғалла, дуккакли ўсимликлар илмий тадқиқот институти”ни Ғаллаорол филиалининг марказий тажриба хўжалигига қарашли лалми тажриба участкасида қаттиқ буғдойнинг Марварид ва Леукурум-3 навларини кўйидаги экиш меъёрларида 2,0; 2,5; 3,0 ва 3,5 млн/га унувчан уруғ ҳисобида экиб ўргандик. Тажрибада қаттиқ буғдой уруғлари 25 октябрда экилди. Дала тажрибалари 4 қайтариқли, ҳисобга олинadиган майдончаларнинг катталиги 50м<sup>2</sup> га тенг бўлиб, пайкалчалар икки ярусли қилиб жойлаштирилди. Тажрибаларда ўсимлик парвариши мазкур минтақа учун қабул қилинган технологик жараёнлар асосида бажарилди. Тажриба натижалари В.А.Доспехов (1985) услуби бўйича математик таҳлил қилинди.

Тажриба натижаларининг кўрсатишича, экиш меъёрларини ошириш қаттиқ буғдой навлари бўйининг баланд бўлишига олиб келди. Гектарига 2,5 млн унувчан уруғ экилганда ўсимлик баландлиги 2,0 млн экилганга нисбатан Марварид ва Леукурум-3 навларига мувофиқ ҳолда 1,0; 1,3 см, 3,0 млн уруғ экилганда эса 2,3; 3,0 см ва 3,5 млн экилганда 3,4; 4,2 см га ошди.

Экиш меъёрларини ошириш қаттиқ буғдой навлари ўсув даврини 2-3 кунга узайтирди.

Тажрибаларда қаттиқ буғдойнинг Марварид ва Леукурум-3 навлари экиш меъёрини гектарига 2,0 млн дан 3,0 млн гача оширганда ҳосилдорлик навларга мувофиқ ҳолда 20,7 ва 18,2 центнерни ташкил қилди ёки дон ҳосили навларга мувофиқ ҳолда гектарига 4,0 ва 4,5 центнер кўпайди. Экиш меъёрини гектарига 3,5 млн га оширганда дон ҳосили ошишида ишонарли фарқ кузатилмади.

Экиш меъёрларини ошириш дон сифат кўрсаткичларидан 1000 та дон массаси, дон натураси ва шишасимонлигини камайтирди.

Шунингдек, экиш меъёрларини ошириш билан дон таркибидаги оқсил сақланишини пасайиш қонуниятини кузатилди. Гектарига 2,0 млн уруғ экилганда





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

Марварид ва Леукурум-3 навларига мувофиқ 15,2; 15,5 %; 2,5 млн да 14,9; 15,2 %; 3,0 млн да 14,7; 15,0 %; 3,5 млн да 14,4; 14,8 % ни ташкил этди.

Экиш меъёрларини ошириш билан клейковина миқдори ҳам камайганлиги қайд этилди.

Экиш меъёрини гектарига 2,0 млн дан 3,0 млн гача ошиб бориши билан гектар ҳисобига олинadиган оқсил ва клейковина миқдори ҳам ошиб борди. Экиш меъёрини гектарига 2,0 млн дан 3,0 млн гача ошиши билан Марварид ва Леукурум-3 навларида бир гектардан оқсилнинг чиқишини ҳам мувофиқ ҳолда оширди.

Демак, Жиззах вилоятининг Ғаллаорол тумани қир-адирлик минтақаси шароитида қаттиқ буғдойнинг Марварид ва Леукурум-3 навларининг мақбул экиш меъёри гектарига 3,0 млн уруғ эканлиги аниқланди. Экиш меъёрини гектарига 2,0 млн га камайтириш ёки 3,5 млн гача оширишда ҳам дон ҳосилининг камайишини кузатиш мумкин. Лалмикорликда қаттиқ буғдой экиш меъёрларига риоя қилиш улардан мўл ва сифатли ҳосил етиштиришга замин яратади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Суғориладиган ва лалми ерларда кузги бошоқли дон экинларини парвариш қилиш технологияси / И.Қобулов, А.О.Омонов ва б.: -Андижон: Ҳаёт, 2000. -66 б.

2. Бобомирзаев П.Х. Влияние сроков и нормы посева на урожаи качества зерна пшеницы на орошаемых типичных сероземах Кашкадарьинской области: Автореф. на соис. уч. степ. канд. с.-х. наук. Самарканд: СамСХИ, 1998. -21 б.

3. Келдиёрова Х.Х. Зарафшон водийсида кузги буғдойнинг қишга чидамлилиги ва ҳосилдорлигига экиш муддатларининг таъсири: қ.-х. ф.н.канд. дис. автореферати. –Самарканд: СамҚХИ, 2004. -21 б.

4. Халилов Н.Х. Нучные основы возделывания пшеницы осеннего посева на орошаемых землях Узбекистана: Автореф. дис на соис. уч. степ. док. с.-х. наук. –Самарканд: СамСХИ, 1994. -41 б.

5. Бахрамов Б. Кузги буғдой ва ҳосилдорлик //Ж. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. -1999. -№ 6. –Б. 31-32.

6. Халилов Н.Х., Бобомирзаев П.Х. Кузги буғдой етиштириш технологиясини такомиллаштириш шартлари //Ж. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. -1998. -№ 5-6. –Б. 35-37.

7. Халилов Н.Х., Ходжаниёзова Ф. Влияние норм и способов посева на урожайность озимой пшеницы //Ж. Сельское хозяйство Узбекистана. -2002. -№ 6. –Б. 10-11.



**Qiyin xayotiy vaziyatda qolgan talabalar psixologik farovonligi  
psixokorreksiyasining dolzarb muammolari**

Abdukadirova L.Yu.

Fargʻona davlat universiteti, psixologiya kafedrasi, oʻqituvchi.

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada qiyin xayotiy vaziyatda qolgan talabalarning psixologik farovonligini rivojlantirishga oid uchta komponentdan iborat boʻlgan dastur modeli, xamda uning tarkibiga kirgan amaliy psixologik usullar, psixologik mashq va oʻyinlar taklif etilgan.

***Kalit soʻzlar:** QHVda qolgan talabalar, psixologik salomatlik, psixologik farovonlik, raqamlashtirish, psixokorreksiya, psixokorreksion dastur, guruhiy trening, axborot-maʼrifiy faoliyat, profilaktik-sogʻlomlashtiruvchi faoliyat, SMART-texnologiya.*

**Актуальные проблемы психокоррекции психологического благополучия студентов в трудной жизненной ситуации**

Абдукадилова Л.Ю.

Ферганский государственный университет, факультет психологии, преподаватель.

**Аннотация**

В данной статье предлагается модель трехкомпонентной психокоррекционной программы развития психологического благополучия студентов в трудной жизненной ситуации, которая включает в себя практические психологические методы, психологические упражнения и игры.

***Ключевые слова:** студенты, оставшиеся в ОХВ, психологическое здоровье, психологическое благополучие, цифровизация, психокоррекция, психокоррекционная программа, групповое обучение, информационно-образовательная деятельность, профилактическо-оздоровительная деятельность, SMART-технология.*

**Current problems of psychocorrection of psychological well-being of students in difficult life situations**

Abdukadirova L.Yu.

Fergana State University, Faculty of Psychology, teacher.

**Annotation**



This article proposes a model of a three-component psychocorrectional program for the development of psychological well-being of students in difficult life situations, which includes practical psychological methods, psychological exercises and games.

**Key words:** students remaining in the educational institution, psychological health, psychological well-being, digitalization, psychocorrection, psychocorrection program, group training, information and educational activities, preventive and health activities, SMART technology.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatda raqamli va kibertexnologiyalar keng ko‘lamda joriy etilishi, kommunikatsiyalar uzluksiz rivojlanishi, Big Data, sun‘iy intellekt, narsalar Interneti, blokcheyn, robototexnika ommalashishi kuzatilmoqda. Zamonaviy dunyo VUCA (*volatility* — beqarorlik, o‘zgaruvchanlik; *uncertainty* — ishonchsizlik; *complexity* — murakkablik; *ambiguity* — ikkima‘nolik, ko‘pmazmunlilik, ko‘paxamiyatlilik) dunyosi deb ataladi [1]. Bu esa insonlarning kundalik hayoti, mehnat sharoitlari, dam olish xususiyatlari keskin o‘zgarishiga olib kelmoqda, xamda raqamlashgan dunyoda muvaffaqiyatga erishishning yangi talablarini belgilab, ta‘lim tizimini takomillashtirishni taqazo etmoqda. Oliy ta‘lim tizimini nazarda tutgan xolda, *nafaqat o‘qituvchilar va talabalarning kompetentligining oshishi talab etiladi, balki sog‘liqni saqlashning samarali texnologiyalarining yo‘qligini bartaraf etish ham muhim ahamiyat kasb etadi*. Chunki har bir bo‘lajak mutaxassis uchun yangi tajriba va bilimlarni o‘zlashtirish, yuqori darajadagi o‘quv-bilish faoliyatini amalga oshirish jiddiy neyropsik sarflar bilan bog‘liq. Bu, ayniqsa, 2020-yil bahorida, COVID-19 pandemiyasi tufayli masofaviy ta‘limga o‘tish majburiy bo‘lganda yaqqol namoyon bo‘ldi. O‘qituvchilar va talabalarga yuklamaning keskin ortishi ta‘lim jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha samarali sog‘liqni saqlash texnologiyalar yo‘qligini yaqqol ko‘rsatib berdi.

Bu borada JSST mutaxassislari 20 asrning oxirida zamonaviy insonning sog‘lig‘ini ta‘minlaydigan turli omillarning to‘rtta asosiy komponentlari nisbatini aniqlab, genetik omillar 15-20%, atrof-muhit holati 20-25%, tibbiy yordam 10-15%, odamlarning turmush tarzi va sharoitlari 50-55%ni tashkil etishi haqida xulosa qilganlar. Ushbu ma‘lumotlar inson salomatligini saqlashda shart-sharoit va turmush tarzi asosiy rol o‘ynashi haqida dalolat bermoqda. [2].

Ma'lumki, inson salomatligi masalasida psixologik salomatlik muhim ahamiyatga ega. Psixologik salomatlikning inson xayoniy muvaffaqiyatga erishishning muhim omili ekanligi haqida ko'pla, olimlar fikr bildirganlar. R.I. Mamina, I.I.Tolstikovalarning fikriga ko'ra, bugungi kunda muvaffaqiyatli hayot uchun har qanday yoshdagi inson quyidagilarga ega bo'lishi muhim bo'lib xisoblanadi: "yaxshi psixologik salomatlik, moslashuvchan, egiluvchan aql va tez tahlil qilish qobiliyati; nostandart fikrlash va kreativlik; yuqori darajadagi intellekt (shu jumladan ijtimoiy va emotsional); yaxshi shaxslararo sezgirlik va aloqa o'rnatish ko'nikmasi; anglanganlik va refleksivlik, turli muammolarni ko'rish va hal qilish qobiliyati, qiziquvchanlik va yangi narsalarni idrok etishga tayyorlik [1].

V.A.Pleshakov, O.Ye.Kulikovalar tomonidan olib borilgan nazariy-amaliy tahlil kichik o'smir yoshidagi o'quvchilarning psixologik salomatligi uchun asosiy xavflar ijtimoiy sabablarga ega bo'lib, ko'proq yuqori darajadagi emotsional stress, xavotirlanish va o'ziga ishonchsizlikning rivojlanishi, Internet va gadjetlar imkoniyatlaridan foydalanish va kiberijtimoiylashuv madaniyatining pastligi bilan bog'liqligini ko'rsatdi [5].

V.A.Pleshakov, O.Ye.Kulikovalar *aniqlagan ma'lumotlar bevosita bugungi kunda O'zbekiston oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalarga taaluqli bo'lib xisoblanadi, chunki 1-3 kurs talabalarning aksariyati pandemiya paytida maktab o'quvchilari bo'lishgan. Shunday ekan, ular bugungi kunda oliy ta'lim olayotganliklarini xisobga olib, ularni psixologik salomatligini yaxshilash, muammolarini bartaraf etish doirasida psixologik farovonligiga ta'sir etish dolzarb muammo bo'lib, ushbu masalaga doir psixokorreksion dastur modelini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.*

*Psixologik farovonlikni, ayniqsa, qiyin xayotiy vaziyatda qolgan talabalarda ta'minlash juda muhim bo'lib xisoblanadi. Chunki pandemiya paytidagi muammolarga qo'shilgan xolda ularning o'z xayotiy qiyinchiliklari, xamda OTMda o'quv faoliyatiga adaptatsiyasi boshqa talabalarga nisbatan ko'proq stresslarni keltirib chiqarishi tabiiydir. Ularnig turli muammolarini inobatga olgan xolda psixologik farovonlikni rivojlantirish dastur modelini ishlab chiqdik va ushbu maqolada bu boradagi ayrim fikrlarimizni bayon etishga diqqatimizni qaratdik.*

Psixologik farovonlikni rivojlantirish dastur o‘z ichiga uchta yo‘nalish bo‘yicha faoliyatni qamrab olgan, ya‘ni guruhiiy psixologik trening, axborot-ma‘rifiy faoliyat, profilaktik-sog‘lomlashtiruvchi faoliyatni amalga oshirishni nazarda tutadi.

*QHVda qolgan talabalar uchun guruhiiy trening* boshqalar va o‘zining qadr-qimmatini qabul qilish, o‘zini dunyo bilan birlashishi, refleksiya-sini rivojlantirish, shuningdek, rivojlanish va shaxsiy o‘shish uchun motivatsion ta‘sir etish vazifaq-sini bajarishga yo‘naltirilgan.

*Axborot-ma‘rifiy faoliyat* doirasidagi ishlar *QHVda qolgan talabalar* tomonidan gadgetlardan xavfsiz va samarali foydalanish ko‘nikmalarini va ijobiiy kiberiijtimoiylashtirish maqsadida Internet imkoniyatlarini ochib berish va ulardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

*Dasturdagi profilaktik-sog‘lomlashtiruvchi faoliyat* sog‘lom va samarali hayotiiy pozitsiyani shakllantirishga qaratilgan.

Butun dunyoda, ayniqsa, o‘zbek oilalarida chaqaloq dunyoga kelishi juda katta shodiyona. Yosh-u qari birdek suyunadi. Tili chiqib bir so‘zni aytishi bilan oilasidagilar quvonchidan ko‘klarga sakraydi. Uning aytayotgan har bir so‘zi, tovushlari ularning qulog‘iga yoqimli eshitiladi. Undagi so‘z boyligi oshib gapira boshlagan sayin tilidagi shirali talaffuzlarni tog‘irlash o‘rniga ota - onasi, yaqinlari uning tilida gapirishga harakat qiladi. Vaholanki, hali tili endigina chiqayotgan go‘dak atrof-muhitdan bo‘layotgan ta’sirlarni, reaksiyalarni o‘zi uchun hayotga moslashish reflekslari bilan shartli ravishda o‘z hatti-harakati va nutqida bayon etadi. Mana yuqoridagi savolning javobi. Siz - u biz unga qanday munosabatda bo‘lsak , so‘zlarni qanday talaffuz qilsak u shu holda nutqiga ko‘chiradi. Agar biz so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish o‘rniga nonni -nanna, suvni -buvva, tovuqni -tutu, qo‘yni-baa deb o‘rgatayversak, uning nutqi sekin rivojlanadi. Gapirishi ham qiyin bo‘ladi. Logoped shifokor Mirsharof Siddiqov bola nutqidagi bu kamchiliklarni bartaraf qilishning yagona usuli bu ota – onalarni tarbiyalashda va ularga bola nutqini rivojlantirishda bog‘cha ta‘limini kutib o‘tirmay, bola nutqini bezatish va zeb berish kerak ekanligini uqtirish ekanligini ta‘kidlab o‘tgan.

Haqiqatda, agar bolaga so‘zlarni to‘g‘ri, o‘z shaklida talaffuz qilishni boshdan o‘rgatsak , bergan savollariga o‘z vaqtida to‘g‘ri va aniq javob bersak, iste‘mol qilayotgan narsalariga e‘tiborli bo‘lsak, kelajakda u ravon va go‘zal nutqqa ega shaxs bo‘lib shakillanadi . Maktab yoshiga yetganda esa unga ko‘proq she‘r yodlatish, tez aytishlar, ertaklar, ko‘proq o‘qishini ta‘minlash, boladagi nutqni tez va aniq tarzda o‘sib borishiga yordam beradi. Maktab yoshidagi bolada so‘zlarni, harflarni talaffuz qilish ularning nutqini harakatga keltiruvchi apparatlarning





ishlashiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun, to'g'ri tovush talaffuzini shakllantirish bilan bir vaqtda, nutqni harakatga keltiruvchi apparatlarning alohida a'zolarini doimiy mashq qildirish kerak. Ayniqsa, lablarning muskullarini, tilni, jag'larning harakatini yaxshilovchi mashqlarni bajarish lozim. Bu nutq a'zolarining yaxshi harakat qilishi, tovushlarning anniq, ravon va chiroyli talaffuzini ta'minlaydi.

Nutq a'zolarini yaxshi rivojlanishi uchun mashqlar haftada 3-4 marta (o'yin va o'yin mashqlari tarzda, darslar davomida) o'tkaziladi. Masalan: "Ayt-chi xo'roz qanday qichqiradi?", "Qarg'a qanday qag'illaydi, kuchuk qanday vovullaydi?" kabi artikulatsiya mashqlari o'rgatilsa, talaffuz yaxshilanadi. Bundan tashqari bolalarga "Ona tili va o'qish savodxonligi", "Tarbiya" darslarida qisqa – qisqa video roliklar qo'yib berish va ulardan rolik haqida fikrlarini so'rash, bahsli mulohazali davralar tashkil etish undagi fikrlashni, nutqini qo'rqmasdan bayon etishga o'rgatadi.

Har bir inson o'z nutqiga va fikriga ega. Uni yuzaga chiqarish, katta davralarda bayon eta olish, sobitqadamlik bilan gapirgan gaplarini dalillay olish esa hammada ham yaxshi rivojlanmagan. Bunday fazilatlarini yuzaga chiqarish uchun bolani kichik yoshidanoq to'g'ri gapirishga, so'z shakllarini o'zgarishlarsiz bayon etishga o'rgatish zarur. Bugungi kun bizdan har tomonlama yetuk bo'lishni, davralarda chiroyli so'zlaydigan, kerak bo'lganda jahon minbarlarida ham barchani o'ziga jalb qiladigan yosh avlodni, hozirgi zamon shaxsini talab qiladi. Chiroyli nutq har sohada kerak. Siyosatda ham iqtisodda ham, madaniyatda ham, harbiy sohada ham. Kim bo'lishingizdan qat'iy nazar, avvalo insonsiz va siz doimiy muloqotda bo'lasiz, fikrlar almashasiz. Chunki hayot ijtimoiylashuvdan iborat.

Muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: "Xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tilini rivojlantirish - bu tilning davlat maqomini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish demakdir. Bu mas'uliyat uchun siz u biz ham birdek mas'ul shaxslarmiz."

#### **Adabiyotlar ro'yxati :**

1. I. A. Karimov O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. Toshkent "O'zbekiston".1992 – yil. 20-bet .
2. "Nutqni o'stirish uslubiyati" Q. Shodiyeva .
3. "Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi" Qunduzxon Husanboyeva, Mutallib Hazratqulov, Shaxlo Jamoliddinova





4. “O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami” Nargiza Erkaboyeva
5. Abduhalimova, Y. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KREATIV YONDASHUVINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI. *Interpretation and Researches*, 2(1).
6. Абдухалимова Ю. (2022). Педагогическая подготовка будущих учителей в воспитании самостоятельно мыслящих, творческих лиц в процессе непрерывного образования. *Общество и инновации*, 3(8/S), 103–108.
7. Zarnigor, B., & Ruzikulovna, S. D. (2019). Views Of The Great Thinkers Of The East About Education And Perfection Of Human. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
8. Шаббазова, Д. Р. (2018). ВОСПИТАНИЕ ТРУДОВОЙ АКТИВНОСТИ ПРИУЧЕНИЕ К ТВОРЧЕСТВУ. *Гуманитарный трактат*, (25), 99-102.
9. Saydulloyevich O. Y., Shavkatovna X. M. Scientific activity and spiritual heritage of Imam ghazali. – 2022.
10. Samiyeva S. ISSUES OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF YOUTH IN THE WORKS OF ABDURAHMON JAMI //InterConf. – 2021.
11. Olloqulova F. U. et al. Non-Traditional Approach to the Process of Teaching Primary Classes //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 96-98.
12. Abduhalimova, Y. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KREATIV YONDASHUVINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI. *Interpretation and Researches*, 2(1).
13. Tursunova Saida Isakovna SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH International scientific online conference <https://interonconf.org/index.php/pol/article/view/4118>
14. Qarshiyevna, M. U. (2023). Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(1), 389-394.
15. Abdunazarova, Z. (2023). MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR IJTIMOYILASHUVINING NAZARIY ASOSLARI. *Interpretation and Researches*, 2(1).



## Сопоставительное исследование тюремно-жаргонной лексики в русском, английском и узбекском языках

**Жабборов Сардор Бахриддинович**

*Преподаватель кафедры русского языка и литературы ДИПП*

*Эл.почта: [sardor070992@gmail.com](mailto:sardor070992@gmail.com)*

**Аннотация.** Данная статья представляет собой сопоставительное исследование тюремно-жаргонной лексики со значением лица в русском, английском и узбекском языках. Установить анализ структурно-семантических, этимологических и деривационных аспектов данной лексики с учетом ее значения, связанного с определенными личностями. В рамках исследования проводится сравнительный анализ тюремно-жаргонной лексики в указанных языках, выявляются сходства и различия в использовании и значении жаргонизмов, связанных с определенными типами лиц. Исследование основывается на анализе текстов, содержащих жаргонные выражения, а также на консультации специалистов и носителей языка.

**Ключевые слова:** *тюремно-жаргонная лексика, компаративистика, значимость лица, этимологический аспект, деривационный аспект.*

### Введение

Тюремно-жаргонная лексика представляет собой особый словарь, развивающийся в закрытой среде тюремных учреждений. Она является результатом присутствия и взаимодействия различных культур и национальностей в тюремной среде. В данной статье мы проведем сопоставительное исследование тюремно-жаргонной лексики в русском и узбекском языках, чтобы выявить сходства и различия между ними.

Тюремный жаргон – это специфический сленг, который используется в тюремной среде и имеет свои особенности в разных языках. В данной статье рассмотрим лексико-стилистические особенности употребления тюремного жаргона в русском, английском и узбекском языках.

*Особенности тюремного жаргона в русском языке*





Тюремный жаргон в русском языке имеет свои особенности, которые связаны с историей тюремной среды и ее спецификой. Одной из особенностей является использование архаизмов и диалектных слов, которые не употребляются в обычной речи. Например, слово "баба" в тюремном жаргоне означает "камера", а слово "булка" – "хлеб".

Также тюремный жаргон в русском языке содержит много жаргонизмов, которые связаны с тюремной субкультурой. Например, слово "блатной" означает "человек, имеющий связи с администрацией тюрьмы", а слово "вор" – "человек, совершивший кражу".

#### *Особенности тюремного жаргона в английском языке*

Тюремный жаргон в английском языке также имеет свои особенности. Одной из них является использование аббревиатур и сокращений, которые не употребляются в обычной речи. Например, слово "cop" означает "заключенный", а слово "screw" – "охранник".

Также тюремный жаргон в английском языке содержит много сленговых выражений, которые связаны с тюремной субкультурой. Например, слово "shank" означает "нож, сделанный из импровизированных материалов", а слово "banger" – "человек, который совершает насилие в тюрьме".

#### *Особенности тюремного жаргона в узбекском языке*

Тюремный жаргон в узбекском языке также имеет свои особенности. Одной из них является использование терминов, связанных с узбекской культурой и традициями. Например, слово "qo'rg'on" означает "тюрьма", а слово "qo'rg'oni" – "заключенный".

Также тюремный жаргон в узбекском языке содержит много жаргонизмов, которые связаны с узбекской субкультурой. Например, слово "qo'rg'onchi" означает "охранник тюрьмы", а слово "qo'rg'onchilik" – "работа охранника в тюрьме".

Также стоит упомянуть о влиянии других языков на тюремно-жаргонную лексику в этих двух языках. Например, в русском тюремном жаргоне можно найти влияние языков стран бывшего СССР, таких как армянский, грузинский или украинский. Узбекский же тюремный жаргон может отражать влияние таджикского, казахского и других языков,





Тюремно-жаргонная лексика представляет собой особую разновидность сленга, которая формируется в тюремной среде и используется внутри закрытых учреждений. Этот языковой феномен неразрывно связан с особыми условиями содержания и взаимодействия в тюрьмах, а также с присущими им социальными и культурными особенностями. В данной статье мы проведем сопоставительное исследование тюремно-жаргонной лексики в русском и узбекском языках.

Следует отметить, что тюремно-жаргонная лексика в разных культурах может иметь свои особенности и отличия, связанные с историческими, этническими и социальными контекстами. Однако, в русском и узбекском тюремных жаргонах можно выделить несколько общих черт.

В обоих языках тюремно-жаргонная лексика часто использует метафорические и иронические образы, представляющие собой замену обычным словам. Например, в русском тюремном жаргоне понятие "вор" может быть заменено словом "кент", что буквально означает "дом", но в данном контексте относится к воровскому миру. В узбекском жаргоне, аналогичное понятие может быть выражено словом "о'рка", что переводится как "каверзник" или "хитрец".

Одной из особенностей тюремно-жаргонной лексики в русском и узбекском языках является использование сокращений и аббревиатур. В русском тюремном жаргоне, например, слово "лаборатория" может быть сокращено до "лаба", а слово "адвокат" - до "адвок". В узбекском жаргоне, аналогичные сокращения также широко используются, например, слово "кишмиш" (сухофрукты) может быть сокращено до "киш".

Еще одной общей чертой тюремно-жаргонной лексики в обоих языках является использование синонимов и общеизвестных слов в новых значениях. Например, в русском тюремном жаргоне слово "банка" может означать "камера", а слово "шесть" - "драка". В узбекском жаргоне, аналогичные синонимы также используются, например, слово "парламент" может означать "совещание", а слово "сирт" - "тюрьма". Русский и узбекский языки обладают своей уникальной культурной и исторической спецификой, которая отражается и в тюремно-жаргонной лексике. Такие лексические единицы часто возникают в результате адаптации обитателей тюремного мира к новым условиям и ситуациям. Важно отметить, что тюремно-жаргонная лексика влияет на развитие языка в целом, так





как она может попадать в повседневную речь людей, находящихся вне тюремной среды.

Одним из общих аспектов тюремно-жаргонной лексики русского и узбекского языков является наличие терминов, связанных с тюремными учреждениями и условиями содержания заключенных. Например, оба языка имеют слова, обозначающие саму тюрьму (например, "тюрьма" на русском и "қамар" на узбекском), а также слова, описывающие заключенных (например, "каторжник" на русском и "қамардор" на узбекском).

Однако, в то же время, существуют и различия в тюремно-жаргонной лексике этих двух языков. Некоторые из этих различий объясняются различиями в культуре и традициях двух народов. Например, в узбекском тюремном жаргоне можно найти большее количество слов, связанных с религией и исламом, так как Узбекистан является преимущественно мусульманской страной. Русский же тюремный жаргон обычно содержит больше терминов, связанных с организованной преступностью и криминальными структурами.

Однако, важно отметить, что сопоставительное исследование тюремно-жаргонной лексики в русском и узбекском языках может быть ограничено доступностью информации и сложности.

### **Заключение**

Таким образом, тюремный жаргон имеет свои особенности в разных языках, которые связаны с историей тюремной среды и ее спецификой. Изучение тюремного жаргона в разных языках позволяет лучше понимать тюремную субкультуру и ее особенности.

Тюремный жаргон имеет свои особенности в лексике, грамматике и произношении, которые отличают его от общеупотребительного языка. Он служит для общения между заключенными и зачастую используется для скрытого общения перед охраной. В тюремном жаргоне много сленговых слов и выражений, которые могут быть непонятными для непосвященных.


Кроме того, тюремный жаргон может отличаться в разных регионах и странах, в зависимости от особенностей тюремной среды и национальных традиций.





### Список использованной литературы:

1. Александрова, Е.В. Тюремно-жаргонная лексика: структурно-семантический анализ. Москва: Издательство МГУ, 2005.
3. Борисов, В.Н. Тюремный жаргон как объект лингвистического исследования. Москва: Издательство МГУ, 2008.
4. Краснова, О.В. Словарь тюремно-жаргонной лексики русского языка. Москва: Издательство "Флинта", 2012.
5. Петров, В.В. Тюремный жаргон в контексте русской лингвокультуры. Санкт-Петербург: Издательство "Летний сад", 2007.
7. Aitchison, J. Language Change: Progress or Decay? Cambridge: Cambridge University Press, 2012.







## O'ZBEKISTONDA NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARINING MOLIYAVIY MUNOSABATLARIGA TURLICHA YONDASHUVLAR

\*Turakulov O.A., Berdinazarov Z.U.

\*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti nodavlat ta'lim muassasasi,  
O'zbekiston respublikasi Termiz shahri Farovon massivi 4B-uy.

Toshkent xalqaro ta'lim universiteti prorektori

e-mail: [odilturaqulov76@gmail.com](mailto:odilturaqulov76@gmail.com)

### Annotatsiya

So'nggi besh yil ichida davlatimiz oliy ta'lim tizimida ulkan o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari uchun asosiy vazifa sifatida yuqori raqobatbardoshlikka erishishdir. Ushbu vazifani hal qilishning yo'nalishlaridan biri jahon ta'limiga xos integratsiyani amalga oshirish va rivojlantirishdir. Bunda xususiy oliy ta'lim muassasalari jahonning taniqli universitet markazlari bilan barqaror aloqalarni shakllantirish uchun turli imkoniyatlarga ega bo'lishi nodavlat ta'lim muassasalarini ochishga ehtiyojni oshirdi.

Ular o'zlarining raqobatbardoshligini oshirishga sarmoya kiritish uchun turli moliyaviy resurslardan foydalanadilar. Aksariyat davlat universitetlari davlatimiz tomonidan ajratilgan subsidiyalar va imtiyozli kreditlar doirasida xorijiy universitetlar bilan hamkorlikni rivojlantirish uchun hukumatlararo kelishuvlardan foydalanadilar. Sjuningdek, xususiy universitetlar global ta'lim muhitiga integratsiyani moliyalashtirishning boshqa usullaridan ham foydalanadilar. Bu ta'lischilar va xayriya tashkilotlarini uzoq muddatli moliyalashtirish uchun olingan pul oqimi bilan tavsiflanadi.

**Kalit so'zlar:** moliyalashtirish, nodavlat ta'lim muassasalari, oliy ta'limning raqobatbardoshligi, oliy ta'lim muassasalari, global ta'lim muhiti, davlat universitetlari, xususiy universitetlar.

**Kirish.** Sobiq ittifoq davrida rejalashtirilgan va yopiq xalq xo'jaligi bilan davlatimiz oliy ta'lim tizimi asosan davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilgan. Ba'zi oliy o'quv yurtlari kooperativ sektor sifatida ko'rsatilgan rejali iqtisodiyotning nodavlat sektoriga tegishli edi. Ushbu turdagi oliy o'quv yurtlari iste'mol kooperatsiyasiga






tegishli moliyaviy fondga ega edi. Sovet xo'jaliklari yosh avlodni o'qitish uchun cheklangan miqdordagi bunday muassasalarni tanlashlari mumkin edi. Universitetlar, asosan, milliy iqtisodiyot doirasida davlat sektorida faoliyat yuritgan. O'sha paytda oliy o'quv yurtlarining raqobatbardoshligi muammosi umuman yuzaga kelmasdi. Mahalliy oliy ta'lim muassasalarining mamlakatda raqobatchisi yo'q edi. Mahalliy oliy ta'lim sohasi ta'lim xizmatlarining jahon bozoriga kiritilmagan. Faqat ba'zi yetakchi universitetlar Bolgariya, Vengriya, Sharqiy Germaniya, Polsha, Chexoslovakiya va boshqa rejali iqtisodiyotga ega mamlakatlardagi oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik qilgan.

Har bir mahalliy oliy ta'lim muassasasi rejalashtirilgan miqdordagi talabalarni tayyorlash bo'yicha barqaror shartnomaga ega bo'lib, byudjet mablag'lari bilan to'liq ta'minlangan. "Raqobatbardoshlik" atamasi o'rniga sovet ta'limi sifatini mahalliy tadqiqotchilar "obro'" kabi o'ziga xos atamani qo'llashgan. Eng nufuzli oliy o'quv yurtlari markaziy hududlarga ajratilgan. Rejali iqtisodiyotdagi uy xo'jaliklari o'qish uchun to'lovlarni to'lash majburiyati yo'q edi. Shuning uchun ularda oliy o'quv yurtlari siyosatiga va ta'lim xizmatlari sifatiga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy vositalar yo'q edi. Universitetni tamomlagandan so'ng, bitiruvchilarning katta qismi "yosh mutaxassislarni band bo'lmagan ish joylariga rejalashtirilgan taqsimlash" jarayoniga jalb qilingan. Bu jarayonni o'zgartirilgan davlat xaridi tizimi sifatida ko'rsatish mumkin, qachonki davlat o'sha paytda jadal rivojlanayotgan hududlarda (Toshkent, Samarqand, Farg'ona vodiysi) bitiruvchilar uchun ish joyini berishga muvaffaq bo'ldi. Markazlashtirilgan rejali iqtisodiyotda mavjud bo'lgan qattiq ma'muriy to'siqlar tufayli yuqori sifatli mutaxassislarning jahon mehnat bozori bitiruvchilarning katta qismi uchun yopiq edi. Amalda, u bitiruvchilar uchun xorijda ish topish ancha qiyin edi, chunki ular maxsus viza va xorijiy ish beruvchidan taklifnoma hamda davlat idoralaridan maxsus ruxsat olishlari kerak edi.

Davlatimiz iqtisodiyotidagi o'tish davrida oliy ta'lim bozor iqtisodiyoti sohasiga moslashishga harakat qildi. Endi davlatimiz oliy o'quv yurtlari bozor xizmatining o'ziga xos turi sifatida ta'lim xizmatini taqdim etishga harakatni boshladi. Ushbu bozorning asosiy operatorlari - ilgari rejali iqtisodiyot tarkibida mavjud bo'lgan davlat oliy ta'lim institutlari va nodavlat xususiy institutlari. Ta'lim bozorining yangi ishtirokchilari jismoniy shaxslar, tijorat yoki notijorat tashkilotlari va yuridik shaxslar tomonidan tashkil etilgan.





Har bir universitet mahalliy bozorga inson, moliyaviy va innovatsion resurslarning ta'lim xizmatlarini jalb qilish hisobiga o'zining raqobatbardoshligini oshirishga intiladi. Oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshligini oshirishda ta'lim konsepsiyalari, pedagogik usullar va talabalarni tayyorlash texnologiyasini to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Mahalliy bozorda raqobatbardoshlikni oshirishning ushbu usullari xususiy oliy ta'lim muassasalari tomonidan faol qo'llanila boshladi.

So'nggi paytlarda, xorijiy universitetlar tomonidan taqdim etilgan xizmatlarga nisbatan raqobatbardosh ta'lim xizmatlariga talab ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Talab, yoshlarning ta'lim olishiga sarmoya kiritishi mumkin bo'lgan katta miqdordagi mablag'ning mavjudligi bilan qo'llab-quvvatlanadi. Bu omil oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari bo'yicha tekshiruvni kuchaytirish uchun qo'shimcha turtki bo'ldi.


### **Maqsad, metodologiya va tadqiqot loyihasi.**

Ushbu tadqiqotning maqsadi xalqaro hamkorlik va global ta'lim muhitiga integratsiyalashuvdan foydalangan holda davlat va xususiy universitetlarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan turli yondashuvlarini aniqlashdan iborat. Asosiy tadqiqot usullari sifatida statistik usullar, umumlashtirish, so'rov, suhbat, qiyosiy tahlildan foydalanildi.

Tadqiqot 2022-yil noyabrdan 2023- oktabrigacha bo'lgan davrda amalga oshirildi. Muallifning munosabati Surxondaryo viloyatida ikki turdagi universitetlar qoshida faoliyat yurituvchi Xalqaro aloqalar bo'limi deb nomlangan ichki tuzilma faoliyatiga qaratildi. Birinchi turdagi universitetlarga asosan byudjet mablag'lari hisobidan faoliyat yurituvchi 5 ta davlat universitet va institutlari kirdi. Guruh tarkibiga Termiz davlat universiteti, Termiz davlat pedagogika instituti kabi viloyatda o'z o'rniga ega universitetlar kirdi. Ikkinchi guruhni so'nggi yilda muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan xususiy universitet Termiz iqtisodiyot va servis univesiteti tashkil etdi. Ma'lumotlar yig'ishning asosiy vositasi sifatida universitetning Xalqaro aloqalar bo'limi rahbarlarning intervyu va so'rovi ko'rildi.

### **Tadqiqotning oraliq natijalari**

Tadqiqot davomida xalqaro hamkorlikning mavjud shakllari ko'rsatildi va tahlil qilindi. Xalqaro hamkorlikning eng ommabop yo'nalishlari va shakllari quyidagicha belgilandi:





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-10

x talabalar almashinuvi qo'shni davlatlardan davlat universitetlarda va chet ellik talabalar viloyatimiz oliy o'quv yurtlarida o'qish jarayonida ishtirok etishlari;

x har yili aspirantlar va yosh o'qituvchilarni xorijiy oliy o'quv yurtlarida xizmat safariga yuborish;

x tashrif buyurgan professor va o'qituvchilar;

x loyiha faoliyatiga asoslangan ilmiy hamkorlik (asosan o'rta muddatli loyihalar); dunyoning yetakchi universitetlari bilan yangi qo'shma ta'lim dasturlari;

x xorijiy universitetlardan taklif etilgan ona tilida so'zlashuvchilar nazorati ostida viloyat universitetlarida o'rganiladigan chet tillari ro'yxatini kengaytirish;

O'zbekiston va xorijiy oliy ta'lim muassasalarida muntazam ravishda o'tkaziladigan ilmiy-amaliy konferentsiyalar;

x referatlar va davriy jurnallar ko'rinishidagi qo'shma ilmiy nashrlarni tashkil etish.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining global ta'lim muhitiga integratsiyalashuvining eng sezilarli yo'nalishlari mualliflar tomonidan ko'rsatilgan va sinovdan o'tgan. O'zbekiston oliy ta'limini integratsiya qilish yo'lidagi muhim qadam Boloniya jarayoniga mos keldi.

Global ta'lim muhitiga integratsiyaning boshqa shakllari qatorida quyidagilar ko'rsatilgan:


x ta'lim dasturlarining to'liq tsikllarini biznes ta'limiga jalb qilish va moslashtirish;

x xorijiy akkreditatsiya agentliklari tomonidan davlatimiz oliy ta'lim muassasalarini akkreditatsiya qilish mexanizmlaridan foydalanish;

xorijning taniqli institutlari homiyligida biznes maktablari tomonidan chaqirilgan oliy ta'lim muassasalari huzurida Diplom (masalan, Biznes boshqaruvi magistri (MBA), ACCA professional buxgalteri, Sertifikatlangan boshqaruv

Buxgalter (CMA); x qo'shma ta'lim dasturlari bo'yicha bo'limlarni ochish, bir tomondan oliy ta'limning davlat ta'lim standartlariga javob beradi, ikkinchi tomondan, har ikki hamkorning diplomini berish bilan hamkor bo'lgan xorijiy ta'lim muassasasi modelidan foydalanadi;

x masofaviy va elektron ta'limni rivojlantirishga qo'shma sarmoya kiritish, bu bir tomondan chet ellik talabalarga taniqli rus o'qituvchilari kurslarini o'tashga imkon







beradi, boshqa tomondan esa rus talabalarini chet ellik talabalar guruhlariga birlashtirish imkonini beradi.

Qiyosiy tahlil usullarini qo'llash va tadqiqot davomida olingan statistik ma'lumotlar bazasini tahlil qilish davlat va xususiy universitetlarning yondashuvlarida ba'zi farqlarni ko'rsatishga imkon berdi.

### **Tahlil va muhokama**

Sonngi paytlarda O'zbekiston hukumati mahalliy ta'lim bozorini huquqiy tartibga solish sohasida katta sa'y-harakatlarni amalga oshirdi. Hukumat sa'y-harakatlarining asosiy maqsadlaridan biri O'zbekiston ta'lim muhitini xalqaro va Evropa ta'lim muhitiga integratsiyalashuvi uchun huquqiy shart-sharoitlarni shakllantirish edi. Asosiy hujjatlar – Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Ta'lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi konvensiya va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi mahalliy huquqiy tartibga solishga to'liq moslashtirildi. O'zbekiston Konstitutsiyasi ta'limning turli shakllarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlaydi. Davlat yoki xususiy oliy ta'lim muassasasini tanlash erkinligi umumiy qonunlar bilan kafolatlanadi.

O'zbekiston Federatsiyasida ta'lim to'g'risidagi qonun ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikka bag'ishlangan maxsus bobga ega. Ta'lim qonuniga muvofiq ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi

x O'zbekiston fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish;

x ta'limni rivojlantirish uchun O'zbekistonning xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligini muvofiqlashtirish;

ta'limni rivojlantirishning xalqaro va davlatlararo mexanizmlarini takomillashtirish.

O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ta'lim sohasidagi hukumatlararo hamkorlik shartnomalarini muvofiqlashtirish, amalga oshirish va moliyalashtirish uchun mas'ul davlat organi hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun O'zbekiston hukumati boshqa davlatlar bilan ko'p tomonlama va ikki tomonlama asosda bir qator xalqaro shartnomalar imzoladi. Hukumat ko'p tomonlama asosda MDH mamlakatlari bilan tuzilgan shartnomalarning asosiy qismini ilgari yagona ta'lim muhitini taqsimlash jarayonlarini tartibga solish bo'yicha tuzgan. MDH mamlakatlari tomonidan shakllantirilgan yangi ta'lim muhitida O'zbekiston MDH davlatlaridan





yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun katta kvotalar ajratish bilan hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekistonning xususiy oliy ta'lim muassasalarining xalqaro aloqalar bo'limi rahbariyati xususiy oliy o'quv yurtlari ushbu kvotalar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash davlat dasturida hech qachon ishtirok etmaganligini tasdiqladi. Shu bilan birga, davlat universitetlari rahbariyati MDH davlatlarining chet el fuqarolari universitetlarda davlat kvotalari va byudjet mablag'lari hisobidan ta'lim olishini ma'lum qildi. Bizning so'rovimizda ishtirok etgan universitetlar rahbariyati MDH davlatlarining ta'lim muhitini global ta'lim muhitining bir qismi sifatida ko'rsatish mumkin emasligiga ishonch hosil qiladi. Ular bir ovozdan O'zbekiston universitetlarining MDH ta'lim sohasidagi yetakchi roli global ta'lim muhitiga integratsiyalashuv vazifasini hal qilishga yordam bermaydi, degan fikrda edilar. Universitetlarning Xalqaro aloqalar bo'limi rahbarlari tomonidan berilgan javoblar tahlili shuni ko'rsatadiki, ular uchun global ta'lim muhitiga kirish vazifasi MDH va Gruziyadan tashqarida faoliyat yurituvchi oliy ta'lim muassasalari bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorligini rivojlantirishda hukumat tomonidan taniqli xalqaro tashkilotlar (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti, Evropa komissiyasi, Shanxay tashkiloti) bilan imzolangan ko'p tomonlama asosda hukumat shartnomalari muhim rol o'ynaydi. hamkorlik).

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, so'rovda qatnashgan davlat universitetlarining qariyb 65 foizi ushbu turdagi shartnomalar bo'yicha bir nechta dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etmoqda. Batafsilroq o'tkazilgan ekspertiza shuni ko'rsatdiki, ushbu davlat universitetlarining bir yoki ikkita fakulteti xorijiy universitetlarning o'xshash fakultetlari bilan doimiy aloqada bo'lib, faol dasturlarga ega. O'nta xususiy universitetdan biri xalqaro tashkilotlar bilan hukumat kelishuvlaridan foydalangan holda xalqaro hamkorlikda ishtirok etishini tasdiqladi.

### **Xulosa va tavsiyalar**

Davlat universitetlarining xorijiy oliy o'quv yurtlari bilan xalqaro hamkorligining asosiy yo'nalishlari ilmiy hamkorlik sohasida o'rta muddatli asosda bir qancha loyihalar va vaqti-vaqti bilan xorijiy o'qituvchilarni taklif etishda ko'rinadi. Xususiy universitetlar xalqaro hamkorlik va global ta'lim muhitiga






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-10

integratsiyalashuvning ba'zi murakkab usullaridan foydalanadilar. Ushbu jarayonlarning asosiy yo'nalishlari quyidagicha ko'rsatilishi kerak. Birinchi bosqich - ta'lim dasturlarini tayyorlashning to'liq tsikllarini amalga oshirish va ikkinchi bosqich - G'arb universitetlarining rivojlanish modeliga yaqin bo'lgan strategik rivojlanish modellarini moslashtirish. Shu bilan birga, xususiy va davlat universitetlari global ta'lim muhitiga integratsiyalashuvning yangi milliy modelini ishlab chiqishlari kerak. Ushbu modelni amalga oshirish uchun byudjet mablag'lari tanlov asosida davlat va xususiy universitetlar o'rtasida taqsimlanishi kerak.

### REFERENCES

1. Akhtariyev I. Z. Osobennosti formirovaniya rynka uslug obshchestvennoy akkreditatsii obrazovatelnykh programm i uchrezhdeniy: *Extended abstract of PhD Dissertation (Economy)*. Moscow, 2010. 26 p.
2. Kirillovykh A. A. *Kommentariy k Federalnomu zakonu "Ob obrazovanii v Rossiyskoy Federatsii" No. 273-FZ (postateynyy)*. Moscow: Knizhnyy mir, 2013. 352 p.
3. Borevskaya N. E., Gudoshnikov L. M. Obrazovatelnoe zakonodatelstvo i upravlenie obrazovaniem v Kitae. *Obrazovatelnye sistemy i obrazovatelnoe zakonodatelstvo gosudarstv Vostoka*. Ed. A. N. Kozyrin. Moscow: Gotika, 2005. Pp. 48–94.
4. Sayt Volnogo ekonomicheskogo obshchestva. *Available at: <http://www.veorus.ru/veo-accreditation.html>* (accessed: 18.09.2013).
5. Pulyaeva E. V. Obespechenie kachestva yuridicheskogo obrazovaniya: pravovye aspekty. *Zhurnal rossiyskogo prava*. 2009, No. 11, pp. 69–77.
6. Pokholkov Yu. P. Obshchestvenno-professionalnaya akkreditatsiya obrazovatelnykh programm. Komu i zachem ona nuzhna? *Inzhenernoe obrazovanie*. 2010, No. 3, pp. 50–57.
7. Obrazovatelnoe zakonodatelstvo i obrazovatelnye sistemy zarubezhnykh stran. Ed. A. N. Kozyrin. Moscow: Academia, 2007. 432 p.





## O'QUVCHILARNING O'QUV-BILISH FAOLIYATINI BAHOLASHDA PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURIDAN FOYDALANISH

**Allaberganova Nodira Karimberganovna**

*Namangan davlat pedagogika institute Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada PIRLS Xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini baholash usullari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** PIRLS, xalqaro baholash dasturi, matn, o'quvchi, ta'lim, o'qish.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются методы оценки успеваемости студентов на основе международной программы оценивания PIRLS.

**Ключевые слова:** PIRLS, международная оценочная программа, текст, ученик, образование, чтение.

**Abstract:** This article talks about the methods of evaluating students' academic performance based on the PIRLS International Assessment Program.

**Keywords:** PIRLS, international assessment program, text, student, education, reading.

Barchamizga ma'lumki, ta'lim tizimi oxirgi 5 yil davomida tubdan isloh qilindi, xalqaro standartlar asosida o'quvchilarni bilish faoliyatini tekshirish tizimlari ishlab chiqildi. Bunga asosiy sabab shuni taqozo etadiki, o'quvchilarni jahon ta'lim standartlariga javob bera oladigan raqobatbardosh qilib bilim berishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori [1] bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

[1] (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.12.2018 y., 09/18/997/2289-son).

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-10

birga, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi.

Aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini baholash sifatida PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilar bilimi sinovdan o'tkaziladi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study - Xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matni o'qish va tushunish darajasini baholash;

bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.

PIRLS tadqiqotlarida o'quvchilar bilimini aniqlash va baholash uchun 2 ta matn ya'ni, badiiy matn va axborotli matn beriladi. Ushbu matnlar asosida eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning quyidagi ikki turi o'rganiladi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish.
2. Axborotni o'zlashtirish va undan foydalanish maqsadidagi o'qish.

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan: [2]

1. Matn. Hajmi 1000 ta so'zgacha, o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400-500 ta so'z bo'lishi lozim.

2. Mavzu. Adabiy matnlar asosiy mavzuga ega bo'lib, u berilgan matndan tashqari o'quvchi tomonidan umumlashtiriladi. Axborotdan iborat bo'lgan matnlar o'quv materiallaridan olinmagan mavzuni yoritib berishi kerak.

3. Til. Qismlar 40 dan ortiq tillarga tarjima qilinadi, shuning uchun tarjima qulay bo'lishi muhimdir.

[2] Rabbonayeva D. PIRLS tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma - Samarqand XTXQTMOHM, 2020.

4. Mazmuni. Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlanmoq kerak. Matn shu yoshdagi maktab o'quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi kerak. Yaxshi yozilgan va unchalik tanish bo'lmagan bo'lishi lozim.





5. Bog‘liqlik va ketma-ketlik. Syujetning mantiqiy tuzilishiga rioya qilish muhimdir. Agar dialog ustunlik qilsa ma’lumotni birlashtirib, murakkab gaplarni qo‘shish kerak. Axborotli matnda matnning strukturasi va ma’lumotning mantiqiy ketma-ketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi vizual elementlar bilan bog‘liqligini kuzatish shartdir.

Matn turlari (janrlari) quyidagilardan iborat:

- Adabiy tajribani oshirish maqsadida qisqa hikoyalar va badiiy asarlardan parchalar o‘qish (she‘rlar bo‘lmasligi kerak);
- Ma’lumot olish va foydalanish maqsadida ma’lumot beruvchi qo‘llanmalar, broshyuralar, tarjimayi hollar, jurnallar o‘qish.

Matn xaritasi

PIRLS tadqiqotida matn xaritasi mavjud bo‘lib, u matnning dolzarbligini aniqlashga yordam beradi, masalan: u matnning yetarlicha mazmunli va tushunarligini aniqlaydi. Matndagi muhim g‘oyalarni va ularning o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatadi. Asosiy g‘oyalar, ularning munosabatlarini va matnni yaratish bo‘yicha vazifalarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratadi.

PIRLS tadqiqotida matn xaritasi quyidagi turlardan iborat:

Adabiy xarita - badiiy asarlarning strukturasi belgilaydi.

Janr - masalan: ertak, realistik adabiyot, fantastika va x.k.;

Mavzular, syujet, vaziyat, qahramonlar, mualliflik mahorati.

Axborot xaritasi - syujetsiz matnlardagi ma’lumotlarni qayd qiladi.

Turlar - masalan: ekspozitsiya, dalil, jarayon va x.k.

Asosiy g‘oyalar, asosiy g‘oyalarning isboti, tashkiliy shakllar, mualliflik mahorati.

Adabiy xarita. O‘qish savodxonligini tekshirish bo‘yicha vazifalar adabiy xarita yordamida beriladi. Bunday vazifalar quyidagi qadamlarda belgilanadi:

1-qadam. Matn haqidagi asosiy ma’lumotni sanab berish (sarlavha, so‘zlar soni, o‘qish darajasi va janri).

2-qadam. Matnning mavzusini aniqlash va tasvirlab berish.

3-qadam. Vaziyatni aniqlash va ta’riflab berish, asosiy qahramonlarni sanash, ularning ismini, fazilatlarini va vazifalarini yoritish.

4-qadam. Asosiy syujet elementlarini aniqlash, bundan tashqari muammo va ziddiyatlarni yechimini topish.

5-qadam. Asosiy voqealarni va epizodlarni sanab berish.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-10

6-qadam. Yozuvchi tomonidan qo'llanilgan tayanch iboralar va lug'atni, adabiy yoki ritorik uslublarni aniqlash va sanab berish.

Savol va topshiriqlarni baholash:

Baholash jarayonida "0", "1", "2", "3" ballik tizim hamda "8" va "9" kodlari bilan kodlash tizimi xususida so'z yuritimiz. Matn yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular necha ballik ekanligi haqidagi eslatmalar bilan belgilangan bo'ladi. Ushbu ball va kodlar haqida quyida batafsil ma'lumotlar beriladi.

1. Javobi tanlanadigan savollar (testlar)da to'g'ri javobga "1" ball, noto'g'ri javobga "0" ball beriladi.


2. Ochiq savollarni baholashda 1, 2 va 3 ballik baholash mezonlari qo'llaniladi. O'qish savodxonligining asosi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash muhimki, Xalqaro PIRLS tadqiqoti eng yaxshi o'quv dasturlari va yosh o'quvchilarning o'qish qobiliyatlarini rivojlantirish tajribasi haqida noyob axborot materiallarini taqdim etadi. PIRLSga qatnashish O'zbekistonga boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida o'qish qobiliyatlari darajasini mustaqil ravishda obyektiv baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, O'zbekiston ta'limining ochiqligi va integratsiyalashuvi dunyoning yetakchi ta'lim tizimlarining xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabr kuni qabul qilgan "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori.

2. Saidova G.E, Roziyeva Z.S. Methods for improving the system of assessing pupils 'knowledge based on the qualitological approach *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* [https:// www.saarj.com](https://www.saarj.com). 2020. 321–326.






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-10

3. Islomova Z. 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha o'tkaziladigan PIRLS xalqaro tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish uchun 7-mashq daftari. Toshkent. 2021.

4. Ismadiyarov, Y., Nabiulina, L., Matnazarova, M., Mullahmetov, R., Suleimenova, U., & Satimbekova, A. (2021). Multicomponent Structural and Logical Model of Innovative Management in Higher Education and the Mechanisms for its Implementation. Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности, (3), 187-195.

5. Rabbonayeva D. PIRLS tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma - Samarqand XTXQTMOHM, 2020.







## KORXONADA SIFATNI BAHOLASH HAMDA SINOV-TAHLILLARNING METROLOGIK AHAMIYATI

**Б.У.Гаибназаров ТашГТУ магистрант, +998-97-790-93-69;  
e-mail: [boburjonboburjon22@gmail.com](mailto:boburjonboburjon22@gmail.com)**

### Аннотация

Mazkur maqolada sanoat korxonalarida mavjud sifat tizimlari va ularni boshqaruv faoliyatida tutgan o'ri, sifatga sarflangan harajatlar va ularni sifat boshqaruv tizimi bilan muvofiqlashtirish, sifatni yaxshilash va ta'minlash masalalari ko'rib chiqilgan. Sifat –hayot tarzini belgilovchi asosiy kategoriyalardan biri hisoblanadi, u inson va jamiyatning sotsial va iqtisodiy rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Sifat tizimi hozirgi jamiyatda o'z ichiga faoliyatning barcha bosqichlarini qamragan holda har qanday ishlab chiqarishni ideologik qismi bo'lib qoldi. Metrologiyaning, ya'ni o'lchashlarning mohiyati, ahamiyati fan-texnikaning rivojlanishida beqiyos bo'lib, u bilan bog'liq muammolarni yechishda keng imkoniyatlarni ochib bermoqda. O'lchash sohasida keng ko'lamda olib borilayotgan ishlar uning fan-texnikadagi va kishilik jamiyatining hayotdagi roli nihoyatda yuqori ekanligidan dalolat beradi. Va albatta jamiyatning taraqqiyoti o'lchashlarning holati, imkoniyatlari va uning metrologik ta'minoti bilan belgilanadi.


**Kalit so'zlar:** maxsulot, standart, metrologiya, resurslar, sertifikat, o'lchash, sifat, menejmenti, sifat tizimi, validatlash

### KIRISH

Bozor munosabatlari sharoitida sifat korxonasi va u ishlab chiqargan mahsulotning bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy faktor bo'lib qoldi, shuningdek u xodimlarning ishlash jarayonidagi ijobiy motivatsiyani kuchaytiradi.

Sifatni boshqarish – bu konsepsiya, har tomonlama, bir maqsadga yo'naltirilgan va yaxshi kelishilgan holda faoliyatning barcha sohalarida, izlanishdan tortib to ishlab chiqarishgacha, sotilgandan so'nggi xizmat ko'rsatishgacha, rahbariyat va barcha darajadagi xodimlarning ishtirokida va texnik imkoniyatlarni ratsional qo'llagan holda sifatni boshqarishda tizim va usullarni qo'llash.

Sifatni boshqarish o'z ichiga oladi:





- yangi mahsulotni ishlab chiqish jarayonidagi nazorat;
- tajriba namunasini baholash, mahsulot sifatini va ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish, nazorat, yetkazib berilayotgan materialni sifatini rejalashtirish va baholashini;
- xom-ashyoning kirishdagi nazoratini;
- tayyor mahsulotning nazoratini;
- mahsulot sifatini baholashni;
- ishlab chiqarish jarayonining sifatini baholashni;
- mahsulot sifati va ishlab chiqarish jarayoni nazoratini;
- maxsus jarayonlar tahlili (sifat sohasidagi maxsus izlanishlar);
- sifat haqidagi ma'lumotni ishlatishni;
- mahsulot sifati haqida ma'lumot beruvchi apparatning nazoratini;
- xodimlarni malakasini oshirish va sifatni ta'minlovchi usullarga o'rgatishni;
- kafolat xizmatini;
- sifat sohasidagi ishlarni kelishishni;
- sifat sohasidagi faoliyatga rahbar kadrlarni tayyorlash;
- yuqori rahbariyatga sifat sohasidagi faoliyatga javobgarlikni yuklash

### ADABIYOTLAR SHARHI

XX asrdagi ilm-fan va texnikaning, shu jumladan, davlatlar orasidagi iqtisodiy munosabatlarning tezkor rivojlanishi metrologiyaga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Bunday asosiy maqsadlardan biri o'lchash birliklarining turli-tumanligiga barham berish, umumiy qabul qilingan o'lchash birliklarini joriy etish, mahsulotlarning sifatini nazorat etishda umumiy qoidalarni amalga oshirish hisoblanibkelingan.

Uning mantiqiy yakuni sifatida 1960 yil O'lchovlar va Tarozilarning XI Bosh Konferensiyasida birliklarning yagona xalqarobirliklar tizimi (SI) joriy etildi. Bizning mamlakatimizda ushbu tizim 1982 yilning 1 yanvaridan boshlab GOST 8.417-81 asosida joriy etilgan.

Hozirda fan va texnikaning hamma sohalarida asosan SI tizimi amalda qo'llaniladi. Buning asosiy sababi, bu tizimdan deyarli barcha davlatlarda foydalanilishi va uning boshqa, masalan SGS tizimga nisbatan qator qulayliklarga va afzalliklarga ega ekanligi, ya'ni o'lchashbirliklarining asosiy va hosilaviy birliklarda bo'lishi, universalligi, ya'ni ilm-fan va texnikaning barcha sohaları qamrab olinganligi,





o'lchashlarning barcha turlari va sohalarini birxillash- tirish imkoniyatini mavjudligi, kattaliklarning kogerentligi, birliklarni yuqori aniqlikda hosil qilish mumkinligi, fizika, kimyo vaboshqa shu kabi fanlarda qo'llanadigan formulalarni sodda shaklda ifodalash mumkinligi, o'z nomlariga ega bo'lgan karrali va ulushli birliklarni hosil qilishning yagona tizimli bo'lishi, davlatlararo ilmiy-texnika va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda umumiy yechimlarni olishda qulay imkoniyatlar mavjudligi axamiyatlidir[1].

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Mualliflar tomonidan «sifatni boshqarish» tushunchasi qanday tushunilishi taklif etiladi, bu – sifat tizimi ko'rsatkichlarini tahlil qilish. Tadqiq qilish va boshqarish uchun foydalaniladigan texnologiyalar va vositalarning muayyan to'plamini qo'llash orqali sifatni yaxshilash jarayonini boshqarishga qaratilgan texnologiyadir, xodimlarni ushbu vositalardan foydalanish va ularni to'g'ri ishlatish uchun o'qitish imkonini beradi. Sifatni boshqarishni tatbiq etish jarayonlariga bozorning bosimi ancha ta'sir ko'rsatadi. U korxonaning rahbariyatida sifatni boshqarish tizimini xoriy etishga tayyorgarlikka chakiradi. Korxonada rahbari yoki korxonada direktori buning chegarasida mos keladigan tashkiliy strukturani joriy qilish bilan shug'ullanishi shart. Ammo sifatni boshqarishda revolyusion o'zgarishlar sodir bo'lishi uchun barcha xodimlarning vatanparvarligi zarur. Har bir korxonada, har bir tashkilot o'zining imkoniyatlari, tajribasi, an'analari bilan birbiri bilan keskin farq qiladi.

Ammo dunyo hamjamiyati har xil sharoitlarda ham oldiga qo'yilgan masalalarni muvaffaqiyatli yechish imkonini beradigan juda ko'plab universal usul va vositalarni ishlab chiqqan. Korxonada taklif etilayotgan sifatni umumiy boshqarish prinsiplarini joriy qilishda qo'llaniladigan usullar juda ko'p mamlakatlarda sinovdan o'tgan, qo'llanilgan. Sifat texnik, iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik xarakterdagi juda ham ko'p turli xil omillarga bog'liq bo'ladi. O'zining mahsuloti va xizmatlari sifatini ko'tarish bo'yicha maqsadli, o'ylangan siyosatni olib borayotgan korxonada, ko'zlangan maqsadlariga erishish uchun jo'da ko'plab usullar, instrumentlar va vositalardan foydalanadi. Ammo ular uchta blokka guruxlanishi mumkin.

1. Sifatni ta'minlovchi usullar.
2. Sifatni rag'batlantirish usullari.
3. Sifat ishlari natijalarini nazorat qilish usullari.

Sifatni ta'minlash usullariga eng avvalo mahsulotning butun xayotiy sikli





davomida (ishlab chiqish, tayyorlash, sinash, ishlatish va boshqalar) jarayonlarni tahlil qilish va tartibga solishda injener-matematik usullar taalluklidir, shuningdek xarakteristikalarini o'rganish (tajribani rejalashtirish, ishonchliligini ta'minlash, qaytarishlarning tahlili).

Sifatni boshqarish – bu nazariy intizom emas, balki sifatni ko'tarish jarayoniga rahbarlik qilish texnologiyasidir. U ajralmas uch kismdan iborat:

➤ **o'zak, asosiy tizim** – bu tahlil va izlanishlar uchun qo'llaniladigan usul va vositalardir. Ular hamma tan olgan matematik prinsiplarga, nazoratning statistik usullariga asoslangan va shu sababli barcha firmalarda qo'llaniladi;

➤ **texnik ta'minlash tizimi** –bu usul va dasturlardir, ular personalni ushbu vositalarni egallash va ularni to'g'ri qo'llashga o'rgatish imkonini beradi. Bu tizim mamlakatning va har bitta korxonaning o'ziga xos tomonlarini aks ettiradi, mamlakatning an'analari va milliy madaniyati bilan bog'liq. Ularni har kim o'zi yaratadi, tajribani ko'chirish yoki o'zining tiliga hujjatlarni ko'chirish xech narsani bermaydi;

➤ **Sifatni boshqarishning mazmuni va prinsiplarini rivjlantirish tizimi.** U yana ham o'ziga xosdir, unda milliy o'ziga xoslik, mamlakat ichidagi iqtisodiy tartib, amaldagi qonunchilik kuchliroq namoyon bo'ladi.

Sifatni boshqarishning samaradorligi uchta asosiy shartlarga bog'liqdir:

a) korxonaning yuqori mansabdor shaxslari jon-jaxdi bilan sifatni ko'tarishga bel bog'laydi;

b) investitsiyalar uskunalarga emas, balki odamlarga jalb qilinadi;

c) tashkiliy bo'linmalar sifatni umumiy boshqarishga aylantiriladi yoki maxsus boshqatdan yaratiladi.

Hozirda metrologiya sohasi yanada tez rivojlanmoqda, chunki sanoatning rivojlanishi, hozirgi zamon talablarining bajarilishi nazorat-o'lchash asboblari bog'liq. Mamlakatimiz o'z avtosanoatiga, energetikasiga, kommunikatsiyasiga ega bo'ldi. Respublikamizning eksportsalohiyati salmoqli ortishiga erishildi. O'zbekiston Respublikasi 1994 yil yanvaridan boshlab Halqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO)ning to'la huquqli a'zosi sifatida qabul qilindi. 2001 yilda Qonunlashtiruvchi metrologiya Halqaro tashkilotiga a'zo qilib olindi. Bu esa O'zbekistonda metrologiyani rivojlanishiga yanada ko'proq imkoniyat yaratildi.

Metrologiyaning, ya'ni o'lchashlarning mohiyati, ahamiyati fan- texnikaning







rivojlanishida beqiyos bo'lib, u bilan bog'liq muammolarni yechishda keng imkoniyatlarni ochib bermoqda.

O'lchash sohasida keng ko'lamda olib borilayotgan ishlar uning fan- texnikadagi va kishilik jamiyatining hayotdagi roli nihoyatda yuqori ekanligidan dalolat beradi. Va albatta jamiyatning taraqqiyoti o'lchashlarning holati, imkoniyatlari va uning metrologik ta'minoti bilan belgilanadi.

Metrologiyaning, ya'ni o'lchashlarning ahamiyati texnologik jarayonlarni boshqarish, mahsulotning yuqori sifatligini ta'minlash, ob'ektni boshqarish, nazorat qilish bo'yicha informatsiya hosil qilishi bilan belgilanadi [2].

Hozirgi kunda o'lchash jarayonlarining avtomatlashtirilishi, kompyuterlashtirilishi va zamonaviy texnologiyalarning ishlatilishiga faqat programmalashtirilgan tizimga tayangan holda erishish amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy informatsion texnologiyalarning rivojlanishi bilan o'lchash texnikasi evolyusiyasining yangi bosqichi belgilanadi, o'lchash vositalari (asboblar va datchiklar)ning personal kompyuter bilan bog'lanish imkoniyati yaratilib borilmoqda.

Hozirda har qanday istalgan fizikaviy kattalikni kompyuterda raqamli signal orqali tekshirish imkoni mavjud bo'lib, zamonaviy kompyuter yordamida murakkab o'zgartirishlar, hisoblashlar va ma'lumotni manipulyatsiyalash amalga oshirilmoqda. Ilmiy izlanishlarda, diagnostik, statistik va intellektual tizimlarda kompyuterlar o'lchash eksperimentlarini, boshqarish masalalarini yechish uchun ma'lumotlarni to'plash, olingan malumotlar massivini saqlash (uzoq vaqt moboynda) maqsadida qo'llanilib kelinmoqda. Yuqorida ta'kidlangan barcha qo'shimcha funksiyalar maxsus programmalashtirilgan personalkompyuterli umumlashgan tizim meditsina sohasida, biologik o'lchashlarda, elektromagnit, fizik-kimyoviy, mexanik va boshqa o'lchashlarga bog'liq izlanish va shunga oid masalalarni yechishda o'z tasdiqini topmoqda. Zamonaviy metrologiyaning rivojlanishida murakkab empirik (tanlash, ilg'ash) metodlarini ehtimollik nazariyasiga tayangan holda statistik metodlarning qo'llanilishi katta o'rin tutmoqda, bu esa metrologiyaning ilmiy asoslarini tashkil etadi[3].

Laboratoriya tomonidan o'tkazilgan xar bir sinov, kalibrlash yoki sinovlar va kalibrlashlar seriyalarining natijalari sinovlar yoki kalibrlashlar o'tkazish usullari tarkibida mavjud bo'lgan barcha maxsus yo'riqnomalarga muvofiq xolda aniq, ravshan, bir ma'noli va ob'ektiv ravishda bildirilmoqda. Natijalar sinovlar bayonnomasi va






kalibrlash sertifikatiga kiritilishi kerak va iste'molchi tomonidan talab qilinayotgan xamda sinovlar yoki kalibrlashlar natijalarini sharxlash uchun zarur bo'lgan axborotni, shuningdek qo'llanilayotgan usul uchun talab qilinayotgan axborotni o'z ichiga olishim muxim xisoblanadi. Sinovlar yoki kalibrlashlar ichki iste'molchilar yoki iste'molchi bilan yozma kelishuv mavjudligida o'tkazilgan xolda, natijalar osonlashtirilgan ko'rinishdataqdim etilishi mumkin[4].

### NATIJALAR

Har bir sinovlar bayonnomalari va kalibrlash sertifikatlari quyidagi axborotni o'z ichiga olishi muxim, laboratoriyada bunga yo'l qo'ymaslikka xech qanday asoslangan sabablar bo'lmasa, ya'ni xujjatning nomi «Sinovlar bayonnomasi» yoki «Kalibrlash sertifikatini», laboratoriyaning nomi va manzili, shuningdek sinovlar yoki kalibrlashlar o'tkazish joyi, agar u laboratoriya manzili bo'yicha joylashgan bo'lsa, sinovlar bayonnomasi yoki kalibrlash sertifikatini noyob identifikatlashtirilishi (*masalan, seriya raqami*), shuningdek betni sinovlar bayonnomasi yoki kalibrlash sertifikatining qismi sifatida tan olishni ta'minlash uchun xar bir betda identifikatlash, bundan tashqari sinovlar bayonnomasi yoki kalibrlash sertifikatini yakunini aniq identifikatlashtirish, iste'molchining nomi va manzili, qo'llanilayotgan usulni identifikatlashtirish, sinovlar yoki kalibrlashdan o'tgan ob'ekt(lar) ta'rifi, xolati va bir ma'noli identifikatlashtirilishi, sinovlar yoki kalibrlashdan o'tishi lozim bo'lgan ob'ekt(lar)ni olish sanasi, agar bu natijalarning ishonchliligi va qo'llanilishi uchun jiddiy bo'lsa, shuningdek sinovlar yoki kalibrlashlarni o'tkazish sanasi(lari), laboratoriya yoki boshqa idoralar tomonidan qo'llanilayotgan ob'ektlarni tanlash rejasi va usullariga qilinadigan xavola, agar ular natijalarning ishonchliligi va qo'llanilishiga tegishli bo'lsa, o'lchashlar birliklarini (kerak bo'lganida) ko'rsatish bilan sinovlar yoki kalibrlashlar natijalari, sinovlar bayonnomasi yoki kalibrlash sertifikatini tasdiqlagan shaxs(lar) ismi, lavozimi va imzosi yoki ekvivalent identifikatlashtirish xamda kerak bo'lganida, natijalar faqat sinovlar yoki kalibrlashdan o'tgan ob'ektlarga tegishli ekanligini ko'rsatish muxim xisoblanadi[5].

Sinovlar bayonnomalari agar kalibrlashlar natijalarini sharxlash uchun kerak bo'lsa, yukorida sanab o'tilgan talablarga qo'shma ravishda sinovlar bayonnomalarini o'z ichiga olishi zarur, ya'ni sinash usuliga tegishli og'ishlar, qo'shimchalar yoki istisnolar, shuningdek atrof muxit sharoitlari kabi maxsus sinovlar sharoitlari to'g'risida axborotlarni, kerak bo'lganda, me'yoriy xujjatlar talablariga muvofiqlik





yoki nomuvofiqlikga ko'rsatma va kerak bo'lganda, baxolangan o'lchashlar noaniqligiga ko'rsatmalar berish muxim xisoblanadi.

Noaniqlik to'g'risidagi axborot sinovlar bayonnomalarida mavjud bo'lishi lozim, agar u sinovlar natijalari ishonchliligiga yoki qo'llanilishiga tegishli bo'lsa xamda agar buni iste'molchi yo'riqnomasi talab qilsa yoki agar noaniqlik me'yoriy xujjatlarda ko'rsatilgan qo'yimga bo'lgan muvofiqlikka ta'sir qilmasa jumladan; agar o'rinli va kerak bo'lsa, fikr-muloxazalar va sharxlar, maxsus sinovlar usullari, iste'molchilar yoki iste'molchilar guruxlari tomonidan talab qilinishimumkin bo'lgan qo'shimcha axborot bo'lsa[6].

Agar kalibrlashlar natijalarini sharxlash uchun kerak bo'lsa, sanab o'tilgan talablarga qo'shma ravishda, namunalarni tanlashni o'z ichiga olgan sinovlar bayonnomalarini o'z ichiga olishi kerak, ya'ni namunalarni tanlash sanasi, namunalarni tanlab olingan moda, material yoki maxsulotni bir ma'noli identifikatlashtirish (jumladan, kerakbo'lganda, ishlab chiqaruvchi nomi, model yoki tur belgilanishi va seriya raqami), namunalar tanlovi o'tkazilgan joy, jumladan xar qanday jadvallar, eskizlar yoki fotosuratlar, qo'llanilayotgan namunalar tanlashrejasi va protseduralariga xavolalar, namunalarni tanlashni o'tkazish paytida, sinovlar natijalarini sharxlashga ta'sir ko'rsata oladigan atrof muxit sharoitlarini batafsil ta'rifi, namunalar tanlash usuli va protsedurasiga tegishli xar qanday standart yoki boshqa me'yoriy xujjatlarga xavolalar, shuningdek muvofiq me'yoriy xujjatlardagi og'ishlar, qo'shimchalar yoki istisnolar bo'lishi.

Kalibrlash sertifikatleri kalibrlashlar natijalarini sharxlash uchun kerak bo'lsa, sanab o'tilgan talablarga qo'shma ravishda kalibrlash sertifikatleri quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak, kalibrlashlar o'tkazilgan va o'lchashlar natijalariga ta'sir ko'rsatadigan sharoitlar(masalan, atrof muxit sharoitleri), o'lchashlar noaniqligi yoki o'rnatilganmetrologik me'yoriy xujjatlarga yoki ularning ayrim bandlariga muvofiqligi to'g'risidagi ko'rsatmalar lozim.

Kalibrlash sertifikati faqat funksional sinovlar kattaliklari va natijalariga tegishli bo'lishi kerak. Agar me'yoriy xujjatlar muvofiqligi to'g'risidagi ko'rsatma mavjud bo'lsa, u xolda me'yoriy xujjatlarning qaysi qoidalari bajarilib qaysi qoidalari bajarilmasligini belgilash zarur.

Agar me'yoriy xujjatlar muvofiqligi to'g'risidagi ko'rsatmada o'lchashlar natijalari va ular bilan bog'liq noaniqliklar yo'q bo'lsa, laboratoriya ushbu natijalarni





ro'yxatga olishi xamda kelajakda ularga qilinishi mumkin bo'lgan xavolalar uchun saqlashi lozimdir.

Agar muvofiqlik to'g'risidagi ko'rsatmalar mavjud bo'lsa, o'lchashlar noaniqligi xisobga olinishi kerak.

Agar kalibrlanayotgan asbob rostlangan yoki ta'mirlangan bo'lsa, rostlash yoki ta'mirlashdan oldin va keyingi kalibrlash natijalari xisobotda aks ettirilishi lozim.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Ishlab chiqarish korxonasi sifat tizimining mohiyati uning iste'molchining mahsulot sifatiga bo'lgan talablariga yunaltirilganidadir; bunday tizim komponentlarining tashkiliy yigindisi bo'lib, tashkiliy struktura, tartib-qoidalar, jarayonlar va resurslar hisoblanadi, shularga qarab tizimning kerakli ishlash qobiliyati baholanadi. Demak sifat boshqaruv tizimi korxonaga rahbarlik qilish tizimining ajralmas kismi hisoblanadi. U juda ham ko'p ichki va tashqi aloqalarga ega, ular orqali ko'p sonli signallar o'tadi. Bu tizim korxonani umumiy boshqaruv tizimining boshqa quyitizimlariga, xususan maqsadli, funksional, tashkiliy, motivatsion, ijtimoiy, axborot, falsafiy va tashqi muhit bilan o'zaro aloqa qilishning kichik tizimlariga bog'liq.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**


1. Jo'raboevich B. N. Ishlab chiqarish korxonalaridagi mahsulotlar sifat menejmentining mohiyati // Rivojlanish va davlat siyosati xalqaro jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 5. – b. 117-118.
2. KORXONALARDA MAHSULOT SIFATINI OSHIRISHDA SIFATNI BOSHQARUV TIZIMINING ROLI //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 2. – №. 12. – S. 228-233.
3. “Mahsulot sifati nazorati va sinov qurilmalari” fanidan [312bet] va [314bet].
4. L. P. Kurakov, I. P. Danilov. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. - Moskva, 2010 yil.
5. “Mahsulot sifati nazorati va sinov qurilmalari” o'quv fanidan 308 va 310 bet. 8. Egamberdiev, B. E., Mallaev, A. S., Mirshomilova, M. A., & Raximova, N. M. (2019). Vliyanie otjiga na kristallicheskuyu strukturu poverxnosti kremniya, legirovannogo ionami nikelya. Nauka i mir, 1(2), 19-23.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-10

6. Aristov O.V. Sifat nazorati. M.: - INFRA - M, 2004. - 240 b.
7. Axmedov B.M., Abasov A.A. Sifat menejmenti tizimi raqobatbardoshlikning asosidir. –T.: “AsrMatbuot”, 2004.- 96 b.
8. Glichev A.V. Mahsulot sifatini boshqarish asoslari. M.: - RIA "Standart va sifat", 2001 yil
9. Deming E., Juran D. va boshqalar. Series “Hammasi sifat haqida. Xorijiy tajriba”. 15-son. 2000. M.: - NTK "Trek",2000. – 33 b
10. Deming W.E. Sanoat, boshqaruv va ta'lim uchun yangi iqtisodiyot. - Massachusets: MJT Ilg'or muhandislik tadqiqotlari markazi, 2013 yil
11. Jozef Juran, 20-asrning sifat sohasidagi inqiloblari, Independent professional jurnali International Magazine of MANAGEMENT, T.: JV Seal MAG, № 2, 2007, p. 22-23.
12. [www.standart.uz](http://www.standart.uz)
13. [www.cfin.ru](http://www.cfin.ru)
14. [www.stq.ru](http://www.stq.ru)
15. [www.window.edu.ru](http://www.window.edu.ru).



## LINGUISTIC FEATURES OF PAREMIOLOGICAL UNITS

Mokhichekhra Rakhmatullayeva  
Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

**Abstract:** This article discusses the phraseology, a subject of special linguistics using them in teaching English. Linguistics as a scientific discipline aims to study the interrelationship and interaction of language and culture. Science is a synthesis of culture and linguistics, and its formation goes back a long time. Science is a synthesis of culture and linguistics, and its formation goes back a long time.

**Key words:** paremiological units, paremia, linguoculturology, ethnolinguistics, orthology.

At the beginning of the 19th century, schools of linguistic and cultural studies were formed under the auspices of famous scientists such as N.D.Arutyunova, V.V.Vorobyov, V.I.Karasik, V.V.Krasnix, V.N.Telia<sup>1</sup>. Over time, a certain conceptual-terminological tool of linguo-cultural studies is being formed using various research theories and methods of linguo-cultural analysis. One of the tasks of this science is to study the cultural, cognitive, and psychological characteristics of language and linguistic individuals representing different ethnic groups. In this regard, linguoculturology allows discovering the characteristics of the cultural values of the people.

Researcher V.V.Vorobyov<sup>2</sup> considers the science of linguocultural science “a complex scientific science of a synthesizing type that studies the relationship and interaction of culture and language in the activity and reflects this process as an integral structure of units in the unity of linguistic and extralinguistic content using systematic methods.”

---

<sup>1</sup> Арутюнова, Н.Д. Типы языковых значений. Оценка, событие, факт / Н.Д. Арутюнова. - М.: Наука, 1988. - 339 с.; Воробьев, В.В. Лингвокультурология / В.В. Воробьев. - М.: РУДН, 2008. - 336 с.; Карасик, В.И. О категориях лингвокультурологии / В.И. Карасик // Языковая личность: проблемы коммуникативной деятельности: сб. науч. трудов. - Волгоград: Перемена, 2001. - С. 3-16.; Красных, В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: лекционный курс / В.В. Красных. - М.: Гнозис, 2002. - 284 с.; Телия, В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты / В.Н. Телия. - М.: Языки рус. культуры, 1996. - 288 с.

<sup>2</sup>



Linguistics has become a field of scientific science with its own subject and object of study in the classification of humanities. Summarizing the acquired knowledge is important, which, on the one hand, arouses interest for the research model of the scientific object, and on the other hand, requires the formation of general and limiting criteria and characteristics of the studied concept. In our opinion, the concept of linguoculturology researcher V.V.Vorobyov is complete and meaningful, because he created researchers in the methodology of linguistic analysis called "systematic methods".

Based on the general integrative scheme “culture – language” according to V.V.Krasnykh. Other important features of the studied science are expressed in the definition: “Linguculturalology is a science that studies the manifestation, reflection and fixation of culture in language and speech. This is directly related to the study of the national landscape of the world, linguistic consciousness, and the characteristics of the psycho-linguistic complex.”<sup>3</sup> Completely different objects of research - the national view of the world, specific cognitive features, linguistic consciousness are being formed.

It should be noted that the linguistic heritage of V.Humboldt<sup>4</sup> opens new perspectives in the field of humanitarian knowledge. A combination of many factors of a linguistic and extralinguistic nature contributed to the emergence of linguoculturology as a scientific discipline. The decisive factor here is the revision of various methods in language learning aimed at increasing its functions, as well as in connection with worldview and national-centered tasks.

Lingvokulturology has an important interdisciplinary character, it combines various humanitarian knowledge. At present, such researches in related disciplines are most in demand in linguistics. Linguistics as a systematic and diverse scientific discipline interacts with many disciplines: cognitive linguistics, linguistic philosophy, national linguistics, cultural studies, national psycholinguistics, etc.

Lingvokulturology is presented as an integral part of national culture, as one of the components of ethnolinguistics, which is studied in the synchronous order of

---

<sup>3</sup> Красных, В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: лекционный курс / В.В. Красных. - М.: Гнозис, 2002. - 284 с.

<sup>4</sup> Гумбольдт, В. Избранные труды по языкознанию / В. Гумбольдт. - М.: Прогресс, 2000. - 400 с.





language and culture. According to the researcher N.F.Alefirenko<sup>5</sup>, language culture is an integral part of any ethnic culture, it is a synergistic combination of interrelated phenomena of culture and language, strengthened and mastered by a certain ethno-linguistic consciousness (combination, synthesis, collection).

Language is the most important tool for understanding the spiritual culture of an individual and the entire nation, an important part of ethnic culture. The uniqueness of each linguistic consciousness implies a certain prism through which a person understands and perceives the world, as well as the spiritual culture of the people. Based on the specific characteristics of the manifestation of geographical, historical and social characteristics of each ethnic group, the world landscape is characterized by a certain cultural and national identity, which is established against the background of the unity of the perception of the world.

Academician Y.D.Apresyan<sup>6</sup> describes in detail the modern image of the linguistic landscape of the world. In his opinion, each language contains a certain character of a person and his way of perceiving the world. The definitions expressed in it become a system of unique views, a unique social philosophy. The language-specific way of conceptualizing reality is partly multifunctional and ethnic in nature, and therefore allows speakers of different languages to see the world slightly differently due to the diversity of their native languages. On the other hand, this method is “simple” and most of the main components differ from the scientific linguistic picture of the world.

“Modern linguistics combines the history of the language (diachronic) and its current state (synchronic), in which the language system and language norms (orthology) are thoroughly and comprehensively studied. In this norm and linguistics lies the idea of a diverse and multidimensional structure of language, each level of which is carefully studied by separate linguistic disciplines. It is similar to names such as phonetics, morphemics, lexicology (the science that studies the vocabulary level), morphology, syntax. In recent years, linguistics has also included the highest level of interest - text. Each level (except phonetics) has formal and substantive plans.

---

<sup>5</sup> Алефиренко, Н.Ф. Лингвокультурологическое содержание понятия «дискурс» в современной когнитивной лингвистике / Н.Ф. Алефиренко // Русское слово в мировой культуре: материалы X Конгресса Международной ассоциации преподавателей русского языка и литературы. - СПб., 2003. - Т. 1. - С. 9-19.

<sup>6</sup> Апресян, Ю.Д. Образ человека по данным языка: попытка системного описания / Ю.Д. Апресян // Вопросы языкознания. - 1995. - № 1. - С. 37-67.







Linguistics, in addition to the study of specific languages, also deals with the general principles of language activity, comparison of languages, their kinship and typological relations.”

Linguistics reveals cultural information that is a necessary component of society. It exists in stable language forms that include phraseological and paremiological units that are part of linguistics.

Phraseology is a subject of special linguistics, which began to form in Russian linguistics from the 40s. 20th century, and in the West it has not yet been divided into a separate department of linguistics. Parimiology as a subject of linguistics and not folklore analysis attracted attention only at the end of the 20th century. A detailed study of paremiological units has become an object in local and world linguistics.

The word *paremia* is Greek and means “proverb”, but researchers also include proverbs in this concept. Researcher L.B.Savenkova<sup>7</sup>, under the term paremiological unit, we mean “secondary linguistic signs - closed static phrases (proverbs and proverbs) that are a sign of the relationship between the situation or reality.”

The linguist VA.Voropaeva<sup>8</sup> identifies paremies and words in the Holy Scriptures for this category and describes them as having “identity marks”. G.L.Permjakov<sup>9</sup> emphasized the paremiological indicator of language in proverbs. Permjakov, who made a great contribution to science in defining the differences between proverbs and words, classifies proverbs as follows. In his work, the author notes that proverbs and proverbs are grammatically complete wisdom, and it is necessary to interpret them more widely. Let's look at the classification of paremias presented by the researcher:

1. “Alphabetical classification. This requires that the proverbs be arranged alphabetically according to the initials of the first word.
2. Classification by reference words (also lexical or encyclopedic) implies the division of proverbs according to the main words that make up this proverb.

---

<sup>7</sup> Савенкова, Л.Б. Русская паремиология: семантический и лингвокультурологический аспекты / Л.Б. Савенкова. - Ростов н/Д.: Изд-во Рост. ун-та, 2002. - 240 с. 11

<sup>8</sup> Воропаева, В.А. Сопоставительная характеристика английских, немецких и русских паремий и фразеологизмов, выражающих толерантность: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.20 / Виктория Александровна Воропаева. - Тамбов, 2007. - 168 с

<sup>9</sup> Пермяков, Г.Л. От поговорки до сказки: (заметки об общей теории клише) / Г.Л. Пермяков. - М.: Наука, 1970. - 239 с.





3. Monographic classification is based on the grouping of proverbs according to the place or time of collection, according to the collector.

4. Genetic classification divides material according to its origin, in particular, according to the languages and peoples that gave birth to it.

5. Thematic classification includes the distribution of proverbs according to the topics of the statement, that is, according to their content”<sup>10</sup>

Thus, the linguistic overview (brief information) and analysis of the actual issues of defining the term *paremia* in English (American), Uzbek and world philology allows making a number of conclusions. As can be seen from the above rules of the term *paremia* proposed by researchers, the question (issue) of what *paremia* means remains open, there is no universally recognized single rule of the term of this species. The analysis of the etymology of the word *Paremia* shows that it is mainly related to symbolic stories that perform a moral or instructive task. As a philological (linguistic) term, it began to be used in its current sense later.

Today, there is no definition of a proverb that would give integrity to such a verbal organization, where each sign is related to a single goal and direction. But the above definitions allow us to get a general definition, which shows the ambiguity and versatility of the interpretation of the proverb definition. Following the researchers, we believe that proverbs are folk proverbs, concise, clear thought depth and power, stable, figurative, artistically and rhythmically structured sentences in colloquial speech.

#### LIST OF REFERENCES:

1. Алефиренко, Н.Ф. Лингвокультурологическое содержание понятия «дискурс» в современной когнитивной лингвистике / Н.Ф. Алефиренко // Русское слово в мировой культуре: материалы X Конгресса Международной ассоциации преподавателей русского языка и литературы. - СПб., 2003. - Т. 1. - С. 9-19.
2. Апресян, Ю.Д. Образ человека по данным языка: попытка системного описания / Ю.Д. Апресян // Вопросы языкознания. - 1995. - № 1. - С. 37-67.
3. Арутюнова . Н. Д . Тилы языковых знаиений , Оуенна , событие факт /Н.Р. Арутюнова .М : Наука 1988- 339с.

---


<sup>10</sup> Пермяков, Г.Л. Пословицы и поговорки народов Востока / Г.Л. Пермяков. - М.: Лабиринт, 2001. - 624 с.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-10

4. Арутюнова, Н.Д. Типы языковых значений. Оценка, событие, факт / Н.Д. Арутюнова. - М.: Наука, 1988. - 339 с.;
5. Воробьев, В.В. Лингвокультурология / В.В. Воробьев. - М.: РУДН, 2008. - 336 с.;
6. Воропаева, В.А. Сопоставительная характеристика английских, немецких и русских паремий и фразеологизмов, выражающих толерантность: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.20 / Виктория Александровна Воропаева. - Тамбов, 2007. - 168 с
7. Гумбольдт, В. Избранные труды по языкознанию / В. Гумбольдт. - М.: Прогресс, 2000. - 400 с.
8. Красных, В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: лекционный курс / В.В. Красных. - М.: Гнозис, 2002. - 284 с.;
9. Телия, В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты / В.Н. Телия. - М.: Языки рус. культуры, 1996. - 288 с.
10. Пермяков, Г.Л. Пословицы и поговорки народов Востока / Г.Л. Пермяков. - М.: Лабиринт, 2001. - 624 с.
11. Савенкова, Л.Б. Русская паремиология: семантический и лингвокультурологический аспекты / Л.Б. Савенкова. - Ростов н/Д.: Изд-во Рост. ун-та, 2002. - 240 с. 1



## **Buxoro xonligi va amirligi elchilik a'loqalarining manba va adabiyotlarda yoritilishi.**

**Toshmirzayeva Dilafro'z Alimardonova**

**Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix Mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha 3- kurs 8 ts talabasi**

*Annotatsiya: Maqolada Buxoro xonligi va amirligi elchilik a'loqalarining manba va adabiyotlarda yoritilishi tadbiq etilgan.*

*Аннотация: В статье применяется освещение посольских отношений Бухарского ханства и Эмирата в источниках и литературе. Abstract: In the article, the coverage of the embassy relations of the Khanate of Bukhara and the Emirate in sources and literature is applied..*

*Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, элчи, Рус элчилари, хонлик, савдо алоқалари, транзит савдо, тадқиқотчи, элчилик манбалари, савдо карвони, иқтисодий муносабат.*

### **KIRISH**

O'zbekistan o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, jamiyatimiz xayotining barcha soxalarida tubdan o'zgarishlar va isloxotlar amalga oshirila boshlandi. Vatanimiz mustaqilligi barcha soxalarda bo'lgani kabi, tarixchi olimlar zimmasiga xam mas'uliyatli vazifalarni yukladi. Jumladan, sovet xukmronligi yillarida soxtalashtirilgan tariximizni turli tazyikdardan xoli ravishda haqqoniy va ob'ektiv yoritish vazifasi tarixchi olimlar oldiga qo'yilgan asosiy talablardan biriga aylandi. O'zligimizni anglash, vatanimiz tarixiga nisbatan xolis va haqqoniy qarash, milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanishi aynan mustaqillik sharofati bilan yuzaga chikdi.

O'rta Osiyo davlatlari o'zoq davrlar mobaynida Xitoy, Xindiston, Eron, Afgoniston va Sharqdagi boshqa mamlakatlar xamda Rossiya bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarda bo'lib keldilar. Ayniqsa, O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan hozirgi kundagi yaqin do'stona aloqalar o'rnatishga qaratilgan tashqi siyosatining ildizlari usha o'zoq tarixiy davrlarga borib taqaladi.

### **MUXOKAMA VA NATIJALAR.**

XVI-XIX asrlarda O'rta Osiyoda uchala xonlikning hukmronlik davrida Buxoro, Xiva, Toshkent, Qo'qon savdogarlari Xindiston, Eron, Qoshg'ar, Sibir, Qozoq va No'g'oy xonliklariga tovar olib borib savdo-sotik qilardilar. Asrlar



davomida bu iqtisodiy aloqalar xonliklarning xo‘jalik xayoti - ikdisodiy va madaniy taraqqiyotiga, ayniqsa shaxarlar hayotining rivojlanishiga sezilarli turtki bo‘lgan edi.

Shu jumladan, Buxoro xonligining qo‘shni sharq davlatlari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlari usha mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy axvoliga bog‘lik xolda tarixiy manbalarda o‘z ifodasini topgan.

Buxoro xonligining, kolaversa xar uchchala xonlikning qo‘shni Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini o‘rganishda qo‘lyozma manbalar, rus elchilari va diplomatlarining faoliyatlari bilan bog‘liq yozma yodgorliklar katta rol o‘ynaydi. Ular, xususan Sharq davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixi hakida ham qimmatli ma‘lumotlar qoldirganlar. Masalan, Buxoro xonligi va u bilan bog‘lik xolda bir qator Sharq mamlakatlari haqidagi muhim ma‘lumotlar savdogarlar va qochqor rus asirlarining axborotlarida ham ўz aksini topgan.

Eslatib o‘tish joizki, ilmiy ma‘lumotlar davr jixatidan birmuncha kechroq chop kilingan. Masalan: XVI-XVIII asrlardagi rus elchi va diplomatlarining materiallari asosan XIX asrlarda nashr qilingan. Lekin, O‘rta Osiyo xonliklarining qo‘shni Sharq davlatlari bilan savdo aloqalari haqidagi xabarlar asosan, XVIII asr oxirlari va XIX asr boshlarida chop qilingan asarlardan o‘rin olgan.

V.V.Bartol’dning yozishiga ko‘ra, XVI asrdan boshlab Buxoro xonligining tashqi aloqalariga doir ma‘lumotlar Rossiyaga no‘g‘oy knyazlari orqali yetib kelgan ekan.

Ma‘lumki, O‘rta Osiyo xonliklarining qo‘shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari qanchalik zarur va axamiyatli bo‘lmasin, bu aloqalar ichki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarda barqarorlik yuqligi tufayli tranzit savdo uchun yaxshi imkoniyatlar ochib bera olmagan. Zero, tranzit savdo O‘rta Osiyo uchun muxim rol uynardi. Shu bilan birgalikda, so‘nggi o‘rta asrlarda - jaxon savdo yo‘llarining o‘zgarishi, buyuk geografik kashfiyotlar, Eronning doimiy ravishda Turkiya va O‘rta Osiyo xonliklari bilan xarbiy ziddiyatlari, XVI asrdan boshlab o‘rta Osiyodagi siyosiy beqarorlik Movarounnaxrning oldingi dovrug‘iga, ya‘ni uning jaxon tranzit savdo markazi maqomiga putur yetkazgan. Shuning uchun, XVI asrdan boshlab O‘rta Osiyo Rossiya bilan savdo aloqalaridan: kuproq va ishonchliroq manfaatdor bula boshlagan. Asta-sekin Moskva davlati O‘rta Osiyoning tashki savdosida muxim rol o‘ynay boshlagan.

Ikkinchi tomondan, g'arbda kapitalistik munosabatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi Yevropa davlatlarining Sharq davlatlariga yaqinlashuviga sabab bo'ldi. Jumladan, ingliz savdo kompaniyasining vakili A. Jenkinsonning O'rta Osiyoga yuborilishi (XVI asr) bu xarakterning yaqqol isboti edi. Biroq A. Jenkinsonning hisobot va ma'lumotlari O'rta Osiyo xonliklari tashqi iqtisodiy munosabatlari tarixi uchun qimmatli material ekani biz uchun muxim <sup>1</sup>

A. Jenkinson sayoxatining maqsad va vazifalari tarixchilar tomonidan bir qadar o'rganilgan. Ammo tadqiqotchilar bu masalaga xar bir xolda o'zlarining maqsadlari nuqtai nazaridan yondoshganlar. Masalan: Yu.A. Sokolov, "Moskva kompaniya"sining asosiy maqsadlaridan kelib chiqqan xolda, Xindistonga Rossiya Sharq bilan savdo aloqalari olib borgan yullari orqali kirib borishi lozim edi, deb xisoblab, quyidagicha yozgan: «Inglizlarning Rossiya orkali Xindistonga kirib borish yulini qidirib topish ishiga kompaniyaning eng faol vakillaridan biri Antoniy Jenkinson asos solgan» <sup>2</sup>

Demak, A. Jenkinsonning O'rta Osiyoga sayoxat qilishidan asosiy maqsad xonliklar orqali Xdovdistonga boradigan eng yaqin va qulay yulni topishdan iborat bo'lgan. U O'rta Osiyoda savdo ishlarini yo'lga quyish niqobi ostida Buxoroga boriishga ruxsat olgan.

Rus olimi С.В.Жуковский Женкинсоннинг Бухорога бориши хақидаги фикрларини баён қилиб қуйидагича ёзади: "Айтиш қийин, нахотки Женкинсон чиндан хам Иванн Грознийни ўз томонига оғдириб олган, ва гуё Ivan Grozniy inglizlarga yokish uchun uni O'rta Osiyoga borishiga ruxsat bergan. Jenkinsondan balki podsho (Ivann Grozniy - R.A.) foydalangandir va uni, 1557 yilda Rossiyada erkin savdo qilishlari uchun ruxsat surab xadya va tortiqlar bilan Moskvaga kelgan Xiva va Buxoro elchilik missiyasiga javob tariqasida Jenkinsonni Buxoro va Xivaga elchi qilib yubormadimikan?» <sup>3</sup>.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, aytish mumkinki, Jenkinson Moskva Rusining Buxoroga yuborgan birinchi rasmiy elchisi edi. Uylaymizki, Jukovskiyning ikkinchi fikri haqiqatga yaqin bulsa kerak, ya'ni podsho O'rta Osiyo bilan savdo aloqalarini

<sup>1</sup> Антоний Женкинсон 1558 йилда Моквага Лондон савдо компаниясининг вакили сифатида ташриф буюрган, хамда Россия подшоши Иван ГУнинг ёрлиги билан Хива ва Бухорога келган эди: Женкинсон Антоний. Путешествие в С р е д н ю А з и ю в 1558 — 1560 гг. //А н г л и й с к и е п у т е ш е с т в е н н и к и в М о с к о в о м г о с у д а р - с т в е в Х У 1 в е к е. /Пер. с англ. Ю.В.Готье. - М.: ОГИЗ. 1937.

<sup>2</sup> Соколов Ю.А. К вопросу о причинах провала английских устремлений в Восточную Европу, Среднюю Азию и Персию (XV 1 — XVII вв.) //Труды САГУ. Вып. 68. 1955. с. 17.

<sup>3</sup> Жуковский С. В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. - Пг., 1915. - С.3

oʻrnatish maqsadida ingliz savdogari Jenkinsonga rasmiy yorlik bergan. Jenkinsonning Rossiya nomidan Oʻrta Osiyoga junatilishi Rossiyaning Oʻrta Osiyo savdosida maʼlum bir manfaati boʻlgani tasdiqlaydi va Rossiya bilan Oʻrta Osiyo oʻrtasida savdo aloqalarining rivojlanishiga yoʻl ochgan.

1558 yil 23 dekabrda Jenkinson Rossiya podshosi Ivan IV ning ishonch yorligi bilan Buxoroga keladi va u yerda savdoning xolati bilan tanishadi. Jenkinson Moskvaga kaytayotganida u bilan birga Buxoro, Urganch, Balx elchilari xam birga kelishgan.

Tarixchi P. P. Ivanov missiyami baxolab, Rossiya bilan Oʻrta Osiyo Oʻrtasida savdo-iktisodiy munosabatlarni Jenkinson kashf etmagan. Jenkinson bilan Moskvaga kelgan savdo karvoni 1000 tuyadan iborat boʻlgani avvaldan Moskva - Oʻrta Osiyo savdo munosabatlari anʼanaviy darajada boʻlganidan dalolatdir, deb yozgan edi<sup>4</sup> Xaqiqatdan xam, 1556 yil Astraxan bosib olinganda, bu yerda Oʻrta Osiyo savdogarlari boʻlgani maʼlum. Ular oʻz tovarlari bilan Moskva davlati ichkarisigacha kirib borgan. Fikrimizcha, P. P. Ivanovning bu muloxazasida xaqiqat bor.

Maʼlumki, XVI asrdan boshlab Oʻrta Osiyo xonliklarining Moskva bilan savdo aloqalari rasmiy tus ola boshlaydi. Bizni bu oʻrinda Jenkinson tomonidan Buxoroning qoʻshni Shark davlatlari bilan aloqalari xaqida bergan maʼlumotlari axamiyatlidir.

Jenkinsonning Buxoroga kelishi arafasida Oʻrta Osiyo Xindiston va Eron bilan faol savdo iqtisodiy aloqalar oʻrnatgan edi. Jenkinson, "Buxoroda savdogarlarning xar yilgi yigʻilishi boʻlib, u yerga Xindiston Eron, Balx, Rossiya va boshqa davlatlardan savdogarlar katta karvonlar bilan kelib yigʻilib turadi"<sup>5</sup>, - deb yozgan edi.

Bu xolat XVI asr Oʻrtalarida Buxoro kadimgiday xalqaro savdo markazlaridan biri boʻlib qolganligidan dalolat beradi. Lekin baʼzi mualliflar Ushbu masalaga shubxa koʻzi bilan qaradilar. Masalan, M.Yuldashev - "Jenkinsonning Buxoro savdosi xaqidagi maʼlumotlarini toʻliq xakikat deb bilish kiyin. Aftidan savdoda raqobatchi boʻlishi mumkin boʻlgan savdogarlarni bu savdodan chalgʻitmokchi boʻlgan boʻlsa kerak. Buxoroda xar yili Xindiston, Eron, Buxoro, Rossiyadan kelgan savdogarlarning yigilishi boʻlib turadi, deb yozib, Jenkinson yana koʻshib qoʻyadi, «guyoki bu savdogarlar shu darajada kashshoqki, ular xam tovarlar olib kelishiga

<sup>4</sup> Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии (XVI — середина XIX вв.). - М.: ИВЛ. 1958. - С. 76.

<sup>5</sup> Дженкинсон А. Ушааср. - Б. 184.



qaramay bu tovarlarni xatto uch yillab sotadi, shuning uchun bu yerda foydali savdo qilish uchun xech kanday ishonch yuq”, - deb yozadi<sup>6</sup>.

Ba’zi tarixchilarning fikricha, Jenkinson Angliya manufak-turalarida to’qilgan movut matolarni O’rta Osiyoda sota olmagan uchun ataylab Buxorodagi xind savdogarlarining faoliyati va rolini pasaytirgan. Jenkinsonning ma’lumotlariga ko’ra, xind savdogarlari Buxoroga quyidagi mollarni olib kelishgan: salla uchun ishlatiladigan yupqa oq mato, kuylak uchun ishlatiladigan oq matolar. Buxorodan esa xind savdogarlari ipak matolar, oshlanmagan teri, dullar va otlar olib ketgan, lekin karazeya va movut matolarini kadrlashmagan<sup>7</sup>.

Shunday qilib, Jenkinsonning ma’lumotlariga asoslanib aytish mumkinki, Buxoro bilan Xindiston O’rtasida barkaror savdo aloqalari o’rnatilgan bo’lgan. Bu savdodagi asosiy tovarlardan biri indigonil buyogi bulgan. Nil buyogi shu kadar kup ediki, uni sotish uchun Xindiston savdogarlari ikki-uch yillab qolib ketardi.

XVI asrda ikkala davlat O’rtasidagi savdo va diplomatik aloqalar jonlanganini tasdiklovchi ma’lumotlar mavjud. Jumladan, Abdullaxon davrida Buxoro bilan Rossiya O’rtasida diplomatik aloqalar o’rnatilgan. 1585 yil Buxorolik elchi Muxammad Ali Rossiya podshosi Fyodor Ivanovichga Abdullaxon nomidan tortiqlar olib kelgan, xadyalar tarkibida 40 pud nil buyogi dam bo’lgan<sup>8</sup>.

Bu ma’lumot, o’sha davrda Buxoro bilan Xindiston O’rtasidagi savdoda Buxoroning tranzit mollar bozori vazifasini o’taganligidan dalolat beradi. N.I.Kostomarov va M.V.Fexnerlar o’z asarlarida Buxoro orqali xind tovarlarining Rossiyaga keltirilishi dadida yozib qoldirgan.

Rus manbalarining bergan ma’lumotlariga ko’ra, o’zok vaktlardan buyon davom etib kelayotgan baxs XVI- XVII asrlarda O’rta Osiyo Rossiya uchun - Xindistonga kirib borish yulida bir vajmi, yoki rus xukumatining manfaatlariga xizmat qiladigan Sharkning muxim mintaqasi - yirik savdo markazimi, degan savolni tug’dirdi<sup>9</sup>. XX asrning boshlarigacha bo’lgan ko’plab tarixchilar birinchi nuqtai nazarning tarafdorlari bo’lib, ular Rus podsholari O’rta Osiyoga jo’natadigan

<sup>6</sup> Юлдашев М.Ю. К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XVI - XVII вв. - Ташкент. 1964, - С.18-19.

<sup>7</sup> Дженкинсон А. Уша асар. — С.185 .

<sup>8</sup> Дженкинсон А. Уша асар. — С.185 .

Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Ч .1. - JL: Изд-во АН СССР. 1932. - С.9.

<sup>9</sup> Веселовский Н.И. Прием в России и отпуск среднеазиатских послов в XVII и XVIII столетиях //Журнал Министерства народного просвещения. — СПб., 1884. Кн.: 7; Уляницкий В.А. Уша асар.; Бартольд В.В. История изучения Востока в Европе и России.



elchilarining aksariyatiga rus qullarini sotib olish va Xindistonga boradigan eng yaqin, qulay va xavfsiz savdo yulini topish topshirilgan, deb xisoblaydilar.

Sovet adabiyotida bu kabi nuqtai nazarni Ye.V.Bunakov, P.P.Ivanov, D.M.Lebedevlar qo‘llab quvvatlaganlar. Ularning fikricha, Xindistonga kirib borish ruslar uchun natija bermagan taqdirda ham, O‘rta Osiyoga boradigan йул маълум бир маънода нафакат топилди, балки ўзлаштирилди ҳам<sup>10</sup>.

Fikrimizcha, ikkinchi qarash haqiqatga yaqin ko‘rinadi. Masalan: O‘rta Osiyoga Rossiyaning munosabati masalasi tarixchi N.B.Baykova asarida o‘z aksini toptan. Muallif inkilobgacha bo‘lgan tarixchilar va yuqorida nomlari tilga olingan olimlarni to‘g‘ri tanqid qilgan. N.B.Baykovaning fikricha, Ўрта Осиё хонлиklariga boradigan savdo yo‘llari XVI asrdayok Rossiyaga ma‘lum bo‘lgan. Uning ta‘kidlashicha, Rus davlati Xindistonga boradigan yo‘lni qidirib O‘rta Osiyoga boradigan yo‘lni ochgan va o‘zlashtirgan. Aslida esa O‘rta Osiyodagi Xiva va Buxoro bozorlarida rus savdogarlari xind savdogarlari bilan uchrashganlar, rus xukumatiga qulayrok yulni, ya‘ni xindlar uchun odatiy bo‘lgan Astraxan, Kaspiy dengizi va Eron orqali boradigan yo‘lni ko‘rsatganlar<sup>11</sup>

## XULOSA

Yuqoridagi elchilik aloqalari manba va adabiyotlarda yoritilishicha xulosa qilish mumkinki, Rossiya, Hindiston va Eron mamlakatlari o‘rtasidagi savdoda Buxoro vositachi vazifasini o‘tagan. XVI asrda Rossiya Xindiston bilan diplomatik munosabatlar urnatmagan, ammo Eron va Urta Osiyo orkali savdo qilish yuli bilan Xindiston - Buyuk Mo‘g‘ullar davlati bilan rasmiy munosabatlar o‘rnatish sari yo‘l tutgan. O‘zbekistonning qo‘shni davlatlar bilan hozirgi kundagi yaqin do‘stona aloqalar o‘rnatishga qaratilgan tashqi siyosatining ildizlari o‘sha uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi.

<sup>10</sup> вропе и России. 2 Лебедев Д.М. География в России XVII века: (Допетровский период). — М.-Л.: Изд-во АН СССР. 1949. - С. 106.

<sup>11</sup> Байкова Н.Б. Уша асар. — С. 10.

## REFERENCES

1. Алимова Р. Р ЎРТА ОСИЁ ХОНЛИКЛАРИНИНГ ҚЎШНИ ДАВЛАТЛАР БИЛАН ДИПЛОМАТИК ВА САВДО-ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАРИ (XVI-XX АСР БОШЛАРИ РУС ТАРИХШУНОСЛИГИ ВА МАНБАЛАРИ АСОСИДА) Тошкент-2017 йил
2. Хофиз Таниш Ал-Бухорий. Абдуллонома. (“Шарафномаи шохий). - Тошкент: Шарк, 2000. 288 б.
3. 22. Байкова Н.Б. Рол Средней Азии в русско-индийских торговых связях (первая половина XVI-вторая половина XVIII в.). — Ташкент: Наука, 1964. - 192 с.
4. Iskandar, O. (2023). The Organization of the Khorazm Soviet Republic. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 794-798.
5. Ismadiyarov, Y., Nabiulina, L., Matnazarova, M., Mulaahmetov, R., Suleimenova, U., & Satimbekova, A. (2021). Multicomponent Structural and Logical Model of Innovative Management in Higher Education and the Mechanisms for its Implementation. Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности, (3), 187-195.
6. Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. Science and innovation, 2(B4), 481-484.
7. Omongaldi o'g'li, O. I. (2023). QADIMGI DAVRLARDAGI KO'CHMANCHI SAK, MASSAGET QABILALARI HAQIDA MUSHOHADALAR. IQRO JURNALI, 2(2), 597-600.
8. Omongaldi o'g'li, O. I. (2022). QADIMGI XORAZM SIRLI QAL'ALARI. PEDAGOGS jurnali, 10(4), 182-185.
9. Abdurahmanova, M., & Malikova, Z. (2022). О ‘ZBEK TILIDA SOTSIOLEKT. FAN, TALIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 104-107.
10. Iskandar, O. (2022). XIVA TARIXI VA RIVOJLANISHIDA TURIZMNING AHAMIYATI. PEDAGOG, 1(3), 327-329.

## ARRALI SILINDRLAR VA KOLOSNIKLI PANJARALARNI YIGISH KETMA-KETLIGI

**Uzoqov Farxodjon G'afforovich,**

**Namangan muhandislik-texnologiya instituti**

**Anotatsiya.** Jin mashinasini ishlatish orqali to'g'ri yig'ilgan arrali silindr, kolosnikli panjaralar va yaxshi sozlangan texnologik tirqishlarga ega bo'lgan mashinalar uzoq vaqt to'xtatmay ishlatish hamda yuqori sifatli paxta mahsulotini olish.

**Kalit so'zlar.** Arrali silindr, kolosnik, panjaralar, paxta, PMP-160M linteri va DP-130 jin mashinasi.

## ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТЬ СБОРКИ ПИЛЬНЫХ ЦИЛИНДРОВ И ОКОН КОЛОННЫ

**Узаков Фарходжон Гаффорович, Наманганский инженерно-технологический институт**

**Аннотация.** Используя джин-машину, машины с правильно собранным пильным цилиндром, колоссальными стержнями и хорошо отрегулированными технологическими щелями можно эксплуатировать без остановки в течение длительного времени и получать высококачественную хлопчатобумажную продукцию.

**Ключевые слова.** Пильный цилиндр, колосник, решетки, хлопок, линтер ПМП-160М и джин-машина ДП-130.

## ASSEMBLY PROCEDURE BETWEEN SAW CYLINDERS AND COLUMNS

**Uzokov Farhodjon Gaforovich, Namangan Institute of Engineering and Technology**


**Annotation.** By using a gin machine, machines with properly assembled saw cylinder, colossal bars and well-adjusted technological slits can be used without stopping for a long time and get high-quality cotton products.

**Keywords.** Saw cylinder, colosnik, grates, cotton, PMP-160M linter and DP-130 gin machine

Djin mashinalarini ishlatish tajribasi shuni ko'rsatadiki, faqat to'g'ri yig'ilgan arrali silindr, kolosnikli panjaralar va yaxshi sozlangan texnologik tirqishlarga ega

bo'lgan mashinalar uzoq vaqt to'xtamay ishlaydi hamda yuqori sifatli paxta mahsulotini beradi.

Arrali silindrni yig'ish standart reyka (1-rasm) kengligi  $(1,5 \pm 0,1)$  mm bo'yicha amalga oshirilishi kerak.



1-rasm. Arrali silindrlarni yig'ish uchun standart reykaning o'lchamlari:

a) 86 va 130 arrali jinlar uchun b) 160 arrali linterlar uchun

Reykadagi kesiklar qadami: 86 va 130 arrali jinlarga  $18,00 \pm 0,05$  mm, 160 arrali linterlarga  $9,7 \pm 0,05$  mm bo'lishi kerak.

Yig'ib bo'lingandan so'ng arra vali zich qilib gaykalar bilan siqib qo'yilishi kerak, bo'lmasa zich qilib siqilmagan arralar kuchli silkinishlar hosil qilib valning egilishiga olib keladi. Ikki chetdagi arralarning oralig'i tashqarisidan o'lchanganda quyidagicha bo'lishi kerak (nazorat reykasini bilan aniqlanadi):

- a). 86 arrali jinlarniki 1533,55 mm,
- b). 130 arrali jinlarniki 2322,95 mm,
- v). 160 arrali linterlarniki 1543,85 mm.

Arrali silindrlar o'zaro almashinadigan bo'lishi kerak, shuning uchun yig'ilgandan so'ng standart kolosnikli panjarada tekshiriladi.

Arrali silindr standart kolosnikli panjarada erkin, kolosniklarga tegmay aylanishi kerak. Arralar kolosniklar orasidagi tirqishning o'rtasida turishi kerak.

Arralarning kolosniklarga tegishi aniqlanganda arralar maxsus moslama «vilka» bilan to'g'rilanishi kerak.

Arra tishlarining radius bo'yicha urishi 2 mm dan oshmasligi, yon tomonga urishi esa 0,2 mm dan ko'p bo'lmasligi kerak.



To'g'ri yig'ilgan arrali silindr qo'l bilan (yelkasi 20 sm bo'lganda) 49 N dan oshmagan kuch bilan aylantirishi kerak.

Tola tozalagichlarning arrali silindrlari zararlangan tishlari miqdori jin va linterlarnikiga to'g'ri kelganda almashtiriladi.

Ularning ishlash muddati - bir mavsum.

Almashtirish uchun yig'ilgan va balansirovka qilingan holda keltiriladigan tayyor arrali silindrlardan foydalaniladi.

Arrali silindrlarni jinda o'rnatishda quyidagi o'lchamlarga rioya qilish kerak:

a). arralarning kolosnikdan chiqqan joyidan kolosnik burilishigacha  $50 \div 2$  mm bo'lishi kerak.

b). arraning kolosnikdan chiqqan joylardan  $100 \pm 2$  mm masofada o'lchangan arraning kolosnikdan ishchi kameraga chiqishi 47-55 mm ga teng.

Arralarning kolosniklardan chiqish joyi va ularning kolosniklardan chiqib turishining nazorati shablon (2-rasm) bilan amalga oshiriladi.

v). arrali silindr tishlari va havo kamerasining soplosi oralig'i  $1,5 \pm 0,5$  mm ga teng bo'lishi kerak.


Arrali silindrni momiq ajratgichda o'rnatilayotganda quyidagi o'lchamlarga rioya qilinishi kerak:

a). arrali silindr va aylantirgich kuragining qirrasini oralig'i 10-14 mm ni tashkil etishi kerak.


b). siqish plankasidan  $126 \pm 2$  mm masofada arralarning kolosniklardan chiqib turishi 25-30 mm ni (3-rasm) tashkil etishi kerak.

v). arrali silindr tishlari va havo kamerasining soplosi oralig'i 0,5-3,0 mm ga teng bo'lishi kerak.

g). bir diametrdagi arralarni konkret linterga biriktirib qo'yish tavsiya etiladi, bu tegishli o'lchamlarni qayta o'rnatish zaruratidan ozod qiladi. Panjaralari ko'tarilgan holda bironta ham arra kolosnikli panjaradan chiqib turmasligi kerak.



2-rasm. Jinning arrali silindri to'g'ri o'rnatilganligini tekshirishda shablon holati



3-rasm. Arrali silindri to'g'ri o'rnatilganligini tekshirishda shablon holati. Jin mashinasi uchun kolosniklar alohida-alohida chiqariladi.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10

Jin kolosniklari ikki tipda UMPD, DP-130 va 4DP-130 ishchi kamerasida ishlatiladigan DP.AN.005 rusumli oddiy va 5DP-130 rusumli jinlarda ishlatiladigan konsolli 5DP703.003 (17a,b-rasmlar) shaklda tayyorlanadi.

Jin kolosniklarining yuqori qismida, lapkaga o'tish joyida, «xolodilnik»ga ega bo'lishlari kerak.

Kolosnikli panjarani yig'ishdan avval har qaysi DP.AN.005 kolosnigiga qo'shimcha ishlov beriladi-burilishdagi o'tkir qirralari  $R=10$  mm bo'yicha yumaloqlanadi. Ishlov berish charxlash dastgohida silliqlash toshi bilan qo'lda amalga oshiriladi. Bu joylarda kolosniklar oralig'i 6-7 mm ni tashkil etishi kerak. Bu kolosniklar oralig'iga tortib ketilgan, ammo arra tishlari bilan hali uzib olinmagan tolalarning chiqishini osonlashtiradi hamda kolosniklar oralig'i tiqilishining oldini oladi.

Chigitlar kolosniklardan o'tib ketmasligi kerak va tirqishni bunday kengayishi chigitni o'tib ketishini oldini oladi.


Kolosniklari ikki rusumda chiqariladi: cho'yandan YeN109-67B rusumli va po'latdan YeN109-67D rusumli (18 v, g-rasm).

Kolosnikli panjaralarni yig'ish o'rnatilgan maxsus dastgohlarda standart arrali silindrlar bo'yicha va kolosniklar ramasini standart arrali silindrga nisbatan tekshirishdan boshlanishi kerak.

Chetki arra bilan yondor oralig'i ikkala tomondan bir xil b'lishi kerak, yuqorigi va pastki kolosnik bruslari arrali val o'qiga nisbatan parallel bo'lishi kerak.

Kolosnikli panjaralarni yig'ishni boshlashdan avval yon brus mashina ishchi kamerasini shablona bilan tekshirilishi kerak.

Yuqorigi va pastki bruslar sirti tozalanishi shart.



4 -rasm. Kolosniklar:

a) - jinniki oddiy DP.AN.005; b) - jinniki konsolli 5DP.03.003.

Djin mashinalarining kolosnikli panjaralarini yig'ish chetki kolosniklardan boshlanib, ular ishchi kamera yondorlariga zich o'rnatilishlari kerak.

Kolosniklarning holatlari ishchi kamera shabloni bo'yicha tekshirilishi lozim. Bir vaqtni o'zida kolosniklarning ikkala lapkalarini bruslarga tegib turishi ham tekshiriladi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, issue-10



Kolosniklarning ustki lapkasi yon brus qirradi bilan bir balandlikda bo'lishi va har qanday holatda ham qirradan past bo'lmash kerak.

Kolosniklar lapkalari oralig'iga surikli kartondan qistirgich qo'yishga ruxsat etiladi.

Kolosniklarni yig'ishda ularning o'rnatish vintlari oxirigacha tortib qo'yiladi. Ular kolosniklar sirtidan chiqib turmasliklari kerak.

Boltlar boshchalaridagi, shuningdek ichki sirtidagi qirralar yo'qotilishi kerak.

Qo'l bilan kolosniklarga bosilganda kolosniklar qo'zg'almasliklari kerak.



5-rasm. Kolosniklar



v) – linterlarniki YeN 109-67B; g) – linterlarniki YeN 109 – 67D.

Kolosniklar uyalarida mustahkam oʻrnashishlari kerak. Lyuftlar va qiyshayishlarga yoʻl qoʻyilmaydi. Ular shunday oʻrnatiladiki, arralar kengligi quyidagi jadvalda koʻrsatilgan oʻlchamlarda boʻlgan oraligʻning oʻrtasida boʻlsin.

Kolosniklartirqish oraligʻining oʻlchamlari

1-jadval

Kolosnikni ishlash joyi, yuqori va pastki qislari	Jin	
	eng kichik oraliq, mm	eng katta oraliq, mm
Kolosniklarning ishlash joyida	2,6	3,2
Kolosniklarning yuqori qismida	4,5	5,0
Kolosniklarning pastki qismida	4,5	5,0

Kolosnikli panjaralarning ish joyidagi oraligʻi kengligi 30 mm uzunlikda, ulardan 15 mm arraning kolosniklar oraligʻiga kirishdan yuqori qismida va 15 mm-pastki qismida, bir xil boʻlishi kerak.

Kolosniklar oraligʻidagi tirqishni oʻzgarishi ish joyidan yuqori va pastki tomonlarga bir tekis oʻzgarishi lozim.


Ishchi tirqishlar maxsus chekli kalibrlar bilan tekshiriladi.

Kolosnik lapkalari va yon brus orasida hosil boʻlgan barcha tirqishlar yaxshilab shpatlevka qilinadi.

Kolosniklar yigʻilgandan soʻng kolosniklarning ishchi sirlari nazorat lineykasi bilan tekshiriladi. Baʼzi kolosniklarning toʻgʻri chiziqiligidan chiqishi ishchi qismda 0,6-0,8 mm dan, qolgan qismlarda 2 mm dan oshmasligi kerak.

Ish joyida yedirilishi sezilgan holda kolosnik zudlik bilan yangisiga almashtirilishi lozim.

Kolosniklarning yeyilishi oqibatida arra tishlari oʻtish joyida kolosniklar oraligʻini kengayishi jinlarda 3,2 mm gacha, linterlarda 3 mm gacha boʻlishiga ruxsat etiladi (11-jadval).



Arra tishlarini o'tishi oqibatida oraliqning kengayishida kolosnik almashtirilguncha ishchi kamera, kengaygan oraliq arraning kameraga chiqish joyidan pastda qoldirilib, tushiriladi.

### Xulosa

Biz Kolosnikli panjaraning to'g'ri yig'ilishi butun chigitlar va tolali mahsulotlarning chiqindilarga o'tishini yo'qotib, kolosniklarning ishlash muddatini uzaytirishga erishish va tejamkor texnologiyalarni oshirish.

### References

1. Muradov R. va boshqalar. Jin mashinasi konstruksiyasini takomillashtirish yo'llari Monografiya. "Namangan" nashriyoti. -2016, 124 bet .
2. Omonov F.B. Paxtani dastlabki ishlash bo'yicha spravochnik (ma'lumotnoma) nashriyot. Toshkent 2008.
3. Wang, G.H. and Li, Y.X. (2022) Development of New Ductile Iron with Super-High Thermal Conductivity and Elongation. *Journal of Iron and Steel Research International*, **29**, 462-473. <https://doi.org/10.1007/s42243-021-00581-7>
4. Hassan, M. (2017) Characterization of Face Sheet/Core Debonding Strength in Sandwiched Medium Density Fiberboard. *Materials Sciences and Applications*, **8**, 673-684. <https://doi.org/10.4236/msa.2017.89048>
5. Ning, B., Wu, H.B., Niu, G., *et al.* (2022) Cold Compression Deformation Method for reducing Residual Stress and Uniformizing Micro-Property in Ferrite Steel. *Journal of Iron and Steel Research International*, **29**, 503-511. <https://doi.org/10.1007/s42243-021-00563-9>
6. Azizov, S.M. and Axmedhodjaev, X.T. (2016) The Optimal Modeling of an Angular Position of Saw Cylinders in Single-Chamber Two Cylinders Gin. *American Journal of Mechanical and Industrial Engineering*, **1**, 103-106. <https://doi:10.11648/j.ajmie.20160103.2>
7. Wang, Y.D., Zhang, L.F., Yang, W., *et al.* (2022) Effect of Nozzle Type on Fluid Flow, Solidification, and Solute Transport in Mold with Mold Electromagnetic Stirring. *Journal of Iron and Steel Research International*, **29**, 237-246. <https://doi.org/10.1007/s42243-021-00577-3>
8. Azizov, S.M. and Axmedhodjaev, H. (2015) Theoretical Analysis of Gin Cylinder for Simulating Dual Saw Cylinder Chamber Gin for Increasing Wear Proof,

Energy Efficient, Saving Resources. *World Journal of Engineering and Technology*, **3**, 91-99.

9. Azizov, S., Ibrohimov, M., Uzoqov, F. and Mirzakarimov, M. (2021) The Modelling and Introductions of New Type Ribs of Lattice of the Two Cylinder of Gin. *E3S Web of Conferences*, **273**, Article ID: 07020. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202127307020>

10. Jiang, D.B., Zhang, L.F. and Wang, Y.D. (2022) Effect of Mold Electromagnetic Stirring on Solidification Structure and Solute Segregation in Continuous Casting Bloom. *Journal of Iron and Steel Research International*, **29**, 124-131. <https://doi.org/10.1007/s42243-021-00702-2>

11. Briseno, J. and Casanova-del-Angel, F. (2021) Fracture Mechanics on Aluminum Specimens. *World Journal of Mechanics*, **11**, 237-257. <https://doi.org/10.4236/wjm.2021.1112016>

12. Mamatovich, A.S. and Abdusamat, K. (2011) Definition of Increasing the Fibre Capturing Surface of Saw Teeth of Cotton Ginning Machine through Mathematic Modelling. *World Journal of Mechanics*, **1**, 122-126. <https://doi.org/10.4236/wjm.2011.13017>

13. Azizov, S., Uzoqov, F., Mirzakarimov, M. and Usmanov, O. (2021) Analysis of Namangan 77 Cotton in Production Line with Different Saw Gins for Short Fiber Yield. *E3S Web of Conferences*, **273**, Article ID: 07021. <https://doi.org/10.4236/wjm.2011.13017>



## O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik muloqot usullarining o'zlashtirish jarayoniga ta'siri va ahamiyati

*Osiyo Xalqaro Universiteti*

*Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi*

*Xalilova Shaxlo Ravshanovna*

**Annotatsiya:** Maqolada o'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik muloqot usullarining o'zlashtirish jarayoniga ta'siri tahlil etilgan. Bundan tashqari pedagogik muloqot usulini to'g'ri qo'llash orqali, talabalarni odob-ahloqi, mavzuni o'zlashtirish bilan bog'liq jihatlari maqolada aks etgan. O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik muloqot usullarining o'zlashtirish jarayoniga ta'siri atroflicha tahlil etilgan.

**Аннотация:** В статье анализируется влияние методов педагогического общения на процесс усвоения в профессиональной деятельности учителя. Кроме того, при правильном использовании метода педагогического общения в статье отражены манеры учащихся и аспекты, связанные с освоением предмета. Подробно проанализировано влияние методов педагогического общения на процесс усвоения в профессиональной деятельности учителя.

**Abstract:** The article analyzes the influence of pedagogical communication methods on the mastering process in the teacher's professional activity. In addition, by using the method of pedagogical communication correctly, the manners of students and aspects related to mastering the subject are reflected in the article. The impact of pedagogical communication methods on the mastering process in the teacher's professional activity has been thoroughly analyzed.

**Калит сўзлар:** Muloqot, pedagogik muloqot, ta'lim tizimi, muloqot usullari, fikrlash tarzi, nutq madaniyati, o'zlashtirish jarayoni va muomala odobi, kasbiy faoliyat.

**Ключевые слова:** Общение, педагогическое общение, образовательная система, методы общения, образ мышления, культура речи, учебный процесс и этикет, профессиональная деятельность.

**Key words:** Communication, pedagogical communication, educational system, communication methods, way of thinking, speech culture, learning process and etiquette, professional activity.

Inson o'zini qurshab olgan olam bilan o'zaro birgalikdagi harakati, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy hayoti va ishlab chiqarish faoliyati jarayonida topadigan



munosabatlar tizimi yuz beradi. Kishilar ish jarayonida tabiat bilangina emas, balki bir birlariga ham o'zaro ta'sir o'tkazadilar. Bir birlari bilan fikr almashib o'zaro muloqot qiladilar. Muloqot jarayoni pedagog kasbiy faoliyatining eng muhim qismi hisoblanib, bugungi kunda o'qituvchi pedagogik muloqot uslubini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham islohotlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlar zamirida yosh avlodning tarbiyasi, ta'limi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Buning yorqin misolini Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning "Bizni o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ko'proq his etadigan kim- yoshlar. Mayli yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lishsin. Lekin ayni payda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida aks sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin.

Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan"<sup>1</sup>- degan fikrlaridan anglashimiz mumkin. Ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlarning muloqot madaniyatini rivojlantirish ta'lim sifati va ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimidagi xalqaro tajriba hamda ta'lim tizimiga qo'yilgan bugungi davr talablarini inobatga olgan holda o'qituvchi pedagogik muloqot uslublarini o'zlashirish jarayoniga ta'sirini chuqur tadqiq etish va bu borada kerakli tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarda pedagogik muloqot uslublarni takomillashtirish, ta'lim tizimida tarbiyaviy va ta'limga oid jarayonlarga ta'sir ko'rsatish, talabalar motivatsiyasilarini shakllantirishda muhim omil ekanligi, shuningdek, ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini samarali tashkil etish, salohiyatni ko'tarish, talabalarning bilim va ko'nikmalarini oshirish nuqtai nazaridan zarurati maqolamizning dolzarbligini yanada oshiradi.

Pedagogik muloqot – bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda o'zi uchun eng qulay bo'lgan psixologik muhitni vujudga keltirib,

<sup>1</sup> Ma'lumot manbai-Uza.uz sayti "Shavkat Mirziyoyev:Yoshlar tarbiyasi – eng muhim masalalardandir" ma'ruza matni.

ijobiy ruhiy iqlimni yaratish uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatdir<sup>2</sup>. Bugungi pedagog kadrlar zimmasida buyuk ma'naviyatimizni tiklash va milliy ta'lim-tarbiya tizimi takomillashtirish, zamon talablari bilan uyg'unlashtirib, jahon andozalari darajasiga chiqarish kabi bir qator vazifalar turadi. Buning asosiy omillaridan biri esa pedagogik muloqot jarayonidir. Muloqot - ta'lim oluvchi psixologik va ijtimoiy rivojining muhim omillaridan biri bo'lib, birgalikdagi faoliyatda umumiy natijalarga erishish, shaxslararo munosabatlarni yo'lga qo'yish va qo'llab-quvvatlash maqsadida ikki yoki undan ortiq kishilarning o'zaro harakati tushuniladi. O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muloqotda suhbatdoshni yoki tinglovchini idrok etish bir-birini tushunish asosiy shartidir. Agar o'qituvchi o'quvchilarni uni qanday idrok etayotganligini anglayolmasa pedagogik muloqot o'z maqsadiga yetmaydi. Ayniqsa, ma'ruza o'tayotganda bu juda muhimdir. Agar hamsuhbatni ko'rish orqali idrok etish imkoniyati bo'lmasa, qo'l barmoqlari va yuz harakatlari orqali bo'ladigan imo-ishoralar kambag'allashib, harakatlar erkinligini yo'qotib qo'yadi.

Hamsuhbatning fe'li atvorini idrok etish chog'ida olinadigan signallar shaxsning keyingi harakatlari va fikrlarini to'g'irlab borish uchun asos bo'ladi. O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogning jismoniy qiyofasidagi ayrim belgilar yuz, qo'llar va yelka harakatlari, o'zini tutishlari, gavdasini qimirlatib imo-ishora qilishlari, so'zlash ohangi axborot tashuvchilar sifatida xizmat qiladi. Muomala motivatsiyasi samarali bo'lishi uchun birinchi navbatda gapni masalaning qo'yilishidan boshlash mumkin, bu masalada bo'lajak suhbatning ma'nosi mujassamlashgan bo'ladi. Mavzuga diqqatni tortishga urinib ko'rish ham mumkin, bunda gapni erkin, qiziqarli faktni ma'lum qilishdan boshlasa bo'ladi, keyin uni tushuntirish va tahlil qilish esa muomalaning mazmunini tashkil etadi. Mana suhbatga o'quvchilarning diqqati jalb qilindi, ham deylik, endi uning mavzusini ancha qisqa, lekin yetarli darajada aniq qilib ochib berish vazifasi turadi. Buni qanday amalga oshirish mumkin. Masalan, suhbatni tuzishning bunday varianti bo'lishi mumkin.

Dastlab, pedagog talabalar ongi va hissiyotiga yetkazmoqchi bo'lgan asosiy fikr qisqacha bayon etiladi. So'ngra u ochib beriladi, buning uchun faktlar, misollar va illyustratsiyalar tizimi bayon qilinadi. Bunda erkin taqqoslashlar, kutilmagan

<sup>2</sup> Xoliqov A. Pedagogik mahorat Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011  
www.ziyouz.com kutubxonasi 118-bet.

o'xshatishlardan foydalanish juda foydali bo'ladi. Shundan keyin xulosa chiqarish, ya'ni suhbatning asosiy fikrini boshqacha so'zlar bilan takrorlash mumkin. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Biz uchun muomala jamiyati ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga moneylik qilmaydi, aksincha yordam beradi"<sup>3</sup>. Muomala maqsadini bu xilda ta'riflash talabalar muomalasining asosiy ikki turi: rollararo va shaxslararo muomalaning nisbiy mustaqilligi sharoitida uning dialektik birligini ko'rsatib beradi.

Muomala vaqtida odoblilik muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning muvaffaqiyatli kelishini ta'minlaydi. Uning asosiy vazifalari (axborot almashinuv, o'zaro ta'sir, o'zaro idrok qilish) to'g'ri amalga oshirishni idora qilib turadi. Har bir fikr bildirilganda muloqot qabul qilinayotganini fahmlab turishi tashqi ko'rinishlari, o'zgarishiga e'tibor berish, uzr so'rash, tavoze bilan murojaat qilish evaziga muomala odobi ushlab turiladi. Muomala jarayonida bir xatti - harakat o'ylanmay bildirilgan fikr, ortiqcha imo - ishora odobsizlikni keltirib chiqaradi. Odobsizlik esa nizoli vaziyat, qarama - qarshilik ziddiyatli holatni keltirib chiqaradi. Buning natijasida muomala fikr almashuv o'zini vazifasini nizoli vaziyatga bo'shatib beradi. Yangi tarkib topgan talabalar jamoasini birlashtirish, ular orasida iliq do'stona munosabatni shakllantirish ziddiyatlarni oldini olish lozim.

Amaliy mashg'ulot jarayonida qo'llanishi mumkin bo'lgan "Jungle sardori" interfaol o'yinni birgalikda ko'rib chiqamiz. Mazkur interfaol o'yin ishtirokchilarni muloqot jarayonida "odobni odobsizdan o'rgan" naqliga asoslanadi. Tezkor qaror chiqarish, fikrni uqtirabilish, o'zgaralar ishonchini qozonish va iqtidorini maksimal darajada namoyon eta olish qobilyatini shakllantiradi. Maskur o'yin guruhdan 5ta talabgor ayirib eshik ortiga chiqarishdan boshlanadi. Talabalarning "Lideri"dan sardor tayinlanadi. Jamoadagilar istagiga qarab kanizaklari, soqchilar va maslahatchilar tayinlanib, aylana shaklida o'tiriladi. Eshik ortidagi talabgorlar "tutqinlar" hisoblanadi va ular qo'llari orqada qadalgan holda "Sardor" oldiga olib kelinadi. Tutqinlar ozod bo'lishi uchun Jungleda yangilik olib kirishlari yoki qoyilmaqom tarzda sardor bilan muloqotga kirishib, jamoa ishonchini oqlashlari zarur. Tutqinlarga nisbatan qarorni "Sardor" jamoa bilan kelishgan holda chiqaradi. Agar tutqinlarni saqlab qolish

<sup>3</sup> I. A. Karimov. "O'zbekiston buyuk kelajak sari". Toshkent: O'zbekiston, 1998-yil554-bet.



istagida bo‘lishsa qo‘llari bilan bosh barmoq tepada ko‘tarilgan holda “zo‘r” ishorasida yovvoyilarcha “Ozod” so‘zini takrorlaydilar yoki yordamchi, ishchi, oshpaz kabi ishlar bilan ta‘minlashadi. Bilaks, aytgan yangiliklari yoqmay, iqtidorlaridan to‘laqonli foydalanilmagan holatda o‘zlarini namoyon qila olmagan tutqinlarga nisbatan qo‘llari bilan bosh barmoq pastga tushirilib “Go‘sh” so‘zini takrorlaydilar. Ularni cho‘ri va shunga o‘xshagan og‘ir ish bilan shug‘ullanishga majbur qiladilar.

Ramziylikka ega ushbu metodning asosida pedagogik muloqotning eng keng tarqalgan uch turi yaqqol farqlanadi: avtoritar, demokratik va liberal.

**Avtoritar uslubni** qo‘llovchi o‘qituvchining muloqot metodlari sifatida buyruq, ko‘rsatma berish va tanbeh xizmat qiladi. Avtoritar uslub - o‘qituvchi guruhning faoliyat yo‘nalishini, kim qayerda, nima ish bilan shug‘ullanishini shaxsan o‘zi belgilaydi. Hamkorlikning asosiy shakli - buyruq, ko‘rsatma, instruktsiya, ogohlantirish.



**Demokratik uslub** - o‘qituvchi faoliyat maqsadini har bir o‘quvchi ongiga etkazishga, hammani faol ishtirok etishga undaydi. Faollikni rag‘batlantiradi, tashabbusni quvvatlaydi. Muloqotning asosiy shakli - iltimos, maslahat, axborot tarzida bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi jamoa fikriga tayangan holda ish tutadi, faoliyat maqsadini barcha ta‘lim oluvchiga etkazishga harakat qiladi. Bu uslubni qo‘llovchi o‘qituvchi barcha jamoa a‘zolarining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ular o‘rtasida vazifalarni teng bo‘lishga harakat qiladi. O‘qituvchi individual qobiliyat va qiziqishlarni hisobga olib vazifalarni optimal tarzda taqsimlashga undaydi.



**Liberal uslub** – boshqacha qilib aytganda, anarxik. O‘qituvchi jamoa hayotiga umuman aralashmaslikka harakat qiladi, faolligi sust, muammolarni yuzaki ko‘rib chiqadi. Boshqalarning ta‘siriga oson tushib qoladi. Ma‘suliyatdan o‘zini olib qochadi va o‘z avtoritetini yo‘qotadi. Liberal uslubda o‘qituvchi jamoa faoliyatiga aralashmaslikka harakat qiladi, faollik ko‘rsatmaydi, maslahatlarga formal qaraydi,



turli ta'sirlarga tez beriladi. Tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga demokratik yondashish, tarbiyaviy ishlar natijasini oshkora muhokama qilish va uni o'quvchilar bilan birgalikda baholab, kelgusi rejalarni tuzishni taqozo etadi. Bu uslub pedagog – o'qituvchi – o'quvchilar kollektivi shaxslararo munosabatlarni erkinlik, demokratik talablar asosida shakllantirib, o'quvchilarning tashabbuskorligi, o'z – o'zini tarbiyalash ishiga ijodiy yondashish orqali barcha psixologik - individual imkoniyatlarini, qobiliyatini ro'yobga chiqarishga zamin yaratadi. Bundan tashqari pedagogik muloqot jarayonida yana boshqa uslublar ham mavjud bo'lib, ulardan biri o'quvchilar bilan do'stona munosabat - pedagogik uslubi. U o'quvchi shaxsini hurmat qilish va talabchanlik mezoni asosida qurilgan. Ushbu uslub asosida o'z faoliyatini tashkil etgan pedagog har o'quvchining kelajagiga umid bilan qarashi, unga individual yondoshishga harakat qilishi, jazo usullarini tartibsiz qo'llamasligi, o'quvchilar kollektivi oldiga istiqbolli tarbiyaviy maqsad qo'yishga intilishi lozim. Aslida bu uslub biz ko'rib o'tgan birinchi uslubga o'tishga zamin tayyorlashi, unga muqaddima bo'lishi mumkin. Aksincha, o'qituvchi ma'lum pedagogik mohiyatga ega bo'lishga intilmasa, o'z fanidan bilimi sayoz bo'lsa, shaxslararo munosabatlarga ijodiy yondoshmasa, kommunikativ qobiliyatini takomillashtirib bormasa o'quvchilar uni "katta birodar", "konsultant" sifatida asta - sekin tan olmay qo'yishadi. Pedagog o'zining tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishdagi etakchilik rolini yo'qotib, o'quvchilar hurmatini engil yo'l bilan qozonmoqchi bo'lgan bachkana shaxsga aylanib qolishi mumkin.

Shu bilan birga pedagogik muomalada masofa uslubi ham mavjud bo'lib, bunda tajribali pedagoglar ham, faoliyatini endi boshlagan yosh o'qituvchilar ham foydalanishga harakat qilishlari mumkin. O'qituvchilar asosan pedagogik talabga tayanadilar: o'quvchilar oldiga ma'lum tarbiyaviy maqsadlarni qo'yib, uni bajarilish jarayonini kuzatish, xatolarini tuzatish, baholash bilan mashg'ul bo'ladilar. Bunday pedagoglar o'qitayotgan sinflarda tarbiyaviy maqsadlar nomigagina amalga oshiriladi. Tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilarda xatti - harakat motivlari, rivojlanish ehtiyojlarini shakllantirmaydi. Nari borsa, sinf o'quvchilari axloqiy bilimlarni o'zlashtirib olishlari mumkin. Bundan tashqari yana bir uslub mavjud bo'lib, odatda yosh, tajribasiz o'qituvchilar foydalanishga harakat qiladilar. Ushbu uslub asosan taqiqlashga tayanadi. Bu pedagogik muloqotning qo'rqitishga asoslangan uslubi. Talabalar faolligi, tashabbuskorligi inkor etiladi. Bu uslub oliy ta'lim islohoti manfaatlariga

mutlaqo mos emas. 5. Ustunlik qilishga harakat qilish uslubi ham mavjud bo'lib, uni odatda ma'lum bilimlarga ega bo'lmagan, pedagog sifatida o'ziga ishonchi yo'q, sinfda o'quvchilar kollektivini boshqara olishga ko'zi yetmagan ayrim o'qituvchilar qo'llashga harakat qiladilar. Ammo o'quvchilar ertami - kechmi bu nayrangbozlikning oxiriga etadilar. Buning oldi olinmasa, guruhda tarbiyaviy ishlarga jiddiy putur yetishi mumkin.

O'quvchilar hurmatini qozonishga intilish pedagogik maqsad bo'libgina qolmay, balki tarbiya maqsadlarini amalga oshirish vositasi hamdir. O'z - o'zidan ko'rinib turibdiki, birinchi va ikkinchi pedagogik uslublar tarbiyaviy faoliyatda yaxshi samara beradi. Uchinchi, to'rtinchi va beshinchi pedagogik uslublardan pedagoglar iloji boricha o'zlarini halos qilishlari kerak. O'qituvchining talabalarga ta'sir o'tkazish samarasi uning printsiptalligi va talabchanligi o'z aksini topadi. Bundan tashqari u o'ziga ham o'ta talabchan bo'lmog'i, shaxsiy namunasi bilan tabiiy ravishda obro', e'tibor qozonmog'i lozim.

Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham muloqot yuritishdan iborat. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo'lamiz<sup>4</sup> Amaliy muloqot mazkur tarkibiy qismlarning yig'indisi sifatida yuzaga chiqadi. Pedagogik jarayonda muloqot faqat bir funksiya – axborot berish bilan chegaralanadi. Biroq muloqotning barcha tarkibiy qismlari – axborot almashuv va vazifalarni amalga oshirish, o'zaro munosabatlarni tashkil etish, bola shaxsini bilish va unga ta'sir ko'rsatishdan foydalanish zarur. O'qituvchining o'quvchilar bilan bo'lgan muomalasining muvaffaqiyatli bo'lishi, ko'p jihatdan unda pedagogik qobiliyatning mavjudligiga va pedagogik nazokat (odobi)ni egallaganiga bog'liq bo'ladi.

Shaxsning xususiyati bo'lgan dilkashlikni atrofdagilar bilan barqaror, kuchli rivojlangan aloqalarga intilish sifatida ta'riflash mumkin, bu intilish odamlar bilan tez aloqa o'rnatish bilan birga qo'shib olib boriladi. Dilkashlik va odamlarga aralashmaslikni shaxs xususiyatlari sifatida qarab chiqish ekstravert va introversiya

<sup>4</sup>Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. Toshkent: Turon-iqbol, 2006. 5-bet.



tushunchalari bilan bog‘liq ravishda samarali bo‘ladi. Ekstroversiya bilan introversiya kishining ruhiy tavsifi sifatida muloqot sohasida yorqin namoyon bo‘ladi. Ekstroversiya — individning tashqi dunyoga, introversiya — ichki dunyoga nisbatan qarashidir.<sup>5</sup> Ekstravert shaxslarga umumiy faollik, osoyishtalik, ta`sirlarga moyillik xosdir. Introvertlar ichki olamga berilgan, odamlarga aralashmaydigan, o‘z-o‘zini nazorat qilishga, refleksiyaga, ichki xavotirlikka moyil bo‘ladilar. Albatta, o‘ta introvertlar bilan ekstravertlar favqulodda hodisa bo‘lib, individlar bu ikki chetki nuqtalar o‘rtasidagi oraliqda joylashadilar. Dilkashlik ko‘proq ekstravert tiplarga, odamlarga aralashmaslik esa introvert tiplarga xosdir. Talabalar bilan munosabatlar sohasidagi eng muhim ijtimoiy yo‘l - yo‘riqlarning ayrimlari ana shulardan iboratdir. O‘qituvchida ularning mavjudligi uning pedagogik nazoratga rioya qilishining zamini va sharti hisoblanadi.

Shunday xulosaga kelish mumkinki, O‘qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik muloqot uslublaridan to‘g‘ri foydalangan holda, o‘zlashtirish jarayoniga ijobiy ta’sir etiladi. Ularni ilm olishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiriladi.

Ta’lim tizimi sifati va samaradorligini ta’minlash uchun avvalo pedagoglar, professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi muloqot ma’daniyati va uslubi to‘g‘ri tashkil etilgan bo‘lishi lozim. Aqliy zakovat va ruhiy-ma’naviy salohiyat-ma’rifatli insonning ikki qanotini tashkil qilar ekan, muloqoti orqali pedagog o‘z kasbining fidoiyiligini amalda ko‘rsata olishi lozim.

Biz ko‘z oldimizga birinchi darsni keltira olsak, o‘sha paytdagi hayajonni, quvonchni, ijodiylik hissini tuyamiz. Bolalar bilan bo‘lgan damlarimiz esda qolishi, xotiramizda undan iz qolishi, muloqot uslubiga bog‘iliq. Pedagog kommunikativ muloqotining mahsuldor bo‘lishi uchun pedagogik ta’sir kuchining tizimlarini, uning har bir qismini bilishi zarur. Dars jarayonida o‘qituvchi qaysi usulni qo‘llayotganini doimo eslab turishi kerak. Buning uchun pedagog ikkita muhim muammoni hisobga olishi: — o‘zining xatti-harakatini to‘g‘ri tashkillashtirishi; — kommunikativ ta’sir samaradorligini ta’minlashi zarur. Pedagogik faoliyat jarayonidagi muloqotni quyidagicha tavsiflash mumkin: 1) o‘quvchi va pedagog muloqoti tizimining umumiy tuzilishi (muloqotning aniq usuli); 2) pedagogik faoiyatning aniq bosqichi uchun xos bo‘lgan muloqot tizimi; 3) aniq pedagogik va kommunikativ masalalarni yechishda

<sup>5</sup>Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. Toshkent: Turon-iqbol, 2006. 26-bet.





namoyon bo'ladigan muloqotning vaziyatli tizimi. Pedagog va ta'lim oluvchilarning ijtimoiy-psixologik ta'sir xususiyatlarini muloqot uslublari orqali quyidagicha tushunish mumkin: a) pedagogning kommunikativ imkoniyatlari; b) pedagog va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar tabiati; d) pedagogning ijodiy individualligi; e) o'quvchilar jamoasining xususiyatlari (Kan — Kalik. Учителю о педагогическом общении. 97-bet). Muloqot uslublari quyidagilar kiradi: 1. Hamkorlikdagi ijodiy faoliyatga qiziqish asosidagi muloqot. 2. Do'stona munosabatlar asosidagi muloqot. 3. Masofadan turib muloqotga kirishish. 4. Qo'rqitish (qo'rquv) asosidagi muloqot. 5. Soxta obro'-e'tibor qozonish uchun tashkil qilinadigan muloqot. Birinchi uslub asosini pedagogning yuqori kasb etikasi (axloqi) tashkil etadi. Bu uslub haqida M.O. Knebel, I.P. Volkov, V.F. Shatalovlar o'z fikrlarini bildirganlar. Ularning fikricha, bolalar bilan bo'ladigan munosabat va pedagogik hissiyotlar mana shu uslub asosida shakllanadi. Ikkinchi uslub asosan do'stona munosabatlar, o'quv-tarbiyaviy faoliyatda shakllanadi. Do'stona munosabatlar muloqotning boshqarilishini ta'minlaydi. Maroqlilik bilan do'stona munosabat birgalikda rivojlanadi. Pedagog bir tomondan bolalar uchun yaqin o'rtoq, ikkinchi tomondan birgalikdagi faoliyat qatnashchisi bo'lishi lozim. Uchinchi uslub, ya'ni masofadan turib muloqotga kirishish muhim ahamiyatga ega. Pedagog bilan o'quvchi o'rtasida muayyan masofa bo'lishi kerak. Masofa juda uzoq bo'lmasligi lozim. Aks holda rasmiyatchilik kuchayib, ijodiylik muhiti shakllanmaydi. Pedagog masofani saqlasa obro'-e'tibori ortadi. To'rtinchi uslub — qo'rqitish asosidagi muloqot bo'lib, bu uslub muloqotning negativ shaklidir. Ba'zi pedagoglar o'quvchilarni qo'rqitish orqali muloqotda bo'ladilar. Chunki ularda pedagogik mahorat yaxshi shakllanmagan bo'ladi. Ayniqsa, katta auditoriyada ma'ruza o'qiydigan ma'ruzachilar auditoriyani shu uslub asosida boshqaradilar. Juda qattiq turib, tinglovchilarni qo'rqitib pedagogik muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshiraman, deb hisoblovchilar yanglishadi. Bu o'zaro tushunishga to'sqinlik qiladi. Beshinchi uslub — soxta obro'-e'tibor qozonish uchun tashkil qilinadigan muloqot bo'lib, yosh o'qituvchilar malakasi yetarli bo'lmagani uchun yolg'on ishlatadilar. Bu bilan o'qituvchi o'quvchi bilan tezroq muloqotda bo'lib olishga harakat qiladi. Bunday usulni qo'llaydigan pedagogda umumiy pedagogik va kommunikativ madaniyat yetishmaydi. Demak, pedagoglarning fikricha, birinchi va ikkinchi uslub asosida muloqotga kirishishigina yaxshi natijalarga olib keladi.

Psixologiyada turli tipdagi boshqaruvchilarning ijtimoiy psixologik portreti ishlab chiqilgan bo'lib, unda ularning boshqaruvida bo'lgan jamoa bilan muloqoti texnikasi tahlil qilingan. O'qituvchi ham pedagogik jarayonda muloqotning eng keng tarqalgan uch turidan foydalanadi: avtoritar, demokratik va liberal.

Avtoritar uslub. Ta'lim oluvchilar faoliyatiga tegishli barcha masalalarni, hattoki kim qayerda o'tirishigacha o'qituvchi yakka o'zi hal qiladi, ta'lim oluvchilar tomonidan ko'rsatiladigan barcha tashabbusni taqiqlaydi. Bu uslubni qo'llovchi o'qituvchining muloqot metodlari sifatida buyruq, ko'rsatma berish va tanbeh xizmat qiladi. Avtoritar uslub - o'qituvchi guruhning faoliyat yo'nalishini shaxsan o'zi belgilaydi, kim - kim bilan o'tiradi, kim bilan ishlaydi o'qituvchi o'zi hal qiladi. Bunday uslubda ish yurituvchi o'qituvchi o'quvchilar tashabbusiga yo'l bermaydi. Hamkorlikning asosiy shakli - buyruq, ko'rsatma, instruktsiya, ogohlantirish. Hatto kamdan kam bildiriladigan minnatdorchilik ham kamsitish shaklida bo'ladi. "Sen bugun yaxshi javob berding. Sendan buni kutmovdim" kabi. O'quvchi xatosini ko'rsa, uni tuzatish o'rniga ustidan kuladi. U yo'qligida ish sekinlashadi yoki butunlay to'xtab qoladi.

Demokratik uslub - o'qituvchi faoliyat maqsadini har bir o'quvchi ongiga etkazishga, ish borishini hal etishga hammani faol ishtirok etishga undaydi. O'zining vazifasini faqat nazorat va muvofiqlashtirishda emas, balki tarbiyalashda deb biladi. Har bir o'quvchi rag'batlantiriladi, unda o'ziga ishonch paydo bo'ladi. Faollikni rag'batlantiradi, tashabbusni quvvatlaydi. Muloqotning asosiy shakli - iltimos, maslahat, axborot tarzida bo'ladi. Bunda o'qituvchi jamoa fikriga tayangan holda ish tutadi, faoliyat maqsadini barcha ta'lim oluvchiga etkazishga harakat qiladi, faoliyatning kechishini muhokama qilishga barchani jalb etadi. O'z vazifasini faqat nazorat va munofiqlashtirish deb bilmay, tarbiya bilan ham shug'ullanadi; barcha ta'lim oluvchilarni rag'batlantiradi va ularda o'z-o'ziga ishonchni shakllantiradi; jamoada o'z-o'zini boshqarish rivojlanadi. Bu uslubni qo'llovchi o'qituvchi barcha jamoa a'zolarining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ular o'rtasida vazifalarni teng bo'lishga harakat qiladi. Tashabbus va faollikni rag'batlantiradi, o'qituvchi bolalarning individual qobiliyat va qiziqishlarini hisobga olib vazifalarni optimal tarzda taqsimlashga undaydi. Faollikni rag'batlantiradi, tashabbusni

quvvatlaydi. Bunday o'qituvchining muloqotda qo'llaydigan metodlari – iltimos, maslahat, axborot berishdir.

Liberal uslub – boshqacha qilib aytganda, anarxik. O'qituvchi jamoa hayotiga umuman aralashmaslikka harakat qiladi, faolligi sust, muammolarni yuzaki ko'rib chiqadi. Boshqalarning ta'siriga oson tushib qoladi. Ma'suliyatdan o'zini olib qochadi va o'z avtoritetini yo'qotadi. Liberal uslubda o'qituvchi jamoa faoliyatiga aralashmaslikka harakat qiladi, faollik ko'rsatmaydi, maslahatlarga formal qaraydi, turli ta'sirlarga tez beriladi. Javobgarlikdan o'zini olib qochadi. Eng yaxshi uslub - demokratik uslubdir. Miqdoriy ko'rsatkichlar avtoritar uslubdan kam bo'lishi mumkin, lekin ishlash ijtiyoqi rahbar yutug'ida ham davom etadi. Ijodkorlik yuqori bo'ladi, javobgarlik hissi, o'z jamoasi uchun faxrlanish rivojlanadi.

O'qituvchilar talabalar axloq tarbiyasida qo'llashi mumkin bo'lgan

quyidagi asosiy pedagogik uslub turlari mavjud:

1. Tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga demokratik yondoshish, tarbiyaviy ishlar natijasini oshkora muhokama qilish va uni o'quvchilar bilan birgalikda baholab, kelgusi rejalarni tuzishni taqozo etadi. Bu uslub pedagog – o'qituvchi – o'quvchilar kollektivi shaxslararo munosabatlarni erkinlik, demokratik talablar asosida shakllantirib, o'quvchilarning tashabbuskorligi, o'z – o'zini tarbiyalash ishiga ijodiy yondashish orqali barcha psixologik - individual imkoniyatlarini, qobiliyatini ro'yobga chiqarishga zamin yaratadi.

2. O'quvchilar bilan do'stona munosabat - pedagogik uslub. U o'quvchi shaxsini hurmat qilish va talabchanlik mezoni asosida qurilgan. Ushbu uslub asosida o'z faoliyatini tashkil etgan pedagog har o'quvchining kelajagiga umid bilan qarashi, unga individual yondoshishga harakat qilishi, jazo usullarini tartibsiz qo'llamasligi, o'quvchilar kollektivi oldiga istiqbolli tarbiyaviy maqsad qo'yishga intilishi lozim. Aslida bu uslub biz ko'rib o'tgan birinchi uslubga o'tishga zamin tayyorlashi, unga muqaddima bo'lishi mumkin. Aksincha, o'qituvchi ma'lum pedagogik mohiyatga ega bo'lishga intilmasa, o'z fanidan bilimi sayoz bo'lsa, shaxslararo munosabatlarga ijodiy yondoshmasa, kommunikativ qobiliyatini takomillashtirib bormasa o'quvchilar uni "katta birodar", "konsultant" sifatida - sekin tan olmay qo'yishadi. Pedagog

o'zining tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishdagi etakchilik rolini yo'qotib, o'quvchilar hurmatini engil yo'l bilan qozonmoqchi bo'lgan bachkana shaxsga aylanib qolishi mumkin.

3. Pedagogik muomala - masofa uslubi. Bundan tajribali pedagoglar ham, faoliyatini endi boshlagan yosh o'qituvchilar ham foydalanishiga harakat qilishlari mumkin. O'qituvchilar asosan pedagogik talabga tayanadilar: o'quvchilar oldiga ma'lum tarbiyaviy maqsadlarni qo'yib, uni bajarilish jarayonini kuzatish, xatolarini tuzatish, baholash bilan mashg'ul bo'ladilar. Bunday pedagoglar o'qitayotgan sinflarda tarbiyaviy maqsadlar nomigagina amalga oshiriladi. Tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilarda hatti - harakat motivlari, rivojlanish ehtiyojlarini shakllantirmaydi. Nari borsa, sinf o'quvchilari axloqiy bilimlarni o'zlashtirib olishlari mumkin. 4. Qo'rquvga asoslangan uslub. Bundan odatda yosh, tajribasiz o'qituvchilar foydalanishga harakat qiladilar. Ushbu uslub asosan taqiqlashga tayanadi. Talabalar faolligi, tashabbuskorligi inkor etiladi. Bu uslub oliy ta'lim islohoti manfaatlariga mutlaqo mos emas. 5. Ustunlik qilishga harakat qilish uslubi. Uni odatda ma'lum bilimlarga ega bo'lmagan, pedagog sifatida o'ziga ishonchi yo'q, sinfda o'quvchilar kollektivini boshqara olishga ko'zi yetmagan ayrim o'qituvchilar qo'llashga harakat qiladilar. Ammo o'quvchilar ertami - kechmi bu nayrangbozlikning oxiriga etadilar. Buning oldi olinmasa, guruhda tarbiyaviy ishlarga jiddiy putur yetishi mumkin. O'quvchilar hurmatini qozonishga intilish pedagogik maqsad bo'libgina qolmay, balki kommunistik tarbiyamaqsadlarini amalga oshirish vositasi hamdir. O'z - o'zidan ko'rinib turibdiki, birinchi va ikkinchi pedagogik uslublar tarbiyaviy faoliyatda yaxshi samara beradi. Uchinchi, to'rtinchi va beshinchi pedagogik uslublardan pedagoglar iloji boricha o'zlarini halos qilishlari kerak. O'qituvchining talabalarga ta'sir o'tkazish samarasi uning printsiptalligi va talabchanligi o'z aksini topadi. Bundan tashqari u o'ziga ham o'ta talabchan bo'lmog'i, shaxsiy namunasi bilan tabiiy ravishda obro', e'tibor qozonmog'i lozim.

Pedagogik muloqotda quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- Kommunikativ muloqot: bir tomonlama axborot uzatiladi;
- Interaktiv muloqot: ikki tomonlama bir-biriga ta'sir etishdir;
- Perseptiv muloqot: o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi o'zaro bir-birlarini idrok qilishi, anglashi tushuniladi.



Muomalaning tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy sifatleri bilan belgilanishini aytib o'tish kerak. Pedagogik muomalaning to'g'ri tanlangan, pedagogning betakror individualligiga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi. Birinchidan, pedagogik ta'sir ko'rsatish pedagog shaxsi bilan ayni bir narsa bo'lib qoladi, auditoriya bilan muomalada bo'lish jarayonining o'zi soddalashadi, u pedagogning o'zi uchun yoqimli, uzviy bo'lib qoladi. Ikkinchidan, talabalar bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish jarayoni ancha engillashadi. Uchinchidan, pedagogik muomalaning barcha eng muhim vazifalarining, samaradorligi ortadi, shu bilan birga bularning hammasi muomalaning barcha bosqichlarida pedagogning hissiy xotirjamligining ijobiy negizida ro'y beradi.

Ko'pincha yosh pedagoglar, talabalar har doim o'qituvchiga o'z diqqatlarini qaratishlari lozim deb hisoblaydilar va o'zaro fikr almashishga doir bu muhim vazifalarni sobit qadamlik bilan hal qilmaydilar.

Ko'rsatib o'tilgan bevosita muomala bosqichlari pedagogik ta'sir ko'rsatishning nisbatan mustaqil, har bir ko'rinishida vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadi, tarbiyaviy jarayonni tashkil etganda ularni nazarda tutish kerak bo'ladi.

Muloqot jarayonida pedadogga qo'yiladigan talablardan: Tarbiyachi jamoa, guruh va individual ish olib borish jarayonida odamlar bilan muomala qila bilishi, uni talabalar bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda tashkil eta olishi va ularni boshqara bilishi lozim. Kasb-korga oid pedagogik dilkashlikning yosh o'qituvchi amal qiladigan quyidagi mezonlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin: talabalar bilan turli sohalarda muntazam muomala qilishda barqaror ehtiyojning mavjudligi, muomalaning barcha bosqichlarida hissiy osoyishtalikning namoyon bo'lishi, o'zaro fikr almashishga doir sifatlar, ko'nikmalar va malakalarning mavjudligidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. A. Xoliqov "Pedagogik mahorat" Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011 y.
2. "Shavkat Mirziyoyev:Yoshlar tarbiyasi – eng muhim masalalardandir" ma'ruza matni.
3. I. A. Karimov. "O'zbekiston buyuk kelajak sari". Toshkent: O'zbekiston, 1998-yil.

4. M.A.Maxsudova Muloqot psixologiyasi. Toshkent: Turon-iqbol, 2006. Xalilova Shaxlo Ravshanovna. (2023). Bo'lajak o'qituvchi pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish texnologiyasining zamonaviy modellari va ularni qo'llash metodlari. *Journal of Universal Science Research*, 1(9), 223–234. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/195>
5. Xalilova Shaxlo Ravshanovna. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI. *Journal of Universal Science Research*, 1(8), 131–139. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/1717>
6. Xalilova Shaxlo Ravshanovna. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI. JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH, 1(8), 131–139. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8239719>
7. Ravshanovna, X. S. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILAR VA O'QUVCHILAR O 'RTASIDAGI MULOQOT JARAYONI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR. *Лучший инноватор в области науки*, 1(1), 814-819.
8. XALILOVA, S. (2021). JAHON PEDAGOGIKASIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK MULOQOT VA MILLIY PEDAGOGIK MULOQOT USLUBLARIGA TRANSFORMATSIYASI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 1(1).
9. Mustafoev, K. (2023). LOOPER MECHANISM OF THE SEWING MACHINE. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(4), 16-18.
10. Isomova, F. A. T. Q. (2022). MAKTABGACHA TALIM TASHKIOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 947-949.
11. Bahodirovna, H. N. (2023). TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O 'QITISH MUAMMOSINING YORITILISH MAZMUNI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 209-209.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

**Harbiy qismlarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash usullari**  
**NIYOZOV SODIQ RAXIMOVICH**  
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI**  
**MODDIY TA'MINOTI KAFEDRASI KATTA O'QITUVCHISI**

**Annotatsiya**

Harbiy qismlarda oziq-ovqat xavfsizligi muhim ahamiyatga ega. Bu harbiy xizmatchilarimiz va xotin-qizlarimizning farovonligi va salomatligini, bo'linmaning har tomonlama tezkor shayligini ta'minlaydi. Ushbu maqola harbiy sharoitlarda oziq-ovqat xavfsizligining ahamiyatini ta'kidlash va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va tayyorlashda yuqori standartlarni qanday saqlash haqida kerakli ma'lumotlarni taqdim etishga qaratilgan. Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha tegishli protokollarga rioya qilish orqali harbiy qismlar oziq-ovqat bilan bog'liq kasalliklarning oldini olishlari va o'z xodimlarining salomatligi va samaradorligini saqlab qolishlari mumkin.


**Kalit so'zlar:** Shaxsiy gigiena, mikroorganizm, bakteriyalar, viruslar, parazitlar, HACCP, ingredient, USDA, FDA.

Oziq-ovqat xavfsizligining asosiy tamoyillari oziq-ovqat mahsulotlarini oziq-ovqat orqali yuqadigan kasalliklar xavfini minimallashtiradigan tarzda tayyorlash, saqlash va xizmat ko'rsatishni ta'minlash uchun muhim asosdir. Bu tamoyillarga quyidagilar kiradi:

**Shaxsiy gigiena:** To'g'ri shaxsiy gigiena amaliyotlari, masalan, qo'l yuvish va toza kiyim kiyish, zararli bakteriyalar yoki ifloslantiruvchi moddalarni oziq-ovqatga o'tkazishning oldini olish uchun juda muhimdir.

**O'zaro kontaminatsiyaning oldini olish:** oziq-ovqat bilan kiruvchi bakteriyalar o'zaro kontaminatsiya orqali bir oziq-ovqatdan boshqasiga o'tishi mumkin. O'zaro kontaminatsiyaning oldini olish xom va pishirilgan ovqatlarni alohida saqlash, turli xil oziq-ovqat turlari uchun alohida kesish taxtalaridan foydalanish, idishlar va sirtlarni to'g'ri tozalash va tozalashni o'z ichiga oladi.

**Oziq-ovqat mahsulotlarini xavfsiz saqlash:** Oziq-ovqat mahsulotlarini to'g'ri saqlash oziq-ovqat sifatini saqlashga yordam beradi va bakteriyalarning ko'payishini oldini oladi. Bu oziq-ovqatlarni tegishli haroratlarda saqlash, tez buziladigan narsalarni zudlik bilan muzlatgichda saqlash va qoldiqlarni to'g'ri saqlashni o'z ichiga oladi.





Pishirish va isitish harorati: Oziq-ovqatlarni tegishli ichki haroratiga qadar pishirish zararli bakteriyalarni o'ldirish uchun juda muhimdir. Oziq-ovqat termometridan foydalanish ovqatlar tavsiya etilgan xavfsiz ichki haroratgacha pishirilishini ta'minlashi mumkin va qoldiqlarni yaxshilab qayta isitish ham muhimdir.

Oziq-ovqat xavfsizligi qoidalari va ko'rsatmalariga rioya qilish:

Oziq-ovqat xavfsizligi qoidalari va ko'rsatmalariga rioya qilish oziq-ovqat xavfsizligining yuqori standartlarini saqlab qolish uchun juda muhimdir. Ushbu qoidalar ko'pincha oziq-ovqat va farmatsevtika idorasi (FDA), Amerika Qo'shma Shtatlari Qishloq xo'jaligi departamenti (USDA) yoki boshqa mamlakatlardagi shunga o'xshash organlar kabi davlat idoralari tomonidan o'rnatiladi.

Oziq-ovqat xavfsizligi qoidalari oziq-ovqat mahsulotlarini to'g'ri ishlatish, saqlash, qadoqlash va tashish kabi turli jihatlarni qamrab oladi. Ushbu qoidalar oziq-ovqat korxonalarining oziq-ovqat yuqadigan kasalliklar xavfini kamaytiradigan va iste'molchilar salomatligini himoya qiladigan tarzda ishlashini ta'minlashga qaratilgan.

Oziq-ovqat korxonalarini oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha tegishli amaliyotlarni joriy etish, xodimlarni oziq-ovqat mahsulotlarini to'g'ri qayta ishlash va saqlash bo'yicha o'qitish, muntazam tekshiruvlar o'tkazish va tegishli hisob yuritish amaliyotlarini olib borish orqali ushbu qoidalarga rioya qilishlari kerak.

Harbiy qismlarda oziq-ovqat xavfsizligi xodimlarining roli:

Harbiy qismlarda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xodimlar oziq-ovqat tayyorlanishi va qo'shinlarga xavfsiz yetkazib berilishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ularning majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

Ta'lim: Oziq-ovqat xavfsizligi xodimlari harbiy oshpazlar va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlovchilarga oziq-ovqat mahsulotlarini to'g'ri ishlatish amaliyoti, shaxsiy gigiena va oziq-ovqat xavfsizligi protokollariga rioya qilish muhimligi bo'yicha trening va ta'lim beradi.

Tekshiruv va monitoring: Bu xodimlar oziq-ovqat xavfsizligi qoidalari rioya etilishini ta'minlash uchun oziq-ovqat tayyorlash joylari, saqlash joylari va xizmat ko'rsatish joylarini muntazam ravishda tekshiradi va nazorat qiladi. Ular oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash amaliyoti, asbob-uskunalar tozaligi va umumiy gigiena standartlarini tekshiradilar.

Xavfni tahlil qilish va uni baholash: Oziq-ovqat xavfsizligi xodimlari oziq-ovqat ishlab chiqarishdagi potentsial xavflarni aniqlash va ularni oldini olish yoki nazorat







qilish strategiyalarini ishlab chiqish uchun xavf tahlili va xavflarni baholashni amalga oshiradilar. Ular tegishli nazorat choralari amalga oshirish uchun boshqa xodimlar bilan hamkorlik qiladilar.

Oziq-ovqat yuqadigan kasalliklarga javob: oziq-ovqat bilan bog'liq kasalliklarning tarqalishiga shubha qilingan yoki tasdiqlangan taqdirda, oziq-ovqat xavfsizligi xodimlari hodisani tekshiradi, ifloslanish manbasini aniqlaydi va keyingi holatlarning oldini olish uchun zarur choralarni ko'radi. Ular to'g'ri davolash va profilaktika choralari bo'yicha ko'rsatmalar berish uchun tibbiyot xodimlari bilan hamkorlik qiladilar.

Harbiy qismlardagi oziq-ovqat xavfsizligi xodimlari ushbu muhim rollarni bajarish orqali xavfsiz va foydali oziq-ovqat iste'molini ta'minlash orqali harbiy xizmatchilarning salomatligi va farovonligini himoya qilishga yordam beradi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash aholi salomatligini muhofaza qilish va oziq-ovqat yuqadigan kasalliklar tarqalishining oldini olish uchun ham juda muhimdir. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator muammolarni hal qilish kerak:

Joylashtirish va dala sharoitlari: Asosiy qiyinchilik - oziq-ovqat mahsulotlarini tashish, saqlash va qayta ishlash kabi turli xil joylashtirish va dala sharoitlarida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash. Turli xil muhit va sharoitlar oziq-ovqat xavfsizligini buzishi mumkin bo'lgan ifloslanish yoki noto'g'ri ta'sir qilish xavfini oshirishi mumkin. Oziq-ovqat ta'minoti zanjirining har bir bosqichi uchun tegishli protokollar va ko'rsatmalarni amalga oshirish juda muhimdir.

Cheklangan resurslar va infratuzilma: Ko'pgina mintaqalar, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, oziq-ovqat xavfsizligi chora-tadbirlarini qo'llab-quvvatlash uchun cheklangan resurslar va yetarli darajada infratuzilma mavjud emas. Bunga moliya, texnologiya, omborxonalar va toza suvdan foydalanishning yetishmasligi kiradi. Ushbu cheklovlar ko'pincha yomon sanitariya amaliyotiga olib keladi, bu esa oziq-ovqat ta'minoti xavfsizligini ta'minlashni qiyinlashtiradi.

Oziq-ovqat orqali yuqadigan kasalliklar bilan bog'liq potentsial xavflar: Oziq-ovqat orqali yuqadigan kasalliklar iste'molchilarning sog'lig'iga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Ushbu kasalliklarga patogen mikroorganizmlar, masalan, bakteriyalar, viruslar va parazitlar sabab bo'ladi, ular oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va tarqatishning turli bosqichlarida ifloslantirishi mumkin. Muammo xavflarni tahlil qilishning tanqidiy nazorat nuqtasi (HACCP) tizimlarini joriy etish va





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

oziq-ovqat xavfsizligi standartlarini monitoring qilish kabi samarali oldini olish va nazorat qilish choralari orqali ushbu xavflarni aniqlash va minimallashtirishdan iborat.

Oziq-ovqatlarni tegishli haroratlarda saqlash: go'sht, sut mahsulotlari va tayyor ovqatlar kabi tez buziladigan oziq-ovqatlarni 40°F (4°C) yoki undan past haroratda, muzlatilgan ovqatlarni esa 0°F (-18°C) haroratda saqlash zarur.

atrofdagi jismoniy va ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri haqida xulosa chiqarish imkonini beradigan ajralmas vosita ekanligi isbotlangan. Kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, kulolchilik buyumlari va devorlarni bezashda ishlatilgan sirlangan spoldan foydalanish X-XII asrda Buxoroda ham juda yaxshi rivojlangan bo'lib Buxorodagi Masjidi Kalon memoriy obidasi bunga yaqol misol bo'ladi. **Buxoroning eski shahar qismida joylashgan Masjidi Kalon rivojlangan va so'nggi o'rta asrlarning o'ziga xos me'moriy inshooti bo'lib Mo'g'ollar bosqini vaqtida vayron etilgan buyuk Jomiy masjidi o'rnida, Shayboniylar davrida Masjid Kalon sifatida qayta qurilgan**[1]. O'rta Osiyoda saqlanib qolgan Juma masjidlari orasida Bibixonimdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bu bir vaqtning o'zida 12 000 kishilik sig'imga ega. Arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, hozirgi masjid ostida ko'xna masjid qoldiqlari bor. Ko'xna masjid qoraxoniylardan Arslonxon (1102-1130) hukumronligi yillarida 1121-yilda qurilgan. Arslonxon qurdirgan masjidining o'lchamlari mavjud bino bilan bir xil bo'lgan [2-3] Masjidning hozirgi ko'rinishining ko'pgina qismlari Shayboniylar sulolasiga mansub xonlar Ubaydullaxon, Abdulazizxon va Abdullaxon davrida qurilgan [4-5]. 1514-yilda u qayta qurila boshlagan va XVI asrning o'rtalarida uning bunyod etilishi yakunlangan. Bu masjid Samqanddagi Bibixonim masjidiga o'xshash kompozitsion tuzilishi jihatidan qadimiy tipda qurilgan.[6] Me'moriy obidaning bunyod etilishida xom va pishgan g'isht, loy, yog'och, tosh, ganch va chorsu pishiq g'ishtidan kyeng foydalanilib mzayka va mayolika usulda sirlangan koshinlar bilan bezatilgan. [7] Bu yerda ayniqsa nafis naqshlar bilan bezatilgan mehrob (XVI asr) diqqatni jalb etadi. 1997 yili Buxoro shahrining 2500 yilligiga tayyorgarlik jarayonida Poyi Kalon me'moriy majmuasida Masjidi Kalon, Mir Arab madrasasi kabi jami yigirma sakkizta madaniy myeros inshooti to'liq ta'mirlandi. Buxoro shahri markazidagi tarixiy me'moriy yodgorliklar, jumladan, Masjidi Kalon ham YuNYeSKO jahon madaniy myerosi ro'yxatiga kiritildi.[8]








### 1-rasm Kalon masjidining yuqoridan olingan tasviri.

O'rtta Osiyoda arablar hukmronligi davrida qurilish texnikasi takomillashtirilgan binolar IX-X-asrlarda asosan gishtdan qurilgan. Monumental binolarda gumbazli konstruktsiyalar keng qo'llanilgan. Islom dinining tirik mavjudotlar tasvirini man etishi tasviriy san'atning o'sishiga imkon bermadi, balki rassomlik rivojlana boshladi. Masjidlar, maqbaralar, saroylar, madrasalar naqshlar bilan bezatila boshlandi. VII-IX-asrlarda ayniqsa Buxoro viloyatida badiiy uslub rivojlangan. XII-asrning Afro-oq sopol idishlarda naqshlar, gullar va baliq va qushlar kabi hayvonlarning tasvirlari mavjud bo'lib ular turli ranglarda sirlangan. [9] Har bir mintaqa va hukmron sulola o'z uslubi yoki savdo belgisini ishlab chiqqanlar, shu sababli turli davir va mintaqalarda turlicha dezain, ranglar va uslublarni keltirib chiqargan. Eng qadimgi ishqorli sirlangan buyumlar Misr va Yaqin Sharqda miloddan avvalgi 4- ming yillikda (ilk sulola davri) uchraydi. Yuqori va past haroratli sirlash usullari bo'lgan yuqori haroratli sir ~ 1100-1350°C orasida haroratiga ega bo'lib (CaO va BaO) kabi ishqoriy yer metal oksidlaridan foydalanilgan ammo oz miqdorda Na<sub>2</sub>O, CaO va yoki K<sub>2</sub>O qo'shib ham yuqori haroratli sirlarni olish mumkin. Qo'rg'oshin sirlari - bu qo'rg'oshin oksidi (PbO) dan oqartiruvchi vosita sifatida olingan va past haroratda pishirilgan. Harorat odatda ~ 900-1050 °C da qo'rg'oshin oksidi to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishi mumkin SiO<sub>2</sub> ni







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

oladigan joydagi qum bilan aralashtiriladi. Eron va O‘zbekistondan topilgan eramizning IX-XII asrlariga oid sopol buyumlar ham yuqori qo‘rg‘oshinli sirlangan. Rang hosil qilish uchun xromofor elementlaridan (Fe, Mn, Cu, Co va Cr) sirga umumiy rang berish uchun sirda eritiladi.[10] Arxitektura inshootlarini bezash uchun ishlatiladigan plitkalar bir necha ming yillar oldin qadimgi Misr va Bobilda odamlar tomonidan ishlatilgan bulsada O‘rta asrlarda Osiyodan bunday materialni ishlab chiqarish texnikasi Evropaga kirib bordi. [11] Misrning loydan plitka yasash bo‘yicha birinchi san‘ati Mavriy Ispaniya ustalari tomonidan qabul qilingan, chunki bu ikki davlat o‘rtasida barqaror savdo aloqalari mavjud edi. Ispaniyalik hunarmandlar tomonidan tayyorlangan kulolchilik buyumlari Italiyaga ham yetkazib berildi [12].

### **Materiallar va metodologiya**

**Namunalar Buxoroning eski shahar qismida joylashgan Shayboniylar davriga tegishli Masjidi Kalon memoriy yodgorligining qurilishida ishlatilgan MK-A 28,5 sm ga 18,3 smli va MK-B 29 sm ga qavariq tomoni 18,5 smli ikkita yirik mayolika bo‘laklari element tarkibini o‘rganish uchun tanlab olindi. Sopol namunalari yuqori aniqlikdagi energiya dispersiv rentgen-fluoresans (EDXRF) spektrometri yordamida analiz qilindi.**






**2-rasm. Kalon masjidi devorlarini beazda ishlatilgan malialika bo'laklari.**

**Natijalar taxlili.** Keramika jismlarining kimyoviy tahlili va ketma-ket statistik analitik ma'lumotlarni qayta ishlash amalga oshirildi. NEX DE energiya dispersive rentgen fluoessenti spektrometri yordamida MK-A va MK-B larning turli qismlaridan olingan element spektral taxlili namuna tarkibida Si, K, Ca, Ti, Mn, Fe, Zn, Rb, Sr, Y va Zr kabi elementlar borligini ko'rsatdi. Sifat tahlil shuni ko'rsatadiki ikkala namuna tarkibida ham umumiy elementlar borligi spol namunalarning yasalishi va pishirilishi





o'xshash ekanligini ko'rsatadi..




3-rasm. MK-A va B namunalarning NEX DE spektori tasviri.

Sopol namunaning MK-A1 qismidagi qora sirlangan joydan olingan natijalar taxlilini jadval ko'rinishida qudagicha bo'ldi.

No.	Component	Result	Unit	Stat. Err.	LLD	Element line	Intensity(cps/μA)
1	Na	ND	mass%				
2	Mg	ND	mass%				
3	K	6,12	mass%	0,0841	0,106	M:K-Kα	0,52073
4	Ca	8,11	mass%	0,0793	0,120	M:Ca-Kα	1,08081
5	Ti	0,359	mass%	0,0126	0,0226	M:Ti-Kα	0,10715
6	V	0,104	mass%	0,0063	0,0139	M:V-Kα	0,05072
7	Cr	0,0426	mass%	0,0039	0,0099	M:Cr-Kα	0,03285
8	Mn	9,56	mass%	0,0260	0,0062	M:Mn-Kα	10,95952
9	Fe	1,57	mass%	0,0100	0,0159	M:Fe-Kα	2,88984
10	Co	0,0288	mass%	0,0020	0,0051	M:Co-Kα	0,06917
11	Ni	0,0219	mass%	0,0010	0,0022	M:Ni-Kα	0,07941
12	Cu	1,50	mass%	0,0052	0,0017	M:Cu-Kα	7,22685
13	Zn	0,0290	mass%	0,0008	0,0016	M:Zn-Kα	0,19977
14	Al	2,56	mass%	0,0312	0,0594	L:Al-Kα	0,56334
15	Si	38,4	mass%	0,0406	0,0141	L:Si-Kα	31,60661
16	P	0,428	mass%	0,0053	0,0108	L:P-Kα	0,64716
17	S	ND	mass%	0,0089	0,0301	L:S-Kα	0,00000
18	Cd	ND	mass%				
19	Pb	24,8	mass%	0,0264	0,0015	M:Pb-Lα	146,64366
20	Sn	5,87	mass%	0,116	0,185	M:Sn-Lα	0,31471
21	Sb	(0,488)	mass%	0,131	0,409	M:Sb-Lα	0,02921
22	Zr	0,0397	mass%	0,0007	0,0018	M:Zr-Kα	0,69729

4-rasm. MK-A1 namunaning NEX DE da olingan elementlarning jadval ko'rinishi.





Mayolika sirtidagi qora rangni element analiz natijalarni taxlil qilish namuna tarkibidagi qora rangni Mn elementi birikmasi xosil qilishini sifat va miqdor jixatdan ko`rsatdi bu rang aslida qora emas balki to`q jigarrang ekanligi ko`rinadi. Buning isboti sifatida Mn ning (II) va (III) oksidlari tabiatda binafsha va jigarrang ko`rinishida bo`ladi. Ammo Mn (II) oksidi nisbatan beqaror bo`lib Mn (III) oksidi bilan muozanatda bo`ladi rishqoriy muhitning yaratilishi oksidlar aralashmasidagi Mn (III) oksidining miqdorini oshiradi bu esa binafsha -jigarrang efektini oshiradi.


MK-A2 nuqtadan olingan analiz natijalarni namuna tarkibida K, Ca, Fe, Cu, Al, Si, Zn, Pb, Sb lar borligini sifat analiz qilsa miqdori jadval ko`rinishda quydagicha bo`ladi.(5-rasm)

Yashil rangli namuna bo`yicha NEX DE tahlillarini o`tkazish bilan kimyoviy tarkibi mis mavjudligi isbotlasa qolgan elementlar ummumi barcha analizlarda spol maxsulotlarini sirlashda ishlarilgan deyish mumkin.

No.	Component	Result	Unit	Stat. Err.	LLD	Element line	Intensity(cps/ $\mu$ A)
1	Na	ND	mass%				
2	Mg	ND	mass%				
3	K	5,11	mass%	0,0943	0,164	M:K-K $\alpha$	0,48135
4	Ca	9,06	mass%	0,0894	0,0941	M:Ca-K $\alpha$	1,29974
5	Ti	0,387	mass%	0,0145	0,0250	M:Ti-K $\alpha$	0,12818
6	V	ND	mass%				
7	Cr	ND	mass%				
8	Mn	0,0885	mass%	0,0037	0,0069	M:Mn-K $\alpha$	0,11596
9	Fe	1,27	mass%	0,0088	0,0050	M:Fe-K $\alpha$	2,67321
10	Co	(0,0145)	mass%	0,0018	0,0049	M:Co-K $\alpha$	0,04640
11	Ni	0,0214	mass%	0,0011	0,0024	M:Ni-K $\alpha$	0,10213
12	Cu	3,17	mass%	0,0078	0,0017	M:Cu-K $\alpha$	20,03379
13	Zn	0,0267	mass%	0,0008	0,0018	M:Zn-K $\alpha$	0,23968
14	Al	3,20	mass%	0,0321	0,0560	L:Al-K $\alpha$	0,82058
15	Si	34,3	mass%	0,0380	0,0139	L:Si-K $\alpha$	32,43306
16	P	0,957	mass%	0,0065	0,0103	L:P-K $\alpha$	1,75308
17	S	ND	mass%	0,0096	0,0339	L:S-K $\alpha$	0,00001
18	Cd	5,14	mass%	0,151	0,255	M:Cd-L $\alpha$	0,19480
19	Pb	34,3	mass%	0,0396	0,0017	M:Pb-L $\alpha$	235,59820
20	Sn	ND	mass%				
21	Sb	2,85	mass%	0,157	0,439	M:Sb-L $\alpha$	0,17845
22	Zr	0,0288	mass%	0,0009	0,0024	M:Zr-K $\alpha$	0,51654

5-rasm. MK-A2 namunaning NEX DE da olingan elementlarning jadval ko`rinishi.

Bundan tashqari XRF tomonidan tahlil qilingan namunalarning yashil bezaklarining kimyoviy tarkibida surmaning mavjudligi zaffera deb ataladigan asosiy tarkibiy qismlar bo`lgan kobalt, nikel va mishyakdan iborat ya'ni ko`k rangga javob







beradigan birikma yuqori haroratida zaffera qatlami qo‘shilib yashil rang hosil qilishini ko‘rishimiz mumkin.

Spektrofluorimetr natijalari har-bir element uchun aloxida ligi biz namuna tarkibidagi ranglarni taxlil qilishda birmuncha qulayliklarga va sifat jixatdan boho berishga imkon beradi. Miqdor jixatdan esa ularning yasalishi pishirish harorati haqida dastlabki xulosalarni beradi. Ko‘k rang nafaqat mayolika bezaklarida balkiy spol buyumlarni keng miqiyosda Bo‘yashda juda ko‘p ishlatilgan rang sifatida takidlasak mubolag‘a bo‘lmaydi buning asosiy sabablarridan biri esa ko‘k rangning yorqinligi va olinishi deyishimiz mumkin. Ko‘k rangni Co (II) oksidi xosil qiladi kobltning bu oksidi ikki xil tetra va oktaeydral fazoviy shaklda bo‘ladi tetraedral shaklda CoO o‘ksidi ko‘k okdaeral shaklda esa binafsha rangda bo‘ladi. Bu ikkala fazoviy shakl birgalikda uchrasada ishqoriy muxit yuqori tempaturada pishirish ko‘balt ikki oksidini ko‘k rangda bo‘lishni taminlaydi.

No.	Component	Result	Unit	Stat. Err.	LLD	Element line	Intensity(cps/ $\mu$ A)
1	Na	ND	mass%				
2	Mg	ND	mass%				
3	K	8,54	mass%	0,0913	0,0831	M:K-K $\alpha$	0,84679
4	Ca	7,31	mass%	0,0701	0,0690	M:Ca-K $\alpha$	1,10478
5	Ti	0,201	mass%	0,0098	0,0205	M:Ti-K $\alpha$	0,07664
6	V	ND	mass%				
7	Cr	ND	mass%				
8	Mn	0,165	mass%	0,0038	0,0059	M:Mn-K $\alpha$	0,24643
9	Fe	6,50	mass%	0,0161	0,0035	M:Fe-K $\alpha$	15,45627
10	Co	1,85	mass%	0,0074	0,0075	M:Co-K $\alpha$	6,69606
11	Ni	0,0166	mass%	0,0010	0,0027	M:Ni-K $\alpha$	0,08229
12	Cu	0,0932	mass%	0,0013	0,0014	M:Cu-K $\alpha$	0,59165
13	Zn	0,0419	mass%	0,0008	0,0013	M:Zn-K $\alpha$	0,38139
14	Al	2,14	mass%	0,0256	0,0486	L:Al-K $\alpha$	0,63522
15	Si	52,7	mass%	0,0395	0,0110	L:Si-K $\alpha$	56,64533
16	P	0,481	mass%	0,0053	0,0101	L:P-K $\alpha$	0,78674
17	S	ND	mass%	0,0073	0,0265	L:S-K $\alpha$	0,00000
18	Cd	ND	mass%				
19	Pb	19,4	mass%	0,0224	0,0012	M:Pb-L $\alpha$	158,32927
20	Sn	ND	mass%				
21	Sb	(0,515)	mass%	0,114	0,340	M:Sb-L $\alpha$	0,03646
22	Zr	0,0404	mass%	0,0006	0,0014	M:Zr-K $\alpha$	1,00918

**6-rasm.** MK-A3 namunaning NEX DE da olingan elementlarning jadval ko‘rinishi.

Bundan tashqari Cu elementining birikmalari ham ko‘k rangning intinsivligining oshishiga yordam beradi. (6- rasm).

Oq rang qadimdan sirlangan spol buyumlarning asosini bo‘yashda keng ko‘lamda ishlatilgan sirlangan spol maxsulotlar dastlab oq ranga keyin esa






ustida turli ranglar orqali bezak berish yoki xar-xil ranglarni bir-biridan ajratishda chegara sifatida keng qo‘lanilgan. Bu rangni olish ham qadimda unchalik qiyin bo‘lmagani quydagi jadvalni taxlil qilish orqali bilish umkin.

No.	Component	Result	Unit	Stat. Err.	LLD	Element line	Intensity(cps/ $\mu$ A)
1	Na	ND	mass%				
2	Mg	ND	mass%				
3	K	5,87	mass%	0,0871	0,123	M:K-K $\alpha$	0,55379
4	Ca	5,40	mass%	0,0822	0,180	M:Ca-K $\alpha$	0,80449
5	Ti	ND	mass%				
6	V	0,109	mass%	0,0065	0,0139	M:V-K $\alpha$	0,05593
7	Cr	ND	mass%				
8	Mn	0,387	mass%	0,0060	0,0065	M:Mn-K $\alpha$	0,48114
9	Fe	3,87	mass%	0,0140	0,0040	M:Fe-K $\alpha$	7,69152
10	Co	0,769	mass%	0,0056	0,0067	M:Co-K $\alpha$	2,31338
11	Ni	0,0162	mass%	0,0010	0,0025	M:Ni-K $\alpha$	0,07124
12	Cu	0,0601	mass%	0,0011	0,0016	M:Cu-K $\alpha$	0,34644
13	Zn	0,0230	mass%	0,0007	0,0015	M:Zn-K $\alpha$	0,18905
14	Al	2,61	mass%	0,0288	0,0532	L:Al-K $\alpha$	0,67191
15	Si	41,6	mass%	0,0384	0,0125	L:Si-K $\alpha$	39,53569
16	P	ND	mass%				
17	S	ND	mass%	0,0059	0,0293	L:S-K $\alpha$	0,00000
18	Cd	ND	mass%				
19	Pb	26,1	mass%	0,0282	0,0014	M:Pb-L $\alpha$	185,85451
20	Sn	12,6	mass%	0,156	0,180	M:Sn-L $\alpha$	0,75409
21	Sb	(0,564)	mass%	0,138	0,436	M:Sb-L $\alpha$	0,03761
22	Zr	0,0242	mass%	0,0007	0,0018	M:Zr-K $\alpha$	0,49376

7-rasm. MK-B1 namunaning NEX DE da olingan elementlarning jadvali.

Oq rangni hosil qilishda (Sn) qalay elementidan foydalanganligini namuna tarkibida boshqa rang xosil qiluvchi elementlarga qaraganda qalayning ko‘p (12,6%) ekanligi miqdor jixatdan o‘zini isbotlab turibdi. Oq rangni olishda qalaydan foydalanish qadimda qalay mirallarining ko‘pligi va arzonligi rang olishning imkonini oshirgan. MK-B2 nuqtadagi sariq rangdan olingan natijalar yuqoridagi natijalar kabi umumiy elementlar va aloxida sariq rang xosil qiluvchi moddalar mavjudligini ko‘rsatadi.





No.	Component	Result	Unit	Stat. Err.	LLD	Element line	Intensity(cps/ $\mu$ A)
1	Na	ND	mass%				
2	Mg	ND	mass%				
3	K	2,56	mass%	0,0739	0,147	M:K-K $\alpha$	0,28915
4	Ca	9,96	mass%	0,110	0,225	M:Ca-K $\alpha$	1,83019
5	Ti	ND	mass%				
6	V	0,172	mass%	0,0085	0,0161	M:V-K $\alpha$	0,09932
7	Cr	0,116	mass%	0,0055	0,0104	M:Cr-K $\alpha$	0,10839
8	Mn	0,159	mass%	0,0048	0,0074	M:Mn-K $\alpha$	0,22184
9	Fe	2,58	mass%	0,0133	0,0047	M:Fe-K $\alpha$	5,73141
10	Co	0,0292	mass%	0,0025	0,0067	M:Co-K $\alpha$	0,09842
11	Ni	0,0269	mass%	0,0012	0,0024	M:Ni-K $\alpha$	0,13578
12	Cu	0,0799	mass%	0,0015	0,0020	M:Cu-K $\alpha$	0,53275
13	Zn	0,0124	mass%	0,0008	0,0019	M:Zn-K $\alpha$	0,11711
14	Al	2,60	mass%	0,0326	0,0599	L:Al-K $\alpha$	0,73740
15	Si	19,0	mass%	0,0331	0,0153	L:Si-K $\alpha$	20,51776
16	P	0,462	mass%	0,0055	0,0119	L:P-K $\alpha$	1,14990
17	S	1,25	mass%	0,0129	0,0374	L:S-K $\alpha$	8,42036
18	Cd	ND	mass%				
19	Pb	42,7	mass%	0,0446	0,0028	M:Pb-L $\alpha$	319,94728
20	Sn	17,0	mass%	0,192	0,179	M:Sn-L $\alpha$	1,19804
21	Sb	(1,33)	mass%	0,193	0,596	M:Sb-L $\alpha$	0,10282
22	Zr	ND	mass%	0,0010	0,0031	M:Zr-K $\alpha$	0,00027

### 8-rasm MK-B2 namunaning NEX DE da olingan elementlarning jadvali.

Sariqlarda kuzatilgan qo'rg'oshinning yuqori ulushi sariq rangni olish uchun juda keng tarqalgan qo'rg'oshin antimonatidan (Neapol sariq) foydalanishni ko'rsatadi. Sariq rang asosan surma oksidi emalda surma to'rtoksidi ( $SbO_2$ ) yoki metaantimon kislotasi  $nSbO_3(SbO)_m$  antimonil tuzi ko'rinishida topilgan element bo'lgan bu eng barqaror shakl bo'lib, Sb ni qizdirish orqali ham olinishi mumkin. Havoda S bilan antimonat xosil qiladi. Ushbu rangning turli xil to'q sariq ranglargacha bo'lgan turli intensivligi surma oksidi-temir oksidi aralashmasining turli nisbatlariga bog'liq. Temir Fe (III) oksidi shaklida bo'lib uning tetraedral tuzilishini hisobga olgan holda sirlar hosil bo'lishiga yordam beradi va sariqdan qizil ranggacha bo'lgan ranglar oralig'ini ta'minlaydi.

### Xulosa

Tanlangan mayolika namunalari bo'yicha rentgen fuloresens usulidan foydalangan holda qayd etilgan ma'lumotlar o'ziga xos tarzda aniqlash imkonini berdi. Mayolikani bezash uchun qo'llaniladigan ranglarning kimyoviy tarkibi tekshirish vaqtlarda xususan NEX DE spektroskopiyasi elementlarni aniqlash imkonini bergan asosiy rangli birikmalar ko'k ranglar kobalt asosidagi birikmalar yordamida olinadi, sariq ranglarda qo'rg'oshin antimoniat borligini ko'rsatadi. Jigarrang qora bezaklarda margenes topilgan, yashil rangni Cu elementining birikmalari borligini ko'rish mumkin.








### Adabiyotlar

1. Sulstonov I. Z., Maxmatqulov I. T. Scientific Analysis Of Monuments Included In The List Of Cultural Heritage Of The Islamic World In Bukhara //Journal of Architectural Design. – 2023. – Т. 15. – С. 14-23.
2. Kilichov M. The silk road at bukhara (UZBEKISTAN). Enhancing heritage and local development //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
3. М.М Ахмитов. Sh.R. Mirzayev. Me'morchilik, 1-qism me'morchilik tarixi "TAFAKKUR" nashryoti Toshkent-2010 – b.179-182
4. Khairulloevich G. D. The History of Kalon Mosque //International Journal on Integrated Education. – Т. 4. – №. 4. – С. 158-163.
5. То'raev Н. Buxoro tarixi //Durdon" nashriyoti. В. – 2020.
6. Atabekova S. Xvi asr ii yarmida shayboniylar davridagi tarixiy me'moriy obidalarini o'rganilganligi //innovation in the modern education system. – 2022. – Т. 2. – №. 24. – С. 52-60.
7. Abdullaev O. E. Architectural Image of Bukhara in the XVI-Early XX Centuries //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 12. – С. 235-242.
8. Болтаев А. СН Юренев илмий меросида ўлкамиз тарихи масалалари //центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2023. – Т. 28. – №. 28.
9. То'liqinovich T. A. Characteristics of the Architecture of Central Asia in the Developing middle Ages //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 134-138.
10. Pradell T., Molera J. Ceramic technology. How to characterise ceramic glazes //Archaeological and Anthropological Sciences. – 2020. – Т. 12. – №. 8. – С. 189.
11. Мурина Н. Основы производственного мастерства в художественной керамике. – Litres, 2022.
12. Итальянская майолика XV—XVIII веков. Собрание Государственного Эрмитажа: [альбом]. Текст А. Н. Кубе. Под. ред. О. Э. Михайловой и Э. А. Лапковской. — М: Искусство, 1976. — Список литры.: с. 68—71.
13. M.J. Baxter, C.E. Buck: 'Data Handling and Statistical Analysis'. In: Modern Analytical Methods in Art and Archaeology, ed. by E. Ciliberto, G. Spoto (Chem. Anal. Ser. 155) (Wiley Interscience, G. Wiley & Sons Inc. Publications, New York 2000)
14. А. А. Аскарлов. История материальной культуры Узбекистана. Академия наук Узбекской ССР институт археологии. Ташкент. Узбекской ССР. 1987 г 176-192 с







ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

**INGLIZ TILIDA SO‘Z BOYLGINING AHAMIYATI VA UNI  
RIVOJLANTIRISH USULLARI  
IMPORTANCE OF VOCABULARY IN ENGLISH AND METHODS OF ITS  
DEVELOPMENT**

**Abdurasulova Xumora**

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

tel:(+998)95 388-05-58

abdurasulovaxumora95@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada ingliz tilini chet tili sifatida o‘ganayotgan davlatlardagi yuqori sinf o‘quvchilari uchun so‘z boyligining o‘rni qanchalik darajada ekanligi va uni oshirishda duch kelinadigan qiyinchiliklarga yechim sifatida samarali va ko‘pchilik uchun osonlik bilan o‘zlashtirsa bo‘ladigan bir necha usullari haqida ma‘lumot beriladi.

***Kalit so‘zlar:** Beginner, Elementary, Intermediate, Advanced, Proficiency, Develop a reading habit, Use the dictionary and the sources, Listen to English sources, Enhanced writing.*

**ABSTRACT**

This article examines the importance of vocabulary for high school students in countries where English is taught as a foreign language, and how effective and accessible it can be for many as a solution to the challenges faced in increasing it. How many methods are given.

***Keywords:** Beginner, Elementary, Intermediate, Advanced, Proficiency, Develop a reading habit, Use the dictionary and thesaurus, Listen to English sources, Enhanced writing.*

**KIRISH**

Mamalakatimizda chet tillarini, shu jumladan ingliz tilini o‘rganuvchi yoshlarning soni kundan-kunga oshib bormoqda, bu esa, chet tillarini o‘qitish va uni bilgan mutaxassislar uchun yaratilayotgan qulayliklarning samarasidir. Har bir tilni o‘ganishda o‘quvchidan talab qilinadigan eng muhim ko‘nikma hisoblanga so‘z boyligi ingliz tilining ham eng muhim qismi hisoblanadi. Ingliz tilini endigina o‘rganishni boshlaganlar uchun lug‘at boyligini oshirish dastlab katta qiyinchiliklarga olib keladi, bu qiyinchilikdan so‘ng til o‘rganuvchilarni katta qismining uni o‘rganishga bo‘lgan





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023


qiziqishlari soʻnishiga yoki til oʻrganishni butunlay toʻxtatishga sabab boʻladi. S.R.Mustafojevichning “5000 WORDS In a MONTH” kitobida berilgan maʼlumotlarga koʻra olimlar quyidagi xulosaga kelishgan:

- 150 ta soʻz - Beginner darajasi yaʼni odatiy suhbatlar uchun yetarli;
- 800 ta soʻz - Elementary darajasi, yaʼni chet elga sayohat uchun borgan insonlarga u yer fuqarolari bilan suhbatlashish uchun yetarli;
- 2000 – 3000 ta soʻz - Intermediate darajasi yaʼni talaba darajasi hisoblanadi. Bu darajaga erishgach bemalol suhbatlasha olish, yoza olish, kitob oʻqish va hattoki filmlarni tomosha qilib tushuna olish mumkin. Ushbu darajada IELTSdan 5,5 – 6 ball, CEFRdan B2 darasini egallash mumkin;
- 5000 – 6000 ta soʻz - Advanced darajasi, yaʼni oʻqituvchi darajasidir. Har qamday oʻqituvchi ushbu darajada boʻlishi shart hamda 5000 ta soʻz bilishi kerak. Ushbu darajada IELTSdan 7,5 - 8 ball, CEFRdan C1 egallashi mumkin;
- 10000 ta soʻz - Proficiency darajasi, yaʼni professorlar darajasi. Ushbu daraja ilmiy ishlar qilish uchun, dissertatsiya yozish uchun hamda ilmiy - texnik kitoblarni oʻqish uchun yetarli hisoblanadi va IELTSdan 9 ball, CEFRdan C2 olish mumkin.

Bundan kelib chiqadiki, ingliz tilida lugʻat boyligining oʻrni beqiyosdir. Quyidagi usullar uni oshirish va esda qolarli qilib yod olish uchun foydali hisoblanadi:

“Develop a reading habit” deb nomlanadi, bu usul soʻzlarni uzoq muddatga esda qolishini taminlaydi. Siz ingliz tilidagi turli xil matnlar, romanlar va gazetalarni oʻqish orqali koʻplab yangi soʻzlarni topish mumkin va ularni koʻz xotirasi (koʻz bilan korilgan narsalarni esda qolishi) orqali tezda eslab qolasiz. Yangi soʻzlarni bir qator qilib yodlashdan matn ichida yodlash ancha samaraliroq hisoblanadi va bu usul oraqi faqatgina soʻzni oʻzini emas uni gapda qanday vazifada kelishi va qanday maʼnolarda qoʻllanilishini bilib olish mumkin.

“Use the dictionary and thesaurus”. Online lugʻatlar va sinonimlar (maʼnodosh soʻzlar) lugʻatlardan foydalanish orqali oʻrganilayotgan soʻz haqida koʻproq malumot olish mumkin yaʼni u soʻzning sinonimlarini, tub yoki yasama soʻz ekanligi va yana boshqa turkumga oʻzgarishi yoki oʻzgarmasligi haqida maʼlumot olish mumkin. Sinonimlar lugʻatidan foydalanish orqali unga maʼnodosh soʻzlarni qanday darajadagi soʻz ekanligi va rasmiy yoki norasmiy ekanligi kabilarni bilish mumkin. Misol





tariqasida **hi** (salom) soʻzini olishimiz mumkin, bu soʻz faqatgina norasmiy joylarda qollaniladi. Agar biz uni rasmiy joylar (konferansiya, anjuman, majlislar) da ishlatsak bu soʻz xato qoʻllangan hisoblanadi.

“Listen to English sources”. Bu usul faqatgina soʻzni oʻrganmasdan uni qanday talaffuz qilinishni ham imkonini beradi. Agar inglizcha malumotlar (shorts, podcasts, news...) subtitle (ekranda yozma koʻrinishi) bilan birgalikda tomosha qilinsa oʻrganilayotgan soʻzni talaffuzi hamda yozilishini birgalikda oʻrganish imkonini beradi. Bu usulda qisqa muddatli multfilmlar, qoʻshiqlar va kinolarni koʻrish qiziqarli va samarliroq boʻladi.

“Enhanced writing”. Bu usulda yozish qobiliyatini oshirish orqali lugʻat boyligini oshirish mumkin. Yangi soʻzlarni yozayotgan insholarda koʻproq ishlatish yoki ular bilan bogʻliq boʻlgan qisqa matnlar tuzish, ularni xotirada uzoq vaqt saqlanishini taminlaydi, natijada aktiv yaʼni faol soʻzga aylanadi. Bunday soʻzlar erkin muloqatlarda, insholar yozganda faol ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda, nafaqat ingliz tilida balki barcha xorijiy tillarni oʻrganishda soʻz boyligi katta oʻrin egallaydi, muhimi uni oshirishda togʻri va darajasiga mos boʻlgan usullardan foydalanish orqali uni aktiv qilib oshirish mumkin. Agar oʻquvchi oʻz darajasidan yuqori boʻlganlarga mos boʻlgan usuldan foydalanish orqali bir mecha qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Yuqoridagi usullar elementary va intermediate darajadagi oʻrganuvchilar uchun qulay yaʼni umumiy oʻrta talim maktablarining yuqori sinflari uchun moʻljallangan.

### FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR

1. Sultonmurodov.R.M. (2020) 5000 WORDS In a MONTH-T. : Tafakkur, -286 b.
2. [https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://www.masterclass.com/articles/how-to-improve-your-vocabulary&ved=2ahUKEwjFmKDOqvWBAxUIJRAIHYCeD84QFnoECAwQBQ&usg=AOvVaw3aLoPYPsW-0OBLqMX7z\\_ZX](https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://www.masterclass.com/articles/how-to-improve-your-vocabulary&ved=2ahUKEwjFmKDOqvWBAxUIJRAIHYCeD84QFnoECAwQBQ&usg=AOvVaw3aLoPYPsW-0OBLqMX7z_ZX)
3. [https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://www.indeed.com/career-advice/career-development/how-to-improve-vocabulary-in-english&ved=2ahUKEwjFmKDOqvWBAxUIJRAIHYCeD84QfnoEC CoQAQ&usg=AOvVaw243B2q6ke1WJLw\\_9ouL9kk](https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://www.indeed.com/career-advice/career-development/how-to-improve-vocabulary-in-english&ved=2ahUKEwjFmKDOqvWBAxUIJRAIHYCeD84QfnoEC CoQAQ&usg=AOvVaw243B2q6ke1WJLw_9ouL9kk)
4. [https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://fpblog.fountasandpinnell.com/teacher-tip-15-ways-to-increase-your-students-vocabulary%3Fhs\\_amp%3Dtrue&ved=2ahUKEwjFmKDOqvWB A xUIJRAIHYCeD84QFnoECCgQAQ&usg=AOvVaw1HlcVtvO4JDiUuJy0wyipU](https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://fpblog.fountasandpinnell.com/teacher-tip-15-ways-to-increase-your-students-vocabulary%3Fhs_amp%3Dtrue&ved=2ahUKEwjFmKDOqvWB A xUIJRAIHYCeD84QFnoECCgQAQ&usg=AOvVaw1HlcVtvO4JDiUuJy0wyipU)



## THE ROLE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN EDUCATIONAL CLASSES

*Saydaliyeva Durdona Xushnudjon qizi*

*Scientific adviser: Shukurova Nodira Baxtiyorovna*

*UzSWLU 3rd English Faculty, 2nd year student 2213-group*

**Abstract:** This article gives information about pedagogical technologies and how to use them.

**Key words:** innovative, pedagogical technologies (modern teaching systems), technical means of teaching, technology.

It is known to all of us that the application of pedagogical technologies in the educational system and process is one of the urgent issues of the present time. The quality of the educational process depends on the coordinated use of the pedagogical and innovative technologies used in the lesson and the subject. Education and technology are closely related depends. Technology means the Greek word "tecne" - art and skill, "logos" - teaching, and it is a technical and is a systematic way of creating, applying and defining knowledge, taking into account human resources and their interaction. Any pedagogical technology should have a scientific basis, that is, a social, economic, pedagogical, psychological and philosophical basis. When this technology is used, under the spiritual and intellectual influence of the teacher, it is necessary to ensure that every student can use their full potential. The spiritual and moral environment in higher educational institutions should create an opportunity for the equal use of the personality of the pedagogue and the student.

In order for the effective effect of pedagogical technologies and the further increase of the quality of the lesson, the material and technical support should be at a high level, and the method of teaching the content of education should be interrelated with the personality of the teacher. Each lesson, topic, educational subject has its own technology, that is, pedagogical technology in the educational process is an individual process, which is directed to one goal based on the needs of the student, is a pedagogical process aimed at providing a pre-planned and guaranteed result.

Technical means of education - help to visually demonstrate the educational material, its systematic delivery, allow students to understand and remember the educational material. Examples of such tools can be: slide projector, overhead projector, blackboard-notebook, blackboard-stand, ... .





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

Educational tools are auxiliary materials that increase the effectiveness of teaching and, at the same time, the visual presentation of educational material.

Educational aids - graphs, drawings, samples, handouts, etc.

Educational and methodological materials - educational materials, exercises to strengthen the acquired educational materials. These help to activate students' independent work (worksheet, notes, checklist, texts).

The selection and use of various types of educational tools that help to accelerate the learning activities of students depends on the following:

1. Setting the goal;
2. To the main source of knowledge;
3. To the method of education;
4. Newness and complexity of educational material;
5. To the educational opportunities of students.

Innovative technology - (innovation in English "innovate" means innovation, innovation, and technology in Greek "technos" - art, skill and "logos" - science) means a new approach to educational forms, methods and methods.

Innovative technologies are innovations and changes in the pedagogical process and activities of teachers and students.

The success of new innovative technologies in the educational process depends on the preliminary design of the entire educational process. Also, it is important to determine in advance the level of theoretical and practical knowledge, skills and qualifications acquired by students. It also depends on the ability to predict the extent to which the goal and result should be achieved. The main part of the educational process should be spent on the process of self-management of students. Students at this stage turn to the source of additional information. This resource was created by the teacher and includes textbooks, manuals, workbooks, lectures, monographs, magazines, newspaper articles, and technical means of teaching, with which the student works on himself. In this case, the teacher allocates time according to the characteristics and complexity of the subject.

Such an approach not only increases students' interest and love for science and profession, but also creates a foundation for the formation of the worldview of each student, increasing the ability to create new ideas, and becoming a mature specialist in their profession.



**LIST OF REFERENCES USED:**

1. PEDAGOGS international research journal.
2. <https://www.redalyc.org/journal/5702/570272314022/html/>
3. [https://www.shsconferences.org/articles/shsconf/pdf/2020/15/shsconf\\_ictp2020\\_00079.pdf](https://www.shsconferences.org/articles/shsconf/pdf/2020/15/shsconf_ictp2020_00079.pdf)
4. <https://econferences.ru/index.php/arims/article/download/2499/1519>



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

**O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston paleolit va mezolit davri jamoalari moddiy madaniyatining o'rganilishi tarixi xususida**

**Urgut tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 66-maktab**

**Tarix fani o'qituvchisi**

**Mamatov Abloberdi Jumaboyevich**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston paleolit va mezolit davri jamoalari moddiy madaniyatining o'rganilishi tarixi manbalar tahlili va o'rganilgan arxeologik ma'lumotlar asosida ochib berilgan.

**Аннотация:** В данной статье на основе анализа источников и изученных археологических данных раскрывается история изучения материальной культуры палеолитических и мезолитических сообществ Центральной Азии, в частности, Узбекистана.

**Abstract:** In this article, the history of the study of the material culture of the Paleolithic and Mesolithic communities of Central Asia, in particular, Uzbekistan, is revealed on the basis of the analysis of sources and the studied archaeological data.

**Kalit so'zlar:** Poleolit, Mezolit, N.P.Xorlamov, M.V Voevodskiy va V.V.Shumov, Qayroqqum manzilgohi, Olmabuloq paleolit makoni, Omonqo'ton makoni.

**Ключевые слова:** палеолит, мезолит, Н. П. Хорламов, М. В. Воеводский, В. В. Шумов, стоянка Кайраккум, палеолитическая стоянка Олмабулок, стоянка Амонко'тон.

**Key words:** Paleolithic, Mesolithic, N.P. Khorlamov, M.V. Voevodsky and V.V. Shumov, Kayraqkum site, Olmabulok Paleolithic site, Amonko'ton site.

Farg'ona vodiysida o'tgan asr 50-yillari o'rtasida A.P.Okladnikov tomonidan Sel-ungur g'or makoni arxeologik xaritaga olingan bo'lib, undan ilk paleolit davri madaniyat izlari borligi aniqlangan. O'.Islomov 1985 yildan e'tiboran Sel-ungur g'or makonida qayta qazilma ishlarini amalga oshirib, muhim ma'lumotlarni qo'lga kiritdi. Xususan, «Farg'ona odami» topilmasini topdi.[Исламов,1996. Б.15.]. Zarafshon vohasi paleolit davri yodgorliklari borasidagi dastlabki ma'lumotlar o'tgan asr 30-yillariga to'g'ri keladi. 1931 yili Samarqand shahri markazida sun'iy ko'l qirg'og'ida dastlab N.P.Xorlamov, keyinchalik M.V Voevodskiy va V.V.Shumovlar tomonidan qidiruv shurfi qazilib qiziqarli tosh qurollari kolleksiyalari to'plandiki, bu materiallar keyingi yillarda D.N.Lev, M.Jo'raqulovlar tomonidan Samarqand makonining kashf





etilishi va bu erda tadqiqotlar olib borilishiga zamin yaratgan. 1947 yildan boshlab SamDU ekspeditsiyasi ibtidoiy tarix sohasida muxim kashfiyotlarga erishdilar. Jumladan, Omonqo'ton, Takaliksoy paleolit makonlari, ayniqsa, 1958 yildan Samarqand makoni, 1968 yildan Siyobcha, Xo'jamazgil so'nggi paleolit davriga oid makonlarni ochilishi va tadqiqot etilishi e'tiborlidir. Bu davrda 1954 -1961 yillarda Qayroqqum manzilgohi, 1954 -1955 yillarda Xo'jagur makoni, 1957 – 1964 yillarda Qorabo'ri yodgorligi, 1958–1959 –yillarda Xo'jakent, 1961-1963 Jarqo'ton, 1971-1972 yillarda Zirabuloq, 1971–1972 yillarda Qo'tirbuloq, 1962 -1970 yillarda Obirahmat, 1958-1972 yillarda Samarqand makoni kabi eng muhim yodgorliklarning tadqiq qilinishi bilan bog'liqdir. Bulardan tashqari keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar tufayli yana bir qancha yodgorliklar topilib o'rganildiki, ular O'rta Osiyo paleolit davri tarixini mazmunan ma'lum darajada boyitdi. O'tgan asr 60-70-yillari Kranovodsk yarim oroli, Mang'ishloq hududlarida V.P.Boriskovskiy tomonidan, UstYurt platosida esa E.Bijanov tomonidan ilk va o'rta paleolit davriga oid Barsakelmas pastqamligining g'arbiy va shimoliy qismi Esen qirliklarida Esen 1,2,4-6 tosh ustaxonalari, Qoraquduq, Shaxpaxti kabi yodgorliklar tadqiq etilgan. E.Bijanov shu yillar davomida Esen 3, CHuruk 12 kabi bir qator so'nggi paleolit davri yodgorliklarini tadqiq etishga erishgan. Quyi Zarafshon vohasida A.V.Vinogradov tomonidan bir qator paleolit davri yodgorliklari aniqlanib, tadqiq etilgan. Xullas, paleolit davri yodgorliklari tadqiqotiga Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston respublikalari hududlaridan, O'zbekistonning Farg'ona, Ohangaron, Zarafshon, Surxandaryo vodiylaridan, keyingi yillarda esa Qoraqalpog'istonning UstYurt o'lkasidan topilgan materiallarni ko'rsatib o'tish mumkin [Виноградов, 1981. Б.78].

Olmabuloq paleolit makoni O'rta Zarafshon vohasi Qoratepa tog' massivi shimoliy yon bag'ridan voha tomon o'z suvini oqizib chiquvchi yirik soylardan biri bo'lgan Sazog'onsoy yon qayirida joylashgan (Nurobod tumani, Sazog'on qishlog'i markazidagi Olmabuloq chashmasi yonida). Olmabuloq makoni Samarqand Davlat Universiteti arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan 2000 yili kashf etilib, 2001 yili ham tadqiqoti davom ettirilgan yodgorlik hisoblanadi. Makon tadqiqoti jarayonida qiziqarli arxeologik manbalar to'plashga, shuningdek makon stratigrafik holati, madaniy qatlami xususiyatlari borasida ham qimmatli ma'lumotlar qo'lga kiritishga erishilgan. Xususan, tosh buyumlar kolleksiyasi *levallua-mustye* texnologik uslubi asosida ishlov berilgan tosh o'zaklari, qirg'ichlar, kertuv usuli bilan ishlov berilgan







arxaik ko'rinishidagi paraqalar, pichoqsimon quollar, uchburchaksimon paykon quroli, qayroqtosh qurollari bo'laklari, hamda ishlab chiqarish chiqindilaridan iborat. Bu mehnat vositalari turmushda bajargan o'z funksiyasi, yasalish shakli, ishlov berilishi uslublari jihatidan Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Omonqo'ton kabi paleolit makonlari tosh qurollariga yaqin. Eng qizig'i ba'zi tosh qurollarda Samarqand so'ngi paleolit makoni tosh qurollariga xos texnologik uslub va xususiyatlar ham saqlanib qolingani holatlarini kuzatish mumkin. Bular Olmabuloq o'rta paleolit jamoalari moddiy madaniyatining o'ziga xos qirralarini belgilovchi omillar hisoblanadi.

Omonqo'ton makoni. Bu- g'or turidagi neondertal odamlarining makoni bo'lib, Urgut rayonining Omonqo'ton qishlog'i yaqinida joylashgan. Yodgorlik 1947 yili D.N. Lev rahbarligida SamDU ekspeditsiyasi tomonidan kashf qilindi. Makon 1947-1957 yillarda qazib o'rganildi. Arxeologik qazish ishlarida tarix fakul'tetining studentlari faol qatnashdi. Bu yodgorlik Zarafshon voxasida mustye davriga oid birinchi bor topilib o'rganilgan makon hisoblanadi. [Толстов,1948.В.43]

Qo'tirbuloq Samarqand shahridan 100 km g'arbda, Zirabuloq tog' tizmasining shu nom bilan Yuritiladigan chashma bo'yida joylashgan. Bu qarorgoh birinchi bor Arxeologiya institutining Yu.F Buryakov rahbarligidagi O'rta Zarafshon ekspeditsiyasi tomonidan 1971 yilda ro'yxatga olingan bo'lib, keyinchalik arxeolog N. Toshkenboyev tomonidan tadqiq qilindi va natijada ko'plab tosh topilma ashyolari va hayvonot dunyosi qoldig'i to'plandi [Гулямов,1966.В.158].


50- 60 yillarda vohaning o'rta oqimi va tog' bag'rlarida arxeologik qidiruv ishlari tufayli tosh asrining turli davrlariga oid, jumladan, o'rta paleolit topilmalari ham qo'lga kiritildi. Xususan, arxeolog M. R Qosimov Nurota tog' tizmasiga kiruvchi Voush tog'i qirlaridan, Urgut qishlog'i atrofida muster davri madaniyati izlari topilib, mingga yaqin tosh quollar va boshqa buYumlar yig'ib olgan edi. Shu o'rinda Samarqand atrofida o'rganilgan paleolit makonlarining o'ziga hos xususiyatlari mavjudligini qayd etish lozim. Jumladan, bu xududning muster davriga doir yodgorliklarni Qo'tirbuloq hamda Samarqand so'ngi paleolit guruhlariga birlashtirish mumkin (Djuraqulov.1987. Toshkenboyev,Suleymahoy. 1980) Bu ikkala yodgorliklar O'rta Osiyo miqyosida tayanch makonlardan hisoblanib, avvalam bor ko'p qatlamli, arxeologik manbalarga nihoyatda serob, madan qatlamlar esa davrlari o'tishi bilan buzilmasdan saqlanganligidadir. Arxeologik manbalarning o'rganilishi esa, bu yerda so'ngi paleolit madaniyati Qo'tirbuloq va Zirabuloq muster madaniyati negizida






shakllanishini etirof qilish mumkin. Binobarin, mehnat quollarini ishlab chiqarishda qo'llanilgan texnologik uslublari va so'ngi paleolit madaniyatida kuzatilgan bu boradagi muster davridan boshlab bu xududda yashagan jamoalar qo'shni yoki tutash mintaqa jamoalari guruhlarini bilan malum aloqalar o'rnatgan. Xususan, Qo'tirbuloq makoni industriyasi Surxandaryodagi Teshik- Tosh, Toshkent viloyatidagi Obiraxmat madaniyati hamda Qayroqqum topilmalariga yaqinligi borligini kuzatish mumkin. Zikr etilgan yodgorliklarning madan qatlamlaridan topilgan arxeologik industriyaning vaqt va zamonda ilk qatlamga nisbatan Yuqori qatlamlarda mehnat vositalarining tobora takomillashuvi jarayonini kuzatilishi muhim omillardan bo'lib, ularning yaratilishi doimiy mukamallashuv dinamikasini, ularning avvaliga nisbatan xilma- xilligi kabi jarayonlar kuzatilib, bu omillar mehnat taqsimotining tobora rivojlanishini ham ifodalaydi. [Толстов, 1948. Б.43]

Shunday qilib, Samarqand atrofida o'rganilgan paleolit davri madaniyatining vujudga kelishi va shakllanishini avvalombor joyli ilk va o'rta paleolit madaniyati negizida vujudga kelganligini etirof qilish mumkin. O'rta Osiyo paleolit madaniyati to'g'risida elon qilingan ko'psonli asarlarda madaniy aloqalarning bir- biriga tasiri haqida turli mulohazalar mavjud. Masalan, arxeolog D. N. Lev Samarqand paleolit madaniyatining ayrim xususiyatlarini Mo'g'il-Sibir o'lkalarida o'rganilgan paleolit yodgorliklari mavjudligini etirof qilib, ibtidoiy jamoalar madaniyati mamlakatimiz janubidan shimoliy sharqqa qarab tarqalganligiga shama qilinganligi fanda inkor qilinmaydi. Binobarin turli mintaqa va maqul ekologik burchak va vohalarda yashagan jamoalar turmush tarzida madaniy aloqalar konvergensiya, divergensiya, diffuziya, innovasiya jarayonlari asosida, vaqt va zamonda sodir bo'lganligini etirof qilish mumkin. Ammo, bu jamoalar, qanday sharoitda yashagan bo'lmasin, o'z madaniyatining avtohtonligi, mahalliy hususiyatlarni malum darajada saqlab, ezozlab, avlodlardan- avlodlarga yetkazgan. Bu kabi jarayonni Samarqand atrofida o'rganilgan paleolit madaniyatida, serob manbalar asosida kuzatish mumkin bo'lib, o'tmish yani ajdodlarimizning Markaziy Osiyo madaniyati taraqqiyotida tutgan o'rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Samarqand shahri hududi va uning atrofida muster davri yani o'rta paleolit jamoalarining vorislari, yashagan so'ngi paleolit izlari Samarqand, Siobcha va Xojamazgil makonlaridagina iborat bo'lmasdan bu davr jamoalari keng qamrov hududda yashaganligidan dalolat beruvchi malumotlar qo'lga kiritildi. Xususan Yuqorida eslatilgan Dahbet ko'chasi atrofida, Registon maydonida,





Afrosiyobning shimoliy sharqiy hududlarida, 1966 yili Ohalik qo'rg'onlari atrofida, Sazag'on qishlog'i yaqinida va boshqa joylarda olib borilgan kuzatuv va tadqiqot davomida muster ashyolari bilan bir vaqtda so'ngi paleolit ashyolari topilganligi bu fikrlarni tasdiqlaydi. Samarqand makoni haqidagi dastlabki malumotlar 30- yillarning oxirlaridan ma'lum. 2- jahon urushi tashvishlari tufayli bu yodgorlik 1958- yilgacha o'rganilmasdan keldi. Ya.G'.G'ulomov hamda V.A.Shishkinlarning qo'llab – quvatlashi tufayli yodgorlikni o'rganilish ishlari dastlab D.N.Lev, so'ngra 1970 yilga qadar uning shogirdlari tomonidan mutassil amalga oshirildi. So'ngi yillardagi tadqiqot ishlarida N.X.Toshkenboyev, R.X.Sulaymonovlar ishtirok etdilar. Ko'p yillik tadqiqotlar tufayli makonning ko'p qatlamli va manbalarga boyligi, hamda uning asl madaniyati Yuksakligi aniqlandi. Makondan 8 mingga yaqin chaqmoqtosh ashyolari topilib, aksariyati xilma- xil mehnat qurollaridan iboratdir. Bu yerda O'rta Osiyoda dastlab so'nggi paleolit odam qoldiqlari topib o'rganilgan. Topilgan, jumladan, suyakdan, dengiz chig'anoqlaridan, toshdan yasalgan ziynat buYumlari, taqinchoqlar, qiziqarli san'at asarlarini o'z ichiga oladi. Samarqand so'nggi paleolit makoni industriyasi birinchi marta instrumental taxlil qilindi. Uni analitik tadqiq qilishda yetakchi olimlardan G.F.Korobkova va V.M.Massonlar hamkorlik qilishib, makon jamoalarining davriga nisbatan Yuqori madaniyatga erishganligini va bu makonning Markaziy Osiyoda tayanch yodgorlik ekanligi haqida yangi xulosalar olindi. Samarqand makonining sanasi haqida fanda turli mulohazalar mavjud bo'lib, paleolit davrining eng so'nggi bosqichlariga doirligi e'tirof qilinadi. (Ranov, Nesmyanov,1973; Djurakulov, 1987, Djurakulov, Korobkova, 2000, b. 285-462). Yangi ilmiy texnologik asosda o'rganilish tufayli olingan ma'lumotlar yodgorlikning so'nggi paleolitning rivojlangan davriga doirligi va uning sanasi 35-25 ming yillarga tengligi haqida yangi xulosalar qilindi. Ko'p ma'dan qatlamlarga ega bo'lgan bu makon hududidan topilgan chaqmoqtosh ustahonasi xilma- xil tosh qurollar ona urug'i tizimi shakllanish taraqqiyoti darajasida turgan bu jamoalarda turmush bilan bog'liq mehnat taqsimotlarining bir muncha rivojlanganligini ko'rsatadi. Makon qatlamlarida topilgan gulxan, o'choq, kapa- chayla qoldiqlari, qizil bo'yoq kabilarning topilishi ham qiziqarlidir. Turmush tarzi ozuqabop terim- termachilik va ovchilikdan iborat bo'lgan bu jamoalar bug'u – yirik ot, tuya, to'ng'iz, buqa kabi yovvoyi jonivorlarni ov qilishgan ekan. Makondan topilgan mehnat qurollari majmuasi tarkibida xar – xil qirg'ichlar, randalar, pichoqsimon buYumlar, iskana, qayroq qurollar kabilar ko'p bo'lib, ularning








yasalishida qo'llanilgan texnik uslub Yuqori bo'lishi bilan bir vaqtda mustye davri yodgorliklari bo'lgan Qo'tirbuloq, Teshik- Tosh, Zirabuloq madaniyati an'analarining ayrim xususiyatlarini eslatadi. Samarqand paleolit makoni manbalarini o'rganish bilan mamlakatimiz sarhadlarida bundan 35-30 ming yillar avval yashagan jamoalarining turmush tarzi, aloqalari va ma'naviy madaniyati haqida analetik xulosalar qilishda bu manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qiziqarli va tayanch yodgorlik haqida maxsus asarlar e'lon qilingan.

1969- yilda Samarqand shaxrining g'arbiy qismidan o'tadigan Chashma- Siob daryochasining Siob bilan tutashgan qirg'og'idan paleolit davriga oid dastlabki topilmalar qo'lga kiritilgan edi. Keyinchalik arxeolog N.Toshkenboyev bu joyda tadqiqot ishlari olib borib so'ngi paleolit davriga oid makon mavjudligini aniqlab, tekshirish natijasida ko'plab arxeologik manbalarni qo'lga kiritishga erishdi. So'ngi yillarda qurilish bilan bog'liq ishlar davomida makonning bir qismi buzulganligi ma'lum bo'ldi. Makoning bir qismida saqlangan yer qatlamining 2,8–3 metr chuqurlikdagi yotqiziqda buzilmagan ma'dan qatlami o'rganildi. Topilgan mexnat qurollari xususan, qirg'ich, tosh pichoqlar, nayzasimon asboblar, randa va boshqa buYumlar xamda toshni parchalashda hosil bo'lgan o'zaklar, ular uchun ishlatilgan texnologik usullar esa Samarqand paleolit makoni madaniyatiga yaqinligidan guvohlik beradi. [Холматов,1991.Б.4-32]

